

O'ZBEKISTON TARIXI

II kitob



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

B.J. Eshov, A.A. Odilov

O'ZBEKISTON TARIXI

II kitob

(XIV asr o'rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha)

**Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari
uchun darslik**

**Ta'lim yo'nalishi: 5120300 – Tarix (jahon
mamlakatlari bo'yicha)**

**TOSHKENT
«DONISHMAND ZIYOSI»
2020**

UO'K 615.2

KBK 52.81

C 77

Mas'ul muharrir:

G.A. Agzamova – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchi:

O. Bo'riyev – tarix fanlari doktori, professor,

R.E. Xoliqova – tarix fanlari doktori, professor.

Oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari (5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)) talabalari uchun mo'ljallangan ushbu «O'zbekiston tarixi» darsligining II kitobi mamlakat tarixining XIV asr o'rtalaridan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan. Mazkur darslik mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning umume'tirof etilgan natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarning joriy etilganligi bilan ilgari o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

ISBN 978-9943-5686-5-5

© B.J. Eshov, A.A. Odilov, 2020


© «Donishmand ziyosi» nashriyoti, 2020

KIRISH

Jahonning turli hududlarida yashovchi millatlar, xalqlar va elatlar har doim o'zlarining kelib chiqishi, tarixi hamda madaniyati, rivojlaniish bosqichlari, bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni anglashga intilib kelishgan. Bu jarayon bevosita o'zbek xalqi tarixiga ham tegishli bo'lib, bugungi kunda u dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, o'tmish saboqlaridan tegishli xulosa chiqarish, millat, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, qolaversa o'zlikni anglashda tarix fanining o'rni beqiyos.

Ta'kidlash joizki, qadimgi davrdan boshlab tarixni o'rganishga katta e'tibor berib kelingan. Chunonchi, qadimgi davr, o'rta asrlardagi hukmdorlar o'z saroylarida muarrixlarni jamlab, harbiy yurishlar va tinchlik davrlarida bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni ularning asarlari orqali tarix zarvaraqlarida qoldirishgan. Bu borada XV asrda yashab ijod etgan mashhur muarrix Mirxond (1433–1498) o'zining «Ravzat us-safo» asarining maxsus faslini tarix ilmiga bag'ishlagani ham bejiz emas¹. Xususan, u «aql o'z egalari-ga ma'lum bo'ldimi, olam ahvolini aql bilan oxirigacha bilib bo'lmaydi. Va ham bashariyat ahvolidan dunyoning holatini mushohada etib, uning xayr-u sharri (yaxshi-yomonligi)ni muoyana etib xabardor bo'lsa ham, olam va odamlar avzo-yu atvorini taammul tariqasida xabardorga asoslangan tarix ilmi ila o'rganadi. Boshqa biror ilm bunday ma'noga kafolat bermaydi», – deya ta'kidlagan edi. Bunday yuksak ahamiyatli fikr-mulohazalarning tasdig'i hozirgi kunga to'la namoyon bo'lmoqda.

¹ Taniqli muarrixning to'liq ismi – Mir Muhammad ibn Sayid Burhoniddin Hovandshoh ibn Kamoliddin Mahmud bo'lib, uning yetti jildidan iborat yuqorida nomi zikr etilgan «Ravzat us-safo» (to'liq nomi «Ravzat us-safo siyrat ul anbiyo val muluk val xulafu», ya'ni «Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai-holi haqida jannat bog'i») asari Alisher Navoiy ishorati bilan choplangan edi. Asarlar markalaramiz tarixiga oid ko'plab muhim ma'lumotlar mavjud.



O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng mamlakat tarixi, xalqimiz madaniy, ma'rifiy merosini chuqur hamda har tomonlama o'rganish uchun keng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratildi. Istiqloq sharofati ila o'tmish voqeligi, tarix faniga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, tarixiy ildizlari ming yilliklarga borib taqaluvchi, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yaratgan xalqimiz o'tmishini o'rganish, o'sib kelayotgan avlodni ana shu tarix ilmi bilan boyitish, ular ongida tarixiy xotiraga nisbatan katta ehtirom, g'urur ruhini yuksaltirish dolzarb masalalardan biridir.

Kelajak avlod, yoshlarga o'tmish voqeligini har tomonlama va chuqur o'rgatishning eng qulay vositasi ta'lim tizimida o'qitilayotgan «O'zbekiston tarixi» fani hisoblanadi. Shu bois ham mustaqillik yillarida o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim tizimida o'quvchi-talabalar uchun O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrlaridan bugungi kunga qadar bo'lgan davri bo'yicha ko'plab o'quv dasturlari, qo'llanma va darsliklar yaratilganligi shubhasiz. Shu bilan bir qatorda, «O'zbekiston tarixi» fanini o'qitishni zamonaviy asnoda tashkil etish, uning samaradorligini yanada oshirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, ilm-fandagi innovatsiyalarni tatbiq etish—hozirgi kun ta'lim tizimining muhim masalalaridan biridir. XXI asr zamonaviy taraqqiyot yo'lida ildam qadam tashlayotgan O'zbekiston uchun globallashuv davrida o'sib kelayotgan avlodlarni ma'naviyat va ma'rifat g'oyalari asnosida ulg'aytirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishini tashkil etmoqda. Mazkur g'oyalarni singdirishni esa faqat ma'naviyatning asosi bo'lgan tarix ilmi orqali amalga oshirish mumkin. Shuningdek, keyingi yillarda xalqimiz boy tarixiy o'tmishini manbalarga tayangan holda chuqur va har tomonlama o'rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning qator nutq va chiqishlari, jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi yalpi majlisida so'zlagan nutqida ham ma'rifatli inson ta'lim-tarbiyasida tarixiy o'tmish voqeligi muhim o'rin tutishi qayd etilgan edi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida so'zlagan nutqi. <http://uz.uz/oz/politics/O'zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.

Yuqorida qayd etilganidek, mustaqillik yillarida «O'zbekiston tarixi» fani bo'yicha ko'plab o'quv dasturlari, o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, texnologik xaritalar, ma'ruza matnlari, risolalar yaratilgan bo'lsa-da, ular asosan nomutaxassis yo'nalishdagi talabalar yoki tor doiradagi oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan edi. Mutaxassis talabalar, ya'ni, oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun eng qadimgi davrlardan to bugungi kunga qadar bo'lgan tariximizni qamrab oluvchi «O'zbekiston tarixi» darsligi hanuzgacha yaratilmagan. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining topshirig'i bilan O'zbekiston Milliy universitetining bir guruh tarixchi olimlari mutaxassis talabalar uchun bir necha jildlik «O'zbekiston tarixi» darsligini yaratishga kirishdilar.

O'quvchi e'tiboriga havola etilayotgan mazkur darslik ushbu ko'p jildlikning II jildi bo'lib, unda O'zbekiston tarixining XIV asr o'rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan davri o'z ifodasini topgan. Mualliflar yuqorida ta'kidlangan davr tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tegishli qismlarga bo'lib joylashtirishda avvalo, umume'tirof etilgan izchillik tamoyiliga qat'iy amal qildilar. Mavzular davriy ketma-ketlik tarzida bayon etildi. Mavzularni yoritishdan avval ilk bora qisqacha tarixshunoslik masalalariga to'xtalib o'tilgan. Darslik tarixiy voqelik va jarayonlarning kompleks hamda keng tarzdagi bayoni bilan ham katta ahamiyat kasb etadi. Unda Amir Temur davlati, Temuriylar hukmronligi davri, Shayboniylar, Ashtarxoniyalar, Buxoro amirligi, Xiva, Qo'qon xonliklari tarixiga oid ko'plab yangi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Darslik turli jadvallar, sxemalar va rasmlar bilan boyitilgan. Mavzularni yoritish jarayonida O'zbekiston tarixining rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davri bo'yicha sharqshunos va tarixchi olimlarning keyingi yillardagi tadqiqotlari – ilmiy ishlanmalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, yozma manbalar tarjimalari hamda ular umumlashtirilgan asarlardan, fandagi innovatsiyalardan keng foydalanilgan. Ushbu tadqiqotlarning umume'tirof etilgan xulosalari asosida tarixchi-talabalarga mo'ljallangan, zamon talablari hamda DTSlariga mos keladigan mazkur darslik yuzaga kelgan. Darslik oxirida berilgan glossariy izohli lug'at-atamalar shaklida berilgan.

Darslik yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar mualliflar tomonidan O'zMU tarix fakultetining O'zbekiston tarixi kafedrasida qabul qilinadi.

1-mavzu. AMIR TEMUR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI

Reja:

- 1.1. Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga oid manbalar.
- 1.2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat va buyuk saltanatning tashkil etilishi.
- 1.3. «Temur tuzuklari» – davlat boshqaruvi haqidagi muhim tarixiy manba.
- 1.4. Davlat boshqaruvi tizimi.
- 1.5. Amir Temur davrida harbiy sohaga e'tibor va harbiy mahoratning yuksalishi.
- 1.6. Amir Temur davlati diplomatiyasi.
- 1.7. Amir Temur ma'naviyati.
- 1.8. Amir Temur davridagi madaniy hayot.

1.1. Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga oid manbalar

Ta'kidlash joizki, jahon miqyosida ulkan iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud. Mazkur davrga oid ilk manbalardan biri bu fiqhshunos olim G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning «Ro'znomayi g'azovoti Hindiston» («Hindistonga yurish kundaligi») asaridir. Mazkur «Kundalik» o'zida Amir Temurning Hindistonga yurishi masalasini qamrab olgan bo'lib, u hukmdorning shaxsiy topshirig'iga ko'ra uning muallifi tomonidan 1399–1403-yillar oralig'ida yozilgan. Ushbu asarda Amir Temur harbiy yutuqlari, ushbu yutuqlarining mohiyati, buyuk sarkardaning harbiy strategiyasi va taktik uslublari, harbiy tuzilma, amir va bahodirlar faoliyati, ko'plab taniqli davlat va harbiy amaldorlari, turli jo'g'rofiy hudud, shaharlar to'g'risida qi-

ziqarli ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, asardagi maxsus bobda Amir Temurning hokimiyatga kelishi, uning harbiy yurishlari, xususan Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron, Ozarbayjon yerlarining tobe bo'lishi masalalari ham yoritilgan. Asar L.A. Zimin tomonidan nashrga tayyorlanib, 1915-yili V.V. Bartold tahriri va kirish so'zi bilan nashr etilgan. Ushbu asar shuningdek, 1958-yili sharqshunos olim A.A. Semyonov tomonidan fors tilidan ruschaga tarjima qilinib, kitob holida chop etilgan.



Sohibqiron Amir Temur
(1336-1405)

Amir Temur davri tarixiga oid yana bir muhim tarixiy manba Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asari hisoblanadi. Mazkur kitob muallifi Nizomiddin Shomiy asli Tabrizdan bo'lib, keyinchalik Bag'dodda yashagan. U Amir Temur saroyi tarixchisi sifatida ham nom chiqargan edi. 1401-yili Nizomiddin Shomiy Temurdan saltanat tarixini tushunarli, ommaga yetib boradigan tartibda bayon etuvchi tarixiy asar yozish to'g'risida topshiriq oladi. «Zafarnoma» asari bizning davrimizga qadar ikki tahrirda yetib kelgan. Undagi voqealar tafsiloti 1404-yilning oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Kitob muallifi uni tayyorlashda ko'plab og'zaki va yozma manbalar, tegishli kundaliklardan foydalangan. 1937-yili F. Tauer tomonidan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarining forscha matni nashr etilgan.

Kitobdagi ayrim qismlar 1972-yili rus tilida Yu.E. Bregel tomonidan tarjima qilingan. Mazkur asar ilk bora 1996-yili Yu. Hakimjonov tarjimai ostida o'zbek tilida chop etilgan.

Qayd etish lozimki, Amir Temur davri tarixini yoritishda shubhasiz, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari katta o'rin egallaydi. Asar Amir Temurning harbiy yurishlari tarixiga yakun yasaydi. Rus sharqshunos olimi V.V. Bartold uni: «Ko'p nusxalarda saqlangan,

jamoatchilik o'rtasida keng tarqalgan holda keyingi tarixchilarga o'z ta'sirini o'tkazgan», deya ta'riflagan edi. Shoir va tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy Iroqdagi Yazd shahridan bo'lib, Shohrux Mirzoning o'g'li, Fors viloyati hokimi Sulton Ibrohim Mirzo saroyida xizmatda bo'ladi. Ma'lum hayotiy qiyinchiliklar bois keyinchalik Samarqandda yashaydi, umrining oxirlarida esa qadrdon shahriga qaytib keladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy Yazd yaqinidagi Taft qishlog'ida yosh Alisher Navoiy bilan uchrashganligi tarixda yaxshi ma'lum. Muarrix 1454-yili vafot etgan. Ta'kidlash joizki, tarixchining «Zafarnoma»dan boshqa asarlari ham mavjud. Tarixchi «Zafarnoma»ni «Sohibqiron fathnomasi» yoki «Jahongir tarixi» deb ham nomlagan. «Zafarnoma» Fors hokimi temuriy shahzoda Sulton Ibrohim Mirzo topshirig'i bilan 1425-yili yozib tamomlangan. Asarning kirish qismida Amir Temurning nasl-nasabi, Chingizxon bosqinidan boshlab o'z davrigacha bo'lgan qator voqealar tafsiloti berilgan. Yazdiy Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»sidan, hukmdorga hamroh bo'lgan fors va uyg'ur mirzalarning yozuvlaridan, zamondoshlari, harbiylar xotiralaridan unumli foydalangan. Yazdining «Zafarnoma»si avvalgi Shomiyning «Zafarnoma»sidan o'zining keng ko'lamliligi va voqealarga boyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, Kuchkunchixon (1512–1530) topshirig'i bilan «Zafarnoma» Muhammad Ali ibn Darvish Ali Buxoriy tomonidan hamda 1826-yili Xivada xon vaziri topshirig'iga asosan o'zbek tiliga o'girilgan. «Zafarnoma»ning fors tilidan ingliz va fransuz tillaridagi tarjimasi 1722–1723-yillarda nashr etilgan. Kitob 1885–1888-yillarda Kalkuttada yana bir tarjima asosida chop etilgan. Asar rus tiliga 1836-yili tarjima qilinib, Sankt-Peterburgda kitob shaklida nashr qilingan.

«Zafarnoma» Ashtarxoniy hukmdor Imomqulixon (1611–1642) davrida yuqori sifatli darajadagi nusxada chop etilgan. Kitobning o'zbek tilidagi nashri avval 1972, so'ngra 1997-yillari sharqshunos olim A.O'rinboyev tarjimasi va tahriri ostida nashr qilingan. Ushbu tarixiy manba o'z qiymati bo'yicha yuqori bahoga loyiq bo'lib, keyinchalik ingliz, fransuz, turk va boshqa tillarda ham dunyo yuzini ko'rgan. «Zafarnoma» matni mashhur shoir Lutfiy (1465-y. vafet.) va Xotifiylar (1521-y. vafet.) tomonidan she'riy uslubda ham bayon etilgan. Alisher Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» asarida Sharafiddin Ali Yazdiy

qalamiga mansub «Zafarnoma»ni yuqori uslubda yozilgan mukammal asarlar qatoriga kiritgan.

Temuriylar davri tarixini o'z ichiga qamrab olgan muhim manbalardan yana biri tarixchi va geograf Hofizi Abru (Shahobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al-Haraviy) qalamiga mansub asar hisoblanadi (1430-y. vaf.). Hofizi Abru hukmdor saroyiga yaqin shaxs bo'lib, Amir Temurni chet el yurishlarida ham qatnashgan. U ko'plab sharq mamlakatlari va o'lkalarda bo'lgan. Keyinchalik, Amir Temur vafotidan so'ng Shohrux Mirzo (1409–1447) saroyida xizmat qilgan. Uning «Zubdat at-tavorix» («Solnomalar qaymog'i») asari o'z ichiga «dunyo yaratilganligidan» to 1427-yilgacha bo'lgan tarixiy davrni qamrab oladi. U o'z asariga Nizomiddin Shomiy asari matnlarini ham kiritgan. Undagi qator ma'lumotlar aynan shu asarda o'z aksini topgan. Masalan, Amir Temurning Samarqand yaqinidagi sug'orish ishlarining amalga oshirilishi, Sohirqironning so'nggi kunlari haqidagi ma'lumotlar aynan shu asarda bayon etilgan. Keyinchalik Abdurazzoq Samarqandiy ham bu asardan bevosita foydalanganligi asarning yuqori qiymatga ega ekanligidan darak beradi.

Asarning to'liq nomi «Zubdat at-tavorixi Boysung'uriy» («Boysung'ur tarixlari sarasi») deb nomlanib, uning birinchi qismi Amir Temur davriga, ikkinchi qismi Shohrux Mirzo davriga bag'ishlangan. Asar nomidan ham ko'rinib turibdiki, kitob muallifi ma'rifatparvar shahzoda, Shohruxning o'g'li G'iyosiddin Boysung'ur Mirzo (1397–1433) homiyligidan bevosita bahramand bo'lgan.

Amir Temur va Shohruxning zamondoshi bo'lgan Xoja Tojiddin as-Salmoniyning «Zayli Zafarnoma» yoki «Tarixnomayi Salmoniy» asari 1410-yili Shohrux Mirzoning topshirig'iga ko'ra yozilgan. U o'z ichiga 1409-yilgacha bo'lgan tarixiy davrni qamrab oladi. Ta'kidlash lozimki, Amir Temur to'g'risidagi ma'lumotlar asarda ko'p emas, lekin hukmdor vafotidan keyingi, xususan, 1405–1409-yillar voqeligi unda batafsil aks etgan. Asar 1956-yili G.R. Remer tomonidan nemis tiliga, 1991-yili mashhur ozarbayjonlik sharqshunos olim Z.M. Bunyodov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

Amir Temur davri va undan keyingi qisqa vaqtdagi tarixiy jara-yonlar bayon etilgan yana bir asar Muiniddin Natanziyning «Muntaxab ut-tavorixi Muiniy» kitobi hisoblanadi. Asar muallifi asli Isfahon

yaqinidagi Natanz shahridan bo'lib, keyinchalik temuriy shahzodalardan biri, fors hokimi, Umarshayx Mirzoning o'g'li Sulton Iskandar Mirzo (1384–1415) homiyligi ostida yuqorida nomi qayd etilgan asarni yozgan. Shuni aytish joizki, Sulton Iskandar Mirzo o'zining sakkiz yillik hukmronligi davrida ilm-fan, ma'rifat, madaniyat sohalari rivojiga yetarli darajada hissa qo'shgan.

Alisher Navoiy o'zining «Majolisun nafois» asarida yuqorida nomi qayd etilgan shahzoda faoliyati, uning madaniyat ahliga ko'rsatgan homiyligiga yuqori baho bergan edi. Shu bois Natanziy ham o'z asarini ushbu ma'rifatparvar shahzodaga bag'ishlagani ham bejiz emas. Asarda XIV asr o'rtalaridan to XV asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot tavsifi yoritib berilgan. Ushbu asarning to'liq matni 1957-yili sharqshunos J.Oben tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan. Uning ma'lum qismlari rus, ingliz va boshqa tillarga ham o'g'irilgan. Asar o'zbek tiliga 2011-yili G'.Karimiy tomonidan tarjima qilinib, kitob holida chop etildi.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur va Temuriylar davri tarixini yoritishda Abdurazzoq Samarqandiyning alohida o'rni bor. Muallifning to'liq ismi Kamoliddin Abdurazzoq bin Jamoliddin Is'hoq as-Samarqandiy bo'lib, u 1413–1482-yillarda yashab, ijod qilgan davlat arbobi, diplomat va tarixchi olimdir.

Muarrixning «Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn» asari («Ikki baxtiyor yulduzning balqishi va ikki dengizning qo'shilishi») fors tilida yozilgan bo'lib, Ali Yazdiy asaridan so'ng Temuriylar saltanati tarixi haqida eng batafsil ma'lumot beruvchi asar hisoblanadi. Abdurazzoq Samarqandiy Hirotida tug'ilib, shu yerda vafot etgan bo'lsa ham, otabobolari asli samarqandlik bo'lgani bois o'ziga shu nisba sharifini olgan. Uning otasi Shohrux saroyida qozi va imom lavozimida bo'lgan, o'zi ham keyinchalik Shohrux Mirzo saroyida xizmat qilib, elchilik maqomida Hindistonda ham bo'lib qaytgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning asari 1304-yildan to 1470-yilgacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi. Abdurazzoq Samarqandiy Shohrux Mirzo vafotidan so'ng Abusaid Mirzo va boshqalar xizmatida bo'lgan. U 1463-yili Hirotida bir vaqtlar Shohrux Mirzo tomonidan qurilgan so'fiylar xonaqohiga shayx etib tayinlangan. Muallif o'z asarini yozish chog'ida Hofizi Abru, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlaridan

unumli tarzda foydalangan. Kitobdagi voqealar garchi 1470-yil voqeligi bilan tugallansa-da, lekin muallif undan keyin ham asarga qator o'zgartirishlar kiritgan. Kitobdagi ko'plab voqelik tafsilotlari boshqa manbalarda uchramaydi. Mazkur asar 1969, 2008-yillarda sharqshunos olim A.O'rinboyev tarjimasida o'zbek tilida chop etilgan.

Fasih Ahmad Havofiy (1375–1442) (Hofiy)ning «Mujmali Fasihiy» asari 1442-yilda yozib tugallangan bo'lib, unda «dunyo yaratilganligidan» to u yozib tugallangunga qadar bo'lgan asosiy tarixiy voqeliklar mujassam etilgan. «Mujmali Fasihiy» («Fasih jamlanmasi») 1980-yili sharqshunos olim D.Yu. Yusupova tomonidan fors tilidan rus tiliga tarjima qilinib, kitob holida chop etilgan. Asar o'z davri uchun ko'plab qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Amir Temur Damashqni olish vaqtida shaharni unga topshirish uchun kelgan bir guruh kishilar orasida arab tarixchisi Abdurahmon Abu Zayd ibn Xaldun (1332–1406) ham bor edi. Mazkur shaxs musulmon sharqida ibn Xaldun nomli muarrix nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan. Tarixchi buyuk sarkarda bilan shaxsan suhbat qilish baxtiga muyassar bo'lgan. U Amir Temurning aqliy salohiyati va fikrlash qobiliyatiga yuksak baho bergan. Uning «Kitob al-ibor» («Yaratuvchilik namunalari kitobi») nomli asari o'z ko'lami va mohiyatiga ko'ra ko'plab tarixiy voqeliklarni o'zida jam etadi. Amir Temur ibn Xaldunni tarixni chuqur bilishi bilan rom etgan. Xususan, Temur tarixchi bilan suhbatda mashhur muarrix at-Tabariy (X asr) qarashlariga uning munosabatini bilmoqchi bo'ldi. Shuningdek, Amir Temur Mag'rib o'lkalari haqida ham ma'lumot berishni so'raydi. Bu esa buyuk hukmdorning tarix ilmini qanchalik chuqur bilishini namoyon etadi.

Amir Temur davri tarixiga oid yana bir manba Sohirqiron zamon-doshi ibn Arabshohning (to'liq ismi Shahobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim – 1389–1450) «Ajoyib al-maqdur fi axbor Amir Temur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomli asari hisoblanadi.

Asli damashqlik bo'lgan ibn Arabshoh 12 yasharligida oila a'zolari bilan Samarqandga kelgan. U Samarqandda 1401–1408-yillar mobaynida yashab, avval Amir Temur, keyin boshqa temuriy shahzodalar homiyligi ostida ilm saboqlarini olgan, bir necha sharq tillarini o'rgangan. 1408-yildan keyin esa ko'plab o'lkalarda sayohatda bo'lgan, umrining

oxirlarida Qohirada yashab, o'sha yerda vafot etgan. Ibn Arabshoh o'zining yuqorida nomi zikr etilgan asarida Amir Temur davlati va unga qo'shni davlatlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotiga oid ko'plab ma'lumotlarni keltiradi. Garchi ibn Arabshoh ko'p holda buyuk hukmdorga nisbatan salbiy munosabatda bo'lsa-da, lekin Amir Temur faoliyatiga tan bergan joylarini asarda ko'plab uchratish mumkin.

Xususan, ibn Arabshoh Amir Temur shaxsiga to'xtalib, Sohibqiron ma'lum yoshga borgan bo'lsa-da, jismoniy va ruhiy jihatdan qat'iyatligi, baxtli damlarda va g'am-tashvishda o'zini yo'qotmasligi, shijoatli va jasurligi, botir va dovyurak kishilarni yoqtirishi, haqni nohaqdan ajrata bilishi, xolislik va g'irromlikni qat'iy farqlay olish fazilatlarini alohida ta'kidlagan. Shuningdek, asarda xalq ommasining ijtimoiy hayotdan ajralmaganligi, katta tantana va marosimlarda aholi cheklovlersiz ishtirok etganligini ham qayd etadi. Shubhasiz, o'rta asrlar sharoitida bunday holatni taraqqiyparvar ko'rinish deb baholash ayni haqiqat bo'lur edi. Asar golland, ingliz, fransuz, rus tillariga ham tarjima qilingan. O'zbek tiliga esa 1992-yili sharqshunos olim U.Uvatov tomonidan tarjima qilindi.

Chingizxon va Amir Temur avlodlari shajaralariga bag'ishlangan «Mu'izz ul-ansob» («Shon-sharaffi shajara») asari ustidagi ish dastlab 1426-yili Shohruh Mirzo buyrug'iga ko'ra noma'lum muallif tomonidan yozila boshlangan edi. Keyingi Temuriylar hukmronligi davrida u to'latilib, unga oxirgi qo'shimchalar Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506) davrida amalga oshirilgan. Asarning Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxasidan amalga oshirilgan ruscha tarjimasi 2006-yili Sh.H. Vohidov tomonidan asl matni faksimilesi bilan birgalikda nashr etildi.

Amir Temur davri tarixi bo'yicha yana bir qimmatli manba bu – ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406-yillar)» asari hisoblanadi.

Klavixo Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390–1407) topshirig'i bilan elchilik maqomida Amir Temur davlatiga tashrif buyurgan. Mazkur asarning katta qismi Kadiks yaqinidagi Avliyo Mariya portidan to Amir Temur saltanati poytaxti Samarqandga qilgan sayohatini yorqin bo'yoqlarda tasvirlashga bag'ishlangan.

Klavixo elchilik guruhi shu maqomdagi ikkinchi elchilik xizmati bo'lib, undan avvalroq 1402-yili yozida Amir Temur huzurida Ispaniya-

ning (Kastiliya va Leon) birinchi elchilari – Payo de Sotomayor va Ernan Sanches Palasueñoslar bo'lishgandi. Klavixox elchilik guruhi 13 kishidan iborat bo'lib, ular 1404-yil avgust oyi oxirlarida Samarqandga kirib kelishgan. 8-sentabr kuni esa hukmdor qabulida bo'lishgan. Elchilar 21-noyabr kuni o'z vatanlariga qaytib ketishgan. Klavixox o'z kundaligida Amir Temur davlati, uning qarorgohi, saroy qabullari, etnografik kuzatuvlar, hukmdor oila a'zolari, savdo munosabatlari, xalq turmush tarzi, Yaqin va O'rta Sharq o'lkalari haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarni yozib qoldirdi¹.

Klavixoxning ushbu asari ko'plab qiziqishlarga sabab bo'lgan. U ilk marta 1582-yili Sevilyada (Ispaniya) «Buyuk Temurlang tarixi» nomi bilan, o'sha yili Madridda (Ispaniya) «Ulug' Temurning hayoti va faoliyati» nomi ostida chop etiladi. 1943-yili ispan tilida yana bir marta chop etilgan. Kitob 1859-yili ingliz, 1881-yili rus tillarida dunyo yuzini ko'radi. 1928-yili ingliz tilida qayta nashr etilgan. 1990-yili asar rus tilida qayta chop etildi. Klavixoxning ushbu mashhur asari prof. O.Tog'ayev tarjimasi ostida avval «San'at» jurnalining 1988–1990-yillardagi sonlarida chop etilgan edi. Kitob holida o'zbek kitobxonlari uni 2010-yili o'z ona tillarida o'qishga muyassar bo'lishdi.

Yevropaliklarga Amir Temur davlati xususida xabar bergan yana bir shaxs bu – bavariyalik dvoryanin yarog'bardori Iohann (Gans) Shiltberg (Shilrdburger) (1382–1440) hisoblanadi. U 1396-yili Nikopoldagi jangda turk sultoni Boyazid Yildirim tomonidan asir olinib, keyinchalik uning qo'shinida xizmat qilgan. 1402-yili Anqara ostonasidagi jangda Amir Temur qo'shiniga asir tushadi. Avval Samarqandda, keyinchalik Oltin O'rdaga jo'natiladi. Taqdiri ancha murakkab bo'lgan bu yarog'bardor faqatgina 31-yildan so'ng, ya'ni 1427-yili o'z vataniga qaytishga muyassar bo'ladi. Uning «Myunxenlik Shiltbergerning asirga tushishi va qaytib kelishi haqida g'aroyib qissa» deb nomlangan asari 60 ta hikoyadan iborat bo'lib, uning 10 tasi Markaziy Osiyoga bag'ishlanadi.

Shuningdek, arxiyepiskop Ioann (Jon) Sunaniyskiy Fransiya qirolining Sohibqiron huzuriga yuborgan elchisi sifatidagi esdalik-yodnomasi, misrlik tarixchi ibn Tangiberdining «Al-Nujum az-zaxira» nomli

¹ Shu bilan birga muallif Amir Temur tarjimayi holi, uning tarixi, harbiy va siyosiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni ham yozadi.

asari, arman tarixchisi Metotsepi Tomaning «Temur va uning avlodlari» nomli asari hamda boshqa sharq va g'arb tarixchilari asarlarida shu davrga oid turli talqindagi, ta'kidlash joizki, ba'zan noxolis munosabatdagi fikr-mulohazalar ham uchraydi. Rusda XV asrda paydo bo'lgan «Povest o Temur-Aksake» («Temur oqsoq haqida qissa») og'zaki xabarlar asosida jamlangan bo'lib, garchi tarixiy voqealiklar unga asos qilib olingan bo'lsa ham u yarim afsonaviy tusda yaratilgan. Eronlik tarixchilar Mahmud Zangi Kirmoniyning nazm uslubidagi «Jo'shu Xurush», Sa'dulloh Kirmoniyning «Futuhoti Mironshohiy», Muhammad ibn Fazlulloh Musaviyning «Tarixi xayrot», Sayid Ja'far bin Muhammad Husayniy Ja'fariyning «Tarixi Tabariston va Ruyon va Mozandaron», Aziz ibn Ardasher Astrobodyning «Bazm-u razm» asarlarida ham Amir Temur faoliyatiga oid ma'lumotlar uchraydi.

Ta'kidlash joizki, XV asr ikkinchi yarmida garchi Amir Temurga zamondosh bo'lmasa-da, u xususta oldingi avlod vakillari, tarixnavislar kitoblari orqali tanish bo'lgan mualliflarning ham qator qimmatli asarlari yuzaga keldi. Ular orasida mashhur muarrix Mirxond (Mir Muhammad ibn Sayid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoliddin Mahmud)ning (1433–1498) «Razvat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk va-l xulafo» («Payg'ambarlar, podsholar, xalifalar hayotiga oid poklik bog'lari»), Davlatshoh Samarqandiyning (1435–1495) «Tazkirat ush-shuaro» («Shoiralar tazkisasi»), Muarrix G'iyosiddin Xondamirning (1476–1536) «Habib as-siyar fi axbor va afrad al-bashar» («Alohida olingan shaxslar xabari va hayot faoliyatining do'sti») kabi asarlari va boshqalarda ham ko'plab e'tiborga molik qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

1.2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat va buyuk saltanatning tashkil etilishi

Mustaqillik yillarida tarix fanida yuz bergan muhim ijobiy o'zgarishlardan biri – xalqimiz milliy qahramoni, mustabid sovet hukmronligi davrida nohaq qoralangan Amir Temur nomining oqlanishi bo'ldi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I. Karimovning tashabbusi bilan Sohibqironning millat va davlat ravnaqidagi buyuk xizmatlari e'tirof etilgan holda uning 660 yilligi 1996-yili xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda Amir Temur shaxsiga bo'lgan

munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi, uning davlati, ichki va tashqi siyosat, Temuriylar hukmronligi xususida ko'plab ahamiyatga molik tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda 1996-yil – «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi, «Amir Temur» xalqaro jamg'armasi tashkil etildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi, «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi, YUNESKO tashabbusi bilan 1996-yil aprelda Parijda xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi, «Temur tuzuklari» o'zbek va qator chet tillarda nashr etildi va hokazo. Shubhasiz, tarixiy haqiqatni qaror toptirish ishiga tarixchi olimlar ham o'z munosib hissalarini qo'shib kelishmoqda. Xususan B.Ahmedov, A.O'rinboyev, D.Yusupova, U.Uvatov, A.Muhammadjonov, A.Ahmedov, O.Bo'riyev va boshqa ko'plab olimlar tomonidan qator tarixiy manbalar tarjima qilindi, e'tiborga molik tadqiqot ishlari amalga oshirildi: jumladan, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Ahmad Havofiy, G'iyosiddin Xondamir asarlari qayta chop etildi. A.Ziyo, H.Boboyev, S.Xidirov, Sh.O'ljayeva, D.Obidjonova, A.A.To'laganov, X.Mamatov, X.Fayziyev, B.Usmonov, O.Rahmatul-layeva kabi tadqiqotchilar esa o'z izlanishlarida mavzu bilan bog'liq ko'plab tarixiy va huquqiy jihatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ldilar. Amir Temur va Temuriylar tarixi mavzusi esa darslik va qo'llanmalarda xolisona tarzda o'z aksini topdi.

Amir Temur va Temuriylar tarixi nafaqat respublikamizda, balki jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Amir Temur haqida mashhur ingliz shoiri va dramaturgi K.Marlou 1588-yili tarixiy pyesa, mashhur nemis bastakori G.Gendel 1724-yili opera, amerikalik adib E.Po 1827-yili she'riy poema yaratgan. XX asr xorij tarixshunosligida R.Grosse, L.Keren, Ye.Rose, X.Xukxem, F.Mans, G.Glombek, A.Deraga, K.Yenoki, Ye.Manau, M.Rossati va boshqalarning tadqiqot ishlari katta shuhrat qozongan.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2000-yilga kelib Yevropa xalqlari tillarida Amir Temur va Temuriylar haqida chop etilgan asarlar soni 700 dan ziyodni, sharq tillarida esa 900 dan ortiqni tashkil etdi. 2006-yili Amir Temurning xalqaro miqyosda nishonlangan 670-yillik tavallud ayyomi arafasida taniqli fransuz olimi L.Keren Parijda fransuz tilida

«Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat» nomli tadqiqotni amalga oshirdi. Hozirda jahonning 50 dan ziyod mamlakatida Amir Temur faoliyatiga oid asarlar chop etilgan. Bu, o'z navbatida, jahon ahli, keng ilmiy jamoatchilikning Amir Temur va Temuriylar tarixiga bo'lgan ulkan qiziqishi va nufuzidan dalolat beradi.

XIV asrning 40-50-yillariga kelib Chig'atoy ulusi hududlarida o'zaro parokandalik va o'zboshimchalik hukm surar edi. XIV asrning 40-yillariga mavjud sulolalar o'rtasidagi nizo-fitnalar, o'zaro urushlar natijasida Chig'atoy ulusida og'ir siyosiy va iqtisodiy ahvol yuzaga kelgandi. Mo'g'ul xoni Qozonxon hukmronligi davrida (1338–1346) mamlakatda zulm-zo'ravonlik yanada avj oldi. Xon zulmidan bezgan ko'plab amaldor, zodagonlar o'z davrining qudratli amiri Qazag'anning huzuriga Soli Saroy (hozirgi Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Saroy qishlog'i)ga qochib o'ta boshladilar. O'rtadagi ixtiloflar va kelishmovchiliklar tez orada hal qiluvchi to'qnashuv bo'lishidan darak berar edi.

Qarshi yaqinida Amir Qazag'an va Qozonxon o'rtasida bo'lib o'tgan jang 1346-yil bahorida Qazag'anning g'alabasi bilan tugaydi. Jangda Qozonxon o'ldiriladi. Amir Qazag'an esa turkiy-mo'g'ul odatiga ko'ra bevosita chingiziylardan bo'lmagani uchun taxtga da'vo qila olmas edi. Shu bois u o'ziga ma'qul bo'lgan chingiziylar xonadonidan bo'lgan avval Donishmandchaxonni (1346–1348), so'ngra Bayonqulixonni (1348–1357) taxtga o'tkazadi. Tabiiyki, amalda butun hokimiyatni amir Qazag'an o'z qo'lida mujassam etgan edi. 1358-yil qishida amir Qazag'anning kuchayib borayotgan faoliyatidan norozi bo'lgan bir guruh fitnachilar uni o'ldirishadi. Amir Qazag'anning o'g'li amir Abdulla garchi tez orada Bayonqulixonni jangda o'ldirsa-da, lekin hokimiyatni qo'lida tutib tutolmaydi. U tez orada Amudaryo ortiga qochib o'tib, siyosat sahnasini tark etadi.

Hisor hokimi Bayon suldus va Kesh (Shahrisabz) hokimi Hoji Barlos tomonidan taxtga chingiziylardan bo'lgan Temurshoh o'tkaziladi.

Chig'atoy xoni Temurshoh ikki yilga yaqin (1358–1359) hukmronlik qiladi. Shundan so'ng o'zlarini anchadan beri mustaqil tutayotgan bekliklar rasman shu darajaga da'vogar bo'lib chiqa boshlaydilar. Chig'atoy ulusi mayda bekliklarga bo'linib ketadi. Keshda Hoji Barlos o'zini mustaqil deb e'lon qilgach, Xo'jandda Boyazid Jaloyir, Balxda


O'ljoy Bug'o suldus, Shiburg'onda Muhammadxo'ja Apverdi nayman, Xuttalon va Arhang saroyda amir Kayxusrav va O'ljoy Apverdi, Totkand va Saripulda Xizr Yasavuriy, Ko'histonda amir Sotilmishlar ham o'zlarini mustaqil hokimlar deb e'lon qiladilar. Mamlakatda ayirmachilik harakati kuchayib, hokimiyat, boylik yo'lida beklar o'zaro kurashlar domiga tortiladilar. Bu urushlar shundoq ham ahvoli nochor bo'lgan aholi boshiga ko'plab kulfatlarni yog'diradi. Shunday og'ir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tanglik hukm surayotgan bir vaqtda siyosat maydoniga Amir Temur shaxsi kirib keldi.

Buyuk davlat arbobi va mahoratli sarkarda Amir Temur 1336-yil 9-aprelda (hijriy 736-yil, sha'bon oyining 25-kuni) Keshga qarashli Xo'ja Ilg'or (hozirgi Yakkabog' tumani) qishlog'ida barlos beklaridan biri bo'lgan Amir Tarag'ay ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Temurning onasi Takinaxotun Keshning obro'li bekalaridan biri bo'lib, u haqida manbalarda ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Shunday bo'lishiga qaramay, bu ayol o'z davrining zukko va dono ayollaridan biri bo'lgan, degan fikrni ilgari surish mumkin¹.

Temurning bolaligi va o'spirinlik yillari Keshda o'tdi. Ibn Arabshoh, Rui Gonzales de Klavixo va boshqalar 1360-yilga qadar uning hayotini ayrim ma'lumotlar bilan izohlashgan. Temur yoshligidan zehnli va layoqatli bola bo'lib, bir tomondan, uni otasi xat-savodga o'rgatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'spirin yigit qator harbiy san'at sirlaridan xabardor bo'ldi. Temur yoshligidan mard, shijoatli va olijanob yigit bo'lib o'sdi. Uning yuksak tashkilotchilik qobiliyati, yo'l boshchilik xususiyati o'sha paytdayoq namoyon bo'la boshlagan edi.

1360–1361-yillarda Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temur (1348–1363) Movarounnahr ichki hayotiga raxna sola boshlaydi. U ikki marotaba o'lkaga yurish qiladi. Tug'luq Temurning bosqinchilik yurishlari Movarounnahr hokimlarini sarosimaga solib qo'ydi. Shular qatoriga Kesh amiri Hoji Barlosni ham kiritish mumkin edi. Tug'luq Temur Xo'jandni ishg'ol etish niyatida Sirdaryodan o'tganidan so'ng, Movarounnahr amirlari, xususan, Hoji Barlos ham qo'rquvdan o'z jonlarini xalos etish uchun Amudaryodan o'tib, Xurosonga ketib qoladilar.

¹ Takinaxotun ba'zi tarixiy manbalarning ma'lumotiga ko'ra, buxorolik mashhur shayx Sadr ash-Sharianing qizi bo'lgan.



O'z hududini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilish maqsadida Temur Mo'g'uliston hukmdori xizmatiga o'tishiga to'g'ri keladi. Tug'luq Temur esa unga Kesh va uning atrofidagi yerlarni boshqarishni topshiradi.

1360–1370-yillarda Movarounnahr siyosiy hayotida Temur bilan bir qatorda ta'sir o'tkazgan shaxslardan yana biri bu Amir Qazag'anning nevarasi Amir Husayn edi. Ta'kidlash joizki, Balx va uning atrofidagi yer-mulklar uning tasarrufida bo'lgan. 1361-yilda Temur Amir Husayn bilan yaqinlashib, ikkala hokim birlashgan holda mo'g'ul xonlariga qarshilik ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishadi. 1362-yil kuzida Tug'luq Temur Movarounnahrda o'g'li Xizrxoja o'g'lonni qoldiradi. Yosh hokim loqayd va irodasiz bo'lib, ko'p vaqtini maishatda o'tkazar, boshqaruv ishlarini esa amir Bekchik o'z qo'lida jamlab olib, o'z holiha ish tutar edi.

Shubhasiz, bunday holatdan Temur va boshqa nufuzli amaldorlar norozi bo'lishadi. Amir Husayn bilan Temurning bir-birlari bilan yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo'lgan davrlari 1361–1365-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Temur ma'lum qiyinchiliklarni ham boshidan kechiradi. Xususan, Amir Husayn bilan birgalikda Xiva yurishida qatnashadi, Marv yaqinida 62 kunlik tutqunlik azobini kechiradi va hokazo.

Temur hayotida ro'y bergan va bir umrga unga tan jarohatini muhrlagan voqea 1362-yili Seyistonda bo'lib o'tgan. Seyiston hokimi Malik Qutbiddinning taklifiga ko'ra ikki do'st uning dushmanlariga qarshi kurashish uchun yo'l oladilar. Amir Temur jang vaqtida o'ng qo'lining tirsagi va o'ng oyog'iga kamon o'qi tegishidan qattiq jarohatlanadi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib qoladi.

Tug'luq Temur o'limidan so'ng, 1363-yilda Movarounnahr tuprog'idan haydalgan mo'g'ul xoni Ilyosxo'ja (1363–1365) yangidan katta lashkar bilan avvalgi mulklarini egallab olish maqsadida Movarounnahr tomon harakat qila boshlaydi. Mo'g'ul xoni ayniqsa, o'zining raqiblariga nisbatan qahrli kayfiyatda ekanligi ma'lum edi. 1362-yil oxirlari – 1363-yil davomida Temur va Amir Husayn Amudaryoning so'l sohilida o'rnashib, shu yerdan mo'g'ullarga qo'qqisdan tez-tez zarbalar uyushtira boshlaydilar. Bu zarbalar bois ular Termiz, Kesh, Xuzorga qadar yetib borishadi. Ta'kidlash joizki, 1363–1364-yillarda

Temur va Amir Husayn qo'shinlari mo'g'ullar ustidan uch marotaba g'olib bo'lishga muvaffaq bo'lishadi. Temurning harbiy mahorati tufayli 200 ta otliq bilan Kesh shahrini olishga ham muvaffaq bo'linadi. Uchinchi jang 1364-yili Keshdagi Toshariq degan joyda bo'lib, natijada mo'g'ullar butkul tor-mor etiladi, ularning amirlari Bekchik, Iskandar o'g'lon, Hamid, Yusufxo'jalar asirga olinadi. Mo'g'ullar qo'shini o'z navbatida Sirdaryo ortiga haydab yuboriladi. O'zaro kelishuvga muvofiq Husayn Jizzaxga, Temur Toshkentga kelib, janglardan olingan jarohatlarni davolatishadi. So'ngra ular Samarqandga kelib, an'anaga muvofiq Chig'atoy xonlari avlodidan bo'lgan Kobulshoh ibn Durji ibn Ilchigidoy ibn Duvaxonni Chig'atoy ulusi xoni sifatida taxtga o'tkazishadi. Bu vaqtda Ilyosxo'ja Movarounnahrda o'z yurishini boshlaydi.

Bir tomondan, Amir Husayn va Temur, ikkinchi tomondan, mo'g'ullar o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1365-yil 22-may kuni erta tongda Chinoz va Toshkent oralig'idagi bir maydonda bo'lib o'tadi. Jangda Temur mo'g'ullarning o'ng qanoti ustidan g'alaba qozonay deb turgan vaqtda Amir Husayn qat'iyatsizlik qilib, vaqtida harakat ko'rsatmaydi. Uni ustiga qattiq jala quyib, yer balchiqqa aylanadi, otlar tizzasiga qadar loyga botib keta boshlaydi. Temur jangni davom ettirsa-da, lekin Husayn chekinishni lozim deb topadi. Tarixga bu jang «Loy jangi» nomi ostida kiradi.

Qayta urinish behuda ekanligini anglab yetgan Temur jang maydonini tark etib, qolgan-qutgan askarlari bilan Samarqand tomonga qaytib ketib, so'ngra Keshga yo'l oladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu paytda Movarounnahrning bosh amiri Husayn edi. Biror qarorga kelish esa uning irodasiga bog'liq bo'lgan. Shu sababli Temur ham uning ko'rsatmasi bilan, ko'p hollarda Husaynning roziligi bilan ish tutishga majbur bo'lgan. Samarqand shahri, qolaversa, butun Movarounnahr o'z holiga tashlab qo'yiladi. Mo'g'ul xoni changalidan qutulish samarqandliklarning o'ziga bog'liq bo'lib qoladi. Bunday sharoitda Samarqand mudofaasini sarbadorlar o'z qo'llariga olishadi.

Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Eronda ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo'lib, 50-60-yillarda Movarounnahrda ham yoyildi. Sarbadorlar mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lish yo'lida o'zlarini

qurbon qilishga tayyor edilar¹. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mo'g'ul istilochilari va zulm o'tkazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash bo'lgan.

Xurosondagi singari Samarqandda ham bu harakat qatnashchilarining ijtimoiy tarkibi har xil edi. Hunarmandlar, do'kondorlar, ayrim madrasa mudarrislari va talabalar mazkur harakatning faol ishtirokchilariga aylanadilar. Ilyosxo'ja to'g'ridan to'g'ri Samarqand tomon yo'l oladi. Shahar jome masjidiga yig'ilgan aholi oldida sarbadorlarning bo'lajak rahbarlaridan biri bo'lgan madrasa mudarrisi Mavlonozoda so'z olib, shaharning har bir a'zosidan katta miqdorda soliq va to'lov yig'ib, uni o'z bilganicha sarf etib yurgan hukmdorning shaharni o'z holiga tashlab qo'yganligini uqtirib o'tadi.

Mudofaa rahbarligiga Mavlonozoda qatoriga Xo'rdak Buxoriy va Abu Bakr Kalaviy ham qo'shiladilar. Mudofaa tashkil etilganligidan xabarsiz bo'lgan mo'g'ullar hukmdorsiz shaharni himoyasiz deb o'ylashardi. Ularning asosiy qo'shinlari shaharga kiraverishdagi bosh ko'chadan hujum qiladilar. Xavf-xatardan shubhasi bo'lmagan bosqinchilar Mavlonozoda kamonchilari bilan pistirmada turgan joyga yaqinlashganlarida to'satdan kamon o'qlariga duch kelishadi. Shahar mudofaachilari mo'g'ullarga uch tarafdan hujum qiladilar. Birinchi hamlada-yoq «shaharni egallaymiz», deb o'ylab bostirib kirgan mo'g'ullar katta talofat ko'rib, orqaga chekinishga majbur bo'lishadi.

Samarqandliklar ishlab chiqqan harbiy rejası puxta bo'lib, u o'z samarasini beradi. Mo'g'ullarning bir necha hujumi samarasiz tugagach, mo'g'ullar shahar atrofını qurshab olib, uzoq vaqt davomida qamal qilish rejasini o'ylab chiqadilar. Shunday paytda lashkar safida yuqumli kasallik tarqaladi. Bu kasallikni ot vabosi (o'lati) deb atashardi. O'lat oqibatida Ilyosxo'ja qo'shinlariga tegishli otlarning katta qismi qirilib ketadi. Ilyosxo'ja katta yo'qotishlar bilan dastlab Samarqandni, keyin esa Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Shu paytda Keshda bo'lgan Temur bu xabarni Amudaryo bo'ylarida turgan Amir Husaynga yetkazadi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yetib kelib, sarbadorlar rahbarlarini o'z huzurlariga chorlashadi. Uchrashuv Samarqanddagi Konigil degan joyda bo'ladi. Bu yerda sar-

¹ *Sarbador* – forscha «boshini dorga tikkan», degan ma'noni anglatadi.

badorlarning rahbarlari bilan kelishmovchilik yuz berib, ular qatl etiladi. Temurning iltimosi bilan faqat Mavlnozoda omon qoldirilib, u Xurosonga jo'natiladi. Sarbadorlar harakati bostirilgandan so'ng, Amir Husayn va Temur o'rtasidagi munosabatlar keskinlashadi. Bunga Amir Husaynning sarbadorlarga nisbatan adolatsizligi ham bir qadar sabab bo'lgan edi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Amir Husayn tanlagan yo'l parokandalik va boshboshdoqlik sari yetaklar, Temur esa buni yaxshi anglab yetgan edi. Amir Husaynning ochko'z va makkorona siyosati ko'pchilik harbiylar, qabila boshliqlarining noroziligiga sabab bo'ladi. Amir Husayn ko'pchilik amirlardan katta o'lja, pul talab qilib, turli siquvlarni amalga oshira boshlagandi. Temur esa o'z safdoshlariga to'lovlarda yordam berdi, ularning qarzlarini to'lashda, muarrix Sharaiddin Ali Yazdiy yozganidek, hatto o'z xotini, Amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oning taqinchoqlarini ham ayamaydi. Temurning saxovati va olijanoblighi ko'plab amirlarning unga bo'lgan hurmatini oshiradi. Aksincha, Amir Husaynning obro'-e'tibori esa tobora pasayib, dushmanlari ko'paya boradi.

1366–1370-yillar oralig'ida Temur o'z e'tiborini ichki ishlarga qaratadi. Amir Husayn turli fitna-fasodlar yo'liga o'tib, Temurga qarshi zimdan kurash boshlaydi. Amir Husayn Balxda, Temur Kesh va Qarshida hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshlaydilar. 1370-yili Husayn Balx, Qunduz va Badaxshondan qo'shimcha kuch to'plab, uning otliqlari Termiz atroflarida paydo bo'ladi. Temur esa Temur Qopug' deb ataluvchi joydan uch farsah uzoqlikda joylashgan Biyo degan joyda qarorgoh qurib, jangga tayyorgarlikni boshlaydi. Shu yerda uning oldiga Andhuddagi taniqli diniy arbob, sayyidlardan bo'lgan Mir Sayid Baraka tashrif buyuradi. U Temurga nog'ora va bayroq – ya'ni hokimiyat, saltanat ramzlari topshirib, uning buyuk kelajagi haqida bashorat qiladi. Ta'kidlash joizki, Mir Sayid Baraka to' o'z vafotiga qadar (1404-y.) Temurdan ajralmay, uning ma'naviy-diniy rahnamolaridan biri bo'lib qoladi.

Temur huzuriga amir Kayxusrav, amir Joku Barlos, Shiburg'on hokimi Zinda Chashm Apverdi, Badaxshon hokimi Shohmuhammad va boshqalar ham kelib qo'shila boshlaydilar. Ularning barchasi Amir Husaynning fitna-fasodi, riyokorligidan norozi edilar. Temurning taklifi bilan 1370-yilning 29-martida chingiziylardan bo'lgan Suyurg'atmish

o'g'lon xon deb e'lon qilinadi. Shu yili 10-aprel kuni Balx ikki kunlik qamaldan so'ng taslim bo'ladi. Jome masjidi minorasiga yashirilib olgan Amir Husayn qo'lga olinadi. Amir Husayn Amir Kayxusrav tomonidan xun olish maqsadida o'ldiriladi. Shu tariqa bir necha yil davomida Movarounnahr taxti uchun bo'lgan kurash Temur foydasiga hal bo'ladi.

Lashkarboshilar va ittifoqchilar ishtirokida o'tkazilgan qurultoy qaroriga ko'ra, Movarounnahrning amaldagi xoni Chingizxon avlodiga mansub bo'lgan Suyurg'atmish (1370–1388) qo'lga o'tadi. Davlat boshqaruv tizimi esa, Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temurda qoladi. U Kesh shahridan Samarqandga ko'chib, uni o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi. Mazkur davrga kelib Amir Temurning dono va irodali hukmdor, uzoqni ko'zlovchi davlat arbobi ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Harbiy bo'linmalar boshliqlari etib amirlardan Joku, Hoji Sayfiddin, Abbos, Iskandar, A'lam Shayx, Alayka qavchin, Ardasher qavchin va boshqalar tayin etiladi. 1370-yil iyulda o'tkazilgan qurultoyda Shiburg'on hokimi Zinda Chashmdan boshqa barcha amir va qabila boshliqlari Amir Temur hokimiyatini tan oladilar. Zinda Chashm ayirmachilik yo'lini davom ettirib, Balx va Termiz atroflaridagi yerlarni ham talon-toroj qila boshlaydi. Zinda Chashm sa'y-harakatlariga qarshi Amir Temur Joku barlos boshchiligidagi qo'shinni jo'natadi. Jangda Zinda Chashm mahv etilib, Samarqandga jo'natiladi. Amir Temur unga oliyhimmat munosabatda bo'lib, avf etdi. Aynan shu davrdan boshlab Amir Temurning dono hamda uzoqni ko'zlovchi davlat arbobi xususiyatlari aniq namoyon bo'la boshladi.

XIV asrning 70-yillari boshida hukm surgan murakkab va ziddiyatli davrda Amir Temur Movarounnahrda birlashtirish siyosatini boshlaydi. U Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududlarni o'ziga bo'ysundirib, ularni itoat ettirdi. Farg'ona, Shosh viloyatlarini o'z ta'sarrufiga kiritish uncha qiyin bo'lmadi. Sirdaryoning quyi oqimidagi Oltin O'rdaga qarashli yerlarni egallashda u bu yerlardagi ichki sulolaviy urushlardan foydalandi.

Xorazmning shimoliy (Oltin O'rdaga kiruvchi) yerlari hokimi Husayn So'fi Movarounnahrqa qarashli janubi-sharqiy Xorazmni ham o'z ilkiga olgan edi. Amir Temur Xorazmni yana Movarounnahr tarkibiga kiritish va azaliy birlikni ta'minlash maqsadida unga o'z e'tiborini

quratadi. U Xorazmni tinchlik yo'li bilan davlat tarkibiga kiritish maqsadida Gurganjga Alafa tavochini tinchlik haqidagi noma bilan yuboradi. Husayn So'fi Amir Temur tomonidan yuborilgan elchiga shunday javob beradi: «Men mamlakatni qilich bilan fath etganman, shuning uchun ham uni faqat qilich bilan olish mumkin». Ikkinchi bor Amir Temur tomonidan yuborilgan elchi Jaloliddin Keshiy esa zindonga tashlanadi.

1371-yili Amir Temur Xorazmga qo'shin tortib keladi. Gurganjga borish uchun Kot shahri orqali o'tish kerak edi, bu shahar bir oz qarshilik ko'rsatgandan keyin Amir Temur qo'shini tomonidan ishg'ol qilindi. Kotning qo'ldan ketishi Husayn So'figa kuchli ta'sir ko'rsatadi. U Amir Temur bilan yarashishga, uning talablarini bajarishga rozi bo'ladi. Lekin ayrim hokimlar Amir Temurning tezda baland martabaga erishishini ko'rolmay, Husaynni unga qarshi gij-gijlay boshlaydilar. Husayn ularning yordamiga ishonib, Amir Temurga qarshi chiqadi, ammo to'qnashuvda u tomonidan tor-mor etiladi. Shundan so'ng Husayn Gurganj qal'asiga berkinib, tez orada vafot etadi. Uning o'miga akasi Yusuf So'fi (1372) hokimiyatga kelib, Amir Temur bilan yarash shartnomasini tuzadi. Lekin u yarash shartlarini xiyonatkorona buzib, Amir Temur qaytib ketganidan keyin Qiyot shahrini bosib oladi va unga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik harakatlariga o'tadi. Shundan so'ng Amir Temur Xorazmga ikkinchi marotaba yurish qilishga majbur bo'ladi (1373–1374-yy.). Ammo bu harbiy to'qnashuvgacha bormaydi, chunki Yusuf So'fi tavba qilib, yarash shartlarini so'zsiz bajarishga va'da beradi. Bu ikkinchi yurish natijasida Janubiy Xorazm ham Amir Temur davlati tarkibiga kiradi.

Uchinchi yurish 1375-yil oxirlari – 1376-yil bahorida amalga oshiriladi. Yusuf So'fining xiyonatkorligi bu yurishga sabab bo'ladi. Yusuf So'fi tomonidan sulh shartnomalarining buzilishi hamda uning chegaradosh yerlarga yurishlari 1379-yilgi to'rtinchi yurishga olib keldi (yanvar-fevral oylari). Yusuf So'fi yana tinchlik sulhini imzoladi. Xorazmning yangi hokimi Sulaymon So'fi Oltin O'rda xoni To'xtamishxon bilan birlashib, chegara yerlarga hujum uyushtiradi. Bu Amir Temurni 1388-yili beshinchi yurishni amalga oshirishga majbur etdi. Sulaymon So'fi mag'lub bo'lib, o'lkadan qochadi. Amir Temur Gurganjni ishg'ol qiladi va so'fiylar sulolasiga barham beradi.

O'sha yili oliy hukmdor sifatida Amir Temur nomiga xutba o'qilib, tangalar zarb etiladi.

Shu vaqtdan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyinchalik esa Temuriylar davlati tarkibiga kiradi. Shunday qilib, Yettisuv va Sirdaryo etaklaridagi yerlaridan tashqari Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qo'liga o'tadi.

Amir Temur yagona geosiyosiy hududni o'z qo'li ostida birlashtirish, o'zaro nizo va parokandalikka chek qo'yish, qudratli va markazlashgan davlat barpo etish maqsadida e'tiborini janubga qaratadi. Aynan kuchli va qudratli saltanatgina hokim va amaldorlar beboshligi, zulm-zo'ravonlikka chek qo'yib, xalqlar uchun tinch-totuv va xotirjam turmush tarzini yaratar, savdo-sotiq munosabatlari, madaniyatning rivojlanishiga imkon berar, bunyodkorlik va obodonchilikka keng yo'l ochar edi. Bu borada Amir Temur o'z diqqat-e'tiborini Xurosonga qaratadi.

Bu davrda Xurosonda Kurtlar sulolasi hukmronlik qilar edi. Mazkur paytda sulolani Hirot hukmdori Malik G'iyosiddin II Pir Ali (1370–1381) boshqarib, 1380-yil Amir Temur uning huzuriga Hoji Sayfiddin ni elchi qilib jo'natadi. Elchi Hirot hukmdorini qurultoyga taklif etadi. Malik G'iyosiddin II Pir Ali Amir Temur elchisini ushlab qolib, qudratli raqibiga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bu paytda Amir Temurning shahzoda Jahongir Mirzo boshchiligidagi qo'shini Balx, Shiburg'on va Bodhizni egallagandi.

1381-yil fevralida Amir Temurning o'zi Xurosonga yo'l oladi. Hirot hukmdori inisi Saraxs hokimi bo'lgan Malik Muhammad bilan o'z kalitlarini Amir Temurga topshiradi. Yon-atrof qal'alardagi to'qnashuvlar ham Amir Temur foydasiga hal bo'ladi. Sohibqiron marhamat ko'rsatib, asirga olingan 2000 nafar kishini ozod etishni buyuradi. Xuroson sarbadorlarining rahbari Ali Muayyad va Moxon hokimi Alibek Jonqurboniylar o'z ixtiyorlari bilan buyuk hukmdorga tobelik bildiradilar.

1381–1382-yillarda Kalot, Turshiz, Sabzavor va Mozandaron, 1383-yili Seyiston bo'ysundiriladi. 1384-yili esa Astrobod va Ozarbayjonga qilingan yurish natijasida Omul, Sori, Sultoniya, Tabriz shaharlari egalalanadi. Natijada XIV asrning 80-yillari o'rtalariga kelib butun Xuroson Amir Temur qo'liga o'tadi.

Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlari tarixda «uch yillik» (1386–1388), «besh yillik» (1392–1396), «yetti yillik» (1399–1405) yurishlar deb nom olgan. «Uch yillik» yurish davrida Amir Temur Ozarbayjon, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzirum va Van qal'alarini egallaydi.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan shaharlar va qal'alarga ziyon yetkazmagan, harbiylarni shaharlarga kirishga yo'l qo'ymagan, u yerlarga faqat tovon pulini yig'uvchilarni (muhassilon) jo'natgan, xolos. To'g'ri, ba'zida ma'lum tushunmovchiliklar ham sodir bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishiga ko'ra, Isfahon aholisi Ko'chakiy degan ig'vogarning gapiga uchib, Amir Temurning viloyat muhofazasi uchun qoldirgan uch ming nafar askarini qirib tashlagan. Bunday vaziyatda Amir Temur, shubhasiz, aybdorlarni jazolagan. Eronga qilingan «besh yillik» (1392–1396) yurish avvalo u yerdagi g'alayonlar, Eronning turli hududlaridagi (Mozandaron, Muzaffariylar, Jaloyirlar va hokazo) sulolalar hokimlarining ayirmachilik siyosati tufayli sodir bo'ladi. Eronga qilingan yurish natijasida Muzaffariylar sulolasiga (1314–1393) barham berildi, uning so'nggi hukmdori Shoh Mansur esa jangda halok bo'ladi. Jaloyirlarning taniqli vakili Sulton Ahmad (1382–1410) esa Bag'doddan Misrga qarab qochib ketadi.

Amir Temur Jo'chi ulusi tarkibiga bir vaqtlar kirgan Oq O'rda, Oltin O'rda hamda Mo'g'uliston hokimlari bilan bir necha yillar davomida kurash olib borishiga to'g'ri keldi. Mazkur kurashdan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo mamlakat shimoliy qismlarini ko'chmanchi to'dalar hujumidan muhofaza etish, Jo'chi ulusi tarkibiga kirgan yerlarni zaiflashtirgan holda o'z saltanati ta'sir doirasiga olish bo'lgan. Amir Temurning Mo'g'ulistonga qarshi kurashi o'n to'qqiz yil (1371–1390) davom etib, bu kurashda u avval Anqo to'ra, so'ngra Qamariddin singari xonlarni mag'lub etdi. Yettisuvdan shimolga chekingan mo'g'ul xonlari qish kelishi bilan qayta Sirdaryo bo'ylari va Farg'ona vodiysiga hujum uyushtirishardi. Amir Temurning ularga qarshi oxirgi yurishi 1389–1390-yillarga to'g'ri kelib, u ancha jadallik hamda xavf-xatarga boy bo'ladi. Amir Temur Anqo to'rani tor-mor keltirib, uni qo'shini bilan birga Irtysh daryosi orqa tomoniga, uloqtirib tashlaydi. Shundan so'ng Qamariddinni mag'lubiyatga uchratib, Mo'g'uliston xonlari bosh

qarorgohini egallaydi. Shu tariqa mo'g'ul xonlarining Sirdaryo bo'ylari, Farg'ona vodiysiga solayotgan xavf-xatarlariga chek qo'yiladi.

Ta'kidlash lozimki, 1377-yilga qadar Jo'chi ulusi ikki mustaqil davlatdan, o'ng qanot – Oltin O'rda, chap qanot – Oq O'rdadan iborat bo'lgan. Oltin O'rda tarkibiga Xorazmning shimoliy qismi, Shimoliy Kavkaz, Bulg'or yerlari, G'arbiy Sibir, Qrim kirgan. Oq O'rdaga esa Sirdaryoning quyi oqimi, Sirdaryo bo'ylaridan Sibirdagi Tuman degan joygacha bo'lgan yerlar kirgan. XIV asr 70-yillarida Oq O'rda hokimlaridan biri bo'lgan O'rusxon Jo'chi ulusini birlashtirib, uni kuchli davlatga aylantirish harakatlarini olib boradi. Agar Jo'chi ulusi birlashsa, u butun O'rta Osiyo, Rus va boshqa yerlarga yana tahdidni boshlar edi. Shubhasiz, Amir Temur buni yaxshi tushunar edi. 1376-yili O'rusxon uluslarni birlashtirish uchun chaqirgan qurultoyda unga qarshi bo'lgan kishilarni o'limga mahkum etadi. Ular orasida Ming-qishloq hokimi To'yxo'ja o'g'lon ham bo'lgan. To'yxo'janing o'g'li To'xtamishxon o'z hayoti xavfsizligini o'ylab, Samarqandga, Amir Temur huzuriga qochib keladi. Amir Temur unga muruvvat ko'rsatib, davlat manfaatlarini o'ylagan holda hokimiyatni olish yo'lida yordam beradi.

To'xtamishxon o'z raqiblaridan uch marotaba mag'lubiyatga uchrasa-da, har gal Amir Temur uni oyoqqa turg'izishga yordamini ayamaydi. Oq O'rda xoni O'rusxon Amir Temurga qarshi jang qilishga botina olmaydi. O'rusxonning To'xtamishxonni unga qaytarish to'g'risidagi murojaatiga Amir Temur rad javobini beradi. O'rusxon vafotidan so'ng, Amir Temur To'xtamishxonga 1377-yili taxtni uzil-kesil egallashini ta'minlaydi. Shimolda To'xtamishxonning taxtga chiqishi Amir Temur saltanati xavf-u xatardan saqlanishga yordam berishi, qolaversa ishonchli ittifoqchi yuzaga kelishidan Sohibqironning o'zi ham, manfaatdor edi. Lekin To'xtamishxon berilgan yordam, ko'rsatilgan muruvvatni, non-tuz haqini tezda unutdi. Ikkala o'rdani birlashtirib olgach, talonchilik va jabr-zulmni kuchaytirdi. Rus, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz xalqlari uning zulmidan qattiq aziyat cheka boshladilar. To'xtamishxon 1385-yili Amir Temur davlatiga qarashli Ozarbayjonni egallashga harakat qiladi. Qolaversa, Xorazm hokimi Sulaymon So'fini ham o'z tomoniga og'dirib, Amir Temur davlati bilan chegaradosh yerlarni talon-toroj qiladi.

Ta'kidlash lozimki, Amir Temur o'z oldiga Oltin O'rda davlatini tugatishni maqsad qilib qo'ymagan edi. Aksincha, u o'zaro hamjihatlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatish tarafdori bo'lgan. Qolaversa, To'xtamishxonni hokimiyatga olib chiqayotganda ham yuqoridagi maqsadlarga tayangan edi. Oltin O'rdaga qarshi harbiy harakatlar avvalo o'z saltanatini xavf-xatardan muhofaza etish, uning harbiy kuch-qudratiga xavf solmaslik uchun tegishli zarba berish bilan izohlanar edi.

1388-yil yanvarida Amir Temurning qaytishini kutgan dushman orqaga qayta boshlaydi. Sohibqiron o'z amirlaridan Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalarga dushmanni daf qilish vazifasini topshiradi. Ular Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda dushmanni quvib yetib, unga katta talofat yetkazadilar. To'xtamishxon 1388-yil oxirida Amir Temurga qarshi qayta hujum boshlaydi. U Elyig'mish o'g'lon boshchiligida Movarounnahrda katta qo'shin jo'natadi. Qo'shin o'ziga Jizzaxning Achchiq (Ochiq) mavzesini qarorgoh qilib oladi. Amir Temur esa urushga tayyorlanish uchun Sagoron (Kattaqo'rg'on)da qarorgohini tikib, qo'shinlarini jangovar holatga keltiradi. Amir Temur dushmanning orqa tarafidan hujum qilish uchun Qo'ng'i o'g'lon, Temur Qutlug' o'g'lon, Shayx Ali Bahodir qo'mondonligidagi qo'shinlarni yuboradi. Ularga Andijondan shahzoda Umarshayx Mirzo qo'shini ham kelib qo'shiladi.

Amir Temur qahraton qish bo'lishiga qaramay, kurashga otlanib, To'xtamishxon tomonidan yuborilgan qo'shinni tor-mor keltiradi. Elyig'mish ikkala tomondan o'rab olinib, mag'lub etiladi. 1389-yil fevral-martida esa Sirdaryodan o'tib, mo'g'ul qo'shinlarini Oltomg'agacha



**Amir Temur Oltin O'rda xoni
To'xtamishxonga qarshi
kurashga otlanmoqda.
Miniatyura. XV asr**

ta'qib etib boradi. Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi navbatdagi kurashga tayyorgarligi 1390-yil kuzida boshlanadi. U o'z qarorgohini Chinozga ko'chirib, qishni shu yerda o'tkazadi hamda umumiy safarbarlik e'lon qiladi. Yurish deyarli 6 oyga cho'ziladi. 1391-yil 18-iyunda Samara va Chistopol oralig'ida joylashgan Qunduzcha degan tekislikda bo'lib o'tgan jangda To'xtamishxon qo'shini tor-mor etiladi. Mazkur jangda Amir Temur ilk bora yangi taktik usulni qo'llab, qo'shinni «yetti qo'l» (g'o'l), ya'ni yettita korpusga bo'ldi. Amir Temur qo'shinining birinchi zarbasidayoq To'xtamishxon qo'shinining o'ng qanoti avval chekinib, so'ngra qochishga tushdi. To'xtamishxon qo'shinni yorib chiqaman deb o'ylab, aksincha Amir Temur qo'shini qurshoviga tushib qoladi. So'ngra tezlik ila sarosimaga tushgan qo'shini bilan Volga daryosi tomoniga chekinadi. Amir Temur qo'shini bu jangda g'alaba qozonib, katta o'ljaga ega bo'ldi.

Amir Temur bu yurishdan xotira sifatida Ulug'tog' etagidagi toshga bitik yozib qoldirdi. Ushbu bitik hozirda Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitaj muzeyida saqlanmoqda. Yuqoridagi jang To'xtamishxon davlati qudratiga butkul chek qo'ymagan. To'xtamishxon tez orada qayta kuch to'plab, Amir Temur davlati hududiga yana xavf sola boshlaydi. U tezlik bilan o'z harbiy-siyosiy mavqeini tiklab oladi. Bu kurashga To'xtamishxon, hatto Misr sultoni Malik az-Zohir Barquqni (1382–1399) ham tortishga harakat qiladi.

1393–1394-yili Amir Temur Sheki (Ozarbayjonning shimoliy qismi)da turgan paytda To'xtamishxon Kavkazorti viloyatlariga hujum uyushtiradi. Amir Temur Shekidan chiqib, Kura daryosi bo'ylab yuradi. Oltin o'rdaliklar Amir Temur qo'shinlari kelayotganini eshitib, chekinishga majbur bo'ladilar. To'xtamishxonning o'zini esa jang qilishga yuragi dov bermaydi. Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi oxirgi va hal qiluvchi yurishi esa 1395-yil 28-fevralda boshlanadi.

Shimoliy Kavkazdagi Darband yo'lida Amir Temur o'zaro nizolarini tinchlik yo'li bilan hal qilishga harakat qildi hamda To'xtamishxon huzuriga Shamsiddin Olmaliqiy boshchiligidagi elchilarni jo'natdi. To'xtamishxon riyokorlik qilib urushga tayyorgarlikni davom ettirdi. Jang 1395-yil 15-aprelda Shimoliy Kavkazdagi Tarak daryosi bo'yida bo'lib, umumiy qo'shinlar soni 400 ming atrofida, 30–35 km lik katta maydonda olib borildi. Amir Temurning yangi harbiy taktika-

si (qo'shinni yetti g'o'l (korpus)ga ajratish, yigirma yetti qo'shından iborat kuchli xazira bo'linma tuzish, kuchli markaz tashkil etish) o'z natijasini ko'rsatdi. Amir Temur qo'shinlari butkul g'alaba qozondilar, To'xtamishxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Bulg'or tomonga qochib ketdi. Amir Temur Oltin O'rdaga oxirigacha zarba berish maqsadida Volga va Dnepr oralig'idagi yerlarga yurish qildi. U Movarounnahr va umuman o'z davlati xavfsizligi yo'lida Volga va Dnepr daryolari oralig'idagi To'xtamishxon yerlariga zarba berishi lozim edi. Bu masalada Shamsiddin Abbas va amirzoda Pirmuhammad boshchiligidagi qo'shin Jo'chi ulusining o'ng qirg'og'idagi yerlarga jo'natildi. Amir Temurning o'zi Dnepr daryosining chap qirg'og'i bo'ylab yurib, Ankerman degan joyni, so'ngra Azov daryosi bo'yidagi muhim qo'rg'on bo'lmish Azov (Azoq)ni egalladi. Shundan so'ng Rus davlati tomon yurish qilib, Ryazan, Yelets va boshqa Markaziy Rossiya hududidagi yerlarni egal-ladi. Oltin O'rda poytaxti va boshqa Oltin O'rda shaharlari to'liq Amir Temur qo'shinlari tomonidan egallab olinadi. Keyinchalik cherkeslar yurti va Dog'iston hududi ham egallab olindi. 1396-yili qishda Kaspiy bo'yidagi Ashtarxon shahri ham qo'lga kiritildi.

To'xtamishxon qo'shinining Tarak daryosi bo'yida tor-mor etilishi va 1395-yilda poytaxt Saroy Berkaning egallanishi Oltin O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi. Shundan keyin bir paytlar qudratli bo'lgan davlat o'zini o'nglab ololmadi. Oltin O'rdaga berilgan qaqshatqich zarba Rusni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod bo'lishiga ijobiy ta'sir etdi. Xalqaro savdo yo'llari esa yana janubga, an'anaviy o'zanlariga qaytarildi.

Amir Temurning bir mamlakatga qilgan yurishi uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borganligini urush voqealari ham ko'rsatib turadi. Amir Temur Ozarbayjonga bir necha marotaba yurish qildi va 1387-yilda uni to'la bo'ysundirishga muyassar bo'ldi. Armaniston va Gruziyani Amir Temur 1392-yilda bo'ysundirdi. Amir Temurning Hindistonga yurishi (1398-y. may – 1399-y. mart) «yet-ti yillik» urush nomini olgan davrga to'g'ri keladi. Yurish natijasida turli xil ayirmachi harakatlarga, nizo va parokandalikka chek qo'yildi. Shu bilan birga, bu yerdan olingan katta o'ljalari Samarqand va Keshga ham jo'natildi. O'ljalari orasidagi 120 ta filni Temur urush harakatlarida hamda qurilish ishlariga jalb etdi. Ayirmachilik, o'zaro parokandalikka

chek qo'yish, yagona geosiyosiy maydonda kuchli va mustahkam davlat barpo etish bu yurishlardan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lgan.

1400-yilga kelib Amir Temurning turk sultoni Boyazid Yildirim va Misr sultoni Faraj bilan munosabatlari keskinlashadi. Ta'kidlash joizki, Yaqin va O'rta Sharqda hukmronlik masalasida yuqorida qayd etilgan masala yaqqol namoyon bo'lib qoladi. Ikkala qudratli davlat hududda hukmronlik qilishga da'vo qilishar edi. Uning ustiga turkmanlarning Qora-Qo'yunli sulolasi hukmdori Qora Yusuf (1388–1420), Sulton Ahmad jaloyir (1382–1410) ham Boyazid bilan ittifoq bo'lib, Amir Temur davlati chegaralariga raxna solishar edi. Amir Temur Suriya masalasida muammoni tinchlik yo'li bilan hal etish maqsadida 1393-yil-dayoq Misrdagi mamluklar sultoni Barquqqa o'z elchilarini jo'natgan edi. Lekin sulton elchilarni o'limga mahkum etdi. Avnik qal'asiga qoldirib ketilgan Otalmish qavchinni Amir Temur qo'shinlari yo'qligidan foydalangan isyonkor Qora Yusuf qo'lga olib, Misrga jo'natib yuboradi. Sohibqiron elchisi Otalmish qavchin zindonga tashlanadi. 1399-yil Barquq vafotidan keyin taxtga o'tirgan Faraj otasi singari g'alamislik siyosatini davom ettiradi. Xususan, sulton huzuriga navbatdagi elchi sifatida yuborilgan guruh Suriyaning Halab shahrida hibsga olinadi. Bu esa Misr bilan urush boshlanishini bildirar edi. 1400-yil sentabr-oktabr oylarida Suriyaning ko'plab muhim qal'a va shaharlari, jumladan Halab ham katta qiyinchiliksiz egallandi. 1400-yil 20-dekabrda Amir Temur qo'shini Damashq ostonasiga yaqinlashganida Sohibqiron masalani tinchlik yo'li bilan hal etish maqsadida Faraj huzuriga yana bir Bo'ron Podshoh boshliq elchilik guruhini jo'natadi. Amir Temur sultonga jo'natgan maktubida Otalmish qavchinni hibsdan ozod qilish, Sohibqiron nomini xutbada o'qitish, uning nomidan tangalar zarb etish talablarini qo'yib, o'rtada tinchlik o'rnatish zaruriyatini ta'kidlaydi. Lekin Faraj yana xiyonatkorona yo'l tutib, Amir Temur qo'shiniga hujum uyushtiradi. O'zaro jangdan so'ng Faraj qochib ketadi, Damashq esa yong'inga duchor bo'ldi.

Usmoniylar davlati sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402) bilan o'zaro nizoli masalalarni hal etish borasida Amir Temur u bilan to'rt marotaba maktub almashdi. Lekin Boyazid munosabatlarni tinchlik bilan yo'lga solish o'rniiga bir qator nomaqbul harakatlarni ham amalga oshirdi. Tabiiyki, bu hol tez orada ikki qudratli hukmdor o'rtasida

to'qnashuv bo'lishiga olib keldi. Hal qiluvchi jang 1402-yilning 20-iyul kuni Anqara yaqinidagi Chibukobod tekisligida sodir bo'ldi. Jang oqibatini Amir Temur urushning chalg'itish usuli bilan hal qildi. Bu borada sultonga xavf solish uchun Temurning nevarasi Muhammad Sultonga turklarning strategik ahamiyatga ega tepaligini zabt etish vazifasi yuklanadi. Shohrux va Mironshoh Mirzolar Muhammad Sultonga yordam berishadi. Sohirqiron qo'shinlari Boyazid qo'shinlari qanot qismini uzib, turklar qo'shinini har ikkala qanotini qurshab oladi. Kechga borib turklar to'la mag'lubiyatga uchraydilar. Turk sultoni ham asirga olinadi.

Amir Temur o'ziga xos marhamat bilan Boyazidga yaxshi muomala qiladi, uni ehson va in'omlar bilan siylaydi. Boyazid vafot etgach (1403-y. 9-mart), uning ta'ziyasini o'tkazib, saltanat taxtini marhum sultonning o'g'li Musoga topshiradi. Usmoniylar mag'lubiyati Yevropa xalqlari uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Turklarning Yevropaga nisbatan amalga oshirmoqchi bo'lgan hujumi 50 yil orqaga surildi. Qator Yevropalik hukmdorlar bundan minnatdor bo'lib, o'z elchilarini Amir Temur huzuriga jo'natadilar. Qayd etish lozimki, aslida Yevropalik elchilar Amir Temurga Anqara jangidan avval ham harbiy ittifoq tuzishni taklif qilgan edi.

Shuni aytish kerakki, Amir Temur va Temuriylar davlati xalqaro maydonda ham shuhrat qozongan. Temur davlati bilan Sharq (Mo'g'uliston, Xitoy, Misr) va Yevropa mamlakatlari (Italiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya va hokazo) o'rtasidagi yozishmalarga qaraganda, diplomatik, siyosiy va savdo aloqalari yuqori darajada rivojlangan. Ular ayniqsa, XIV asrning 80–90-yillari va XV asr boshida Usmoniylar davlatining kuchayishi munosabati bilan birmuncha jonlanadi. Ma'lumki, 1389-yil Usmoniylar Yevropaliklarning birlashgan qurolli kuchlarini Serbiyadagi Kosovo maydonida tor-mor qilgan va natijada Serbiya mustaqillikdan ajrab, Usmoniylar davlatining vassaliga aylangan. 1393-yili Usmoniylar Bulg'oriya, Valaxiya, Makedoniya, Fessaliyani bosib oladi. 1396-yili esa turk armiyasi Nikopol (Bolgariya) va musulmonlarga qarshi salb yurishi e'lon qilgan Vengriya qiroli Sigizmund boshchiligidagi G'arbiy Yevropaning eng sara qo'shinlarini butunlay tor-mor etadi. Boyazid qo'shini o'sha paytda Vizantiya poytaxti Konstantinopolni ham qamal qiladi.



Amir Temurning harbiy yurishlari.

Xullas, Usmoniylar tomonidan nafaqat Vizantiya uchun, balki butun Yevropa uchun ham real xavf-xatar tug'ilgan edi. Shuning uchun Yevropaning Vizantiya, Italiya, Ispaniya va boshqa davlatlaridan Usmoniylarga qarshi kurashda yordam so'rab Amir Temur saroyiga elchilar serqatnov bo'lib qolgan edi. Bularning barchasi Amir Temur va Boyazidning, ya'ni ikki qudratli turkiy davlatlarning to'qnashuvini yanada tezlashtirdi, bu esa, o'z navbatida, Yevropaga qo'l kelar edi.

1403-yil mart oyida Amir Temur Kichik Osiyodagi Oqshahr degan joyda Misr sultoni Faraj elchilarini qabul qiladi. Faraj Temur elchilarini ozod qilib, Sohibqirondan uzr so'ragan holda uning oliy hukmronligini tan oladi. Amir Temur 1403-yilining iyulida Gruziyaga keladi. Shu yil oktabrda Boylaqon degan joyda katta kanal qazdiradi va olim-u ulamolar ishtirokida katta qurultoy chaqiradi.

Amir Temur poytaxt Samarqandga 1404-yil iyul oyida g'olib hukmdor sifatida tantanavor tarzda kirib keladi. Shu yilning sentabrida Amir Temur Samarqandda olti nafar nevaralarining nikoh to'yi tantanalarini o'tkazadi. Unda qator chet el elchilari ham ishtirok etishadi.

Xitoy ancha vaqtdan beri Movarounnahrda hududiy da'vo bilan chiqar, bu borada u bilan munosabatlarni oydinlashtirish lozim bo'lib

qolgandi. Shu bois Amir Temur uch oylik tayyorgarlikdan so'ng 1404-yil 27-noyabrda o'zining 200 ming kishilik qo'shini bilan Xitoyga otlanadi. O'sha yili qish O'rta Osiyo tarixida eng qahraton qishlaridan biri bo'lgan. Siro'aryoning suvi bir yarim metr gacha muzlagan, askarlardan ko'pini quloq-burunlari, qo'l-oyoqlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay shamollab qoldi. Shunga qaramay, yanvar oyida uning huzuriga o'zining qattiq pushaymonligini bildirib, toj-u taxtini qaytarib berishga yordam so'rab To'xtamishxon elchilari tashrif buyurdilar. Elchilar Sohibqironga mo'g'ul xoni kechirintini qabul qilishni so'rashadi. Amir Temur uzrni qabul qilib, yurishdan so'ng unga yordam berish qarorini ma'lum qiladi. 1405-yil fevral oyining o'rtalarida qo'shin O'trorda to'xtashga qaror qiladi. 11-fevral kuni Sohibqironning ahvoli ancha og'irlashadi. Mohir tabib Mavlono Fayzulloh Tabriziyning muolajalari ham natija bermaydi. 18-fevral kuni og'ir xastalangan buyuk jahongir, Sohibqiron Amir Temur O'trorda vafot etadi (hijriy 807-yil sha'bon oyining 17-kuni).

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Bu yurishlar natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy dengizi atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Usmoniylar davlati, Hindiston, Iroq, Markaziy va Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator hududlari, jami 27 ta mamlakat va o'lka kirdi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste'dodi sabab bo'ldi. Amir Temur qo'shinida qat'iy tartib va intizom o'rnatilgan edi. Har bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo'l-yo'riqlarni o'zi ishlab chiqardi. Uning harbiy iste'dodi Anqara yaqinida sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi. Qo'shinning yuragi va qo'mondonlik o'zagini barlos urug'i vakillari tashkil etardi. Shu davr voqealarining shohidi bo'lganlarning guvohlik berishicha, barloslar harbiy ishga niho-yatda chidamli, yoydan o'q uzishga juda usta, o'z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo'lishgan. Shu o'rinda yana bir holatga e'tibor qaratish lozim. Amir Temur o'z qo'shiniga shahar va qishloqlarni talon-toroj qilishga izn bermagan, aksariyat hollarda masalani tinchlik yo'li bilan yechishga harakat qilgan.

Amir Temur kuchli va markazlashgan davlat, ulkan saltanat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. U ona yurti Movarounnahrda mo'g'ul istib-

dodini tugatdi, o'zaro parokandalik, nizo va fitnalarga chek qo'ydi, mamlakatni tanglik va inqiroz botqog'idan olib chiqdi, obodonchilik, qurilish, bunyodkorlik ishlariga keng yo'l ochdi, madaniyat, ilm-fanni taraqqiy etishiga homiylik qildi, keng xalq ommasi uchun tinch va totuv hayot tarzini yaratdi. Yuqorida qayd etilgan sa'y-harakatlar Amir Temurning aql-zakovati, zehni, irodasi va ulkan tashkilotchilik qobiliyati evaziga yuzaga kelib, uni Sohibqiron to'la o'z davlati ravnaqi va istiqboli yo'lida amalga oshirdi.

1.3. «Temur tuzuklari» – davlat boshqaruvi haqidagi muhim tarixiy manba

Amir Temur va uning davri xususida zamondoshlari G'iyosiddin Alining «Ro'znomayi g'azovoti Hinduston», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Ibn Arabshohning «Temur tarixi», Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» va boshqalarning qimmatli asarlari mavjuddir. Lekin buyuk jahongir hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida, shubhasiz, «Temur tuzuklari» alohida ahamiyat kasb etadi.

«Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomlari bilan atalmish ushbu asar qimmatli tarixiy manba bo'lib, u jahondagi mashhur kutubxonalardan joy olgan. «Temur tuzuklari» ikki qismdan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib, unda Sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarish xususidagi nuqtayi nazari bayon etiladi.

Asar Amir Temur tomonidan yozdirilgan bo'lib, avval eski o'zbek (chig'atoy yoki turkiy) tilida bayon etilgan. Bir qator sharqshunoslar – Ch.Ryyu, G.Ete, Ch.A.Stori, N.D.Mikluxo-Maklay va boshqalarning fikricha, uning bir qo'lyozma nusxasi Yaman hokimi Ja'far poshshoning kutubxonasida saqlangan. «Tuzukot»ni ilk bora fors tiliga tarjima qilgan Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiyning yozishiga qaraganda, u o'z haj safarida mazkur asarni uchratganligini va uni tarjima qilganligini ta'kidlaydi. U Arabistondan kelgach, asarni forscha tarjimasini boburiy podshoh Shoh Jahonga (1628–1657) taqdim etadi. Shoh Jahon

tarixni yaxshi bilgan ilmi shaxs bo'lganligi uchun avvalo asarni o'zi ko'rib chiqib, unda ba'zi noaniqliklar va g'alizliklarni topadi. Podshoh undagi noaniqliklarni tuzatish va tahrir etishni Dakan viloyati qozikalonlari, iste'dodli adib Muhammad Afzal Buxoriyga (vafoti 1651/1652-y.) topshiradi. Bu xususda hindistonlik tarixchi Abdulhamid Lohuriy (1654-y. vafoti) o'zining «Podshonoma» asarida ham qayd etib o'tgan.

Mazkur asar XVIII asr, ya'ni inglizlar Hindistonni egallay boshlaganlaridan keyin mashhur bo'lib ketadi. Xususan, asar 1783-yili Buyuk Britaniyada ingliz tilida nashr etiladi. Kitob unga bo'lgan qiziqish natijasida 1785-yili Kalkuttada yana bir karra dunyo yuzini ko'rdi. 1787-yili esa, asar Parijda fransuz tilida chop etildi. Asar Ch. Styuart tomonidan 1830-yili qaytadan ingliz tilida noaniqliklar bartaraf qilingan holda yana nashr qilindi. «Temur tuzuklari» 1855-yili Dehlida, 1908-yili Bombeyda urdu tiliga o'girilgan holda chop qilindi. Shuningdek, 1890-yili Bombeyda fors tilida kitob holida nashr etilgan. 1868, 1963, 1992-yillarda bir necha bor Tehronda fors tilida, 1991-yili Boku va Almatida ozarbayjon va qozoq tillarida ham tarjima kitoblari nashr qilindi.

«Temur tuzuklari» o'zbek tiliga ma'lum darajada 1835–1836-yillarda Qo'qon qozisi Nabijon Xotifiy, so'ngra 1857-yilda Xivada Muhammad Yusuf ar-Rofiy (Rojiy)lar tomonidan tarjima qilingan. O'zbek tiliga yana bir tarjimasi Pahlavon Niyoz Devon tarafidan 1857–1858-yillari Xivada amalga oshirilgan. Asarni Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy matniga muvofiq o'zbekcha tarjimasi mashhur arbob va adib Alixon to'ra Sog'unliy tomonidan Toshkentda 1967-yili amalga oshirilgan. Bu tarjima mustabid davr mafkurasi tazyiqiga uchrab, nashr etilishi yarim yo'lda qolib ketadi. Nihoyat, 1890-yili Bombayda chop etilgan forscha matndan o'zbek tiliga yana bir tarjima (Sog'unliy tarjimasini hisobga olgan holda) amalga oshirildi. Uni o'zbek sharqshunosi Habibullo Karomatov amalga oshirib, u 1989-yili «Sharq yulduzi» jurnalining 8-sonida chop qilindi. Kitob holida avval 1991-yili dunyo yuzini ko'rdi. «Tuzukot» 1891, 1894-yillari N.P.Ostroumov tarjimasi ostida Toshkentda rus tilida chop qilingan. 1934-yili Moskvada rus olimi V.A.Panov tomonidan kitobning yangi tarjimasi nashr qilindi. 1968-yilda undan faksimil nashri tayyorlanib, unga akademik I.Mo'minovning qisqacha kirish so'zi ilova qilindi. Avval boshida asar Amir Temur tomonidan yozdirilgani xususida qayd qilingan edi. Ko'pgina sharq

manbalari va muarrixlari buni o'z asarlarida ta'kidlashadi. Masalan, Shamsiddin Somiyning qomusida shunday deyiladi: «Amir Temur «Tuzukot» deb yuritiladigan qonunlar majmuasini yozdi. Unda o'zining hayot yo'lini bayon qildi». Sharafiddin Ali Yazdiy esa (vafoti 1454-y.) e'tiborga loyiq yana bir ma'lumotni keltirgan: «On hazrat o'zining hayoti va turmushi tarziga doir asosiy voqealarni o'z ichiga olgan turkiy va forsiyda alohida bir manzuma tuzdilar». Nizomiddin Shomiy ham o'zining «Zafarnoma» asarida shuni ta'kidlashadi. Shuningdek, taniqli sharqshunos M. Sharmua (1793–1869) va rus harbiy tarixchisi M.I. Ivanin (1801–1874) «Tuzukot»ning haqiqiy muallifi Amir Temur bo'lgani haqida fikr bildirishadi. Amir Temurning 660-yillik tavalludi tantanalari arafasida 1996-yil «Tuzukot» o'zbek, ingliz, fransuz, 1999-yili rus tillarida chop etildi. Shundan so'ng kitob yana bir necha marotaba nashr etildi.

«Temur tuzuklari» 2011-yili o'zbek tilida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning «Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi» deb nomlangan so'zboshi bilan yuqori sifatda qayta nashrdan chiqarildi. Mamlakat rahbari «Temur tuzuklari» asarining ahamiyatiga to'xtalib, quyidagi haqli e'tirofni bayon etgan edi: «Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barmoq etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda «Temur tuzuklari» bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi».

«Temur tuzuklari» – hukmdorlarning turmush tarzi va axloq-odob normalarini belgilovchi risola bo'lib ham hisoblanadi. O'z vaqtida ko'pgina hukmdorlar, xususan, Hindistonda boburiy podshoh Shoh Jahon (1628–1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821–1842), Buxoro amiri Abdulahadxon (1885–1910) va boshqalar «Tuzukot»dan maxsus parchalar ko'chirtirib, ulardan bevosita o'z faoliyatlarida foydalanishgan.

«Tuzukot» ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan mashhur davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342–1405 y. 18-fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Mova-

rounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lg'a kiritish, tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga kiritish, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon (1376–1395), turk sultoni Boyazid Yildirimga (1389–1402) qarshi va nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Gurjiston va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism Amir Temurning nomidan aytilgan o'ziga xos va-siyat va pand-u nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida so'z boradi. «Tuzukot» yozish odati asli xitoy va turk-mo'g'ul hukmdor, xonlaridan rasm bo'lib qolgan odat edi. Masalan, turk xoqon-laridan meros bo'lgan «Qonunnoma», Chingizxondan qolgan «Bilik», Xondamir (1474–1535) yozgan «Qonuni Humoyun», Ubaydullaxon (1533–1539) topshirig'i bilan yozilgan «Suluk al-mulk» («Podsholarga yo'l-yo'riqlar») shular jumlasidandir.

Amir Temur o'z oldiga buyuk saltanatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etish, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadal-lashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan edi. Uning bunday sa'y-harakatlari bir necha o'n yillar inqiroziy holatda bo'lgan ulkan hudud-ni qoloqlikdan chiqarish, uni yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tarishda katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi.

«Temur tuzuklari» o'z ichiga hayot tajribasi va sinovi boshidan o'tgan, bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi shaxs, buyuk davlat arbobining o'y-fikrlari, mushohada va kechinmalarini o'z ichiga jo qilgan. «Tuzukot»da yuqorida qayd etilgan mulohazalar aniq-ravon tarzda, ixcham usulda bayon etilgan. Sahibqironning «Sal-tanat ishlarining to'qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan

bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur», degan ko'rsatmasi XXI asr siyosat maydoni uchun, muammolarni hamjihatlikda yechishga da'vat tarzida ko'rsatish mumkin. «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan fikrlari hozirda ham ijtimoiy-ma'naviy hayotda dolzarb ahamiyat kasb etsa, «Bilagi zo'r birmi, bilimi zo'r mingni yiqar» degan iborasi odamni hamisha o'z aql-zakovati, ilm-ma'rifat asnosida hayot kechirishga chaqiradi. Amir Temurning «Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilgan bo'lsa, do'stligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzat-ikrom ko'rsatdim», degan so'zlari uning ichki ma'naviy dunyosining naqadar boyligidan darak beradi.

Ta'kidlash joizki, XXI asr barkamol avlodini tarbiyalash, ularning ma'naviy olamini yuksaltirish va boyitishda shubhasiz, «Tuzuklar» katta ahamiyat kasb etadi.

1.4. Davlat boshqaruvi tizimi

Amir Temur mustaqil, kuchli, yaxlit, qat'iy siyosatga ega davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Amir Temur davrida davlatchilik an'analari, davlat boshqaruvi tizimi yuqori darajaga ko'tarildi. U mahalliy hamda o'z davrining boshqa davlatchilik an'alarining eng yaxshi jihatni o'z davlatchilik tizimida mujassam qila oldi. Shubhasiz, mamlakatda Amir Temurning o'zi hokimi mutloq bo'lgan. Shu bilan birga, Amir Temur turkiy-mo'g'ul an'analari, mavjud siyosiy vaziyat, tegishli kuchlar mavqeyi va manfaatlari, qabul qilingan taomilga muvofiq chingiziylar xonadonidan bo'lgan Suyurg'atmishni (1370–1388), so'ngra uning o'g'li Mahmudxonni (1388–1402) xon sifatida taxtga o'tkazgan. Amir Temurning o'zi amir unvoni bilan cheklanib qo'ya qolgan. Keyinchalik, chingiziylardan bo'lgan Qozonxonning qizi Saroymulxonimga (1337–1408) uylanishi munosabati bilan xon avlodiga qarindosh «ko'ragon», ya'ni kuyov unvonini olgan. Bu ham uning mavqeyini rasman mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Ma'lumki, qurultoy (mo'g'ulcha–kengash) qadimdan turkiy, mo'g'ul qabilalari ichida eng muhim masalalar bo'yicha chaqiriladigan o'ziga xos katta kengash hisoblangan. Turkiy udumlarga ko'ra, odat-

da, davlat boshliqlari aynan qurultoyda saylangan, ular oq kigiz ustiga o'tkazilib, yuqoriga ko'tarilgan. Oq kigizning to'rt uchini eng nufuzli amaldor, diniy arboblار ko'tarishga haqli bo'lishgan. Qurultoyda barcha qabila boshliqlari, eng nufuzli amaldorlar, diniy arboblار, sarkardalar ishtirok etishgan. Qurultoyda taxtga o'tkazilgan kishi qonuniy hukmdor sifatida tan olingan.

Amir Temur ham shu an'anaga sodiq holda 1370-yil 11-aprelda aynan qurultoy hukmi bilan Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilinadi. Temur qurultoyning mavqeyi va ahamiyatini yaxshi anglagan holda, qolaversa, saltanatni boshqarish, davlat asoslarini mustahkamlash, eng muhim qarorlarni qabul qilishda qurultoy institutini saqlab qoladi va undan unumli tarzda foydalanadi. Qurultoyni faollashtirish orqali davlatchilik asoslari ham takomillashib bordi.

Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» asarida Amir Temur tomonidan keyinchalik Qarshi, Samarqand, Qorabog' va boshqa yerlarda o'tkazilgan qurultoylar haqida ham so'z yuritgan. Xususan, 1390-yilgi qurultoyda viloyat dorug'alari va beklar ham bevosita ishtirok etishgan. Oltin O'rda xoni To'xtamishxon bilan munosabatlari yechimi borasidagi masala ham qurultoyda ko'rib chiqilgan. Qurultoy o'ziga xos oliy darajadagi maslahat kengashi hamda vakillik organi bo'lgan. 1403-yil oxirlarida o'tkazilgan olim-u ulamolar ishtirokidagi katta qurultoy ham manbalarda alohida qayd etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qurultoyda nafaqat lashkarboshilar, amirlar, davlat amaldorlari qatnashgan, balki olim-u ulamolar ham unda o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Tajribali kishilar lashkarboshilarga, markaziy va mahalliy davlat amaldorlariga maslahatchi etib tayinlangan. Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida Amir Temurning qurultoyni yanada faollashtirganligini, olim-u-ulamolarni davlat ishiga tortilganini ta'kidlaydi. Yana Amir Temur ulamolarga murojaat qilib, unga ularning maqtov yog'dirishlari emas, to'g'ri maslahat berishlari lozimligini ham uqtiradi. Amir Temur olimlarni ham davlat ishlariga tortib, ularga alohida hurmat ko'rsatgan.

Nizomiddin Shomiy bu xususda quyidagilarni yozgan edi: «Amir Temur Sohıbqiron bir guruh taniqli va diyonatli olimlardan tanlab, ularning har birini devoni a'lo tomonidan bir amin bilan mamlakat chekkalaridan biriga nomzod qildi, toki ular tayin etilgan tomonga jo'nab,

mamlakat ishlarining tagiga yetsinlar, agar bironta mazlumga zulm yetgan bo'lsa yoki biron o'jizga zo'ravonlik ravo ko'rilgan bo'lsa, zarar tekkanini mazlumlar oyog'idan chiqarib, ulardan zo'rlik bilan olingan narsa isbot qilinsa, o'sha tomonda bo'lgan xazina molidan ularga qaytarib bersinlar, bo'lgan ahvolni yozib olib qaytsinlar va arz izzatgohiga yetkazsinlar, toki bundan keyin u zulm qoidalarini ulardan yiroqlashtirsinlar».

Amir Temur garchi hokimi mutloq bo'lsa-da, mamlakatda adolat g'oyalari sadoqat, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida uning faoliyatini saqlab qolgan hamda amaliy hayotda bu hol o'z isbotini topgan.

Amir Temur Hindiston yurishidan avval, 1398-yil oxirlarida bu xususda qurultoy chaqirgan. Ushbu qurultoyda yurish bilan bog'liq masalalar, yuzaga kelgan vaziyat tahlil etilgan. 1403-yil oktabrda Shirvon (Ozarbayjon)da Amir Temur Boylaqon shahrini qurib bitkazadi. Shahar bir oy davomida barpo etiladi. Shundan so'ng Araks daryosidan Boylaqon tomonga ariq (kanal) qazib keltiradi. Amir Temur ushbu obodonchilik qurilish ishlarini nihoyasiga yetkazgach, aynan shu yerda katta qurultoy chaqiradi. Unda ko'plab taniqli davlat arboblari, diniy ulamolar, mamlakatning turli hududlaridagi nufuzli amaldorlar tashrif buyurishadi. Tarixiy manbalarining guvoh berishicha, aynan shu qurultoyda Amir Temur ulamo, olim, donishmandlarga murojaat qilib, jamiyatda adolat va qonun ustuvor bo'lishiga ko'mak berishga chaqiradi. Keyinchalik har bir viloyat, hududga olim, ulamo, donishmandlardan iborat vakillik kengashlarini jo'natadi. Ular esa, o'z navbatida haqiqiy ahvolni o'rganishlari hamda tegishli chora ko'rishlari kerak bo'ladi.

Qurultoydan keyingi o'rinda davlat majlisi (kengash) turgan. Bu xususda Amir Temurning «Tuzuklar»ida ham xabar beriladi. Ushbu kengash ikki ko'rinishda chaqirilgan. Katta kengash tinchlik paytida, Samarqanddagi amir saroyida o'tkazilsa, kichik kengashlar odatda harbiy yurishlar vaqtida, katta janglar oldidan chaqirilgan. Unda hukmdorning eng yaqin va sadoqatli kishilari ishtirok etishgan. Ba'zan bu kengashlar tegishli masala bois maxfiy tarzda ham o'tkazilgan. Albat, bu kabi kengashlarning o'tkazilishi ulkan saltanatdagi ahvol, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holatdan boxabar bo'lish, saltanat qonun-

qoidalari qanchalik amalga oshayotganligidan xabardor bo'lishda katta ahamiyat kasb etar edi.

Amir Temur davlat boshqaruvida qo'llanma o'rnini o'taydigan o'n ikki muhim qoidani (tuzuk) o'z «Tuzuklari»ning eng avvalida tilga oladi. Bu xususda uning o'zi quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Bu tuzuklardan saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zarari tanazzuldan omon bo'lgay... men (shu) o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o'n ikki tuzuk yordamida mamlakatni qo'limda tutib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga zeb-u ziynat berdim...». Mazkur tuzuklarning mazmun-mohiyati quyidagicha o'z ifodasini topgan:

Birinchi tuzuk – islom dini rivojiga e'tibor berish, har bir yerda, har bir vaqt islom dinini qo'llab-quvvatlash. Bu bilan Sohibqiron jamiyat, xalq e'tiqodsiz, ma'naviyatsiz yashay olmasligiga, hukmdorning o'zi shu din asnosida o'zgalarga o'rnak bo'luvchi yuqori ma'naviyatli inson bo'lishiga urg'u beradi.

Ikkinchi tuzuk – hamma vaqt saltanatdagi mavjud o'n ikki tabaqa vakillariga tayanishi, ularni, ya'ni butun xalq ommasini o'zining tayanchi ekanligini ta'kidlaydi. Bu bilan Amir Temur mamlakat aholisi-ning barcha qatlamlari u uchun bir xil yuqori ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Holbuki, o'rta asrlar sharoitida bu katta ma'naviy jasorat qadami hisoblangan.

Uchinchi tuzuk – Amir bu tuzukda Sohibqiron dushman qo'shinlarini yengish uchun maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik, hushyorlik, eh-



Amir Temur harbiy yurishga o'tlanmoqda. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida aks ettirilgan miniatyura.

tiyotkorlik zarur ekanligini ta'kidlaydi. Saltanat ishlarida esa murosayu-madora, muruvvat, sabr-toqat va chidam lozim deb hisoblab, do'st-u-dushman bilan ham murosqa qilish kerakligini qayd etadi. Aynan shu tuzukda hukmdor lozim bo'lsa ba'zi narsalarni bilsa ham sharqona qoidaga rioya etib, o'zini bilmaslikka solishini ham aytib o'tadi.

To'rtinchi tuzuk – davlat ishlarini to'ra va tuzuk, ya'ni qonun va qoidaga muvofiq ravishda boshqarilishi shart deb hisoblab, aynan shu to'ra va tuzukka tayanib, o'z martaba va maqomini mustahkamlaganligini ta'kidlaydi. Qayd etish lozimki, Sohibqiron davlat aynan qonunlarga tayanishi va qonunlarga barcha bir xil tarzda bo'ysunishi kerakligini ta'kidlagan edi. Zero, faqat saltanatni uzoq va barqaror boshqarish adolatli qonun ustuvorligiga bevosita bog'liq bo'lgan.

Beshinchi tuzuk – amirlar va askarlarga tegishli e'tibor ko'rsatish, ulardan moddiy ta'minot va yordamni ayamaslik, har qanday vaziyatda ularning og'irini yengil qilish, tarbiyasiga katta ahamiyat bilan qarash aytiladi. Amir Temur o'z saltanatini barpo etishda aynan shu harbiy lashkarboshilar, bahodir askarlar mardligi va mardonavorligiga tayan-ganligi, davlat oldida ularning xizmati katta ekanligini aytib, ularga tegishli munosabat bildirilishini yozadi.

Oltinchi tuzuk – hamma vaqt o'z faoliyatida adolat va insofga tayangani, kishilarga rahm-shafqat ila munosabatda bo'lib, doimo haqqoniy hukm chiqarilishi lozimligi bayon etiladi. Raiyat, ya'ni oddiy xalqni umid va qo'rqinch orasida, sipohni siyosat va insof bilan qo'lda ushlaganligi, fuqarolarga ehsonlar bilan munosabatda bo'lishga ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Aynan shu tuzukda Amir Temur har qanday zulm-zo'ravonlikka qarshi bo'lgani, zolimlarni javobgarlikka tortgan, dushman uni oldiga bosh egib kelsa, kechirib yuborganligi qayd etiladi. Adolat va qonun ustuvorligi, yuqori ma'naviy xislatlar masalasida Amir Temur pozitsiyasi ushbu tuzukda yaqqol namoyon bo'ladi. Zero, Sohibqiron yuqori insoniy fazilatlarini qadrllovchi shaxs bo'lgan edi.

Yettinchi tuzuk – ushbu tuzukda Amir Temur ma'naviy qiyofasiga chizgilar davomini ko'rish mumkin. Mazkur tuzukda Sohibqiron sayidlar, ulamo, mashoyix, donishmand kishilar, muhaddis va tarixchilarni odamlarning sarasi deb hisoblab, ularni yuqori e'tiborga sazovor shaxslar sifatida hurmatlarini joy-joyiga qo'yishni ta'kidlaydi. Bu bilan Sohibqiron ilm-fan vakillariga bo'lgan ijobiy munosabati davlat

siyosati darajasiga qadar ko'tarilganligini ko'rish mumkin edi. Mazkur tuzukda Amir Temur shijoatli kishilarni o'ziga do'st tutishi, ulamo va o'qimishli kishilar bilan suhbatlarni afzal ko'rishi, hamma vaqt ma'naviy pok, toza qalbli, niyati toza kishilarga talpinganligi, ulardan duo-fotihalar olib yurganligi aytiladi. Hamma vaqt darvish, beva-bechora, ezilgan kishilarga muruvvatli bo'lganligi, ularning hech bir talabini inkor etmaganligi ham qayd etiladi. Amir Temur shu o'rinda dini islomda mavjud «siylayi rahim», ya'ni yon-atrofdagilarga hamisha javob kutmagan holda yaxshilik qilish, mehr-shafqatli bo'lish tamoyiliga qat'iy amal qilgan.

Sakkizinchi tuzuk – mazkur tuzukda Sohibqiron har bir ishini qat'iy tarzda oxirigacha bajarilishi kerak deb hisoblab, hukmdorning o'zi bunda o'rnatilishi kerak, deydi. Amir Temur davlat ishlari sohasida tegishli tajriba va malaka hosil qilish maqsadida tarixda o'tgan barcha nufuzli hukmdorlar faoliyatini va ularning saltanati inqirozi sabablarini o'rganganligi hamda undan tegishli saboq chiqarganligini bayon etadi. Sohibqiron davlatga ziyorat-zahmat yetkazuvchi barcha salbiy illatlar xavfidan uzoq bo'lishi, uning oldini olish lozimligini ta'kidlaydi.

To'qqizinchi tuzuk – xalq ahvolidan doimo boxabar bo'lish, katta-kichikka o'ziga xos muomala va munosabatda bo'lish kerakligi, hamma yerda o'sha joy e'tiborli zotlari bilan yaqin munosabatlarni o'rnatganligi ham qayd etiladi. Saltanatning barcha hududlari, qishloq, shaharlarga diyonatli kishilarni hokim etib tayinlaganligi, hamma yerda zulm-zo'ravonlikka chek qo'yganligi bayon etiladi. Doimo har qanday e'tiroz, murojaatga insof va adolat yuzasidan javob berilmog'i kerak, deb hisoblaydi.

O'ninchi tuzuk – bu tuzukda yana masalaning ma'naviy tomoniga e'tibor beriladi. Amir Temur kimki, uni hurmat qilsa, uning ham hurmatini joyiga qo'yganligi, yaxshilik, do'stlik, qadr-qimmat haqida so'z yuritadi. Shu tuzukda sobiq dushmanlari agar yana uning xizmatiga kirishga ahd qilsalar, Amir Temur ularga nisbatan muruvvatli va kechirimli bo'lganligi qayd etiladi.

O'n birinchi tuzuk – Amir Temur ushbu qoidada yuqori martabaga erishganida unga yordam bergan hech kimni unutmaganligini qayd etadi. Ayniqsa, qon-qarindoshlik iplarini hech qachon uzmagani aytiladi. Har kimga o'ziga yarasha muomala qilganligi, hayoti davomida

tajriba orttirgani, do'st-u dushman bilan kelishib yashash lozimligi ha-yotiy qoida ekanligiga urg'u beradi.

O'n ikkinchi tuzuk – do'st-u dushmanligiga qaramay, har joyda si-pohiyar, harbiylarni hurmat qilish lozimligi uqtiriladi. Bu borada So-hibqiron o'z e'tiborini mard va jasur harbiylarga qaratib, xiyonatkor va vafosiz sipoh ahliga salbiy munosabatda bo'lishini bildiradi. Sipoh ahli-niing o'z hukmdoriga sadoqat va vafodorligini yuqori qadrlaydi.

Amir Temur davlat boshqaruvida avvalo qonunga tayanish lozimli-gini «Tuzuklar»da, «Saltanat ishlarini qonun va qoidalar, to'ra va tuzuk-ka solib saltanatim martaba-yu e'tiborini saqladim», deya ta'kidlagan edi. Xususan, saltanat mavqeyi, obro'-e'tiborini saqlashda u to'rtta tu-zuk (qoida)ni oldinga suradi.

Birinchidan, qat'iy tarzda olingan qonunlar din va shariat asnosi-da; ikkinchidan, sipoh va raiyat (xalq ommasi)ni umid va qo'rquv ora-sida saqlash, do'st-dushmanni murosay-u madora martabasida tutish, do'stlikni kuchaytirish, oliyhimmat bo'lish; uchinchidan, hech kimdan qasd, o'ch olmaslik, sinalgan sofdil, shijoatli odamlarni atrofida jam etish, nafi yomon, ko'ngli buzuv qo'rloqlarni atrofiga yaqinlashtir-maslik; to'rtinchidan, adolat ila ish tutish, jabr-zulmdan yiroq bo'lish, ochiq yuzli va rahm-shafqatli bo'lish. Amir Temur o'z saltanati shuku-hini saqlash va ko'tarishda yuqoridagi mezonlarga qat'iy amal qilgan va shu bois ham obro'-e'tibori mamlakat, xalq orasida yuqori darajada bo'lgan.

Shuningdek, Amir Temur saltanatni idora etish ishida o'n ikki tuzuk tutganligini alohida ta'kidlaydi. Ushbu o'n ikki tuzuk xususida Amir Temur o'z «Tuzuklari»da quyidagilarni qayd etadi: «Ushbu o'n ikki tuzukni o'zinga shior qilib olganimdan keyin katta ishonch-u salobat bilan saltanat taxtiga o'tirdim. O'z tajribamdan sinab bildimki, agar qay bir podshoh shu o'n ikki narsaga ega bo'lmas ekan, saltanatdan bebahra qolur». Quyida havola etilayotgan o'n ikki tuzuk Sohibqiron fikrlari-niing yaqqol tasdig'i bo'lib xizmat qiladi:

1. Podshoh o'z so'ziga ega bo'lishi, ishini o'zi bilib qilishi lozim.
2. Hukmdor adolatparvar bo'lishi, atrofida ham insofli, adolatli va-zirlarni saqlashi kerak.
3. Podshoh har bir ishida o'zi hukm chiqarishi lozim, zero, hech kim uning hukmiga aralasha olmasin.

4. Hukmdor o'z qarorida hamisha qat'iy bo'lishi va ishni oxiriga yetkazishi lozim.

5. Podshohning har qanday hukmi qat'iy joriy etilishi kerak.

6. Saltanat ishlarini biron-bir boshqa kimsaga berib qo'ymaslik.

7. Saltanat ishlarida har kimning fikr-mulohazasini eshitsin, lekin maslahatning foydalisini olsin.

8. Saltanat, sipoh va raiyat bilan bog'liq masalalarda boshqalarning gap-so'zi va fe'l-atvoriga qarab ish tutmaslik, har bir ishda haqiqat ayon bo'lmagunga qadar shoshmay, mulohaza bilan ish tutish.

9. Podshohning salobati, obro'-e'tibori shunchalik yuqori bo'lishi darkorki, uning amr-u-farmoniga hech kim qarshi chiqa olmasin.

10. Xazina, lashkar, raiyat, saltanat – bularning barchasi hukmdor qo'li ostida bo'lib, u har bir so'zida qat'iyatli bo'lishi kerak.

11. Saltanat ishlarida hech kimni o'ziga sherik qilmaslik.

12. O'z atrofidagi kishilardan ogoh va hushyor bo'lishi.

Amir Temur davrida boshqaruv ikki idora: dargoh va devonlar (vazirliklar)ga bo'lingan. Yuqorida ta'kidlanganidek, dargoh – eng oliy davlat idorasi bo'lib, uning boshlig'i Amir Temurning o'zi bo'lgan. Amir Temur dargoh faoliyatini yuritishda maslahat va kengashlardan ham unumli foydalangan. Xususan, o'z «Tuzuklar»da Amir Temur shunday yozgan edi: «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim. Donishmandlar demishlarkim, o'z o'rnida qo'llangan tadbir bilan ko'plab lashkarlarning qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, favj-favj lashkarni yengib bo'lur». Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirlik, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman, saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'lanib turish ishini oliy devon olib borgan. Dargoh tizimidagi bu devonga devonbegi bosh bo'lib, vazirlar unga hisobot berib turishgan.

Dargohdagi muhim lavozimlardan biri – arzbegi bo'lgan. Uning xizmatiga shikoyat bilan kelganlar, arzhilar bilan ishlash, ularning arzdodini hukmdorga yetkazish bo'lgan. Lozim bo'lganda joylarga vaziyatni o'rganish uchun aminlar (ya'ni, ishonchli vakillar) taftish uchun jo'natilgan. Aminlar vazifasiga bundan tashqari, tobe yerlar to'lovini yig'ib kelish ham kirgan.

Dargohdagi yana bir muhim lavozim – tavochi bo'lgan. Tavochi oliy farmonga muvofiq joylarga borib, harbiy yurish uchun lashkar to'plash bilan shug'ullangan. Tavochilar bosh tavochi, piyoda askar tavochisi kabilarga taqsimlangan. Harbiy yurish vaqtida tavochilar qo'shinlarning joylashuvi, buyruqlar ijrosi, tinchlik vaqtidagi ishlarga taqsimlanishgan.

Shuningdek, dargohda bosh hojib, xazinador, xonsolor (to'y, bazm, katta ziyofatlar tashkilotchisi), jevachi (qurol-aslaha saqlovchi), qushchi (ov marosimlariga mas'ul), bakovulboshi (saroy oshpazlari boshlig'i), kotiblar, tabiblar, bitikchilar, g'azalxonlar, farroshlar ham xizmat qilishgan.


Amir Temur devon (ijroiya) xizmatini mo'g'ul istibdodidan keyin tiklay oldi. Devonbegi shu devon boshqaruvchisi bo'lgan. U katta mavqega ega lavozim egasi hisoblangan. Devonda, ya'ni markaziy ijroiya hokimiyatda yettita vazir xizmati mujassam bo'lgan.

Birinchi vazir – mamlakat va raiyat (aholi) vaziri. U bosh vazir hisoblanib, mamlakatning muhim sohalari uchun bevosita mas'ul bo'lgan.

Ikkinchi vazir – harbiy ishlar vaziri bo'lib, harbiylarning iqtisodiy ahvoli, maoshi, yer-suvlari boshqaruvi, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy ko'riklar, yarador bo'lganlarga nafaqa tayinlash va boshqalar ijrosi uning zimmasiga yuklatilgan.

Uchinchi vazir – mulkchilik va soliq ishlari vaziri. U egasiz qolgan mol-mulkni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj undirish, o'tloq-yaylovlarni boshqarish, barcha tushadigan daromadlarni saqlash va boshqa vazifalarga mas'ul etib tayinlangan.

To'rtinchi vazir – moliya vaziri bo'lib, u butun saltanat bo'yicha kirim-chiqim ishlariga, barcha xazina xarajatlari hisobini oluvchi, moliyaviy ishlarni tartibga keltiruvchi hamda unga javobgar shaxs egasi bo'lgan.



Amir Temur davridagi davlat boshqaruvi

Keyingi uch vazir – sarhad vazirlari hisoblanib, ular saltanat tarkibidagi turli o'lk va mamlakatlarga oid moliyaviy muomala va daromadlarni, soliqlarni boshqarishgan. «Temur tuzuklari»dagi ma'lumotga ko'ra bu uch vazirlar quyidagi vazifalarni bajarishgan: Birinchi vazir – xalqdan olinadigan soliqlar undirilishini kuzatgan, o'z faoliyati to'g'risida hukumatga hisobot berib turgan. U soliqlar miqdori, soliq to'lovchining nomini yozib borgan. Ikkinchi vazir – sipoh ishlarini bajarigan. U sipohga berilgan va berilishi lozim bo'lgan mablag' hisobini olib borgan. Uchinchi vazir – bedarak yo'qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchi va savdogarlar), har xil yo'llar bilan yig'ilib

qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirgan. Tarixiy manbalarda adliya vazirligi (devoni mazolim) haqida ham gap ketib, u sud-huquq sohasi bo'yicha faoliyat yuritgan. Vaqf ishlari esa – sadrlar sadri zimmasiga yuklatilgan. Amir Temur «Tuzuklar»da vazir tayin etish ishida to'rt sifatga ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Ular quyidagilar bo'lgan:


1. Asllik va toza nasllik;
2. Aqllilik va fahm-farosatlilik;
3. Sipoh va raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik;
4. Sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur mana shunday sifatlarga ega shaxsni vazirlik martabasi- ga loyiq deb hisoblab, bunday vazirga to'rt ixtiyoz – ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilishini ta'kidlaydi.

Amir Temur yuqori daraja va mezonga ega bo'lgan vazirga quyidagicha ta'rif bergan edi: «Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muam-molarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va taqiqllovchi buyruqlarida uning aslligi va toza naslligi ko'rinib turadi. Hech kimga dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har nimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, ayt-salar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nis-batan shunday muomala qiladiki, oxiri u yomonligidan qaytadi, unga shunday yaxshilik qiladiki, u oxiri oldiga bosh egib keladi. Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli-zoti past, hasadchi, gina-kek saqllovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlat-u saltanat tez orada qu-laydi».

Sohibqiron zamondoshlarining aksariyati, xususan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Amir Temur bunday yondashuvga katta e'tibor berganligini, mansabiga nолоyiq ishlar qilgan amaldorlar tegishli ravish-da jazolanganligini ta'kidlashgan. Xususan, Amir Temur o'z mansabini

suiste'mol qilgan mansabdorlarga keskin salbiy munosabat bildirgan. Klavixo o'z kundaligida 1404-yil 9-oktabrda Sohirqiron o'zining ikki vaziri: Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jaldani qattiq jazolab, ularni qatl qildirganligini qayd etgan.



Devonda, shuningdek, boshqa turdagi amaldorlar ham bo'lishgan. Bular: shayxulislom, qozi al-quzzot (oliy sudya), qoziyi ahdas (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar (harbiy qozi), sadri ā'zam (oliy sadr), dodxoh (shikoyatlarni ko'rib chiquvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdor shaxsiy buyruqlarini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhasil (soliq va o'lpon yig'uvchi), qorovulbegi, muhtasib, voqeanavis, munshiy va boshqalar.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida «devoni adl», «devoni quzzot», «devoni mansab» degan atamalar uchraydiki, bu Amir Temur davlatida o'ziga xos adliya ishlari bilan shug'ullanuvchi muasasa bo'lganligidan dalolat beradi. Akademik B.Ahmedov, sharqshunos

olim A. Ziyo adolat ishlariga mas'ul bunday muassasa darhaqiqat mavjud bo'lganligini qayd etishadi.

Tarixiy manbalarda saroyda mavjud qabul marosimi haqida quyidagilar bayon etilgan. Xususan, taxtning o'ng tomonida sayidlar, qozilar, ulamolar, beklarbegi, qo'shin amirlari, no'yonlar, ulus, tuman, qo'shin boshliqlariga joy ajratilgan. Taxtning old tomonida devonbegi va vazirlar o'tirishgan hamda bahodirlar, chap tomonida esa qorovulbegilar joy egallashgan. Taxt qarshisida qorovul amirlari, etagida esa ichkilar yasovuli xos turgan. Taxtning o'ng va chap yonida dodxoh turgan.

Markaziy hokimiyat idoralarida, ulus hokimiyatlari devonlaridagi kabi, vazirlardan boshqa turli tabaqadagi amaldorlar bo'lishgan. Bular, masalan, shayxulislom, qozi ul-quzzot (oliy sudya), qoziyi ahdas (odat bo'yicha hukm chiqaruvchi sudya), qozi askar (harbiy sudya), sadri a'zam (oliy sadr, vaqf mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'rib chiquvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyruqlarini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlash majburiyati yuklatilgan amaldor), muhassil (soliq va o'lpon yig'uvchi), tavochi (asosan qo'shimlarni to'plash ishiga mas'ul oliy amaldor), qorovulbegi, qutvol (qal'a komendanti), muhtasib (shariat qoidalarini ijro etish hamda bozorlarda narx-navo, tarozilari to'g'riligini tekshiruvchi mansabdor), voqeanavis (kundalik voqealarni yozib boruvchi), munshiy (shaxsiy kotib) va boshqalar.

Amir Temur davlatida tezkor axborot almashuvi yo'lga qo'yilgan. Har bir qaror, farmonlar munshiylar tomonidan ko'chirilib, tezda viloyat va hududlarga jo'natilgan. Ali Yazdiy o'z asarida 1402-yil Anqara jangidan so'ng Sohibqiron bu haqda munshiylar rahbari Shamsiddin Munshiyga tezda fathnomalar tayyorlab joylarga jo'natishga buyruq beradi, ushbu buyruqda 21 ta joy nomi qayd etiladi.

Amir Temur davlatni ulus, viloyat, tumanlarga bo'lib boshqargan. U saltanatni to'rt ulusga bo'lib, ular tepasiga o'z o'g'illari, nevaralarini qo'ydi. Viloyat va tumanlarga ham asosan Temuriy shahzodalar, ishonchga sazovor kishilar rahbar etib tayinlangan. Katta o'g'il – Jahongir Mirzoga – Kobul, G'azna, Qandahor va Sind daryosigacha bo'lgan yerlar 12 000 kishilik qo'shin bilan birga berilgan. Uning vafotidan (1376-y.) so'ng bu yerlar Balx viloyati bilan birga Jahongirning o'g'li


Pirmuhammadga berildi. Umarshayx Mirzoga avval Farg'ona, 1393-yili Fors viloyati bilan 10 000 kishilik qo'shin in'om etildi. Uchinchi o'g'il Mironshoh Mirzoga 1380-yili 10 000 kishilik qo'shin bilan Xuroson, 1383-yili esa markazi Tabriz bo'lgan G'arbiy Iroq va Ozarbayjon ulus qilib berildi. To'rtinchi o'g'il Shohrux Mirzoga 8 000 kishilik qo'shin bilan markazi Hirot bo'lgan Xuroson o'lkasi ulus tarzida taqdim etildi. Ulus egalarining o'z devoni, xazinasini ham bo'lgan. Shahzodalar yonida doimo ishonchli va sadoqatli kishilar bo'lishgan.

Mazkur davrda davlat nohiya – okruglarga, o'n mingliklar – tumanlarga, mingliklar – hazoraga, yuzliklar – sadaga, o'nliklar – dahalarga bo'lingan. Mahalliy boshqarishning o'nliklar tizimi asosida belgilangan tartibda Amir Temur qo'shiniga askar yetkazib berish vazifasi qo'yilgan edi. Har bir viloyat, shahar va tumanlarning o'z hokimi, moliya devoni, qozisi, muftiysi, mutavallisi va muhtasibi bo'lgan. Shuningdek, mahalliy erkin jamoalar va mahalla oqsoqollarining o'z-o'zini boshqaruv tizimida ham o'rni katta bo'lgan.

Har bir qal'ada qutvol, ya'ni komendant tayin etilgan, shahar va tuman boshliqlari – dorug'alar bo'lishgan. Klavixoning ta'kidlashicha, har bir yirik amaldorning o'z bitikchisi va qayd daftari bo'lgan. O'rta asr hukmdorlaridan farqli ravishda Amir Temur o'z aholisi faoliyati va manfaatlari uyg'unligini ta'minlash maqsadida ularni 12 toifaga bo'ladi. Lekin «Tuzuklar»da ta'kidlaganidek, ularni bir-biridan kam ko'rmadi zero, uning o'zi bu haqda «Saltanatim qonun-qoidalarini shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Shu o'n ikkita toifani saltanatim osmonining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim», deya ta'kidlagan edi.

Bu o'n ikki toifa quyidagilardan iborat edi. Birinchi toifa – sayidlar, ulamolar, shayxlar va fozillar; ikkinchi toifa – aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor va qat'iyatli arboblar; uchinchi toifa – duogo'y kishilar; to'rtinchi toifa – amirlar, sarhanglar (qo'shin qo'mondonlari), sipohsolarlar; beshinchi toifa – sipoh va raiyat; oltinchi toifa – ishonchli, to'g'ri e'tiqodli kishilar; yettinchi toifa – vazirlar, devon kotiblari va munshiylar; sakkizinchi toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar; to'qqizinchi toifa – muhaddislar, ya'ni hadislarini rivoyat qiluvchilar; o'ninchi toifa – mashoyixlar va so'fiylar; o'n birinchi toifa – turli kasb-hunar egalari; o'n ikkinchi toifa – savdogarlar, sayohat-

chilar, musofirlar. Amir Temur o'z davriga nisbatan ilg'or fikrlovchi zot bo'lgan. U boshqa o'rta asr hukmdorlaridan farqli ravishda barcha aholi qatlamlarini o'ziga tayanch deb bilgan.



Amir Temur davlatida, keyinchalik Temuriylar davrida ham tezkor axborot almashish yo'lga qo'yilganligi sababli yirik saltanatning eng uzoq va chekka qismlariga ham hukmdor farmon va qarorlari tezda yetib borgan. Amir Temur davlati bayrog'i haqida fransuz olimi L.Keren «Kuch – adolatda» degan ibora bitilgan uch halqadan iborat bayrog'i bo'lgan, deya ta'kidlaydi. Uch halqani olimlar turlicha ta'riflashadi. Xususan, uch halqa yer, osmon, suv deb, ba'zilar dunyoning 3 qismi deya ta'rif berishadi. Davlatda e'lon qilingan farmonlar – yorliqlar deya yuritilgan. Ushbu yorliq, maktub va ruxsatnomalarda hukmdor odatda «Temurbek» deb imzo chekkan. Rasmiy hujjat va tangalarda «Temur Ko'ragon» degan so'zlar bitilgan. Temur davlatida etnik, diniy va til borasida ayirmachilik va tazyiqlarga yo'l qo'yilmagan. Uning o'zi ona tili – turkiy tilni rivojlantirishga katta e'tibor bergan.

Yuqoridagi mulohazadan ham ko'rinib turibdiki, Amir Temur aholi barcha qatlamlari manfaatini himoya qilgan ham tayangan. O'rta asrlar

sharoitida faqat o'ta zukko va oqil davlat boshlig'igina bunday mulohazani aytishga qodir edi.

Ta'kidlash lozimki, Amir Temur davlatida sud-huquq sohasiga ham katta e'tibor qaratilgan. Aksariyat hollarda bu davrda jinoyatga jazo berish emas, balki uning oldini olishga katta ahamiyat bilan qaralgan. «Tuzuklar»da har bir shaharda shahar hokimining saroyi (Dorulamorat), qozixona (sud muassasasi), adliya boshqarmasi (Doruladolat) barpo etilgan. Huquqni muhofaza etuvchi tarkibda dorug'alar katta rol o'ynashgan. Aynan ular o'zlariga qarashli yerlarda tinchlik va xotirjamlikni saqlashga mas'ul bo'lishgan. Shahar va qishloqlardagi qutvollar xalqning tinchligini qo'riqlab, bordi-yu biron narsa yo'qolsa yoki o'g'irlansa, ular javobgar bo'lishgan. Yo'lovchilarni bir manzildan ikkinchi manzilga yetkazish zobitlar zimmasida bo'lgan. Askarlar – tun qorovullari bo'lib, ma'lum hududlarga bo'lingan holda jinoyatlarni ochishda muhim o'rin egallashgan. Muhtasiblar shariat qoidalari, bozor-o'choqdagi qonunbuzarlikka qarshi kurashsalar, ichki ishlardagi mas'ul shaxs – yasag'liq deb atalib, umumiy tinchlik uchun u javobgar bo'lgan. Shihnalalar – harbiylardan tayinlangan ma'murlar hisoblanib, ular shahar tinchligiga javob berishgan. Qo'rchilari deb atalgan amaldor qurol-yarog' uchun mas'ul bo'lib, uni kerak holda jo'natilayotganligidan boxabar bo'lgan, shuningdek u podshoh saroyini ham qo'riqlagan. Amir Temur tinchlik, adolatni ta'minlashga katta e'tibor berib, o'z «Tuzuklari»da har qanday tuhmat, ayblov, bo'htonga tekshiruvsiz ishonishni qoralagan. Xususan, u faqat 4 kishi guvohlik bergandagina va isbotlangan taqdirdagina aybdor jazoga tortilishini ta'kidlagan. Davlatda sudlar ham ixtisoslashgan bo'lib, ularni uch turi mavjud bo'lgan. Bular: 1. Lashkar qozisi – harbiy masalalarga oid jinoyatlarni; 2. Shariat qozisi – shariatga zid jinoyatlarni; 3. Qozi – fuqarolik ishlari, jinoyatlarni ko'rib chiqishgan. Shariatga bog'liq bo'lmagan jinoyatlar esa «Yasoq» qonuni bo'yicha ko'rilgan.

Amir Temur shu tariqa XIV asr oxirlari – XV asr boshlarida o'z davriga nisbatan ilg'or bo'lgan davlat boshqaruvi tizimini yaratdi. Bu tizim o'zida milliy davlatchilikning eng yaxshi an'analarini jam etib, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida muhim iz qoldirdi.

1.5. Amir Temur davrida harbiy sohaga e'tibor va harbiy mahoratning yuksalishi

Jahon tarixida nafaqat buyuk davlat arbobi, balki ulug' sarkarda sifatida ham nom qoldirgan Amir Temurning harbiy ish sohasi, mudofaa, xavfsizlik masalalaridagi siyosati ham yuqori e'tiborga sazovordir.

Ta'kidlash joizki, o'zaro urushlar xavfi ko'p bo'lgan o'rta asrlar davrida tabiiyki, davlat tinchligi va osoyishtaligiga raxna soluvchi kuchlar anchagina bo'lgan. Raxna soluvchi kuchlar o'z navbatida ichki va tashqilarga bo'lingan. Ichki xavfni avvalo taxt vorislari, o'g'il va nevaralar, qavm-qarindoshlar, yirik zodagon va harbiy boshliqlar keltirib chiqarishi mumkin edi. Shu bois, birinchi navbatda, hukmdor ichki xavfni bartaraf etish masalasiga katta e'tibor bilan qaragan. Davlatga qarshi fitna uyushtirganlarga qarshi qanday yo'l tutish kerak, degan savolga, Sohibqiron o'z «Tuzuklari»da shunday javob bergan edi: «Amr qildimki, agar o'g'illarimdan qaysi birov saltanat martabasiga da'vogarlik qilib bosh ko'tarar ekan, uni o'ldirishga, bog'lashga yoki muchasidan bir joyini kamaytirishga hech kim jur'at qilmasin. Lekin o'z da'vosidan kechmaguncha asirlikda saqlasinlar, toki xudoning mulkida urush chiqmasin». Shuni aytish joizki, Amir Temur masalani iloji boricha tinchlik va kelishuv yo'li bilan yechishga harakat qilgan. Albatta, ushbu yo'l davlat asoslarini mustahkamlashga xizmat qilishi kerak edi. Shu bois u «Tuzuklar»da masala mohiyati haqidagi so'zini davom ettirib, «Agarda nabiralar va qavm-qarindoshlardan biri menga qarshi ko'tarilsa, uni darveshlik, mol-mulkini tortib olish holatiga solsinlar», degan edi. Davlatga qarshi amirlar va vazirlar fitnasi ham xavfli holat hisoblangan. Amirlardan birontasi fitnada ishtirok etsa, u mansabidan tushirilgan. Shu o'rinda masala mohiyatiga chuqurroq yondoshilsa, shu hol namoyon bo'ladiki, vazirlar bunday fitnada qatnashishi masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondoshilgan. O'z «Tuzuklari»da Sohibqiron: «Agar vazirlar davlatga xiyonat qilgan taqdirda ular shoshma-shosharlik bilan o'ldirilmasin», deya qayd qilgan. Amir Temur o'zi ta'kidlaganidek, har bir muammo yechimiga sergaklik va hushyorlik bilan yondashuv lozim bo'lgan. Amir Temur bu borada «Tuzuklar»da yolg'on guvoh va tuhmat asnosida taniqli amirlardan biri bo'lgan Amir Abbosni o'linga mahkum etganligidan qattiq afsusda bo'lganini yozadi. U tuhmatchi, hasadgo'y

va qora niyatli mansabdorlarning fitnalarini katta xavf deb hisoblagan. Zehnli davlat arbobi sifatida yon-atrofidagi sadoqatli shaxslarni bejiz o'ldirib yuborishni u qattiq qoralari edi.

Sohibqiron davlat boshqaruvi sohasini muhim va nozik siyosat maydoni sifatida tushungan. Amir Temur fikricha, hukmdor zaif va loqayd bo'lsa, ichki xavf-xatarning o'ziyoq davlatni parokanda qilishi mumkin edi. Shuningdek, mamlakatda qonunlarning buzilishi, ularga amal qilmaslik ham oxir-oqibatda davlatni adolatsizlik va parokandalikka olib keluvchi omillar bo'lib hisoblagan.

«Har yerda viloyat-u shaharda, – deb yozgan edi Amir Temur va O'rduda kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh o'zining va yot lashkarlarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan yot mol-mulk, chetdan kirgan yoki chetdan chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podshohlar, ularning gap-so'zlari, ishlari va uzoq o'lkalardan kelib, mening dargohimga kelgan ulamolar, fuzaio, haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar».

«Tuzukot»da bu xususda quyidagi ta'rifni ko'rish mumkin: «Amr qildimki, turli mamlakatlar, sarkardalarning xabarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor-hol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik». Sohibqiron xavfni bartaraf etishdan avval, uning oldini olish zaruriyati muhim ekanligini chuqur anglab yetgan. Amir Temur ogohlik va hushyorlikka katta ahamiyat berib, bu xususida «Tuzuklar»da alohida tuzuk ham tashkil etgan.

«Mulk-u mamlakat, sipohu raiyat ahvolidan ogoh bo'lib turish tuzuki» bu borada katta ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra har bir viloyat, tuman, shaharda hamda lashkar qarorgohida kundalik voqealarni yozib boruvchi xabarnavislar lavozimi joriy etiladi. Mazkur lavozim egasi mas'ul mansabdorlarning xatti-harakatidan, atrofdan kirib-chiqqan mol-mulklar, yot, notanish kishilar faoliyati, karvonlar, qo'shni yurt hukmdorlari, podshoh saroyiga yaqin kishilar xususidagi ma'lumotlarni hukmdorga taqdim etib turishi lozim bo'lgan. Shuningdek, tashqi xavfdan ogoh qilish maqsadida mingta tuya va mingta ot mingan chopqunchi, ming nafar piyoda holatdagi chopar tayin etilib, ular tashqi

xavf bo'lishidan avval tegishli xabarni hukmdorga yetkazishlari shart bo'lgan.

Mazkur tuzuk va voqealar tahlili shundan darak beradiki, Amir Temur davlat xavfsizligi xizmati sohasi tizimini ishlab chiqib, uni amaliyotga tatbiq etgan. Sohibqiron o'zga davlatlarga savdogar, shayx, darvish va boshqalar niqobi ostida o'z ayg'oqchilarini ham yuborib, tegishli ma'lumotlarni to'plab olgan. Aksariyat hollarda ayg'oqchilar olib kelgan ma'lumotlar yopiq (maxfiy) majlislarda muhokama etilgan. Har bir joyda xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilingan, mas'ul shaxslar har qanday vaziyatda ham xavfsizlikni saqlashga tayyor bo'lib turishgan. Ichki nizo va parokandalik, tahlikali urushlarga to'la bo'lgan o'rta asrlar sharoitida xavfsizlik masalasiga e'tibor eng oldingi o'rinlardan birida turishini Sohibqiron yaxshi anglar edi.

Yuqoridagi mulohazadan kelib chiqqan holda hukmdorning xavfsizlik qoidalariga amal qilishi ham tabiiy holat edi. Amir Temur saroy va devonni qo'riqlash xizmatiga birinchi galda e'tibor bilan qarab, o'n ikki ming askar urush va tinchlik bo'lishidan qat'i nazar, uni to'rt tomonlama qo'riqlab turgan. Har kecha esa ming nafar qurolli askar soqchilikni amalga oshirgan. Har bir yuz soqchi ustidan bir yuzboshi mas'ul etib qo'yilgan. Bunday qo'riqchi soqchilar shahar va qishloqlarda, chegara postlarida, muhim karvon yo'llariga ham qo'yilgan. Urush vaqtida esa o'n ikki ming qurollangan otliq o'z boshliqlari (amirlar, mingboshilar, o'nboshilar) to'rt qismga bo'linib, ular o'ng (barong'or), chap (javong'or), o'rduning oldi va orqa qismlariga joylashtirilgan.

Ushbu to'rt qism navbatma-navbat o'rdudan uzoqlashmagan holda soqchilik qilgan. Bu to'rt qism – to'rt sipohiy favj deb atalib, o'zlari uchun hirovul belgilashgan. Hirovuldan qorovullar tayin etilgan. Ular har bir xabarni hushyorlik bilan o'rduga yetkazib turishgan. Sohibqiron qo'shni va o'rduning himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida qo'shin orqasidan to'rt favj (ya'ni, qism) chopqunchilar tayyorlashni buyurgan. Bu chopqunchilar to'rt farsah atrofida lashkarni qo'riqlab borishgan. Xavfsizlik uchun tayin etilgan to'rt favj chopqunchi lashkarining uchdan bir qismi chegaralarni qo'riqlash ishiga tayin etilgan.

Qo'shinning (favj) uchdan ikki qismi esa hamisha saltanat xizmati ishiga shay bo'lib turgan. Amir Temur «Tuzuklari»ning ko'plab joylarida xavfsizlikni ta'minlash uchun hushyorlik zarurligi, mas'ul shaxslar

o'z ishlariga sidqidildan yondashuvlari darkor ekanligi, davlat xavfsizligi uchun esa hukmdorning o'zi to'laqonli javobgar bo'lishi qayd etiladi. O'z davrining mohir va zehnli, buyuk sarkardasi hisoblangan Amir Temurning harbiy ish sohasidagi siyosati yuqori e'tiborga molik masalalardan biri bo'lib, u uzoq yillar davomida turli darajadagi tadqiqotchilar izlanishlariga mavzu bo'lib kelgan. Uning harbiy ish sohasidagi faoliyatiga Sharq va G'arb tarixchilari, sharqshunoslar yuqori baho berib kelishgan.

Amir Temur harbiy ish sohasi tizimini mukammal ravishda ishlab chiqdi, Chingizxon davridan qolgan harbiy ish sohasini qayta tashkil etdi. Sohibqironning harbiy ishi tizimi masalasi XXI asrda ham dunyoning ko'plab yetakchi davlatlari harbiy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda. Amir Temur harbiy siyosatining asosiy maqsadi – mamlakatni ichki va tashqi xavfdan himoya etish, geosiyosiy maydondagi parokandalik va beqarorlikning oldini olish, hududda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, yaxlit geosiyosiy maydondagi vaziyatni to'la nazoratga olish hisoblangan. Harbiy yurishlardan ko'zlangan maqsadni esa «Tuzuklar»da yuqorida qayd etilgan masala mohiyatini maslak qilib olgan holda quyidagicha ta'riflaydi: «Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-u fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o'rnatish, fisq-fasodni, zulmni yo'qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim».

Amir Temur qo'shini Chingizxon qo'shini kabi o'nlik, yuzlik, minglik kabi o'nlik, yuzlik, minglik va o'n minglik (tuman)larga bo'lingan. Qo'shinni bu tariqa bo'linishidan ko'zlangan maqsad avvalo boshqaruvni osonlashtirish, tezkor harakatni ta'minlash, tartib-intizomga qat'iy rioya etish va uni kuchaytirish, zarur vaqtda esa darhol qo'shin safini tuzish hisoblangan. Aynan Amir Temur qo'shinni tezlik bilan saflanish mexanizmini ham ishlab chiqqan. Qo'shinga esa jang sir-asrorini yaxshi biladigan, mard va jasur, dovyurak va sadoqatli 313 nafar amirlar rahbar etib tayinlanishgan. 313 nafar amirdan 100 nafari o'nboshi, 100 nafari yuzboshi, yana yuz nafari mingboshi bo'lgan. Jang vaqtida amir ul-umaro amirlarga, amirlar mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar o'n boshilarga boshliq bo'lib, ularning buyruqlarini so'zsiz bajarishgan. Ularning har birida ham o'z o'rinbosarlari bo'lgan. Agarda amir urush vaqtida halok bo'lgudek bo'lsa, unda uning o'rmini darhol o'rinbosari egallashi lo-

zim bo'lgan. Qo'shinda 40 aymoqdan o'n ikkitasiga maxsus tamg'a berilgan va bu ikki urug'dan xos navkarlikka ham olingan. Ular – barlos, tarxon, arg'in, jaloyir, tulkichi, do'lday, mo'g'ul, suldus, tug'oy, qipchoq, arlot, tatar urug'lari bo'lishgan. Tamg'aga yetmagan 28 aymoq boshliqlariga kichikroq darajadagi urug' amirliklari berilgan. Har bir aymoq o'zining maqomi va huquqlariga ega bo'lgan.

Janglarda ilk marta katta jasorat va bahodirlik namunasini ko'rsatgan oddiy askarga o'nboshi darajasi berilgan. Aynan shu askar jangda yana bir bor jasorat namunasini ko'rsatsa, yuzboshi unvoni bilan taqdirlangan. Agar u uchinchi marta bahodirlik rag'batini ko'rsatsa, u holda unga mingboshi martabasi berilgan. Keyinchalik jangdagi faoliyatiga qarab 12 darajali amirlik pog'onasidan ko'tarilib borilgan. Amirlar darajasiga qarab, qo'shinga bosh bo'lishgan. Masalan, birinchi amir – ming kishiga, ikkinchi amir – ikki ming kishiga, uchinchi amir – uch ming kishiga bosh bo'lgan va hokazo. Amirlar o'z darajalariga qarab bir-biriga noib etib tayinlanishgan. Masalan, birinchi amir ikkinchi darajali amir noibi bo'lgan va hokazo. To'rt nafar beklarbegi darajasi harbiy darajalarning eng yuqorisi hisoblangan.

O'n ikkinchi darajali amir esa amir ul-umaroning noibi hisoblangan. Amir-ul umaro esa Amir Temurning noibi deya e'tirof etilgan. Amir ul-umaro agar maydonda o'n ikki ming nafar dushman qo'shini yig'ilmasa jangga kirmagan. Agar qaysi bir oddiy askar qilich chopib, bahodirlik ko'rsatsa, unga in'om tarzida cho'moq, qimmatli toshlar qadalgan o'tog'a, kamar, qilich va ot berilib, u o'nboshilik martabasiga ko'tarilgan. Agar qaysi bir amir biron mamlakatni egallasa yoki dushman lashkarini yengsa, u uchta narsa bilan taqdirlangan:

1. Faxrli nisba; 2 Tug'; 3.Nog'ora.

Bunday shaxslar «bahodir» deb nom olib, hurmat-e'tiborga sazovor zotlar hisoblangan. Jasorati uchun o'nboshiga – shahar hokimligi, yuzboshiga biron bir hudud berilgan. Qaysi bir amir dushman hukmdori yoxud shahzodasini yenggudek bo'lsa, unga ham shunday hurmat ko'rsatilib, uning xizmatiga ulus va chegara viloyatlaridan biri ham berilgan. Masalan, Amir Temur o'z «Tuzuklari»da mashhur amirlardan biri bo'lgan Iki Temurning jasorati haqida so'z yuritib, uni o'ziga maslahatchi va vazir etib tayinlaganligini hamda chegara viloyatlaridan bi-

rini unga berganligini qayd etadi. Mukofot tariqasida baʼzida amirlarga biron-bir hudud 3 yilga yoki boshqa bir muddatga inʼom ham etilgan. Amir Temur qoʻshinni parokandalikdan saqlab, har qanday ayirmachilik harakatiga yoʻl qoʻymaslikka harakat qilgan. Uning qoʻshinida turli tillarda soʻzlashuvchi qavmlar bemaolol xizmat qila olgan. Qoʻshinda har qanday diniy, irqiy kamsitishlarga yoʻl qoʻyilmagan. «Tuzuklar»da yana bir holatga alohida eʼtibor bilan qaraladi. Amir Temur oʻrta asr sharoitida keksayib qolgan sipohiylarga ham eʼtibor bilan qaragan. Bu xususda, «Tuzuklar»da jumladan shunday deyiladi: «Qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetar ekan, uni oylik haqdan mahrum etmasinlar va martabasidan tushirmasinlar. Hech bir sipohiyning xizmati nazardan chetda qolmasin. Chunki ular davlat xizmatida ekan, boqiy hayotlarini foniyl dunyo naqdi uchun ayamaganining oʻzi ham inʼomga va moddiy taʼminotga loyiqqligini bildiradi. Uni inʼomidan mahrum qilib, xizmatlarini koʻrsatmasalar, noinsoflik qilgan boʻlurlar». Tarixiy manbalarda ham Amir Temurning urushda jarohat olgan, keksayib qolgan harbiylarga eʼtibor bilan qaragani, kerak boʻlsa ularga alohida nafaqa tayin etganligi, tegishli mukofot va sovgʻalar taqdim etganligini koʻrish mumkin.

Amir Temur keksa sipohiylar hurmatini joyiga qoʻyishni taʼkidlagan holda ulardan kerakli maslahatlar olish lozimligini alohida qayd etadi. «Tuzuklar»da bu xususda Sohibqiron ularni hatto «saltanat korxonasi-ning ustunlari» deb sharaflab, ulardan keyin yuqori hurmatni oʻgʻillariga nisbatan koʻrsatishni taʼkidlagan. Amir Temur dushman tomonidan asir boʻlib tushgan sipohiyga tanlash huquqini bergan. Agarda ular ixtiyor etishsa, Sohibqiron qoʻshiniga ham qabul qilinishlari mumkin boʻlgan, agar yoʻq deyishsa tinchlik yoʻli bilan ozod etib, uylariga joʻnatib yuborishgan. «Tuzuklar»da Sohibqiron Boyazidning asir tushgan 4000 nafar askarlarini ozod etib yuborganligini mavzuga misol tarzda ham keltiradi. Bu bilan Amir Temur oddiy askar, sipohiylarning haq-huquqi, erkini himoya qilib, oʻz davri uchun ilgʻor hamda taraqqiyparvar nuqtayi nazarni ilgari surgan. Sohibqiron gʻanim tomonidan uning huzuriga panoh izlab kelganlarga ham marhamat koʻrsatgan. Oʻz «Tuzuklari»da Amir Temur Sher Bahrom va Mengli Bugʻa nomli sarkardalarning u tomoniga oʻtganligi bois tegishli ravishda izzat-hurmat va ehtirom koʻrsatilganligini eslatib oʻtadi.

Qo'shinda har bir mansabdor shaxsга bir-biridan farqlanuvchi harbiy anjom-aslahalar berilgan. «Katta nog'ora va bayroq berish tuzuki» deb nomlangan tuzukda qanday harbiy anjom va mukofotlar taqdimi bayon etiladi. Harbiy bo'linma (favj)larning ham turli rangdagi tug'lari, sovut, zirhi, qalqoni, egari, yopinchig'i, belbog'i, o'qdoni, xaltasi bo'lgan.

Harbiy yurish vaqtida oddiy askarlardan har o'n sakkiz kishi o'zi bilan bir chodir olib, har bir askarda 2 nafar ot, bir kamon, bir o'qdon, bitta qilich, arra, bigiz, bir qop juvoldiz, tesha, bolta, o'nta igna, charm xalta bo'lishi shart bo'lgan. Bahodirlardan esa har besh nafari bitta chodir olib, ularning har biri bitta javshan (temir sovut), dubulg'a, bir qilich, sadoq (o'qdon), yoy va ot olishi kerak bo'lgan.

O'nboshilardan har biri esa o'zi bilan birga bitta chodir, sovut, qilich, sadoq, o'q-yoy, beshta ot olgan.

Yuzboshilardan har birida bitta chodir, o'nta ot, qilich, sadoq, o'q-yoy, gurzi, cho'qmor, koskan (sim ro'mol), zirh, bagtar (harbiy kamzul) bo'lishi lozim bo'lgan. Mingboshilardan har biri o'zi bilan bir chodir, bir soyabon, javshan (temir sovut), dubulg'a, nayza, qilich, sadoq va o'q-yoydan xohlaganicha olishi mumkin bo'lgan. Birinchi amir 110 ta ot olishi lozim bo'lsa, bu 12 ta pog'ona bo'ylab o'ntadan ko'payib borgan. Amir ul-umaro o'z navbatida 300 tadan kam bo'lmagan holda ot olishi kerak bo'lgan. Piyodalarga albatta bitta qilich, kamon, ko'targanicha o'q-yoy olishi shart bo'lgan.

Bunday qo'shin ta'minoti to'g'ri va asosli ravishda tashkil etilgan bo'lib, harbiylar orasida muvozanat va tezkorlikning amalga oshirishi poydevor bo'lib xizmat qilar edi. Amir Temur amri bilan har qanday o'nlik orasida eng munosibi shu urug'ning 9 ta a'zosi roziligi bilan o'nboshi etib tayinlangan. O'n nafar o'nboshi esa eng munosib nomzodni yuzboshi sifatida nomzod qilib ko'rsatishgan. O'nta yuzboshi esa o'zlariga bitta asl munosib shaxsni mingboshi deb topishgan. Bu mingboshi, o'z navbatida, amiri hazora degan murojaatga sazovor bo'lgan. Belgilangan qoidaga muvofiq har bir yuqori mansabli harbiy rahbarning buyrug'i so'zsiz bajarilgan. «Tuzuklar»da harbiylar, qo'shinga maosh berish tartibi ham e'tiborga loyiqdir. Unga ko'ra harbiylar ta'minoti tegishli darajada bo'lishi va hech qanday muhtojlik ularga tahdid etmasligi lozim edi. Oddiy sipohiyga (u o'z vazifasini yaxshi uddalashi

sharti bilan) beriladigan maosh u mingan otning bahosida bo'lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt ot bahosigacha tayin etilgan. O'nboshilar maoshi oddiy sipohiydan o'n barobar ortiq bo'lishi kerak bo'lgan. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki baravar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch baravar ortiq bo'lishi lozim edi. Agar sipohiylardan qaysi biri urush vaqtida xatolikka yo'l qo'ysa, u holda uning maoshi o'ndan birga kamaytirilgan. Amir ulumaroning maoshi o'z qo'l ostidagilarnikidan o'n baravar ortiq bo'lishi belgilab qo'yilgan. Sipohiylarning har biriga maosh olish yorlig'i topshirilib, ularga berilgan mablag' miqdori shu yorliqning orqasiga yozib qo'yilgan. Jangda olingan o'lja esa, odatda, ikki qismga: hukmdor xazinasi va lashkar orasida bo'lingan.

Amir Temur hokimiyatni olganidan so'ng avvalo mudofaa inshootlari, istehkom devorlarini qayta qurish, mustahkamlash ishiga katta e'tibor bergan. Zahiriddin Muhammad Boburning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand istehkom devori yaxlit, baland uchli burjlari bo'lib, uzunligi 10 600 qadamni tashkil etgan. Keyinchalik istehkom devorlari ta'mirlanib, qalinligi 4,5 metr keladigan yangi devor qurilgan. Ark yonida ikkita mustahkam mudofaa minorasi qurilgan. Uning ichki darvozasi maxsus istehkomlar bilan mustahkamlangan. Devor va minoralar shunchalik mustahkam bo'lganki, ular devor buzuvchi moslamalar zarbiga ham chidagan. Devorlarning balandligi ularning qalinligiga qaraganda uch marta ko'p bo'lgan. Qo'rxona manzilgohida esa (u shahar janubida bo'lgan) turli mamlakatlardan kelgan qurolsoz ustalar yashab, mehnat qilishgan. Qo'shin jangchilari ham aksariyat shu mavzeda yashashgan. Mustahkam mudofaa devorlari boshqa shahar va qo'rg'onlarda ham barpo etilgan edi. Xususan, 1392-yili A.Temur tomonidan o'g'li sharafiga atab qayta qurilgan Shohruxiya qo'rg'oni mohirona barpo etilgan harbiy qo'rg'on vazifasini o'tagan.

Amir Temur davlati harbiy kuchlari, uning tuzilishi, harbiy san'at va mahoratning shu davrda taraqqiy etishi, qo'shinining saltanatda tutgan mavqeyi xususidan ko'plab ma'lumotlar «Tuzuklar»dan tashqari qator tarixiy manbalar, xususan G'iyosiddin Alining «Hindiston kundaligi», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kabi asarlarida, ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo va Yevropalik ritsar Shiltbergerning «Kundalik»larida uch-

raydi. Shuningdek, muarrixlardan Hofizi Abru, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy asarlarida ham yuqoridagi mavzu bo'yicha ko'plab qiziqarli ma'lumotlar bor.

XIX–XX asr G'arbiy Yevropa va Rossiyada masala mohiyati bo'yicha D.Nikol va M.I.Ivaninlarning asarlari katta e'tiborga sazovordir.

Amir Temur kuchli markazlashgan davlat barpo etgach, avvalo uning harbiy salohiyatini kuchaytirishga katta ahamiyat beradi. Sohibqiron Chingizxon qo'shini tuzilishi tartibini qayta tashkil etishga bel bog'ladi. Qo'shin tuzilishi, uning tarkibiy joylashuvi, taktik usullariga yangiliklar kiritishga harakat qildi. U musulmon sharqida ilk bora o'z qo'shiniga o'tochar qurol, ya'ni to'pra'dni olib kirdi. Shuningdek, u tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qo'shinni ham tashkil qiladi. Ta'kidlash joizki, u jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yettita qo'l (korpus)ga bo'lib joylashtirish tartibini joriy qildi. XIX asr rus harbiy tarixchisi M.I. Ivanin bu xususda: «Hali bironta ham xalq qo'shinini to'g'ri saflashni bilmay, tartibsiz va taktik harakatlarsiz, faqat o'zidagi jasorat darajasi bilan uzun-yuluq jang qilayotgan bir paytda Temurning to'g'ri saflangan, bir necha yo'nalishdan iborat muntazam tartib bilan jangga kiruvchi, kuchli zaxiraga ega bo'lgan kuchli armiyasi bor edi», deya o'zining juda yuqori xolis bahosini bergan edi. Sharafiddin Ali Yazdiy ham o'zining «Zafarnoma» asarida «hali hech kim o'ylab topmagan uslubni Sohibqiron o'ylab topib, qo'llaganligini» alohida qayd etgan edi. Amir Temur qo'shinida o'sha davr uchun xos bo'lmagan yana bir holatni ko'rish mumkin edi. Uning qo'shinida ayollardan tuzilgan bo'linmalar ham bo'lib, ular erkaklar bilan bir qatorda jangga kirishgan. Mazkur hol ham o'rta asr musulmon sharqi uchun mutlaqo yangilik edi.

Amir Temur tuzgan qo'shinda muntazam armiyaga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mujassam edi. Xususan, qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovor tartibi jangdan jangga takomillashtirilib borilgan, qo'shin o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug'i orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang vaqtida qo'shinni

boshqarishda juda asqotgan. Qo'shinning qism, polklarga taqsimlanishi, har biri uchun ma'lum bir turdagi askariy kiyimlarning joriy etilishi kabi yangiliklar keyinchalik Yevropalik xalqlar tomonidan o'zlashtirildi. Amir Temur mo'g'ullardan farqli ravishda uzoq yurishlar vaqtida piyodalarni ham ot bilan ta'minlagan. Qayd etish kerakki, aniq nishonga o'q otish lozim bo'lgan paytlarda otliq qo'shini ham otlaridan tushib, yayov holda harakatlangan, qo'shinida asosiy rolga ega bo'lgan otliq qo'shin tez harakat qiluvchi safarbar yengil suvoriylarga va og'ir qurolli otliqlarga bo'lingan. Og'ir qurollangan otliq qo'shinning vazifasi dushman-ga hal qiluvchi zarbani berishdan iborat edi. Agar mo'g'ullarda og'ir qurolni qo'riqlash maqsadida foydalangan bo'lsa, Sohibqiron jangda ularning rolini yanada o'rtirdi.

Og'ir qurollangan suvoriylarning katta qismini sara otliq qo'shinlar tashkil etgan. Shuningdek, asosiy jangovar bo'linmalardan tashqari, quyidagi yordamchi qismlar ham mavjud edi:

- qamal qiluvchi, tosh otuvchi mashinalar, «yunon olovi»ni otuvchi, devor buzuvchi texnikadan iborat o'ziga xos artilleriya;

- doimiy ravishda qo'l ostida turishi lozim bo'lgan vositalarni tayyorlash, ko'priklar qurish, kemalar yasash, kema haydash va boshqa ishlar uchun maxsus ustalar otryadi;

- jangda foydalanilgan, qo'l ostidagi jangovar vositalar va hayvonlarni (fil, tuya, ho'kiz) boshqarish otryadi;

- tog'larda harbiy harakatlar olib borish uchun daralardan o'ta oladigan va baland qoyalarni shturm qila oladigan maxsus piyoda bo'linmalar.

Shu holatda Amir Temur harbiy qo'shin tarkibini boyitib, yanada kengaytirdi hamda har qanday sharoitlarda ham jang olib borishga moslashtirdi. Harbiy yurishdan avval chaqirilgan mashvaratdan so'ng, hukmdorning maxsus buyrug'i – tunkal e'lon qilingan. Tunkal – qo'shin to'plashga qaratilgan maxsus buyruq hisoblangan. Farmon (tunkal) tegishli joylarga bosh qo'mondonning ad'yutanti – tavochi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavochining zimmasiga askar jam etishdan tashqari, qo'shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o'rni, jangovar tartibni hamda bir joydan ikkinchi joyga ko'chishini nazorat qilish ham yuklatilgan edi. Tunkalga ko'ra viloyat hokimlari, tegishli hududlar beklari, qal'a, qo'rg'on dorug'alarining Amir Temur tomonidan tuzil-

gan ro'yxatga ko'ra, o'z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan belgilab qo'yilgan joyga o'z vaqtida yetib kelishi shart bo'lgan. Avvaldan maxsus tanlab, belgilab qo'yilgan joyda – miod yerida oliy bosh qo'mondonning qarorgohi tikilgan va u turli rangdagi tug' hamda bayroqlar bilan bezatilgan. Belgilangan vaqtda lashkargohga yetib kelgan askarlar qat'iy tartib va intizom bilan o'z pozitsiyalarini egallagan hamda yurish oldidan o'tkazilajak an'anaviy harbiy ko'rikka puxta tayyorgarlik ko'ra boshlagan. Amir Temur harbiy yurish vaqtida tajribali sipohiylarga katta ishonch bildirganki, bu «Tuzuklar»da ham o'z ifodasini topgan. Janglarda chiniqqan harbiylar safar boshlanishidan avval jam etilgan. Ular kirim-chiqim daftariga, shuningdek davlat maoshi – ulufa, oziq-ovqat, yem-xashak oluvchilar ro'yxatiga kiritilgan. Qo'shin to'plash haqidagi farmon e'lon qilinishi bilan askarlar o'z oila, bola-chaqasi, mol-mulki va qurol-aslahasi bilan miod yeriga yetib kelgan. Oddiy askardan tortib to yirik sarkardagacha barcha o'z o'rnini aniq-ravshan bilgan. Ta'kidlash joizki, qo'shin jam etilishi jarayoni ortiqcha shovqinsiz bajarilgan. Qo'shin bilan birga yurishda kerak bo'luvchi novvoy, qassob, go'sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva-cheva sotuvchilar ham ko'chib yurishgan. Ko'plab kasb-hunar egalari askarlarga xizmat ko'rsatishgan.

Amir Temur jangovar taktikasiga muvofiq, agar dushman 12 000 dan ortiq, lekin 40 000 dan kam jangchiga ega bo'lsa, Sohibqiron ularga qarshi 40 000 kishidan kam bo'lmagan qo'shinni jo'natgan. Lashkarboshi sifatida o'z o'g'illaridan birini tayin etib, uning oldiga 2 nafar tajribali amir va boshqa harbiylarni qo'ygan. Bu borada jangovar tartib quyidagicha bo'lgan. Qo'shin 14 qismga bo'linib, bu qismlardan biri umumiy korpus sonining 1/3 qismidan kam bo'lmagan miqdorida sarkarda boshchiligida zaxirada turgan, o'ng va chap qanotlarga uchtdan qism tayinlangan, ular ikkinchi chiziqni tashkil etgan. Mazkur qismlardan bittadan ajratib olingan va ular avang'orda turgan, boshqalari har bir qanotning o'ng va so'l yonini tashkil etgan; o'ng va chap qanotlar avang'orlari oldida yana birinchi chiqish tashkil etgan, bulardan ham bittadan qism avang'or sifatida ajratib olingan, bu qismlarga yaxshi qurollangan, tajribali jangchilar tayin etilgan. Ular jang vaqtida suron ko'tarishlari va dushman avang'orini sarosimada qoldirishlari kerak edi. Agar dushman qo'shini 40 000 nafardan ortiq bo'lsa, u holda Amir

Temurning qarshi shaxsan o'zi unga ot surgan. Bunda 40 ta harbiy qism bevosita Amir Temurning qo'mondonligi ostida bo'lgan, ulardan 12 ta saralangan qism birinchi qatorni, qolgan 28 tasi ikkinchi va uchinchi qatorlarni tashkil etgan. Uning o'g'illari va tajribali amirlari boshchiligidagi qo'shinlar mazkur qirq bo'linmaning o'ng qanotini tashkil etgan, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchiligidagi joylashgan. Bu qismlarning hammasi zaxirani tashkil etgan va agarda yordam lozim bo'lsa, o'sha yerga jo'natilgan. Manbalarda otliq askarlar Amir Temur armiyasining zarbdor qismi hisoblanib, ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlariga bo'lingan.

Amir Temur jang vaqtida tezlik bilan boshqarish ishiga katta e'tibor qaratgan. U o'nlik, yuzlik, minglik, o'n minglik qo'mondonlarini tanlash ishiga shaxsan rahbarlik qilgan. Lashkarboshilik salohiyatiga ega bo'lgan qo'mondonlarning to'g'ri tanlanganligi va o'z joyiga qo'yilganligi aksariyat holatlarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Amir Temurning harbiy san'at taraqqiyotiga qo'shgan katta xizmatlaridan yana biri – bu qo'shin qanotlarini jang vaqtida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, dushman kuchlarini yon tomonidan aylanib o'tib, unga orqa tomondan zarba qismini joriy etilishi hisoblanadi. Bunday mutlaqo yangi harbiy qism ilgari o'tgan hech bir mashhur sarkardalar (Aleksandr Makedonskiy, Buyuk Fridrix, Chingizxon va boshqalar) qo'shinida bo'lmagan. Ta'kidlash joizki, Napoleon armiyasining jangovar tartibida qo'shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjud bo'lgan. Harbiy mutaxassislarining tadqiqotiga ko'ra, Napoleon o'z vaqtida Amir Temur qo'shinining tuzilishi, jang olib borish yo'l-yo'riqlarini sinchiklab o'rgangan, Sohibqiron taktik usullarini lozim bo'lib qolgan vaqtida o'zlashtirgan ham. Amir Temurni shuningdek, dushmanga qo'qqisdan qaqshatqich zarba berish usuli ham shuhrat qozongan edi. Bunda dushman qarorgohi aniqlangach, Amir Temur unga tunda yaqinlashar, quyosh chiqayotgan vaqtda kutilmaganda dushman ustiga yopirilib kirar edi. Sohibqiron o'z harbiy yurishlarini ko'proq bahor-kuz mavsumida amalga oshirishni ma'qul deb hisoblar, qishni esa qishlov uchun mo'ljallangan qishloqlarda o'tkazar edi.

Sohibqiron harbiy kuchlarining umumiy miqdori 800 000 atrofida bo'lishiga qaramay, yirik yurishlarda ishtirok etuvchi lashkar soni 100

000 dan 250 000 atrofida bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Xitoy yurishiga otlangan qo'shin soni 272 612 kishidan iborat bo'lgan. Muarrix Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, ko'ra safar tartibiga ko'ra har bir tumanbegi, mingbegi, yuzbegi, o'nbegi o'z darajasi, mavqeyi va safda egallagan o'miga qarab qism va bo'linmalari bilan jangovar tartibda harakat qilgan. Tartibni buzgan shaxs Sohibqiron tomonidan qattiq jazolangan. Qo'shin dam olishga to'xtaganda yoki janggohga tushganida lashkargoh atrofi bir-biriga zanjirband qilingan aravalar bilan mahkam o'ralgan, shoxlar bilan to'silgan, xandaqlar bilan ihota qilingan. Istehkom kunduzi – yazak va tungi – taloya soqchi bo'linmalar yordamida qo'riqlab turilgan. Dushman ko'rinishi bilan lashkar xandaqdan chiqib, unga qarshi yuzlangan. Yurish vaqtida parokandalikka yo'l qo'ymaslik maqsadida har bir bo'linma, guruh, qismning o'z paroli (o'ron) bo'lgan. Dushman qo'shinini jangga kiritish maqsadida Amir Temur o'zini zaif qilib ko'rsatar edi. Bu strategik hiyla (savqul-jaysh) ko'p hollarda yaxshi samara berar edi. Dastlabki to'qnashuv yengil razvedkachi suvoriylar (qorovul) tomonidan boshlab berilardi. Shundan so'ng o'ng va chap qanot ilg'or qismlari – barong'or hirovuli va javong'or hirovuli madadida asosiy ilg'or qism – manglay jangga qadam qo'ygan. Manglay ortidan barong'or hamda javong'orning qolgan ikki bo'lagi, ya'ni chapovul va shakovul peshma-pesh harakat qilgan. Mabodo, ushbu kuch dushmanni mag'lub etishga kifoya qilmasa, u holda bosh qo'mondon – amir-ul-umaro boshchiligidagi yetakchi kuchlar – qo'l (g'o'l) hal qiluvchi jangga tashlangan. Dushmanda qochish belgilari va mag'lubiyat alomatlari ayon bo'lib qolganda uni ta'qib etish uchun chapdast suvoriylardan tuzilgan quvg'inchilari tayin etilgan. Dushman qal'asi devorlari yaqinida toshotar zambaraklar (manjaniq) qurilib, g'altaklar ustiga o'rnatilgan arrodalar tiklanib, qamaldagilarga qarata har tarafdan toshlar irg'itilgan. Askarlar arqon, narvon, turli halqalar yordamida yuqoriga ko'tarilishgan. Amir Temur qo'shinida ichiga yonuvchi modda – naft (neft) solingan ko'zachalar, irg'ituvchi o't sochish quroli – ra'dni uzluksiz ishlab turishini ta'minlovchi maxsus to'pchilar – ra'dandozlar mavjud bo'lgan. Bunday to'pchilarning soni Nizomiddin Shomiyning yozishiga ko'ra, 10 ming nafarga yetgan. Yana shuni ta'kidlash kerak-ki, ra'dandozlar Amir Temur tomonidan ilk marta 1379-yili Urganchni qamal qilish vaqtida ishga tushirilgan.

Amir Temur qo'shinning jangovar holatini askariyat dasht va yaylovlarda imtihondan o'tkazar edi. Hamma yig'ilgach, qo'shin turiga qarab (yoychilar, to'pchilar, nayzadorlar va hokazo) ko'rikdan o'tkazilgan. Ko'rik oxirida qo'shin ortidan boruvchi og'ir karvon – o'g'ruq ham nazoratdan o'tkazilgan.

Harbiy musiqachilar ijrosidagi jangovar kuylar ostida oliy bosh qo'mondon ko'rikni amalga oshirgan. Safdagi jangchilar nayzalarini baland ko'tarib, hammalari kuchli na'ra tortib, yurishga shay ekanliklarini bayon etishgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, har bir favjning o'z bayrog'i bo'lgan. Qo'shin yurish vaqtida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan. Bosh kuchlardan ancha avval qorovul, undan keyin manglay (hirovlul – avang'ar), barong'or, javong'or, qo'l, chag'davul yurgan. Qo'shin ortidan og'ir karvon – o'g'ruq yurgan. O'g'ruqda qo'shin rahbarlari va harbiylar oilalari, zarur oziq-ovqat, yem-xashak, qurol-aslaha va boshqa tegishli narsalar bo'lgan. Suvdan o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Daryo bo'yiga yetib kelgan qo'shin kechuvdan qism-qism bo'lib o'ta boshlagan. Sersuv va seryomg'ir paytda qayiqalar bir-biriga bog'lanib, o'ziga xos ko'priklar tayyorlangan. Amir Temur jang maydonini tanlashda shaxsan ishtirok etib, bu xususida «Tuzuklar»da ham o'z fikrini bayon qilgan.



Amir Temur o'z «Tuzuklari»da urush maydonini tanlashda to'rt narsaga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Bular:

1. O'sha yerning suvga uzoq-yaqinligi;
2. Askar saqlaydigan yerning xavfsizligi;
3. Dushman askari turgan yerdan teparoqda bo'lish va quyoshga ro'para bo'lib qolmaslik;
4. Urush maydonini oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Amir Temur dushman hududiga o'z ayg'oqchilari (xabargir, josus)ni tez-tez jo'natib, tegishli ma'lumotlarga ega bo'lganidan so'nggina yurishni amalga oshirgan. Ma'lumotlar ba'zan savdogarlar orqali ham olingan. Amir Temur chet el savdogarlariga ham homiylik qilib, ulardan turli ma'lumotlarni ola bilgan. Amir Temur harbiy hiylani o'z vaqtida ishlatishni bilib, shu bois ko'p hollarida yutuqlarga erishgan.

Urush vaqtida bayroqlar harakati ham ishga solinib, bu dushman-ni chalg'itishga yordam bergan. Masalan, To'xtamishxon bilan bo'lgan

jangda Amir Temur bayroqdorni sotib olib, urush qizigan vaqtda dushman bayrog'i tushib ketgan. Bu esa mo'g'ul jangchilari holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur nog'oralar, turli hayqiriqlarni ishga solishga ham mohir bo'lib, hududlar egallanishidan avval u qancha vaqtda zabt etilishi hisoblab chiqilar, sarkardalardan esa belgilangan muddatda harbiy harakatlarni nihoyasiga yetkazilishi qat'iy tarzda talab qilinar edi. Amir Temur iste'dodli sarkarda, mohir lashkarboshi sifatida o'ta intizomli qo'shin barpo etgandi. O'zining 35 yillik hukmronligi davrida bu qo'shin mahorati yuqori darajada o'sdi. Amir Temur harbiy tashkilotchi sifatida yangi harbiy taktik usullarni o'ylab topdi va uni amaliyotga tatbiq eta oladi.



Amir Temur o'z davridagi davlatning harbiy tizimini san'at darajasiga olib chiqib, katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Sohibqiron boshqa sarkardalardan farqli ravishda qo'shiniga o'zi namuna ko'rsatdi. U eng og'ir vaziyatlarda dastlab o'zi jangga kirgan va bu bilan qo'shinni ruhlantirgan. Uning sa'y-harakatlarida tezlik, mashvarat, maxfiylik, vaziyatni to'g'ri baholash hamda uni o'z nazoratida ushlab turish, to'g'ri qarorga kela bilish sifatlari ustun bo'lgan. Amir Temur harbiy san'atining yana bir ko'rinishi shunda bo'ldiki, u bir vaqtda bir necha yerga yurish boshlar, yurishlari haqida ovozlar tarqatar, aslida esa uning qo'shini boshqa joyda paydo bo'lar edi. Bu xususda hamma vaqt ham Amir Temurga nisbatan xolis bo'lmagan Ibn Arabshoh ham uning bu harbiy san'atiga tan berib, o'z mulohazalarini bayon etgan edi.

Amir Temur o'z «Tuzuklari»da shunday deya yozgan edi: «Tajribamdan sinab bildimki, jangning sir-asrorini, g'anim askarlarini sindirish yo'lini bilgan, urush qiziganda o'zini yo'qotmasdan, qo'l-oyog'i bo'shashmasdan lashkar favjlarini jangga boshlay oladigan, agar qo'shin safiga raxna tushsa, uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlik va hukmronlikka loyiqdir». «Tuzuklar»da aynan jasorat namunalarini ko'rsatgan amirlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. O'zaro nizo va parokandalik hukm surgan o'rta asrlarda Amir Temur 200 ming chog'li mustahkam va uyushgan, yuqori tartib-intizomga ega qo'shin barpo eta oldi va qo'shinni yuqori darajadagi qurol-aslaha bilan ham ta'minladi.

1.6. Amir Temur davlati diplomatiyasi

Amir Temur dastlabki siyosiy faoliyatidan to vafotiga qadar o'z qudratining o'ndan to'qqiz qismiga diplomatik salohiyati tufayli erishgan. Sohibqironning vorislari Shohrux, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur kabi yirik davlat arboblari ham ichki va tashqi aloqalarda Amir Temurning diplomatik merosiga amal qilib, uning bu boradagi siyosatini davom ettirishgan.

Tinchlik, tomonlar manfaatdorligi, raqibiga shafqat qilish va unga imkon yaratish, har qanday sharoitda ham elchini qadrlash, tashqi siyosat va diplomatiya qoidalariga qat'iy amal qilish, inson hayoti daxlsizligi – Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasining asosi hisoblangan. Chunonchi, Amir Temur maktublaridan birida, «Elchiga o'lim va

bandilik yo'qdir, elchining gardanidagi vazifa buyruqni aniq yetkazishdan boshqa narsa emasdir», – deb yozadi.

Amir Temurning tashqi siyosati va diplomatiyasining o'ziga xos tomonlaridan yana biri shundaki, u bir xalqni ikkinchi bir xalqqa, bir dinni boshqa dinga, bir mafkurani o'zga mafkuraga qarshi qo'ymay, har ikki ziddiyatli tomonning manfaatlarini ifoda etadigan muammo-ning ijobiy yechimini hamda ular o'rtasidagi taraqqiyot yo'lini topishni asosiy masala deb bilgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, Sohibqiron diplomatik munosabatlarda tashabbus ko'rsatib, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga intilgan. Uning tashqi siyosati va diplomatiyasi tinchlik va tenglik, yon bosish, diniy va dunyoviy bag'rikenglik g'oyalariga asoslangan. Amir Temurning qarashlariga ko'ra, inson irqi, dini, millati, kelib chiqishi va qayerda yashashidan qat'i nazar, yer yuzining barcha yeri hamma kishilar uchun muqaddas bo'lmog'i kerak.

Ta'kidlash joizki, Amir Temurning kuchli va puxta diplomatik salohiyati tufayli dinlar, mafkuralar, madaniyatlar, iqtisodiyotlar, siyosatlararo munosabatlar zamon talablari hamda vaziyat taqozosi darajasida yo'lga qo'yilgan.

Ma'lumki, Amir Temur murakkab tarixiy sharoitda tashqi siyosat olib borgan edi. Chunki o'sha davrdagi vaziyat, ya'ni, chingiziy mo'g'ullarning xavfi kuchli ekanligi, Chig'atoy ulusini birlashtirish va egalik qilish, Oltin O'rda, Mo'g'uliston, Eron, Xuroson kabi o'z davrining kuchli davlatlari bilan munosabatlar masalalarida davlat manfaatlariga mos tashqi siyosat yurgizishni taqozo etardi. Sohibqironning tashqi siyosatdagi ustuvor maqsadi – yaxshi qo'shnichilik, tinchlik va hamkorlik edi.

Shubhasiz, Amir Temurning tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri – Movarounnahrning xavfsizligini ta'minlash bo'lgan. Xorazmdagi So'fiylar sulolasi, Fors viloyati hokimi Shoh Shujo, Arzinjon va Arzirum hokimi Tohirtan, Mo'g'uliston hokimi Qamariddin, Oltin O'rdadagi To'xtamishxon kabilar bilan bo'lgan munosabatlar zamirida ham ana shu maqsad yotardi.

Amir Temur manfaatlari mushtarak, madaniyatlari va dinlari umumiy bo'lgan qo'shni davlatlarni tobe qilganligini, joriy podsholiklar bilan oraliq davlatlarni kuch yoki diplomatiya bilan egallanganligini e'tirof etadilar. Itoatkorlik, to'langan soliq va bojlar evaziga Sohibqi-

ron ularga yordam va harbiy muhofaza va'da qilib, ularni o'z hollariga qo'yib bergan.

Amir Temur va Temuriylar davri tashqi siyosati va diplomatiyasida xalqaro savdo hamda madaniy aloqalar muhim o'rin tutganligi tarixdan ma'lum. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, xalqaro karvon yo'llari xavfsizligini to'la ta'minlashga erishdi. Shu tufayli, XIV asrning 70-yillaridan boshlab Buyuk ipak yo'lining Movarounnahr orqali o'tgan markaziy tarmog'i shimoliy yo'nalishiga qaraganda xalqaro iqtisodiy-madaniy aloqalarda muhim o'rin tuta boshladi. Movarounnahr bo'ylab xalqaro savdo karvonlari harakatining qaytadan jonlanishi, shaharlar taraqqiyotiga, iqtisodiy-madaniy aloqalarning yuksalishiga olib keldi.

Amir Temur davridagi diplomatik munosabatlar ham Sohirqironning qat'iy tamoyillariga javob bergan. Shu o'rinda Amir Temurning Misrdagi mamluklar davlati bilan o'zaro munosabatlarga ham e'tiborni qaratish lozim. Az-Zohir Sayfiddin Barquq (1382–1399) hukmronligi davrida Misr, Suriya, Hijoz hamda unga yondosh hududlarda joylashgan mamluklar davlati musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinani ham egallagan holda kuchli davlatga aylandi. Shubhasiz, Amir Temurning Yaqin va O'rta Sharqqa kirib kelishi ular o'rtasidagi ma'lum munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lar edi. 1386-yili Amir Temur qo'shini Jaloyirlar davlatining ikkinchi darajali shahri bo'lgan Tabrizni egalladilar. Jangda Qoraqo'yunlilar rahbari, mazkur hudud hokimi Qora Muhammad yengilib, Bag'dod tomonga chekindi. Iroq hokimi Ahmad ibn Uvays (Sulton Ahmad) uni Bag'dodda qabul qilib, Amir Temurga qarshi ittifoqlikda harakat qilish rejasini ilgari surdi.

1388-yil Amir Temur qo'shini Tabrizni tark etgan bir vaqtda Qora Muhammad Iroq hokimining yordamida yana Tabrizni qo'lga olishga muvaffaq bo'ldi. Qora Muhammad Tabrizdan turib Misr sultoni Barquqqa murojaat etib, uni oliy hukmdor sifatida tan olishini bildirdi. Iroq hokimi Sulton Ahmad (Ahmad ibn Uvays) o'z navbatida maishatga berilgan, hudud aholisiga nisbatan shafqatsizlarcha munosabati bilan nom chiqargan hukmdor edi. Shu bois ham Bag'dod ahli Amir Temurga murojaat qilib, shaharni o'z himoyasi ostiga olishini so'ragan edi. 1393-yili Bag'dod aholisi murojaati tufayli Amir Temur shaharga kirib

keladi. Shahar aholisi o'z ixtiyori bilan darvozalarni ochib, Sohibqiron hokimiyatini tan olishadi. Amir Temur bunday vaziyatda Misr manfaatlarini tushungan va hurmat qilgan holda u bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga qaror qilib, o'z elchilarini Sulton Barquq huzuriga jo'natadi. Misr sultoni esa xalqaro qoidalarni ham pisand qilmay, Sohibqiron elchisini o'ldirishga buyruq beradi. Qayd etish lozimki, Amir Temur Misrga do'stona munosabatlar o'rnatish maqsadida 1385-yilda-yoq o'z elchilarini jo'natgan edi. Agar raqamlarga nazar solinsa, Sohibqiron tomonidan 1385–1405-yillar oralig'ida jami 20 marotaba elchilik va choparlik guruhleri Misrga jo'natilgan. Sulton az-Zohir Barquq aksariyat hollarda elchilarga qo'pol tarzda munosabatda bo'lar, ko'p holda Amir Temur sha'niga namoyishkorona tarzda haqoratomuz gaplarni gapirar edi. Tinchlik yo'li bilan Amir Temur hukmini tan olishni xohlamagan Misr ittifoqchisi, Qaysariya sultoni Abul Abbos Ahmad ham Barquq so'ziga kirib Sohibqiron elchilarini qatl ettiradi. Turk sultoni Boyazid va Misr sultoni Barquq birgalikda Amir Temurga zarba berishga kelishib oladilar. Amir Temur shunday xiyonatkorona va makkorona vaziyatda ham sabr-toqat va bosiqlik bilan yo'l tutadi.

Sohibqiron 1393-yil oktabrda Misr sultoni Barquq huzuriga navbatdagi elchilik guruhini jo'natadi. Bu bilan Sohibqiron muammoli masalalar, tanglik holatini tinchlik yo'li bilan yechmoqchi bo'lgan edi. Elchilik guruhiga o'z aql-farosati bilan nom chiqargan, o'sha davrning obro'li arboblardan biri bo'lgan Shayx Suvoh boshchilik qiladi. Amir Temurning mazkur elchi orqali Misr sultoniga yuborgan murojaatnomasida ikki davlat o'rtasida do'stlik munosabatlari hamda o'zaro elchilik aloqalarini o'rnatish, savdo-sotiqni rivojlantirish, ikkala mamlakat savdo ahliga keng imkoniyat va sharoitlar yaratish masalalari o'rin olgan edi. Misr sultoni Barquq tan olingan xalqaro qoidalarni buzgan holda elchilarni o'ldirishga, Sohibqiron yuborgan sovg'a-salomlarni orqaga qaytarishga buyruq beradi. O'zi esa Amir Temurga qarshi urushga shaylanadi. Sultonning bunday xatti-harakatlari tabiiyki, tegishli javobni keltirib chiqarar edi.

Amir Temur tomonidan yuborilgan keyingi murojaatnoma ancha keskin ohangda bo'lib, unda Misr sultoni Sohibqiron elchilarini nohaq o'ldirilgani, o'z huzurida Temurga dushmanlik kayfiyatidagi shaxslar, xususan, sobiq Iroq hokimi Ahmad ibn Uvaysga Sulton Ahmad joy ber-

ganligi qayd etilgandi. Barquq esa har doimgidek Amir Temurga haqoratli ohangdagi dashnomlarni yog'diradi. Misr sultoni Barquq yana bir karra turk sultoni Boyazid bilan birga Amir Temurga qarshi kurashda bir-birlariga o'zaro harbiy ko'mak berish to'g'risida kelishib oladilar. Shunday bir vaziyatda 1399-yil Misr sultoni Barquq to'satdan vafot etadi. Misr va Suriyadagi mamluklar davlati sultoni sifatida Barquqning 11 yoshli o'g'li an-Nosir Nosiriddin Faraj (1399–1405) taxtga o'tiradi. Mazkur holatdan foydalangan Boyazid Amir Temur hukmini tan olgan Marandni qamal qilib, u bilan chegaradosh yerlarga hujum qiladi.

Tabiiyki, Boyazidning bunday ig'vogarona xatti-harakati Amir Temurning g'azablanishiga hamda tegishli ravishda ish tutishiga olib keldi. Shunday bo'lsa-da, davlat, aql, chuqur salohiyat va zehnga ega bo'lgan Amir Temur ikkala katta davlat o'rtasida mojaro chiqishini oldini olmoqchi bo'ldi. Shu bois 1399-yil iyulda Tabrizga kelib, turk sultoni Boyazidga chopar orqali o'z maktubini jo'natdi. Maktubda Boyazidning noo'rin va ig'vogarona xatti-harakatlariga chek qo'yilishi, Amir Temurga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan Qora Yusuf va Ahmad ibn Uvayslarga nisbatan mo'tadil munosabatda bo'lib, ularni qo'llamaslik so'ralgandi. Boyazid esa ushbu maktubga keskin tarzda, unga xos bo'lgan haqoratomuz ohangda rad javobini berib, Amir Temur dushmanlariga xayrixohligini bildiradi. Turk sultonining shu tarzdagi xatti-harakatlari endilikda u bilan siyosiy muloqotga kirishmaslik lozimligini ta'kidlar edi. Katta siyosiy tajribaga ega bo'lgan Amir Temur buni yaxshi anglab yetdi.

1400-yil oktabrda Amir Temur Misr sultoni Farajga maktub jo'natib, uni marhum otasining o'zaro munosabatlardagi xatosini, Amir Temur elchilarining sababsiz qatl etilishi, Sohirqiron vakili Otalmishni hibsdan ozod qilishni so'raydi. Faraj avval boshida Amir Temur taklifiga ko'ngandek bo'lib turib, hech qancha o'tmay elchilarni qamoqqa oladi. Suriyadagi Halab shahri olinganidan so'ng Amir Temur yana sulton bilan muloqot va muzokaraga kirishmoqchi bo'ldi. Lekin Faraj yana xiyonatkorona yo'l tutdi.

1401-yil Amir Temur qo'shini Damashq yonida Farajni qurshovga olgan paytda oxirgi marta u bilan sulh haqida bitim tuzish xususida murojaat bilan chiqdi. Sulhga ko'ra Faraj Amir Temurning oliy hukmronligini tan olishi, hibsga olingan elchilar, xususan Otalmishni ozod

qilishi, Sohibqiron nomidan tangalar zarb etishi lozim edi. Faraj bunga rozi bo'ldi. Amir Temur elchilari ozod bo'lib, Otalmish tezda vatani-ga qaytdi. Amir Temur 1403-yili o'z elchilarini Faraj huzuriga jo'natib, u Sohibqironning Misr va Suriyadagi noibi sifatida e'tirof etildi. Amir Temurning sa'y-harakatlari bois ko'plab qonli urush va mojarolarning oldi olindi. Ibn Arabshoh Misr bilan keyingi munosabatlar ancha ijobiy tarzda kechganligi, Misr elchilari 1404-yil Konigilda bo'lgan tantanali qabul va to'y tadbirlarida ishtirok etganligini ta'kidlaydi. Misr tarixchi-si Ibn Qozi Shohning yozishicha, 1405-yil yanvarida ikkala tomondan do'stlik ruhida maktublar almashuvi bo'lgan.

Amir Temur o'z oldiga Misrni bosib olish rejasini qo'ymagan, bal-ki uni Yaqin Sharqdagi notinch siyosiy vaziyat, Farajni Usmoniylar tomoniga o'tib ketishining oldini olishni, uni o'ziga ittifoqchi sifatida ko'rishni rejalashtirgan edi. Bu borada u barcha sa'y-harakatlarni amal-ga oshirdi. Boyazid Yildirim (1389–1402) hukmronligi davrida Usmo-niylar davlati qudrati o'sib, u Bolqon yarim oroli va Kichik Osiyoda qator yangi yerlarni egallashga muvaffaq bo'lgan edi. Boyazid Yildirim 1390-yili Kichik Osiyo janubidagi Arzinjon va Arzirum yerlari hokimi Tohirtandan uni tan olgan holda soliq to'lashni talab qiladi. Bu yerlar o'z navbatida Amir Temur tasarrufida bo'lib, turk sultonining uni tan olish to'g'risidagi talabi Tohirtanni ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. Shu bois ham u ko'mak so'ragan holda Amir Temurga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

Amir Temur Boyazid bilan masalani tinch holatda yechish ma'nosida taniqli amaldor va elchi bo'lgan Mavlono Shamsiddin Olmaliqiya turk sultoni uchun tegishli noma yozib jo'natishni buyurdi. Mazkur noma diplomatik ohangda, lekin qat'iy so'z bilan bitilgan bo'lib, turk sulto-ni Amir Temur yerlariga ko'z olaytirmasligi, o'z davlati chegaralaridan nariga o'tmaslik talab qilindi. Boyazid esa kalondimog'lik bilan «jang qilishga tayyorligi, kerak bo'lsa Tabriz va Sultoniyaga ham yurish qi-lishini» ta'kidladi. Amir Temur bu borada ham masalani tinchlik yo'li bilan yechmoqchi edi. Lekin turk sultoni bunga yo'l qo'ymadi. Unga javoban Amir Temur qo'shini Kichik Osiyodagi Sivos hududini egal-ladi. Amir Temur bilan to'qnashuvdan hayiqqan Boyazid unga javob berolmadi. Boyazid Amir Temurga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan Qoraqo'yunli qabilasi rahbari Qora Yusuf va uning safdoshlari, sobiq

Iroq hokimi Sulton Ahmad Jaloyir (Ahmad ibn Uvays)larga qo'nim berib, o'zining Sohibqironga dushmanligini namoyon qildi. Boyazid shuningdek, Misr sultoni Barquqni, so'ngra uning o'g'li Farajni Amir Temurga qarshi ittifoqlikda harakat qilish rejasini oldinga surdi.

1399-yili Boyazid Amir Temur tasarrufidagi Marandga hujum qildi. Amir Temur (bu haqda Misr sultoni bilan bo'lgan munosabatlarda ham to'xtalgan edi) Boyazidga noma jo'natib, yana uni vazminlik va mo'tadil holatga qaytishni so'radi. Boyazid bunday taklifni rad etib, Qora Yusuf va Sulton Ahmadlarni o'z panohiga olishini bildirdi. Boyazid homiyligi ostida bo'lgan Qora Yusuf esa savdo karvonlarini talon-toroj qilib, yo'llarda zo'ravonlik ishlarini avj oldirdi. Bu holat shubhasiz, Amir Temurni ham tashvishga solar edi. Boyazid bilan diplomatik kelishuv amalga oshishiga ko'zi yetmagan Sohibqiron 1402-yil boshlarida Usmoniylarga qarshi yurishga tayyorgarlik ko'rishni boshladi.

Amir Temur harbiy qudratidan voqif bo'lgan Boyazid bunday yurish amalga ohsa holi tang bo'lishini anglagan holda Amir Temurning oliy hukmronligini tan olishini bildirib, o'z elchisini jo'natdi. Amir Temur uning nomasini ma'qullagan holda, agar sultonning niyati xolis bo'lsa, Qora Yusufni Sohibqironga topshirib, savdo yo'llaridagi bosqinchilikka chek qo'yishini talab qiladi. Amir Temur 1402-yil qishi va bahorida deyarli ikki oy Boyaziddan javob kutadi. Anqara jangidan keyin ham ba'zi elchilik aloqalari amalga oshiriladi. Xususan, Boyazidning o'g'li Muso (Muhammad) Chalabiy (1402–1403) ikki marotaba Amir Temur Kichik Osiyodaligidayoq o'zining Shayx Ramazon boshchiligidagi elchilik guruhini jo'natgan. Shu tariqa Amir Temur Misr va Usmoniylar davlatlariga nisbatan olib borgan siyosati va diplomatiyasida shu davrda qabul qilingan xalqaro miqyosdagi elchilik qonun-qoidalari, islom ahkomlariga tayangan holda ish olib bordi. U o'z «Tuzuklari»da ta'kidlaganidek, masalani «maslahat va mashvarat» asnosida yechishga ustuvor vazifa sifatida yondashgan. Shu bois ham vayronagarchilik keltiruvchi urushlar, bosqindan uzoqda bo'lishga harakat qiladi. Uning raqiblari esa buni aksini qilishadi. Oltin O'rda xoni To'xtamishxon bilan bo'lgan munosabatda ham shu holatni ko'rish mumkin edi.

Xitoydagi Min davlati (1368–1644) bilan o'zaro munosabatlar tarixi 1387-yilga borib taqaladi. O'sha yili Amir Temur va Xitoy imperatori Min Chju-Yuan-Chjan (1360–1398)lar o'rtasida elchilik alma-

shuvi bo'lib o'tadi. Yaponiyalik tadqiqotchi X.Vatanabe 1387-yildan 1397-yilga qadar Amir Temur tomonidan Xitoyga olti marotaba elchilik missiyalari jo'natilganligini qayd etadi. Birinchi elchilik guruhiga Mavlono Hofiz bosh bo'lganligi ham aytib o'tiladi. Elchilar ko'p holda imperatorga mahalliy uchqur otlarni hadya etishar, o'z navbatida bu otlarga imperator va umuman xitoylik zodagonlar juda havasmand edilar. Xususan, 1394-yili Amir Temur imperatorga 200 nafar uchqur, nasli toza otlarni hadya etgan. Xitoy manbalarida shu davlatdan yuborilgan 6 ta elchilik xizmati guruhiga Fa-An boshchilik qilganligi ta'kidlangan. Mazkur elchilar, jumladan uch marotaba Samarqandda bo'lishgan. 1395-yili Xitoy elchilari Samarqandda ko'plab e'tiborga molik joylarni borib ko'rishgan, Temur davlati, uning boshqaruvi to'g'risidagi savollariga yetarli javoblar olishgan. Fa-An guruhi, shuningdek Tabriz, Isfahon, Sheroz, Hirot va boshqa saltanat shaharlarida ham bo'lishgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur bu elchini faqat 1397-yil oxirlarida Sirdaryo bo'yidagi qishlov paytida qabul qilgan ekan. Elchilarga katta hurmat va ehtirom ko'rsatiladi, ular turli sovg'alar bilan siylanadi. Lekin Fa-Anga orqaga qaytishga ruxsat berilmaydi. Buning o'ziga xos sababi bor edi. Xitoy imperatori Amir Temurga yuborgan nomasida uni o'z o'g'li deb atab, kalondimog'lik bilan munosabat bildirgan edi. Diplomatiya tilida bu hol Xitoyning oliy hukmronligini e'tirof etish bilan barobar bo'lgan. Shu bois 1397-yil Xitoy tomonidan Chen-Te-Van boshliq ikkinchi elchilik guruhi ham ushlab qolinadi. Bu elchilik guruhi esa Xitoy imperatorining unga boj to'lashi lozimligi haqidagi talabini ham olib kelishgan edi. Klavix o'z asarida Xitoy elchilarini o'zidan pastroqqa o'tkazilishini qayd etgan bo'lib, bu o'z navbatida Xitoyning yuqorida ta'kidlangan munosabatiga nisbatan o'ziga xos javob edi. Xitoyning Amir Temur va uning davlatiga nisbatan bir tomonlama siyosati ular o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarining so'vishiga sabab bo'lgan.

Ma'lumki, qadimgi davrlardan boshlab sharq mahsulotlari Yevropa aholini, xususan saroy a'yonlari, zodagonlar va savdogarlarni o'ziga jalb etib kelgan. Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo munosabatlariga turli diniy qarashlar ham xalaqit bermagan. Mo'g'ullar istilosi, undan keyingi musulmon-sharqidagi notinch siyosiy ahvol, XIV asr oxirlariga kelib Usmoniylar davlati tomonidan Sharqqa boruvchi quruqlik va dengiz

yo'llaridagi savdo munosabatlari ustidan nazorat o'rnatish borishi Yevropa savdogarlarining Sharq bilan qilinadigan savdo aloqalariga qat'iy zarar yetkaza boshlaydi. Yevropalik xristian davlatlarining Vengriya qiroli Sigizmund boshchiligidagi birlashgan qo'shini 1396-yili Bolgariyaning Nikopol shahri yaqinida turklar tomonidan butkul mag'lub etiladi. Bu bilan Usmoniylar davlatiga Sharqiy Yevropa yerlari istilosi uchun keng yo'l ochiladi. Usmoniylar davlati Yevropa davlatlari istiqboli uchun xavfli bo'lib qolganini mazkur qit'a hukmdorlari yaxshi anglab yetishar edi. Shu bois ham turklarga qarshi qayta ittifoq tuzish harakatlari boshlanadi.

Vizantiya imperatori Manuil II Paleolog (1391–1425) 1399-yili Rim papasi bilan birga turklarga qarshi ittifoq tuzishga harakat qiladi. Bu borada dovrug'i Yevropaga qadar yetib kelgan Amir Temur bilan G'arb hukmdorlari yaqinlashishga harakat qiladilar. 1400-yil avgustida Amir Temur Kichik Osiyoning Mishko'l degan joyida turgan vaqtida G'arbdan kelgan elchilar Sohibqiron bilan uchrashishga muvaffaq bo'ladilar. Amir Temur ular bilan yaxshi munosabatda bo'lib, elchilarni sovg'a-salomlar bilan siylaydi. Ushbu va keyingi elchilik guruhlari tashrif buyurishidan ko'zlangan asosiy maqsad – Usmoniylar davlatiga qarshi kurashga Amir Temurni jalb etish bo'lgan.

Boy savdo shaharlari bo'lgan Genuya va Venetsiya ham Amir Temur bilan yaqin munosabatlarni o'rnatishga harakat qiladilar. Bu xususan mazkur shaharlar senati arxivlari ma'lumotlaridan bilib olish mumkin. 1400-yil Venetsiya senati o'zaro kelishgan holda Amir Temur huzuriga o'zining ikki nafar elchilari – Andrea Jistinian va Mateo Barbadigolarni jo'natadi. Mazkur senat arxivi hujjatlariga ko'ra, 1401-yil avgust oyida Konstantinopol yaqinida Amir Temur elchisi bilan yuqorida nomi qayd qilingan vakillarning uchrashuvi bo'lib o'tadi. Shuningdek, 1402-yil yoz oyi boshlarida Amir Temurning elchisi Konstantinopol yaqinida joylashgan Pera degan joyda Genuya savdo vakolatxonasiga tashrif buyuradi. Mazkur elchilik aloqalari Genuya va Venetsiyaning Amir Temur davlati bilan yaqinlashishga qilayotgan xatti-harakatlaridan darak berar edi. Ayniqsa, Usmoniylar davlati qurshovida qolgan Vizantiya turklarining harbiy kuch-qudratidan hayiqar edi.

1394–1399-yillar oralig'ida Konstantinopol (Vizantiya) imperatori ikki marotaba o'z elchilarini Amir Temur huzuriga jo'natadi. Bi-

rinchi elchilik maqomida Fransua ismli rohib bo'lib, u bilan Sandron degan shaxs ham bo'lgan. Sandron Genuya nomidan kelgan bo'lib, o'zi bilan Genuya homiysi, Fransiya qiroli Karl VI maktubini ham olib kelgan edi. Ikkinchi elchilik guruhi ham o'zi bilan birga Fransiya qiroli maktubini olib keladi. Ushbu elchilik guruhlarini tashrifidan ko'zlangan maqsad shundan iborat ediki, Amir Temurning Boyazidga qarshi kurashida Sharqiy O'rta yer dengizi havzasida joylashgan davlatlar tomonidan unga yordam bermoqchi bo'lishgan. O'z navbatida, Amir Temur ham 1402-yil iyul oyining boshlarida Konstantinopolga o'sha rohib Fransuani tegishli noma bilan jo'natgan. Tez orada Amir Temurga katta umid bog'lagan Konstantinopol ham uning oliy hukmronligini tan oladi.

Shu davrda Yevropada katta mavqega ega bo'lgan davlatlardan biri Ispaniya (Kastiliya va Leon) bo'lgan. Ispan qiroli Genrix III 1402-yil iyul oyida Amir Temur huzuriga o'zining birinchi elchilari – Payo de Sotomayor va Ernan Sanches Palasueloslarni jo'natadi. Amir Temur ushbu elchilarni alohida hurmat bilan qabul qilib, 1402-yil avgustida ularga o'z elchisi Xo'ja Muhammad qozi al-Keshiyni qo'shib Ispaniya qiroli huzuriga yo'llaydi. Klavixo o'z asarida ushbu elchini «Magomet Alkagi» deya ataydi.

Yevropa davlatlari Amir Temur bilan turk sultoni Boyazid Yildirimlar o'rtasida 1402-yil 20-iyulda bo'lib o'tgan Anqara jangi xulosasini diqqat bilan kutishgan. Ushbu jangda Fransiya qiroli Karl VI, Vizantiya (Konstantinopol) imperatori Manuil II, Rim papasi, Genuya va Venetsiya, Ispaniya (Kastiliya va Leon) qiroli Genrix III larning elchilari ham jang maydonida kuzatuvchi sifatida qatnashadilar. Usmoniylarga qarshi Yevropa davlatlari hatto birlashgan taqdirda ham mag'lub bo'lishlarini 1396-yilgi Nikopol jangi namoyon etgan edi. Shu bois ularning siyosiy kelajagi shu jang natijasiga bog'liqligini ular yaxshi anglab yetishadi. Turklar istilosi, umuman Yevropani Usmoniyar bosqinidan to'xtatishga qodir yagona kuch bu – Amir Temur va uning qo'shini edi.

Amir Temurning Anqara jangidagi g'alabasi Yevropa davlatlarini ruhlantirib yubordi. Ularning barchasi Sohibqironga «Yevropa xaloskori» sifatida munosabat bildirishdi. O'z navbatida, Amir Temurning Yevropa monarxlari, xususan Ispaniya (Kastiliya va Lion) qiroli Genrix


III ga yo'llagan nomasida¹ o'zining xristianlarga nisbatan iliq munosabatini bayon etadi. Amir Temur oliyhimmatlik bilan Boyazid haramiga tushib qolgan ispaniyalik oliynasab qizlarni ham ozod qiladi.

O'z davrining mohir sarkardasi va hukmdori bo'lgan Amir Temur nufuzi, kuch-qudratini tan olgan g'arb davlatlari uning huzuriga ketma-ket elchilarini jo'nata boshlaydilar. Amir Temur Yevropaning xristian dunyosi bilan hamkorlik qilish, savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirish takliflarini o'rtaga tashlaydi. 1402-yil oxirlari – 1403-yil boshlarida Amir Temur huzuriga Konstantinopol, Yangi Foseya, Genuya, Egey va O'rta yer dengizidagi davlatlar nomidan qator elchilar tashrif buyurishadi. Ular aksariyat hollarda Amir Temurga o'z minnatdorchiliklarini izhor etib, uni tan olgan holda boj soliqlarini ham taqdim etishadi.

Shu davrda Yevropa davlatlari orasida katta nufuzga ega bo'lgan Angliya va Fransiyaning Amir Temur davlati bilan o'zaro munosabatlarini masalasi ham alohida e'tiborga sazovordir. Anqara jangidan so'ng boshqa g'arb davlatlari singari Angliya va Fransiya ham Amir Temur bilan o'zaro diplomatik yozishmalarni amalga oshira boshlashdi. Amir Temur Sultoniya'dagi katolik arxiyepiskopi Ioann III ga katta marhamat ko'rsatib, uni o'z elchisi sifatida 1402-yil avgustida Fransiya'ga jo'natdi. 1403-yil iyunda Ioann III Parijga yetib kelib, qirol qabulida bo'ldi. Ioann III Fransiya qiroli Karl VI ga Sohibqiron nomidan bitilgan ikkita maktubni taqdim etdi.

Amir Temur o'z maktublarida Boyazid ustidan qozonilgan g'alaba va uning mohiyati haqida co'z yuritib, turklar tomonidan nohaq asirga olingan xristianlarni ozod qilganligi, agarda yana biron kimsa ular qo'lida tutqunda bo'lsa, ularni ham ozod etishini ta'kidladi. Amir Temur o'z saltanati haqida so'z yuritib, ikkita taklifni o'rtaga tashlaydi. Bu takliflarning birinchisi, ikkala davlat savdogarlariga erkin savdo munosabatlari uchun tegishli sharoit yaratish; ikkinchisi – agar qirol rozi bo'lsa, yuqoridagi erkin savdo bo'yicha shartnoma tuzish. Amir Temur o'z davrining ilg'or va sog'lom fikrlovchi davlat arbobi sifatida o'zaro teng va manfaatli munosabatlar o'rnatishni oldingi o'ringa qo'yadi.

¹ Ushbu maktub 1402-yil avgust sanasida bitilgan bo'lib, uni Sohibqiron elchisi Xo'ja Muhammad qozi al-Keshiy taqdim etgan. Mazkur maktubning nusxasi saqlanib qolgan.



**Amir Temurning Fransiya qiroli
Karl VI ga yozgan xati nusxasi.**

Xususan, o'z maktubini «dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak» degan so'zlar bilan yakunlashi yuqoridagi fikrning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Fransiya qiroli Karl VI 1403-yil 15-iyunda Amir Temurga yuborgan xatida Sohibqiron takliflarini qo'llab-quvvatlaydi.

Amir Temur va uning o'g'li Mironshoh Mirzo Angliya qiroli bilan ham yozishmalarni amalga oshirishgan. Angliya qiroli Genrix IV ning (1399–1413) Amir Temur va Mironshoh Mirzoga lotin tilida yo'llagan ikkita maktubi bizning davrimizga qadar yetib kelgan. Sohibqiron va Angliya qiroli o'rtasidagi bu diplomatik munosabatlarga avval Fransiya ham bo'lgan

katolik arxiyepiskopi Ioann III boshchilik qiladi. Angliya qiroli Genrix IV o'z maktublarida avvalo Sohibqiron va uning o'g'li Mironshohga katolik ruhoniylari, umuman xristianlar, xristian savdogarlarga ko'rsatilayotgan iliqlik munosabat, ularning xavfsizligi yo'lidagi sa'y-harakatlari uchun minnatdorchilik bildiradi. Qirolning Mironshoh Mirzo nomiga yozgan nomasida «Mirassa Amirassa»ga, ya'ni Mironshohga «buyuk hukmdor», katolik dinining homiysi», deya murojaat qiladi. Mironshohning xristianlar, xususan katolik mazhabidagilarga ko'rsatayotgan muruvvatini qirol yuqori darajada baholaydi. Boshqa dindagilarga nisbatan o'rta asr Yevropasida jaholat va bid'at avjiga chiqqan bir vaqtda Amir Temurning o'zga e'tiqod kishilariga bag'rikengligi, muruvvati va oliyhimmati yuqori tahsinga sazovor bo'lib, buni ingliz hukmdori ham mamnuniyat bilan e'tirof etgan edi. Bu Amir Temurning o'z davriga nisbatan ham ancha ilg'or tarzda fikrlaydigan zehinli va mulohazali davlat arbobi ekanligidan dalolat bera-

di. Genrix IV Amir Temur va Mironshohga murojaatida unga nisbatan ko'rsatilgan do'stona munosabatlari uchun tashakkur bildirib, Sohibqironning o'zaro hamkorlik va do'stona aloqalar, erkin savdo munosabatlarini o'rnatish haqidagi taklifini qo'llab-quvvatlashini bildiradi. Shuningdek, qiroli turk sultoni Boyazid ustidan qozonilgan g'alaba bilan Amir Temurni muborakbod etib, umumiy dushman ustidan qozonilgan g'alaba ularga «xursandchilik baxsh etganligini» qayd etadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, minnatdor Yevropa ahli nomidan XV asrdayoq Parijda Amir Temurga haykal o'rnatib, uning tagiga «Yevropa xaloskori» degan yozuv ham bitib qo'yishgan edi.

Amir Temurning diplomatik yozishmalarida Dominikan ordeni rahibi Fransisk nomi ham keltiriladi. Uning nomi Amir Temurning Angliya va Fransiya qirollari, Vizantiya imperatoriga yuborgan nomalarida ishonchli vakil sifatida tilga olinadi. U 1404-yil sentabr-noyabr oylarida Amir Temur davlatida bo'lib, bu xususda ko'plab qimmatli ma'lumotlar qoldirib ketgan.

Ispaniya (Kastiliya va Leon) elchisi Rui Gonsales de Klavixo G'arb bilan elchilik munosabatlarida oxirgi vakil bo'lib qoldi. Yevropa hukmdorlari Amir Temur va uning davlati, salohiyatiga yuqori baho berib, yuksak ehtirom bilan unga munosabatda bo'lishgan. Xususan, ularning Sohibqironga murojaatlarida Amir Temurning nomi katta hurmat ila tilga olinib, «Oliy nasab va g'alabalar keltiruvchi hukmdor», «Buyuk va qudratli hukmdor Temurbek», deya e'tirof etilgan.

Amir Temur davrida xalqaro diplomatiya etiketlari ishlab chiqilgan va ularga qat'iy ravishda rioya etilgan. Tarixiy manbalarda Alqa Tavochi, Jilorti, Amir Dovud, Yodgor Barlos va Uzun O'ljoytu (Xorazmga), Shamsiddin Olmaliqiy (To'xtamishga), Shayx Suvon, Podshoh Bo'ron (Misrga), Muhammad qozi al-Keshiy (Yevropaga) kabi zotlar xalqaro aloqalarni muvofiqlashtirishga katta xizmat qilganligi alohida qayd etiladi. Mazkur manbalarda ushbu iqtidorli, ilmiy va zehniy elchilar haqida qator ijobiy ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Amir Temur ulkan davlat va qudratli saltanat barpo etgan holda Sharq va G'arb o'rtasidagi Buyuk ipak yo'li tarmog'ini tikladi. Mazkur xalqaro savdo yo'li nafaqat qayta tiklandi, balki ushbu yo'l xavfsizligini ta'minlagan holda keng ko'lamdagi savdo-iqtisodiy munosabatlarga yo'l ochib berdi. Uning natijasida ichki va tashqi savdo butun saltanat-

da rivoj topdi, mazkur yo'llardagi har qanday talonchilik, bosqinchilik, qaroqchilik ko'rinishlariga chek qo'yildi. Shu bilan birga yo'llar, sardobalar, karvonsaroy, ko'priklar ta'mir etildi, chet el savdogarlari uchun barcha sharoitlar yaratib berildi, har to'xtash joylarida (bu taxminan 25–30 km oraliqda) «yomlar» tashkil etilib, ularda savdogarlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Amir Temur davlati chegarasiga yaqinlashgan Klavixo xalqaro savdo, chet el savdogarlariga bo'lgan ehtirom va yuqori hurmat masalasini alohida e'tirof etgan edi. Qolaversa, xalqaro savdo yo'li bo'ylab nafaqat savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatildi, balki o'zga yurtlar yangiliklari, madaniy qarashlari va boshqalar bilan o'zaro fikr-mulohaza almashuvi ham yuzaga keldi. Bu, o'z navbatida, aholi madaniy saviyasi, maishiy turmush tarzining ko'tarilishiga turtki bo'lib xizmat qildi.

1.7. Amir Temur ma'naviyati

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Amir Temur oliy insoniy fazilatlarni tushunuvchi va qadrllovchi shaxs bo'lgan. Uning o'zi bu borada o'mak bo'lguvchi inson edi. Shu bois ham u hokimiyatga chiqishdagi murakkab yillarda ham o'z orqasidan iqtidorli va diyonatli kishilarni ergash-tira oldi. Ulardan jasur va sadoqatli harbiylarni yetishtirdi. Ular orasida Joku barlos, amir Muso, amir Hinduka, Iki Temur, Sulaymonshoh va boshqalar bo'lishgan. Amir Temur butun aql-zakovati, qobiliyatini ishga solgan holda o'z atrofida turli yo'nalishdagi kishilarni ham birlash-tira oldi. Zero, og'ir mo'g'ul istibdodidan so'ng ezilgan, xarob bo'lgan, siyosiy parokandalik, iqtisodiy tanazzul kuchaygan bir paytda bunchalik diplomatik mahoratni ishga solish har qanday hukmdorning qo'lidan kelmas edi. Amir Temurning yana bir olijanob fazilati – uning kechirimlilik, rahm-shafqatlilik, boshqalar gunohidan o'ta bilishi ham hisoblangan. Masalan, Amir Temur sardor Alibek Jonqurboniy xiyonatini ikki marotaba ham kechirib, uni qayta xizmatga olgan. Yoki Oltin O'rda xoni To'xtamishxon non-tuz haqqini unutib, ikki marta Amir Temurga qarshi bosh ko'targanida Sohibqiron uni ikki marotabada ham kechirib yuborgan. Hatto o'limidan sal avval uzr so'rab kelgan To'xtamishxon elchilarini qabul qilib, uning hokimiyatini qaytarib olishga yordam berish to'g'risidagi iltimosiga rozilik beradi. Bag'rikenglik, saxovatlilik,

o'zaro gina-kuduratdan nari bo'lish borasida, darhaqiqat, Amir Temur o'mak bo'lishga sazovor shaxs bo'lgan.

Amir Temur o'z «Tuzuklar»ida qo'l ostidagilarga nisbatan adolat va insof bilan munosabatda bo'lishini yoqlagan. Xususan, «Tuzuklar»da buni u quyidagicha ta'riflaydi: «Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayrehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim... Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ulashdim. Zolimdan mazlumning haqqini oldim».

Sohibqiron chin do'stlikning qadriga yetgan va sadoqatli do'stlikka muhim ahamiyat bilan qaragan. Uning: «Yaxshilarga – yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilsa qadrladim, do'stligini unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzat-ukrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilsa, uning xizmati haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho'kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim», degan so'zlari yuqoridagi mulohazaning amaliy tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temur hayot maktabini, turmushning past-u balandini ko'rgan kishilarni, sadoqatli va fidoyi, jasur va shijoatli kishilarni juda qadrlagan. Niyati buzuq, hamiyatsiz, qo'rqqoq, chaqimchi, g'iybatchi va jur'atsiz kishilardan nafratlangan. Shu bilan birgalikda gina-kuduratdan ham uzoq bo'lgan. Qaysi dushman uning oldiga bosh egib kelsa, Sohibqiron uning hurmatini joyiga qo'yib, dushmani do'stga aylantirgan.

Amir Temur o'z ustoz-pirlari – Shamsiddin Kulolning ta'limoti, Mir Sayid Barakaning yo'l-yo'riqlari, Abu Bakr Tayobodiyning maslahatlariga hamisha quloq solgan hamda butun faoliyatida ularga tayangan. Amir Temur din arboblari, ruhoniylar, ulamolarga nisbatan katta hurmat bilan munosabatda bo'lgan. O'z navbatida, ularga ma'lum mas'ul vazifalarni ham ishonib topshirgan. Masalan, 1393-yil oktabrda Misr sultoni Barquq huzuriga taniqli diniy arbob shayx Suvohni elchi sifatida yuborgan. U Samarqand, Kesh, Buxoro diniy arboblari alohida ehtirom bilan munosabatda bo'lgan. Amir Temur hamma vaqt diniy arbob, ruhoni, ulamolarni o'z himoyasiga olib, ilm vakillari bilan birga munozara va suhbatda bo'lishga ishtiyoqmand bo'lgan. *Harbiy yurish yaqtlarida* ham bu masalaga e'tibor bilan qaragan. Bag'dod olinganida u ruho-

niylar, din arboblari zarar yetkazmaslikni talab qilgan, Damashqda Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) ikki ayollari – Umm Habiba va Umm Salmaning qabrlarini ziyorat etib, bu yerda maqbara qurishni buyurgan. Damashqda qilgan birinchi ishi Ummaviylar Jome masjidini ziyorat qilish bo'lgan. Shuningdek, bu yerda Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ning yaqin sahobalaridan biri – Bilol al-Habashiy qabrini ham ziyorat qilgan. Suriyada yana bir sahoba, taniqli lashkarboshi Muhammad Xolid ibn Volid qabri joylashgan Xoms shahri egallanayotgan paytda Amir Temur bu shaharni vayron etmaslikni buyurgan. Shuningdek, Erondagi ziyoratgohlarni ham obod qilish topshirig'ini bergan. Misr tarixchisi Ibn Tangriberdi 1404-yili Amir Temur Makkaga keladi, deya hozirlik ko'rishganini, lekin noma'lum sabablarga ko'ra Sohirqiron Makkaga kela olmaganligini qayd etadi. Amir Temur har qanday dindagi ayirmachilik harakatiga, sunniylik va shialik yo'nalishlari orasidagi nifoqqa qarshi edi. Qolaversa, o'zga dinga e'tiqod qiluvchilarga ham oliyhimmatlik bilan munosabatda bo'lgan. Uning davlatida boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga zulm va tazyiq o'tkazilishiga yo'l qo'ymagan.

Amir Temur inson e'tiqodsiz yashay olmasligini yaxshi tushungan. U dinni yuksak kamolot yo'liga yetaklovchi kuch, insonni ma'naviy jihatdan komillik darajasiga olib chiquvchi vosita deb bilgan. Shu bois imon-e'tiqod, ma'naviy poklik, halollik tushunchalarini juda qadrlagan.

Amir Temur Qur'oni karimni yod bilgan, hadislarni yaxshi tushungan, tafsir ilmidan xabardor bo'lgani bois diniy asnodagi bahslarda yirik ulamolar bilan barobar so'z yurita olgan. Bu uning ma'naviyati, imon-e'tiqodi, diyonati qanchalar mukammal bo'lganligidan darak beradi. Amir Temur musulmonchilik aqidalari jamiyat osoyishtaligi va ravnaqi, ijtimoiy adolat, ma'naviy poklik, fuqarolararo totuvlik yo'lida xizmat qilishi tarafdori bo'lgan. Amir Temurda shu bilan birga din dinligini, davlat-davlatligini qilishi lozim, degan qat'iy va to'g'ri tushuncha bo'lgan. Ibn Arabshoh Amir Temurning olim va ulamolarga bo'lgan munosabatini ta'riflab, shunday deya yozgan edi: «Amir Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayid-u, shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi». Darhaqiqat, Amir Temur olim-u fozillarni juda qadrlar, o'zi ham qator fanlardan boxabar edi. Xususan, u tarix, falsafa, riyoziyot, handasa, me'morchilik, falakiyot ilmlarini yaxshi ko'rar

va qadrlar, she'riyatni sevar edi. Ibn Arabshoh bu boradagi mulohazalarni o'z asarida ham alohida ta'kidlagan. Amir Temir bilan Damashqda birmuncha vaqt suhbat qurish baxtiga muyassar bo'lgan arab tarixchisi ibn Xaldun uni ko'plar fikridan boxabar, yuqori salohiyatga ega inson sifatida ta'riflaydi. Amir Temur saroyida kotib bo'lgan Hofizi Abru ham Sohibqironga «teran bilim egasi» deya baho bergan edi. Amir Temur davriga zamondosh bo'lgan eronlik tarixchi Muiniddin Natanziy ham o'zining «Muntaxab ut-tavorix» nomli asarida Sohibqironni bilimli va ma'rifatli hukmdor «bo'lganligiga» alohida urg'u beradi.

Ulug' mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiy Amir Temur faoliyatiga ta'rif bera turib quyidagilarni ta'riflagan edi : «Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi».

Amir Temur Sharqning eng ko'p tarqalgan uchta – arab, fors, turkiy tillarini mukammal bilgan, qator tarixiy manbalardan yaxshi xabardor inson bo'lgan. Uning oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar, ayollarga bo'lgan ulkan ehtiromi, farzandlar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq fikr-mulohazalari ham yuksak e'tiborga sazovordir. Amir Temur huzurida xotin-qizlarni g'iybat qilish, ayollarga nisbatan zo'ravonlik qilish va shunga o'xshagan gap-so'zlarni aytish taqiqlangan. U xotin-qizlarga zo'ravonlik qilganlarni tanobini tortib qo'ya olgan. O'z xotinlari, qizlari va boshqa ayollarga nisbatan ham mehribon va shafqatli bo'lgan. Amir Temur ayollarga ma'lum erkinliklar bergan, ularni rasmiy marosim, bazm-u jamshidlarda ishtirok etishlariga ruxsat bergan. Klavixo rasmiy marosimlarda Amir Temurning suyuqli xotini Saroymulkxonim ishtirok etganligini alohida ta'kidlagan. Amir Temur ayol qarindoshlariga atab qator inshootlar qurdirgan. Masalan, xotini Tuman og'aga atab Behisht bog'ini, To'qal xonimga atab Dilkusho bog'ini, opasi Qutlug' Turkon og'a, singlisi Shirinbeka og'alarga hamda Bibixonimning onasiga atab maqbaralar barpo etganligi yuqoridagi mulohazaning mantiqiy tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. U nikoh masalasini «Davlat yumushlari darajasi-dagi muhim ish» qatorida ko'rgan.

Amir Temur XIV asrdayoq «Kuch – adolatda» shiorini davlat siyosati mavqeyi darajasiga olib chiqdi. Umri davomida Sohibqiron bu shi-

orni o'ziga dasturul amal qilib oldi. Amir Temur davlatidagi bu axloqiy-ma'naviy mezon hamma davrlar uchun e'tiborli bo'lib, hozirgi kunga qadar insoniyat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Amir Temur harbiy san'at, soliq siyosati, raiyatga munosabatda, o'z davlat boshqaruvi tizimida, qo'l ostidagilarga munosabatda ham ushbu tamoyilga qat'iy amal qildi.

Amir Temur o'z hukmronligi davrida mutaassiblik, ayirmachilik, mazhabchilik ko'rinishlariga yo'l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik-xotirjamlik, xavfsizlik borasida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu xususda Sohibqiron, «... saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim», deya qayd qilgan edi.

XXI asr barkamol avlodini tarbiyalashda Amir Temur ma'naviyati, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi.

1.8. Amir Temur davridagi madaniy hayot.

Amir Temur 150-yillik mo'g'ul istibdodini tugatib, o'zaro nizo-parokandalikka chek qo'ydi, uning sa'y-harakatlari bilan kuchli markazlashgan davlat yuzaga keldi. Bu esa, o'z navbatida, ulug' saltanatda madaniy hayotning nafaqat jonlanishi, balki yuksalishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayonni shaxsan Amir Temurning o'zi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatladi. U o'z bunyodkorligini aynan davlat siyosati maqomida belgiladi.

Amir Temur topshirig'iga ko'ra barpo etilgan inshootlarning ulug'vorligi siyosiy sohadagi vazifalardan biri edi. Mazkur holat Shahrisabzdagi Oqsaroy-peshtoqiga bitilgan: «Agar qudratimiz va karomatimizga shubha qilsang, shak keltirsang, qurdirgan imoratlarimizga qara!» degan yozuvda o'zining aniq ifodasini topdi. Samarqandda, Movarounnahrning boshqa shaharlari, qolaversa butun saltanatda Amir Temur davrida amalga oshirilgan qurilish, obodonchilik ishlari beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Bunda avvalo shahar qurilishida istehkomlar barpo etish, ko'chalarni tartibga solish, aniq uyushtirilgan me'moriy majmualar yaratish bo'yicha ulkan tadbirlar amalga oshirildi. Bu ko'p holda Sa-

marqand me'morchiligida o'z aksini topdi. Amir Temur, keyinchalik Temuriylar davrida ham shaharlarning asosiy qismi «Hisor» deb atalgan. Bu to mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan «Shahriston» atamasidan nisbatan farqlanadi. Zero, hisor shaharning asosiy qurilishlari va savdo-hunarmandchilik sohaslarini o'z ichiga olgan yoki umuman yangi joyda vujudga kelgan, lekin baribir me'moriy jihatdan o'zaro uyg'un bo'lgan asosiy ma'muriy va mafkuraviy bo'g'inlarni o'zida jamlagan. Katta-kichik shaharlarning hitori har xil, ammo ahamiyati va vazifasi bir bo'lgan. Buni Kesh (Shahrisabz) va Samarqand shaharlari misolida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Hofizi Abruning ma'lumotiga ko'ra, Kesh shahri hisor devori qurilishi 1378-yil boshlanib, bir yildan so'ng tugallangan. To'g'ri to'rtburchak shakldagi devorning to'rt tomonida darvozasi bo'lgan. Darvozalardan boshlangan ikkita asosiy yo'l markazda kesishgan. Yo'l yoqasida joylashgan do'konlar markazga tomon ko'payib borgan va markazda asosiy bozor bo'lgan. Hisorning janubi-g'arbida Oqsaroy bunyod etilib, uning qarshisida esa aslzodalar va ruhoniylarning mahallalari joylashgan.


O'sha davr muarrixlari poytaxtni Samarqandga ko'chirilishi haqida gapirib, uni bag'oyat xushmanzara, jannatmonand yerda joylashganligi haqida so'z yuritishadi. Ajoyib qir-adirlari, go'zal daraxtzorlari, maf-tunkor inshootlari, so'lim kanallari bo'lgan bu beqiyos shahar – saltanatning noyob javohiri va boshqa shahar-u qishloqlar havas qilgudek maskanni Amir Temur davlatni boshqaruv markaziga aylantirib poytaxt qildi, qal'a va hisor qurishni, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod etishni buyurdi. Ispan elchisi Klavixo Samarqandga ta'rif bera turib, quyidagilarni ta'kidlagan edi:

«Samarqand shahri tekislikda joylashgan va atrofi tuproq ko'tarma hamda chuqur xandaq bilan o'rab olingan... Butun shahar bog'-rog'lar va uzumzorlar bilan o'rab olingan... Shahar bog'lar qo'ynida joylashgan. Bu bog'lar o'rtasidan ko'chalar o'tkazilgan, maydonlar bor, bu yerlarda juda ko'p aholi yashaydi, non, go'sht va ko'plab boshqa narsalar sotiladi». Amir Temurning Samarqanddagi qal'asi shunchaki istehkom emas, balki avvalo poytaxtning mustahkamlangan ma'muriy-harbiy markazi ham edi. Amir Temur davriga kelib Samarqand qiyofasi quyidagicha tus olgan: Shaharda oltita darvoza – shimolida Shayxzoda va Ohanin, sharqida – Feruza, janubida So'zangaron va Korizg'bh, g'arbida – Chor-

su darvozalari mavjud bo'lgan. Shahar markazi – Registon maydonidan nur shaklida tarqalib, bu darvozalarga cho'zilgan asosiy ko'chalar o'qday to'g'ri bo'lmay, burilishlari ko'p, gohida yirik mahallalari tarixan vujudga kelgan ko'chalar bilan tutashib ketar edi. 1404-yili Samarqandga qaytgan Amir Temur shaharning asosiy ko'chalarini tubdan qayta qurib, to'g'rilash va kengaytirishga qaror qiladi. Bu xususda Klavixo ham o'z esdaliklarida qayd etib o'tadi. Shu davr me'morchiligida ko'p holda pishiq g'isht va ba'zan tosh, marmarga ham asosiy urg'u berila boshlandi. Gumbaz texnikasidagi taraqqiyotni ko'p jihatdan pishiq g'isht belgilab berdi. Ta'kidlash joizki, XIV asr oxirlari – XV asr butkul me'morchilik san'atining yuksalish davri bo'ldi.

Amir Temur me'morchilikni yuqori darajaga ko'tarish borasida muhandislar, me'morlar, bezak ustalari oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yib, ularning mahoratlarini muntazam oshirib borishga katta e'tibor bilan qaradi. Masalan, Klavixoning guvohlik berishicha, Amir Temur Go'ri Amir maqbarasi qurilishidan uncha qoniqmay, uning gumbazini qayta qurishni buyurgan. Shuningdek, Jome masjidi asosiy peshtoqi avval unga maqbul bo'lmagan, so'ngra peshtoq ham qayta qurilgan. Muhandislik izlanishlarining yakuni sifatida devordan devorga tashlanuvchi, o'zaro kesishuvchi va gumbazni ko'taruvchi («ayilsimon») to'rtta ravoq ko'rinishidagi yangi tizim vujudga keldi, ravoqlar oralig'i qalqonsimon bag'arlar va osilib turuvchi ganchkorlik bilan to'ldirilgan bezak va sayqal ishlari binoning asosiy hajmi qurib bitkazilganidan keyin emas, balki u bilan baravar amalga oshirilgan.

Me'moriy bezakning eng yuqori cho'qqisiga chiqishi ham Amir Temur va Temuriylar davrida ro'y bergan. Uning turlaridan va oldingi avlodlarning tajribasidan foydalangan holda ustalar texnik usullarni takomillashtiribgina qolmay, balki yangilarini ham ishlab chiqishdi, bezak mavzularini boyitishdi. Bularga – g'ishtni devorni silliqlab, rangli va sirli koshinlardan qadama naqsh solish, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi, hoshiyalarni bezagan ko'p rangli parchinlar, naqshlarning ayrim qismlari va butun boshli pannolar, alohida sayqallangan koshinlardan ishlanuvchi yorqin naqshlar, ichki ko'rinishda esa koshinlar chegarasidan boshlab to gumbaz markazigacha devoriy surat ishlangan bo'lib, u ko'p rangli va oltinga boy bo'lgan. Yoki ayrim ranglar, masalan, oq fondagi zangori naqshlar ustunlik qilgan.



Samarqand. Go'ri Amir maqbarasi. XV asr yodgorligi.

Bularning barchasi eng yuksak texnik darajada ijro qilinib, o'z ko'rinishi, tuzilishi bilan asrlar davomida insoniyatni lol qoldirib kelmogda. Naqshlarning uch xili – handasaviy, o'simliksimon va epigrafik turlari yonma-yon, lekin o'zgacha uslub bilan ishlatilar edi. Amir Temur davri inshootlarida ko'k va zarhal ranglar ustun, dabdabali naqshlar hukmron bo'lgan. Turli hududlardan kelgan hunarmandlar har xil soha mutaxassislari qurilish, me'morchilik ishlariga keng jalb etilar edi. Shams Abdulvahob Sheroziy, Tojuddin Isfahoniy, Sharafiddin Tabriziy singari usta me'morlar, yog'och, o'ymakori Yusuf Sheroziylar shular qatoridan o'rin olgan mashhur ustalar bo'lishgan. Ta'kidlash joizki, Movarounnahr o'lkasining o'z me'moriy maktablari va bezak ustalari bo'lgan.

Ularning ayrimlarining nomlari bizgacha yetib kelgan. Ular qatorida Faxri Ali, Badriddin, Shamsiddin, usta Zayniddin, usta Ali (Alim) Nasafiy nomlarini keltirish joiz. Amir Temurning bosh bog'boni ham mahalliy o'simlik dunyosini yaxshi bilgan samarqandlik Shahobiddin Ahmad Zardakashiy nomli shaxs bo'lgan. Mahalliy va o'zga yurtlardan kelgan ustalar o'zaro ijodiy ta'siri shu davr me'morchiligida o'ziga xos yangi uslubni vujudga keltirdi, saltanatning barcha hududlaridan to'plangan ustalarning bilimi va ijobiy salohiyatini o'zida jamladi.

Amir Temur qurdirgan me'moriy inshootlar ichida, shubhasiz, Oqsaroy eng yirik va nodir obida hisoblanadi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishiga qaraganda, Amir Temur to'rtinchi marotaba, ya'ni 1379-yili Xorazmga yurishidan qaytganidan so'ng xorazmlik bir guruh kishilarni Keshga ko'chirib keltirganligini qayd etadi. Ko'chirib keltirilganlar orasida quruvchi usta, mutaxassis bunyodkorlar ham bo'lganki, ular Amir Temurning buyrug'i bilan Keshda yangi saroy barpo etish ishiga jalb qilingan. Oqsaroyning qurilishi 1380-yil bahorida boshlangan. O'z davrida umumiy balandlik darajasi 70 metrni tashkil etgan Oqsaroy binosining hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan qismi 38 metrni tashkil etadi. 1404-yil 29-avgust kuni Keshda bo'lgan ispan elchisi Klavixo ustalar hanuz qurilish ishlarini davom ettirishayotganligini ta'kidlagan. Saroy hajmi jihatidan nihoyatda ulkan va mahobatli, o'z davrining o'xshashi yo'q binosi bo'lgan. Shu davrda Amir Temur davlatida saroy inshootlarining ikki turi keng tarqalgan edi: rasmiy, ma'muriy boshqaruv; shahardan tashqaridagi qarorgoh vazifasini o'tovchi, dam olish inshootlari.

Oqsaroy tabiiyki, birinchi guruhga kirgan inshoot bo'lgan. Oqsaroy ko'lami, ma'rifiy yechimi bo'yicha tengi yo'q imorat bo'lib, uni saroyda saqlanib qolgan quyidagi yozuv ham tasdiqlaydi: «Go'zalligi jihatdan hayratlanarli va ko'k gumbazlari bo'lgan bu bino, peshtoq qubbalarida o'z aksini topgan va jilvalanuvchi turli rangdagi nurlar taratuvchi mash'alaga o'xshaydi». Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida Oqsaroy haqida: «Uning toq va ravoqlari ayiq yulduziga yetadi, binobarin, dunyoda unga teng keladigan narsani hech kim hech qachon ko'rmagan va eshitmagan», deya yuqori ta'rif bergan edi.

Hozirgi kunda Oqsaroyning saqlanib qolgan qismi u hajmi jihatdan ulkan bo'lib, o'rta asrlarda tengi yo'q inshoot bo'lganligini yana bir qarra tasdiqlamoqda. Shuningdek, Amir Temur 1373/1374-yillarda Shahrisabzda ustozi Shayx Shamsiddin Kulol mozori ustida gumbazli maqbara barpo etib, otasi Muhammad Tarag'ay qabrini ham unga ko'chirib o'tkazadi.

1376-yili Amir Temurning katta o'g'li Jahongir Mirzo yigirma yoshida vafot etgach, bu judolikdan qattiq qayg'urgan hukmdor uni Shahrisabzga ko'mishga qaror qiladi. Sharafiddin Ali Yazdiy 1379-yil Xorazm yurishidan so'ng, Keshga keltirilgan ko'plab ustalarga Jahongir Mirzo qabri ustiga ulkan maqbara barpo etish buyurganligini yozib

qoldirgan. Bobur Amir Temur Oqsaroydan so'ng Shahrisabzda Jahongir Mirzo maqbarasi va madrasa barpo etgan, deya ma'lumot beradi. Ispan elchisi Klavixó ham bu ulug'vor inshootga yuqori baho bergan edi.

Amir Temur, shubhasiz poytaxt Samarqand me'morchiligida ulkan ahamiyatga molik ajoyib me'moriy inshootlarni yaratdi. Amir Temur tomonidan Samarqandda Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy nomini olgan saroylar barpo etildi. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, gumbazlari va devorlari zangori parchinlar bilan qoplanganligi uchun ham shunday nomga sazovor bo'lgan. Ko'ksaroyda xonlarni podsholik taxtiga o'tkazish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga o'tkazadigan, toshdan taxtikursi – ko'ktosh qo'yilgan bo'lgan. Amir Temur davrida Afrosiyobning janubida joylashgan Shohizinda majmui kengayib, qaytadan yuzaga kela boshladi. Qusam ibn Abbas mozoridan devorning janubiga qadar bo'lgan yo'lakning yuqori qismida qator maqbaralar yuzaga keldi.

Mazkur majmuada Shodimulk og'a, Amir Husayn (To'g'lu Tekishning o'g'li), Amir Temurning singlisi Shirinbeka og'a, Amirzoda maqbaralari 1372–1386-yillar davomida qurib bitkazilgan. XIV asr 80-90-yillarida Nomsiz va Mirzo Burundiq maqbaralari qurildi. 1404–1405-yillarga kelib Amir Temurning xotini Tuman oqa tomonidan maqbara, masjid va majmuaning bosh qismiga olib chiquvchi chor-toq qurildi. Maqbaralar o'z bezagi, me'moriy yechimi, qurilish darajasi bo'yicha o'z davrining shu yo'nalishidagi yetakchi inshootlari sifatida e'tirof etilgan.

Amir Temur tomonidan o'z davrida shayx Burhoniddin Sog'arjiy xilxonasi – Ruhobod va Go'ri Amir maqbaralari barpo etildi. Shuningdek, Buxoro yaqinida mashhur shayx Sayfiddin Boharziy (1190–1261) maqbarasi ta'mirlanib, unga katta peshtoq qurildi. Shubhasiz, o'z ulug'vorligi va yuqori me'moriy jihatlari bilan Go'ri Amir noyob me'moriy inshootlari sirasidan joy olgan. 1403-yili Amir Temurning suyukli nevarasi Muhammad Sulton Kichik Osiyoga yurishdan so'ng to'satdan vafot etdi. U avval vaqtincha Sultoniya'dagi payg'ambar Haydar mozoriga dafn etildi. Amir Temur 1404-yili avval o'zi uchun mo'ljallangan Go'ri Amir maqbarasini qurib bitkazdi. Unga birinchi bo'lib Amir Temurning ustoz va piri Mir Sayid Baraka dafn etildi. Keyinchalik bu yer oilaviy dahma tusini olib, u yerga Muhammad Sulton jasadi olib kelib qo'yiladi.

Vaqt o'tishi bilan maqbaraga Amir Temurning o'zi, o'g'illari Umar-shayx, Mironshoh, Shohrux, nevarasi Mirzo Ulug'bek, kichik yoshdagi ikki chevaralari ham dafn etiladi. Go'ri Amirga tutash tarzda madrasa barpo etilib, uning janubi-g'arbiy tomoniga XV asr davomida qator Temuriylar avlodi vakillari mangu orom topadi.

Amir Temur yuksak me'moriy qurilishiga oid yana bir inshoot bu – Bibixonim jome masjidi hisoblanadi. Masjid 1399-yili boshlanib, 1404-yili tugatilgan. Samarqand jome masjidi ancha eskirib, o'sib borayotgan aholi ehtiyojiga mos kelmay qolgan edi. U Hindiston yurishidan qaytganidan keyin o'z mahobati va ulug'vorligi bo'yicha tengi yo'q masjid barpo etishga qaror qildi. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy quyidagilarni yozgan: «...mohir me'morlar va o'z san'atida benazir ustalar baxtli saodatda va yulduzlar uchun qulay paytda binoga asos solishdi... Ozarbayjon, Eron, Hindistondan kelgan 500 toshhtarosh masjidning o'zida ishlar, boshqalar esa tog'da tosh yo'nib, shaharga jo'natish bilan band edi. ... Qurilish ishlarini nazorat qilishni Temur shahzodalar va amirlarga topshirdi... Qurilishga shaxsan o'zi keldi va o'sha kezlari vaqtining ko'p qismini shu yaqin atrofda – Xonim madrasa va Tuman oqa maqbarasida o'tkazdi... Bino yanglig' ko'k gumbaziga yetishguncha va hovli ozodaligi... jannat bog'larining chiroyini unuttirar darajada bo'lmaguncha davom etdi... Devorning ichki-tashqi tarafidan va ravoq atrofi toshga yo'yilgan bitiklar bilan bezatilgan... Minbar bag'oyat go'zal qilib bezatildi, mehrob temirdan yasaldi. Osmon gumbazi bo'lmaganda bu gumbaz yagona bo'lardi, Somon yo'li bo'lmaganda peshtoq yagona bo'lardi». Hofizi Abru esa masjid ta'rifiga qo'shimcha quyidagi tafsilotni keltiradi: «... Butun binoning hovlisi va tomi toshdan ishlangan va bu toshlar o'zaro shu qadar jipslik bilan birlashtirilganki, qancha yuz yillar o'tmasin, naqshlari o'chmay va butun bino zavol ko'rmay dunyo turguncha turgay».

Masjid bilan bir qatorda, uning ro'parasida Bibixonim tomonidan madrasa va maqbara qurilishi davom ettirildi. Jome masjidi sahni to'rtburchak burchaklarida ikki baland minoralar bo'lgan. Masjidning keng hovlisida peshayvonlar bilan ular oraliqidagi ravoqlar va gumbazchalarni 400 dan ziyod marmar ustunlar ko'tarib turgan. Masjiddagi ulkan lavhda Amir Temur Bursadan olib kelgan muqaddas «Usmon Qur'oni» turgan.



**Samarqand. Bibixonim majmuasi. XV asr yodgorligi.
Hozirgi davrdagi ko'rinish.**

Jome masjidi qurilishini Amir Temur qattiq nazorat qildi. Masjid qurilishida sustkashlik qilgan ikki amaldor qattiq jazolandi, peshtoq esa qayta qurildi. Amir Temur yuqorida ta'kidlanganidek, shahardan tashqarida ham qarorgoh, ham dam oluvchi o'rnini o'tovchi inshootlar barpo etgan edi. Bunday qarorgohlar so'lim, soya-salqin bog'lar bilan uyg'unlashgan tarzda barpo etilgan.

Dastlab XIV asr 70-yillarida Ko'hak tog'i etagida «Bog'i Naqshijahon» barpo etildi. 1378-yili Samarqanddan g'arbda Tuman oqa uchun «Bog'i Behisht» qurildi. «Bog'i Amirzoda Shohrux» 1394-yili Shohrux Kavkaz ortiga yurishidan qaytishi sharafiga qurilgan. «Bog'i Bo'ldi» («Olis» deb ham nom olgan) poytaxtdan sharqda, «Bog'i Dilkusho» ham shu yo'nalishda Xonchorbog' degan joyida tashkil etilgan bo'lib, 1396–1399-yillar davomida qurilgan. «Bog'i Shamol» 1397-yil Mironshohning qiziga atab qurilgan bo'lib, Samarqandning shimoliy qismida joylashgan edi. «Bog'i Zog'on» esa «Bog'i Bo'ldi» yaqinida Ko'chayi Xiyobon mavzeyidan joy olgan. «Bog'i Baland» esa Temurning dong'i ketgan maskanlaridan biri bo'lgan. 1399-yili Amir Temur Hindistondan qaytishi sharofatiga Samarqanddan janubda, Darg'om cho'lida «Bog'i

Davlatobod» tashkil etilgan. «Bogʻi Chinor» ham janubda joylashgan edi.

1404-yili Samarqand shahri gʻarbiy devori ortida «Bogʻi Nav» barpo etildi. «Bogʻi Jahonnamo» deb nom olgan qarorgoh esa Shahrisabz yoʻlidagi yonbagʻirlikka qurilgan. «Bogʻi Maydon» Afrosiyobning shimoliy tomonida qurila boshlagan vaqtida Amir Temur vafot etib qoladi, shu boʻis qurilish ishlarini Mirzo Ulugʻbek yakunlagan. Mazkur bogʻlar oʻzlarining ajoyib koʻshk-saroylari, yozgi ayvon-u shiyponlari, mevali, manzarali daraxtlari, anvoyi oʻsimlig-u gullari bilan chet ellik sayyoh va elchilarni lol qoldirgan. Rui Gonsales de Klavixo, Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohlar 1404-yili Amir Temurning yurishdan qaytishi hamda nevaralari toʻyi sharafiga Konigulda oʻtkazgan bayramni zavq-shavq bilan tasvirlashadi. Ayniqsa, ulugʻvor shiypon Klavixoni lol qoldirgan. «Bu shiypon, – deb yozadi Klavixo, shu qadar keng va shu qadar mahobatli ediki, naq qasr deysiz. Balandligi va oʻlchamlari aqlni shoshiradi, goʻzalligini taʼriflashga esa til ojizdir». Bunday shiyponlar soni muarrixlar yozishicha, 400 ta boʻlgan. Klavixo shuningdek shakli, balandligi va bezagi bilan uni hayratga solgan hashamatli oʻtovni ham mufassal tasvirlagan. Amir Temur uchun shiyponsoz ustalar yigʻma masjid qurib berishgan, yaqin-uzoq safarlarda hukmdor uni oʻzi bilan olib yurgan.

Sohibqiron tomonidan 1371-yili Novadon arigʻi yonida xalq orasida «avliyo» maqomini olgan Nuriddin Basir qabri ustiga maqbara qurilgan. Afsuski, u XIX asr oxirida vayron etilgan.

Amir Temur tomonidan qurdirilgan mahobatli inshootlardan yana biri – Yassi (Turkiston) da qurilgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi hisoblanadi. «Sulton ul-orifin» nomini olgan, yassaviya tariqat maktabining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy nomi ayniqsa, Oʻrta Osiyo shimolida maʼlum va mashhur edi. 1397-yili Turkistonga tashrif buyurgan Amir Temur Yassaviy qabri ustiga oliymaqom meʼmoriy majmua barpo etishni buyurdi. Ahmad Yassaviy maqbarasi ikki yil (1397–1399) davomida qurilgan. Majmua dastlab jamoatxona, goʻrxona, masjid, katta va kichik saroylar, kitobxona, halimxona, quduqxona, ikki qavatli hujralar, oʻttizdan ziyod katta-kichik xonalardan iborat boʻlgan. Majmua yonboshida yertoʻla – chillaxona boʻlgan. Ziyoratgohning eng nodir va qimmatbaho boyligi – asosiy xonaning oʻrtasidagi qirq quloqli dosh-

qozon edi. U ham Amir Temur buyrug'i bilan yasalgan, 4000 kishilik taom pishirishga mo'ljallangan. Qozon 7 xil metall (oltin, kumush, qo'rg'oshin, temir, po'lat, rux, mis) qorishmasidan tayyorlanib, sharqona bezaklar bilan ziynatlangan. Nazr-niyoz qozoni deb nom olgan bu qozonda turli taomlar pishirilib, beva-bechora, musofir, kambag'allarga tarqatilgan. Majmuani asosan eronlik ustalar qurishgan. Amir Temur 1380-yili Buxorodagi Chashmayi, Ayub qudug'i ustiga ham ajoyib bino qurdirgan. Bu bino aksariyat xorazmlik ustalar tomonidan barpo etildi.

Amir Temur shuningdek, Toshkentda Shayx Zayniddin bobo maqbarasini, shahar yaqinida Zangi ota majumasi va Anbarbibi maqbarasini, qator daryolar ustiga ko'priklar, Toshkent vohasida kanallar, karvonsaroylar, irrigatsiya inshootlari, hammomlar va boshqa tegishli inshootlarni ham bino qildi. U Samarqand atrofida o'z davrining mashhur shaharlari nomi bilan Sheroz, Sultoniya, Damashq, Misr, Bag'dod kabi ajoyib qishloqlarni ham barpo etdi. Bu bilan Amir Temur Samarqand mavqeyi bu dong'i ketgan shaharlar orasida yanada yuqori ekanligini ta'kidlamoqchi edi. Amir Temurning bunyodkorligi, obodonchilik ishlari saltanatning turli hududlarida ham amalga oshirildi. Uning buyrug'i bilan Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Kobul yaqinida shifoxona barpo ettirildi. Hindiston yo'lidagi Eryob qal'asi qayta tiklandi, Shirvonda Boylaqon shahri qurildi, shu yerga 60 km lik kanal qazdirilib suv chiqartirdi¹. Shuningdek, Amir Temur Xo'janddagi shayx Mislohat qabrini obod qilish uchun 10.000 dinor pul ham ajratadi. Iroq, Eron va Suriyada qator maqbara va ziyoratgohlar barpo ettiradi. Ali Yazdiy yozganidek, qayerda bo'lmasin o'zidan keyin «ko'plab binolar, suv chiqarilgan yerlar va obod qilingan joylar qoldirdi».

Amir Temur davriga kelib miniatyura san'ati yanada rivoj topdi. Ibn Arabshoh o'z asarida Amir Temurning Samarqanddagi saroylarida bir qancha devoriy suratlar bo'lganligini yozadi. Sharafiddin Ali Yazdiy esa «Bog'i Shamol» saroyini bezagan devoriy suratlar haqida xabar beradi. Bu esa yuqoridagi mulohazalarning mantiqiy isboti bo'lib xizmat qiladi. Maqbaralar naqshlarida (masalan, Shirinbeka og'a, Bibixonim, Tuman og'a) naqqoshlik va xattotlik san'ati namunalari bilan bir qa-

¹ Mazkur kanal Nahri Barlos nomi bilan mashhur bo'lgan.

torda tasviriy lavhalar ham mavjud. Amir Temur davrida Samarqandda o'ziga xos miniatyura rassomchilik maktabi qaror topdi.

Tobe mamlakatlardan olib kelingan xattotlar, sahhoflar, muzahhiblar, rassom-naqqoshlar aksariyat saroydagi kutubxonada ijod bilan mashg'ul bo'lishdi. XV asr vaqf hujjatdagi bir ma'lumotga ko'ra Samarqandda hatto naqqoshlar istiqomat qiladigan alohida bir ko'cha – Ko'yi Naqqoshon ham bo'lgan. 1393-yili Bag'dodni egallagan Amir Temur Samarqandga shu yerlik mashhur rassom Abdul Xayyani jo'natadi. Abdul Xayya Samarqandda unumli ijod bilan shug'ullangan. Abdul Xayya va uning shogirdlari asarlarida jang, ov-shikor, saroy marosimlari mavzulari asosiy o'rin egallagan. Abdul Xayyaning eng mashhur shogirdlaridan biri Mahmudshoh al-Xayyom bo'lib, bizgacha rasmlar chetidagi uning nomi yetib kelgan. Amir Temurning jang maydonlari va saroydagi qabul marosimlari holatlarini aks ettirgan bir qator miniatyuralar ham bizgacha yetib kelgan, xolos. Amir Temur davrida badiiy o'ymakorlik, tosh o'ymakorligi, yarim qimmatbaho, qimmatbaho toshlardan idish yasash san'ati ham yuqori darajada taraqqiy etdi.

Yog'och o'ymakorligi nafaqat me'morchilikda, balki jihozlar, xususan, kursi, xontaxta, yog'och quticha, kitob qo'yiladigan lavh va boshqalar yasash jarayonida ham keng qo'llanildi. Ta'kidlash joizki, mazkur davrda metall o'ymakorligi ham rivoj topib, turli metall, qimmatbaho metallardan (oltin, kumush) yasalgan idishlarda o'z aksini topgan. Unda ko'p holda islamiy naqshlar turli o'simlik namunalari, nas'h yoki suls xatidagi duolar bilan chirmashib ketgan holda aks ettirilgan. Shuningdek, naqshlarda turli hayvon, qushlar tasviri ham aks etar edi. Lagan, jom, dastsho'y, piyola, shamdon, chiroq, chilim, qalamdon singari buyumlar aksariyat bronza, latun, qizil misdan juda naqshinkor qilib ishlanar edi. Buyumlarning bezatilishiga ko'ra uning egasi qaysi tabaqaga mansubligini ham bilish mumkin bo'lgan.

O'ymakor ustalar oliy toifaga mansub lashkarboshilarning harbiy qurol-aslahalari – dubulg'a, qalqon, qilich soplariga o'yma naqshlar bilan zeb berishgan.

Ispan elchisi Klavixo saroydagi zeb berilgan oltin va kumush idishlarning ishlanishini tasvirlab, «yettita oltin ko'zadan ikkitasiga marvarid, zumrad va feruza qadab ziynat berilgan. Har birining uchli qismiga yoqut qadalganiga» o'z e'tiborini qaratgan. Piyolalar esa oltindan bo'lib,

ularning har birining ichiga noyob marvarid yoki yoqut oʻrnatilganini ham qayd etadi.

Saroy ayollari bosh kiyimi – kultapoʻshak juda zeb-ziynatlarga boy boʻlgan. Nafaqat zodagon ayollar, balki shahar va qishloq ayollari zeb-ziynatlari ham xilma-xil boʻlgan. Boy erkaklar pichoq, uzuk, kamar, egar-jabduqlarida ham turli zeb-ziynatlar tasvirlangan.

Amaliy sanʼatning keng tarqalgan turlaridan biri – kulolchilik boʻlib, mahalliy ustalar qadim-qadimdan bu sohadagi mahoratlarini namoyish qilishgan. Amir Temur davriga kelib u yanada rivoj topdi. Shu davrga kelib, anʼanaviy naqshlar tushirish bilan birga mutlaqo yangilik – oppoq idishlarga shaffof sir ustidan kobalt yordamida naqsh berila boshlangan. Sopol buyumlarga naqshlar moʻyqalam orqali amalga oshirilib, baʼzi ustalar xitoylik chinnilardan namuna olishar, koʻplari esa anʼanaviy usulni davom ettirishar edi.

Bu davrda, shuningdek toʻqimachilik, gilamdoʻzlik, kashtachilik sanʼat darajasigacha koʻtarildi. Kiyim-kechaklar, matolarning koʻplab xillari va turli bichimlari boʻlgan. Miniatyura rasmlariga qarab Temuriylar xonadoni vakillari kiyim-kechaklari nihoyatda xilma-xil, rang-barang boʻlganini guvohi boʻlish mumkin. Kiyim-kechaklarda zar ip-lar, gardishin naqshlar, saroy jihozlarida zar bilan tikilgan koʻrpachalar, pushti rangli choyshablar, zar ipli, xilma-xil naqshli gilamlar ayniqsa urf boʻlgan. Mazkur davrda xattotlik sanʼati ham rivoj topganligi ilgari ham taʼkidlab oʻtilgan edi. Amir Temur davrida keng xalq ommasiga moʻljallangan teatrlashtirilgan tomoshalar yanada taraqqiy etdi. Xalq sayillari, bozorlar va toʻylarda masxaraboz, qoʻgʻirchoqboz va dorbozlar turli oʻyin va tomoshalarni namoyish etishgan. Koʻp hollarda bunday guruhlar musiqachilar bilan jam boʻlib, maxsus jamoalarga birlashtirishgan.

XIV asr oxirlari – XV asrda Movarounnahrda anʼanaviy xalq bayramlari – Navroʻz, bahorgi sayil, Guli Surx, Lola bayrami, hosil bayrami va boshqalar shahar-u qishloqlarda keng nishonlanar edi. Bunday bayramlar ayniqsa poytaxt Samarqandda keng koʻlamda oʻtkazilgan. Bayram kunlari shahar maydonlarida musiqachi va raqqoslar, masxaraboz va qoʻgʻirchoqbozlar, dorboz va usta havaskorlar aralash tomoshalarini namoyish etishardi. Hayvon terisini yopingan muqallidlar tomoshasi ham qiziq oʻtar edi. Tomosha sanʼati garchi mutaassib ru-

honiylar tomonidan qoralansa-da, lekin u xalq orasida katta shuhrat qozongandi.

Aslzodalar orasida polvonlar kurashi, musiqachi raqqoslar ishtirokidagi bazm-u-jamshidlar katta shuhrat qozongan. Shu davrda butun Movarounnahr va Xurosonda ham musiqa san'ati keng xalq ommasi hayotining uzviy qismiga aylangan edi. Amir Temur zabt etilgan o'lka va mamlakatlardan san'at arboblari, xususan musiqachilarni ham Samarqandga yuborib turgan. Ular orasida ayniqsa, Ozarbayjonning madaniyat markazi bo'lgan Marog'adan chiqqan Abulqodir (1353–1435) juda mashhur bo'lgan. U turli bilim va iste'dodlarga ega bo'lgan. Bir vaqtning o'zida u ham shoir, ham xonanda, ham qori, ham musiqa ijrochisi edi. U poytaxt musiqachilariga rahbarlik qilar, umumshahar bayramlari, saroy bazmlarida musiqa dasturlari tashkilotchisi bo'lar edi.

Abulqodir turli mumtoz musiqalarni jamlab, bu xususda risolalar ham yozgan. Shu davrda ud, tanbur, chang, rubob, nay, karnay, nog'ora, doira va boshqalar asosiy musiqa asboblari bo'lib hisoblanardi. Ijro etilayotgan kuyning ohangdorligini tanbur yaratar, unga asosan ud, ba'zi hollarda nay yoki chang jo'r bo'lar edi. Odatda ud chaluvchining o'zi qo'shiq ham kuylardi.

Harbiy yurishlarda nog'ora va karnaylardan foydalanilar, bundan tashqari nog'ora-karnay sadolari shaharga hukmdor kirib kelayotganligidan ham xabar berar edi. XV asr birinchi yarmida ijod qilgan ba'zi musiqachilarning nomlari bizgacha yetib kelgan. Ular orasida Darvesh Ahmad Qonuniy qonun chalishda, Sulton Ahmad nay chalishda eng mahoratli musiqachilar deb hisoblangan. Samarqandda xivalik musiqachi Devonai Hisobiy nomi ma'lum va mashhur edi. Sulton Muhammad ham bastakor, ham ud chalish bo'yicha tengi yo'q shaxs deya e'tirof etilgan.

Maxsumzodai Xorazmiy savt va naqsh kabi ohanglarni, bastakor. Hofizi Changiy peshrav ijod qilishda mohir bo'lishgan. Musiqa asarlarining amal, savt, peshrav, naqsh, tarona singari shakllari keng ommalashgan bo'lib, ular keyinchalik shashmaqomda ham o'z aksini topgan.

Amir Temur ilm-fan arboblari qadrlagan va hurmat qilgan. Arab tarixchisi, Damashqda Sohibqiron bilan shaxsan uchrashgan Ibn Xaldun Amir Temurning tarixni chuqur bilishi, bilim doirasi, salohiyatiga tan bergan edi. Amir Temur olimlarni qadrlashini «Tuzuklari»da ham

qayd etgan. O'z vaqtida Sohibqiron Samarqandga mashhur astronom olimlar Nisodan – at-Taftazoniy, Gurgondan al-Jurjoniylarni ham taklif qilib, o'z ilmiy ishlarini aynan saltanat poytaxtida davom ettirishlariga imkon yaratgan edi. Sohibqironning o'zi ilm-fan ixlosmandi bo'lib tarix, jo'g'rofiya, mantiq, astronomiya, falsafa, diniy ilmlardan yaxshi xabardor bo'lgan. Bibixonim tomonidan jome masjidi to'g'risida madrasa barpo etilishi ham ilm-fanga bo'lgan intilish davlat miqyosida qo'llab-quvvatlanganligining dalilidir.

Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohlarning ma'lumot berishlaricha, Amir Temur Shomdan (Suriya) Samarqandga mashhur tabiblar Mavlono Jaloliddin va Mavlono Sulaymonlarni olib kelgan. O'z davrining mashhur tabibi hisoblangan Mavlono Fayzulloh Tabriziy Sohibqironning shaxsiy tabibi bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, saroyda Mavlono Izzatiddin Ma'sud Sheroziy va Mavlono Farrux tabib singari tabiblar ham faoliyat ko'rsatishgan. O'z davrida mashhur tabib Ibn Faqih Ilyosning tibbiyotga bag'ishlangan bir necha risolalari yozilgan bo'lib, mahalliy tabiblar uchun yaxshi qo'llanma rolini o'tagan. Bu esa tibbiyot ilmi XV asr boshlarida rivoj topganligidan darak beradi.

Amir Temur davrida turkiy tilda ijod qiluvchi adiblar orasida Sayido Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, forsiy nazmda Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Salmon Savojiy va boshqalarning nomlari mashhur bo'lgan. Amir Temur shoirlarga hurmat bilan munosabat ko'rsatgan. U Kamol Xo'jandiy taqdiriga jon kuydirib, uni asirlikdan ozod qilgan. Sohibqironning o'g'li Mironshoh Mirzo ham shoir Kamol Xo'jandiy bilan yozishmalar olib borganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. 1387-yili Amir Temur Sherozni olgan vaqtida shu davrning mashhur shoiri Hofiz Sheroziy bilan uchrashgan. Alisher Navoiy o'zining «Majolisun nafois» nomli asarida: «Temur Ko'ragon garchi she'r va g'azallar bitmasa-da, lekin nazm va nasrdan juda yaxshi xabardor bo'lgan. O'z vaqtida u tomonidan aytilgan bir bayt, mingta to'qilgan baytdan ham ustun keladi», deya ta'kidlagan edi. Sohibqiron har qanday qissaxonlik, o'tgan davr voqeliklarini diqqat bilan eshitgan. Xususan, arab tarixchisi Ibn Xaldun Amir Temur huzurida 35 kun bo'lib, unga tarixdan, ayniqsa Mag'rib tarixidan ko'plab maroqli voqealarni so'zlab bergan.

Amir Temur davrida madaniy hayotning o'sishi, uning ulkan darajadagi ravnaqi bevosita mamlakatda o'rnatilgan tinchlik – osoyishtalik,

barqarorlik, kuchli markazlashgan davlatning hosilasi, buyuk hukmdorning mazkur sohaga qaratgan ulkan e'tibori siyosati natijasi, deya e'tirof etish tarixiy haqiqatga to'la mos keladi.

Tayanch so'zlar

Amir, dargoh, devon, vazir, ulus, dorug'a, qutvol, arzbegi, tavochi, Chig'atoy ulusi, xon, Xuroson, Movarounnahr, saltanat, tuzuklar, tuman, che-rik, javong'or, barong'or, sulton, sarbador, raiyat, sipoh, Mo'g'uliston, Eron, Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Samarqand, soliq, amaldor.

Savol va topshiriqlar

1. XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusida kechgan siyosiy jara-
yonlar hamda uning inqirozi sabablarini tahlil qiling.
2. Movarounnahrda kuchli va markazlashgan davlat barpo etishda Amir
Temurning tarixiy xizmatlari nimalarda aks etgan?
3. Amir Temur harbiy san'ati xususida nimalarni bilasiz?
4. «Temur tuzuklari» tarixshunosligini gapirib bering.
5. «Kuch – adolatda» shiori mazmun-mohiyatini izohlang.
6. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.Karimovning «Yuksak ma'navi-
yat – yengilmas kuch» asarida Amir Temur shaxsiga qanday baho beril-
gan edi?
7. Amir Temur saltanati tarixi to'g'risida qaysi tarixiy manbalarni bilasiz?
8. «Temur tuzuklari» – tarixiy manba sifatida deganda, nimani tushuna-
siz?
9. Klavixo kundaligida Amir Temur davlati qay tarzda tavsiflangan?
10. Amir Temur davlati xalqaro aloqalarida qaysi jihatlar ustuvor deya
qaralgan?
11. Amir Temur davlatidagi madaniy hayotning ustuvor jihatlari nimada
edi?
12. Istiqloq yillarida Amir Temurga ko'rsatilgan hurmat va e'tibor nimalar-
da o'z ifodasini topdi?

1-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU,
1996.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent:
«Ma'naviyat», 2008.
3. Abduraimov M. Temur va To'xtamishxon. – Toshkent: G'afur G'ulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
5. Amir Temur o'g'itlari. – Toshkent: «Navro'z», 1992.
6. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: «Sharq», 1996.
7. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. – Toshkent, 1996.
8. Bo'riev O. Sohibqiron Amir Temur. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2011.
9. Bo'riyev O. Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi. – Toshkent, 2016.
10. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. – Toshkent: «Mumtoz so'z», 2017.
11. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. Arab tilidan tarjima, kiritish so'zi va izohlar muallifi Ubaydulla Uvatov. – Toshkent: «Mehnat», 1992.
12. Ivanov M. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur. – Toshkent: «Xazina», 1994.
13. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2011.
14. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. – Toshkent: «Fan», 1996.
15. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 1996.
16. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406-yillar) – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2010.
17. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
18. Temur tuzuklari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2011.
19. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: «Sharq», 1997.
20. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. Darslik, I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
21. Odilov A. A. Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2016.
22. O'ljayeva Sh. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: «Fan», 2005.
23. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Sharq», 1998.
24. Qamchibek Kenja. Buyuk Sohibqiron o'tgan yo'llarda. – Toshkent: «Sharq», 2014.

2-mavzu. TEMURIYLAR HUKMRONLIGI DAVRI. IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT.

Reja:

- 2.1. Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat (XV asr birinchi yarmi).
- 2.2. Mirzo Ulug'bek – Movarounnahr hukmdori va buyuk olim.
- 2.3. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson.
- 2.4. Sulton Husayn Boyqaro – Xuroson hukmdori.
- 2.5. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va davlat arbobi.
- 2.6. Zahiriddin Muhammad Bobur – hukmdor va shoir.
- 2.7. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
- 2.8. Temuriylar hukmronligi (1405–1506-yy.) davrida ilm-fan va madaniy hayot.

2.1. Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat (XV asr birinchi yarmi).

Buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur Xitoyga qilinayotgan harbiy yurish vaqtida qattiq og'rib, 1405-yil 18-fevral kuni kechasi O'tror hokimi Berdibekning saroyida vafot etadi. O'z davrining mohir tabiblari va ularning sardori bo'lgan taniqli tabib Mavlono Fayzulloh Tabriziyning muolajalari buyuk hukmdor tanasidagi dardga davo bo'la olmaydi. Vafotiga qadar ixtiyori o'zida bo'lgan Sohirqiron Amir Temur o'ziga voris va taxt valiahdi etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilib qoldiradi. Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat (jami o'z ichiga 27 ta mamlakat va o'lkalarni jam etgan) garchi Sohirqironning mahorati va kuch-qudrati ila mustahkam turgan bo'lsa-da, lekin u ichki siyosiy jihatdan ancha zaif, umumiy iqtisodiy asosga ega emas edi. O'g'illar, nevaralarga mamlakatni qism-qismlarga bo'lib berilganligi va suyurg'ol tartibi ham Amir Temur davlati parokandaligini kuchaytirar edi. Amir Temur jasadi Samarqandda dafn etilib, motam marosimlari tugamasdanoq, toj-u taxt uchun shahzodalar o'rtasida o'zaro kurashlar jarayoni kuchayib ketadi.

Kobul va shimoliy Hind mulklarining hokimi bo'lgan Pirmuhammadni ko'pchilik taxt egasi sifatida ko'rishni xohlamas edi. Buning us-

tiga u ancha uzoqda bo'lib, Samarqandga tezlik bilan yetib kelish uchun imkoni ham bo'lmagan. Amir Temur vafotidan so'ng Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchlik boshlanib, g'alayonli vaziyatlar yuzaga kela boshladi. Sekin-asta Amir Temur kuch-qudrati bilan barpo etilgan buyuk saltanatga putur yeta boshladi. Fasih Havofiy AmirTemurdan so'ng tirik qolgan uning o'g'il va nevalarini sanab, ularning soni 36 taga yetishini ta'kidlagan edi. Ayniqsa, ular orasida Shohrux (1377–1447) va uning o'g'li Mirzo Ulug'beklar (1394–1449) alohida hurmat bilan tilga olib o'tilgan. Shu davr muarrixlari taxt egaligiga ko'proq Shohruxni ma'qul ko'rib, uning insoniy fazilatlariga yuqori baho berar edilar. Shohrux taxt egasi bo'lishidan avval ham o'zining oqil va ilmi, zukko va taqvodorlik sifatlari bilan hurmat qozongan edi. Shuningdek, bu vaqtda Amir Temurning boshqa bir o'g'li Mironshoh (1366–1408) ham hayot bo'lib, u ham asosiy taxt da'vogarlaridan biri hisoblangan.

Amir Temurning sadoqatli amirlaridan ko'pchiligi, jumladan Shohmalik va Shayx Nuriddinlar ham toj-u taxt Shohrux Mirzoga tegishi tarafdori bo'lishgan. Shunday bir vaqtda Mironshoh Mirzoning o'g'li, shimoliy yerlar (Toshkent, Sayram, Turkiston) hokimi Xalil Sulton (1384–1411) shoshilinch ravishda, o'zining ming chog'li askari bilan 1405-yilning 18-mart kuni Samarqandni egallaydi va o'zini Movarounnahr hukmdori deb e'lon qiladi. U hatto Pirmuhammadga tegishli bo'lgan Amudaryoning o'ng betidagi yerlarni ham o'z tasarrufida deb e'lon qiladi. Avvalboshda uni qo'llagan Movarounnahr amirlari, harbiy sarkardalar ko'p o'tmay undan ixloslari qayta boshlaydi. Tabiiyki, buning o'ziga xos jihatlari ham mavjud bo'lgan.

Xalil Sulton va ayniqsa, uning xotini Shodimulk poytaxtda ko'plab nojoiz ishlarga izn berishadi, Amir Temur davridayoq nufuzi baland bo'lgan ba'zi amaldor, zodagonlarning mol-mulklari tortib olina boshlanadi. Davlat xazinasini o'z holicha sovurilib, hokimiyatga ko'plab nomaqbul kishilar kela boshlaydi. Shohrux bilan birinchi o'zaro nizodan so'ng Xalil Sulton garchi uning oliy hukmdorlik huquqini tan olsa-da, Movarounnahr uning ixtiyorida qolajagini ma'lum qiladi.

Xalil Sultonni Iroq tomonidan boshqa bir kuch – otasi Mironshoh Mirzo ham qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Siyosiy kaltabinlik yo'lini tutgan Xalil Sultondan norozilik tobora kuchayadi. Farg'ona hokimi Amir

Xudoydod Xalil Sultonga qarshi bosh ko'taradi. Shohruxning bir vaqtlar sadoqatli kishisi bo'lgan Shayx Nuriddin, o'z ukasi O'tror hokimi Berdibek bilan birga boshqa bir isyon ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Xalil Sultonning ukasi Sulton Husayn Mirzo Amudaryo bo'ylarida o'z akasiga qarshi bosh ko'taradi. Xorazm esa Oltin O'rdalik taniqli sarkarda Amir Idiku o'zbek tomonidan ishg'ol etiladi.

1405–1406-yillarda Xalil Sultonning Shohrux, Pirmuhammad qo'shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun bir necha marta to'qnashuvi sodir bo'ladi. Butun Amir Temur saltanati o'zaro toj-u taxt kurashlari domiga tortiladi. Yagona hisoblangan saltanat Shohrux boshqarayotgan Xuroson, Balxdan to Hind yerlarigacha bo'lgan hududga hokim Pirmuhammad, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq tasarrufida bo'lgan Mironshoh va uning avlodlari (Umar Mirzo, Abu Bakr) yerlariga bo'linib ketadi. Movarounnahr Xalil Sultonga rasman qarashli deb hisoblansada, Turkiston, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, Farg'onada esa Amir Xudoydod hukmronlik qilishar edi. Barchani Temuriylar saltanatining yuragi bo'lgan Movarounnahrnı egallash istagi tark etmas edi.

Movarounnahr hokimi Xalil Sultonning o'z holicha ish tutishi, temuriy zodagon, amirlarning kamsitilishi, musulmon ulamolari, jumladan naqshbandiya tariqatining taniqli shayxi Muhammad Porsoning tahqirlanishi muxolif kuchlarning dushmanligini kuchaytirib yubordi. Shu vaqtning o'zida o'zaro fitna va g'alayonlarning navbatdagi qurbonlari ham paydo bo'ldi. 1407-yil 22-fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad o'zining vaziri Pirali Toz tomonidan suiqasd natijasida o'ldiriladi¹. 1408-yil 22-aprelda esa Qoraqo'yunli turkmanlar bilan jangda hokimiyat uchun boshqa bir da'vogar Mironshoh Mirzo Qora Yusuf tomonidan Ozarbayjon va Iroq bilan bo'lgan jangda o'ldiriladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq Temuriylar tasarrufidan chiqadi².

1405–1409-yillarda Shohrux va Xalil Sulton o'rtasida bir qator cho-parlar almashuvi bo'lgan. Bu vaqtda Shohrux Mirzo Seyiston, Xurosondagi notinchliklarni tugatishga, vaziyatni barqarorlashtirishga ko'p vaqt ajratgan.

¹ Keyinchalik o'zini Pirmuhammadning «qasoskori» deb e'lon qilgan Shohrux Pirali Tozni Hirotda qatl etadi.

² Shohrux Mirzo hukmronligi davrida Ozarbayjon rasman yana saltanat tarkibiga qaytariladi.

1409-yil boshlariga kelib, siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Amir Xudoydod shu vaqtda Xalil Sultonni Samarqand yonidagi Sheroz qishlog'ida mag'lubiyatga uchratib, uning o'zini asirlikka oladi. Xuroson hokimi Shohrux esa o'ziga qarashli bo'lgan Mozandaron va Mashhad-da, so'ngra uning ilkiga o'tgan Seyiston va Kirmonda o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. Keyin esa butun e'tiborini Movarounnahrqa qaratadi. 1409-yil boshlarida Shohrux Xalil Sultonga Movarounnahr taxti uchun jang qilish xususida yorliq ham yuboradi. Shu bilan Shohrux saltanat markazidagi bedodliklarga bundan buyon befarq bo'la olmasligini e'lon qiladi. 1409-yil 25-aprelida u Amudaryodan o'tib, Samarqand tomon jadallik bilan yo'l oladi.

Xalil Sultonni qo'lga olgan Amir Xudoydod qo'shinlarini Shohrux yuborgan harbiy qism tor-mor etib, Xalil Sultonni asirlikdan ozod qilishadi. Olijanob insoniy sifatlarga ega bo'lgan Shohrux Mirzo o'zaro gina-kuduratlarni unutib, uni yaxshi kutib oladi. Amir Xudoydod esa mamlakatdan qochib ketadi. 1409-yilning dekabriga qadar Shohrux Mirzo Movarounnahrda tinchlik-osoyishtalik o'rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar tarafdorlariga qarshi keskin choralar ko'radi, izdan chiqqan xo'jalik hayot va savdo-sotiqni tiklaydi.

Temuriylar saltanatining taqdiri oydinlashib, Xuroson hokimi bo'lgan Shohrux Mirzo (1405–1409) Temuriylar davlatining oliy hukmdori (1409–1447) sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan tarixda esa Shohruxning deyarli 40-yillik barqaror hukmronlik davri boshlanadi. O'zaro nizo va fitnalar, iqtisodiy, savdo munosabatlarini chippakka chiqargan vayronagarchilik urushlaridan charchagan xalq ommasining yerli qatlamlari, markazlashgan kuchli davlat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib olgan Shohrux Mirzoning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashardi. Chunki faqatgina kuchli, markazlashgan davlatgina tinchlik, osoyishtalik, iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlikni ta'minlashi mumkin edi.

Temuriylar saltanati tarixida Shohrux Mirzoning (1377–1447) o'ziga xos o'rni va roli mavjudligini alohida ta'kidlash joiz. Shohrux Mirzo nomi bilan bog'liq tadqiqot ishi ilk bora mustaqillik yillarida, X.Fayziyevning dissertatsiyasida o'z aksini topdi.

Shohrux Mirzo Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib, u 1377-yil 20-avgust kuni tavallud topgan edi. Uning onasi Tog'oy Turkon og'a turkiy qoraxitoy urug'idan bo'lib, kelib chiqishi bo'yicha o'rtahol xo-

nadon vakilasi bo'lgan. Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida Shohruxning siyosiy faoliyati 1397-yili, uning Xuroson hokimi etib tayinlanishidan boshlanganligini ta'kidlaydi¹. Shohrux yoshligidan ilmga, taqvoga berilgan yigit bo'lgan. Bu holat, qolaversa uning kelib chiqishi ona tomonidan aslzodalarga taqalmasligi keyinchalik Shohruxning taxt vorisi etib tayinlanmasligining sabablaridan biri bo'ldi. Qolaversa, taxt vorisi Pirmuhammad garchi Amir Temurning nevarasi bo'lsa ham, Shohruxdan bir yosh katta edi. Shubhasiz, yuqoridagi holatlar Shohruxni taxt egasi bo'lishi ehtimolidan uzoqlashtirar edi. Yana bir holatga e'tiborni qaratish mumkin. Tarixiy manbalarda, masalan Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir asarlarida Shohruxni «xoqoni sayid», «bahodir» deya ta'riflashadi va hech qayerda «ko'ragon» unvoni uchramaydi. Bu esa Shohruxni chingiziylar xonadoni bilan shaxsan qarindoshlik rishtalarini bog'lamaganligidan darak beradi. Holbuki, «ko'ragon» unvonini olish o'sha davr taomiliga ko'ra katta obro' egasi hisoblangan. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurning «yetti yillik» harbiy safari davrida ham Shohrux Mirzoning ma'lum harbiy yurishlarda ishtirok etganligini ta'kidlashadi.

Shohrux Mirzo, garchi ko'p vaqtini ilm, mutolaa, toat-ibodatga bag'ishlasa-da, lekin uning harbiy sarkardalik, hukmdorlik faoliyati ham o'z navbatida yuqori darajada bo'lgan.

Shohruxning oqilona, mo'tadil ichki va tashqi siyosati bois uning davlatida tinchlik-osoyishtalik uzoq vaqt hukmronlik qildi, ilm-fan rivoj topdi, obodonchilik, qurilish ishlariga e'tibor kuchaydi, shaharlarda hunarmandchilik taraqqiy etdi, ularning ko'pdan ko'p turlari dovrug'i uzoqlarga borib yetdi. Shohrux Mirzo o'z otasi Amir Temur kabi davlatni oqilona va halollik bilan boshqarish yo'lini tutdi. Bu borada uning shaxsiy fazilatlar ham katta rol o'ynadi.

Abdurazzoq Samarqandiy o'zining «Matlai sa'dayn va majmai bahrayn» nomli asarida Shohruxning bunyodkorlik faoliyatiga to'xtalib, jumladan quyidagilarni ta'kidlaydi: «Xurosonning yirik shaharlaridan biri bo'lgan Marv mo'g'ullarning 1221–1222-yillardagi vayronasidan so'ng ancha xaroba holatga tushib qolgan edi. 1410-yili 21-mart kuni

¹ Unga Xuroson hokimi nomi ostida Seyiston va Mozandaron yerlari ham qo'shib berilgan.

Shohrux Mirzo Marvga tashrif buyurdi. Marvning ahvolini ko'rib, avvalo u yerda yangi kanal qurishni buyurdi. Shaharni obod qilishga topshiriq berib, u yerga aholi ko'chirib keltirildi.

Shohrux Marvdagi tiklanish ishlarini shaxsan nazorat qilib, tez orada shaharda qator masjidlar, bozorlar, hammomlar, xonaqohlar, madrasalar barpo ettirdi.

1410–1411-yillarda esa Hirotning janubiy qismida katta madrasa va xonaqoh qurib bitkazildi. Markaziy bozor qayta qurildi. Ganch va pishiq g'ishtlardan yangi bozorlar va toqlar qurildi. Hirotning 4 ta darvozasidan 4 ta bozor Chorsu tomonga cho'zilib ketar edi. Shohrux barpo etgan madrasada o'z davrining eng salohiyatli mudarrisarlari – Jaloliddin Yusuf Uvbahiy, Yusuf Halloj, Abdurahmon Ahmad, Xoja Aziziddin dars berishar edi. Hirotning shimoli-sharqida Bog'i Safed degan mavzeda Shohrux tomonidan 1411-yili muhtasham saroy va ajoyib bog' barpo etildi. Shohrux Mirzo, shuningdek Mashhad, Xargird va Tusda ham qator qurilish ishlarini amalga oshirdi. Shohrux davrida Qavomiddin va G'iyosiddin nomli ikki aka-uka me'morlar juda shuhrat qozonishgan. Shohrux inshootlarini aksariyat shu me'morlar barpo etishgan. XV asr birinchi yarmidagi Hirot haqida gapirganda Abdurazzoq Samarqandiy uni «G'oyatda ma'mur, obod shahar» deb atab, bu xususda unga «Hirot shahri shu daraja rivoj-u ravnaq topdiki, uning bog'larining latofati Bag'dod ruxsoridan Dajla yoshini ravon qildi va mevalarining ser-suvligi Samarqandni unutilish toqining bir burchagiga irg'itdi», deya yuqori ta'rifini bergan edi. Shohrux Mirzo muqaddas qadamjolarga ham alohida e'tibor qaratgan. Xususan, 1435-yili u Sohibqiron otasining piri bo'lgan Shayx Zayniddin Tayobodiy qabri yaqinida xonaqoh va masjid barpo ettirdi.

Shohrux davrida bir qator shifoxonalar mavjud bo'lsa-da, yana ikkita «Durushshifo» quriladi. Ushbu shifoxonaning bittasi Shohruxning xotinlaridan biri Milkat og'a tomonidan, ikkinchisi nevarasi Alouddavla (1417–1460) tomonidan barpo etilgan. Milkat og'a shuningdek, Hirotida «Dorulhadis» nomli xonaqoh, ikkita hammom, Hirotidan 8 farsah narida, yo'l ustida bitta rabot, Balxda madrasa qurirdi.

Shohruxning suyukli xotini Gavharshodbegim ham qator qurilish ishlarini amalga oshirgan. Xususan, Hirotida u tomonidan qurdirilgan madrasa va maqbara hozirga qadar saqlanib qolgan bo'lib, Hirotning

eng muhtasham me'moriy yodgorliklaridan biri sanaladi. Shohruxning taniqli amaldorlari ham qator inshootlar barpo etishgan bo'lib, ular qatorida Hirotning Xiyobon mavzesida Qurbon Shayx, Feruzshoh, Chaqmoq Shoh, Alayh Ko'kaldosh kabi madrasalarni ta'kidlash joiz.

Shohrux ilmi shaxs bo'lganligi bois ilm-fan vakillari, olimlarni qadrlagan. Uning shaxsiy kutubxonasida ko'plab qimmatli kitoblar, nodir adabiyotlar o'rin olgan edi. Hukmdor Hirotida o'z zamonasining asarlari saqlanadigan katta kutubxona tashkil etgandi. 1439-yil Hirotga kelgan Misr sultoni Chaqmoqning elchisi mazkur kutubxonaning ta'rifi sulton qulog'iga qadar yetganligi, shu bois unga ba'zi kitoblarni iltifot ila sovg'a qilishini iltimos qiladi. Shohrux bu iltimosni qondirib, Misr sultoniga qator kitoblarni sovg'a tariqasida jo'natadi. Bu voqea ham o'z navbatida yuqorida Shohrux Mirzoga berilgan ta'rifni amaliy tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. Hukmdor o'z farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalashga harakat qildi. Shu davr shahzodalariga qoida bo'yicha yuksak maqomda ta'lim-tarbiya berilar, ular xat-savod, adabiyot, tarix, falsafa, jo'g'rofiya, diniy bilimlardan tashqari harbiy san'at sirlaridan ham voqif bo'lishar edi.

Shohruxning o'g'illari ichida Mirzo Ulug'bekdan tashqari boshqarlarda ham ilm-fan, adabiyot, san'atga ixlos baland bo'lgan. Xususan, madaniyatli, zehnli va ilmi shahzoda G'iyosiddin Boysung'ur Mirzo (1397–1433) tomonidan qator qo'li gul xattotlar tarbiyalandi. U devon ishlarini mahorat bilan boshqarib, hunarmandlar, san'atkorlar, xattotlarga homiylik qilgan. Alohida iqtidori bor bo'lgan xattotlarga maosh ham tayin etilgan.

Boysung'ur Mirzo tomonidan Hirotida barpo etilgan «Kitobxona»da nafaqat o'z davrining qimmatli asarlari jamlangan bo'lib, balki eng sara, yuqori sifatdagi noyob kitoblar ham xattotlar tomonidan ko'chirilar edi. Davlatshoh Samarqandiy o'zining «Tazkirat ush-shuaro» asarida yozishicha, Boysung'ur Mirzo qo'lida 40 ta xattot kitob ishi bilan mashg'ul bo'lishgan. Shohruxning yana bir o'g'li Ibrohim Sulton Mirzo (1394–1435) ham madaniyatni qadrlovchi hokim bo'lgan. Aynan uning buyrug'i bilan Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining mashhur «Zafarnoma» asarini yozgan. Ibrohim Sulton Mirzo Sherozda ilm va san'at ahli uchun tegishli sharoit yaratib bergan.

Shohrux Mirzo Amir Temur davlati o'zagini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shohrux Mirzo 1429-yili o'zining xavfli raqibi bo'lgan Qoraqayunlilar amiri Iskandarga qarshi Salmos cho'lidagi jangda Shohrux qo'shini g'alaba qozonadi. Mazkur jangda Shohruxning o'g'illari – G'iyosiddin Boysung'ur, Ibrohim, Muhammad Jo'kiy Mirzolar o'z harbiy mahoratlarini namoyon qilishadi. Shohrux shuningdek, Badaxshon va Seyistondagi isyonlarni ham bostirishga muvaffaq bo'ladi. U deyarli barcha o'lka, viloyat noiblarini o'z lavozimlaridan chetlashtirib, o'ziga ishonchli hisoblagan qarindosh-urug'larini bu lavozimlarga qo'ya boshlaydi. Jumladan, Balx va Badaxshon – Ibrohim Sultonga, Sheroz – Suyurg'atmishga, Kobul va Qandahor – Qaydu Mirzoga, Xurosonning bir qismi – Boysung'ur Mirzoga, G'arbiy Eron hamda Iroqi Ajamning bir qismi – Sulton Muhammadga, Fors viloyati – Abdullo Mirzolarga suyurg'ol tarzida bo'lib berilgan.

Shu yo'l bilan Shohrux boshqaruv tizimi qulay va ixcham bo'ladi, deb o'ylagan edi. Lekin keyinchalik ishonchli qondoshlar ichidan ham isyonkor noiblar chiqa boshlaydi. Xususan, Shohruxning nevarasi Sulton Muhammad Eron noibi etib tayinlangach, u markazga bo'ysunishdan bo'yin tovlaydi. So'nggi marotaba Shohrux isyonkor nevarasini o'limidan sal avval (1446-y.), Eronga yurish qilib, uning jazosini berishga majbur bo'lgan edi.

Shohrux Mirzo Xitoy, Hindiston, Misr, Usmoniylar davlati bilan diplomatik va savdo aloqalarini yangi darajadagi mustahkam munosabatlar tarzida o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Hofizi Abru Xitoydan Shohrux Mirzo huzuriga uch marotaba – 1409, 1412 va 1417-yillarda elchilar kelganini qayd etadi. 1419-yili esa xitoylik elchilar Samarqandda to'xtab, Mirzo Ulug'bek qabulida bo'lishgan. Shundan so'ng poytaxt Hilotga kelgan. Abdurazzoq Samarqandiy 1412–1413-yillarda Xitoydan elchilar kelishi munosabati bilan Shohrux Mirzo tomonidan shahar ko'chalari va bozorlarga «ziynat berilishi» to'g'risida farmon berganligini qayd qilgan edi.

Temuriy hukmdor Shohrux Mirzo (1409–1447) va Xitoy imperatori Chjudi (1404–1424) o'rtasidagi 1413-yilga oid diplomatik yozishmalarda o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlash, o'zaro do'stlikni mustahkamlash maqsadida elchilik aloqalarini muntazam yo'lga qo'yish masalalari o'z

aksini topdi. Shohrux 1419-yili Amir Shodixo'ja boshchiligidagi 530 nafar elchilik guruhini Xitoyga jo'natadi. Elchilar 1422-yili Hirotga qaytib kelishgan. Elchilar orasidagi G'iyosiddin Naqqosh ismli shaxs shahzoda Boysung'ur Mirzoning iltimosiga ko'ra esdaliklarini o'z xotira daftariga yozib qoldirgan. Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarida 1412-yildan 1430-yilga qadar Xitoy bilan jami besh marotaba elchilik almashuvi amalga oshirilganligini qayd etadi. Shuningdek, ushbu muallif 1421–1422-yillarda Mirzo Ulug'bek Buxoroda bo'lgan vaqtida Tibetdan kelgan elchilarga «hurmat ko'rsatib, qaytib ketishlariga ruxsat berdi», deya ta'kidlagan edi.

Shohruxning amaldori diplomat va tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy 1442–1444-yillarda Hindistonga elchi bo'lib borgan. Abdurazzoq Samarqandiy markaziy va janubiy Hindistondagi bir qator davlat, shaharlarda bo'ldi. Bu xususda u «Matlai sa'dayn va majmai bahrayn» nomli asarida barcha safar xotiralarini yozib qoldirgan. Hindistondagi Dehli sultonligi, Kalikut, Vijayanagar, Bengal, Janpur va boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Shuningdek, bu davrda Misr va Suriyada hukmronlik qilayotgan mamluklar davlati, Old Osiyodagi Usmoniylar davlati bilan ham o'zaro do'stona munosabatlar yo'lga qo'yilgan.

Shohrux Mirzoning Misr bilan o'zaro diplomatik munosabatlari 1429-yilda boshlangan. Bu paytda Misrda sulton Barsbay (1422–1437) hukmronlik qilar edi. O'sha yili ikkinchi elchilik guruhi ham Misrda bo'lishgan. 1435–1436-yillarda uchinchi elchilik almashuvi sodir bo'lgan. Shohrux Mirzo 1437-yili Misr sultoni Barsbay vafoti munosabati bilan ta'ziya jo'natib, yangi sulton Chaqmoqqa do'stlik va savdo aloqalarini yanada rivojlantirish, Makkadagi Ka'ba ustiga «ka'bapo'sh» («kisva», ya'ni yoping'ich) tayyorlab jo'natish to'g'risidagi taklifini yubordi. Tarixchi Hofizi Abru o'zining «Zubdat at-tavorix» nomli asarida Shohruxning Misr podshosiga elchi yuborib, 1444–1445-yillari Shayx Nuriddin Muhammad al-Murshidiy boshchiligidagi Makkada joylashgan Ka'ba ustiga yoping'ich – «ka'bapo'sh» jo'natganligini qayd etadi. Ushbu yoping'ich xalq orasida «Shohrux kisvasi» (ya'ni, yoping'ichi) nomi bilan uzoq vaqt shuhrat qozongan. Ta'kidlash joizki, XV asrning birinchi yarmida Temuriylar saltanatida Shohrux Mirzodek hukmdorning oqilona siyosati bo'is barqaror ichki siyosiy hayot yuzaga keldi. Xalqaro maydon-da bu davlat o'ziga xos obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi.

2.2. Mirzo Ulug‘bek – Movarounnahr hukmdori va buyuk olim

Ta’kidlash kerakki, Shohrux Mirzo davlatida Movarounnahr qismining alohida o‘rni bo‘lgan. Saltanatning markaziy poytaxti Hirot shahri bo‘lsada, Movarounnahrning markazi Amir Temur poytaxti bo‘lgan – qadimiy Samarqand shahri hisoblanar edi. Movarounnahr yerlarining boshqaruvi esa Mirzo Ulug‘bek qo‘liga topshirilgan bo‘lib, u umrining oxiriga qadar (1449-y.), 40 yil mobaynida bu yerlarni boshqarib keldi. Buyuk olim, davlat arbobi hamda madaniyat homiysi Mirzo Ulug‘bek Sohibqironning nevarasi, Shohrux Mirzoning katta o‘g‘li bo‘lib, u 1394-yili 22-mart kuni



**Mirzo Ulug‘bek
(Muhammad Tarag‘ay).
(1394–1449)**

Amir Temurning «besh yillik» harbiy yurishlari vaqtida Iroqning Sultoniya shahrida tavallud topgan. Yangi tug‘ilgan farzandga Sohibqiron o‘z otasining ismini berdi. Muhammad Tarag‘ay keyinchalik Mirzo Ulug‘bek nomi ila mashhur bo‘ldi. U Sohibqiron saroyida Amir Temurning katta xotini malika Saroymulkxonim va onasi Gavharshodbegim tarbiyasida katta bo‘ldi. U Amir Temurning boshqa avlodlari kabi an’anaga muvofiq barcha harbiy yurish, xatti-harakatlar, saroy hayotida ishtirok etdi. Bobosi tomonidan nevaralar, jumladan yosh Ulug‘bek ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor berilar, shu nuqtayi nazardan 3–4 yoshlaridan boshlab u qissaxon Hamza ibn Ali (Shayx Ozariy) tarbiyasida bo‘ladi. Ulug‘bek undan ilk saboqlarni, xat-savod, hisob-kitobni o‘rganadi. Keyinchalik esa unga otaliq etib tayinlangan amir Shohmalikdan davlat boshqaruvi tartib-qoidalari haqida ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Mirzo Ulug‘bek yoshligidan zehn-zakovatli, yuksak axloqiy fazilatlar sohibi, diniy va dunyoviy ilmlardan chuqur xabardor shaxs sifatida voyaga yetadi.

Mirzo Ulugʻbek Muhammad Sultonning qizi Oʻgabegimga uylani-shi bois ham bobosi singari «koʻragon» («xonning kuyovi») unvoniga sazovor boʻldi. Chunki, Oʻgabegim ona tomonidan nasl-u nasabi Chingizxonga borib taqalar edi. Shohrux dastlab oʻgʻli Ulugʻbekka Xurosondagi Andxoʻy bilan Shiburgʻonni idora qilishni buyurdi. 1406/1407-yili Xurosonning Tus, Habushon, Kalot, Bovard, Niso, Yozir, Sabzavor, Nishopur kabi hududlar idora kalitini ham Ulugʻbekka topshirdi. Keyinchalik Dehiston va Astrobod ham unga qoʻshib berildi. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy: «On hazrat Mirzo Ulugʻbekni yangidan Xuroson va Mozandaron hukmdorligiga tayin qildi», – deb yozgan edi.

1409-yili Movarounnahr qoʻlga olinganidan soʻng, Shohrux Ulugʻbekni shu oʻlkaning noibi etib tayinlaydi. U jiyani Mirzo Muhammad Jahongirga Hisor Shodmonni, Umarshayxning oʻgʻli Mirzo Mirakka (Amirak Ahmad) Fargʻonani beradi. 15 yoshli oʻsmir Ulugʻbek davlat boshqaruvi ishlari uchun hali yoshligi hisobga olinib, taniqli amir Muboriziddin Shohmalik unga otaliq etib tayinlanadi. Taʼkidlash joizki, boshqaruv ishlari amalda shu otaliqning qoʻlida mujassamlashdi. Abdurazzoq Samarqandiy oʻzining «Matlai saʼdayn majmai bahrayn» nomli asarida yuqoridagi holatni shunday tasvirlagan edi: «Hazrat xoqoni said (Shohrux) Movarounnahr va Turkiston mamlakati viloyatini saodatli farzand, ruh rohati-yu dil quvvati, koʻz nuri-yu din koʻmakchisi Mirzo Ulugʻbek koʻragonga bagʻishladi». Hududni katta oʻgʻilga berilishi haqli ravishda Mirzo Ulugʻbekka koʻrsatilgan alohida mehr va iltifotning belgisi edi.

Qayd etish lozimki, movarounnahrlik amirlarning baʼzilari Mirzo Ulugʻbek va Shohmalik hokimiyatlarini tan olishni istashmaydi.

1411-yil 11-aprelda Shayx Nuriddin, Amir Abdulkholiq va Chingiz oʻgʻlon boshchiligidagi qoʻshin Samarqand tomon yoʻlga chiqdi. 1411-yil 14-apreldagi Qizil rabot degan joyda (Samarqandning gʻarbiy tomonida) ikkala tomon oʻrtasida jang boʻlib oʻtdi. Mirzo Ulugʻbek qoʻshini magʻlub boʻlib, u Kalif tomonga chekindi. Tez orada baʼzi qalʼa, shaharlarni hisobga olmaganida, deyarli butun Movarounnahr Shayx Nuriddin qoʻl ostiga oʻtdi. Soʻngra Shayx Nuriddin ikki marotaba Samarqandni ham qoʻlga olishga harakat qilib koʻrdi. Lekin samarqandliklar isyonkor amaldorlarga tegishli zarba berib, shaharni ularga topshirishmaydi. Shohrux Mirzo bu xabarlarini eshitib, tezlik bilan sa-

farga otlanadi. 1411-yil 9-iyunda Kalif yonida Amudaryodan kechib o'tib, o'g'li Ulug'bek bilan uchrashadi.

Shohrux Mirzo, Shayx Nuriddin va uning tarafdorlari o'rtasidagi jang 1411-yil 1-iyul kuni Qizil rabot yonida sodir bo'ladi. Qattiq jangdan so'ng Shohruxning qo'li ustun keladi. Shayx Nuriddin mag'lub bo'lib, Sabron tomonga, Muhammad Jahongir Hsori Shodmonga qarab qochishadi. Jangdan ikki kun o'tib, Shohrux va Ulug'bek qo'shini Samarqandga kirib keladi. Muhammad Jahongir Shohruxning oliy hukmronligini tan olib, unga kuyov bo'ldi hamda o'limiga qadar (1433-y.) Hsori Shodmonda hokim bo'lib turdi. Shayx Nuriddin esa qo'lga olinib, qatl etildi. Uning ukasi Shayx Hasan esa Sabronni Mirzo Ulug'bek hukmida deb e'lon qilib, uning oliy hokimiyatini tan oldi.

Isyon bostirilgach, Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar, jumladan Toshkent, Yassi, Sabron, Sayram va boshqa yerlar yana Temuriylar ilki-ga o'tib, u yerlar idorasi ham Mirzo Ulug'bek zimmasiga o'tadi. 1411-yili Movarounnahrda o'ziga yarasha muxolif kuchlarga ega bo'lgan va Mirzo Ulug'bekning mustaqil xatti-harakatlariga to'sqinlik qilayotgan Muboriziddin Shohmalik Shohrux bilan birga Hirotga qaytib ketdi. Mirzo Ulug'bek esa shu yildan boshlab Movarounnaharning «yagona va qonuniy sultoni» sifatida hokimiyatni boshqaradi.

Shohrux va uning o'g'li Mirzo Ulug'bek o'z siyosatlarining ustuvor yo'nalishlari sifatida avvalo mamlakat hududlarini kengaytirish ham-da markaziy hokimiyatni mustahkamlash deb bilishadi. Shohrux 1413-yili Eronni butkul o'z qo'li ostiga olishga muvaffaq bo'ladi. O'sha yili Shohrux qo'shini yordamida Mirzo Ulug'bek Oltin O'rda xonlari ixtiyori-dagi Xorazmni egallaydi. Bu kurashda faol ishtirok etgan Shohmalik Xorazm noibi etib tayinlanadi. Mirzo Ulug'bek 1414–1415-yillarda o'z amakivachchasi amirzoda Ahmad (Amirak Ahmad) hukmron bo'lib tur-gan Farg'onani egallaydi. Shuningdek, uning Koshg'arga nisbatan siyo-sati ham muvaffaqiyatli tarzda hal bo'ladi. Avvalboshda sobiq Farg'ona hokimi Ahmad¹ Koshg'ardan panoh topgan edi. Lekin Temuriylar bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslikni lozim deb hisoblagan Koshg'ar

¹ Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Amirak Ahmadni Shohrux vaziyati-ni yumshatish maqsadida Hirotga chaqirib oldi. 1416-yili fitnada ayblangan Amirak Ahmad Makkaga jo'natiladi.


hokimi Shayx Ali To'g'ay Mirzo Ulug'bek bilan o'zaro muzokaralar olib boradi. Natijada, 1416-yili u «Buyuk amirning ruhi himoyasiga» o'tish istagini bildirib, Koshg'arni Ulug'bek yuborgan vakillar Siddiq va Alilar qo'lga topshiradi.

Mirzo Ulug'bek shimoldagi qo'shnilari bo'lgan Dashti Qipchoq va Mo'g'ulistondagi ichki siyosiy ahvol barqarorligi va u yerlarda o'ziga ittifoqchi bo'lgan kishilarni hokimiyat tepasida bo'lishini istar edi. Shu sababdan ham uning aralashuvi hamda harbiy ko'magi bilan Dashti Qipchoqda O'rusxonning nevarasi shahzoda Baroqxon hokimiyat tepasiga keladi. Mo'g'ulistonda esa Mirzo Ulug'bekning yordami bilan Shermuhammadxon raqibi Vaisxonni yengib, Mo'g'uliston taxtini egallaydi. Mirzo Ulug'bek bu xonlar orqali shimolda va sharqda o'z ta'sirini o'tkazishga va o'ziga ishonchli ittifoqchilarga ega bo'lishini ko'zlagan edi. Avval Shermuhammadxon Movarounnahr ichki ishlariga aralashishga harakat qilib, o'z valine'matiga nisbatan nohaq munosabatda bo'la boshlaydi. 1424-yili noyabr oyida Shohruxning rizoligi bilan Mirzo Ulug'bek Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. Uning asosiy kuchlari 1425-yil erta bahorida Chu daryosidan o'tib, Issiqko'l yaqinida mo'g'ullarni tor-mor keltiradi.

Bu xususta Mirzo Ulug'bek tomonidan Jizzaxning Ilono'tti darasida lavha ham yozdiriladi. Tez orada shimoldan yana boshqa bir xavf paydo bo'ladi. Mirzo Ulug'bek yordami bilan avval Dashti Qipchoq, so'ngra Oltin O'rda hokimiyatini qo'lga olgan Baroqxon Movarounnahr sultoni muruvvatini yoddan chiqardi. U Sirdaryo bo'yidagi yerlar va shaharlarni (O'tror, Sabron, Sig'noq) talab, u yerlarga o'z da'vosi bilan chiqadi. 1427-yilning boshida Mirzo Ulug'bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurishga o'tlanadi. Lekin bu yurishda Mirzo Ulug'bek qo'shini mag'lubiyatga uchrab, o'zi Toshkentga chekinadi. Dashti qipchoqliklar bilan bo'lgan jang mag'lubiyati Mirzo Ulug'bekka shunchalik ta'sir ko'rsatadiki, u otasining o'limigacha shaxsan o'zi harbiy qo'shinga bosh bo'lib, yurishlarni boshqa amalga oshirmaydi. Mo'g'ullar qo'shini ko'p yerlarni xonavayron etib, talon-toroj qilib, orqaga qaytib ketadilar. Keyinchalik ham bu holat davom etadi. Dashti Qipchoq xoni Abulxayrxon ham (1428–1468) ko'pincha chegaralarni buzib, talonchilik bilan shug'ullanar edi. Uning 1431, 1435-yillardagi Xorazmga

yurishlariga Shohrux va Ulug'beklar tomonidan chek qo'yilib, chegaralar xavfsizligi ta'minlanadi.

1428-yili Mirzo Ulug'bek tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti Movarounnahr ichki iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynadi. Zamondosh tarixchilar, jumladan Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida soliqlar miqdori ham birmuncha pasaytirilgan. Mirzo Ulug'bek shunday qilib, otasi hayotlik vaqtida o'z faoliyatida birmuncha mustaqil sa'y-harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, lekin amalda Shohrux Mirzoning Movarounnahrdagi ishonchli va itoatkor hokimi bo'lib qoladi. Mirzo Ulug'bek ichki va tashqi siyosat borasida otasi Shohrux Mirzo bilan bamaslahat ish tutar, soliqlarning bir qismini muntazam ravishda Hirotga jo'natar, xutba va tangalarda padari buzrukvorining nomiga zikr etirardi. Shuningdek, u vaqti-vaqti bilan otasiga hisob berib turar, harbiy yurishlari vaqtida unga moddiy va harbiy ko'mak yetkazib berar edi.



**Hirot. Gavharshodbegim
maqbarasi. XV asr.**

Shohruxning keksayishi bilan toj-u taxt uchun zimdan paydo bo'lgan nizolar ham faollasha boradi. Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim (1457-y. vaf.) siyosiy ishlarga faol aralasha borib, nevarasi Alouddavlani taxt vorisi sifatida ko'rishni istar edi.

Shohruxning yana bir hayot bo'lgan o'g'li Muhammad Jo'ki (1402–1444) ham o'zini taxt egasi sifatida ko'rishga haqli deb hisoblardi. Toj-u taxt uchun zimdan boshlangan kurash 1444-yili Shohrux og'ir xastalikka duchor bo'lib qolganida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lgan edi. Shohrux xastalikdan tuzalib, 1446-yilning oxirlarida o'zining oxirgi harbiy yurishini amalga oshiradi. Fors va Iroqi Ajamda uning nevarasi Sulton Muhammad bobosiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, Hamadon va Isfahonni bosib oladi. Garchi Shohrux isyonni bostirib, qo'zg'olonchilarni jazolasada, lekin yana xastalanib 1447-yil 12-martda Eronning shimolidagi Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruxning o'limi Xuroson va

Movarounnahrda o'zaro temuriy shahzodalar o'rtasida toj-u taxt uchun kurashni boshlab yuboradi. Mamlakat yana sarosima, tahlika va beqarorlik domiga tortiladi.

Shariat va urf-odatga ko'ra oliy hukmdorlik yagona voris Mirzo Ulug'bek qo'liga o'tishi kerak edi. Lekin marhum Boysung'ur Mirzoning o'g'illari Alouddavla va Abulqosim Bobur Mirzo Ulug'bekka qarshi harbiy harakatni boshlab yuborishadi. Xuroson Alouddavla qo'liga, Mozandaron va Jurjon Abulqosim Bobur ixtiyoriga o'tadi. Sulton Muhammad esa G'arbiy Eron va Forsda o'zini mustaqil hukmdor deb e'lon qiladi. Muhammad Jo'kning o'g'li Abu Bakr Balx, Shiburg'on, Qunduz, Bag'lonni bosib oladi. Mamlakatning talon-toroj, parokanda bo'lishini oldini olish maqsadida Mirzo Ulug'bek muammolarni tinch-muzokara yo'li bilan yechmoqchi bo'ladi. Jumladan, u Alouddavla bilan o'zaro muzokaralarni boshlaydi. Alouddavla Mirzo Ulug'bekning o'g'li Abdullatifni asir olib, uni Hirotidagi Ixtiyoriddin qal'asiga qamab qo'ygan edi. Mirzo Ulug'bek yuborgan vakil sadr Nizomiddin Mirak Mahmud Movarounnahr sultonining Hirotga yurish niyati yo'q ekanligi va bu da'vodan u voz kechishini bildiradi. Ikki o'rtadagi chegara Murg'ob vohasi deb belgilanib, Abdullatifga Balx hokimligi beriladi.

Lekin hech qancha o'tmasdan Abdullatif va Alouddavla o'rtasidagi munosabatlar yana keskinlashadi. Abdullatifning o'z holicha Hirotga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. U otasi Mirzo Ulug'bekdan yordam so'rab murojaat qiladi. 1448-yil bahorida Mirzo Ulug'bek va Abdullatifning 90.000 kishilik birlashgan qo'shini Hirotidan 14 farsah uzoqlikdagi Tarnob degan joyda Alouddavla qo'shinini tor-mor keltirishadi. Alouddavla jang maydonidan qochadi. Poytaxt Hirot shahri deyarli jangsiz egallanadi. Tez orada Mashhadgacha bo'lgan yerlarni Mirzo Ulug'bek, Astrobodgacha bo'lgan yerlarni Abdullatif o'z ixtiyorlariga olishadi. Mirzo Ulug'bek bu harbiy yurishni uzoq davom ettira olmas edi. Chunki, Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchilarning talonchilik yurishlari bu paytga kelib, tez-tez amalga oshirilari, mamlakatga sharqdan mo'g'ullar xavf solib turishardi. Qolaversa, hukmdor poytaxtni uzoq vaqt egasiz qoldirishi ham mumkin emasdi.

Tarnob jangi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsada, lekin g'alaba Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatiflar o'rtasida munosabatlarning sovuqlashuviga ham olib keldi. Mirzo Ulug'bek bu g'alabani ko'proq

boshqa bir o'g'li Abdulaziz nomi bilan bog'lar, g'alaba yorliqlarida Abdullatif nomi Abdulazizdan so'ng tilga olinar edi. Abdullatif garchi Hirot taxtiga o'tirsa-da, lekin Shohrux Mirzo xazinasi sulton ixtiyoriga o'tadi. Garchi bu Mirzo Ulug'bek tomonidan yo'l qo'yilgan ma'lum bir nohaqlik deb hisoblansa-da, lekin Ulug'bek bundan buyon asosiy poytaxt Samarqand, Xuroson esa davlatning bir bo'lagi, degan g'oyani shu xatti-harakati bilan anglatmoqchi bo'ladi.

Hokimiyatparast, shuhratparast va mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun shuning o'zi otasiga qarshi bosh ko'tarish uchun katta bahona edi. Abdullatif Hirotda 15 kuncha hukmronlik qilib, so'ng Amudaryodan o'tib, Movarounnahrda keldi. Bu paytda Abulqosim Bobur qo'shini Hirotga yaqinlashib kelayotgan edi. Mirzo Ulug'bek farmoni bilan Abdullatif yana Balxga noib etib tayinlanadi. Balxda Abdullatifning otasiga qarshi xatti-harakatlari kuchayib, u o'z holicha xorijiy savdogarlardan olinadigan «tamg'a» solig'ini bekor qiladi. Bu soliq esa, o'z navbatida, davlat daromadining asosiy manbalaridan biri edi. Otasiga qarshi kayfiyatdagi kishilarni o'z atrofiga yig'ib, hatto Abulqosim Bobur bilan ham Mirzo Ulug'bekka qarshi yashirin til biriktiradi.

Bu paytda Mirzo Ulug'bek davlatining siyosiy ahvoli ham ancha murakkab tarzda turar edi. Mirzo Ulug'bek Abulxayrxon boshchiligidagi dasht qo'shinlariga qarshi kurashishiga to'g'ri keldi. Samarqand noibi etib qoldirilgan o'g'li Abdulaziz haqida «Amirlar xonadoniga tazyiq o'tkazayapti» degan ovoza tarqalib, bundan amirlarning noroziligi kuchayib ketadi. Mirzo Ulug'bekning murakkab ahvolda qolganidan foydalangan Dashti Qipchoq xoni Abulxayrxon Movarounnahrda talonchilik yurishlarini amalga oshirdi. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek turkmanlarning Yorali boshchiligidagi isyonini, temuriy shahzodalardan Abusaidning Samarqand atrofidagi xatti-harakatlarini ham bostirishga to'g'ri keladi. Davlat yaxlitligi, Temuriylar saltanati birligini saqlash maqsadida Mirzo Ulug'bek Abdulazizni o'zi bilan birga olib, makkor o'g'li Abdullatifga qarshi kurashga o'tlanadi. Abdullatif esa otasining og'ir ahvolidan foydalanib, tezda ochiqdan-ochiq isyon yo'lga o'tadi. U Amudaryodan kechib o'tib, Terniz, Kesh, Hisor yerlarini qiyinchiliksiz egallaydi.

1449-yilning oktabr oyi boshlarida Samarqand yaqinidagi Damashq qishlog'ida Mirzo Ulug'bek va shahzoda Abdullatif o'rtasida

laridagi jang Mirzo Ulugʻbek magʻlubiyati bilan tugaydi. Magʻlub boʻlgan Mirzo Ulugʻbek poytaxt Samarqand tomon yoʻl oladi. Lekin xiyonat yoʻliga oʻtgan, Samarqandda hokim etib qoldirilgan Mironshoh qavchin uni shaharga kiritmay, darvozalarni berkitib qoʻyishga buyruq beradi. Shuningdek, Shohruxiya qalʼasi qutvoli Ibrohim mamluk ham uni qalʼaga qoʻymaydi. Shundan soʻng Ulugʻbek keyingi xatti-harakatlari foydasiz ekanligini anglab, Abdullatifga taslim boʻlishga majbur boʻladi. Mirzo Ulugʻbek toju-taxtdan voz kechib, Makkaga haj safariga ketishga izn soʻraydi. Abdullatif hajga ruxsat berib, Amir Muhammad Xusravni unga hamroh qilib joʻnatadi. Lekin oradan hech qancha oʻtmasdan, shahar qozisi Shamsiddin Muhammad Miskinning qarshiligiga qaramay, ulamolarning yashirin fatvosi bilan Abdullatif oʻz otasining oʻlimini uyushtiradi. Oʻz davrining mashhur hukmdori va zabardast olimi Mirzo Ulugʻbek 1449-yilning 27-oktabrida Samarqand yaqinida fojiali tarzda oʻldiriladi. Oradan 2–3 kun oʻtmasdan Abdulaziz va Mirzo Ulugʻbekning sadoqatli toʻrt nafar amiri ham qatl etiladi.

Roppa-rosa qirq yil (1409–1449) davom etgan, tarixiy manbalar tili bilan aytganda, «Temuriylar saltanatining yorqin gavhari» Mirzo Ulugʻbek hukmronligi shu tariqa oʻz poyoniga yetadi. Bu davr keskin, murakkab kurashlar sahnasida oʻtsa-da, biroq Mirzo Ulugʻbek oʻz davlatini mustahkamlash, birlikni saqlash, iqtisodiy barqarorlikni yuzaga keltirish, madaniy hayotni yuksaltirish borasidagi xizmatlari Temuriylar tarixida alohida ahamiyatga ega boʻldi.

Gʻarbda Mirzo Ulugʻbek ilmiy merosi XVII asrdan boshlab oʻrganila boshlandi. 1643-yili Oksford universiteti professori Jon Grivs (Iogann Gravius) oʻz tadqiqot ishini Ulugʻbek «Zij»iga bagʻishlagan. Bu ilk nashrdan soʻng Oksford universitetida, Yevropaning boshqa ilmfan markazlarida qator ishlar nashr etildi. 1693-yili mashhur polyak astronomi Yan Geveliyning lotin tilidagi «Astronomiya darakchisi» kitobi chop etildi. Unda Ulugʻbek faoliyatiga yuqori baho berilgan holda ikkita graviyura kiritilgan. Astronomiya ilohiysi Uraniya haykalining ikki tarafida eng mashhur astronomlar qatorida Mirzo Ulugʻbek ham tasvirlangan.


Ulugʻbekning «Zij»i 1725-yili Grinвич observatoriyasining birinchi direktori D.Fleystidning «Osmon tarixi» kitobida eng mashhur jadvallar qatorida oʻz aksini topgan. Ingliz sharqshunosi A.Sediyo

(1808–1875) 1839–1853-yillarda «Zij»ni fors va fransuz tillarida nashr ettirdi. XX asr boshlarida Mirzo Ulugʻbek ilmiy merosi xususida AQSH va Yevropada qator asarlar nashr qilindi. S.Peterburg observatoriyasining asoschisi, asli Fransiya dan taklif etilgan astronom J.N. Delil (1688–1768) Rossiya da Ulugʻbek ilmiy merosini oʻrganishni boshlab berdi. Bu ishni keyinchalik rus sharqshunoslari N.Beryozin, V.V. Bartold va boshqalar davom ettirishdi. 1908–1909-yillari Samarqanddagi Ulugʻbek rasadxonasi xarobalarini ochilishi unga boʻlgan qiziqishni yanada kuchaytirdi.

XX asr tarixshunoslik fani Mirzo Ulugʻbekni nafaqat buyuk olim, balki barcha tavofutlardan qatʼi nazar, umumbashariy taraqqiyot gʻoyalari ni koʻtarib chiqqan musulmon olamidagi yagona hukmdor sifatida eʼtirof qildi. Nemis olimi N. Meller (1749–1874) tashabbusi bilan Oydagi kraterlardan biriga Ulugʻbek nomi berilgan.

Temuriy hukmdorlar ichida ilm-fan, maʼrifat va madaniyatga yetarli homiylik qilgan shaxs – bu oʻzi ham buyuk olim boʻlgan Mirzo Ulugʻbek hisoblanadi.

Mirzo Ulugʻbek uning zamondoshlari, muarrixlarning xabar berishlaricha, sharq mutafakkirlari, ular orqali yunon mumtoz ilmiy asarlaridan xabardor boʻlgan. Mirzo Ulugʻbek zamondoshi Gʻiyosiddin Koshiyning yozishiga koʻra, Mirzo Ulugʻbek oʻta zukko va juda ilmli shaxs boʻlib, Qurʼoni karimni yod bilgan, arab va fors tillarini yaxshi bilib, tafsir va hadis ilmi bobida bilimdon inson, fiqh, mantiq, adabiyot, musiqa, riyoziyot va falakiyot ilmlarini chuqur egallagan qomusiy olim edi. Mirzo Ulugʻbek islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlik darajasini birgalikda olib bordi. U Movarounnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Xususan Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz) ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417-yil Buxoroda, 1420-yili Samarqandda, 1433-yillarda Gʻijduvonda madrasalar barpo ettirdi. Samarqandning obodonchilik ishlariga bosh-qosh boʻlib, Goʻri Amir, Shohizinda meʼmoriy majmualaridagi qurilish ishlarini oxiriga yetkazadi. Shohi Zinda majmuasida masjid, peshtoq, chortoq quriladi. Mirzo Ulugʻbek davrida Registon maydoni shakllanadi, unda Ulugʻbek madrasasidan tashqari xonaqoh, karvonsaroy, oʻymakor yogʻochlar bilan bezalgan Muqatta masjid ham bunyod etiladi.



Samarqand. Registon maydoni.

Shuningdek, bu vaqtda Ko'kaldosh jome masjidi ham qurib bitkaziladi. Ushbu me'moriy binolardan faqat Ulug'bek madrasasi asrlar silkinishlariga dosh berib, majmuadan yagona yodgorlik bo'lib qoldi. Mazkur davrda Samarqandda barpo etilgan Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi, Chilustun (Qirq ustun) va Chinnixona saroylari o'zlarining me'moriy qurilishi kompozitsiyalari bilan ajralib turgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur Chilustun va Chinnixona saroylarining ko'rkam va juda muhtasham bo'lganligini ta'kidlab o'tgan edi. Mirzo Ulug'bek boshqa shaharlarda me'moriy obidalar qurilishi masalasiga ham qattiq e'tibor bilan qaragan. Ular orasida Shahrisabzdagi Ko'k gumbaz masjidi o'zining hashamatliligi bilan ajralib turadi. Bu yerdagi Gumbazi Sayidon yodgorligi ham qayta tiklangan.

Madaniyat homiysi bo'lgan Mirzo Ulug'bek ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor bilan qaradi. Hadisi sharifdagi «Ilm olmakka intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarz» degan ibora Buxoro madrasasi peshtoqiga shior sifatida o'yib yozdirib qo'yildi. Xususan, u Samarqandga o'z zamonasining yirik, taniqli olimlarini chorlashga harakat qilgan.

Uning sa'y-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan ziyod olimlari Samarqandga yig'ilishdi. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o'z

zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Muhammad Hafoviy va boshqa taniqli zotlar ham bor edi. 1420-yil Samarqand madrasasi ochilganda, unda 100 dan ziyod talaba o'qigan, madrasada 50 tadan ko'proq talabalar uchun maxsus hujralar mavjud bo'lgan. Zayniddin Vosifiyning yozishicha, 1420-yili Samarqand madrasasi ochilganida unda 90 tadan ko'p olim qatnashgan ekan. Madrasadagi ilk ma'ruzani Mavlono Hafoviy o'qigan. Keyinchalik o'z zamonining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror va boshqalar ham Samarqand madrasalarida tahsil olishgan.

Shuningdek, Samarqandda bu davrda bir necha boshqa madrasalar ham bo'lib (Xonim, Feruzshoh, Shohmalik, Qutbiddin va boshqalar), u yerlarda ham salohiyatli olimlar dars berishardi. 1424–1429-yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhorl bo'yida Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdiradi. Rasadxona o'sha davrning noyob inshootlaridan bo'lib, u doira shaklida barpo etilgan, imoratning aylanasi 47 m, balandligi 31 m dan iborat 3 qavatli bino bo'lgan. Binoning ichi bir necha xona, aylana zal, maxsus tekshirish xonalaridan iborat bo'lib, u yerlarda maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan.

Rasadxona ichi koinot, yer kurrasi tasvirlari bilan bezalgan bo'lib, shuning uchun xalq ichida «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat topgan edi. Samoni kuzatish va o'rganish borasida G'iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o'lchov asbobi – ulkan sekstant o'rnatilgan. Bu sekstant, o'z navbatida, Sharqdagi eng katta astronomik asbob o'lchovi hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo'jandiy, usta Ibrohim) qo'li bilan ko'plab zaruriy astronomik o'lchov asboblari ham yasaldi va o'rnatildi. Rasadxona qoshida shuningdek, 15.000 jilddan iborat kitob saqlanadigan boy kutubxona ham bo'lgan. Uning atrofida olimlar yashaydigan yer-chorbog'lar «Bog'imaydon» va «Chinnixon» nomlari bilan shuhrat qozongan. Mirzo Ulug'bek Samarqandda o'ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Mirzo Ulug'bek bilan bir qatorda o'z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ulug'bekning shogirdi, o'z davrining «Ptolemey»i nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi (Alouddin ibn Muhammad) va boshqalar yelkama-yelka turib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordilar.



Rasadxonadagi tadqiqotlar natijasida 1018 ta yulduzning o'rni va holati (koordinatlari) aniqlanib, astronomik jadvali tuzildi. O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq o'lkalari bo'ylab joylashgan 683 ta geografik punktlarning joylashuvi Samarqand kenglik koordinatlari bilan belgilab chiqildi. Matematika fani sohasida Mirzo Ulug'bek maktabi yaratgan – o'nlik darajali algebrali tenglama yechilib, bir darajali yoyning sinusi aniqlangan.

Shu jihatdan buyuk olimning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» («Ko'ragoniyning yangi astronomik jadvali») nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar 1437-yil yozib tugatilgan bo'lsa-da, olim umrining oxiriga qadar unga yangi natijalarni kiritib borgan. Bu asar ikki qismdan

iborat bo'lib, unda keng muqaddima va 1018 ta yulduzlarning o'rni berilgan. Undan tashqari, Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») nomli tarixiy asari va musiqaga bag'ishlangan besh-ta risolasi ham mavjuddir. Mirzo Ulug'bekning o'ta salohiyatli olim bo'lganligini uning zamondoshlari G'iyosiddin Jamshid, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar ham e'tirof etishgan. Jumladan, o'zbek adabiyotining asoschisi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy (1441–1501) bu xususda:

Temurxon naslidin Sulton Ulug'bek
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek, –

deya unga o'z ta'rifini bergan edi.

Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi jahon ilm-fan olamida hamisha yuqori baholanganligini, hozirda ham uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha soniya farq qilinganligini 1996-yili YUNESKOning Bosh kotibi Federiko Mayor Birinchi Prezidentimiz I.Karimov bilan bo'lgan mulo-

qotda faxr bilan ta'kidlaganini «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida alohida qayd etilib, buyuk vatandoshimiz merosiga yuksak baho berilgan edi. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi yodgorligi mustaqillik yillarida qayta ta'mirlandi, rasadxona atrofi obodonlashtirilib, buyuk olim hurmatiga bag'ishlangan monumental kompozitsiya barpo etildi.

Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bek ilmiy merosini o'rganish, buyuk olim, madaniyat homiysiga ehtirom ko'rsatish davlat siyosati maqomiga ko'tarildi. 1994-yili YUNESKOning qarori bilan Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yilligi yubiley yili, deb e'lon qilindi. Respublikadagi qator muassasa, tashkilot, maydon, ko'chalarga Mirzo Ulug'bek nomi berildi. Xususan, Toshkentdagi tumanlardan biri, Astronomiya instituti, Yadro fizikasi instituti joylashgan posyolka, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqalar shular jumlasidandir. Toshkentda va Samarqandda Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq yodgorliklar qayta ta'mirlandi, Ulug'bek muzeyi butkul yangi qiyofaga erishdi. Buyuk ajdodimizga o'z yurtida ko'rsatilgan ehtirom avlodlarining ulkan e'tiboridan darak berishi 2009-yili Samarqandda ushbu zotga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ham alohida qayd etildi.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.Karimov Temuriylar saltanatining ushbu yorqin vakili haqida so'z yuritar ekan, uning hukmronligi xususida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: «Ta'qdir bu ulug' zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo'lishdek o'ta ma'suliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo'lida ulkan shijoat va matonat ko'rsatdi».

2.3. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson

O'zaro toj-u taxt uchun kurash Abdullatifni razillik botqog'iga botirib, uni o'z otasining qotiliga aylantirdi. Garchi u taxt egasi bo'lsa-da, xalq uni «padarkush» (otasining qotili) sifatida la'natlar, Mirzo Ulug'bek tarafdorlari unga dushmanlik ko'zi bilan qarar edi. Bunday bir paytda Abdullatif xurofotchi din ahllari, darveshlar guruhi bilan

ham yaqinlashishga harakat qildi. Biroq qotil padarkush taxtda uzoq o'tira olgani yo'q. 1450-yilning 8-mayida, shahar xandag'i yonida, Bog'inavdan nariroqda unga qarshi suiqasd qilinib, o'ldiriladi. Bu xususda so'z yuritgan tarixchi Mirxond fitnachilar tap tortmasdan harakat qilib, «uning kesilgan boshini Registondagi Ulug'bek o'zi qurdirgan madrasa peshtoqiga namoyishkorona tarzda ilib qo'ydilar», – deya yozgan edi.

Bu qotillikdan so'ng, tezda Samarqand taxtiga Mirzo Ulug'bekning jiyani hamda kuyovi Mirzo Abdullo (1450–1451) o'tiradi. Buxoroda esa hokimiyat Mironshohning nevarasi Sulton Abusaid qo'liga o'tadi. Mirzo Abdullo o'zining bir yillik hukmronligi davrida mamlakatda barqarorlikni tiklashga, Mirzo Ulug'bekning madaniy sohadagi ishlarini davom ettirishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qildi. U taxt uchun da'vogarlar Alouddavla va Abusaidlar bilan kurash olib borib, Samarqandga qarshi yurish qilgan Abusaid qo'shinini tor-mor keltiradi. Abusaid Sirdaryo ortiga qochib, Dashti Qipchoq o'zbeklari xoni Abulxayrxondan (1428–1468) taxtni egallash uchun yordam so'rab murojaat qiladi. 1451-yili yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog'idagi jangda Mirzo Abdullo o'ldirilib, taxt Sulton Abusaid Mirzo (1451–1469) qo'liga o'tadi. Temuriylar davlatining Xuroson yerlari Shohruxning boshqa bir nevarasi, Boysung'ur Mirzoning o'g'li Abulqosim Bobur qo'lida saqlanib qolib, u to vafoti (1457) ga qadar Xuroson taxtini boshqarib turdi.

Bu vaqtga kelib o'zaro siyosiy tarqoqlik yanada avj oldi. Birgina Xurosonning o'zi o'ndan ortiq qismga bo'linib ketdi. Jumladan, Xurosonning Sabzavor va Astrobod oralig'idagi yerlari – Mirzo Jahonshohga, Balx – Abusaidga, Hirot – Mirzo Sulton Ibrohimga, Mirzo Shomahmudga – Tus, Alouddavlagaga – Obivard qal'asi tegishli edi va hokazo. O'zaro taxt uchun muttasil kurashlar mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta zarar yetkazib, inqiroziy holatlarga sabab bo'la boshladi. Abulqosim Bobur Xurosonni o'z qo'li ostida birlashtirishga, Shohrux davridagi madaniy hayotni tiklash yo'lida sa'y-harakatlarni olib bordi. Shu bilan birga Abulqosim Bobur Temuriylar saltanatini birlashtirishga, o'zaro fitna, o'zboshimchaliklarga chek qo'yishga ham harakat qildi. Lekin 1454-yili uning Samarqandga yurishi muvaffaqiyatsiz tugab, 40

kunlik shahar qamalidan keyin u yana orqaga qaytishga majbur bo'lgan edi. 1456-yili u Xuroson davlati markazini Mashhadga ko'chiradi.

1457-yili Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etgandan so'ng, Xuroson yerlari uchun kurash yana avj oldi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Movarounnahr hukmdori Sulton Abusaid 1457-yili Xurosonga yurish qilib, Hirotni egallaydi. Shu tariqa Abusaid Temuriylar davlatining ikkala qismini birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Sulton Abusaid Mirzoning (1451–1469) hukmronlik davrida davlat hududlari kengayib, uning chegaralari Sharqiy Turkistondan to Iroqqacha, Sirdaryodan to Hindiston chegaralarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oldi. O'z hukmronligi davrida Abusaid doimiy ravishda hokimiyatini mustahkamlashga, isyonkor amaldor-noiblarni jazolashga asosiy e'tiborini qaratdi. Shuningdek, u birmuncha iqtisodiy va madaniy tadbirlar o'tkazishga ham urindi. Lekin uning bu sohadagi ishlari o'zining ijobiy natijasini bermadi, ma'rifat va madaniyat Mirzo Ulug'bek davridek yuqori darajaga chiqqan olmadi. Abusaid o'z hokimiyatini mustahkamlash yo'lida ko'plab qirg'inbarot ishlarini amalga oshirdi, ko'zga ko'ringan obro'li shaxslar turli jazolarga muhtalo etildi.

Sulton Abusaid Mirzo Xuroson, Eron, Xorazmdagi siyosiy tarqoqlikni ham butkul tugata olmadi. Hirot taxtiga da'vogarlardan biri Umarshayxning evarasi, yosh temuriy shahzoda Sulton Husayn (1438–1506) Abulqosim Bobur vafotidan (1457 y.) keyin Xuroson mulki uchun o'z harakatlarini boshlab yuborgan edi. U XV asrning 60-yillaridan katta harbiy otryadga bosh bo'lib, 1461–1464-yillarda Hirot, Obivard, Niso, Mashhad va Xorazmda hokimiyat uchun goh muvaffaqiyatli, goho muvaffaqiyatsiz kurashlarni olib bordi.

1469-yili erta bahorda temuriylarga avvaldan tegishli bo'lgan G'arbiy Eron yerlarini qaytarib olish maqsadida Sulton Abusaid Mirzo Oqqo'yunli turkmanlariga qarshi yurishni boshlaydi. Biroq Oqqo'yunlular hokimi Uzun Hasan (1453–1478) tomonidan Ozarbayjonning Mug'on dashtida bo'lgan jang vaqtida o'ldiriladi. Abusaidning o'g'illari Sulton Husayn bilan toj-u taxt uchun kurashishga botina olmay, Movarounnahrqa qaytib ketishadi. Sulton Husayn esa 1469-yil 24-martda tantanali ravishda Hirotga kirib keladi. Natijada Temuriylar saltanati yana ikki qism: Xuroson va Movarounnahrqa bo'linib ketadi. Movarounnahr ketma-ket Sulton Abusaidning vorislari Sulton Ahmad

(1469–1494), Sulton Mahmud (1494–1496), Sulton Boysung'ur Mirzo (1496–1497) hamda Sulton Ali Mirzo (1498–1500)lar tomonidan mustaqil ravishda boshqarildi. Lekin ko'p holda, ayniqsa Sulton Ahmadning davlat boshqaruvidagi kaltabin, uquvsiz va sustkash siyosati, Sulton Mahmud va Sulton Ali Mirzolarning davlat ishlarining o'z holiga tashlab, aysh-ishratga mukkalaridan ketganligi bois ushbu hukmdorlar davrida o'zaro tarqoqlik va parokandalik yanada kuchaydi.

Shu davrga kelib, ayrim viloyat noiblari, amirlarning ta'siri o'tib, ko'pincha ular aksariyat mustaqil faoliyat yo'liga o'ta boshlashadi. Xalq ommasasi esa o'zaro kurashlardan jabr chekishar, savdo-sotiq va dehqonchilik rivoji orqaga ketgan edi. Siyosiy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ruhoniylar, ayniqsa so'fiylarning ta'siri yanada kuchaydi. Xususan, shu davrning ko'zga ko'ringan diniy arbobi Xoja Ubaydulloh Ahror (1404–1490) mamlakatda juda nufuzli shaxsga aylanib, o'zaro kurash-nizolar vaqtida mamlakat tinchligini saqlash yo'lida bir necha marotaba bu kurashlarni to'xtatib qolishga muvaffaq bo'ladi. El-yurt tinchligi, osoyishtaligi yo'lidagi uning faoliyati, albatta tahsinga sazovordir.

Movarounnahr tomonida rasman Temuriylarga qaram, amalda deyarli mustaqil bo'lgan Xisravshoh (1457–1495) Hisor, Badaxshon, Ko'histonda hokimlik qilib, o'zining zo'ravonligi va talonchiligi bilan yaxshi tanilgandi. Toshkentdagi hokim Yunusxon (1485–1487), keyinchalik uning o'g'li Mahmudxon (1487–1504)lar ham o'zlarini mustaqil davlat egasi deb hisoblashar edi. Xorazmdagi So'fiylar sulolasi vakillari ham shunday siyosat yurgizishardi. Qator tarixchilar, xususan, Muhammad Solih, Bobur, ibn Ro'zbaxon, Xondamir va boshqalar o'z asarlarida shu davrda ro'y bergan o'zboshimchalik va talonchiliklarni alohida qayd etishgandi.

1499-yildan boshlab O'rta Osiyoga o'z yurishlarini boshlagan Muhammad Shayboniyxon (1451–1510) Temuriylar ichidagi ichki nizo va noittifoqlikdan foydalanib, Movarounnahrni nisbatan istilochilik harakatlarini boshladi. Temuriy shahzodalardan, shu vaqtdagi yagona movarounnahrlik iqtidorli va harbiy sarkardalik mahoratiga ega bo'lgan, keyinchalik buyuk sho'ir va davlat arbobi darajasiga chiqqan Zahiriddin Muhammad Boburning sa'y-harakatlari ham o'zining tegishli natijasini bermadi. 1505–1506-yillarga kelib Shayboniyxon Xorazm va

Movarounnahrni to'liq egallaydi. Shayboniyxonga qarshi kurashish uchun yo'lga chiqqan Xuroson hukmdori Sulton Husayn (1469–1506) 1506-yilning mayida vafot etadi. Sulton Husaynning vorislari o'rtasida toj-u taxt uchun kurash avj olib, natijada hokimiyat ikkita shahzodaga – Badiuzzamon Mirzo bilan Muzaffar Mirzolarga o'tadi. 1507-yilning may oyida esa Shayboniyxon Xurosondagi Temuriylar davlatiga yurish qilib, uni mahv etadi.

Shunday qilib, deyarli bir yarim asr davomida shonli Temuriylar saltanatining umri o'z nihoyasiga yetadi. Temuriylarning oxirgi zabardast vakili Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yil 21-apreldagi Panipat jangidan so'ng shimoliy Hindistonni egallashga muvaffaq bo'ladi. Boburiylar sulolasi Hindistonda uch asrdan ziyod vaqt mobaynida hukmronlik qilib, ko'p hollarda Temuriylar shon-shuhratini o'sha yerda tiklashga muvaffaq bo'lishadi.

2.4. Sulton Husayn Boyqaro – Xuroson hukmdori.

Sulton Husayn (1438–1506) Sohibqironning o'g'li Umarshayxning evarasi bo'lib, u 1438-yili Hirotning shimoli-sharqidagi Davlatxona saroyida dunyoga kelgan. Uning otasi G'iyosiddin Mansur temuriylardan bo'lgan Boyqaro Mirzoning uchinchi o'g'li bo'lgan.

Husaynning otasi G'iyosiddin Mansur 1445-yilda vafot etadi. Husayn 14 yoshigacha maktabda ta'lim olib, shu maktabda Alisher bilan do'stlashadi. 1452-yilda yosh Husayn Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi. 1457-yili Abulqosim Bobur vafotidan so'ng, Husayn saroyini tark etib, Marv hukmdori Sanjar Mirzo Marviy saroyiga xizmatga o'tadi. Biroq tez orada ular o'rtasiga sovuqchilik tushib, Husayn saroydan ketishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng Husayn Mirzo o'n yildan ko'proq vaqt davomida Xorazm, Xuroson, Astrobod, Mozandaron va Jurjon oralig'ida harbiy harakatlarni olib boradi. Xususan, 1464–1469-yillarda Xurosondagi ma'lum yerlarni o'z qo'lga olishga ham muvaffaq bo'ladi.

Bu davr mobaynida temuriy shahzodalarning toj-u taxt uchun olib borgan o'zaro urushlarida Husayn Mirzo ham faol qatnashib, Temuriylar hukmdori Sulton Abusaid Mirzo (1424–1469) halokatidan so'ng, 1469-yil 24 martda katta tantanalar bilan Hirotga kirib keladi va o'sha



**Sulton Husayn Boyqaro. Miniatyura.
(1438–1506)**

kuni jome masjidida uning nomiga xutba o'qiladi.

Tarixiy manbalarning xabar berishicha, Sulton Husayn Boyqaro Temuriylar orasida jasoratli, mard, odil va tadbirkor saltanat sohibi bo'lgan. U hukmronlik qilgan davrda (1469–1506) Xuroson fuqarolari osoyishta va farovon hayot kechirdilar. Ayniqsa, uning vaziri Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari natijasi o'laroq, mamlakatda yirik suv inshootlari, ma'muriy va madaniy qurilishlar, madrasa, masjid, karvonsaroy, rabotlar, ko'priklar va shu kabi qurilish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Sulton Husayn Boyqaroning hukmronligi davrida Hirot musulmon sharqining fan va madaniyat markaziga aylandi. Bu davrda ilm-u fanning barcha jabhalarida qalam tebratgan olimlar, so'z ustalari, adiblar, shoirlar, musiqashunoslar, hunarmand naqqoshlar va musavvirilar Hirotning dovru'ini jahonga mashhur qilishgan.

Sulton Husayn Boyqaro Xuroson muzofoti, ayniqsa, Hirotida ko'plab diniy va madaniy-maishiy binolarni qurdiradi. Bu qurilishlarning asosiy mutasaddisi sifatida Alisher Navoiyni ko'rsatish joizdir. Shuningdek, hukmdorning yaqin kishilari hamda bek va amirlari o'z nomlarini abadiylashtirish maqsadida masjid, madrasa, rabot, ko'prik, hammom va shunga o'xshash qurilishlar bilan shahar ko'rkini yanada jilolantirishgan. Xususan, Sulton Husayn Boyqaro Gozurgoh yaqinida o'z nomiga madrasa, Hirot tashqarisida «Bog'i bayt ul-imon» va «Bog'i xamsa oroyi» bog'larini barpo ettirgan. Sulton Badiuzzamon Mirzo nomi bilan ataluvchi «Madrasayi Badi'a» ham Sulton Husayn Boyqaro davrining ulkan obidalaridan biri sanaladi. Bu davrda ta'mirlangan Jome masjidi ulkan binolardan bo'lib, uning 403 gumbazi, 130 ravoqi va 44 ustuni bo'lgan.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, Xurosonda qirqaqa yaqin yirik inshootlar Sulton Husayn Boyqaro davrida vujudga kelgan va Hirotga tevarak-atrofdan olimlar, shoirlar, adiblar, rassomlar, xattotlar, musiqachilar va boshqa har xil hunarmandlar kirib kela boshlashgan. Jumla-

dan, o'sha davrda tabib Husayn Jarroh ichakni kesib davolashda chumolidan foydalanish usulini ixtiro qilgan. Ustod Sayid Ahmad G'ijjak, Ustod Shohquli G'ijjak, Ustod Qul Muhammad Udiy, Ustod Husayn Udiy, Ustod Shayx Foniylar Xurosonda nom chiqargan yetuk musiqashunos allomalardan bo'lishgan. Naqqoshlik va xattotlik sohasida Xoja Mirak naqqosh, Mavlono Xoja Muhammad naqqosh va buyuk iste'dod sohibi Kamoliddin Behzodlar o'z mahoratlari bilan Xuroson faxri hisoblanishgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Husayn Boyqaro zamonidagi olimlar, fozil va shoirlar haqida so'z yuritib, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Odiy, Shod Husayn Koshiy, Hiloliy, Ahliy, Muhammad Solih va boshqalar haqida qisqacha to'xtalib o'tadi. Alisher Navoiyning ta'kidlashicha, Husayn Boyqaro turkiy tilining taqdiriga befarq bo'lmay, uning rivoji uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirgan.

O'sha davr adabiy muhitining ba'zi namoyandalari turkiy tilni tahqirlab, mazkur tilda ijod etish, ijodkorning iste'dodsizligini bildiruvchi nuqsonlardan biri deb hisoblashgan. Binobarin, arab va fors tillariga e'tibor berilib, turkiy til kamsitilgan. Ana shunday sharoitda Husayn Boyqaro yozuvda turkiy tilni iste'molga kiritish borasida maxsus farmon bergan. Bu dadil qadam mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida katta voqelik bo'ladi.

Husayn Boyqaro forsiy va turkiy tillarda g'azal bitish iqtidoriga ega bo'lsa-da, asosan turkiy tilda «Husayniy» taxallusi bilan ijod etgan. Sultondan bizgacha «Devon» to'plami yetib kelgan. Sulton Husayn risolasi shaxsiy kechinmalarga boy, samimiy va ko'tarinki ruhda yozilgan. Uning ta'bi nazmi haqida Alisher Navoiy «Majolisun nafa'is» asarida shunday yozadi: «Ul hazratning xo'b ash'ori va marg'ub adabiyoti bag'oyat ko'pdur va devon ham murattab bo'lubtur». Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy ijodi uchun tegishli shart-sharoit yaratib berishda sulton bevosita homiylik qilgan.

Husayn Boyqaro Xurosonda mustahkam va kuchli davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. U 1470-yil Hirot taxtiga da'vogar bo'lgan temuriy shahzoda Yodgor Muhammadni mag'lubiyatga uchratdi. O'sha yili Ahmad Mushtoqning Balxdagi, Abulxayrning Hirotidagi

qo'zg'olonlarini bostirdi. Shuningdek, Sulton 1490-yili Astroboddagi Amir mo'g'ul boshchiligidagi isyonni ham mahv etdi, Hisor hokimi Sulton Mahmudning o'zboshimchaligiga chek qo'yib, u yerlarni ham o'z tasarrufiga oldi. Mamlakatda tinchlik-osoyishtalik va tartib o'rnatildi. Shuni alohida aytish kerakki, Sulton Husayn davrida birorta ham xalqaro miqyosda nizo va janjallar sodir bo'lmagan. Musulmon sharqi davlatlari bilan mustahkam siyosiy va iqtisodiy aloqalar o'rnatilgandi. Albatta, bu ijobiy sa'y-harakatlarda buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning ham munosib hissasi bo'lgan. Lekin XV asr 90-yillariga kelib Xurosondagi ichki vaziyat o'zgara boshladi. Sultonning ba'zi nomaqbul xatti-harakatlari, xususan, uning maishatga berilishi boshlandi. Uning ustiga sultonning o'g'illari – Badiuzzamon Mirzo, Abulmuhin, Muhammad Husayn va boshqalar o'z padari buzrukvorlariga qarshi tez-tez isyon ko'tara boshladilar.

Bu orada Badiuzzamon Mirzoning o'g'li Mo'min Mirzoning sulton tomonidan mastlik chog'ida o'ldirishga farmon berilishi vaziyatni yanada chigallashtirib yubordi. Alisher Navoiy vositachiligida shoh va shahzodalar o'rtasida bir necha marta sulh kelishuvlari amalga oshirildi. 1499-yilgi kelishuvga muvofiq Balx Badiuzzamon Mirzoga berilib, uning nomi sulton nomi bilan birga xutbada o'qiladigan bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, davlat yaxlitligi hamda markazlashgan davlat mavqeyiga putur yetkazar edi.

Hukmdorning so'nggi yillari mamlakat ichida vujudga kelgan isyonlarni bostirish bilan o'tdi. Bu isyonlar o'z o'g'illari tarafidan mulk talashib ko'tarilgan nizo va mojarolardan iborat edi. Ammo shunga qaramay, u qo'lidan kelganicha mamlakatda adolat va osoyishtalikni, ilm-ma'rifat va madaniyatni ravnaq toptirishga harakat qilgan. 1506-yil bahorida Sulton Husayn Boyqaro xastaligiga qaramay Xuroson qo'shinini yig'ib, Shayboniynxonga qarshi Movarounnahr hududiga qarab yo'l oladi. Sulton Bobo Ilohiy mavzeyiga yetganda, ahvoli og'irlashib, qo'shinni to'xtatishga qaror qiladi. 1506-yil 6-may kuni Sulton Husayn Boyqaro xastalanib, 69 yoshida olamdan o'tadi.

Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506) davlati o'z tarkibiga Xorazm, Xuroson, hozirgi Afg'oniston va Eronning bir qismini olgan bo'lib, u Temuriylar tarixida oxirgi yirik davlat arboblardan biri bo'lib qoldi. Sulton Husayn Boyqaroning deyarli qirq yillik hukmronlik davri garchi

o'zaro kurashlardan xoli bo'lmagan bo'lsa-da, lekin mamlakatda barqaror iqtisodiy ahvol hukmronlik qildi. Madaniy hayot benihoya darajada ravnaq topdi. Mamlakat obodligi, farovonligi, iqtisodiy hayotning bir me'yorda kechishi, fan-madaniyatning yuksalishida o'z davrining tadbirli va oqil hukmdori Sulton Husaynning roli nihoyatda katta bo'ldi. Sulton Husayn Temuriylarning Xuroson qismidagi mulklarida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, fitna va o'zboshimchalikka chek qo'yishi, me'morchilik va obodonchilikka katta e'tibor berishi, ilm ahli va madaniyat arboblari xayrixohlik ko'rsatishi va homiylik qilishi bilan mamlakatimiz tarixida o'ziga xos ijobiy iz qoldirdi.

2.5. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va davlat arbobi

Buyuk o'zbek shoiri, o'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, jahon adabiyotining zabardast vakili, davlat arbobi va mutafakkir Mir Nizomiddin Alisher Navoiy 1441-yil 9 fevralda Hirotning Bog'i Davlatxona degan joyida tavallud topgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad, bir vaqtning o'zida «Kichkina Bahodir», «Kichik baxshi» taxalluslari bilan mashhur bo'lib, Hirotning oliynasab oilalariga mansub, temuriylar saroyida e'tiborli shaxslardan biri bo'lib hisoblangan. Tarixiy manbalarda Alisherning otasi G'iyosiddin Muhammad: «bisyor saodatmand va pok niyatlik inson bo'lib, tabiatida juda katta odamiylik xususiyati mavjud edi», deya ta'riflagan.



Alisher Navoiy.
(1441–1501)

Alisherning onasi taniqli Kobul amirzodalaridan biri bo'lgan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Alisherning ota tomonidan bobosi Umarshayx Mirzo bilan emikdosh bo'lib, Boyqaro Mirzo davrida Qandahorda amir bo'lgan. Shu bois ham G'iyosiddin Muhammadga saroyda katta hurmat bilan qarashgan. Alisher bolaligidanoq o'tkir zehni, fahm-farosati, aql-zakovati bilan tengdoshlaridan ajralib turar edi. G'iyosiddin Muhammad o'g'lining tarbiyasiga alohida ahamiyat bilan qaragan. Bu xususda Davlatshoh Samarqandiy: «U o'z farzandini turli fazilatlar bilan bezash uchun oliy himmatining borini sarf qildi va u

buzrukvorning harakati bekor ketmadi, buning natijasida uning o'g'li izzat va kattalik taxtiga o'ltirdi», deb yozgan edi.

She'riyatga ixlosmandlik yosh Alisherda juda erta, 3–4 yoshligidayoq boshlangan. Alisher unib – o'sayotgan oilada tez-tez she'riyat muxlislari yig'ilishib, g'azalxonlik kechalari o'tkazilib turilar edi. Alisherning otasini «Kichik baxshi» taxallus bilan nomlashlari ham bejiz bo'lmagan. U ko'plab she'rlarni yoddan bilar, adabiy majlislarda faol ishtirok etardi. Shuningdek, yosh Alisherda adabiyotga ixlosmandlikni uning tog'alari, o'z davrining taniqli shoirlari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar ham uyg'otishgan. Ular turkiyda ko'proq she'r bitishar, shubhasiz, bu hol yosh Alisherda o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatni yuksalishida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Otasi Alisherni to'rt yoshdan o'tgandan so'ng maktabga beradi. Maktabda Alisher bo'lg'usi Xuroson podshohi Husayn Boyqaro bilan birgalikda tahsil oladi.

1447-yil Shohrux o'limidan keyin, toj-u taxt uchun kurashlar davri boshlangan bir vaqtda G'iyosiddin Muhammad oilasini olib Iroqqa yo'l oladi. U yerdagi Taft qishlog'ida olti yoshli Alisher o'z davrining yirik tarixchisi, mashhur «Zafarnoma» asarining muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Keksa olimga Alisherning zehn-zakovati ko'p ma'qul keladi. 1451-yili Xurosondagi hokimiyat tepasiga Shohruxning nevarasi, Boysung'ur Mirzoning o'g'li Abulqosim Bobur keladi (1451–1457). Xuroson yerlarida nisbatan tinchlik va osoyishtalik o'rnatilgach, Alisherlar xonadoni Hirotga qaytib kelishadi. Abulqosim Bobur tez orada G'iyosiddin Muhammadni Sabzavor hokimi lavozimiga tayinlaydi. Alisher yana Hirotta tahsilni davom ettiradi. U maktabdagi o'qish davrida diniy kitoblar bilan bir qatorda, o'tgan mashhur shoirlar asarlarini ham sevib mutolaa qiladi. Xususan, Shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlarini, ayniqsa Farididdin Attorning «Mantiqut-tayr» dostonini berilib o'qiydi. Alisher yuqorida nomi qayd etilgan 4–5 ming misrali dostonni butkul yod oladi, bu esa uning noyob va o'tkir qobiliyat egasi bo'lib shakllanayotganligidan darak berar edi.

Alisher otasi Sabzavor hokimi G'iyosiddinning ko'magi bilan o'sha yerlik kekse sarbador shoir Mir Shohiy bilan ham xat yozishib turadi. Navoiy 12 yoshlarga yetganida otasi hayotdan ko'z yumadi. Otadan yosh yetim qolgan Alisher Xuroson sultoni Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi va bu yerda Husayn bilan birgalikda xizmat qila boshlay-

di. Abulqosim Bobur adabiyot va san'atni sevar, o'zi ham turkiy va forsiyda g'azallar yozib turardi. Sulton Alisherga ijobiy munosabatda bo'ldi, uning o'tgan ajdodlari haqida yaxshi xabardor bo'lgani bois, yosh o'spirinning tahsilni davom ettirishiga keng yo'l ochib berdi.

Alisher o'sha davr an'analariga ko'ra boshlang'ich bilimlarni fors tilidagi manbalardan olgan. O'sha davr saroy ahli, zodagonlar aksariyat fors tilida so'zlashishar, turkiy tilni esa nazarlariga ilmas edilar. Avval o'z g'azallarini an'anaviy ravishda fors tilida yozgan Alisher vaqt o'tishi bilan tafakkur doirasi kengayib, o'z ona tili boyligi, uning beqiyos imkoniyatlarini anglab yeta boshlaydi. O'n besh yoshga yetgan Navoiy ham forsiy ham turkiyda she'r, g'azal bita oladigan «zullisonayn» shoir sifatida ancha tanilib qoladi. O'z vaqtida Mavlono Lutfiy ham bu 15–16 yoshli o'spirin shoirning turkiy tildagi ikki misrali g'azaliga juda yuqori baho bergan edi. Hirotning taniqli zotlaridan biri bo'lgan Sayid Hasan Ardasher ham Navoiyga homiylik qilib, uni ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Navoiy hamma vaqt Ardasher-ning bu olijanob sa'y-harakatlarini chuqur mamnuniyat hamda hurmat ila yodida saqlaydi.

1456-yil oktabr oyi boshlarida Abulqosim Bobur o'z qarorgohini Xurosonning yana bir katta shahri – Mashhadga ko'chiradi. Alisher va Husayn ham sulton bilan birga jo'nab ketishadi. 1457-yil bahorida Sulton Abulqosim Bobur vafot etadi. Xurosonda yana toj-u taxt uchun kurashlar davri boshlanadi. Alisherning maktabdosh do'sti shahzoda Husayn Boyqaro ham hokimiyat uchun kurashlar domiga tortiladi. Bu davrda onasidan ham ayrilgan 16 yoshli Alisher Navoiy Mashhadda qolib, Mashhad madrasasida tahsilni davom ettirishga qaror qiladi.

Tahsil vaqtida Navoiy bir tomondan, faqirlik va g'ariblikni bosidan kechirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko'plab asarlarni o'qib o'rgandi, o'z bilim darajasi, dunyoqarashini kengaytirdi.

Navoiy faqat 1464-yildagina Hirotga qaytadi. Alisher o'z otasidan qolgan mol-mulkka umid qilgan holda ijodini davom ettirish niyatida edi. Bu paytda Sulton Abusaid Mirzo (1451–1469) poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko'chirgan, Hirotga o'ziga nomaqbul kishilarni jazoga muhtalo qilib turgan bir vaqt edi. Navoiyning ota-onasidan qolgan uy-joy, mol-mulk sulton ko'rsatmasi bilan davlat hisobiga o'tkazib yuborilgan edi. Yosh shoir yana muhtojlik domiga tortilish yoqasiga tushib

qoladi. Buni ustiga hukmdor Alisherning Hirotga kelishini xushlamay, uni juda sovuq qarshilaydi. Ta'kidlash joizki, buning o'ziga xos sabablari mavjud edi:

– birinchidan, Alisher Husayn Boyqaroning yaqin do'sti bo'lib, Husayn esa, o'z navbatida bir necha yillardan beri Abusaidga qarshi toj-utaxt masalasida kurash olib bormoqda edi;

– ikkinchidan, Navoiyning tog'alari Mir Said Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiyar Husaynning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, Abusaid Mirzo ularni ushlab olib qatl ettirgan, bu esa tabiiyki, Alisherda sultonga nisbatan nafrat o'tini kuchaytirgan;

– uchinchidan, Abusaidning mamlakatda yuritayotgan qonxo'r siyosati, qator temuriylarni arzimagan bahona bilan qatl etishi, Navoiyning do'sti, Badaxshon shohi shoir La'liy va uning o'g'lini o'ldirilishiga Navoiy xotirjam qarab tura olmas edi;

– to'rtinchidan, Abusaidning talonchilik siyosati, mehnatkash xalq ommasi bo'yniga og'ir soliqlarning osilishi, jabr-zulm, zo'ravonlik, nohaqlikning kuchayishiga insoniylik g'oyalari sodiq Navoiy beparvo qarab turmasdi. Undan tashqari, sulton ilm va san'at kishilarini xushlamagan ham edi. Alisher Navoiy o'zining quyidagi qit'asida Abusaidni nazarda tutgan bo'lishi kerak:

*Jahon ganjiga shoh erur ajdaho,
Ki o'tlar sochar qahri hangomida
Aning nomi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida.*

Hirotida ikki yil faqirlik bilan hayot kechirgan Navoiy 1466-yil shaharni tark etib, Samarqand tomon yo'l oladi. Uning Samarqandga kelishidan maqsadi ilm olishni davom ettirish hamda o'z malakasini oshirish bo'lgan. Samarqand bu davrda hanuz ilm va madaniyat markazi rolini o'ynar, bu yerda ilm o'rganish maqsadida uzoq-yaqindan ko'plab tolibi ilmlar tashrif buyurishar edi. Samarqandda Alisher Navoiy mashhur olim Xoja Fayzulloh Abulays madrasasida tahsil oladi. Shoirni samarqandlik taraqqiyparvar zodagon Ahmad Hojibek o'z himoyasiga olib, unga katta moddiy ko'mak berdi. Xoja Fayzulloh Abulays Navoiyning o'tkir zehniga tan berar, uni boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatar edi. Navoiy Samarqandda nafaqat tahsil olish bilan shug'ullandi, balki sha-

harlik kosib va hunarmandlar bilan ham yaqin munosabatlarni o'rnatdi. Bu xususda u o'zining «Majolis un-nafois» asarida to'xtalib, ushbu hunarmandlar she'riyat ixlosmandlari bo'lganliklarini ham ta'kidlab o'tadi. Navoiy Samarqand siyosiy hayotida ham qatnashib, asir tushgan Husayn Boyqaro askarlarini bir necha bor o'limdan saqlab qoladi.

Navoiy Abulqosim Bobur saroyida olgan davlat ishlaridagi ko'nikmasini Samarqandda yanada oshirdi. Bu esa o'z navbatida uning keyingi siyosiy faoliyatida juda asqotdi. Shoir ijodiy faoliyatida ham Samarqandda kechgan davri shubhasiz katta iz qoldirdi. 1469-yil bahorida Sulton Abusaid Mirzo Ozarbayjonga qilgan harbiy yurishi vaqtida o'ldirildi. Mazkur vaziyatdan foydalangan Sulton Husayn Boyqaro 1469-yil 24-martida Hirotga kirib kelib, o'zini Xuroson podshohi deb e'lon qildi. Taxtni egallagan Husayn Boyqaro tezda Movarounnahrning yangi hukmdori Sulton Ahmadga (1469–1494) rasmiy noma («Manshur») yo'llab, Navoiyni Hirotga qaytishiga monelik qilmaslikni so'raydi. Bu paytga kelib Alisher Navoiy xalq orasida o'z she'rlari, aql-u kamoli bilan ancha tanilib qolgan, sulton esa Alisherni yoshlikdan bilar, uning aqlu-farosati, halolligi va sof vijdonligi, rostgo'yligi, noyob qobiliyat egasi ekanligini juda qadrlar edi. Qolaversa, yangi hokimiyatga kelgan hukmdor uchun tayanishi mumkin bo'lgan sadoqatli shaxslar juda zarur bo'lgan. Navoiyning har bir so'zi, qadami soflik, halollik, samimiyluk bilan yo'g'rilganligini uni bilgan har bir inson tasdiqlar edi. Sulton hech bir ikkilanmay Navoiyni muhrdor lavozimiga tayinlaydi. Endilikda Navoiy mas'ul shaxs sifatida davlatning barcha hujjatlari-rasmiylashtirib, muhr bosar edi. Umuman olganda, rasmiy jihatdan Navoiy uch marotaba turli darajadagi lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan. Bular quyidagilar bo'lgan.

1. Muhrdor lavozimida – 1469–1472-yy.
2. Vazir lavozimida – 1472–1476-yy.
3. Astrobod hokimi lavozimida – 1487–1489-yy.

Alisher Navoiy endilikda mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yetuk davlat amaldori sifatida ham rol o'ynay boshlaydi. 1469-yil oxirlarida Sulton Husayn taxtga da'vogar boshqa temuriy shahzodalarga qarshi kurashib turgan bir vaqtda Hirotida amaldorlar jabr-zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlandi. Sulton ushbu qo'zg'olonni bartaraf qilish vazifasini Navoiyga topshiradi. Alisher Navoiy sultondan xalq talablari ino-

batga olinishi, zulmkor amaldorlar jazolanib, adolat o'rnatilishi xususidagi farmonni olishga muyassar bo'lib, to'g'ri Hirotga jo'naydi. Navoiy Hirot Jome masjidi minbaridan turib adolat o'rnatilishi haqidagi sulton farmonini o'qib eshittiradi. Aybdorlar jazoga tortilib, poytaxtda tartib-intizom o'rnatiladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning oqilona maslahatlari, taklif qilgan rejasi hamda shaxsiy jasorati tufayli sultonning raqibi temuriyzoda Yodgor Muhammad mahv etilib, qo'lga olinadi. Mazkur voqealardan so'ng har qanday xavfli vaziyatda ham sultonga sodiq, kuchli va markazlashgan davlat, adolatli shoh hukmronligi tarafdori bo'lgan Alisher Navoiyning xalq, mamlakat ichidagi obro'-e'tibori yanada ko'tarilib ketadi. Aynan muhrdor lavozimida turgan Navoiy Hirotni o'rta asr musulmon sharqi madaniy markaziga aylantirish xususidagi bor imkoniyatlarini ishga sola boshlaydi. Sulton ham Navoiyga juda tayanar, uning sa'y-harakatlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlar edi.

Navoiy ijodkor shaxs bo'lgan, shu bois ham saroydagi lavozim unga ijod qilishga imkon bermas edi. Shuning uchun ham u muhrdorlik lavozimidan iste'foga chiqishga oxiri sultonni ko'ndiradi.

Lekin oradan bir oy o'tar-o'tmas, 1472-yilning fevralida sulton Navoiyning qarshiligiga qaramay uni vazir etib tayinlab, shoirga «Amiri kabir» («Buyuk amir») unvonini beradi¹.

Alisher Navoiy tegishli hujjatga podshoh va amir Muzaffar Barlosdan keyin o'z muhrini qo'yishga haqli edi. Xondamir o'zining «Makorim ul axloq» asarida bu boradagi qiziq voqeyelikni misol qilib keltiradi. Hukmdorning birinchi taqdim etilgan farmoniga Alisher Navoiy o'ta kamtarlik yuzasidan shunday muhr bosadiki, undan quyiroqda hech kim muhr bosa olmas edi. Hamma vaqt turli fitna va mish-mishlar o'chog'i bo'lgan saroy ahli Navoiyning bu harakatidan lol bo'lib qoldi.

Alisher Navoiy tabiiyki, yuqori ma'lumotli zot bo'lib, u o'z vaqtida Mashhad va Samarqandning nufuzli madrasalarida ta'lim ko'rgan, davlat boshqaruvi xususida yetarli ma'lumotga ega bo'lib, arab va fors tillarini mukammal egallagan, Qur'oni karimni yod bilgan, islomiy bilimlarga ega, naqshbandiya tariqatiga mansub inson bo'lgan. Albatta bularning barchasi uning davlat boshqaruvidagi faoliyatida juda asqot-

¹ Amiri kabir unvoni shoir umrining oxiriga qadar saqlanib qoldi.

di. Navoiy vazir sifatidagi maqomida barcha ishlarga aralashishi uchun katta haq-huquqlarga ega edi. Shu bois ham eng murakkab va muhim masalalarni ham o'zi hal qila olgan.

Bu paytda Navoiy kechani-kecha, kunduzni kunduz demay ijodni ham, shaxsiy hayotini ham orqaga surib, butun kuch-g'ayratini davlat ishlariga sarf qildi. O'z vazirlik yillari haqida shoir «Hayratul abror»da shunday deb yozgan edi:

*Kim bor edi boshima ko'p mehnatim,
Yo'q edi bosh qoshig'ali fursatim.*

Navoiy huzuriga keluvchi arzdor, shikoyatchilarning keti uzilmas, har bir shikoyat sinchiklab tekshirilar, aybdorlar esa tegishli jazolarini olishardi. Navoiy talonchilik, zulm-zo'ravonlikka qarshi qat'iy kurash olib bordi. U o'zining «Vaqfiya» asarida ko'p hollarda sultonga xabar bermay ham muhim masalalarni hal qilganini yozadi. «Iligimdan kelgancha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatiga intiqom malhamini qo'ydim», deya yozgan edi shoirning o'zi.

O'z ishlarini aksariyat insof va adolat, to'g'rilik va halollik bilan yechib, doimiy ravishda mazlumlar va g'ariblar tomonida bo'ldi. Bunda Navoiyning buyuk insonparvarlik jihati yaqqol aks etdi. Alisher Navoiy bir vaqtning o'zida tom ma'nodagi bunyodkor shaxs ham bo'lgan. Bu ishga u butun hayoti, moddiy daromadlarini sarf etdi. Alisher Navoiyning tashabbusi va shaxsiy rahbarligi ostida Hirotida «Ixlosiya» madrasasi qurilib, unga o'z davrining eng yetakchi mudarrisleri jalb etildi. Madrasaning janubiy tomonida beva-bechoralar, darvesh, so'fiylar uchun katta «Xalosiya» xonaqohi, madrasaning g'arbiy tomonida esa «Shifoia» nomli tibbiyot markazi qurildi. Zamonasining ko'plab mashhur tabiblari shu shifoxona ishiga jalb etildi.

«Ixlosiya» madrasasining yaqinida katta Jome masjidi, uning yonida bir gumbaz barpo etildi. Bu gumbazga «Dorul-huffoz» («Qorilar uyi») deb nom berildi. Undan tashqari, Navoiy Hirot ichida «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» madrasalarini, jami poytaxt va Xurosonning boshqa shaharlari va hududlarida 20 dan ziyod masjid, 10 dan ziyod xonaqoh, 20 ga yaqin suv hovuzi, 16 ta ko'prik, Mashhadda katta suv kanali, 2 ta suv to'g'oni, ko'plab boshqa inshootlar barpo ettirdi.

Manbalarda Navoiy mablag'lariga qurilgan inshootlar soni 300 dan ziyod, deb ko'rsatiladi. Tarixchi Xondamir bunday inshootlarning 100 dan ortig'ini shaxsan o'z ko'zi bilan ko'rganini yozsa, Xotifiy Navoiy bunyodkorligi inshootlari sonini 373 ta deya ko'rsatadi. Shubhasiz, Navoiy badavlat inson bo'lib, sulton tomonidan unga katta yer-suv mulklari suyg'ol tarzida in'om etilgan edi. Undan olingan daromadlarni esa yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy deyarli barchasini bunyodkorlik, qurilish, obodonchilik, xayr-saxovat ishlariga sarf etgan. Alisher Navoiy Hirotida boy kutubxona tashkil qiladi. Unda 70 dan ortiq kotib, naqqosh, xattotlar kitob ko'chirish, unga ziynat berish bilan shug'ullanishgan.

Navoiy shahardagi suv ta'minotini yaxshilash borasida ma'lum ishlarni amalga oshirdi. Hirotning Ko'shki Marg'ani degan joyida bog'rog'lar ham barpo ettirdi. Navoiy saxovatpesha inson bo'lib, Xondamirning xabariga ko'ra har yili «Xalosiya» xonaqohida beva-bechoralarga 2000 nafar kiyim-bosh tarqatgan. Alisher Navoiyning mamlakat va xalq taraqqiyoti yo'lidagi bunday olijanob ishlari xalq orasida uning obro'e'tiborini behad ko'tarib yubordi. U xalq ommasi ichida buyuk davlat arbobi sifatida tanilib, «Buyuk amir», «Amiri ravshan zamir» taxalluslari bilan keng shuhrat topdi.

Alisher Navoiy tom ma'nodagi ijodkor inson bo'lib, saroydagi vazirlik lavozimi uning ijod bilan mashg'ul bo'lishiga to'sqinlik qilardi. Shu bois u 1476-yili sultondan iste'foga chiqishni qattiq turib iltimos qildi. Navoiy vazirlik lavozimidan ketganidan so'ng ham mamlakatdagi eng nufuzli siyosiy arbob bo'lib qolaverdi. U Hirot chekkasida joylashgan Gozurgoh degan joyni uning ixtiyoriga berishni, haj qilmagani bois shu yerni obod qilmoqchi ekanligini bayon etib sultonga murojaat qildi. Bu yerda mashhur shayx Abdulloh Ansoriy qabri ham bor edi.

Navoiy Gozurgohga suv chiqarib, uni obod qildi, qator jamoat inshootlarini qurdirdi. Natijada 30 tanoblik bu hudud tez orada Hirotning eng obod maskanlaridan biriga aylandi. El-yurt farovonligini o'ylagan Navoiy o'z daromadlarining aksariyat qismini xayriya ishlariga sarflaydi. Uning bunyodkorlik faoliyati umrining oxiriga qadar davom etgan. Yurt obodligi, mamlakat farovonligi uchun har bir inson daxldor va mas'uliyatli ekanligini ta'kidlagan shoir shunday deb yozgan edi:

*Odamiy dersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Ta'kidlash joizki, Navoiy vazirlik lavozimini egallab turganida va undan keyin ham hamma vaqt zamonasining ilg'or kishilari, fan, adabiyot, san'at ixlosmandlarini ham moddiy ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladi. Mamlakat ahlini madaniyatli va ma'rifatli etish uchun bor kuch-g'ayrati, qobiliyati, sa'y-harakatini ayamadi. U nafaqat Hirot va Xurosondan kelgan ilm va san'at ahliga, balki Movarounnahr-dan kelgan shu soha vakillariga ham boshpana berib, homiylik qildi. Shu paytda Hirot va umuman, Xuroson davlati madaniy hayotida eng ko'zga ko'ringan arbob – bu Abdurahmon Jomiy bo'lgan (1414–1492). Jomiy fors-tojik adabiyotining zabardast vakili, olim va mutafakkir edi. Navoiy Jomiyni o'ziga pir va ustoz deb bilib, uning ijodini qo'llab-quvvatladi, hamma vaqt bu ulug' ustoz shoirga homiylik qilib, uni ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab keldi.

Navoiyning ko'magi hamda qo'llab-quvvatlashi, homiyligi ostida Hirotida Shayxim Suhayliy, Ataulloh Mahmud Husayn, Husayn Jaloir, Muhammad Solih Ahliy, Ohiy, Osaifiy, Hiloliy, Binoiy, Xotifiy, Mir Husayn Muammoiy, Sayfi Buxoriy, Abdullohiy, Mulla Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badeiy kabi o'nlab shoirlar, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Muiniddin Isfizoriy, Sohob Doro, Kamoliddin Binoiy va boshqa muarrixlar, Sulton Ali Mashhadiy, Mirali, Abdujamil singari mohir xattotlar, «Sharq Rafaeli» deb Yevropada tanilgan, go'zal miniatyuralar sohibi, rassom Kamoliddin Behzod, rassomlar Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, mohir sozanda va musiqachilar Xoja Yusuf Burhon, Mavlono Alishoh, Xoja Abdulloh Marvarid, Shayxi Noyi, Qulmuhammad Udiy, Mirmurtoz, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy kabi musiqa san'ati ustalari yetishib chiqdilar. Navoiy ularning barchasiga mehribon ustoz va murabbiy bo'lgan.

Alisher Navoiy qomusiy qobiliyat egasi bo'lib, shoirlar bilan adabiyot tilida, olimlar bilan ilmiy yo'sinda, musiqachilar bilan musiqa bobida gaplasha olgan. Xondamirning ma'lumotiga ko'ra Navoiyning tashabbusi va ko'magi ostida o'nga yaqin tarixiy asarlar yozilgan. Xususan, taniqli tarixnavis olim Mirxond to'liq ismi Mir Muhammad ibn Sayid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoliddin Mahmud al-Balxiy),

1433–1498 ning yetti jilddan iborat mashhur «Ravzat us-safo siyrat ul-anbiyo val muluk val xulafo» («Payg‘ambarlar, podsholar va xalifalarning tarjimai holi haqida poklik bog‘i») asarining tashabbuskori ham Navoiy bo‘lgan. Keyinchalik Navoiy kutubxonasining mudiri bo‘lgan Xondamir (to‘liq ismi G‘iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomuddin ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Burhoniddin, 1473–1534) Navoiyga minnatdorchilik tariqasida yozgan «Makorim ul axloq» («Olijanob sifatlar egasi») asarida aynan mazkur davrda 40 ga yaqin shaxsning buyuk shoirga bag‘ishlab yozilgan asarlar nomini sanab o‘tadi. Bu davrda turkiy (o‘zbek) tili maqomini oshirish borasida Navoiy sa’y-harakatlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U hamma vaqt o‘z ona tilisining go‘zalligi va betakrorligini ta’kidlab, adabiy hayotda uning o‘rni va qadrini yuk-saltirish uchun harakatlarini ayamadi.

Alisher Navoiy ilk bora o‘zga shoirlardan farqli ravishda turkiy til-da 1483–1485-yillarda beshta dostonidan iborat «Xamsa» asarini yozdi. Shu paytga qadar hali hech kim turkiy tilida «Xamsa» yozmagan edi. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylar tomonidan yozilgan «Xamsa» forsiy tilda bo‘ladi. Alisher Navoiy turkiy tildagi «Xamsa» asari bilan ona tili mavqeyini yana bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarishga muvaffaq bo‘ldi.



Hirot shahri. Qadimiy qal’a xarobalari.

Umuman olganda, buyuk shoir qalamiga mansub 20 dan ziyod yirik asarlar mavjud. Ular orasida «Xazoyinul maoniy», «Lisonut tayr», «Mahbubul qulub», «Majolisun nafois», «Munshaot», «Muhokamatul lug'atayn», «Mezonul avzon» va boshqalar katta ahamiyat kasb etadi. Navoiy asarlari tarixiy, falsafiy, axloqiy mezonlarni o'z ichiga olib, ularda insoniyatga xos bo'lgan barcha ijobiy fazilatlar ulug'lanadi. Navoiy o'z asarlarida Vatanga, tug'ilib o'sgan yeriga nisbatan buyuk muhabbatni kuylaydi, muhabbat va sadoqat, halollik va poklik, do'stlik va hamkorlik, ezgulik va adolat kabi o'chmas g'oyalarni tarannum etadi. Buyuk mutafakkir insonlarni o'zaro mehr-oqibatli, insof-diyonatli, bag'rikeng, olijanob, mehnatsevar bo'lishga chaqirib, aynan yuqori axloqiy sifatlariga ega bo'lgan insongina mamlakat ravnaqiga bevosita hissa qo'shishi mumkinligini, har bir kishi o'z axloqi va odobi ila jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishi mumkinligini uqtirib o'tadi. Ilm olishga intilmak, xat-savodli bo'lish, o'z halol mehnati, pok qalbi bilan umr kechirish haqidagi ezgu fikrlar uning asarlaridan keng joy olgan.

Astrobod saltanatining g'arbiy chegaradosh qismida joylashgan viloyat bo'lib, u ko'p jihatdan strategik ahamiyat kasb etardi. Astrobod muhim savdo-iqtisodiy markaz bo'lib, chet el bilan savdo munosabatlarida muhim rol o'ynar edi. Shu bois ham Astrobodga faqat taxt vorisi yoki sultonning eng yaqin kishisigina hokim bo'lishi mumkin bo'lgan.

Shu vaqtda O'rta Sharqdagi ancha notinch siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda sulton 1487-yili Alisher Navoiyni Astrobod hokimi lavozimiga tayinlaydi. Sulton Alisher Navoiyga xos diplomatik kelishuv mahoratini hisobga olgan, qolaversa buyuk shoirning yuksak obro'-e'tibori chegara viloyatida qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarda ko'plab muammolarni yechishi mumkin edi. Husayn Boyqaro bu mulohazalarni ham esdan chiqarmadi. Tabiiyki, uzoq Astrobodga hokim sifatida borish Navoiyga ma'qul emas edi. Lekin sultonning qat'iy hukmiga bo'ysungan holda u hokimlik lavozimini qabul qildi. Astrobod xalqi esa Navoiyni katta mamnuniyat bilan kutib oldi.

Alisher Navoiydek obro'-e'tiborli siyosiy arbobning hokim etib tayinlanganligini eshitib avval sultonga ancha muammo tug'dirib turgan Jurjon va Mozandaron hokimlari unga o'z ixtiyorlari bilan tobe bo'ldilar. Turkmanlarning Oq-Qo'yunlilari hokimi Sulton Yaqubbek Navoiy huzuriga o'z sovg'alarini jo'natdi. Iroq va Ozarbayjon hukm-

dorlari esa Navoiy huzuriga o'z elchilarini jo'natib, Sulton Husayn davlati bilan do'stona munosabatlarni tiklashlarini ma'lum qildilar.

Navoiy Astrobodda haddidan oshgan amaldorlarni jazoladi, xalq turmush sharoitini yaxshilash borasida qator chora-tadbirlar ko'rdi, talonchilik, bedodlik, zulm-zo'ravonlikka chek qo'ydi. U o'z asarlarida tasvirlagan adolatli hokim darajasini aynan Astrobodda ishga soldi. Astrobodda Navoiy tomonidan saroy va masjid, hammom, suv to'g'oni, ko'prik va boshqa jamoat inshootlari qurdirildi. Xondamir Navoiyning Astroboddagi faoliyatiga to'xtalib, u hududni aylangani chiqqanida o'zi bilan ma'lum miqdorda pul olib yurishni buyurib, bechorahol kishilarga xayr-saxovat ko'rsatganini alohida ta'kidlaydi.

Navoiyning ona shahri, do'st-u-birodarlari, madaniy markazdan uzoqdaligi shubhasiz, unga og'ir ta'sir ko'rsatdi. Sulton saroyida avval Majdiddin, so'ngra Nizomulmulk singari vazirlar Navoiyni markazdan uzoqda bo'lishini, o'z ta'sirini sultonga o'tkazmasligini xohlashar edi. Ular qolaversa hukmdorni Navoiyga nisbatan ishonchini pasaytirishga ham harakat qilishardi. Afsuski, ba'zida ushbu muxolif kuchlarning harakati Navoiy bilan sulton o'rtasida tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishiga ham sabab bo'ldi. 1489-yili Navoiy sultonga Hirotga qaytishi xususida ruxsat so'rab murojaat qildi.

Poytaxtga qaytib kelgan Navoiy saroydagi g'anim kuchlarni yana bir karra ajablantirib, barcha rasmiy lavozimlardan voz kechishi haqidagi istagini bildirdi. Sulton buni inobatga olsada, lekin Navoiyni butkul mamlakat siyosiy hayotidan chetda turishini istamas edi. Shu bois ham unga «Muqarrabi hazrati sultoni» («Hazrati sultonning eng yaqini») degan faxrli unvonni berdi. Ushbu unvon garchi shoirga hych qanday mas'uliyat yuklamasa-da, lekin u saroy ahli va umuman barcha ahli Xurosondan Navoiyga nisbatan ulkan hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishni talab etar edi. Alisher Navoiy o'zini ijodga bag'ishlaydi. Uning ko'plab sara asarlari ham aynan 1490–1501-yillarda yaratilganligi ham bejiz emas.

Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro munosabatlari haqida to'xtalganda shuni ta'kidlash lozimki, sobiq sovet davrida shoh va shoirni odatda bir-biriga qarshi qo'yish, «ularning orasida dushmanlik bo'lgan» degan xulosa chiqarish fikri ustun bo'lgan. Tarixiy manbalar o'z navbatida bunday yondashuvni aksariyat rad etadi. Sulton Husayn

Boyqaro o'zining «Risola» deb nomlangan asarida Alisher Navoiy haqida juda iliq va samimiy munosabatini talqin qiladi.

Alisher Navoiyni sulton hamma vaqt qo'llab-quvvatlagan, unga katta yer-suv mulklarini in'om etgan, shoir qanday lavozimni egallamasin, uning iltimos-u takliflari aksariyat yerda qolmagan. Zayniddin Vosifiy sulton bilan Navoiy o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalganda qiziq bir voqyeani misol tariqasida keltirgan. Alisher Navoiy o'zining o'zbek (turkiy) tilidagi «Xamsa» asarini tugatib, sulton ixtiyoriga taqdim etganida, Boyqaro shoirdan so'radi: «Endi kim pir eruri, kim murid?». Navoiy esa: «Pirning ko'ngli bilan muridning ko'ngli hamohangdir», deya aqlli javob qaytaradi. Shunda sulton uni o'zining oq otiga o'tkazib, otning jilovini ushlagan holda bog'ni aylantiradi. Bu, o'z navbatida sultonning Alisher Navoiyga bo'lgan ulkan ehtiromining yana bir isboti edi. Alisher Navoiy taqvodor musulmon, naqshbandiya tariqati vakili sifatida shubhasiz hajga borishni ham maqsad qilib qo'ygan edi. U 1481-yildayoq sultondan hajga yuborishga ruxsat berishni so'rab murojaat qilgan edi.

Xondamir o'zining «Habib us-siyar» asarida yozishicha, sulton agar Navoiy mamlakatni tark etsa, u davlat tayanchlaridan biri hisoblangani bois salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin, deya rad javobini beradi. Navoiy o'z iltimosini oradan 17 yil o'tganidan so'ng ikkinchi marotaba takrorlaydi. Bu paytda sulton o'g'li shahzoda Abulmuhsin Mirzo isyonini bostirish maqsadida Marvda turgan edi. Sulton endi qat'iy tarzda rad javobini bermay, balki Navoiyning xavfsizligini, xorijdagi yo'llar ancha xatarli bo'lib qolganligini ta'kidlagan holda, Mirxondning yozishicha, «Safar uzoqqa cho'zilishini va kelgusida yana diydor ko'rishish nasib etadimi, yo'qmi», deya maktubini yakunlaydi. Navoiy bunday murakkab siyosiy holatda mamlakat va hukmdorni o'z ixtiyoricha tashlab ketolmas edi. Shu bois hajga atalgan pulning bir qismini shayx Ansoriy maqbarasiga, qolganini esa oddiy askarlar ichida tarqatib yuboradi.

Alisher Navoiy ko'p holda sulton va uning isyonkor o'g'illari — shahzodalar bilan o'zaro munosabatlarida doimiy ravishda vositachilik qilib, ularni yarashtirishga muvaffaq bo'ldi. U hamma vaqt, davlat, xalq manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishni, o'zaro nizo-parokandalik qudratli davlatni ichdan yemirishini shahzodalarga qilgan pand-u nasihatlarida bot-bot takrorlar edi. U hatto Majdiddin-

ning riyokorligiga chidamagan ukasi, Balx hokimi Darvesh Ali bosh ko'targanida ham o'z inisini vazminlik va aql-farosatga chaqirdi. Alisher davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ydi.

Alisher Navoiy sultonning o'g'illari bilan bo'lgan o'zaro nizolarni tinchlik yo'li bilan yechishga muyassar bo'lar edi. Bu hol katta o'g'il Badiuzzamon Mirzo bilan bo'lgan nomutanosiblikda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Alisher Navoiy toj-u taxt uchun boshlangan kurashlardan qattiq iztirobga tushar edi. 1488-yili ustozi Hasan Ardasherining, 1492-yili piri, ustozi hamda eng yaqin do'sti Abdurahmon Jomiyning, 1493-yili murabbiysi hamda do'sti Pahlavon Muhammadlarning vafotlari, 1496-yili Sulton Husaynning nevarasi, Navoiyning suyuqli shogirdi Mo'min Mirzoning o'ldirilishi Navoiy qalbiga tuganmas jarohat bo'lib tushdi. Endilikda u asosiy vaqtini ijodga bag'ishladi. Alisher Navoiy har qanday og'ir vaziyat bo'lishiga qaramay, hamisha sog'lom fikrga tayanish, el-yurt, xalq manfaatlarini himoya qilish, markazlashgan kuchli davlat, adolatli hukmdor haqidagi g'oyalarga sadoqatli bo'lib qoldi.

Ta'kidlash zarurki, Sulton Husayn davrida birorta ham xalqaro doirada jiddiy kelishmovchilik, urushlar bo'lgani yo'q. Davlatning xalqaro maydonda munosib o'rinni egallashida shubhasiz Navoiyning ham katta hissasi bor edi. U 1490-yili Moskvaga o'zaro do'stlik haqidagi sulton elchilarini jo'natishni butkul qo'llab-quvvatlaydi. Navoiy o'z ijodi, qarashlarida hamisha xalqlar, davlatlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik rishtalarini bog'lash tarafdori bo'lgan. Xususan, o'z g'azallaridan birida u shunday deya yozgan edi:

*Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlik,
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish!*

1498–1499-yillarda Navoiy yana bunyodkorlik va qurilish ishlariga bosh-qosh bo'ldi. Bu paytda Hirot bosh Jome masjidi ancha xarob holga kelib qolgandi. Xondamirning yozishicha, Navoiy shaharning eng ko'zga ko'ringan me'mor va muhandislarini to'plab, bir necha yilda bitadigan ishni bir necha oy davomida tugalladi. Bir vaqtning o'zida Gozurgoh hududidagi obodonchilik ishlari davom ettirildi. Xuroson shaharlaridagi ta'mirga muhtoj 12 tadan ko'p masjid, minora, rabot va boshqalar ta'mirlanib, ular ham asl holiga qaytarildi. Navoiy tomonidan

ta'mirlangan Jome masjidi hozirgi kunga qadar Hirotning go'zal tarixiy inshootlaridan biri hisoblanadi.


Ulug' shoir va mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda Hirotda vafot etdi.

Ta'kidlash joizki, Alisher Navoiy shaxsining o'zi barkamol, komil inson qiyofasi uchun buyuk ramzdir. Alisher Navoiy o'z umri va ijodini xalq osoyish-taligi va farovonligi, davlat ravnaqi va obodligi, madaniyat, fan, adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi.

Jahon ahli Navoiyni nafaqat ulug' shoir va davlat arbobi, balki buyuk insonparvar shaxs, qomusiy olim, betakror so'z san'atkori, Gomer, Nizomiy, Shota Rustaveli, Shekspir, Balzak, Pushkin, To'lstoy, Tagor kabi adabiy dunyo daholari qatoridan joy olganligini e'tirof etadi. Jahonning qaysi davlatida bo'lmasin ilm-fan, madaniyat ahli, qolaversa, keng xalq ommasi Navoiy nomini yuksak ehtirom bilan tilga oladi. Moskva, Tokio, Boku shaharlarida ushbu mutafakkirga haykallar o'rnatilganligi, asarlarining o'nlab jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganligi yuqorida-gi fikrning tasdig'idir.

Ulug' shoirning o'lmas merosini o'rganish mustaqillik yillarida o'zining mohiyatan haqiqiy darajasiga chiqdi, ulug' shoirning barcha asarlari qayta chop etildi, buyuk mutafakkir va shoir hayoti hamda faoliyati yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirildi, qator kitoblar chop etildi. 2016-yili Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. O'lkamizda Navoiyning ulug' nomini bilmagan, uning g'azallarini o'qimagan kishi yo'q. Xalqimizning Alisher Navoiy buyuk nomiga yuksak hurmat va ehtiromi Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning **«Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir»**, degan so'zlarida to'laqonli tarzda o'z ifodasini topgan.

1991-yili Alisher Navoiyning 550 yilligi katta tantanalar bilan nishonlanib, shoirning mahobatli haykali xalqimizning ulug' mutafakkirga bo'lgan buyuk ehtiromining muqaddas ramzi sifatida poytaxtimizning markazida qad ko'tardi.



Hirotda Alisher Navoiy maqbarasi.

2.6. Zahiriddin Muhammad Bobur – hukmdor va shoir



**Zahiriddin Muhammad
Bobur. (1483–1530)**

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) oʻrta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va sheʼriyatida oʻziga xos oʻrin egallagan adib, shoir, olim boʻlish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan boʻlsa, «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis gʻazal va ruboiylari turkiy sheʼriyatining nodir durdonalari boʻlib, «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti

Boburiy», «Harb ishi», «Aruz haqida»gi risolalari esa islom qonunshunosligi, sheʼriyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa boʻlib qoʻshildi.

Ulugʻ shoir, davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Fargʻona ulusining hokimi Umarshayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Oʻrta Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, temuriyzodalar, amakivachchalar oʻrtasida hokimiyat – Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash keskinlashgan edi.

Adabiyot, nafis sanʼat, tabiat goʻzalligiga yoshligidan mehr qoʻygan Bobur, barcha temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq, uning betashvish yoshligi uzoqqa choʻzilmadi. 1494-yili otasi Umarshayx Mirzo baxtsiz voqea tufayli hayotdan koʻz yumdi. Bobur erta yetim boʻlib qoldi. 12 yoshida otasi oʻrnida Fargʻona ulusining hokimi etib koʻtarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, togʻasi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur boʻldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga – Fargʻona


ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi.

Bu vaqtda Samarqandda Sulton Mahmud Mirzoning ikkinchi o'g'li Boysung'ur Mirzo (1495–1497) hukmronlik qilardi. Bobur kuchli va markazlashgan davlat tuzish maqsadida 7 oylik qamaldan so'ng 1497-yilning noyabr oyida Samarqandni egalladi. Lekin Andijondagi notinch vaziyat uni qaytib ketishga majbur qildi. Ikkinchi marta Samarqand 1500-yil kuzida egallandi. Lekin 1501-yilning aprelida Saripul qishlog'i yonidagi jangda Bobur Shayboniixon qo'shinidan yengildi va Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504-yili Shayboniixon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng Bobur janubga qarab yo'l oldi va shu yilning sentabrida Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi. Bobur Kobulda obodonchilik va bunyodkorlik ishlarini boshlab yuborib, el-yurtning hurmatiga sazovor bo'ldi.

Keyinchalik u ona yurti Movarounnahr-ga qaytishga ham urinib ko'r-di. Xususan, uning 1511-yili Eron shohi Ismoil bilan ittifoqlikda Samarqandni egallashi ham afsuski muvaffaqiyatsiz tugadi. Bu bilan Bobur Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritishi edi. Ma'lum siyosiy sabablarga ko'ra u Eron shohi Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qildi. Boburning chet el qo'shini bilan vataniga kirib kelishi, eroniy-larning shia mazhabiga e'tiqod qilishi, mamlakatdagi og'ir iqtisodiy hayotni jonlantirish uchun tegishli chora-tadbirlarning vaqtida amalga oshirmasligi va boshqalar xalq ommasining noroziligiga sabab bo'ldi. Bunday vaqtda vaziyatdan foydalangan Shayboniixonning o'g'li Muhammad Temur Sulton va jiyani Ubaydulla Sulton Boburga qarshi harakatlarni boshlab yuborishdi. 1512-yil 28-apreldagi Cho'li Malikda bo'lgan jangda Bobur yengilib, Hisorga chekinishga majbur bo'ldi. Shoh Ismoil Boburni qo'llash maqsadida amir Ahmad (taxallusi «Najmi soniy», ya'ni ikkinchi yulduz) boshchiligidagi qo'shinni jo'natdi. Amir Ahmad Movarounnahr-ga kelgach, talonchilik va qirg'in barot urushini boshlaydi. Eron qo'shini G'uzor va Qarshini egallaydi. 1512-yil 28-noyabrda G'ijduvonda bo'lgan jangda Ubaydulla Sulton boshliq shayboniylar Eron qo'shiniga qaqshatqich zarba berdi. Jangda amir Ahmad ham o'ldirildi. Bobur esa Kobulga qaytishga majbur bo'ldi. 1519–1525-yillar davomida Bobur o'z mavqeyini mustahkamlash va kuchli davlat tuzish maqsadida Hindiston-ga qarshi bir necha bor harbiy harakatlar olib bordi.

1526-yil 21-aprelida Panipatdagi jangda Dehli sultoni Ibrohim Lo'diy mag'lub etildi. Shu oyning 27-sanasida esa Dehlida Zahiriddin Muhammad Bobur nomiga xutba o'qilib, u podshoh deb e'lon qilindi. 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Rano Sango bilan bo'lgan jangda ham Boburning qo'li baland keldi. Tarixiy ma'lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Lo'diy siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham uni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish hamda Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 332-yil (1526–1858) davomida hukmronlik qilishdi.

Afsuski, Bobur o'z g'alabasidan keyin uzoq yashamadi. Vatan sog'inchisi, jangu jadallar, ichki iztiroblar uning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bobur 1530-yilning 26-dekabrida 47 yoshida Agra shahrida vafot etdi. Uni avval Jamna daryosi bo'yidagi «Bog'i Orom» degan joyga dafn etishdi. Keyinroq Bobur vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar. Kobuldagi Bobur o'zi asos solgan «Bog'i Bobur»dagi uning qabri ustiga keyinchalik maqbara bunyod etildi.



Dehli. Humoyun Mirzo maqbarasi.

Qisqa vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, parokanda yerlarni birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida keng miqyosda yoyildi. Hindiston san'ati va me'morchiligiga O'rta Osiyo uslubi kirib kela boshladi. Bobur va uning avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarni mujassam etgan ma'naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlar'l Neru shunday deb yozgan edi: «Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, me'morchilikka toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi».

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari «Boburnoma» hisoblanadi. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi – XV asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda ro'y bergan voqealarni, ikkinchi qismi – XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi – XVI asrning birinchi choragidagi shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan.

«Boburnoma»da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, O'rta Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan ko'p tumanlar, viloyatlar, shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni ham uchratish mumkin.

«Boburnoma»da keltirilgan ma'lumotlar, Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih,

Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Ulug'bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o'zining yuqori tarzidagi fikr va mulohazalarini bildiradi.

«Boburnoma» – Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'zida aks ettirish bilan birga ko'plab dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqeyi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, hududi, xalqlari, qabila va elatlar, ularning yashash sharoitlari, urf-odatlar, muhim tarixiy inshootlari – hindlar va musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hanuz o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Uzoq yillar davomida G'arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko'rsatishdi. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J.Leyden, V.Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kuryeyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R.R. Art va N.I. Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg'onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Ahtar, Nahvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. «Boburnoma»ni o'rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olishmoqda.

Ma'lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. S.Mirzayev, V.Zohidov, Ya.G'ulomov, R.Nabiev, S.Azimjonova, A.Qayumov kabi olimlarning sa'y-harakatlari bilan «Boburnoma» bir necha bor rus va o'zbek tillarida chop etildi, u keng kitobxonlar ommasining ma'naviy mulkiga aylantirildi, shoirning she'rlari ham bir necha bor nashr etildi.

P.Qodirovning Bobur hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan «Yulduzli tunlar» («Bobur») romani haqli ravishda o'zbek kitobxonlarining sevimli asarlari qatoridan joy oldi.

Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan turli guruhlarning boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in'ikosini «Boburnoma»da ko'rgan bo'lsak, ularning shoir ruhiyatida qanday aks etgani uning she'rlarida namoyon bo'ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarda bevosita aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

*Tole'yo'qki jonimga balolig' bo'ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Bobur o'z lirik she'rlarida hamisha insonlarni yaxshilik, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqiradi:

*Har kimki vaf o qilsa, vaf o topqusidur;
Har kimki jaf o qilsa, jaf o topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jaf o topqusidur.*

Bobur lirik she'rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarda ham asarlar yaratgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o'sha zamon soliq tizimi, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimdan qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan. «Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan o'zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Qur'oni karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masallariga bag'ishlangan «Mufasssal» nomli asari ham, bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi. Bobur ziddiyatli davrda, Temuriylar saltanati inqirozga yuz tutgan bir vaqtda yashadi. Taqdir o'z vaqtida uni boshiga ko'plab sinovlarni soldi. Dovyurakligi, qat'iyatligi va jasurligi bois «Bobur» («yo'lbars») taxallusini olgan bu sarkarda har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmadi. U jismoniy jihatdan baquvvat bo'lib, mohir chavandoz, qilichboz, suvoriy ham edi. O'z jasurligi bilan ko'p vaqt qo'l ostidagi askarlarga namuna ham bo'lgan.

Tarixiy manbalarda Boburning jasorati, mardligi, o'limdan qo'rqmasligi, odamlarga ishonchi atrofdagilarda unga nisbatan katta ehtirom yuzaga keltirganligi alohida ta'kidlanadi. Mohir sarkarda o'z harbiy mahoratini rivojlantirib, shayboniylardan «to'lg'ama» usulini, mo'g'ullardan pistirma qo'yishni, afg'onlardan poroxli miltiq ishlashni o'rgangan. O'z davrida u kuchli to'pchilar qo'shinini tuza olgan. Shu bilan birga, Bobur yuksak insoniy fazilatlar sohibi ham bo'lgan. U mehribon o'g'il va ini sifatida onasi Qutlug' Nigorxonimga, og'ir hayot sinovlarini boshidan kechirgan opasi Xonzodabegimga katta hurmat va ehtirom bajo keltirgan. Bobur oila a'zolariga nisbatan katta mas'uliyat va mehr ila munosabatda bo'lgan. O'g'li Humoyun og'ir xasta bo'lib qolganida barchaning ko'z o'ngida shu xastalik o'ziga o'tishini xudodan so'rab iltijo qilgan. Boburning qizi, musulmon Sharqidagi yagona tarixchi ayol Gulbadanbegim o'zining «Humoyunnoma» asarida padari buzrukvorining ajoyib fazilatlarini maroq bilan tilga oladi.

XX asr oxirlari – XXI asr boshlarida Bobur ilmiy merosi va tarixini yanada chuqur o'rganish borasida ish yuritayotgan Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi bu yo'nalishda ko'plab samarali ishlarni amalga oshirdi. Ushbu jamg'arma tomonidan Bobur o'tgan yo'llari bo'yicha qator ekspeditsiyalar uyushtirildi, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindistonda ulug' shoirning ijodi, faoliyati bo'yicha ahamiyatga molik uchrashuvlar tashkil qilindi va hokazo. Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida Bobur ijodini o'rganish bir pog'ona yuqoriga ko'tarildi, shoir va davlat arbobi to'g'risida qator badiiy, tarixiy, ilmiy asarlar chop etildi. Har yili Bobur tavalludi yurtimizda unga bo'lgan hurmat va ehtirom ma'nosida keng nishonlanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatiga jahon olimlarining bergan taʼriflari ham yuksak eʼtirofga sazovordir. Xususan, ingliz olimi V. Xansen: «Hindiston va uning 8 ming yillik tarixi bamisoli bir tovus boʻlsa, boburiylar sulolasining oʻsha ming yillik tarixidagi 332 yillik davri ana shu tovusning gultojidir», deb yozgan boʻlsa, rus olimi N.V. Vesselovskiy Bobur jasoratiga, «Aytish mumkinki, Bobur botirligining cheki boʻlmagan, uning butun hayoti jasorat namunalari bilan toʻlib-toshib yotibdi», deya baho beradi. Hind olimi M. Laʼl esa quyidagilarni yozgan edi: «... Yoshlikda koʻrgan omadsizliklari oʻrniga keyinchalik unga ulugʻ omadlar yor boʻldi. Nihoyat u Hindiston tarixida ilgari hech koʻrilmagan saltanatga asos soldi. Boburning buyukligi ana shu mezonlar bilan oʻlchanadi ...». Boshqa bir mashhur hind olimi L.P. Sharmaning mana bu taʼrifi ham yuqori eʼtirofga sazovordir: «... U saxiy, olijanob, mard, maftunkor, sevimli va juda madaniyatli kishi edi ... U kishi vaziyatni darhol anglab olar edi. Musiqa va bogʻ yaratishga juda ishqiboz edi. Hindistonda juda koʻp inshootlarni barpo etgan edi ...».

2.7. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot


Amir Temur tomonidan kuchli, markazlashgan davlat barpo etilishi bilan qishloq xoʻjaligini rivojlantirish uchun saʼy-harakatlar kuchaydi. Amir Temur va uning vorislari otliq qoʻshin oʻtish chogʻida dehqonlarning yerlarini toptash va ekinlar yakson boʻlishini oldini olish uchun qator chora-tadbirlar koʻrishgan. Amir Temur farmoyishiga koʻra ekinzorlar yaqiniga oʻtov oʻrnatish taqiqlangan. Shohrux Mirzo va Mirzo Ulugʻbeklar davrida ham dehqonchilikni rivojlantirish borasidagi saʼy-harakatlar davom etdi. Odatda ekin yetishtirish uchun yaroqli boʻlgan yerlar bekor yotmagan. Abdurazzoq Samarqandiy XV asr birinchi yarmidagi dehqonchilik haqida soʻz yuritir ekan, dehqonlarni davlat amaldorlari va qoʻshin boshliqlari tomonidan zoʻravonlik va adolatsizlikdan asrash borasida hukmdorlarning qator farmoyishlari eʼlon qilinganligini taʼkidlaydi.

Amir Temur farmoyishiga koʻra yerlarni sugʻorilishi bilan bogʻliq bir qator ishlar amalga oshirilgan. Uning topshirigʻi bilan Murgʻob vodiysida ahamiyatga molik sugʻorish ishlari bajarilgan. Eski Angor kana-

lining tog' qismi qazdirilgan. G'iyosiddin Ali Amir Temur Hindistondan qaytayotganida Kobulda to'xtagani hamda shu yerda Sohibqiron tomonidan katta suv kanali barpo etilgani haqida xabar beradi. Amir Temur davrida Samarqand va Shahrisabzning suv ta'minoti yaxshilandi, deyarli har bir hovlidan ariq orqali suv o'tishi yo'lga qo'yildi. Daryolardan uzoqda joylashgan yerlarda sug'orish korizlar orqali amalga oshirilgan. Sug'orish kanallari saltanatning boshqa hududlarida ham olib borilgan.

Movarounnahrning unumdor yerlarida shu vaqtda donli ekinlar ichida bug'doy ko'p ekilgan. Bug'doyning turli navlari, xususan, gandumi obi (sug'orma bug'doy), gandumi safidcha (oq bug'doy), gandumi surxoki (qizil bug'doy), gandumi surxoki bahoriy (bahorgi qizil bug'doy), tuya tishi navlari ayniqsa mashhur bo'lgan. Zarafshon, Qashqadaryo, Toshkent vohalari, Farg'ona vodiysi dehqonchilik markazlari bo'lgan. Shuningdek, Termiz ham donli ekinlar yetishtiriladigan asosiy joylardan biri bo'lgan. Termizda yetishtirilgan bug'doy Amudaryo orqali Xorazmga ham yuborilgan.

Xorazmda donli ekinlar Vazir degan joyning janubiy tomonlarida yetishtirilgan. Bu davrda yerlarning bir qismiga yem-xashak yetishtirish maqsadida beda, shuningdek arpa va tariq ham ekilgan. Mosh va no'xot barcha hududlarda ekilgan. Shubhasiz, O'rta Osiyo xalqlari oshxonasida asosiy o'rin egallagan guruch ko'p joylarda yetishtirilgan. Tarixiy manbalarda Samarqand tomonlarda guruch «benihoya ko'p», deya ta'rif etilgan edi. Paxta Zarafshon vohasi, Balx atroflari, Shahrisabz yaqinida va boshqa yerlarda ham ekilgan. Yirik shaharlarda yonatroflardan keltirilgan paxtani saqlash va sotish uchun maxsus binolar



**Temuriylar davri
tangalari.**

qurilgan. Amir Temur davridan boshlab Movarounnahrda ilk bora zig'ir ekish ham boshlandi. Tut odatda sug'orish ariqlari, kanallar bo'yida o'stirilgan, mevasi quritilgan holda ancha mashhur bo'lib, uni qishda ko'p iste'mol qilishgan. Tutni aksariyat pilla qurti yetishtirish maqsadida ekishar edi. Pilla xomashyosi asosan shaharga keltirilib, undan turli matolar to'qilgan. Samarqand va Buxoroda pilla sotadigan do'konlar ham bo'lgan. Joylar-

da bo'yoq olish maqsadida ro'yan o'simligi ham ekilgan. Undan asosan qizil va sariq ranglar olinar edi.

Xinadan nafaqat kosmetikada, balki sanoat uchun ahamiyatli bo'lgan siyoh tayyorlash, qog'ozga rang berish, dori tayyorlashda ham foydalanilgan. Buxoroda «qirmizi» nomli bo'yoq cho'ldagi daraxt qurtlari orqali olinib, u ancha qimmatbaho hisoblanar edi.

Movarounnahr qadimdan bog'-rog'lar o'lkasi bo'lib kelgan. Bog' va uzumzorlar katta maydonlarni egallab, ularda olma, nok, anor, shaftoli va boshqalar ko'plab yetishtirilgan. Bog'-u rog'lar Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlar atroflarini xuddiki, qo'rg'on devoridek o'rab olgan edi. Zayniddin Vosifiy Toshkent bog'laridagi sarxil mevali daraxtlar, anvoyi gullar haqida zavq-shavq ila so'z yuritgan. Hovuzlar, ular atrofidagi soya-salqin bog'lar aholi dam olishi uchun xizmat qilar edi. Zodagonlar, yuqori tabaqa kishilari bog'larni reja asosida barpo etishar, u yerda nafaqat mevali, balki manzarali daraxtlar ham ko'plab ekilar edi. Amir Temur sitrus ekinlari yetishtirishni ham boshlab berdi. U barpo etgan bog'larda limon, xurmo, shamshod daraxti ham o'stirilgan. Samarqandga yaqinlashgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo poytaxtni o'rab olgan bog'-rog', uzumzorlarni ko'rib hayratlangan holda shunday deya yozgan edi: «Bu bog'-u rog'lar va uzumzorlar shunchalik ko'pki, shaharga yaqinlashganing sari baland daraxtli o'rmonni va uning o'rtasida shaharni ko'rasan».

Uzum yetishtirish nafaqat Zarafshon vohasida, balki Toshkent, Andijonda ham juda taraqqiy topgan edi. Uzumning samarqandcha, toshkentcha, sohibi nav va boshqa turlari mashhur bo'lgan. Uzumdan musallas tayyorlash ham rivoj topgan bo'lib, ular ichida buxorocho musallas eng a'lo navli deya hisoblangan. Amir Temur Samarqandni tabiiyki, barcha dunyo shaharlari orasida birinchi o'ringa qo'yib, uning atrofida dong'i ketgan shaharlar – Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomlari bilan qishloqlar barpo etishga farmoyish beradi. Ular atrofida maydoni bir kvadrat kilometrga teng ulkan bog'lar barpo ettiradi. Mirzo Ulug'bek davrida esa mashhur «Bog'i maydon»da ko'plab anvoyi gul, daraxtlar yetishtirilgan. «Bog'cha» deb nomlangan bog'ning barpo etilishi ham Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq. Amir Temur Samarqand va uning atroflarida yana bir qator muhtasham bog'lar («Bog'i Dilkusho», «Bog'i Behisht», «Bog'i Baland», «Bog'i Davlat» va boshqalar) ham barpo etgan edi.

Bog'-u rog'lar nafaqat dam olish, ko'ngilochar maskanlar bo'lib qolmay, balki ularda rasmiy tadbirlar, xususan elchilik qabullari ham o'tkazilgan. Amir Temur bog'larining fayz-tarovati hamda go'zalligi elchilar og'zida doston bo'lib, uzoq xorijlarga ham ularni mashhur qilar edi. Shubhasiz, bog'-rog'larning barpo etilishi, yangi ekin turlarini yetishtirila boshlanishi mamlakat iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, Samarqandning iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyatini ham kuchaytirgan.

Qishloq xo'jaligida poliz ekinlari ham katta o'rin egallagan. Klavixo Movarounnahr qovunlariga ta'rif berib, ularni: «Butun dunyoda eng yaxshi va eng mo'l-ko'l» deb hisoblagan. Zahiriddin Muhammad Bobur esa, «Movarounnahrning hech bir yerida Buxorochalik ko'p va a'lo qovun yetishtirilmagan», deya yozgan edi. Qovunning ayniqsa «Miri Temur» nomli navi mashhur bo'lgan. Xorazm qovunlari ichida esa, «ko'k tarnay» degan navning dong'i ketgan.

Mamlakatda chorvachilik ham yuqori darajada taraqqiy etgan. Nafaqat ko'chmanchi, balki o'troq aholi ichida ham qo'y-qo'zi boqish keng tarqalgan edi. Qo'ylarning nasl tarkibi ham turlicha bo'lgan. Yil-qichilikda otlarni yetishtirishga katta ahamiyat berilgan. Turli nasldagi otlar, xususan «o'zbek», «turkman», «arab» va boshqa nasllar juda qadrlangan. Shoshilinch xabar yetkazish uchun tez chopishga moslashgan otlardan foydalanishgan. Otlarni asosan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yetkazib turgan. Ot go'shti va suti aholi orasida mashhur bo'lgan. Xususan, biya sutidan tayyorlangan qimizga ehtiyoj yuqori darajada edi. Yuk tashish, harbiy yurishlarda esa aksariyat tuyalardan ham foydalanishgan.

Chorvachilik iqtisodiyotga go'sht, yog', sut, jun, teri berishi bilan yuqori ahamiyatli soha bo'lib, u ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi aholi orasida muhim o'rin egallagan.

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida yerga egalik qilishning bir necha shakllari bo'lgan. Ular quyidagilarda o'z aksini topgan: davlat, mulk va vaqf yerlari. Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davrida, shuningdek, jamoa yerlari ham saqlanib qolgan edi. Shu davrda davlat yerlarini ma'lum xizmatlar evaziga in'om etish — suyurg'ol keng tarqalgan. Suyurg'ol, tom ma'noda xayr-ehson, yerni hadya etish, ma'lum imtiyozni anglatib, harbiy xizmatni o'tash bilan shartlangan

yerni in'om etish turlaridan hisoblangan. Suyurg'ol egasi soliq daxlsizligidan foydalanib, suyurg'olga qarashli yerlardan o'z foydasiga o'lpon olgan. Suyurg'ol egasining iqtodordan farqi shunda bo'lganki, u ma'muriy – sud daxlsizligiga ham ega bo'lgan. Keyinchalik suyurg'ol vorislikni ham anglatadigan bo'ldi. Suyurg'ol Amir Temur avlodidan bo'lmagan ayrim amirlarga ham berilishi mumkin edi. Shohrux davrida katta obro'ga ega harbiy sarkardalarga yer hadya etilishi amalda ko'p qo'llanildi. Bu, o'z navbatida, uning oliy hukmdor sifatida o'rmini mustahkamlashga katta ta'sir ko'rsatdi. Mirzo Ulug'bek o'z vaqtida Balxni o'g'li Abdullatifga, Xorazmni esa Shoh Malikka suyurg'ol etib bergan.

Ayrim suyurg'ol egalari bir vaqtning o'zida tarxon yorliqlariga ham ega bo'lganlar. Mazkur hollarda ushbu shaxslar qo'shimcha imtiyozlar olgan yoki shunday yorliqlar yer egasini davlat soliqlarini to'lashdan ozod qilgan. Ularning noto'g'ri xatti-harakatlari to'qqiz martagacha kechirilgan. Tarxonlarga berilgan imtiyozlar keyinchalik ushbu aslzoda qatlamning boyishi va kuchayishiga olib keldi. Ularning ba'zilar bir necha ming sonli harbiy otryadga ega bo'la bordi, bir qismi esa XV asr oxirlariga kelib Movarounnahr siyosiy hayotida hal qiluvchi kuchga aylana bordi.

Tarxon faxriy nomi ba'zi hollarda savdogarlarga ham berilgan. Ta'kidlash kerakki, davlat yerlarining shartli egalik – suyurg'olga berilishi va tarxon daxlsizligi keyinchalik xazina daromadlarining qisqarib borishi, o'zaro parokanda mulklarning paydo bo'lishiga yo'l ochib bergan. Temuriylar davrida yerlarning ma'lum qismi vaqf etib ham berilgan.

Xususan, 1420-yili Mirzo Ulug'bek o'z ixtiyori bilan yer va sug'orish kanallarini Samarqanddagi madrasa foydasiga o'tkazgan. 1464-yili Sulton Abusaid qizi Sultonbeka sag'anasi foydasiga Saroy Malik qishlog'ining yarmini o'tkazgan va hokazo.

Dehqonlar va chorvadorlar mamlakat aholisining katta qismini tashkil etib, ular soliq to'lovchi aholi tarkibida, ya'ni umumiy «raiyat» nomi bilan atalardi. Dehqonlar mulkiy jihatdan ham bir necha toifalarga bo'lingan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining ham davlatda o'ziga xos o'rni mavjud bo'lgan. Ular qoramol, ot, qo'y-echki, qimiz, sut mahsulotlari, go'sht, jun yetkazib berishar, yarim ko'chmanchi aholi ziroatkorlik va chorvadorlik bilan teng mashg'ul bo'lishardi.

Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi orasida ba'zi hunarmandchilik turlari, xususan gilam, namat to'qish, teriga ishlov berish ham rivojlangan edi. Movarounnahr o'lkasi tabiiy foydali qazilmalarga boy hudud bo'lgan. Unda temir, mis, toshko'mir, qo'rg'oshin, feruza, kumush, oltin konlari ayniqsa katta ahamiyat kasb etgan. Zayniddin Vosifiy Toshkent vohasidagi feruza va temir konlari, Mahmud ibn Vali aynan shu hududda qalayi konlari borligini yozib qoldirishgan. Farg'ona tog'liklarida oltin va kumush konlari mavjud bo'lib, bu hududdan mis, neft, lojuvard, simob, qo'rg'oshin, novshadil ham qazib chiqarilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida ayniqsa temirga ehtiyoj katta bo'lib, undan qurol-aslaha yasashda keng foydalanilgan. Badaxshon o'lkasida mashhur la'l (lojuvard) toshlari yetkazilgan. Aynan shu hududda ko'k yoqut (saffir) ham olingan.

Amir Temur tog'-kon ishlari ustidan tegishli nazoratni olib borib, qimmatbaho ma'danlar chiqadigan yerlarda maxsus qo'riqchilar guruhini konchilar ishini kuzatib borishgan. Samarqand atroflaridan marmar, Kesh tomonidan mashhur qizg'ish tuz qazib olingan. XIV asr oxirlari – XV asr davomida hunarmandchilik ham taraqqiy etdi. O'troq va ko'chmanchi aholi savdo chorrahasida joylashgan Toshkent shahri sohada ahamiyatli markazlardan biri bo'lib qoldi. Shaharda hunarmandchilik rivoji ko'chmanchi aholi bilan savdo orqali belgilanar edi. Ma'dan konlari yaqinligi bois Toshkentda metall buyumlar yasash rivojlanib ketdi. Toshkent boshqa joylarga o'zining «Kamoni shoshiy (chochiy)» deb atalgan o'q-yoylari bilan ham mashhur bo'lgan.

XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilgan Fanokent qal'asi Amir Temur farmoniga muvofiq qayta tiklanib, Sirdaryo bo'yida o'g'li sharafiga Shohruxiya deb nom oldi. Andijon va Axsikat esa Farg'ona vodiysining nafaqat madaniy, balki iqtisodiy, savdo-hunarmandchilik markazlari ham bo'lib qoldi. Xususan, Axsikatda kulolchilik yuqori darajada taraqqiy topganligini arxeologik qazishmalar ham tasdiqlamoqda. Amir Temur tomonidan qudratli saltanat barpo etilishi, tinchlik-osoyishtalik, tartib-qoidaning o'rnatilishi aslida butun saltanatda hunarmandchilik turlarining ko'payishi hamda benihoya rivojiga keng yo'l ochgan edi.

Mazkur davrda to'qimachilik ilgari ham bo'lganidek, hunarmandchilikning yetakchi tarmog'i hisoblanar edi. Joylarda oddiy va qimmat-

baho matolar to'qilardi. XIV asr oxirlaridan boshlab ayniqsa qimmatbaho matolarga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Aslzodalar uchun tantanali marosimlarda bayram liboslari asosan shoyi, parcha, baxmaldan tayyorlangan. O'z navbatida, ularning xonadonlaridagi ko'rpa-ko'rpachalar ham shu matolardan bo'lardi. Samarqandda baxmalning to'q qizil rangli alohida turi ishlab chiqarilgan. Unga «qirmizi» deb ataluvchi bo'yoq bilan ishlov berilardi. Mirzo Ulug'bek ham onasi Gavharshodbegim Samarqandga kelganida unga qirmizi baxmaldan iborat ustki kiyim sovg'a qilgan. Nufuzli amaldorlar ustki kiyimi, qimmatbaho shohona chodirlar oliy navli yupqa jun gazlama – saqirlotdan tayyorlanar edi.

Bu xildagi matolarga chet ellarda ham ehtiyoj katta bo'lgan. Shuningdek, matolar ichida kimxob, bo'z (karbas), anvoyi shoyi va boshqalar ham ma'lum, ham mashhur bo'lgan. Kasb-hunarlar ichida tikuvchilik Samarqand va Buxoro hunarmandchiligida katta o'rin tutgan. Shaharlarda gilam va anvoyi rangli pardalarga ehtiyoj kattaligi bois u ham yaxshi taraqqiy etgan. Gilamlarning nomlari ularning to'qilish uslubi-dan kelib chiqqan. Bayramlar vaqtida ayvon, ko'shklar shoyi, parcha, guldor matolar bilan bezatilgan.

Tantanalar paytida badavlat aholi uylarining markaziy ko'chalarga qaragan devorlariga gilamlar osish zarur bo'lgan. Samarqanddagi hunarlar orasida qog'oz tayyorlash yetakchi rol o'ynagan. Yozuv qog'ozini ham boshqa davlatlarga olib chiquvchi mahsulotlar sirasidan joy olgan. Saroy, davlat ishlarida ham qog'ozga ehtiyoj katta bo'lgan. Qog'ozning oliy navi «sultoniy» nomi bilan mashhur bo'lgan. O'sha davr manbalarida yana qog'ozning «oddiy», «qog'oz abri», «marmar qog'oz» navlari haqida ham so'z yuritilgan.

XVI asr boshlariga qadar Samarqand Sharqda yozuv qog'ozini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy markazlardan biri bo'lgan. Amir Temur va Temuriylar davriga oid asarlar asosan Samarqand qog'oziga yozilgan. «Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddan chiqar», deb yozgan edi Bobur. XVII asrda ham bu qog'oz o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lishi kerak. Negaki, XVII asrda yashagan balxlik olim Mahmud ibn Vali o'zining «Bahr ul-asror» asarida: «Samarqandning mahsuloti – qog'oz, yashil marmar, oq bo'yoq va olmadir», – deya ta'kidlagan edi. Amir Temur va Temuriylar davrida kulolchilik ham munosib o'rin egallagan bo'lib, u hunarmandchilikning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanar edi. So-

pol buyumlar yasash uchun mahalliy gil ishlatilinar, odatda u Samarqand atrofidan olinar edi. Klavixo bu xususida o'z asarida «dunyodagi eng yaxshi gil shu yerda», deya qayd qilgan edi. Sopol buyumlar tayyorlashda g'ijduvonlik ustalar o'z uslublariga ega bo'lishgan. XV asr Samarqand kulolchiligining o'ziga xos ko'rinishlari Buxoro va Shahrisabz maktablari misolida ko'zga tashlanadi. Toshkent kulolchiligi esa ayrim mahalliy xususiyatlarga ega bo'lgan.

Qimmatbaho toshlarga ishlov berish, zargarlik buyumlarini yasash ham yuqori darajada taraqqiy etgan. Zirak, uzuk, bilakuzuk va boshqa qimmatbaho taqinchoqlar yasashning yuqori mahoratli ustalari yetishib chiqishgan. Misgar va zargarlarning katta shaharlarida o'ziga xos ustaxonalari bo'lgan. XIV asr oxirlarida Movarounnahrda rangli oyna ishlab chiqarish ham rivoj topdi. Undan Go'ri Amir, Shahrisabzdagi saroy, Buxorodagi Ulug'bek madrasalarini bezatishda foydalanishgan. Qadama naqsh, sirkor koshin ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. Amir Temur davlatida, undan so'ng Temuriylar davrida ham qurol-aslahasozlik yaxshi taraqqiy topgan. Maxsus ustaxonalarda shamshir, qilich, xanjar, oybolta, sovut, dubulg'a tayyorlanar, Amir Temur bu kabi ustaxonalarga katta ahamiyat bilan qarar edi.

Movarounnahrning katta shaharlari, xususan Samarqandda ko'plab kishilar mehnat qiladigan korxonalar bo'lgan. Ko'p hollarda bu korxonalarda asirlar va qullar mehnat qilishgan. Tarixiy manbalarda turli mamlakatlardan Movarounnahrda kelgan hunarmandlarning faoliyati ham alohida ta'kidlangan. Ma'lum tantanalarda, xususan Amir Temurning 1394, 1396, 1404-yillari Samarqandga qaytishi munosabati bilan hunarmandlar o'z shiyponlarida bor mahsulotlari ko'rgazmalarini uyushtirgan. Bunday tantanalarda ko'chalarga gilam, matolar to'shalar, zargarlar o'z buyumlarini ko'z-ko'z qilib terib tashlashar, atrof bayramona tus olar edi. Bu kabi ko'rgazmalar keyinchalik Shohrux hukmronligi davrida ham o'tkazib turilgan. Masalan, 1412-yilgi xitoylik elchilar kelishi munosabati bilan Shohruxning buyrug'i bilan barcha hunarmandlar o'z mahsulotlari bilan do'kon, rastalarini ziynatlashlari lozim bo'lgan.

Muarrix va sayyohlar XIV asr oxirlari – XV asrda Samarqand, Buxoroda bozor, chorsu, tim, toq, kappon va boshqa xil savdo-hunarmandchilik maskanlari bo'lganligi xususida xabar berishgan. Amir

Temurning farmoniga ko'ra asosiy ko'chalar ikkala tomoniga do'konlar joylashtirilgan. Usti yopiq ko'chaning boshdan oyoq har xil yerida yorug'lik tushadigan darchalari bo'lib, gumbazlari bo'lgan tom bilan yopilgan. Samarqand va Buxoroda ixtisoslashgan bozorlar o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Tarixiy manbalarda Termiz va Toshkent bozorlari ham o'zining boyligi bilan ajralib turganliklari ta'kidlangan. Chorva mollari uchun alohida joylar bo'lgan. Bozorlar nafaqat yirik savdo-iqtisodiy markaz vazifasini bajarmay, balki ular she'riyat, adabiyot, ilm-fan bo'yicha suhbatlar o'tkaziladigan maskanlar o'rnini ham o'tagan. Bozorlarda hukmdorlar farmoni e'lon qilinar, aybdorlar jazoga tortilar edi.

Bozorlar tomoshagoh vazifasini ham o'tagan. U yerda nayrang-boz, dorboz, polvon, qo'g'irchoqbozlarning tomoshalari ham namoyish qilingan. Bozor o'ziga xos madaniy markaz bo'lgan. Odatda bozor yonida masjid, madrasa, hammom yonma-yon qurilar edi. Bozorlarning ma'lum rastalari o'z molini xorij savdogarlariga sotish uchun mo'ljallangan edi. Ayniqsa, Samarqand bozorlarida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlarni tez-tez uchratish mumkin bo'lgan. Chet el savdogarlari mollarni ko'rib chiquvchi maxsus lavozimli mas'ul shaxs bo'lgan. Hukmdor farmoniga ko'ra barcha xorijdan kelgan savdogarlar o'zlari olib kelgan qimmatbaho matolarning borini hukmdor tomonidan tayinlangan mas'ul shaxsga ko'rsatishlari shart qilib qo'yilgan. Chet el mollari shu amaldorlarning ko'rigidan o'tmasdan turib uni sotishga ruxsat berilmagan.

Amir Temur tomonidan savdo yo'llarini obodonlashtirish, unda tegishli sharoitlar yaratishi, karvonsaroilar qurish ishiga katta ahamiyat berilgan. Karvon yo'llari xavfsizligiga Amir Temur, keyinchalik Shohrux Mirzo ham katta e'tibor bilan qarashgan. Amir Temurning buyrug'i bilan janubi-g'arbiy viloyatlardan Samarqandga olib boruvchi yo'llar yoqasida davlat poytaxtiga qadar yangi karvonsaroilar barpo qilingan, sayyohlar va savdogarlar dam olishi uchun «katta yo'llar» va o'xonalari qurilgan. Yaqin atrofdagi qishloq aholisi bunday markazlarni oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta'minlab turishi kerak bo'lgan.

Amir Temur ichki va tashqi savdo taraqqiyotiga katta ahamiyat berdi. Uning sa'y-harakati bois Buyuk ipak yo'li tarmog'i Movarounnahrqa qaytdi, savdo yo'llari xavfsizligiga, Sharq va G'arb savdo munosabatlariga katta e'tibor bilan qaraldi. Sahibqironning Fransiya qiroli

Karl VI ga yozgan xatidagi quyidagi mulohazalar e'tiborga sazovordir: «Siz o'z savdogarlaringizni mening saltanatimga yuboring, biz ularni iliq qarshi olib, izzat-ikrom ko'rsatamiz. Biz ham o'z savdogarlarimizni sizning yurtingizga yo'llaymiz. Siz ham ularga hurmat ko'rsating, ularga ortiqcha tazyiqlar qilinishiga yo'l qo'ymang. Sizga bundan bo'lak talabim yo'q. Zero, dunyo savdo ahli ila obod bo'lajak!» Shubhasiz, buyuk Amir Temurning yuqoridagi mulohazalari XXI asrdagi yangicha tartibdagi savdo-iqtisodiy munosabatlarda muhim o'rin egallaydi.

Nizomiddin Shomiy o'zining «Zafarnoma» asarida shunday deb yozgan edi: «... Uning adolati-yu siyosati o'rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridangina emas, balki Xo'tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atroflarigacha, Bobul Avbobdan to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yoqda tursin, bolalar-u beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirishardi va olib ketishardi. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandur». 1404-yili Temur saltanatida bo'lgan Rui Gonsales de Klavixo ham savdo-sotiq munosabatlarining yuqori darajada taraqqiy etganligini, savdo ahliga ko'rsatilayotgan muruvvat, xavfsizlik choralari, Movarounnahr bozorlarining serhashamligini alohida qayd etgan edi.

Ta'kidlash joizki, Mirzo Ulug'bek ham xalqaro savdo aloqalarida faol qatnashgan, Samarqanddagi yirik karvonsaroylardan biri unga tegishli bo'lgan. Ushbu karvonsaroy «Mirzoyi» deb atalib, hozirgi Tillakori madrasasining o'rnida bo'lgan. Mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan karvonsaroylar, odatda katta savdo yo'llarining chorrahalarida joylashgan. Karvonsaroylarning bir qismi shaharga ketaverishda, darvoza yonida, ayrimlari shahar ichidan o'rin olgan. Yirik shaharlarda boshqa o'lkalardan kelgan savdogarlar uchun alohida karvonsaroylar qurilgan. Masalan, Buxoroda Urganch savdogarlari uchun «Urganjiy» karvonsaroyi barpo etilgan, shuningdek, eronlik va marvlik savdogarlar uchun ham alohida karvonsaroylar bo'lgan. Ashtarxon va Bokuda esa alohida buxoroliklar karvonsaroylari qurilgan. Isfahonda samarqandlik va buxorolik savdogarlarning to'xtash joylari bor edi.

Samarqandga chetdan keltirilgan mollar orasida Xitoydan kelgan mahsulotlar muhim o'rin egallagan. Shuningdek Rus, Volgabo'yi, Hindiston, G'arbiy Osiyo, Uzoq Sharq bilan ham qizg'in savdo aloqalari olib borilgan. Chetdan Movarounnahrğa teri, egar-jabduq, xurjun, zig'ir tolasidan to'qilgan gazlama, kamon o'qlari, sadoq Rus va Volga-bo'yidan, Ispaniya va Italiya davlatlaridan qirmizi mato, kumush kosa, movut, junli kiyim, yupqa gazlama, Xitoydan va unga tobe yurtlardan suvsar va oq tulki mo'ynalari, ov qushlari, shoyi matolar, naqshsiz atlas, Hindistondan ziravorlar, ayrim metallar va qimmatbaho toshlar, oq yupqa mato, shakar, dorivor o'simliklar keltirilgan. Yevropadan olib kelinadigan matolar orasida «farangi» nomli mato mashhur bo'lgan.

O'z vaqtida Kastiliya (Ispaniya) qiroli ov lochinlarini shaxsan Amir Temurga sovg'a qilib jo'natgan edi. Ipak yo'li bo'ylab Movarounnahr shaharlariga Xitoy qog'ozi va chinni ham olib kelingan. Masalan, Xitoy imperatori Day Ming-xon Shohrux Mirzoga Xitoy qog'ozini yuborganini muarrix Fasih Ahmad Havofiy alohida ta'kidlab o'tgan edi. Xitoydan keltiriladigan chinni idishlar, chinni buyumlar, koshinlar nihoyatda qadrlanib, yuqori darajada baholangan. Mirzo Ulug'bekning bog'idagi ayvon Xitoy chinni koshinlari bilan bezatilganligi uchun keyinchalik «Chinnixona» nomini olgan. Buxoro yaqinidagi Zandana qishlog'ida tayyorlanib, keyinchalik mashhur bo'lib ketgan «zandanachi» matosi xorijda ham mashhur edi. Xususan, tarixiy manbalarda zandanachi matosi XV asrda Novgorodda ham sotilgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Nemis shaharlarida ham bu matoga ehtiyoj katta bo'lgan.

Amir Temur va keyinchalik Temuriylar davlatida adolatli soliq tizimi bo'lganligini ham ta'kidlash joiz. Bu xususda «Tuzuklar»da quyidagicha iboralar bor: «Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan raiyatdan mol-u jihat olinmasin. Hosil yetilgach, soliqni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yuborilmasdan soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agar soliq yig'uvchini yuborishga majbur bo'linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; katta kaltak, arqon ishlatib ishni urush-so'kishgacha olib bormasinlar. Ular bandi etib, zanjir bilan kishanlamasinlar».

Shubhasiz, xazina davlat tayanchi bo'lgan muhim omillardan biri edi. U esa aksariyat to'g'ri yo'lga qo'yilgan soliq tizimi orqali hayot kechirishi mumkin bo'lgan. Tarixiy manbalarning ma'lumotiga ko'ra

Amir Temur davlatida xiroj, tag'or, tamg'a, peshkash, sovurin va boshqa soliqlar mavjud edi. Soliqlar yig'ish paytida yuqorida ta'kidlanganidek, uning adolatli bo'lishi uchun ikki vazir mas'ul etib tayinlangan. Amir Temur suv chiqarib tashlandiq yerni obod qilgan kishilarga alohida imtiyozlar bergan. «Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa yo biron bog' ko'kartirsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin», deyilgan edi Amir Temur buyrug'ida. Sohibqiron o'z ona yurti, xalqini juda qadrlagan hukmdor bo'lib, yetti yillik yurishidan qaytganidan so'ng narx-navo, soliqlar borasida yo'l qo'yilgan xatolar uchun tegishli amaldorlarni jazolagan. Beva-bechoralarga kiyim-kechak, oziq-ovqat ulashib, 1404-yili saltanat ahlini uch yillik barcha soliqlardan ozod etadi. Bunday qat'iyatli qadamni o'rta asrlar sharoitida faqat Amir Temurga o'xshagan zabardast hukmdorgina qo'yishi mumkin edi.

2.8. Temuriylar hukmronligi (1405-1506-yy.) davrida ilm-fan va madaniy hayot

Garchi XV asr boshidan ichki nizolar, o'zaro kurashlar mamlakat ichki hayotiga salbiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa-da, lekin Temuriy hukmdorlardan Shohrux Mirzo (1405-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Husayn Boyqaro (1469-1506), qisman Sulton Abusaid (1451-1469) hukmronligi davrlarida ichki osoyishtalik, ma'rifat va madaniyatga katta e'tibor berilishi tufayli ilm-u fan va madaniyat sohasi yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma'rifat hamda madaniyat markazi nomini qaytarib oldi.

Bu vaqtda nafaqat poytaxt Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olim-u fuzalo, shoir-u me'morlar, bastakor-u naqqoshlar guruhlarini to'plana boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroz ham o'ziga xos madaniy markazlar rolini o'ynaydi. Tarixda ma'rifatparvarligi va oqilligi bilan nom chiqargan Shohrux (1405-1447) davrida asriy ilm-fan, madaniyat an'analari yanada taraqqiy etdi.



Shohrux Hirot, Balx shaharlarini qayta tikladi, Chingizxon yurishi vaqtida vayron bo'lgan Marv shahri qayta barpo etildi, unga Murg'ob

daryosidan ariq qazdirilib, shahar suv bilan ta'minlandi. Xurosonning barcha shaharlarida obodonchilik, qurilish ishlariga katta e'tibor berildi, qator madaniy-ma'naviy xarakterdagi imoratlar qurildi. Shohruxning o'g'illari Boysunqur Mirzo Hirotida, Ibrohim Sulton Sherozda ilm-fan, ma'rifat yuksalishiga o'z hissalarini qo'shishdi. Alisher Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» asarida Boysunqur Mirzo (G'iyosiddin Boysunqur Mirzo) (1397–1433) faoliyati haqida so'z yuritib, uning ilm-fan, madaniyat ahliga nisbatan homiyligiga yuksak darajada baho beradi. Boysunqur Mirzoning buyrug'iga ko'ra Tabrizdan usta Sayid Ahmad Naqqosh, Xo'ja musavvir va muqovasoz Qavomiddin Tabriziylar Hirotga keldilar. Turli hududlar madaniy uyg'unligi natijasida o'xshashi yo'q Hirot amaliy va tasviriy san'at yo'nalishi yuzaga keldi. Ibrohim Sulton Mirzo (1394–1435) Sherozda badiiy ustaxona ochib, unga Bag'dod va Tabrizdan mahoratli ustalarni jalb qildi. Aynan shu shahzodaning buyrug'i bilan 1419–1425-yillarda Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining mashhur «Zafarnoma» asarini yozgan edi. Shohruxning xotini Gavharshodbegim Hirotida barpo etgan, me'moriy majmuasi esa hozirda ham shaharning eng diqqatga sazovor joyi hisoblanadi.

Hirotidagi eng gavjum joylardan biri Shohruxning o'g'li Boysunqur Mirzo tashkil etgan «Kitobxona» nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu yerda o'z davrining eng sara kitoblari qayta ko'chirilgan, sotib olinar va sotilar edi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyligi natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati ayniqsa o'z rivojini maromiga yetkazdi. Mirak naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham o'z faoliyatini shu yerdan boshlagan edi.

Hirotlik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlashadi. Masalan, Shohrux davrida yashagan taniqli zodagon Hoji Arslon tarxon o'zining ma'rifatparvarligi bilan nom chiqargan edi.

XV asr ikkinchi yarmida Hirot musulmon sharqining eng yirik madaniyat markaziga aylandi. Poytaxt shahrida adabiyot, me'morchilik, miniatyura san'ati, xattotlik, musiqa, umuman madaniyat, san'at sohalarining o'z davriga xos barcha sohaları ulkan cho'qqiga erishdi. Shu bilan birga butun Xurosonda, xususan poytaxtda aniq fanlar sohasi ham taraqqiy etdi. Poytaxtda Mavlono Muhammad Olim, mavlono Kavkabi, Xoja Ahmad Mustavfiy kabi astronomlar, Xoja Abdul Vafoyi



Samarqand. Shohi-Zinda. XV asr.

Xorazmiy, Xoja Ahmad Mustavfiy, Mavlono Abdulqahhor kabi kimyogarlar, Mavlono Hokim, Mir Islom G'azzomiy kabi olimlar ham samarali faoliyat yuritishgan.

Tarixchi Xondamir o'zining Navoiyga bag'ishlagan «Makorim-ul axloq» asarida Navoiy ham yaxshi matematik bo'lgani, bu fanning rivojiga yordam berganligini ta'kidlaydi.

XV asr Hirot tarix fani ham taraqqiy etdi. Shohrux Mirzo davrida Hofizi Abru o'zining «Zubdat at-tavorix» («Solnomalar qaymog'i») asarini yozdi. Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning topshirig'i bilan Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» asarini taqdim etdi, Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'day va majmai bahray» («Ikki saodatli yulduzning balqishi va ikki dengizning qo'shilishi») nomli qimmatli tarixiy asari yozildi. Mirxond o'zining «Ravzat us-safo», Xondamir «Habib us-siyar» kabi tarixiy, Davlatshoh Samarqandiy o'zining adabiy talqindagi «Tazkirat ush-shuaro» asarlarini yozishdi. Muiniddin Isfizoriy esa Hirot tarixini aks ettirgan tarixiy asarini taqdim etdi.

Temuriylar davrida Xuroson musiqa maktabi ham rivoj topdi. Alisher Navoiy o'zining «Mezonul avzon» asarida xalq qo'shiqlarining 8 turi (ramali mahbun she'r turi, tuyug', qo'shiq, chinga, muhabbat-

noma, mustazod, orzuviy, turkiy) haqida ma'lumot berib, mazkur turlarning katta shuhrat topganligini yozadi. Musiqa san'ati xususida Abrurahmon Jomiy, Kamoliddin Binoiylar o'zlarining risolalarini yozib, uning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishdi. Natijada duvoz-dah maqom (o'n ikki maqom) yangi darajaga ko'tarilib, yangi kuylar bilan boyidi. She'riyat va musiqa o'rtasidagi uzviylikni yoritishda shoir Ahmadiyning «Sozlar munozarasi» asari katta ahamiyat kasb etadi.

XV asrda Hirot tasviriy maktabi juda taraqqiy etdi. Mazkur maktabdan Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib, Qosim Ali Chehrakusho, Mavlono Hoji, Muhammad Naqqosh, Darvish Muhammad, Sulton Muhammad, Abdulloh Kirmoniy, Mavlono Muzaffar Ali naqqosh, Xo'ja Abdulaziz naqqosh, Ashrafxon Mir Munshiy, Mavlono Yusuf kabi iste'dodli rassom va naqqoshlar yetishib chiqishgan. Tabiiyki, Xuroson va Movarounnahr rassomlik va naqqoshlik maktabining umumiy va o'ziga xos jihatlari bo'lgan. Ayniqsa, Kamoliddin Behzod boshchiligidagi Hirot rassomlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi.

Bizgacha turli portretlar, hayotiy lavhalar, peyzajlar, badiiy asarlar-ga ishlangan rasmlar yetib kelgan. Hozirgi kungacha yetib kelgan portret janridagi suratlar orasida Jomiy, Navoiy, Hotifiy, Behzod, Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalar katta tarixiy ahamiyat kasb etadi. Buyuk sharq rassomi, «Sharq Rafaeli» nomini olgan Kamoliddin Behzod (1455–1537) yuqorida ta'kidlanganidek, Hirot tasviriy maktabining rahbari bo'lgan. U oddiy hunarmand oiladan chiqqan bo'lib, yoshligida yetim qolgan, dastlabki ta'limni Pir Said Ahmad Tabriziydan olgan edi.

Keyinchalik uni Husayn Boyqaro kutubxonasining boshlig'i Mirak naqqosh hamda Alisher Navoiylar o'z tarbiyalariga oladilar. U dastlabki vaqtda Navoiy kutubxonasida ishlaydi. Alisher Navoiy uning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarab, rassomni ham moddiy ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Behzod keyinchalik Husayn Boyqaro kutubxonasi raisi lavozimida ham ishlaydi. Temuriylar saltanati parchalanganidan so'ng Eronga ketib, 1522-yili Shoh Ismoil uni Tabriz kutubxonasining kitobdori etib tayinladi. Buyuk rassom 1537-yili Hirotda vafot etgan.

Mazkur davrda kitobat san'ati ham juda rivoj topdi. Nafis va go'zal kitob yaratish og'ir jarayon bo'lib, u ko'plab murakkab mo-

hiyatni talab etar edi. Ushbu jarayonda varroq (qog'oz tayyorlovchi), sahnhof (muqovasoz), xattot (chiroyli tarzda ko'chiruvchi), tasvir (tegishli sahifalarga surat chizuvchi), tazhib (oltin rang bilan naqshlovchi), tajlid (qimmatbaho matodan jild yasovchi), zarafshon (sahifalar hoshiyasi va yozuv oralariga oltin yoki kumush purkovchi)lar ishtirok etishadi. Bunda albatta tegishli qonun-qoida, me'yoriy jihatlarga tayanilar edi. Qog'oz tayyorlashda Buxoro va Samarqand ustalari oldingi o'rinda turishgan.

O'sha davrda tayyorlangan qog'ozlarning o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, unga berilgan ranglar hozirga qadar aynimay saqlanib kelmoqda. Siyohlar maxsus retsept asosida tayyorlanar, kitobdan yoqimli hid kelib turishi uchun siyohga gulob va anbar qo'shar edilar. Bo'yoqlarga ba'zan suyultirilgan oltin va kumush ham qo'shilgan. Kitobat va xattotlik san'ati XV asr ikkinchi yarmida o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Movarounnahr va Xurosondan Sulton Ali Mashhadiy, Muhammad kotib, Sulton Ali Koyiniy, Abdul Jamil, Rafiqiy, Abdulaziz Samarqandiy, Xo'ja Ali Samarqandiy, Halvoiy va boshqa qator mohir xattotlar yetishib chiqishdi.

Shubhasiz, shu davrning eng mohir xattoti – Sulton Ali Mashhadiy (1432–1513) bo'lgan. U o'z umrining aksariyat qismini avval Sulton Abusaid, so'ngra Sulton Husayn Boyqaro saroylarida o'tkazdi. Hirot Shayboniyxon qo'liga o'tgach (1507), Shayboniyxon uchun kitob ko'chira boshladi. U arab yozuvidagi nasta'liq uslubini yaratgan. Xattot Mir Ali Tabriziydan so'ng uni yanada yuqori cho'qqisiga olib chiqdi. Sulton Ali Mashhadiyni Alisher Navoiy hamisha qo'llab-quvvatlagan. Shu bois bo'lsa kerak u Navoiy vafotidan so'ng ona shahri – Mashhadga ko'chib ketdi. Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar hozirda jahonning yetakchi mamlakatlari qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda.

Mazkur davrda adabiyot sohasida, ayniqsa ikki tilda ijod qilish keng shuhrat topdi. Alisher Navoiyning ma'lumotiga ko'ra XV asrda Qutbiy, Darvesh, Nozukiy, Yaqiniy, Sayid Hasan Ardasher, Amir Shayhim Suhayliy, Osafiy, Mavlono Ziyo, Soqiy, Sayid Ahmad, Shoh G'arib, G'aribiy, Badiuzzamon Mirzo, Davlatshoh Samarqandiy, Kamoliddin Binoiy, Hiloliylar ikki tilda ijod qilishgan. Husayn Boyqaro o'zining «Risola» asarida uning davlatida 1000 nafar shoirlar ijod qilishini faxr bilan tilga olgan edi.

Temuriylar saltanatida Movarounnahr va Xuroson o'lkalari o'rtasida mustahkam madaniy aloqalar bo'lgan. Bundan tashqari musulmon sharqi madaniy markazlari, katta shaharlaridan kelgan olimlar, ilm-fan vakillari, san'at va adabiyot sohasi namoyandalari Samarqand, Hirot, Buxoroda muntazam bo'lishar, turli kechalar, munozaralar, mushoiralarda ishtirok etishardi.

Samarqand Sharqning madaniy markaziga aylanganligi bois mashhur faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoni, taniqli tabib Mavlono Nafis, shoir Xayoliy Buxoriy, «Yusuf va Zulayho» dostonining muallifi Durbek, qasida janrining taniqli namoyandasi, o'zbek shoiri Sakkokiy, mashhur xattot Abdurahim Xorazmiy va boshqalar Mirzo Ulug'bek homiyligi ostida Samarqandda yashab ijod qilishdi. Shuningdek, Sharqning ko'plab taniqli olim va shoirlari fuzalo-yu ulamolari Samarqandga tez-tez kelib turdilar. Mirzo Ulug'bek davrida o'ziga xos tarixnavislik maktabi ham paydo bo'ldi. XV asrdagi taniqli tarixchilar, «Zubdat at tavorix» («Salnomalar qaymog'i») asarining muallifi Hofizi Abru, «Matlai sa'dayn va majmai bahrain» («Ikki dengizning qo'shilishi va ikki saodatli yulduzning bolqishi») asarining muallifi Abdurazzoq Samarqandiy, «Ravzat as safo» («Jannat bog'lari») asarining muallifi Mirxond, «Habib us siyar» («Do'stga maktub») va boshqa qator asarlarning muallifi Xondamir Ulug'bek yaratgan madaniy sharoitda o'sib ulg'ayishdi. Mirzo Ulug'bek davridagi madaniy markaz keyinchalik «Ulug'bek akademiyasi» nomini olib, dastavval mashhur fransuz yozuvchisi va olimi Volter (1694–1778) tomonidan e'tirof etilgan edi. Ajdodlarimiz tarixida 1004-yilda tuzilgan Ma'mun akademiasidan so'ng, Mirzo Ulug'bek akademiyasi O'rta Osiyo tarixida ikkinchi akademiya sifatida yuzaga keldi.

XV asrning zabardast o'zbek shoirlari ichida, shuningdek Lutfiy, Durbek, Sakkokiy, Gadoiy, Atoiy va boshqalarning ham nomlari ma'lum va mashhur bo'lgan. Jumladan, Navoiydan avval turkigo'y shoir Lutfiy (1366–1465) bo'lgan. Uning o'z vaqtida 20 dan ziyod ajoyib asarlari mavjud bo'lib, bizgacha faqat mashhur «Gul va Navro'z» va g'azallar devoni yetib kelgan, xolos.

Bu davrda, shuningdek, Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454-yili vafot etgan) Amir Temur tarixiga bag'ishlangan, Nizomiddin Shomiydan so'ng yozilgan bir xil nomdagi «Zafarnoma» asari yaratildi. Fors-tojik

adabiyotida ayniqsa mashhur shoir va olim, Navoiyning zamondoshi hamda do'sti Nuriddin Abdurahmon Jomiyning (1414–1492) roli ulkan darajada bo'ldi. Jomiy va Navoiyning do'stligi esa, tarixda xalqlarimiz hamjihatligi va ittifoqligining buyuk ramzi bo'lib qoldi.

Mirzo Ulug'bekning vafotidan so'ng madaniy markaz Xurosonga, jumladan uning poytaxti Hirotga ko'chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazining shakllanishida Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506) va ayniqsa, buyuk shoir va mutafakkir, g'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiyning (1441–1501) roli nihoyatda beqiyos bo'ldi. Ma'rifatli hukmdor bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylanadi. Ta'kidlash joizki, aynan Sulton Husayn Boyqaro xayrixohligi va homiyligi madaniy yuksalishga katta turtki bo'lib xizmat qilgan edi.

Tayanch so'zlar

Hirot, Samarqand, Movarounnahr, Xuroson, toj-u taxt, ijtimoiy-siyosiy, davlat, hukmdor, saltanat, ilm-fan, madaniyat, saroy, xonaqoh, masjid, shahar, harbiy, sulton, shoir, adabiyot, poytaxt, soliq, iqtisodiy, xalq, lashkar, jang.

Savol va topshiriqlar

1. Amir Temur vafotidan so'ng saltanatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar qanday kechdi?
2. Shohrux Mirzo faoliyatining asosiy qirralarini izohlab bering.
3. Mirzo Ulug'bek ilmiy merosi haqida nimalarni bilasiz?
4. XV asr Movarounnahr va Xuroson madaniy hayotidagi umumiylik va o'ziga xoslik nimada edi?
5. Sulton Husayn Boyqaro davlat boshqaruvida qaysi jihatlarga ustuvor masala sifatida qaragan?
6. Alisher Navoiyning siyosiy faoliyati qanday kechgan?
7. Bobur nomidagi jamoatchilik jamg'armasi xalqaro faoliyati haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
8. Temuriylar davri tarixshunosligi haqida gapirib bering.
9. Temuriylar saltanati parchalanishining asosiy sabablari nimada bo'lgan?
10. Temuriylar davlati xalqaro munosabatlari qay tariqa kechgan?
11. Mazkur davrdagi iqtisodiy hayot qanday kechgan?

2-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2008.
3. Abdurahmonov A. Ulug'bek akademiyasi. – Toshkent, 1993.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
5. Ahmedov A. Ulug'bek. – Toshkent, 1994.
6. Zayniddin Vosify. Badoye' ul-vaqo'. – Toshkent, 1979.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: «Yulduzcha», 1990.
8. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
9. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2011.
10. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. – Toshkent: «Fan», 1996.
11. Naqqosh, G'iyosiddin. Xitoy safari kundaligi. O.Bo'riyev tarjimasi. – Toshkent: «Mashhur-Press», 2017.
12. Odilov A.A. Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2016.
13. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
14. O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild, 2-kitob. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2014.
15. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent: «Sharq», 1998.
16. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015.
17. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. 1 jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

3-mavzu. SHAYBONIYLAR SULOLASI HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO XONLIGI

Reja:

- 3.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi. Siyosiy voqealar.
- 3.2. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi.
- 3.3. Harbiy ish.
- 3.4. Yer egaligi munosabatlari. Iqtisodiy hayot.
- 3.5. Shayboniylar davlatida madaniy hayot.

3.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi. Siyosiy voqealar

Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo xalqlarining XVI asr boshi – XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid qator yozma manbalar hozirga qadar saqlanib qolgan. Ular avvalo, mahalliy tarixnavislik maktablari vakillarining asarlari, qolaversa, O'rta Osiyoga tashrif buyurgan elchilar, sayyohlar, zobitlarning ma'lumotlaridan iborat. Ushbu manbalar yuqorida ta'kidlangan davr tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik-madaniy hayot hamda siyosiy jarayonlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Shayboniylarning bir asrlik hukmronlik davri, unda kechgan tarixiy jarayonlar, iqtisod, savdo, xalqaro aloqalar, maishiy turmush tarzi va boshqalar ayniqsa Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Kamolid-din Binoiyning ham shu nomdagi asari, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Xondamirning «Habib as-siyar», Muhammad Haydar Mirzoning «Tarixi Rashidiy», Muhammad ibn Arab Qatag'onning «Musaxxir al-bilod», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» («Sharafnomai Shohiy»), Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnomai Buxoro» kabi asarlarda o'z aksini topgan.

XVI–XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid manbalar ma'lumotlarini ilmiy muomalaga kiritishda ko'plab sharqshunos, tarixchi va huquqshunos olimlar etiborga molik tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bu yo'nalishda V.Abdullayev, A.Arends, B.Ahmedov, S.Azimjonova, M.Abduraimov, R.Muqminova, A.Muhammadjonov, T.Ne'matov, A.O'rinboyev, G.A.Agzamova, Sh.Vohidov, N.Norqulov, A.Erko'ziyev, I.Saidahmedovlarning tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, XIV asr boshlariga kelib, 1236-yilda Botuxon tomonidan asos solingan Oltin O'rda davlati ikki qismga bo'linib ketib, uning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topdi. XV asrning o'rtalariga kelib Sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Movarounnahrda o'zaro kurashlardan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi bir qancha shaharlarni, Xorazmning bir qismini bosib olishga erishdi. Abulxayrxon (1428–1468) ko'p holda Temuriylar saltanati chegaralariga xavf solar, 1451-yili Sulton Abusaid Mirzoning (1451–1469) hokimiyatga kelishiga aynan u ham yordam bergan edi. Tez orada u o'z davlatining poytaxtini Turadan Sig'noqqa ko'chirdi.

Manbalarning (Mulla Shodi, «Fathnoma») ma'lumot berishicha, 864-hijriy (1459–1460-yy.) yili Abulxayrxonning katta o'g'li Shohbudoq vafot etadi. Undan qolgan sakkiz yoshli Muhammad va besh yoshli Mahmud uyg'ur Boyshayx Ko'kaldosh tarbiyasiga beriladi. Muhammad Shayboniyxon (Muhammad Shohbaxt) 1451-yili tavallud topgan. U otasi Shohbudoq va onasi Qo'zibegimlardan erta yetim qolganidan so'ng unga avval Qorachabek, so'ngra Turkiston va O'tror hokimi Muhammad Mazid Tarxonlar homiylik qilishgan. Keyinchalik aka-uka Muhammad va Mahmudlar Buxoroda istiqomat qilishgan. Buxoroda ular ilm olishdi, she'riyat va adabiyotga havas qo'yishdi. Manbalar Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon iste'dodli shoir va sarkarda, zamonasining o'qimishli va bilimdon kishilaridan biri bo'lganligini ta'kidlashadi. U qator taxalluslar bilan she'rlar ham yozgan. Shayboniyxon birmuncha vaqt Buxoro hokimi Darvish Muhammad Tarxon huzurida xizmatda bo'ladi. Bobosi vafotidan keyin esa Dashti Qipchoqda hokimiyat uchun boshlangan janglarga jalb etilib, 1488-yil hokimiyatni qo'lga kiritdi.

XV asrning so'nggi choragiga kelib temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketadi. Bu paytda ko'pgina mulk va viloyatlar, xususan, Farg'ona, Hisor, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm hududlari o'zlarini mustaqil hisoblab, ko'p hollarda bir-birlari bilan kurash olib borishardi. Shuning uchun ham Movarounnahrda Temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan kichik-kichik viloyatlarga bo'linib ketgan edi. Shayboniyxon esa Temuriylar hukm-



Muhammad Shayboniyxon.
(1500–1510)

ronligiga barham berish uchun bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Temuriylar o'rtasidagi sulolaviy urushlar, keyinroq esa Shayboniyxon qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashda Toshkent mulki zodagonlari katta rol o'ynashadi. 1485-yilda Toshkentdagi hokimiyatni mashhur diniy arbob Xoja Ahror yordamida Yunusxon egallagan bo'lsa, uning vafotidan so'ng o'g'li Mahmudxon (1487–1503-yy.) Toshkent taxtini egalaydi.

Muhammad Shayboniyxon Mahmudxon yordamida Movarounnahrda Temuriylar mulklariga hujumlar qilib turadi. Temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxonni ittifoqchi qilishga uringan Mahmudxon 1495-yilda O'torni Shayboniyxonga topshiradi. Mahmudxonning hujumi xavfi tufayli Andijon bek-lari o'rtasidagi noroziliklardan cho'chigan Farg'ona hokimi Zahiriddin Muhammad Bobur o'sha yili Mahmudxon oliy hukmronligini tan oladi. 1498-yilda Toshkent hokimi Mahmudxon 5 ming kishilik qo'shini bilan Samarqandni egallashga harakat qilib ko'radi. Ammo, o'z ittifoqchiligi buzib shimoldan bostirib kelgan Shayboniyxon hujumidan so'ng Samarqanddan chekinishga majbur bo'ladi. 1500-yilda Farg'ona hokimi Bobur Mirzo Samarqandga yurish qiladi. Ammo Shayboniyxon undan oldinroq harakat qilib Samarqandni egallab oladi. O'sha davr tarixchilarining ko'pchiligi (Bobur, Binoiy, Muhammad Solih va boshqalar) Shayboniyxonning Samarqand va Buxoroni egallashida Toshkent hokimining qo'shinlari faol ishtirok etganligi haqida ma'lumot berishgan.

Toshkent hokimi Mahmudxon Temuriylarga qarshi kurashda Shayboniyxon ittifoqiga umid qilgan bo'lsa-da, biroq niyatiga yeta olmaydi. Shayboniyxon mavqeyi yildan yilga kuchayib borayotganligini ko'rgan Mahmudxon undan xavfsirab, qayta Temuriylar tomoniga

o'tishga qaror qiladi. Uzoqni ko'zlab ish tutadigan Shayboniyxon esa, o'z hokimiyatini to'la mustahkamlab olmaguniga qadar Movarounnahrning siyosiy va iqtisodiy hayotida sezilarli rol o'ynab turgan amirlar bilan do'stona munosabatlarni saqlab turishga harakat qiladi.

Movarounnahrda bo'lib turgan tinimsiz urushlar harbiy lashkarlar sonini ko'paytirishni taqozo etganligi bois Temuriylar ko'p hollarda lashkarlar sonini mahalliy aholini majburiy harbiy xizmatga tortish hisobidan to'ldirishga harakat qilishadi. O'z hisobidan ot va qurol-yarog' olishga majbur qilingan, xonavayron bo'lgan ziroatkor aholi hisobidan doimiy ravishda harbiy lashkarlar sonini to'ldirib turishning iloji yo'qligi tufayli mahalliy hukmdorlar qo'shni ko'chmanchilarning yollanma guruhlaridan ham foydalanishardi. Muhammad Shayboniyxon ham dastlab ana shunday yollanma guruhlarga boshchilik qiladi. Bu esa unga Movarounnahrdagi siyosiy vaziyatdan yaqinroq voqif bo'lish imkoniyatini beradi.

Markaziy hokimiyatning zaiflashuvidan foydalangan Temuriylardan bo'lmagan ayrim amirlar, yirik yer egalari – tarxon beklari Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashga qo'shilishgandi. Temuriy hukmdorlardan tarxon yorlig'ini olib, iqtisodiy jihatdan ancha kuchaygan shaxslardan biri Buxoro hokimi Abdul Ali tarxon edi. Bu holni Muhammad Haydar Mirzo ham o'z asarida ta'kidlab o'tadi. Asosan ko'chmanchilarning yollanma lashkarlaridan foydalangan Abdul Ali tarxon markaziy hokimiyatdan mustaqil siyosat olib borishga harakat qiladi. Manbada berilishicha, «katta va kichik shayboniylar uning [Abdul Ali tarxonning] navkarlari edilar». Abdul Ali tarxon o'zining yollanma lashkarlariga Muhammad Shayboniyxonni boshliq qilib tayinlagan.

Ma'lumki, 1498–1500-yillarda Samarqandda Temuriylardan bo'lgan Sulton Ali Mirzo hukmronlik qilgan. U siyosat va davlat boshqaruvi borasida zaif va kaltabin shaxs bo'lib, Samarqanddagi hokimiyat amalda Muhammad Mazid tarxon va Xoja Yahyolarning (Xoja Ahrorning o'g'li) qo'lida edi. Ular yuritayotgan siyosat mahalliy aholi noroziligini keltirib chiqarganligi tufayli Muhammad Shayboniyxon bu vaziyatdan foydalanib, 1498-yil Samarqandga hujum qiladi. Ushbu hujum muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Muarrix Muhammad ibn Arab Qatag'on buning sababini quyidagicha izohlaydi. Mazid tarxon va Xoja Yahyoning tarafdorlari (ular ko'pchilik edilar) Samarqandni Bobur Mirzoga

berish uchun, Sulton Ali Mirzo va uning tarafdorlari esa (ular kamchilik edilar) hokimiyatni Muhammad Shayboniyxonga berish uchun kurashishgandi. Shu tariqa Samarqandning o'zida ham ikki siyosiy guruh shakllangan edi.

Ammo 1500-yilda Samarqand beklari Shayboniyxon hokimiyatini tan olishga majbur bo'lishadi. Ayrim saroy shoirlari, jumladan, shoir va tarixchi Muhammad Solih ham Shayboniyxon hokimiyatini tan oladi. Keyinroq esa, Shayboniyxon Muhammad Solihga «amirlar amiri va shoirlar podshosi» degan unvon beradi. 1500-yilning kuzida Bobur Mirzo Samarqand taxtini egallagan bo'lsada, uzoq vaqt uni qo'lida saqlab qololmadi. 1501-yilda Shayboniyxon shaharni Bobur Mirzodan yana tortib oladi.

1500-yilning iyunida Shayboniyxon Buxoro hukmdori Muhammad Boqi tarxon ustiga yurish qildi. Uch kunlik qamalidan so'ng Buxoro zodagonlari sovg'a-salomlar bilan shahardan chiqib, Muhammad Shayboniyxon hokimiyatini tan olishdi. Shundan so'ng Shayboniyxon Samarqand tomonga yo'lga chiqqach, Muhammad Boqi tarxon Buxoro hokimiyatini yana qayta qo'lga olishga harakat qiladi. Ammo hal qiluvchi vaqtda yetib kelgan Shayboniyxon qo'shinlari Buxoroda qarshilik ko'rsatgan barcha aholini qilichdan o'tkazishadi.

Muhammad Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelishi haqida ma'lumotlar beruvchi manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Temuriy hukmdorlar dushman xavfi tug'ilgan paytda vaqtincha, nomigagina birlasha olishardi. Bir-birlari bilan doimiy ravishda raqobatlashib turgan temuriy amirlar ittifoqdosh bo'la olmadilar. Temuriy hokimlar har biri o'z hududlarini mustaqil saqlab qolishga, qolgan viloyatlar xavfsizligi masalasiga aralashmaslikka harakat qildilar. Hukmdorlarning bunday siyosat yurgizishi Muhammad Shayboniyxonga nihoyatda qo'l kelgan edi. Undan tashqari doimiy urushlar, soliqlarning ko'pligi, zodagonlarning haddidan oshib ketishi, ularning aysh-ishrat, maishatga berilishi tufayli aholining temuriy hukmdorlarga nisbatan ishonchi ancha susayib ketgan edi.

Shayboniyxon 1503-yil bahorida asosiy qo'shinlari bilan Toshkent hokimi Mahmudxon va Farg'ona hokimi Ahmadxonlarga qarshi yurish qilib, Toshkent viloyatidagi Shohruxiya va boshqa ko'pgina qal'alarni bosib olishga erishadi. Farg'onadagi Arxian qal'asi yonida bo'lgan

shafqatsiz jangda Mahmudxon halok bo'ladi va Toshkentda qoldirilgan uning o'g'li Muhammad Sulton Shayboniyxon qo'shinlari yaqinlashishi bilan Toshkentdan qochib ketadi.

Toshkentga mustahkam o'mashib olgan Shayboniyxon qo'shinarining katta qismi uning ukasi Mahmud Sulton boshchiligidagi Xorazmga yurish boshladilar. Kat va Buldumsoz qal'alarini egallagan Mahmud Sulton bu hududlardagi bir qism aholini majburan Buxoroga ko'chirishga buyruq beradi. 1505-yilda o'n oylik qamaldan so'ng shayboniylar Urganch shahrini egallashadi.

Shayboniyxonning o'zi katta qo'shini bilan 1504-yilda Hisor viloyatiga yurish qiladi. Bu paytdagi Hisor viloyatining hokimi Xusravshoh ancha katta harbiy kuchga ega bo'lsa-da, Shayboniyxonga jiddiy qarshilik ko'rsata olmaydi. Buning natijasida Hisor viloyati barcha tog'li tumanlari bilan birga Shayboniyxon ixtiyoriga o'tadi. Shundan so'ng Qunduz, Tolikon, Badaxshon hamda Balx viloyatlari ham ishg'ol etildi.

Shayboniyxonning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi raqiblari-dan biri Dashti Qipchoqdagi qozoq sultonlari bo'lishgan. XVI asrning boshlarida qozoq sultonlari Shayboniyxonning janubga qilgan harbiy yurishlaridan foydalanib, Movarounnahrda bir necha marta bosqinchilik urushlarini uyushtirdilar, Buxoro va Samarqandni talon-toroj qilib, aholining ma'lum qismini asir qilib olib ketishdi. 1509-yilda Shayboniyxon qozoq sultonlari Jonish Sulton, Burunduqxon va Qosim Sultonlarga qattiq zarbalar berdi. Buning natijasida Sig'noq, Yassi, Sabron shaharlarini qo'lga olishadi. Muhammad Shayboniyxon Turkistondagi Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini ta'mirlashga ham buyruq beradi. Shayboniyxon o'zini «Xalifa ur-rahmon va Imom az-zamon» deb atab, kelajakda butun musulmon olamiga diniy rahnamo bo'lish istagini bildiradi. Bu borada avvalo o'zi dushman deb bilgan shia mazhabidagi Eronga yurish qilishni rejalashtiradi.

Shayboniyxon 1509-yilning yozida Marvni egallashga muvaffaq bo'ladi. Uning bu davrga qadar bo'lgan yurishlari natijasida Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonning katta qismi Shayboniylar qo'l ostida birlashtirildi. Marv shahrini egallagan Shayboniyxon Eronning shimoliy viloyatlariga yurish qildi hamda Mashhad va Tus shaharlarini egallab, u yerdagi muqaddas joylarni ziyorat qildi. U mazkur shaharlardagi ba'zi me'moriy inshootlarni ta'mirlashga ham

buyruq beradi. Mashhad va Tus shaharlarini egallagan Shayboniyxon Erondagi Shoh Ismoil asos solgan Safaviylar davlatiga xavf solar edi. Shoh Ismoil davrida mavqeyi endi mustahkamlanib borayotgan Eron Shayboniyxonning janubga bo'lgan ishtiyoqiga, tabiiyki, qarshi edi. Shubhasiz, Shoh Ismoil Shayboniyxonning butun musulmon dunyosiga hukmronlik da'vosiga qarshi bo'lib, o'z davlatini diniy mazhabchilik asnosida dushman deb e'lon qilinganligidan juda norizo ham edi. 1510-yili Marvga kelgan Shayboniyxon bu yerda turib janub tomonga jiddiy yurish qilish taraddudini boshladi.



Shayboniyxon qabr toshi.

1510-yil kuzida Shayboniyxon uning izidan katta kuch bilan yetib kelgan Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shinlari bilan jangga kirishdi. Marv yaqinida bo'lib o'tgan bu jangda Shayboniyxonning kam sonli qo'shinlari¹ mag'lubiyatga uchradi hamda zamondoshlari tomonidan «Xalifa ur-Rahmon va Imom az-Zamon» deb ulug'langan Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon jangda halok bo'ladi.

Marv yaqinidagi g'alabadan so'ng Shoh Ismoil Shayboniylarga qarshi kurashda temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur bilan ittifoqchilikni taklif etadi. Undan tashqari, Shayboniyxon o'limidan keyin o'zbek sultonlari orasida boshlangan kelishmovchiliklar davlatni zaiflashuviga olib keldi hamda Shayboniylar keyingi janglarda mag'lubiyatga uchray boshladilar. Natijada Xuroson va Xorazm qo'ldan boy berildi. Bobur 1511-yil kuzida Shoh Ismoil qo'shinlari yordamida shayboniylar qo'l ostidagi Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Qarshi yerlarini egallab, Samarqandni ham uchinchi marta qo'lga kiritdi. Shoh Ismoil tomonidan Movarounnahrni butunlay qo'lga kiritish niyatida bo'lgan Boburga tajribali

¹ Ibn Ro'zbexonning ma'lumotlariga ko'ra, Shayboniyxon 1509 yilda qo'shinlarining asosiy qismini orqaga qaytarib yuborgan. Bu bilan u Movarounnahrda siyosiy birqarorlikni saqlash hamda qozoq sultonlarining yangi bosqinlarini oldini olishni ko'zlagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

sarkarda Najmi Soniy¹ (Amir Ahmad) boshchiligidagi 12 ming kishilik qo'shin ham yuborildi.

Boburning ittifoqchilari, shia mazhabidagi eroniy qizilboshlilarning² talon-torajlari (ayniqsa, Samarqand va Qarshi shaharlarida) bois mahalliy aholi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. Boburning o'zga mam-lakat bayrog'i ostida vataniga qaytishi, uning shia mazhabiga siyosiy maqsaddan kelib chiqqan holda xayrixohligi, ko'p holda qat'iyatli ish tutmasligi mahalliy aholi turli qatlamlarida norozilik kayfiyatini kuchaytirib yubordi. Bunday vaziyatdan Shayboniylar foydalanib qo-lishdi. 1512-yil 28-aprelda Cho'li Malikda shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla Sulton va Temur Sultonlar Boburga keskin zarba berib, uni Hisorga chekinishga majbur qilishadi. Bobur va eroniylarning bir-lashgan qo'shinlari bilan shayboniylar o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1512-yilning 24-noyabrida G'ijduvon yaqinida bo'lib o'tadi. Mazkur jangda Shayboniixonning jiyani, Sulton Mahmudning o'g'li Ubaydulla Sulton tomonidan ittifoqchilar qo'shini tor-mor etiladi. Jangda eronlik sarkarda Najmi Soniy o'ldiriladi. Eronlik qo'shin esa orqaga qochadi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Bobur Movarounnahrda butunlay chiqib ke-tadi va Kobul hamda uning atroflarida o'z hukmronligini to'la mustah-kamlaydi. 1526-yilning aprelida Bobur Hindistonga yurish boshlaydi va u yerdagi Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning qo'shinlarini tor-mor kel-tirib, yangi davlat – Boburiylar saltanatiga asos soldi. Ushbu saltanat Hindistonda 332 yil (1526–1858) davomida hukmronlik qildi³.

Muhammad Shayboniixonning o'limidan so'ng markaziy ho-kimiyat anchagina zaiflashdi. Beklar (amirlar) va sultonlarning ko'pchiligi Shayboniixonidan keyingi bir nechta xonlarga nomigagina bo'ysunardilar. Shayboniixon vafotidan so'ng uning amakisi Kuch-kunchixon (1512–1530) taxtga o'tiradi. Aynan Kuchkunchixon dav-rida mahalliy sultonlarning mustaqilligi kuchaya borib, ular orasida

¹ «Ikkinchi yulduz» ma'nosida.

² Safaviylarning asosiy tayanch kuchi bo'lgan ushbu askarlar XV asrning 2-yar-mida «qizilboshlilar» deb atalgan. Bu harbiy ko'chmanchilar shia imomlari sharafiga boshlariga 12 qizil chiziqli salta o'rab yurganlar.

³ 1526-yilning 21-aprelida Dehlidan shimolda joylashgan Panipat degan joyda Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shini mag'lub etildi. 27-aprel kuni esa Dehlida Bobur nomiga xutba o'qilib, u podshoh deya e'lon qilindi.

Buxoro mulki hukmdori Ubaydulla Sultonning obro'si ancha baland edi. Kuchkunchixonidan keyingi hukmdor Abu Said (1530–1533) ning qisqa hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar o'rtasidagi nizolar yanada kuchaydi. Bu paytda Xorazm mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqdi va Movarounnahr yerlari parchalana boshladi.

O'zaro urushlarga birmuncha barham berishga erishgan Ubaydulla Sulton 1512-yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1533-yildan butun Shayboniylar davlatining oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon I (1533–1540) poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. Ubaydullaxon I davridan boshlab davlat Shayboniylar yoki Buxoro xonligi deb ham atala boshlandi. O'sha paytda Samarqand hukmdori bo'lgan Kuchkunchixonning o'g'li Abdulla Sulton ham Ubaydullaxon hokimiyatini tan olishga majbur bo'ldi. Ubaydullaxon I Xorazm va Xurosonga yurish qildi. Besh oylik qamaldan so'ng Hirot shahrini egalladi. U yana Movarounnahr va Xuroson yerlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Ubaydullaxon I Eron tazyiqiga barham berib, davlat hududlarini kengaytirdi. U o'zaro nizo va parokandalikka chek qo'yib, kuchli davlat barpo etishga erishdi. Uning hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqeyi kuchaydi. Ubaydullaxon I Buxoroda Miri Arab madrasasi, Mirak Said G'iyos bog'i, Zarafshon daryosi ustiga ko'prik va boshqa inshootlarni qurdirgan. U «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy», taxalluslari ostida ham ijod qilgan salohiyatli shoir ham bo'lgan. Ubaydullaxon I arab, fors, o'zbek tillarida g'azal, ruboiy, baytlar yozgan. Shoir hukmronlik mavqeyini o'zida jam etgan Ubaydullaxon o'zbek tilining boy imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

XVI asrning 40-yillariga kelib yirik zodagonlar va sulolalar o'rtasida Movarounnahrning poytaxt shaharlari va mulklari uchun o'zaro kurashlar yana avj oldi. Hukmdor xonadoni vakillari o'rtasida ayniqsa Buxoro va Samarqand uchun kurash kuchaydi. Abdullaxon I ning qisqa hukmronligidan so'ng (1540–1541) qo'sh hokimiyat yuzaga keldi. Bu davrda Samarqandda Kuchkunchixonning uchinchi o'g'li Abdullatifxon (1541–1551) Buxoroda esa Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540–1550) hukmronlik qilib, har ikkalasi ham o'zini rasmiy xon deb hisoblashardi.

O'zaro hamda sulolaviy kurashlar davom etayotgan bir sharoitda Shayboniyxonning nevarasi Muhammad Yorsulton bir necha oy taxtni boshqarganidan so'ng, amaldagi hokimiyat Baroqxon (Navro'z Ahmadxon, 1551–1556-yy.) qo'liga o'tadi. Baroqxon Abulxayrxonning nevarasi, Toshkent hokimi Suyunchixonning o'g'li bo'lgan. Otasi vafotidan so'ng Toshkent yerlarini boshqargan. Toshkent va Sirdaryo bo'yi yerlari hukmdori bo'lgan Navro'z Ahmadxon Buxoroda o'z hokimiyatini tan oldirish uchun Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga bir necha marta yurishlar qilib turdi. Navro'z Ahmadxon Usmoniylar bilan do'ctona munosabatlarni o'rnatib, turk yanicharlarini o'z davlatiga taklif qildi. U Toshkentda o'z nomiga madrasa qurdirtdi, Samarqanddagi Darg'om kanali atrofini obodonlashtirdi.

1556-yilda Navro'z Ahmadxon vafot etgach, Balx hukmdori Pirmuhammadxon (1556–1561) Buxoro taxtiga o'tirdi. Shunga qaramasdan 1556-yilda Axsi va Andijon mulki hukmdorlari Buxoroni egallashga harakat qilib ko'rdilar. Ammo o'sha paytda katta nufuzga ega bo'lgan Jo'ybor shayxi Muhammad Islom (1493–1563) tomonidan qo'llab-quvvatlangan shayboniy Iskandar Sultonning o'g'li Abdulla Sulton bunga yo'l qo'ymadi¹. Pirmuhammadxon Balxda qolib taxtni boshqarayotgan, uning nomiga xutba o'qitilib, tangalar zarb etilayotgan bo'lsa-da, 1557-yildan Buxoroda Abdulla Sulton hukmronlik qila boshlaydi. Endilikda uni Abdullaxon nomi bilan atay boshlashdi.

Mustaqil mulklar va yirik zodagonlarning o'zaro urushlaridan ularning o'zlariga qarshi foydalangan Abdullaxon asta-sekinlik bilan Movarounnahr yerlarini o'z hokimiyati ostiga birlashtira boshladi. Uning bu harakatlarini jo'ybor shayxlari Xo'ja Islom hamda uning o'g'li Xo'ja Sa'dlar faol qo'llab-quvvatlab turdilar. 1561-yilda Abdullaxon Pirmuhammad bilan aloqalarni uzdi va otasi Iskandar Sultonni (1561–1583-yy.) xon deb e'lon qildi. Iskandar Sulton nomigagina xon bo'lib, mamlakatni boshqaruv ishlariga deyarli aralashmas, hokimiyat amalda Abdullaxon qo'lida edi. 1583-yilda Iskandar Sulton vafot etgach, Abdullaxon II nomi bilan rasman xon deb e'lon qilindi.

¹ Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi shayx Muhammad Islomning bu paytda xalq orasida obro'si juda yuqori bo'lgan. Avval Muhammad Islom, keyinchalik uning o'g'li shayx Abubakr Sa'ad xonlikdagi shayxulislom lavozimini egallashgan.

Shu o'rinda masala mohiyatiga kengroq to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Navro'z Ahmadxon (Baroqxon)ning besh nafar o'g'illari quyidagi hududlarni boshqarishardi. Xususan Darvishxon – Toshkentni, Boboxon – Turkistonni, Xorazmshoh – Sayramni, Do'st Muhammad – Axsikentni, Muhammad Amin – Andijonda hukmronlik qilishar va har jihatdan Abdullaxonga qarshi turishar edi. Ko'p hollarda ular qozoq sultonlaridan ham yordam so'rashar edi. Garchi 1582-yili Toshkent yaqinidagi Qoraqamish hududida (hozirda shahar mavzalaridan biri) Darvishxon mag'lub bo'lsada, lekin Turkiston hokimi Boboxon Toshkentni qayta egallab, hatto Buxoro va Samarqand ostonalariga qadar yurishni amalga oshiradi. Faqatgina qozoq sultonlari tomonidan uning o'ldirilishi Toshkentni Abdullaxon II hukmiga qaytishiga qayta imkon yaratdi. Mazkur urushlar Toshkent vohasidagi iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib, ko'p holda aholini ochlik va muhtojlik domiga tortdi.

Bunday og'ir iqtisodiy ahvolga keyinchalik Xorazm, Marv, Termiz va Samarqand aholisi ham muhtalo etildi. Xonning farmoniga ko'ra Marv suv to'g'oni buzib tashlandi. Toshkent vohasidagi Farokat, Chinoz, Shohruxiya kabi kichik shaharlar butkul vayron etildi, ba'zi joylarning aholisi turli hududlarga ko'chirib yuborildi. 1582-yilning o'zida Abdullaxon qozoq sultonlariga qarshi yurishni amalga oshirdi hamda shayboniylarning eski raqibi bo'lgan Bobo sultonni o'ldirishga muvaffaq bo'ldi.

Tarixiy jihatdan Movarounnahr o'lkasi bilan azaliy bog'liq bo'lgan Xuroson o'lkasi, xususan uning markazi Hirot shahrining egallanishi mamlakat uchun katta ahamiyat kasb etardi. 1588-yili Hirot to'qqiz oylik qamaldan so'ng qo'lga kiritildi. Eron qo'shini mag'lub etildi. Ta'kidlash joizki, Hirot aholisi ko'p jihatdan Abdullaxon II ga xayrixoh ham edi. Hirot hokimligi xonning yaqin va sadoqatli amaldorlaridan biri amir Qulbobo Ko'kaldoshga topshirildi. Keyinchalik, Xurosonning boshqa hududlari ham Shayboniylar tomonidan qo'lga olindi.

Xorazm esa uch marotaba yurishdan so'ng, faqatgina 1595-yili ishg'ol qilindi. Xorazm aholisi zimmasiga og'ir soliqlar majburiyati yuklandi. Abulg'azi Bahodirxonning yozishicha, soliqlar yuki shunchalik og'ir bo'lganki, aholi ko'p holda uy-joylarini tashlab, boshqa yerlarga ko'chib keta boshlashgan. Qochib ketganlar zimmasidagi soliq yuki

qolgan aholi zimmasiga yuklangan. Ko'plab yurishlar, og'ir soliqlar shubhasiz, aholining ma'lum qismida norozilik uyg'otgan.

Shunga qaramasdan, o'zaro parokandalik, nizo va talonchilikdan charchagan aholining katta qismi, turli qatlamlar, savdogarlar, zodagonlar, ruhoniylarning aksariyati Abdullaxon II tomonidan olg'a surilgan kuchli va markazlashgan davlat barpo etish g'oyasini qo'llab-quvvatladilar. Chunki, aynan markazlashgan kuchli davlatgina iqtisodiy xo'jalik hayotning o'sishiga, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlani-shiga imkon yaratar edi. Qolaversa, turli nizo va parokandalikni tuga-tishdan aholining barcha qatlamlari manfaatdor edilar.

Shayboniy hukmdorlari orasida Abdullaxon II o'zining qat'iyatliligi, uzoqni ko'zlovchi siyosatchi va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turardi. U markazlashgan Shayboniylar davlatini tiklash maqsadida bebosh va o'zlarini mustaqil hisoblaydigan amirlar, sultonlar, mulklar hukmdorlari bilan tinimsiz tarzda kurash olib borishga majbur bo'ldi. Tinimsiz urushlar natijasida 1573-yilda Farg'ona, 1574-yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor yerlari, 1578-yilda Samarqand, 1582-yilda Toshkent, Shohruxiya, Sayram, Ohangaron, 1583-yilda Balx, 1584-yilda Badaxshon, 1588-yilda Hirot va uning atroflari, 1595-yilda Xorazm Abdullaxon II hokimiyati ostiga birlashtirildi. Abdullaxon II uzoq yillik olib borilgan urushlardan so'ng butun Movarounnahr, Xuroson, Xorazm va Turkistonni qo'lga kiritib Shayboniyxon tuzgan davlatni qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi.

Hunarmandlar va shahar savdo-sotiq ahli, badavlat zodagonlarning bir qismi, shuningdek ruhoniylarning ma'lum qismi o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda markazlashgan qudratli davlat barpo etish g'oyasini qo'llab-quvvatladilar. Abdullaxon II oliy hukmronlik mavqeyini mustahkamlab olgach, mahalliy hokim, zodagon, harbiy qo'shin boshliqlari haq-huquqlarini cheklay boshladi. Joylarda o'zaro fitna va ayirmachi guruhlariga qarshi kurash olib bordi. Mazkur holat, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoni rivojiga zamin bo'lib xizmat qildi. Aynan Abdullaxon II iqtisodiy hayot va qurilish, obodonchilik ishlariga katta e'tibor bilan qaradi. U tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti natijasida oltin, kumush, mis tangalar umumdavlat miqyosida yagona o'lchov va hajm birligida muomalaga chiqdi. O'zaro xo'jalik aloqalari, ayniqsa, ichki va tashqi savdo bu islohot

natijasida bir maromda taraqqiy topdi. Ubaydullaxon I, keyinchalik Abdullaxon II davrida poytaxt Buxoro shahri qurilishi va obodonchiligiga katta e'tibor qaratildi. Bu davrda shahardan tashqaridagi Sumiton ham poytaxt hududiga kiritildi. To'g'ri, bir tomondan, poytaxt, obodonchiligi, qurilishiga katta e'tibor qaratilgan bo'lsada, ikkinchi tomondan, bu ishlarga jalb etilgan xalq ommasi zimmasiga og'ir soliqlar mas'uliyati ham yuklanar edi.

Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi bilan Usmoniylar o'rtasida harbiy sohada o'zaro munosabatlar ancha rivoj topdi. Avval Navro'z Ahmadxon, keyinchalik Abdullaxon II turk sultonlari bilan o'zaro mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yishdi. Bu paytda Navro'z Ahmadxon va boshqa xonlar xizmatida turk yanicharlari (navkarlari) bo'lganligini tarixiy manbalar ham isbot qiladi. Muhammad Yusuf Munshiy o'z asarida Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'minning turk sultoni Murod III (1574–1579) ga yozgan xati nusxasini keltiradi. Xatda 1569-yilda Mashhad olinganidan so'ng, yuzaga kelgan vaziyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Eronga qarshi hamkorlikda yurish qilish lozimligi haqida so'z yuritishadi. Shu bilan birga, Hindiston bilan ham mustahkam aloqalar o'rnatila boshlandi. O'rta Osiyo va Hindistonda bir vaqtda yuzaga kelgan qudratli davlatlar bunga asos bo'lib xizmat qildi.

1572-yildayoq Hindistondagi boburiy podshoh Akbarshoh (1542–1605) huzuriga ilk buxorolik elchi Xo'ja Oltimish yuboriladi. U o'zi bilan birga Abdullaxonning o'zaro hamkorlik va do'stlik aloqalarini o'rnatish xususidagi maktubini ham olib boradi. Abdullaxon II ning keyingi vakili 1577-yili Abdurahim elchi Akbarshoh huzuriga nafaqat do'stlik munosabatlarini mustahkamlash, balki tegishli hududda birgalikda siyosiy va harbiy harakatlarni olib borish, jumladan, Eron davlati yerlarini bo'lib olish rejasini ham taqdim etadi. Akbarshoh javob tariqasida o'z elchisi Mirza Fuladni Buxoroga tegishli noma bilan jo'natadi.

Bu vaqtda Abdullaxon II tomonidan Xurosonning egallanishi, hatto Rossiya podshosi Fyodorning ham qulog'iga yetib boradi. U esa qozoq sultonlari bilan Eron shohi birgalikda Shayboniylarga qarshi kurashishlari lozim, degan xulosaga keladi. Ta'kidlash joizki, avvalboshida nisbatan sukut saqlagan Hindiston ham Eronning zaiflashuvidan manfaatdor edi. Akbarshoh Eron qo'lidan Qandahorni tortib olishni ham rejalashtirgan edi. Lekin shu bilan birga, Akbarshohni Abdullaxon II

tomonidan 1584-yili Badaxshonning egallanishi ham ancha tashvishga solib qo'ygan edi.

Abdullaxon II tomonidan Hindistonga yuborilayotgan Mir Quraysh boshchiligidagi elchilik missiyasi zimmasiga Badaxshonning egallanishi hamda Xurosonni Shayboniylar davlati tarkibiga kiritish bilan bog'liq masalalarga izoh berish vazifasi yuklandi. 1586-yili Akbarshoh tomonidan yuborilgan Hakim Humom va Sadr Jahon boshchiligidagi elchilar, 1590-yili Buxorodan Hindistonga yuborilgan Mavlono Husayn rahbarligidagi elchilik missiyasi o'zaro savdo iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qildi.

Ta'kidlash kerakki, xalqaro maydonda Abdullaxon II ning Eronga qarshi avval Usmoniylar, so'ng Hindiston bilan ittifoqlikda qarshi harakat qilish rejasini o'z samarasini bermadi. Chunki, Usmoniylarning ham, Hindistonning ham geosiyosiy maydonda o'z hisob-kitobi va manfaatlari mavjud bo'lgan. Abdullaxon II o'zining so'nggi hukmronlik yillarida tashqi siyosat maydonida ma'lum muvaffaqiyatsizliklarga duch keldi. Bir vaqtlar hokimiyatga kelishida o'zi yordam bergan sobiq ittifoqchisi qozoq sultoni Tavakkal (1586–1598) shimoldan Shayboniylarga xavf sola boshladi. Xususan, u Toshkent va Samarqand ostonalariga qadar hujumlarni uyushtirdi. Janub, ya'ni Eron-da kuchli hukmdorlik maqomiga ega bo'la boshlagan Abbos I (1587–1628) Shayboniylarni Xurosondan siqib chiqarishga harakat qila boshladi.

Shimolga safarga chog'langan Abdullaxon II ning vafoti (1598-yil fevral) xonlikdagi ichki va tashqi siyosat borasidagi ahvolga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xon vafotidan so'ng joylarda xalq g'alayonlari, mahalliy hokimlarning ayirmachi harakatlari boshlanib ketdi. Abdullaxon II ning vorisi va yolg'iz o'g'li Abdulmo'minxon, garchi otasining siyosatini davom ettirishga harakat qilsa-da, lekin uning haddan ziyod shafqatsizligi, berahmliqi, qarindosh-urug'lar, saroy ahliga nisbatan qirg'inbaroti yangi xonga nisbatan fitna tayyorlanishiga zamin bo'lib xizmat qildi. 1598-yil oxirlarida Abdulmo'minxon fitnada o'ldirildi¹.

¹ Abdulmo'minxon otasi hayotlik chog'ida, 1582–1598-yillarda Balx va Badaxshon viloyatlari hokimi bo'lgan. Hirot egallangandan so'ng, uning hokimligi Qulbobo Ko'kaldoshga taqdim etilishi shahzoda Abdulmo'minxonni otasiga qarshi chiqishiga sabab bo'ldi. Ota-bola o'rtasida munosabatlar yomonlashib, 1597-yili Abdulmo'minxon Amudaryo bo'ylarida xon hokimiyatiga qarshi bosh ko'tardi. Mazkur nizo ulamolalar aralashuvi tufayli bartaraf etiladi. Abdulmo'minxon keyinroq ham Xurosonda Eron safaviylariga qarshi kurash olib boradi.

Shayboniylar xonadoni vakillaridan bu qirg'inbarot natijasida taxtga deyarli munosib vakil ham qolmadi. Buxorolik bir guruh amaldorlar shayboniylardan bo'lgan Ibodulla Sultonning o'g'li Abdulaminni xon qilib ko'tarishga harakat qildilar. Boshqa bir ko'pchilikni tashkil etuvchi aslzoda va harbiy urug' boshliqlaridan iborat guruh Balx hokimi Abdullaxon II ning jiyani Pirmuhammadni taxtga o'tkazishga muvaffaq bo'lishdi. Shayboniylar sulolasining oxirgi vakili Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad II (1598–1601) garchi hukmdorlik taxtiga o'tirgan bo'lsa-da, uning butun hukmdorlik davri jang-u jadallarda o'tdi. Xususan, u qozoq sultonlarini xonlik hududidan haydab chiqarish uchun jang-u jadallar olib bordi. Shuningdek, xon turli nizo va isyonlar domiga ham aralashib qoldi. 1601-yili shu nizolarning birida Samarqand yaqinidagi Bog'ishamol degan joyda qo'lga olindi va 80 yoshga yetgan keksa kishi bo'lishiga qaramasdan ashtarxoniy Boqimuhammad tomonidan o'ldiriladi. Bir asr davomida hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi aynan shu hukmdor nomi bilan o'z nihoyasiga yetdi.

3.2. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi

XVI asrning boshlarida Movarounnahrning Muhammad Shayboniylar tomonidan egallanishi bu hududlarning xon urug'i vakillari bo'lgan o'zbek sultonlari tomonidan bo'lib berilishiga sabab bo'ldi. Ayrim hollarda Shayboniylar ba'zi qabila boshliqlariga ma'lum mulklarni ham bergan. XVI asrning 60-yillaridan boshlab Buxoro Shayboniylar davlatining ma'muriy-siyosiy markazi sifatida e'tirof etilganidan so'ng qonun kuchiga ega bo'lgan barcha hujjatlar Buxorodan chiqarilgan. Davlatdagi boshqaruv apparatini tashkil etgan ko'p sonli amaldorlar guruhi ham aynan Buxoroda joylashgan edi.

Ma'muriy jihatdan Buxoro xonligi viloyatlar va tumanlarga bo'lingan. Mirza Badi' Devonning ma'lumot berishicha, Buxoro xonligi boshqaruvida o'ziga xos an'ana va qonunlar o'rnatilgan bo'lib, joylardagi yuqori mansabga ega bo'lgan zodagonlar davlat boshlig'i tomonidan hokimlikka ko'tarilgan.

Yirik hududlarda tashkil topgan Shayboniylar davlati xon tomonidan boshqarilgan. Xonlikning siyosiy tizimida o'zbek davlatchiligiining Somoniylardan Temuriylargacha bo'lgan davrida qaror topgan

davlat boshqaruvi qonun-qoidalarini hamda xususiyatlari bilan birgalikda ko'chmanchilarga xos an'analar ham mavjud bo'lgan. Xon – cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, u o'z atrofida viloyat, tuman hokimlari hamda nufuzli qabila boshliqlarini birlashtirganidan so'ng mustaqil siyosat olib borgan. Ammo ayrim viloyat hokimlari mavqeyi kuchayib markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ygan holatlar ham bo'lib turgan. Bunday holat ayniqsa Abdullaxon II davrida kuchaygan bo'lib, u bo'ysunmas hokimlarning aksariyatini bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan edi.

Shayboniylar davlati boshqaruvida ananaviy musulmon odatlari va shariat qonun-qoidalariga qattiq rioya qilingan. Davlatdagi oliy hukmdorlik otadan bolaga emas, balki suloladan eng ulug' yoshli shaxsga o'tish tartibi dastlabki shayboniylar davrida saqlanib qolgan edi, lekin XVI asrning 40-yillaridan boshlab vorisiylikda taxtni otadan bolaga o'tish an'anasi kuchayadi hamda Abdullaxon II davrida aniq bir shaklga tushadi.

Davlat boshqaruvida xon saroyidagi oliy darajali amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv hamda viloyatlar va tumanlardagi mahalliy boshqaruv asosiy o'rinda turar edi. Tabiiyki, xon ular yordamida hamda bevosita ishtirokida davlatdagi ma'muriy boshqaruvni amalga oshirgan.

Ilgarigi sulolalar davrida bo'lgani kabi Shayboniylar davrida ham oliy davlat idorasi – dargoh hisoblangan. Dargoh tepasida xon turgan bo'lib, bu idora saroy devonida jamlangan hamda davlatning ichki va tashqi hayotiga oid barcha masalalarni hal qilgan. Chunonchi, davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo hamda odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama davlatning siyosiy, moliyaviy, harbiy, tashkiliy va boshqa masalalarini ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilan kuchga kirib, hayotga tatbiq etilgan. Shayboniylar davlatida devonbegi (bosh vazir) lavozimi katta obro'ga ega bo'lib, u davlat moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan. Ta'kidlash joizki, ko'plab ko'kaldosh, otaliq, naqib, vaziri a'zam, vazir kabi oliy darajali saroy amaldorlari, nuyon, tug'begi, qutvol, dorug'a, qurchiboshi kabi harbiy amaldorlar, jo'ybor shayxlari, sadrlar, shayxulislom kabi diniy ulamolarning fikrlari va manfaatlari ham qarorlar qabul qilinishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Shayboniylar davlat boshqaruvidagi muhim amallardan biri naqib hisoblangan. Naqiblik mansabi xon huzurida katta vakolatlarga ega bo'lib, naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan biri hisoblangan. Manbalarga ko'ra, rasmiy qabul marosimlarida naqibning oliy hukmdordan chap tomonda birinchi bo'lib joy olishi naqibning dargohdagi yuksak martabasidan dalolat berardi. Shuningdek, xon tomonidan chiqarilgan farmon va yorliqlarda ham naqibning nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. Naqibga davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliy hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Ayrim hollarda harbiy muzokaralar uchun ham xon naqiblar tomoniga o'z naqibini jo'natgan.

Harbiy yurishlarni uyushtirish, urushlarni davom ettirish yoki to'xtatish, raqib tomonning harbiy-strategik tomonlarini o'rganish kabi vazifalar ham naqibga yuklatilgan hamda xon uning maslahatlari bilan qaror qabul qilgan. Manbalarga ko'ra, naqiblarga o'ta ma'suliyatli bo'lgan elchilik vazifalari ham birlashtirilgan. Shayboniy hukmdorlari naqiblik lavozimiga asosan Muhammad payg'ambar (s.a.v.) avlodlari hisoblangan sayidlar xonadoniga mansub shaxslarni tayinlashgan.

Shayboniylar davlatidagi muhim mansablardan yana biri otaliq bo'lgan. Bu mansabga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan. Mazkur lavozim egasi shahzodaga otaliq qilib, otasining o'rini bosadigan darajada tarbiya bergan. Otaliqlar shahzodalarga mulk qilib berilgan viloyatlardagi xon hokimiyati siyosatini belgilash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lishgan. Xonlar voyaga yetmagan shahzodalarga viloyatlarini mulk sifati taqsimlab berganda ularni doimiy nazorat qilish uchun o'zining ishonchli kishilarini otaliq qilib tayinlagan. Bunday hollarda shahzodalar voyaga yetguniga qadar ma'lum viloyatlardagi boshqaruv ishlari otaliqlar qo'lida bo'lgan. Otaliqlar amalda butun bir viloyat taqdirini, uning markaziy hokimiyat bilan munosabatlarini hal qilishgan.

Davlat ishlarida ko'kaldosh (aynan ma'nosi – bir onadan sut emgan) mansabi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ko'kaldoshlar davlat bilan do'stona va dushmanlik munosabatida bo'lganlar haqida ma'lumotlar to'plagan. Shuning uchun ham ko'kaldosh dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, bu amaldagi kishilarning vazifasi mamlakatda oliy hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga

fuqaroning munosabatlarini o'rganishdan iborat edi. Ko'kaldoshlar yuqori mavqega ega badavlat kishilar bo'lishgan. Toshkent va Buxoroda ko'kaldoshlar o'z mablag'lari hisobidan madrasalar qurdirgani ma'lum.

Xon yasovuli lavozimidagi shaxslar sulola ichki munosabatlariga oid bo'ladigan tadbirlarni boshqarib turishgan. Chunonchi, oliy hukmdor bilan shahzodalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatilgan tartib asosida yo'lga qo'yish, xonning shahzodalarni qabul qilishi, ularning arz-lari, iltimoslarini xonga yetkazish kabi tadbirlar shular jumlasidandir.

Shayboniylar xonlari hayotida ovchilik muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham xon huzuridagi qushbegi yoki amiri shikor lavozimi ma'suliyatli hisoblangan. Amiri shikorning vazifasi xon va sultonlarning ovlarini uyushtirib turish bo'lgan. Ov qilinadigan joy atrofidagi qishloqlar aholisi o'z ot-ulovi, qurol-aslahasi bilan kelib xon va sultonlarning ov o'tkazishlarida ularga yordam berish, ular dam olganlarida qo'noq hamda oziq-ovqat bilan ta'minlash ishlari ham qushbегining vazifasi hisoblangan. Manba tili bilan aytganda, «turli ovchi qushlar (lochin, burgut), tozi itlar va boshqalar» ni tayyorlash ham amiri shikorning zimmasida bo'lgan.


Davlat dargohidagi xavfsizlikni ta'minlash, ichki tartib-qoidalar, keldi-kettidan xabardorlik eshikog'aboshi lavozimidagi shaxs zimmasida yuklatilgan. Ushbu mansab chap eshikog'aboshi, o'ng eshikog'aboshi, eshikog'aboshi kabi lavozimlarga taqsimlanib, bu xizmat vakillari urush paytlarida oliy hukmdorning eng muhim harbiy topshiriqlarini ham bajarib borishgan.

Umuman olganda, o'sha zamonlarga xos ravishda davlatning biror-bir xizmat idorasi, xizmat turi namoyandalari urush paytlarida o'zlarining to'g'ridan to'g'ri vazifalariga qo'shimcha ravishda harbiy faoliyat bilan ham shug'ullanib kelishgan. Bu holatni miroxur (oliy hukmdorga tegishli yilqi, ot-ulov, ularning ta'minoti kabilarga mas'ul), shig'ovul (chet el elchilarini qabul qilish bo'yicha maxsus xizmat boshlig'i), qushbegi, chuhraboshi (maxsus harbiy qism boshlig'i), bakovul, dasturxonchi kabi xizmatlar faoliyati orqali ham ko'rish mumkin. Ya'ni, ular o'z ma'muriy idoraviy vazifalaridan tashqari harbiy yumushlarni ham bajarib kelishgan.

Mamlakatning siyosiy hayoti, davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlar, yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlarining (umaro) ham o'rni

katta edi. Dargohdagi harbiy ishlar bilan bog'liq chuhraboshi va qurchiboshi (qurol-aslaha xizmati boshlig'i) vazifalaridan tashqari jibachi, jarchi, qorovulbegi, tug'begi kabi xizmatlar ham bo'lgan. Ichki va tashqi xavfni bartaraf etishda, yangi yerlarni bosib olish uchun qilindigan istilochilik yurishlarda qo'shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, qo'shin boshliqlarining qo'mondonlik mahorati kabilar katta ahamiyat kasb etgan.

Buxoro xonligida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi



Shayboniylar davlati boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, shayxlar va xojalarning ham mavqeyi katta bo'lgan. Eng kuchli hukmdorlar ham ulamolar bilan hisoblashishga majbur bo'lishgan. XVI asrning boshlarida Shayboniyxon yirik din peshvolari-ning davlat ishlariga siyosiy ta'sirini anchagina pasaytirishga muvaffaq bo'lgan va diniy hamda dunyoviy hokimiyatni o'z qo'l ostida birlashtirgan edi. Oradan ko'p o'tmasdan Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida, ayniqsa Buxoro shahrida yirik din peshvolarining ta'siri yana kuchayadi. Bu davrga kelib ijtimoiy-ma'naviy hayot bobida Jo'ybor ruhoniylari, din peshvolarining mavqeyi ko'tarilib ketadi.

XVI asrning o'rtalaridan boshlab Jo'ybor shayxlari oliy hukmdor taqdirini hal qilish darajasidagi mavqeyga ko'tarilishadi. Qishloqlar-

da katta-katta yerlarga, shaharlarda esa yirik ko'chmas mulklarga ega bo'lgan shayxlar yirik zodagonlar va amaldorlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishgan. Manbalarga ko'ra, zabardast Shayboniylar hukmdorlaridan biri bo'lgan Abdullaxon II ham avval Xoja Islom, keyin esa Xoja Sa'dlarning siyosiy va xo'jalik faoliyatini qo'llab-quvvatlagan. Davlatdagi Shayxul-islom lavozimi ham jo'ybor shayxlari xonadonidan tayinlangan. Din peshvolari orasida shayx ul-islom, sadr, qozi kalon, muftiy kabi diniy mansablarning mavqeyi ancha yuqori bo'lgan.

3.3. Harbiy ish

Shayboniylar davlati, uning siyosati, boshqaruv ishlarida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlari, qo'mondonlar va amirlarning harbiy mahorati katta ahamiyatga ega edi. Barcha shayboniy hukmdorlari harbiy siyosatni Dashti Qipchoq o'zbeklarining an'alariga asoslanib olib borishgan hamda bu jarayonda zarur hollarda zudlik bilan to'planadigan ko'p sonli qo'shinlarga tayanishgan. Undan tashqari Shayboniylar ichki va tashqi xavfni bartaraf etishda, davlat sarhadlarini kengaytirish uchun qilinadigan yurishlarda qo'shinning soni, harbiy tayyorgarligi, jang usullari, qurol-yarog'lar, qo'shin boshliqlarining harbiy mahorati kabilarga ham katta e'tibor qaratishgan.

Shayboniylar davlatida qo'shin to'plash, qo'shin ta'minoti, uning tarkibi, qo'shinni jangga tayyorlash, qurol-aslahalar, harbiy va qorovullik xizmatini o'tash, harbiy harakatlarni olib borish asosan Chingizxon va Amir Temur qo'shinlarining harbiy tuzilmasi va tizimiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniyxon tomonidan Dashti Qipchoq ahliga xos bo'lgan ayrim o'zgarishlar kiritilgan.

Harbiy harakatlar davrida qo'shin o'q-yoy, uzun nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurollaridan foydalangan. Qo'shinda himoya vositasi sifatida qalqon (sipar), hamda temir simdan mayda qilib to'qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut (jovshan) yoki jiba (jeva) – temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kabilardan foydalanilgan.

Abdullaxon II davrida Usmoniylar davlati va Rossiyadan piltalarni sotib olish va zambaraklar ham keltirila boshlangan. Qo'shinning asosiy jangovar qismini suvoriylar tashkil etardi. Shu sababli ham o'zaro urushlarda

katta rol o'ynagan otlarning himoyasiga katta e'tibor berilardi. Manbalarda kamon o'qi o'tmasligi uchun otlar ustiga maxsus yopinchiq – gejm (kejim) yopilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Shayboniylar qo'shini tarkibida dushmanning shahar va mudofaa qo'rg'onlarini ishg'ol etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan naf-tandozlar, manjaniqchilar va tosh otuvchilar qismlari ham bo'lgan. «Abdullanoma»da bu qurollar va zambaraklarni joylashtirish, qal'a devorlariga zarbalar berishda o'sha davrda ustoz Ruhiy ismli kishi boshchilik qilgani qayd etiladi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon II Buxoro xonligi qo'shinining jangovarligini oshirish maqsadida qator islohotlar o'tkazadi. Xususan, o'sha davr uchun zamonaviy hisoblangan qurol-yarog'larni Yevropadan keltirishga muvaffaq bo'ladi. Hofiz Tanish Buxoriy Abdullaxon qo'shinida Farangistondan olib kelingan pilta mitliqlar, farangi javshan (sovt) hamda zambaraklar borilgi haqida yozadi. Shuningdek, bu davrda Usmoniylar davlati bilan harbiy sohada ham ma'lum aloqalar o'rnatilgan edi. Masalan, Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) o'z qarorgohiga 300 nafar turk yanicharlarini xizmatga olgan.


Shayboniylar qo'shinining oliy bosh qo'mondoni xonning o'zi hisoblangan. Alohida bo'linmalar – o'ng qanot, so'l qanot, qalb, qorovul va hirovullarga xonning o'g'illari, qarindoshlari yoki jangda sinalgan, tajribali va dovyurak nuyonlar (yoki sultonlar) boshliq qilib tayinlangan. Ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi Shayboniylar qo'shini ham o'n minglik (tuman), minglik, yuzlik, o'nlik bo'linmalarga bo'lingan.

Shayboniylar qo'shini asosan qalb (qavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan va hirovul (qo'shinning orqa qismi)dan tashkil topgan. O'ng qanotni do'rmon, tuboyi, chimboy va uyg'ur qabilalarining lashkari, so'l qanotni esa burqut, qiyot, qo'ng'iroq, nayman, qushchi, mang'it, ushun (uyshin), iyjonlar tashkil etgan. Tang'ut, o'tarchi, o'karish-nayman, jot, xitoy, qorliq, kenagas, echki, tuman-minglar bo'lsa, akademik B.Ahmedov qayd etganidek, manglay, qanbul va qorovuldan iborat edi. Manbalarda qo'shinning qanotlariga boshchilik qilgan shaharda o'g'lon deb ham eslatiladi. Qo'shin oldida manglay deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlantiruvchi kichik jangovor qism – ilg'or bo'lgan. Shuningdek, umumiy

qo'shin oldida qorovul deb ataluvchi maxsus qism, qo'shinning o'ng va so'l qanotlari oldida boruvchi kichik g'o'l deb nomlanuvchi bo'linmalar hamda qo'shin ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma – chanoh harakat qilgan.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni, bayroq ostida zaxirada turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20–30 ming kishilik jangovar harbiy bo'linma hamda zabongiri, ya'ni, dushman tomonidan «tib» tutib keluvchi maxsus bo'linma va xabargiri – dushman to'g'risida ma'lumot keltiruvchi (razvedka) maxsus bo'linmalar ham bor edi. Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan joy – bargoh deb atalgan. Qo'shinda saralangan o'zbek navkarlaridan tuzilgan xonning xos soqchilari ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Shayboniylar harbiy qo'shinlarining tuzilishi quyidagicha bo'lgan:



Qo'shinni yig'ish va yurishga tayyorlash, ularning maoshini to'lash hamda boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor-tavochi shug'ullangan. Tavochilar katta huquqqa ega bo'lib, lashkar to'plashdan

tashqari, harbiy yurishlar paytida qo'shin uchun to'xtash joylarini belgilash va ayni vaqtda qo'shin to'xtagan yerda ov tashkil qilish bilan ham shug'ullanishgan. Lashkar to'plash ishi jarchi deb ataladigan amaldorlarga ham topshirib turilgan.

Harbiy yurish vaqtida qo'shinning oziq-ovqat zaxirasini aholining qo'lida bo'lgan ortiqcha oziq-ovqatni musodara qilish yo'li bilan to'latib turgan. Bunday tarzda oziq-ovqat to'plash «yurtovul» («yurt ovlamoq») deb atalgan. Bunda xon sultonlardan birining boshchiligida yo'l yoqasidagi qishloqlarga maxsus harbiy qism yuborar va bu qism aholidan oziq-ovqat va chorvalarni to'plab kelar edi.

Qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlashga ma'sul bo'lgan amaldor jevachi bo'lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo'lgan. Xon va qo'shin boshliqlarining alohida topshiriqlarini bajaruvchi shaxslar yasovul (Abdullaxon II davrida – muboshir) deb atalgan. Xonning shaxsi va saroyini qo'riqlovchilar qo'rchil, xon bayrog'ini ko'tarib yuruvchilar yalovbardor deb nomlangan. Abdullaxon II davrida qo'shinga zambaraklar joriy etilgan bo'lib, qo'shinda to'pchiboshi mansabi paydo bo'ladi. Harbiylar ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan bo'lib, ular sodir etgan jinoyat va jazo turlari maxsus harbiy sudyalari – qozi askar hamda muftiy askar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Manbalarda Shayboniylar qo'shinining harbiy mahorati va san'ati to'g'risida ham ma'lumotlar bor. Zahiriddin Muhammad Bobur shayboniylarning «to'lg'ama» (dushman qanotlarini aylanib o'tib, orqadan hujum qilish) deb atalgan jang usulini maqtab yozadi. Ibn Ro'zbehon shayboniylarning jang oldidan juda tez to'plana olishi, birdamlik va hamjihatlik bilan jang qilishini o'z asarlarida alohida ta'kidlab o'tadi.

3.4. Yer egaligi munosabatlari. Iqtisodiy hayot. Shayboniylarning pul islohotlari

Barcha turkiy xalqlarda bo'lgani kabi shayboniylar davlatida ham hokimiyat, qo'shinlarning tuzilishi masalalarida mavjud odat huquqlari nisbatan ustunroq bo'lgan. Ushbu davlat tashkil topgan dastlabki davrda unda asosan Abulxayrxon davlatining tuzilishi hamda an'analari saqlanib qolindi. Undan tashqari yer-mulk masalasida Temuriylar davlatida vujudga kelgan xizmat evaziga yer-mulk in'om qilish shakllari Shay-

boniylar davlatida ham qo'llanilgan. Bu davrda Buxoro xonligida yer huquqi masalalarida: davlatga qarashli yerlar, ushr yerlari, hurri xoris yerlari, vaqf yerlari, xon va amaldorlarga tegishli yerlar, qo'chmanchi qabila va urug'larga tegishli yerlar, suyurg'ol yerlari, tanho, tiul hamda tarxonlik yerlari mavjud bo'lgan.

«Iqto» atamasi XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab, garchi muomaladan chiqib, o'z o'rnini turkiycha «suyurg'ol» atamasiga bo'shatib bergan bo'lsa-da, shayboniylar davri ayrim manbalari va hujjatlarida «iqto» atamasini uchratish mumkin. Chunki, iqto, suyurg'ol, tanho, tiul atamaları va shu shakldagi yer mulki huquqining mazmuni bir-biriga deyarli yaqin bo'lgan. Ya'ni, bunday yer mulklari davlat oldidagi ma'lum bir xizmatlari uchun ma'lum hadya yoki in'om ma'nosini anglatgan. Bu xususdagi ma'lumotlar maxsus hisob-kitob daftarlarida saqlangan.

Suyurg'ol shayboniylar davrida ham keng qo'llanilib, shahzodalar, yirik zodagonlar va nufuzli din peshvolariga ma'lum shart va imtiyozlar asosida berilgan yer mulki bo'lib, u nasldan naslga o'tgan. Suyurg'ol egasi davlatga to'lanadigan soliqlardan ozod qilingan bo'lib, o'z suyurg'olidan oladigan daromaddan o'z ixtiyoricha foydalangan. Bunday imtiyozli suyurg'ol «darubast suyurg'ol» deb atalgan.

Shaharlar, tumanlar va hatto viloyatlar ham alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga suyurg'ol qilib berilgan. Misol uchun, XVI asrning boshlarida Qarshi Xudoyberdi Sultonning suyurg'ol mulki bo'lgan.

Davlat yerlari dehqonlarga muddatsiz merosiy foydalanishga ijara sifatida berilgan. Darubast sifatida mulk va yer berish, Abdullaxon II davrida ayniqsa rivojlanib, u o'zining pirlari Xoja Islom va uning avlodlaridan Xoja Sa'dga hamda boshqa Jo'ybor xojalariga butun-butun bosib olingan viloyatlarni darubast sifatida hadya qilgan. Ushbu mulk merosiy suyurg'ol (hadya) bo'lib, u barcha soliqlardan ozod qilish haqidagi imtiyozlar bilan birga vorislikka qoldirish huquqi bilan berilgan yer va boshqa mulklardan iborat bo'lgan.

Jo'ybor xojalarining Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Marv va boshqa viloyatlarda katta yer maydonlari bo'lib, bu mulklar meros tariqasida avloddan avlodga o'tgan va barcha soliqlardan ozod etilgan. Xonlar va boshqa yirik amaldorlar tomonidan ularga hadya etilgan yer mulklaridan tashqari ular Movarounnahr va Xurosonning serunum yaylovlariga, behisob podalarga, katta shaharlarda joylashgan o'z hunar-

mandchilik do'konlariga, savdo rastalariga, tegirmonlar, hammom va karvonsaroylardan keladigan daromadlarga ham ega bo'lishgan.

Kattadan katta boyliklarga ega bo'lgan jo'ybor shayxlari o'z xususiy yerlaridan tashqari, vaqf yerlardan keladigan daromadni ham nazorat qilishgan. Xojalarning davlat ishlaridagi mavqeyi shunchalik kuchli ediki, ular hatto, amaldorlarni yuqori mansablarga tayinlash yoki chetlatishda ham katta ta'sirga ega bo'lishgan.

Shayboniylar davrida yer egaligining quyidagi asosiy turlari mavjud edi:

1. Mulki sultoniylar yoki mulki mamlaka (manbalarda mamlakai devon, mamlakai podshohiy, zamini mamlaka, mamlakati sultoniylar, mamlaka atamalarida ham uchraydi) – davlatga qarashli yerlar bo'lib, bu yerlarni sotish, hadya etish, vaqfga berish faqat xonning ixtiyorida bo'lgan.


2. Mulki xolis yoki mulki hurri xolis – ma'lum shaxslarga tegishli bo'lib, hukmdor tomonidan davlat oldidagi xizmatlari uchun berilgan shaxsiy yerlar (suyurg'ol, iqto, tarxon, tiul va hokazo) Bunday yerlar va ularning egalari daftardor tomonidan maxsus daftarga qayd etib bo'rilgan.

3. Vaqf yerlari – hukmdor yoki boshqa shaxslar tomonidan diniy muassasalarga mulk qilib berilgan yerlar va sug'orish inshootlari. Bunday yerlardan kelgan daromadning asosiy qismi mutavallilar, qozilar va musulmon dindorlariga tushgan.

4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar. Shayboniylar davrida dehqonchilikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, avvalo sug'orish tizimini tartibga keltirish uchun qator tadbirlar amalga oshirilgan. Bu jarayonda mintaqadagi yirik suv manbalari – Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob kabi yirik daryolar va ko'plab kichik daryolar hamda ko'llar, tog' suvlarining imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Shayboniylar davrida, siyosiy beqarorlik yillarida, Abdullaxon II davrida ham sun'iy sug'orish ishlarining ahamiyati yo'qolmagan. Undan tashqari, shayboniylar davrida dehqonchilikning taraqqiyotini ta'minlovchi islohotlar o'tkazilgan. Xususan, qarovsiz va lalmi yerlarni davlat mulkiga kiritib, bunday yerlarda dehqonchilikni rivojlantirish, dehqonchilik qilishni xohlaganlarga har tomonlama yordam berish, ma'lum muddat soliqlardan ozod etish, yerdan

olinadigan soliqlarni yig'ishdan mahalliy amaldorlarning o'z mansablarini suliste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaslik uchun ham tegishli tadbirlar amalga oshirilgan.

Buxoro xonligida yer egaligi




Soliq tizimi. Buxoro xonligi devonxonasida moliyaviy va soliq ishlari hisobi bo'yicha maxsus daftarlar mavjud bo'lib, ularda turli soliqlar, ijara to'lovlari, ma'lum mahsulotlar savdosidan tushgan daromadlar qayd etib borilgan. Ammo ko'pgina sabablarga ko'ra, jumladan, xon xazinasining davlat xazinasidan ajratilmaganligi, ko'pchilik amaldorlarning o'zboshimchaligi, to'plangan o'lponlarni ijaraga berish, aholidan olinadigan soliqlarning to'satdan oshib ketishi kabilar soliq tizimidangi tartibsizliklarni keltirib chiqarar edi. Bunday holatda o'lpon to'lovlarining qattiq o'rnatilgan me'yorlari mavjud bo'lmasdan, yagona umumdavlat soliq tizimi ko'pincha buzilib turgan.

Ta'kidlash kerakki, belgilab qo'yilgan «shariat» o'lponlariga boshqa to'lovlar qo'shilgan bo'lib, soliqlar o'lchovi nisbatan kuchli zodagonlar va yirik yer egalarining ijtimoiy siyosatidan kelib chiqib belgilangan. Soliq to'lovchilarning asosiy qismi dehqonlar bo'lib, siyosiy beqarorlik davridagi iqtisodiy inqirozlar tufayli yirik zodagonlar shaharliklardan

ham yirik soliqlar undirishgan. XVI asrda soliqlarning katta qismi mahsulot sifatida olingan. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, shayboniylar davrida boj, o'lpon, soliq, jarima va majburiy to'lovlarning 40 dan ortiq turi mavjud bo'lgan. Oddiy aholi to'lovlarning ko'plab turlarini jumladan, yer va suvdan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, amaldorlar foydasiga to'lovlar, zodagonlar mulklarini saqlash uchun o'lponlar, shahar devorlari, masjidlar, madrasalar qurilishlari, sug'orish inshootlari barpo etish uchun, yo'llar va ko'priklar qurilishlari uchun turli to'lovlarni to'lashgan.

Shayboniylar davrida ijtimoiy tuzum



Bu davrda soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyyat) deb atalgan hamda ulardan turli soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan.

Avvalgi davrda bo'lgani kabi, Shayboniylar davrida ham yerdan olinadigan soliq xiroj (mol) deb atalib, hosilning ma'lum qismi undirilgan. XVI–XVIII asr yozma manbalarda bu atama «mol», «moli-jihot», «mol va jihot», ko'proq «xiroj» sifatida tilga olinadi. Bu to'lovning miqdori sharoitga qarab 1/3, 1/4, 1/5, ayrim hollarda esa 1/2 qilib belgilangan. Mulk yerlaridan hosilning 1/10 miqdorida soliq undirilib u ushr deb atalgan. Xiroj asosan mahsulot sifatida undirilgan.

Xirojdan tashqari «doimiy», «qonuniy» va «favqulodda» kabi boj va o'lpon turlari mavjud bo'lib, ularning soni o'zaro urushlar va davlat markazlashuvi davrida yanada ko'paygan. Urush harakatlari davrida

dehqonlar va hunarmandlardan olinadigan soliq «avarizot» deb atalib, u qisman pul bilan undirilgan.

Markaziy hokimiyat vakillari foydasiga ham maxsus soliqlar undirilgan. Misol uchun, dorug'alar foydasiga dorug'achi yoki dorug'alik degan soliq pul ko'rinishida to'langan. Afsuski, shayboniylar davrida pul ko'rinishida to'langan o'lpon va soliqlar haqida ma'lumotlar juda kam. Shunga qaramasdan «pul» atamasi qo'shilgan pilla puli, ko'knor puli, sabzi puli, xarbuza (tarvuz) puli kabi o'lpon va soliqlar ham pul ko'rinishida to'langan bo'lishi kerak. Shuningdek, shahar aholisi hunarmandlar va do'kondorlar maxsus soliq tamg'a to'lashgan. Undan tashqari, yirik boylar va sudxo'rlarga tegishli savdo rastalaridagi do'konlarni ma'lum haq evaziga ijaraga olib, o'z mahsulotlarini sotganligi uchun taxti joy (tagjoy) deb ataluvchi soliq ham pul bilan to'langan.

Shayboniylar davlatiga qaram bo'lgan, ko'chmanchi turmush tarzi kechirib, chorvachilik bilan shug'ullangan aholiga ishlab berish va belgilangan tarzda soliq to'lash majburiyati yuklatilgan. Ko'chmanchi chorvador aholi harbiy yurishlar vaqtida o'z ot-ulovi, yarog'-aslahasi va oziq-ovqati bilan birga urushlarda qatnashishgan. Urush harakatlari davrida asosan o'troq aholidan oshlig' (oshlik) solig'i undirilgan. Bu soliq doimiy bo'lmasada, harakatda bo'lgan qo'shinni saqlash uchun oziq-ovqat yig'imi sifatida to'plangan. Shuningdek, qo'shinni ta'minlash uchun tag'or deb nomlangan oziq-ovqat o'lponi ham to'langan. Oziq-ovqat soliqlarining miqdori qat'iy belgilab qo'yilmagan bo'lib, uni hukmdorlarning o'zlari xohlagancha belgilashgan.

Shayboniylar davrida soliq va yig'imler bilan bir qatorda jarimalar ham bo'lgan. Misol uchun, ko'chmanchilar qishda iste'mol qilishi uchun har yili kuzda o'z xo'jayinlariga so'yish uchun bitta boqilgan chorva molini berishgan. Bu – sug'um deb atalgan. Shuningdek, xonlar, sultonlar va o'g'lonlar bir manzildan ikkinchi manzilga ko'chib o'tayotgan vaqtlarida ularga oziq-ovqat to'plov shibog'u (sibog'u) berilgan bo'lib, «u ko'pincha pishirilgan go'shtdan iborat bo'lgan». Sovurin va peshkash yig'inlari ham jarimalar qatoriga kiritiladi. Bu yig'inlar pul, mahsulot, chorva mollari, qimmatbaho buyumlar, qullar ko'rinishida hukmdorga tortiq qilingan.

Bu davrda dehqonlar va shahar aholisi, ayniqsa hunarmandlar mehnat majburiyat (mardikor, qal'a, begor va hokazo)larini bajarishgan. Bu

majburiyatlardan ozod etilganlar esa, ma'lum miqdorda pul to'lashgan. Mardikor – yirik boylarga qaram bo'lgan dehqonlar majburiyati bo'lib, sug'orish inshootlarini barpo etish, ta'mirlash hamda tozalash bilan bog'liq og'ir majburiyat bo'lgan. Bir necha yillar davom etadigan yangi kanallar qurilishida ming-minglab dehqonlar ishtirok etishgan. Oddiy aholiga shuningdek, qal'alar va shahar devorlarini tiklash va ta'mirlash majburiyati ham yuklatilgan bo'lib u, qal'a yoki xarji qal'a deb atalgan. Hunarmandchilik hamda bozor savdosidagi yig'imlar xon xazinasining asosiy daromadi hisoblangan. Shuning uchun ham oliy hukmdor hokimiyati kuchaygan davrlar ayrim hukmdorlar (Ubaydullaxon I, Abdullaxon II) soliq tizimini tartibga solishga harakat qilishgan. Ammo bunday harakatlar har doim ham kerakli natijalarni bermagan.

Shayboniylarning pul islohotlari. Shayboniylar davlatida turli vazndagi oltin, kumush, mis, mis va kumush aralashmasidagi tanga-chaqalar muomalada bo'lgan. Oltin tangalar faqat Shayboniyxon va Abdullaxon II davrlaridagina zarb etilgan. Bu davrda pul zarb etish hamda kumush va mis tangalarning muomalada bo'lishi bir-biri bilan bog'liq holda kechgan. Numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, XVI asrdagi pul muomalasining asosini «tanga» «tangacha», «xoniy» deb atalgan kumush hamda «mis dinor» yoki «dinor» deb atalgan mis tangalar tashkil etgan. Eng kichik mis tangachalar «pul» yoki «qora pul» deb atalgan.

Muhammad Shayboniyxon 1507-yilda Hirotni egallagach, bu yerdagi Jome masjidida kengash chaqirib, pul islohoti haqidagi farmonini e'lon qiladi. Bu paytda Hirotidagi pul muomalasi inqirozga uchragan bo'lib, ushbu islohot Xurosondagi savdogar-zodagonlarni Shayboniyxon tomoniga og'dirishi lozim edi. Yangi kumush tangalarning vazni 5.2 g. bo'lib (ilgarigi Temuriylar tangalari 4.8 g. bo'lgan), unga Shayboniyxonning nomi va unvoni bitilgan. 1507-yilda bu islohot hali oxiriga yetmagan edi. Manbalarga ko'ra, bu yilda Movarounnahrda hali Temuriylar tangalari to'la muomalada bo'lgan. 1508-yilda islohot yakuniga yetib, Shayboniylar davlatining barcha hududlarida – Samarqand, Buxoro, Marv, Kesh, Nasaf, Niso, Saraxs, Hirot, Mashhad, Nishopur va Sabzavorda bir xil vazndagi, bir xil sayqallangan tangalar zarb etilib, muomalaga kiritiladi. Bir xil kumush va mis tangalar butun mamlakat bo'ylab muomalaga chiqarilib, pulning qadrsizlanishiga barham beriladi.

Ammo bu holat uzoqqa choʻzilmaydi. 1510-yilda Shayboniynon vafot etgach, oʻzaro urushlar va 1512–1513-yillar qishi qattiq kelganligi Movarounnahrda qimmatlilik va ocharchilikka olib keldi. Undan tashqari, Shayboniylar va Boburning mis tangalarni koʻproq zarb ettirib muomalaga kiritish orqali daromadlarini koʻpaytirish yoʻlidagi xatti-harakatlari pulning qadrsizlanishini yanada kuchaytiradi. Shayboniylarning hokimiyatni mutlaq qoʻlga kiritishi va siyosiy vaziyatning barqarorlashuvi ham pul qadrsizlanishining oldini ololmaydi. Chunki, bozorlarda mis pullar nihoyatda koʻpayib ketib, mahsulot, narxidan ancha oshib ketadi. Kumush pullar butunlay muomaladan chiqib, zarb etilmay qoʻyiladi. Bu holat mamlakatda yangidan pul islohoti oʻtkazish zaruriyatini tugʻdiradi.

Davlatdagi bu galgi islohot ancha ogʻir va koʻp bosqichli boʻlib, bu safar umumdavlat miqyosidagi pul muomalasini bir meʼyorga tushirish uchun oʻn besh yil kerak boʻldi. Ushbu islohotni koʻpchilik tadqiqotchilar Kuchkunchixon (1512–1530-yy.) nomi bilan bogʻlanadi. Dastavval Buxoroda (Ubaydulla Sultonning mulki) keyin esa Samarqandda (Kuchkunchixon mulkidagi poytaxt) boshlangan bu islohot jarayonida yuqori vaznli mis tangalar zarb etilib, past vaznli tangalar muomalasini taqiqlashadi. Kumush tangalar zarb etilishi qisman yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa-da, ularning vazni Buxoro va Samarqandda bir xil emas edi. Faqat 1525-yilga kelib butun davlat boʻylab bir xil tangalar zarb etish yoʻlga qoʻyiladi. Bu jarayonda har qanday shaxs oʻzining metalli yoki buyumlarini zarbxonaga eltib, belgilangan vazndagi kumush tangani erkin zarb ettirishi mumkin edi. Buning uchun xazinaga maʼlum miqdorda toʻlov toʻlangan.

Ammo kumush pullar zarb etilishi va muomalaga kirishidan tushgan daromadning asosiy qismi davlat gʻaznasiga tushmas edi. Yirik mulk egalari tangalarga hukmdor nomi va unvonini qoʻshib zarb etsalar-da, zarbxonalardan kelgan daromadni oʻzlariga qoldirar edilar. Davlatning asosan toʻrtta shahrida – Buxoro, Samarqand, Balx va Toshkentda doimiy ravishda koʻp sonli kumush tangalar zarb etilishiga qaramay Karmana, Totkend (Zarafshon vohasi), Axxi, Kesh, Hisor, Yassi kabi shaharlarda ham kam boʻlsa-da, zarbxonalar ishlab turgan. Natijada, XVI asrning oʻrtalariga kelib kumush pullarning qiymati tushib ketadi. Undan tashqari, mamlakat tashqarisida ham (masalan,

qo'shni Boburiylar davlatida) Shayboniylar kumush tangalarini zarb etish avj oladi.

Bunday sharoitda XVI asrning 60-yillaridan boshlab Abdullaxon II savdo-sotiq uchun zarur bo'lgan pul islohotini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiradi. Chunki, Abdullaxon II hukmdor sifatida nafaqat davlat sarhadlarini kengaytirish, markazlashgan davlat barpo etish balki, savdo-sotiq mamlakat iqtisodining muhim tarmog'i ekanligini yaxshi anglagan edi. U otasi Iskandarxon (1561–1583-yy.) davridayoq kumush metall yetishmovchiligini bartaraf etish bilan birga Buxoroda oltin tangalarni doimiy zarb etishni yo'lga qo'yadi va buni qattiq nazorat ostiga oladi.

Abdullaxon II islohoti asosan, kumushning narxi oshishiga nisbatan kumush tangalarning qiymatini oshirishga qaratilgan edi. 1583-yilga qadar yuqorida eslatilgan to'rtta yirik shaharda Iskandarxon nomidagi bir xil vazn va qiymatga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etiladi. 1561-yildan 1583-yilgacha bo'lgan davr Abdullaxon II ning ko'plab jangu-jadallar davri bo'lib, bu yurishlar va o'zaro kurashlar katta mablag' talab etar edi. Shuning uchun ham Abdullaxonga ham, uning raqiblariga ham katta miqdordagi pul zarur edi. 1583-yilda otasi vafotidan so'ng oliy hukmdor bo'lgan Abdullaxon II o'z pul islohotining so'nggi qismini amalga oshiradi. Ya'ni, u kumush tangalar zarb etishni o'z poytaxti Buxoroda markazlashtiradi. Buxoroda Abdullaxon II nomidan har yili ko'p miqdorda kumush tangalar zarb etiladi. Balx, Samarqand va Toshkentda esa tanga zarb etish keskin kamaytirildi. Shuningdek, Abdullaxon II shahar savdosidagi kundalik ehtiyoj mahsulotlari uchun mis tangalar zarb etishni yo'lga qo'yadi.

Shayboniylar o'tkazgan pul islohotlari orasida Abdullaxon II ning islohoti nisbatan muvaffaqiyatli bo'lib, bu islohot pul muomalasi inqiroziga barham berdi, kumushning davlat hududlaridan ko'plab chiqib ketishini to'xtatdi, xususiy metallni yana zarbxonalarga jalb etdi. Ushbu islohot Abdullaxon II ichki siyosatining bir qismi bo'lib, xalqaro va ichki savdoning taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Ta'kidlash joizki, Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro va Samarqand shaharlari hunarmandchilik markazlari sifatidagi faoliyatini davom ettirdi. Makur davrda hunarmandchilikning qator sohalari rivoj topdi. Bu davrda Buxoro va Samarqandda 130 dan ziyod

hunar turlari mavjud bo'lib, ularning sohiblari mamlakat iqtisodiy rivojiga xizmat qilishgan. Ayniqsa, hunarmandchilikning gazlama to'qish sohasi yaxshi rivojlangan edi. To'quvchilik uchun mahalliy xomashyo – paxta, shoyi, jundan foydalanishgan. Mato ko'p holda ishlab chiqarilgan joy nomi bilan atalar edi. Masalan, Buxoro olachasi aynan shu nom bilan mashhur bo'lgan. Olacha matosini shuningdek, Samarqand, Qarshi, Shahrisabzda ham ishlab chiqarishgan. Ushbu matoning sifati yuqori bo'lib, u qator yerlar, jumladan Rossiyaga ham jo'natilar edi.

Aholi orasida bo'z matosiga ham ehtiyoj yuqori edi. Bo'zning bir necha xillari bo'lib, aholi o'z holatiga ko'ra uni sotib olardi. Bo'zdan kiyim-kechakdan tortib, ko'rpa-ko'rpacha tikishda ham foydalanishgan. Shahar hunarmandlari ichida shuningdek chit matosi ham keng ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari, fo'ta, tafta matolariga ham o'ziga yarasha ehtiyoj bo'lgan. Buxoroning Zandana degan joyida ishlab chiqarilgan zandanachi matosi nafaqat ichki bozorda, balki chet ellarda ham xaridorgir mato sifatida dong taratgan edi. Mahalliy aslzodalar qimmatbaho shoyi matolar va movutni xush ko'rishgan. Ayniqsa, qimmatbaho Samarqand movuti, uning qirmizi nomli turi mashhur bo'lib, u butun mamlakat, chet ellarga ham sotilar edi. Shoyi matolarni tayyorlashda Farg'ona to'quvchilari nom chiqarishgan edi. Ip-gazlama ishlab chiqarish, to'qish ishi, ularning turli bo'yoqlarga bo'yalishi rang-baranglikni talab etar edi. Shu bois ham bo'yoqchilik ustaxonalarining soni ham bu paytga kelib ortib borganligini qayd etish lozim.

Mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy o'z vaqtida Samarqand qog'oziga yuksak darajada baho berib, aynan ushbu qog'oz maktub bitish, kitob tayyorlashda birlamchi darajaga ega ekanligini ta'kidlagan edi. Bobur ham o'zining «Boburnoma» asarida: «Dunyodagi eng yaxshi qog'oz Samarqandda tayyorlanur», deya yozgan edi. XVI asrda ham bu hunarmandchilik turi an'analari davom ettirildi. Qog'oz tayyorlash tegirmonlarining aksariyati Samarqand yaqinidagi Siyoh-obi degan joyda joylashgan edi. Bu davrda qog'ozning bir necha navlari tayyorlanib, ular orasida usta Mir Ibrohim tomonidan ishlab chiqarilgan «Miri Ibrohimiy» qog'ozi ayniqsa mashhur bo'lgan.

Shayboniylar hukmronligi davrida metallga ishlov berish sohasi ham rivoj topadi. Toshkent vohasi asosiy metall qazib olinadigan maskan hi-

soblanib, Samarqand va Buxorodagi mashhur temirchilar mahallalarida undan turli buyumlar ishlab chiqarilar edi. Mis, bronza, kumushdan zargarlik buyumlarini tayyorlashda Buxoro, Samarqand, Toshkent zargarlari oldingi o'rinlarda turishgan. XVI asr oxirlariga kelib qurol-yarog', ayniqsa zambaraklar, devor teshuvchi moslamalar tayyorlash ishi ham rivojlanadi. Abdullaxon II topshirig'i bilan o'z vaqtida 7 ta zambarak tayyorlangan edi.

Mazkur davrda aholi ehtiyoji, iqtisodiy munosabatlarning o'sishi bois kulolchilik buyumlarini tayyorlash ishida ham siljishlar ko'zga tashlanadi. Bu davr kulollari nafaqat maishiy turmush tarzi buyumlarini, balki qurilishda ishlatiladigan koshin, g'isht va boshqalarni mahorat bilan tayyorlashar edi. Samarqand kulollari yashaydigan Xumdanak, Buxorodagi Kosagoron guzari, G'ijduvondagi Kulollar mahallasi o'z davrida ma'lum va mashhur bo'lgan.

Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda ganchkorlik, yog'ochga ishlov berish, gilam, na'mat to'qish, charm-teri ishlab chiqaruvchi ko'ncilik sohasi, ot egar-jabduqlarini tayyorlash, sham ishlab chiqarish, arqon to'qish va boshqa sohalar ham keng rivojlandi.

Ba'zi shaharlar, jumladan Toshkent, Andijon, Shahrisabz va boshqa ba'zi shaharlardagi hunarmandlar odatda kech kuz va qishda o'z mahsulotlarini tayyorlab, bahordan erta kuzgacha qishloq xo'jaligi ishlari bilan mashg'ul bo'lgan bo'lishsa, Samarqand va Buxoro hunarmandlari o'z kasb-korlari bilan deyarli doimiy tarzda mashg'ul bo'lishardi. Ko'p hollarda hunarmandlar joylarda o'z kasb-korlari bilan ataluvchi mahallalarda istiqomat qilishar edi.

Shayboniylar davrida markazlashgan davlatning qaror topishi, qudratli va kuchli davlat barpo etishga intilish (Ubaydullaxon I, Abdullaxon II), ichki barqarorlik shubhasiz, savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mazkur davrga kelib ijtimoiy hayotda savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi doiralarning ta'siri yanada ortib bordi. Ko'pchilik savdogarlarning o'z do'konlari bor bo'lib, do'koni yo'q bo'lgan savdogarlar odatda vositachilar orqali mahsulotlarini yetkazishgan. Bu davrda ayniqsa Buxoro va Samarqand savdogarlarining bozori chaqqon bo'lgan. Mazkur shaharlarning bozorlari juda mo'l-ko'l bo'lib, ularda asosan 100 dan ziyod turli mahsulotlar sotilardi. Bozorlarning ko'pchiligi ixtisoslashgan bo'lib, u yoki bu mahsulotlarni sotishga

mo'ljallangan edi. Ba'zi mahsulotlar bozorning o'zida tayyorlanib, o'zida xaridorga ham sotilgan.

Bozor nafaqat xo'jalik hayot markazi bo'lib qolmay, u yerda hukumat qarorlari jarchilar tomonidan e'lon qilinar, aybdorlar namoyishkorona jazolanar edi. Shuningdek, bozor o'ziga xos madaniyat markazi rolini ham o'tab, do'konlarda turli suhbat, g'azalxonliklar ham o'tkazilar edi. Savdoning hajmi va mohiyatiga ko'ra sotiladigan joy nomi – chor-su, rasta, tim, toq, do'kon va boshqa nomlar bilan ham atalgan. Ulgurji bozorlar odatda karvonsaroylarda o'tkazilar edi. Ichki va tashqi savdo ko'lamining ortishi, mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi, aholi turmush tarzining oshishiga sabab bo'lar edi.

XVI asr boshlariga kelib, Qozon, Astraxan (Ashtarxon) xonlari, No'g'oy beklari, Rossiya bilan munosabatlar rivojlana boradi. Tashqi savdo davlat hokimiyati kuchaygan vaqtda hukmdor qo'lida mujassamlashar edi. XVI asr ikkinchi yarmiga kelib Rossiya bilan savdo munosabatlari ancha o'sadi. Buxoro xonligiga Rossiyadan tez-tez savdo karvonlari, elchilar tashrif buyura boshlashadi. Masalan, 1574-yili Rossiyadan tashrif buyurgan Zaxariy Bogdanov elchilik karvoni ichida podsho Ivan Grozniyga yaqin bo'lgan aka-uka Stroganovlar ham hamrohlik qilishgan.

Buxorodagi hindlar alohida mavzeda yashab, savdo va sudxo'rlik ishi bilan shug'ullanishgan. Shuningdek, Shayboniylar davlati shaharlarida tez-tez fors, arab, turk savdogarlarini ham uchratish mumkin bo'lgan. Rossiyalik savdogarlarga mahalliy paxta matolari, ip-gazlama mahsulotlari, teri buyumlari va boshqalar juda ma'qul bo'lgan bo'lsa, Hindistondan O'rta Osiyoga qullar, oq harir matolar, surp, shakar, turli dorivor o'simliklar olib kelingan. Sibir xonligida asosan Buxorodan keltirilgan matolarga ehtiyoj juda yuqori bo'lgan. U yerdan esa, mo'yna, bo'yoq, mum, asal olib kelingan. Xitoy shoyisi bilan uyg'ur savdogarlari shug'ullanishgan.

Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urganch va boshqa shaharlar qozoqlar, turkmanlar bilan savdo qiluvchi asosiy maskan hisoblangan. XVI asrda mavjud bo'lgan savdo karvon yo'llari O'rta Osiyo shaharlarini Afg'oniston, Xitoy, Hindiston, Eron, Sibir, Kaspiybo'yi yerlari bilan bog'lagan. Savdo yo'llarining dengizlarga ko'chishi, O'rta Osiyoda boshlangan hokimiyat uchun kurashlar keyinchalik bu savdo yo'llari holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

3.5. Shayboniylar davlatida madaniy hayot

Avvalgi sulolalar davrida Movarounnahr va Xurosonda yuksak darajada rivojlangan madaniy an'analar Shayboniylar davrida ham davom etdi hamda boyitildi. Bu davrda madaniy hayotning ko'plab jabhalari: adabiyot, tarixnavislik, xattotlik, musiqa, epigrafika, me'morchilik, naqqoshlik, kabilarida ayrim siyosiy hayotdagi inqiroziy holatlarga qaramay rivojlanish jarayonlari kuzatiladi.

Adabiyotning turli janrlarida Muhammad Solih, Xoja Afsodiy, Vosifiy, Majlisiy, Ubaydiy, Baqoiy, Shaydo, Oshiq, Aziziy, Nisoriy, Mushfiqiy, Nahliy, Muttrifiy kabilar barakali ijod qilishdi. Bu davrdagi adabiyot namoyandalari Hindiston, Eron, Usmoniylar, Ozarbayjon, Sharqiy Turkiston kabi qo'shni davlatlaridagi qalam ahli bilan ham ijodiy aloqada bo'lishdi.

Mazkur davrda yaratilgan adabiy asarlar orasida buxorolik adabiyotshunos olim va shoir Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahhob» («Do'stlar yodnomasi») asarini keltirish (1516–1597-yy.) mumkin. Qomusiy xususiyatga ega bo'lgan bu asarda Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Usmoniylar davlati va Sharqiy Turkistonda yashab ijod etgan 228 ta shoirlar, jumladan, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Husayn Voiz Koshifiylar to'g'risida, Arslonbob, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Zangi ota, Shayx Xudoydod kabi tasavvuf namoyandalarning hayoti, karomatlari haqida, shuningdek, tarixiy voqealar, ilm-fan rivoji, san'at sohasidagi yutuqlar, turli shaharlardagi me'morchilik rivoji haqida ma'lumotlar beriladi. Abdullaxon II ga atab yozilgan mazkur asar O'rta Osiyo, Eron va Hindistondagi adabiy muhit haqida boy ma'lumotlar beruvchi manba hisoblanadi.

Bu davrda hukmron sulola vakillari adabiyot rivojiga homiylik qilish bilan birga o'zlari ham ijod bilan shug'ullanishgan. Xususan, Shayboniyxon, Ubaydullaxon I, Abdullaxon II, Navro'z Ahmadxon, Do'st Muhammad Sulton (Navro'z Ahmadxonning o'g'li) kabilarning ayrim asarlari va g'azallari bizgacha saqlanib qolgan. Ta'kidlash joizki, Muhammad Shayboniyxonning o'zi ham she'riyat va tarix ilmiga qiziqqan bo'lib, uning she'riy devon tuzganligi tarixda yaxshi ma'lum. Shayboniyxon xattotlik bilan ham shug'ullangan. Shayboniylar orasida Ubaydullaxon I ham ma'rifatli va ilmiy hukmdor sifatida nom qoldir-

gan. U forsiy va turkiy she'riyatdan yaxshi xabardor bo'lib, o'zi ham «Ubaydiy» taxallusi ostida o'zbek, fors, arab tillarida she'rlar yozgan. Uning uch tilda yozgan she'rlaridan iborat uch devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning o'zbek tilidagi devoni 306 g'azal, 435 ruboiydan iboratdir. Shuningdek, Abdullaxon II ham iste'dodli shoir bo'lib, «xon» taxallusi ostida o'zbek va fors tillarida she'rlar bitgan.

Shayboniylar davrda tarixnavislik sohasida ham ko'plab tarixiy asarlar yaratildi. Sulola asoschisi Shayboniyxon va uning vorislari-ga atab yozilgan Abdulloh Ibn Muhammad Ibn Ali Nasrullohiyning «Zubdat-al asar», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnoma Buxoro», Zayniddin Vosifiyning «Badoye' ul vaqo'ye», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», muallifi noma'lum bo'lgan «Tavorixi go'zida», «Nusratnoma» kabilar shular jumlasidandir.

Ko'chkinchixon topshirig'i bilan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asari o'zbek tiliga o'girildi. XVI asrga oid tarixiy manbalar orasida «Tarixi Rashidiy» asari ham alohida o'rin tutadi. Uning muallifi Mirzo Muhammad Haydar (1500–1556) Toshkent hokimi Yunusxonning nevarasi, Boburning xolavachchasi bo'lgan. Asarda o'sha davr tarixiy voqealari ancha batafsil bayon etiladi.

Hofiz Ko'hakiy esa Ali Qushchining nevarasi bo'lib, o'z davrining yetuk tarixchisi, diniy ilmlar bilimdoni sifatida shuhrat qozongan. U umrining oxiriga qadar Toshkentda yashab (1584-y. vaf.), «Tarixi oli Chingiz», «Tarixi jadidayi Toshkand» va boshqa qator asarlarni ham shu yerda yaratgan.

Manbalarning ma'lumot berishicha, bu davrda rassomlik, xat-totlik va musiqa san'atida, fiqh, tibbiyot, riyoziyot (matematika), handasa (geometriya) va ilmi nujum (astronomiya) sohalarida ham rivojlanish yuz beradi. Masalan, ko'proq shoir sifatida tanilgan Mushfiqiy (1538–1588) falsafa, astronomiya, fiqh, hisob, fizika,



**Buxoro. Mir Arab madrasasi.
XVI asr.**

musiqa, arab tili kabi sohalarida ham yetuk sanalgan. Bu davrda tibbiyot sohasida ham qator asarlar yaratilgan. Jumladan, Ko'chkunchixon va Abu Saidxon zamonlarida yashagan mashhur tabib va olim Sulton Ali «Dastur al-iloj», «Muqaddimai dastur al-iloj» risolalarini yozib, ularda inson tanasidagi kasalliklarning sharhi hamda ularni davolash to'g'risida ma'lumotlar bergan. Abdullatifxonning shaxsiy tabibi Muhammad Yusuf, Navro'z Ahrnadxon saroyida esa tabib Shoh Alilar faoliyat olib borishib, «Ko'z kasalligiga oid asarlar sarasi», «Ko'z tabiblari uchun qo'llanma» kabi asarlar yaratishgan. Shuningdek, Muhammad Yusufning «Isitmani o'rganishga doir», «Qon tomiri va siydik» kabi asarlari ham ma'lum. 1562–1567-yillarda tabib Ubaydulloh Qahhol tibbiyotga oid muhim qomusiy asar «Kasallik shifosi»ni yaratgan. Ushbu asarlarda keltirilgan davo uslublari, tashhis qo'yish, dorilar tayyorlash kabi ma'lumotlar o'rta asrlar musulmon sharqi tibbiyotiga xos ilg'or an'analar XVI asrda ham davom etganligini ko'rsatadi.

Shayboniylarning ta'lim sohasida o'tkazgan islohotlari bois ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy qilindi. Har bir mahallada maktablar ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi tatbiq etildi. Bolalarga ta'lim 6 yoshdan boshlab beriladigan bo'ldi. Maktabda 2 yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. Madrasada uch bosqichli ta'lim joriy qilingan. Uning har bir bosqichi 7 yildan bo'lib, jami 21 yil davom etgan. Talabalar ilohiyot ilmi, hisob-kitob, fiqh, handasa, mantiq, musiqa, she'r san'atidan saboq olishardi. Mazkur holat shubhasiz, o'zbek tili ravnaqi, ilm-fan, adabiyot, san'at rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shayboniylar hukmdorlari me'morchilik sohasida ham qator ishlarini amalga oshirib, turli maqsadlarga mo'ljallangan qurilish ishlarini olib borishgan. Me'morchilik inshootlari nafaqat hukmron sulola vakillari, balki xususiy mulkdorlar tomonidan ham bunyod etilgan. Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi, Karmana, Turkiston, Marv, Balx, Hirot, Xiva kabi ko'plab shaharlarida turli me'morchilik inshootlari – madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, timlar, minoralar, hammomlar, karvonsaroylar, sardoba va ko'priklar bunyod etilib, shaharlar devorlari ta'mirlandi. Misol uchun, Samarqanddagi Shayboniynon qurdirgan Xoniya, Abusaid va Qulbobo Ko'kaldosh nomlari bilan bog'liq madrasalar, Samarqand yaqinidagi suv ayirg'ich, Buxoroda shahar devorining ta'mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon madrasalari, Toshkent-

dagi Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari, Turkistonda Shayboniyxon masjidi, Karmanada Qosim Shayx masjidi, Balxda qal'a devorining ta'mirlanishi, Abdullaxon, Qulbobo Ko'kaldosh madrasalari, Hirotda Ko'kaldosh madrasasi kabilar shular jumlasidandir.

Buxoro xonligidagi me'morchilik va shaharlar taraqqiyoti Abdullaxon II davrida ayniqsa yuksaldi. Hozirgi O'rta Osiyoning deyarli butun hududlarini o'z ichiga olgan davlatni barpo etish jarayonida Abdullaxon II ko'plab harbiy yurishlar olib borgan bo'lsada, mamlakatdagi iqtisodiyot, madaniyat, shaharlar taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratgan. Chunonchi, O'rta Osiyodagi XVI asrga oid me'morchilik obidalarining asosiy ko'pchilik qismi bu hukmdor davrida bunyod etilgan bo'lib, manbalarning ma'lumot berishicha, ularning soni 100 dan oshadi.

XVI asrda Buxoroda bo'lgan Antoniy Jenkinson, «Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtli imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir», — deya ta'kidlagan edi.

Ma'lumki, XV asrning ikkinchi yarmi O'rta Osiyoning diniy hayoti Xoja Ahror faoliyatining faollashuvi bilan izohlanadi. Keyinroq esa, bu hududlardagi ma'naviy-diniy hayotda so'fiylikning bir qator yirik namoyandalari shakllanadi. Siyosiy hokimiyatning shayboniylar qo'liga o'tishi natijasida Temuriylar davridagi yirik diniy ulamolar yangi diniy vakillar, xususan, XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab jo'ybor shayxlari bilan almashadi. Ulardan eng mashhurlari Xoja Muhammad Islom (1493–1563), Xoja Sa'd (1531–1589), Xoja Tojiddin Hasan (1547–1646), Xoja Abdurahim (1575–1629) kabilar bo'lib, ular naqshbandiya tariqatining yo'lboshchilari edilar. Bu davrda Movarounnahrda yassaviya va kubroviya tariqati namoyandalari ham mavjud bo'lgan bo'lsada, bu ikkala tariqat vakillari Movarounnahrning siyosiy hayotiga jo'ybor shayxlari kabi ta'sir eta olishmasdi.

Yamanning Xadramaut degan joyida tug'ilgan Said Shamsuddin Abdulloh XV asrning 80-yillarida Movarounnahrda kelib, Xoja Ahrorning muridi bo'ldi. O'rta Osiyodagi islom dini tarixiga Mir Arab nomi bilan kirgan bu shaxs keyinchalik, Shayboniyxon va Ubaydullaxon davrlarida juda katta obro' va mavqega ega bo'lib, yirik mulkdorga aylanadi. Turkistondagi Sabron shahrida yashagan Mir Arab Buxoroga

tez-tez borib, saroy ishlariga aralashib turardi. Uning mavqeyi shunchalik baland ediki, hattoki xon o'zi ham u bilan hisoblashar edi.

Shayboniylar davridagi viloyat hokimlari o'zlarining yuqori lavozimdagi amaldorlar bilan munosabatlarini yaxshilash uchun tez-tez shayxlarga murojaat etib turishgan. Shuningdek, hukmron doira vakillari ham o'zlarining siyosiy kurashlarida so'fiylar madadidan foydalanishgan.

Shayboniylar davri tarixiga xulosa tarzida ta'kidlash kerakki, bu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda ma'lum ijobiy o'zgarishlar yuz berganligiga qaramasdan, o'rta asrlar tarixida bo'lgani kabi, bu davrda ham o'zaro urushlar doimiy bo'lib turdi. Bu davrga kelib davlat boshqaruvida yana ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi an'analar ustunlik qila boshladi. Shunga qaramasdan, bu davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu ahamiyat ilm-fan va madaniyat, shaharsozlik hamda me'morchilik ravnaqi bilan izohlanadi.

Shayboniylar sulolasi hukmdorlari

- Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon – 1500–1510-yy.
- Ko'chkunchixon – 1512–1530-yy.
- Abu Saidxon – 1530–1533-yy.
- Ubaydullaxon I – 1533–1540-yy.
- Abdullaxon I – 1540–1541-yy.
- Abdulazizxon (Buxoroda) – 1541–1550-yy.
- Abdulatifxon (Samarqandda) – 1540–1551-yy.
- Muhammad Yorsulton (Buxoroda) – 1551-yil bir necha oy.
- Navro'z Ahmadxon-Baroqxon (Toshkentda) – 1551–1556-yy.
- Pirmuhammadxon – 1556–1561-yy.
- Iskandarxon – 1561–1583-yy.
- Abdullaxon II – 1583–1598-yy.
- Abdulmo'minxon – 1598-yil bir necha oy.
- Pir Muhammadxon II – 1598–1601-yy.

Tayanch so'zlar

Shayboniylar, manba, mulklar va viloyatlar, o'zbek, Dashti Qipchoq, o'zaro urushlar, amirlar, beklar, tarxonlar, markaziy hokimiyati, Buxoro, Samarqand, Xorazm, «Xalifa ur-Rahmon va Imom az-Zamon», Eroniy qizilbosh-

lar, Abdullaxon II, davlat, sulola, markaziy, mahalliy, boshqaruv, dargoh, naqib, xon, yasovul, ulam, shayx, xoja, suyurg'ol, yer egaligi, ijtimoiy tuzum, fuqaro, pul islohoti, harbiy boshqaruv, harbiy qo'shin, madaniy hayot.

Savol va topshiriqlar

1. Shayboniylar davri tarixshunosligi haqida gapirib bering.
2. Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelishidan oldin Movarounnahrda siyosiy vaziyat qay holatda edi?
3. Shayboniylar hokimiyat tepasiga kelishidagi siyosiy voqealar haqida nimalarni bilasiz?
4. Shayboniylarning davlat boshqaruvi xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Shayboniylar davrida qanday diniy unvon va marbalar bo'lgan?
6. Shayboniylarning harbiy qo'shin tuzilishi qanday bo'lgan?
7. Shayboniylar davlatidagi yer egaligi munosabatlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Bu davrdagi iqtisodiy hayot va islohotlar to'g'risida so'zlab bering.
9. Shayboniylar davridagi madaniy hayot to'g'risida nimalarni bilasiz?
10. XVI asrdagi xalqaro munosabatlar borasida nimalarni bilasiz?

3-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: «Yulduzcha», 1990.
3. Zayniddin Vasifiy. Badoye' ul-vaqoye'. – Toshkent, 1979.
4. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова Д.А. – Ташкент: «Фан», 2012.
5. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989.
6. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: «Sharq», 2010.
7. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilad – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2009.
8. Rajabov Q., Ochilov E. Ubaydullaxon. Risola. – Toshkent: «Abu Matbuot-konsalt», 2011.
9. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. – Toshkent, 1993.
10. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma (Sharofnomayi shohiy). I kitob, II-kitob. – Toshkent: «Sharq», 1999, 2000.
11. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I jild. Darslik. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.
12. O'zbekiston tarixi. XVI–XIX asrlar birinchi yarmi. Xrestomatiya. Toshkent, 2014.

4-mavzu. XVII–XVIII ASRLAR BIRINCHI YARMIDA ASHTARXONIYLAR DAVLATI. IJTIMOIIY-SIYOSIIY, IQTISODIIY VA MADANIY HAYOT

Reja:

- 4.1. Ashtarxoniylar davlatining siyosiy tarixi.
- 4.2. Davlat tizimi va ma'muriy boshqaruv.
- 4.3. Qishloq xo'jaligi. Shaharlar. Hunarmandchilik va savdo.
- 4.5. Ilm-fan va madaniyat. Me'morchilik.

4.1. Ashtarxoniylar davlatining siyosiy tarixi

Ashtarxoniylar hukmronligi davriga oid tarixiy manbalar orasida Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Mahmud ibn Valining «Bahr al-asror», Xoja Samandar Termiziyning «Dastur al-muluk», Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Xo'jamqulibek Balxiyning «Tarixi Qipchoqxoniy», Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxoniy», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tuhfat al-xoniy», Fazlulloh ibn Ro'zbexon Isfahoniyning «Mehmonnomayi Buxoro» kabi asarlar mazkur davlat tarixini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz tarixshunosligida XVII–XVIII asr birinchi yarmi Ashtarxoniylar davlati tarixining turli jihatlari R.G. Muqminova, B.A. Ahmedov, H.Z. Ziyoyev, G.A. Agzamova, G.A. Mixaylova, A. Ziyoyev, X.G. Gulomov, O'.M. Mavlonov, Z.B. Raxmonqulova, Z.A. Saidboyev, A. Erqo'ziyevlarning qator tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

1598-yilda Abdullaxon II vafot etgach, taxtga uning o'g'li Abdulmo'min o'tiradi. O'zaro urushlar natijasida u uzoq vaqt hokimiyatni boshqara olmay, 1598-yil oxirlarida halok bo'ladi. Taxtga Abdullaxon II ning amakivachchasi Pirmuhammad II (1598–1601) o'tirib, u ham uzoq vaqt hukmronlik qila olmaydi.

Abdullaxon II vafotidan keyin markaziy hokimiyatning inqirozi va mamlakatdagi tartibsizliklardan Buxoro xonligining ichki va tashqi raqiblari zudlik bilan foydalanishga urinishadi. Pirmuhammadxon bu raqiblar qurshovlarini bartaraf qilishga ojizlik qiladi. U 1601-yili Ashtarxoniylardan bo'lgan Boqimuhammad bilan bo'lgan jangda o'ldiriladi.

Mamlakatning janubida Eron shohi Abbos I Sabzavor, Mashhad va Hirot yerlarini egallab oladi. Muhammad Yusuf Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, «Movarounnahrda ham butun davlatda bo'lgani kabi boshboshdoqliklar avj olib, hech kim birovga bo'ysunishni xohlamas edi.» Ana shunday sharoitda yangi – Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi.

Ashtarxoniylar chingiziylar avlodidan bo'lib, XV asrning 80-yillaridan boshlab Volga daryosi bo'ylarini o'z ichiga olgan Astraxan (Ashtarxon) xonligida hukmronlik qilishgan. XVI asr o'rtalarida xonlik Ivan Grozniy tomonidan bosib olingach, sulola hukmdori Yormuhammad Sulton o'z yaqinlari bilan Buxoroga keladi. Manba tili bilan aytganda, «o'rus (nomila) mashhur nasroniylar bosqini dastidan (qochib) Yormuhammadxon farzandlari Jonimuhammad Sulton, Abbos Sulton, Tursun Muhammad Sulton, Pirmuhammad Sulton va ahli ayoli bilan Movarounnahrda keladi».

Buxoro hukmdori Iskandar Sulton Yormuhammad hamda uning oila a'zolarini yaxshi kutib olib, ular bilan do'stona munosabatda bo'ladi. Oradan ko'p o'tmay Yormuhammadning o'g'li Jonimuhammad (Jonibek Sulton) Iskandarning qizi Zuhrobegimga uylanadi. Shu tariqa Yormuhammad va uning avlodlari Shayboniylar saroyida katta mavqega ega bo'la boshladilar. Jonibek Sulton va Zuhrobegimdan uch o'g'il – Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammadlar tug'ildi. Vaqti kelib Dinmuhammad Xurosondagi viloyatlarning biri Obivardga, Boqimuhammad esa Samarqandga hokim etib tayinlanadi.

Boshboshdoqliklar va o'zaro urushlarga chek qo'yish maqsadida 1601-yilda buxorolik bir guruh zodagonlar Jonibek Sultonni Buxoro hukmdori taxtiga taklif etishadi. Jonibek Sulton o'z navbatida katta o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Obivard hokimi Dinmuhammad Buxoroga kelish vaqtida Eron qo'shini bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ladi. Shundan so'ng Jonibek Sultonning ikkinchi o'g'li Boqimuhammad hokimiyatga taklif etiladi. Bu paytda Samarqand hokimi bo'lib turgan Boqimuhammad Buxoro taxtiga o'tiradi (1601–1605-yillar). Shu tariqa Movarounnahrda tarixiy manbalarda Ashtarxoniylar (Astraxan yoki Hoji Tarxonlik hukmdorlar) yoki Joniylar (Jonibek sulton nomidan) deb nom olgan va bir yarim asr hokimiyat tepasida bo'lgan sulola hukmronligi davri boshlanadi.



Imomqulixon.
(1611–1642)

Ilk davrda pul muomalasidagi tangalar Jonibek Sulton nomidan zarb etilgan bo'lsa-da, amalda hokimiyatni Boqimuhammad boshqaradi. U mamlakatdagi tarqoqlikka barham berishga harakat qilib, avvalo Xorazmga hujum qiladi. 1602-yilda Balxni qo'lga kiritgan Boqimuhammadxon uni ukasi Valimuhammadga hadya qilib, Andxud, Shiburg'on, Maymana, Bag'lon, Badaxshon va Hisorni ham Buxoroga bo'ysundiradi. Boqimuhammadxon mamlakat ichki ishlariga ham alohida e'tibor qaratib, davlat boshqaruvini tartibga solishga harakat

qiladi. Muhammad Yusuf Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, u «Hokimiyat amaldorlari mansablarini qayta ko'rib, qo'shin tuzilishini, fuqarolar holatini nazorat qilgan» bo'lsa-da, uning qisqa muddatli hukmronlik davrida bu siyosiy harakatlar tegishli natijani bermaydi. 1605-yilda Boqimuhammadxon vafot etgach, taxtga uning ukasi, Balx hokimi Valimuhammadxon (1605–1611) o'tiradi.

Valimuhammadxon hukmronligi davrida ham Balx va Hirot uchun kurashlar davom etadi. Bu kurashlarda Valimuhammadxonning qo'li baland kelgan bo'lsa-da, u 1607-yilda Eron shohi Abbas I bilan sulh shartnomasini imzolaydi. Buning natijasida Xuroson butunlay Safaviylar qo'lga o'tib ketadi.

Natijada busiz ham Valimuhammad saroyi ishlariga doimiy aralashib yurgan, ko'p hollarda xonsiz ham qaror qabul qiladigan, o'zlarini siyosiy jihatdan mustaqil deb hisoblaydigan bir guruh buxorolik amaldorlar Valimuhammadga qarshi 1608-yilda fitna uyushtirishadi. Xon Eron shohi Abbas I huzuriga qochib ketadi. Buxoro taxtida yana boshboshdoqliklar boshlanib ketib, 1611-yilning yozida Valimuhammadxon Abbas I yordamida Buxoro taxtini qayta egallashi ham uzoqqa cho'zilmaydi. 1611-yilning oktabrida Samarqand atrofidagi Imomqulixon bilan bo'lgan to'qnashuvda Valimuhammadxon halok bo'ladi. Ashtarxoniylar taxtiga Boqimuhammadxonning o'g'li Imomqulixon (1611–1642) o'tiradi.

Bu davrga kelib mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchaligi hadidan oshib, bu holat, ayniqsa, o'troq aholi turmush tarziga salbiy

ta'sir eta boshlaydi. Imomqulixon esa aynan o'zboshimcha hokimlar harakatini susaytirishga muvaffaq bo'ladi. U Xorazm va Xurosonni qayta qo'lga kirita olmagan bo'lsa-da, Toshkent, Andijon, Turkiston shaharlariga xavf solib turgan qozoqlar, qalmiqlar va boshqa ko'plab ko'chmanchilarga qarshi kurash olib boradi. Ayrim hollarda ularga yon berib, ko'chmanchilar kuchidan Eron shohlariga qarshi kurashda foydalanadi. Imomqulixon Toshkent va uning atrofidagi yerlarga o'g'li Iskandar Sultonni hokim etib tayinlaydi. Ammo toshkentliklar Iskandar Sultonning talonchilik siyosatidan norozi bo'lib isyon ko'tarishadi. G'alayon natijasida u o'ldiriladi. Buning evaziga Imomqulixon 1613-yili Toshkentda misli ko'rilmagan qirg'inbarot o'tkazganligini tarixiy manbalar nadomat bilan ta'kidlashgan.

Imomqulixon ba'zan qozoq sultonlari bilan siyosiy maqsadlardan kelib chiqqan holda ittifoq bo'lib harakat qilishga ham to'g'ri keladi. Masalan, Sirdaryo bo'yidagi ba'zi hududlar Eshim sultonga hokimlik qilish uchun topshiriladi. Shunga qaramasdan qozoq sultonlari baribir talonchilik yurishlarini davom ettiravergach, Imomqulixon ularga qarshi qat'iy kurashlarga o'tlanadi.

Imomqulixon jung'orlar (qalmiqlar) bilan ittifoqlikda Talas vodiysida Qozoq xonligiga qaqshatqich zarba berib, to'liq g'alabaga erishadi. Lekin tez orada shimolda tashkil topgan jung'orlar (qalmiqlar) ning Oyrat xonligi (Jung'oriya, (1635–1758)ning tashkil topishi tashqi siyosiy munosabatlardagi vaziyatni o'zgartirib yuboradi. Jung'orlarning qozoqlar bilan butun Buxoro xonligiga nisbatan yurishlari tez-tez amalga oshirila boshlanadi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi, savdosotiq, shaharlar hayotiga katta xavf solar edi. Ularning yurishlari bois qozoqlarning ma'lum qismi Movarounnahr hududiga ham ko'chib o'ta boshlashadi.

Imomqulixonning shu davrdagi sadoqatli amaldorlaridan biri Yalangto'shbiy otaliq bo'lib, u olchin urug'idan chiqqan edi. Yalangto'shbiy katta yer-mulk egasi, Imomqulixonni hokimiyatga kelishida qo'llab-quvvatlagan shaxs bo'lib hisoblanar edi. Keyinchalik ham u xon hokimiyatini qo'llab-quvvatlab, bir necha yillar davomida Samarqand hokimi bo'lib turdi. Yalangto'shbiy katta vakolat, boylik, o'z qo'shiniga ega bo'lib, Samarqandni deyarli mustaqil boshqarardi. «Bahr al-asror» asarining muallifi Mahmud ibn Valining yozishicha, Samarqand hoki-

ining xazinasini xon xazinasiga teng bo'lib, bu uning iqtisodiy jihatdan qudratli shaxs bo'lganligidan darak berar edi. Aynan Yalangto'shbiyning buyrug'i bilan Samarqandda mashhur Sherdor (1619–1636) va Tilakori (1641–1646) madrasalari barpo etilgan edi.

Ta'kidlash joizki, garchi bu davrda Yalangto'shbiychalik boshqa qudratli hokimlar uchramasa-da, lekin shu darajaga intilayotgan amaldor, hokimlar ham yo'q emas edi. Shunga qaramasdan, Imomqulixon davlat tizginini mahkam ushlab, kuchli markaziy hokimiyat barpo etishning uddasidan chiqa oldi, deyish mumkin. Muhammad Yusuf Munshiy o'zining «Tarixi Muqimxoniy» asarida Imomqulixon hukmronligi davriga yuqori baho berib, jumladan uni Sulton Husayn Boyqaroga ham taqqoslaydi. Xususan, ushbu muarrix yuqorida nomi zikr etilgan xon davrida «Na Balxda, na Buxoroda, umuman hech bir hududda tartibsizlik, isyonlar bo'lmagani»ni qayd etadi.

Shubhasiz, Imomqulixon o'z davrining zehni va tadbirli davlat arbobi, yuqori ma'lumotli hamda salohiyatli vakili bo'lgan. Uning saroyida qator fan va adabiyot vakillari, xususan mashhur tarixchi, Hofiz Tanish Buxoriy, birmuncha vaqt, keyinchalik Xiva xoni sifatida tanilgan Abulg'azi Bahodirxonlar ham faoliyat ko'rsatishgan. 1621-yili xonning tashabbusi bilan Samarqandda Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub «Zafarnoma» asaridan yangi nusxa ko'chirtirilgan.

Imomqulixon tashqi siyosiy aloqalar, boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatishga ham harakat qilgan. Bu davrda ayniqsa, Hindistondagi boburiy podshoh Jahongir (1605–1627) bilan aloqalar mustahkamlandi. Xususan, 1625-yili Hindiston elchisi Mir Barakani vataniga kuzatish vazifasi yangi xon elchisi sifatida tayinlangan Hoji Abdulrahim zimmasiga yuklanadi. Jo'ybor shayxlaridan bo'lgan Hoji Abdulrahim Hindiston podshohi Jahongirshohga ko'plab noyob va qimmatbaho sovg'a-salomlar taqdim etadi. Sovg'a-salomlar ichida qiymati bir viloyat xirojiga teng bo'lgan qimmatbaho la'l toshi ayniqsa ajralib turar edi. Hindistonga elchi sifatida yuborilgan Hoji Abdulrahim Jahongirshohga Xurosonni Buxoro xonligi va Hindiston o'rtasida bo'lib olish rejasini ham taqdim etadi. Jahongirshohning vafoti (1627-yil) Buxoro xonligi bilan o'zaro munosabatlarning birmuncha vaqt uzilib qolishiga sabab bo'ladi. Imomqulixon Rossiya bilan ham elchilik munosabatlarini o'rnatadi. 1619-yili xon elchisi Odam-

biy Moskvaga borib, rus podshosi Mixail Romanov qabulida bo'ladi. Rossiya podshosi o'z navbatida Buxoroga Ivan Xoxlov boshchiligidagi elchilik guruhini jo'natadi. I.Xoxlov 1620–1622-yillarda xonlikda bo'lib, Ashtarxoniylar davlatiga oid ko'plab ma'lumotlarni to'plashga muvaffaq bo'ladi. Imomqulixon garchi chegara masalasida Eron bilan to'qnashuvlarga borsa-da, lekin ushbu davlat bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ahamiyat beradi.

Manbalarning guvohlik berishicha, Imomqulixon davrida xon hokimiyatining mavqeyi oshib, ichki vaziyat, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy holat ancha yaxshilanadi. Muhammad Yusuf (ibn Hoji Baqo) Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy» asarida berilishicha, «Imomqulixon nochorlar ishini yengillashtirdi, arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida na kambag'al, na bechora qolmagandi. Chiqargan buyruqlari ijrosi borasida amaldorlariga qattiq turdi, qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib, vaziri va qo'rchilari bilan bozorlar-u mahallalarni aylanib, oddiy xalqning haqiqiy ahvolidan xabardor bo'lib turardi». Umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolgan Imomqulixon 1642-yili taxtdan voz kechib, Makkaga haj safariga jo'naydi. U 1644-yili Madinada vafot etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, hajga yo'l olgan Imomqulixonga nufuzli davlat arbobi sifatida Eron davlatida katta qabul marosimi ham uyushtiriladi.

Imomqulixondan so'ng taxtga uning ukasi Nodirmuhammad (1642–1645-yy.)¹ o'tirdi. Nodirmuhammad xon bo'lguniga qadar Balx hokimi (1606–1642) bo'lib, uzoq vaqt taxtni boshqara olmadi. U hokimiyat tepasiga kelgach, mamlakatdagi ahvol tezda o'zgarib ketdi. Chunki, xon davlat ishlarida hal qiluvchi rol o'ynaydigan zodagonlarga yaqinlasholmay, ular bilan til topisha olmadi. Undan tashqari, Nodirmuhammadxon mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan amirlar va sultonlar mavqeyini cheklash bilan birga mamlakatning asosiy viloyatlarini o'zining olti o'g'li, bir nabirasi va ikki jiyaniga bo'lib berdi. Jumladan, o'g'illari Abdulaziz Sultonga Samarqand, Xisrav Sultonga Badaxshon bilan Qunduz, Bahrom Sultonga Toshkent, Subhonquli Sultonga Balx, Qutluq Muhammad Sultonga Hisor, Abdurahmon Sultonga Shiburg'on va Andxud, nabirasi Qosim Sultonga Xuzor, jiyanlari Muhammadyor Sultonga Shahrisabz, So'fi Sultonga Toliqon berildi.

¹ Ba'zi manbalarda Nodirmuhammad deb ham yuritiladi.

Bunday sharoitda oradan ko'p vaqt o'tmay vaziyat keskin o'zgardi. Saroydagi lavozimlardan ozod etilgan amaldorlarning noroziligi kuchayib turgan bir paytda, mamlakat hududlariga shimoldan ko'chmanchilar hujumlari boshlandi. Nodirmuhammadxon ko'chmanchilarga qarshi kurashga o'g'li Abdulazizxon boshchiligidagi qo'shinni jo'natadi. Hukmdordan norozi bo'lgan bir guruh amaldorlar 1645-yilning aprelida Uchtepa atrofidagi Yangisaroy degan joyda Nodirmuhammadning katta o'g'li Abdulaziz Sultonni xon deb e'lon qilishadi. Bu paytda Qarshi dashtlarida ov qilib yurgan Nodirmuhammadxon bu xabarni eshitib Balxga qochadi.

Abdulazizxon hukmronligi davri (1645–1681) o'zaro kurashlar bilan boshlandi. Balxda o'rnashib olgan Nodirmuhammad qolgan o'g'illariga va yangi xondan norozi bo'lgan Buxoro amirlariga tayanib, Abdulazizxon hokimiyatini tortib olishga urindi, ammo buning uddasidan chiqqa olmadi. Shundan so'ng, Nodirmuhammadxon Hindiston hukmdori boburiy Shoh Jahondan yordam so'radi. Bundan foydalangan boburiylar Balx va Badaxshonni egallab, bu hududlarda ikki yil hukmronlik qildilar. Nodirmuhammadxon esa Eron shohi huzuriga qochib ketdi. 1647-yil oktabrda Abdulazizxon Balxga hujum qilib, uni boburiylardan tortib oldi. Nodirmuhammadxon esa 1651-yilda haj safariga chiqib, yo'lda vafot etdi¹.

Abdulazizxon davrida mamlakatda notinchliklar, beboshliklar yana qaytadan boshlandi. Ayniqsa, Balxda hukmronlik qilayotgan Subhonquli Sulton bilan Abdulazizxon o'rtasidagi kurash keskinlashdi. Abdulazizxon Balxni Buxoroga bo'ysundirishga bir necha marta uringan (1652–1657) bo'lsa-da, Subhonquli Sultonni mag'lub eta olmadi. Undan tashqari, oliy hokimiyatning zaiflashgani hamda o'zaro urushlardan foydalangan Xiva xonlari Buxoroga tez-tez hujumlar uyushtirib turishdi. Ular 1658-yilda Karmana va Vardonzani talon-toroj qilib, 1662-yilda Buxorogacha yetib kelishdi. Balx mojarolari 1658-yilda Abdulazizxonning piri Abdug'affor xojaning aralashuvi bilan biroz barham topgan bo'lsa-da, amalda Subhonquli Sulton Balxni mustaqil boshqarardi.

¹ Nodirmuhammadxon Madina shahri yaqinida, akasi Imomqulixon qabri yoniga dafn etilgan.

Xiva xonligi bilan olib borilgan urushlar ustiga mamlakatdagi turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ixtiloflarning keskinlashib borishi mamlakat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgandi. Manbalar tili bilan aytganda, Abdulazizxon davrida «Movarounnahr va Balx viloyatlari xorazmliklar va qozoqlar hujumlari tufayli halokat yoqasiga kelib qoldi». Qarib qolgan Abdulazizxon dushman hujumlarini qaytarolmay qolgandi. Undan tushqari, uning davrida yirik yer egalarining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining kuchayishi markaziy hokimiyatni yanada zaiflashtirgandi. 1680-yili Karmanaga yo'l olib, Buxoroni nufuzli amaldor Iskandarbiyga topshirdi. Buni bilgan Xiva xonligi qo'shini poytaxtga hujum qildi.

1681-yilda Abdulazizxon taxtni ukasi Subhonquli Sultonga topshirib, o'zi haj safariga jo'naydi va o'sha yerda vafot etadi. Ta'kidlash lozimki, Abdulazizxon hukmronligi davri bir tomondan, parokandalikni kuchaytirishga olib kelgan bo'lsa-da, xon o'z vakolati doirasida markaziy hokimiyatni mustahkamlashga ham harakat qildi. Afsuski, bu harakatlar tegishli samara bermadi. Subhonqulixon (1681–1702) hukmronligi yillarida ham mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat o'zgarmadi. Chunonchi, Subhonqulixon davrida uning o'g'illari o'rtasida Balx hokimiyati uchun kurash yanada avj oldi. Bu jarayonda uning o'g'illarini Balxdagi obro'li xonadonlar qo'llab turishdi. Mahalliy amaldorlar davlat xazinasiga ham soliqlar to'lashmagan. Bu holat markaziy hokimiyatning Balxdagi mavqeyini nihoyatda zaiflashib ketganidan va mahalliy siyosiy kuchlarning, xususan yirik amirlar mavqeyi oshib ketganidan dalolat berardi.

Yangi hukmdorning hokimiyat tepasiga kelishi Buxoro va Xiva munosabatlarini yumshatmadi. Xivaliklar Anushaxon boshchiligidagi Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga talonchilik yurishlarini uyushtirib, shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirishdi. Oqibatda sug'orish ishlari izdan chiqib, dehqonchilikka putur yetdi. Bozorlarda qimmatchilik boshlanib, xalqning ahvoli yomonlashdi. Mana shunday sharoitda Subhonqulixon davlatning bo'shab qolgan xazinasini to'ldirish maqsadida qo'shimcha soliqlarni joriy etib, bir necha yillik soliqlarni oldindan yig'ib olishga buyruq berdi.

Xiva qo'shinlari Karmana, Vardonze va Buxoro atroflariga qadar bo'lgan yerlarni egallab, Samarqandni ham qo'lga olishadi. Bu davrdagi nufuzli shaxslardan biri bu -- Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliqu

edi. U asli qatag'on urug'idan bo'lib, Abdulazizxon davridanoq mam-lakatdagi nufuzli amaldorlardan biriga aylangan edi. Subhonqulixon aynan shu Mahmudbiy otaliq yordamiga tayanib Samarqanddan Xiva qo'shinini haydab chiqardi. Samarqand ahlini xivaliklarga tobe bo'lishda ayblab, unga katta boj solig'i solindi. Subhonqulixonning o'g'li Siddiq Muhammad Balx hokimi bo'lib, otasiga qarshi bir necha marta bosh ko'targan edi. Xon bu g'alayonni bostirishni avval Mahmudbiy otaliqqa topshiradi. Keyinchalik o'zi ham Balxga yurish qilishiga to'g'ri keladi. Samarqand va Balxdagi yurishlari uchun Subhonqulixon Mahmudbiy otaliqqa katta miqdordagi sovg'a-salomlar va qimmatbaho buyumlar tortiq qiladi.

Subhonqulixon tushib qolgan vaziyatdan foydalangan Xiva xoni Anushaxon Buxoroga qayta hujum qilib, uning shimoliy hududlarini talon-toroj qiladi. Xiva xoni talonchiligidan charchagan Subhonqulixon unga qarshi fitna tayyorlaydi. Fitna natijasida Anushaxon 1686-yili tutib olinib, ko'ziga mil tortiladi. Xiva taxtiga o'tirgan Erengxon (Irnoq) Buxoro xoniga bo'yin egishni istamaydi. Hatto xon Balxga ketgan vaqtida poytaxtni qamal ham qiladi. Bunday vaqtda Subhonqulixon Mahmudbiy otaliq yordamida xivaliklarni haydab chiqaradi. Xonga berilgan «yordam evaziga» Subhonqulixon 1688-yili Balx viloyati hokimligini Mahmudbiy otaliqqa topshiradi. Holbuki, Balx hamma vaqt bo'lg'usi taxt vorislari hokim bo'ladigan hudud hisoblanar edi. Subhonqulixon Xiva xonligi ichki ishlariga aralashishni davom ettiradi. 1688-yili Erengxon Xivada o'ldirilib, Buxoro xoni ma'lum vaqt oliy hukmdor sifatida tan olinadi. Shohniyoz Xiva hududlari hokimi deb e'lon qilinadi. O'z vaqtida Mahmudbiy esa Balx hokimi sifatida xonga ham bo'ysunmay qo'yadi. Subhonqulixonning hukmronligi davri ancha ziddiyatli va murakkab tarzda kechadi. Bir tomondan u Ashtarxoniylar davlatining mavqeyini kuchaytirishga harakat qiladi. Xususan, u Xiva xonligini o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi. Balx, Badaxshon va boshqa hududlarni o'z izmida ushlab turadi. Markaziy hokimiyatni kuchaytirish maqsadida soliqlarni ko'paytirib, qo'shin sonini oshiradi. Subhonqulixon qo'shni davlatlar bilan ham o'zaro munosabatlarni o'rnatishga harakat qiladi. U boburiy podshoh Avrangzeb bilan bir necha marta maktub almashgan. 1689-yili Hindistondan Zabardastxon boshchiligidagi elchilik guruhi Buxoroga tashrif buyurgan. 1690-yili

xon Rossiyaga o'z elchilarini jo'natgan. 1691-yili esa Usmoniy turklar davlati elchisi Mustafó chovush Subhonqulixon qabulida bo'lib, o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga kelishib olishgan. Subhonqulixon obodonchilik va qurilish ishlariga ham homiylik qilgan. O'zi ham «Nishoniy» taxallusi ostida she'rlar yozgan.

Subhonqulixonning o'g'li Ubaydullaxon (1702–1711) mamlakatda hukm surayotgan siyosiy tarqoqlikni tugatishga hamda markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilgan so'nggi ashtarxoniy hukmdori bo'ldi. Uning Samarqand, Hisor, Termiz va Shahrisabzga qilgan yurishlari natijasiz tugagan bo'lsa-da, uzoq qamaldan so'ng Balxni egallashga muvaffaq bo'ldi. Manbalarning guvohlik berishicha, Ubaydullaxon Balxni egallagach, qo'shindagi otlar va tuyalar dehqonlar ekinlarini payhon qilmasliklari haqida buyruq beradi. Bu bilan u o'ziga soliq to'lovchi aholi manfaatini ko'zlagan va oddiy aholini o'ziga og'dirishga harakat qilgandi.

Shunga qaramasdan, Ubaydullaxonning mahalliy hokimlar hamda amirlarning ayirmachilik harakatlarini sindirish yo'lidagi ko'plab sa'y-harakatlari tegishli o'z samarasini bermadi. Ubaydullaxon davlatdagi boshqaruv apparatida islohot o'tkazishga harakat qilib, ko'plab amaldorlarni mansabidan chetlashtirdi. Ularning o'miga hunarmandlar va savdogarlarning farzandlarini mansablarga tayinladi. Shuningdek, u mamlakatdagi yirik yer egalari bo'lgan jo'ybor shayxlarining soliq imtiyozlarini ham bekor qildi. Ammo Ubaydullaxonning bu harakatlari unga norozi kuchlarning ko'payishiga xizmat qildi, xolos.

Ubaydullaxon mustaqil amirlarning iqtisodiy qudratiga zarba berish, davlat xazinasini boyitish hamda mamlakat moliyaviy ahvolini yaxshilash maqsadida 1708-yilda pul islohotini o'tkazdi. Bu islohotga ko'ra, xazinada mavjud kumush tangalar eritilib, har biridan to'rtta kumush tanga qayta zarb qilindi. Qiymati past bo'lgan yangi tangalar eski tangalar bilan bir xil muomalada bo'lishi e'lon qilindi. Ammo zarb etilgan, past qiymatli tangalar bozorlarda savdogarlar tomonidan olinmasdan, do'konlar yopib qo'yildi. Natijada aholining noroziligi kuchayib, Buxoroda qo'zg'olon ko'tarildi. Bu qo'zg'olon katta qiyinchilik bilan bostirilgan bo'lsa-da, mamlakatdagi ahvol yaxshilanmadi.

Ubaydullaxon davrida jung'orlar Movarounnahr hududiga harbiy yurishlarini amalga oshirishdi. Ular Toshkent va Samarqandga xavf

sola boshlagach, xon o'z qo'shini bilan ularga qarshi yurishni ham amalga oshirdi. Ubaydullaxon davlat ishlariga kelib chiqishidan farqli ravishda hunarmand va savdogarlarning farzandlarini ham jalb qila boshladi. Bu davrda qo'shbegi lavozimiga o'tirib, katta mavqeyga ega bo'lgan To'raquli qo'shbegi kelib chiqishi bo'yicha zodagon oiladan bo'lmay, bu esa saroydagi ko'plab amaldorlarning noroziligiga sabab bo'lganligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Shubhasiz, Ubaydullaxonning markazlashgan davlat sari yo'l tutishi, nizo-parokandalikka qarshi turishi zodagonlar, harbiylar, yuqori darajadagi amaldorlarning bir qismi noroziligining yanada o'sishiga olib keldi. Bunga katta nufuzga ega bo'lgan Mahmudbiy faoliyatini ham misol qilib keltirish mumkin. Mahmudbiy Balx hokimi bilan birga xon hokimiyatiga ochiqchasiga qarshi chiqadi. Mahmudbiyning ta'siri ostida xonning jiyani Muhammad Muqim Sulton (1697–1707) Balx hokimi sifatida xon hayotlik chog'idayoq oliy hukmdorlikka da'vo bilan chiqadi. Ubaydullaxon o'zaro nizo va ayirmachilikka qarshi chiqib, markazlashgan davlat uchun harakat qilgan oxirgi ashtarxoniy hukmdori bo'lib qoladi. Ubaydullaxon II obodonchilik ishlariga ham e'tibor beradi. U Buxoroda madrasa, poytaxt g'arbida Xonobod chorbog'i barpo ettiradi. Ubaydullaxon 1711-yili fitna natijasida o'ldiriladi.

Ubaydullaxonning o'limidan so'ng mamlakatda siyosiy tarqoqlik yanada kuchayadi. Alohida viloyatlarning harbiy-siyosiy qudrati orta borib, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Balx, Shahrizabz va Badaxshon hokimlari o'zlarini mustaqil hukmdor sifatida tuta boshlashadi. Mana shunday sharoitda Buxoro taxtiga 16 yoshli Abulfayzxon (1711–1747 yy.) o'tkaziladi. Ayrim manbalar Abulfayzxon taxtga o'tirgan paytdayoq Ubaydullaxonning siyosatini davom ettirishga harakat qilganligini tasdiqlasa-da, uning atrofidagi amirlar bu harakatlarga keskin qarshi chiqadilar. Har tomonlama mavqeyga ega bo'lgan amirlar Abulfayzxondan o'z manfaatlari yo'lida foydalanadilar va oxir-oqibatda Abulfayzxon qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoladi.

1716–1717-yillarda yuz ming kishilik xitoy-qipchoq qabilalari Miyonqol, Qarshi ostonalariga kelib o'rinishadilar. O'z navbatida, ularning kirib kelishi jarayonida ko'plab talonchilik ishlari amalga oshiriladi, ma'lum hududlar xonavayron qilinadi. Shuningdek,

XVIII asr 20-yillarida qozoq sultonlari ham Zarafshon vohasiga hujum qilib, keyinchalik o'zlari ham jung'orlar ta'qibi ostida shu yerlarga kelib o'rtnasha boshlaydilar. Xon esa bunday harakatlarga qarshi chora-tadbirlar qo'llashdan o'jiz edi. Rossiya imperatori vakili Florio Benevenining yozishmalari hamda «Tarixi Abulfayzxon» asarining muallifi tarixchi Abdurahmon Tole ma'lumotlarida mamlakatda hukm surgan boshboshdoqlik va xunrezliklar alohida ta'kidlanadi.

Mamlakatdagi turli hukmdorlar o'rtasidagi siyosiy tarqoqlik avj olgan bir sharoitda mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Hakimbiy hokimiyatni egallashga harakatni boshlaydi. Saroydagi otaliq mansabida bo'lgan Hakimbiyning qo'liga hokimiyat o'tishiga ko'pgina amirlar qarshi chiqadilar. Ular orasida Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy kenagas ayniqsa ajralib turardi. Ibrohimbiy kenagas 1722-yilda o'zining bir guruh maslakdoshlari bilan asli kelib chiqishi Xiva xonlari avlodidan bo'lgan Rajab Sultonni Samarqand hokimi deb, o'zini esa «Amirlar amiri» deb e'lon qiladi. Rajab Sulton boshchiligidagi bir nechta o'zbek urug'lari amirlarini birlashtirgan Ibrohimbiy Buxoroga yurish qiladi. Bu yurishda Muhammad Hakimbiy mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, Rajab Sulton Buxoroni egallay olmaydi va qozoq sultonlaridan yordam so'radi.


Muhammad Vaf o Karmanagiy o'zining «Tuhfat al-xoniy» asarida yozishicha, qozoq sultonlari zudlik bilan Movarounnahrda yurish boshlab, mamlakatdagi siyosiy parokandalikdan unumli foydalanadilar. Ular 1723–1729-yillar davomida Zarafshon va Qashqadaryo vohalarining serhosil yerlariga doimiy ravishda talon-torojlik yurishlarini amalga oshirib turishadi. Abulfayzxon davlat ishlarini bir tomonga tashlab, mayxo'rlik va maishatga berilib ketadi. U bir safar qattiq mastlik chog'ida yetti nafar farzandini ham o'limga mahkum etgan edi. Ulardan faqat kichik yoshdagi Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirilib, omon qolgan edi. Xon davlat ishlarini butkul Javshon qalmoq ismli qo'shbegi qo'liga topshirib qo'yadi. Mamlakatda parokandalik avj olib, Samarqand, Badaxshon, Qarshi, Balx, Farg'onani amalda mustaqil hokimlar boshqara boshlaydilar.

Buxoro xonligidagi parokandalik qo'shni Eron hududlarida Nodirshoh (1736–1747-yy.) asos solgan Afshoriylar davlati uchun

ham nihoyatda qo'l keldi. O'z yerlarini kengaytirib, Eron va Afg'onistonda mavqeyini mustahkamlab olgan Nodirshoh Buxoro xonligi hududlariga qarshi harakatni amalga oshirishga kirishadi. Xususan, 1736-yilda Nodirshohning o'g'li Rizoquli boshchiligidagi qo'shin Amudaryodan o'tib Qarshi shahriga hujum qiladi. Bu paytda Qarshi hokimi bo'lgan Muhammad Hakimbiy otaliq Abulfayzxon dan yordam so'raydi. Qarshi shahri yaqinida Hakimbiy va Abulfayzxon qo'shinlari Rizoquli qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchraydi. Qarshi shahri esa qamalda qoladi. Bunday sharoitda Xiva xoni Elbarsxon katta qo'shin bilan Abulfayzxon ga yordamga shoshiladi. Bu xabarni eshitgan Rizoquli Qarshi qamalini to'xtatib, Eronga qaytishga majbur bo'ladi.

1740-yilda Nodirshohning o'zi katta qo'shin bilan Buxoro xonligi ustiga yurish boshlaydi. Nodirshoh Chorjuy atroflaridan Amudaryoni kechib o'tgan paytida Qarshi hokimi Muhammad Hakimbiy uning huzuriga borib, o'z xizmatini taklif qiladi. Nodirshoh Muhammad Hakimbiyni o'z xizmatiga oladi. Abulfayzxon Eronga qarshi kurashni tashkil etolmay, Nodirshohga taslim bo'ladi. Nodirshoh Ashtarxoniylarning taslim bo'lishi haqidagi shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali xonga jo'natadi. Abulfayzxon Zarafshon daryosi bo'yidagi Eron shohi huzuriga borib, qaramlik haqidagi shartnomani imzolaydi. Shartnomaga ko'ra, Buxoro xonligi Eronga 8 yilga yetadigan bug'doy va arpa berishi, 10 000 nafar qo'shin to'plab, shohga jo'natishi kerak bo'lgan. Ushbu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahimbiy bosh bo'ladi. Muhammad Hakimbiy esa qo'shbegi (bosh vazir) lavozimini egallab, amalda butun hokimiyatni o'z qo'lga to'plab oladi. 1743-yili Muhammad Hakimbiy vafot etgach, uning o'g'li Muhammad Rahimbiy amalda butun hokimiyatni qo'lida mujassam etib oladi. 1747-yilda Abulfayzxon ga fitna uyushtirilib, o'ldirilguniga qadar va undan so'ng oxirgi ashtarxoniylar Abdulmo'min (1747–1750), Ubaydullaxon II (1750–1753) va Sherg'ozixon (1753–1756) lar davrida ham amaldagi hokimiyat Muhammad Rahimbiy qo'lida bo'ladi. Muhammad Rahimbiy 1756-yil dekabrda rasman hokimiyatga o'tirganligi e'lon qilinadi. Shunday qilib, Buxorodagi oliy hokimiyat mang'itlar sulolasi qo'lga o'tadi.

XVII–XVIII asrlarda o'zbekxonliklari



4.2. Davlat tizimi va ma'muriy boshqaruv.

Ashtarxoniylarning davlat tizimi va ma'muriy boshqaruvi o'z tuzilishi hamda mazmun-mohiyatiga ko'ra, Shayboniylar davri davlat-chiligidan deyarli farq qilmas edi. Manbalarning ma'lumot berishicha, XVII–XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora – dargohda mujassamlashib borgan. Shuningdek, Shayboniylar davrida bo'lgani kabi Ashtarxoniylar davrida ham davlat tizimida o'troq turmush tarzi an'analari bilan birga ayrim yarim ko'chmanchilarga xos udum va odatlar ham saqlanib qolgan.

Bu davrda ham xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal etilgan. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy etilib, uning nomidan tangalar zarb qilinadi, xonning nomi xutbaga qo'shib o'qilardi. Ammo amaldagi boshqaruvda ko'pgina ashtarxoniylar hukmdorlari saroydagi katta mavqega ega bo'lgan amaldorlar hamda yirik ulamolar

qo'lida qo'g'irchoq edilar. Imomqulixon, Subhonqulixon, Ubaydullaxon II kabi xonlar markaziy hokimiyat obro'sini ko'tarishga, bebosh amirlar mavqeyini cheklashga harakat qilgan bo'lsalar-da, ularning bu harakatlari deyarli samara bermaydi. Bu davrda markaziy davlat boshqaruvi saroy amaldorlari qo'lida to'plangan bo'lsa, joylardagi mahalliy hokimiyat viloyat hokimlari ixtiyorida bo'lgan.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvona-chi, dodxoh, devonbegi, qo'shbegi, chuhraboshi, yasovul, inoq, qo'rchi, harbiy qozi, harbiy mufti, eshikog'aboshi, mirzaboshi, saroy kutubxonasi boshlig'i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo'lgani ma'lum. Shu bilan birga, ularning ayrimlarida ma'lum o'zgarishlar yuz berganini ham ta'kidlash lozimdir.

Otaliqning vazifasi XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lsa, Ashtarxoniylar davrida, ayniqsa Abdulazizxondan boshlab, otaliqning markazdagi mavqeyi kuchaya boshlaydi. Masalan, Abdulazizxon Buxoro taxtiga chiqqach, poytaxtdagi otaliq vazifasini o'sha paytda eng kuchli mavqeega ega bo'lgan Yalangto'shbiyga taklif qilgan. Otaliqning mavqeyi Subhonqulixon davrida ham baland bo'lib, eng muhim harbiy ishlar (masalan, xivaliklarning Buxoroga tahdidini qaytarish, Xuroson yurishi) otaliqqa yuklatilgan. «Ubaydullanoma» asarida otaliqqa «umdat al-umaro», ya'ni «butun amirlar tabaqasining tayanchi» degan ta'rif berilgan. Abulfayzxon davridagi otaliq mansabida bo'lgan Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiylar katta mavqega ega bo'lib, ular oxir-oqibat sulola vakillaridan hokimiyatni butunlay tortib olishga muvaffaq bo'ladilar.

Ashtarxoniylar, xususan Ubaydullaxon II va Abulfayzxon davrlarida qo'shbegi lavozimidagi amaldorlarning ham mavqeyi o'sgan. Aniqrog'i, shu mansabdagi shaxsning mavqeyi ko'tarilishi bilan u egallab turgan lavozimning ham ahamiyati yuksalgan. Misol uchun, «Ubaydullanoma»da ma'lumot berilishicha, To'raquli qo'shbegi mansabga tayinlash va unvon berish, xon yorlig'isiz shaxsan yozma ko'rsatmalar tarqatish, oliy qabullarda o'z xohishi bilan ishtirok etish kabi imtiyozlarga ega bo'lgan. O'sha manba tili bilan aytganda, bu davrda qo'shbegi «Amirlarning eng ulug'i» edi.

Bu davrda Buxorodan keyingi eng nufuzli shahar Balx bo'lib, uni odatda taxt vorisi boshqarar edi. Rasmiy darajadagi davlat boshqaruvi

ikki bosqichli bo'lib – markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga bo'ysunishi belgilangan yillik soliqlarni to'plab xon xazinasiga yuborib turishi, xon farmo-niga ko'ra, harbiy yurishlarda o'z qo'shinlari bilan qatnashishdan iborat bo'lgan, xolos. Ko'p hollarda o'zlarini markaziy hokimiyatdan mustaqil deb hisoblagan viloyat amirlari va hokimlari ham o'z boshqaruv tizimi va harbiy kuchlarga ega bo'lishgan.

Bu davrda amaldorlar toifasiga kirgan shaxslar o'zi egallab turgan lavozimlaridan, mas'uliyatli vazifalaridan tashqari, siyosiy jarayonlar va harbiy yurishlarda ham ishtirok etishgan. Misol uchun, manbalarga ko'ra, 1722-yilda Vobkent ostonasidagi Muhammad Hakimbiy o'taliq boshchilik qilgan Abulfayzxon va Samarqand hokimi Rajab Sulton qo'shinlari bilan bo'lgan to'qnashuvda devonbegi, qo'shbegi, parvonachi, dodxoh, miroxo'r, eshikog'aboshi, to'qsabo, dasturxonchi kabi mansabdorlar ham ishtirok etishgan.

Bu davrdagi boshqaruvda dunyoviy lavozimdagi amaldorlar bilan bir qatorda diniy amaldorlarning ham mavqeyi baland bo'lgan. Boshqaruv tizimida yirik din peshvolari xojalar va diniy mansab egalari bo'lgan shayxulislom, sadr, qozi kalon va boshqalar katta ahamiyatga ega bo'lishgan.

Avvallari bo'lganidek, bu davrda ham davlat boshqaruvida jo'ybor xojalarining mavqeyi yuqori bo'lib, asosiy diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlangan. Buxoro shayxulislomi ham jo'ybor shayxlari orasidan tayinlanib, Abulfayzxon davrida bu lavozimni Xoja Yahyoning o'g'li Muhammad Hakim Xoja egallagan. Shayxulislom jamiyatda katta rol o'ynab, nafaqat diniy, balki barcha ishlar bo'yicha hukmdorning doimiy maslahatchisi bo'lgan. Har bir viloyatning o'z qozisi bo'lib, ular diniy, oilaviy, vorisiylik hamda jinoiy ishlarni ko'rib chiqishgan. Harbiylar uchun ham alohida qozilar bo'lib, ular qoziyi-askar deb atalgan.

Buxoro xonligidagi huquqiy masalalarni hal etishda muftiyning o'rni alohida edi. Muftiyfiqh (huquq) va hadisni juda yaxshi biladigan qonunshunos bo'lishi lozim bo'lgan. XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida davlat hokimiyatining zaiflashuvi oqibatida darvishlar guruhlarining ham roli ortib borgan.

Ashtarxoniylar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari ancha qisqardi. XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi ol-

tita viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Farg'ona va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan bo'lsa-da, Abulfayzxon davriga kelib Xiva va Qo'qon konfliktlari alohida davlat edi.

Mavjud manbalarda Buxoro xonligiga bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shahrisabz, Farg'ona amalda yarim mustaqil boshqarilib, Buxoroga nomigagina tobe hisoblangan.

4.3. Qishloq xo'jaligi. Shaharlar. Hunarmandchilik va savdo

Ashtarxoniylar davrida ham davom etgan siyosiy parokandalik, urushlar va o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. XVIII asrga oid ayrim manbalar Zarafshon va Farg'ona vodiysidagi dehqonlarning o'z yerlaridan qochib ketishi holatlari haqida ham ma'lumotlar beradi. Hukmdorlar soliq va o'lponlarni o'z vaqtida va doimiy yig'ib olish uchun ham mamlakat iqtisodiyotini ko'tarishga harakat qilsalar da, bu harakatlar aksariyat hollarda samarasiz tugardi. XVII asrning boshlariga kelib ko'plab sug'oriladigan yerlar jo'ybor shayxlariga berilgan. Shariat qonunlariga ko'ra, suv sotilmasligi va sotib olinishi mumkin bo'lmasa-da, boy amaldor va ruhoniy yer egalari sug'orish kanallarining xo'jayinlari edilar. To'g'ri, sohada ma'lum ishlar amalga oshirildi. Masalan, Imomqulixon davrida, 1614–1615-yillarda Qarshi qamali, 1633–1634-yillarda Qo'shqo'rg'onda katta kanal qazilib, yon-atrofga suv chiqarilgan. Lekin bu kabi ishlar hajmi shunchalik kam darajada bo'ldiki, dehqonchilik sohasida amaliy natijalarga olib kelmadi. XVII asr 80-yillarining oxirlarida Xiva hukmdorlarining ko'plab hujumlari natijasida kelib chiqqan suv ta'minoti buzilishi Ashtarxoniylar davlatidagi ko'pgina viloyatlarda, ayniqsa, Samarqand, Qarshi, Farg'onada ocharchilikka sabab bo'ldi. Manba tili bilan aytilganda, «dehqonlarda tariq va bug'doy noni ham yo'q edi».

Siyosiy beqarorlik va o'zaro urushlar davom etib turgan og'ir sharoitda ham dehqonlar o'z xo'jaliklarini davom ettirishga harakat qilish-

gim. Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik hududi Zarafshon vohasi edi. So'nggi o'rta asrlar mualliflari boshqa viloyatlarda ham ekinlar va bog'-rog'lar mavjudligi haqida ma'lumotlar berishadi. Misol uchun, Farg'onaning «ajoyib bog'lari va dalalari», Qarshining «sug'oriladigan yerlari», Toshkent vohasining «tog'li g'allakor tumanlari», Termizning «yaxshi qovunlari va g'allasi», Shahrisabzning «yaxshi hosil beruvchi yerlari» haqida ma'lumotlar bor.

Ashtarxoniylar davrida sug'oriladigan yerlarga O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy bo'lgan bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari, dasht va tog'oldi adirlaridagi lalmi yerlarda bug'doy, arpa, qovun, tarvuz va boshqalar ekilib dehqonchilik qilingan. O'zaro urushlar dehqonchilik taraqqiyotini birmuncha orqaga surib turgan bo'lishiga qaramasdan, tinchlik davrlarida yerlardan yuqori hosil olingan.

Bu davrda poliz ekinlari yetishtirish yaxshi rivojlangan. Bu ekinlar orasida qovun ayniqsa ko'p yetishtirilgan. Bu haqda «Boburnoma»da shunday ma'lumot beriladi: «Movarounnahrning hech qayerida Buxorodagidek ko'p va xo'b qovun bo'lmaydi. Farg'ona viloyatida, Axsida Buxoronikidan ham shirinroq miri timuriy navli qovun bo'lsa-da, Buxoroda qovunlarning navi ko'p, ular ham juda shirin». Mahmud ibn Vali (XVII asr) ham ko'pgina hududlarda qovun yetishtirilganligi haqida ma'lumotlar beradi. Poliz mahsulotlaridan asosan pul ko'rinishida soliqlar olingan.

Sug'oriladigan yerlarning ko'pchilik qismini bog'lar va uzumzorlar tashkil qilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlar atrofida ko'plab bog'lar, chorbog'lar mavjud bo'lgan.

Bu davrda chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i sifatida katta ahamiyatga ega edi. Xon va yirik saroy amaldorlari, din peshvolari, qabila boshliqlari, yirik chorvador boylarga tegishli katta-katta yaylovlarda, dasht hududlarida ming-minglab qo'ylar, podalar, yilqilar, tuyalar boqilgan. Bobur ma'lumotlariga ko'ra, yirik zodagonlarning 30–40 mingtagacha qo'ylari bo'lgan. Andijon bekalaridan biri, qal'a himoyasi paytida bu yerdagi askarlarga 18 mingta qo'y tarqatgan. Ayrim hududlarda, masalan Qorako'lda qorako'l terisi, Qarshida qora va ko'kimtir kulrang teri ishlab chiqarish rivoj topgan. Qo'ychilik yarim ko'chmanchi aholining asosiy boyligi hisoblangan.

O'troq dehqonchilik tumanlarida an'anaviy uy chorvachiligi sut-qatiq uchun sigir, semirtirib boqish uchun buqa va qo'y boqish davom etgan. Ho'kiz va otlardan dehqonchilikda omoch tortib yer haydash-da keng foydalanilgan. Chorvachilik ishlab chiqarish ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan qo'ylar, yirik shoxli hayvonlar, qorabayir otlar, ikki o'rkachli tuyalar hamda jun, teri va boshqa mahsulotlar yetkazib beradigan asosiy tarmoq sifatida ashtarxoniylar davrida ham o'z mavqeyini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniylar hukmdorlari davrida mamlakatning asosiy boyligi hisoblangan yerni taqsimlash rasman oliy hukmdor qo'lida bo'lsa-da, amalda ko'plab davlat yerlari yirik amaldorlar va din peshvolari hukmi ostida edi. Ayniqsa, XVIII asrdan boshlab, yarim ko'chmanchi qabilalar boshliqlari bo'lgan amirlar va beklarning hokimiyati kuchayib, ular amalda yirik hududlarning xo'jayinlari edi.

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida yerga egalik qilishning mulki sultoniy, mulk (xususiy yer), vaqf yerlari shakllari bo'lgan. Mulki sultoniy davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga tushgan. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerdan foydalanib, olingan hosildan xiroj solig'i to'lashgan. Xon davlat ixtiyoridagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din vakillari, ulamolar, sayyidlarga suyurg'ol shaklida, harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga tanho shaklida in'om etilgan. Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lashmagan. Tanho shaklida in'om etilgan yerlar tanhodorlarning xususiy mulki bo'lmay, o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilar edi. Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etgan. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinib, ular «mulki xurri xolis» deb atalgan. Xususiy mulk egalari odatda yerlarni yersiz dehqonlarga ijaraga berib, undan katta daromad olishgan. Diniy mahkamalarga berilgan yerlar vaqf mulklari bo'lib, ular soliqlardan xoli bo'lgan. Oliy hukmdor yerni sotish, hadya etish yoki vaqf mulkiga o'tkazish huquqiga ega bo'lgan. Shartli yer egalari suyurg'ol, iqto, tanho, tiul kabi nomlar bilan atalgan. Ta'kidlash lozimki, XVII–XVIII asrlarga kelib suyurg'olning mazmuni o'zgaradi. Bu davrga kelib suyurg'ol asosan hukmdor xizmatida bo'lgan ruhoniylar, sayyidlar, xo'jalar, shayxlar, ulamolar, shuningdek

shoirlarga hadya qilingan. Mahmud ibn Vali shunday ma'lumot beradi: «Agar podsho yerni kimgadir hadya tariqasida bersa, bunday yerlar ulamolar va sayyidlarga berilsa, suyurg'ol deyiladi, agar harbiylarga berilsa, u holda tanho deyiladi».

Shaharlar. Hunarmandchilik va savdo. So'nggi o'rta asrlar davrida ham jamiyat hayotidagi shaharlarning o'rni aslo pasaymagan. Savdo-sotiq va hunarmandchilik asosan shaharlarda markazlashgan bo'lib, fan va madaniyat ham shu yerda taraqqiy etgan. Yirik iqtisodiy, siyosiy-ma'muriy va madaniy markazlar bo'lgan Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlari Movarounnahrning iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan.

Samarqand o'zining ixtisoslashgan bozorlari va savdo qatorlari bilan ajralib turgan. Manba tili bilan aytganda, «Bu shaharning bitta o'ziga xos xususiyati borki, bu xususiyat boshqa shaharlarda kam uchraydi, ya'ni, har bir mahsulot uchun alohida bozor bo'lib, ular biri-biri bilan aralashtirib ketmaydi. Bu ajoyib an'anadir». Darhaqiqat, Ashtarxoniylar davriga oid turli manbalar Samarqanddagi ko'zagarlar, temirchilar, zargarlar, chopondo'zlar, do'ppido'zlar, baqqollar, qassoblar, cho'yanchilar, chitpazlar, bo'yoqchilar, nonfurushlar kabi ko'plab alohida bozorlar haqida ma'lumotlar beradi. Bu davrdagi ko'plab me'moriy inshootlarning qurilishi tufayli shaharning ko'rinishi ham o'zgardi. Misol uchun, o'zbek amirlarining mavqeyi kuchaygan davrda Yalangto'shbiy tomonidan Registon maydonida Sherdor va Tillakori (1631–1642 yy.) madrasalari bunyod etildi. Samarqand atroflarida bog'-rog'lar bilan bir qatorda, suv tegirmonlari ham mavjud bo'lgan. Siyob kanalidan chiqarilgan ariqlar bo'ylarida butun dunyoga mashhur bo'lgan Samarqand qog'ozi ishlab chiqarish ustaxonalari joylashgan.

Bu davrda Toshkent mamlakatning ma'muriy boshqaruv va iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan bo'lib, bu yerda ichki va tashqi bozor uchun ko'plab mahsulotlar mavjud edi. Toshkent, ayniqsa, tog'-kon sanoati mahsulotlari, qozoq dashtlari bilan savdo-sotiq munosabatlarida mashhur bo'lganligi manbalarda keltirib o'tiladi. Toshkent atroflarida bog'lar va uzumzorlar mavjud bo'lgan. Toshkent qal'asi tashqarisida Kaykovus chorbog'i joylashgan. Manbalarda bu chorbog'ni «ulug' sultonlar taxtining joyi» va Toshkent hokimlarining qarorgohi sifatida keltiriladi.

Toshkentda va uning atroflarida turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar to'xtashlari uchun karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Shuningdek, karvonsaroylar Chirchiq daryosi bo'ylab ketuvchi tog' yo'li bo'ylarida ham qad ko'targan. Toshkentning keng dasht hududlari chegarasidagi vohada joylashganligi bu davrda ham shahar xo'jaligining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, manbalar ko'chmanchilarning ko'plab hujumlar uyushtirganliklari haqida ham ma'lumotlar berishadi. Shu bilan birga, Toshkentning himoya devorlari ko'p martalab shahar aholisining himoyasini ta'minlaganligi xususida ham ma'lumotlar bor.

Shayboniylar davridayoq poytaxtga aylantirilgan Buxoro shahri ham yirik harbiy-siyosiy, ma'muriy va madaniy markazlardan bo'lib, ashtarxoniylar hukmdorlarning qarorgohi shu yerda joylashgan edi. Mamlakatning iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan Buxoro shahri manbalarga ko'ra, bu davrda, «bir nechta darvozasi bo'lgan baland devor bilan o'rab olingan va uch qismga bo'lingan. Uning ikki qismi hukmdorga, bir qismi esa savdogarlar va bozorga tegishlidir». Shaharda zich qurilgan turar joylar hamda xo'jalik inshootlari (karvonsaroylar, timlar, hammomlar va hokazo) juda ko'p bo'lib, uncha aniq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra, uning hududi va atrofida dehqonchilik qilinadigan yerlar bo'lgan.

Mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotida boshqa shaharlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. XVII–XVIII asrning ba'zi yillarida Andijon Farg'onaning markazi bo'lgan bo'lsa, ayrim paytlarda bu vazifani Axbi shahri bajargan. Bu davrda Qarshi, Shahrisabz, Termiz, Jizzax, Xo'jand, Xorazmdagi shaharlar keyinroq, Qo'qon kabi ko'plab yirik shaharlar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ayirmachi kuchlar hukmronligi sharoitida shaharlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar sust edi. Siyosiy tarqoqlik hamda yarim mustaqil mulklarning mavjudligi ularning o'zaro aloqalarini sezilarli darajada cheklab qo'ygan.

Bu davrda hunarmandchilikning asosiy markazlari shaharlar bo'lsa-da, o'zaro iqtisodiy munosabatlarning zaiflashuvi hamda natural xo'jalikning rivojlanishi sababli eng kerakli hunarmandchilik mahsulotlari yetishtirish ko'pgina yirik qishloqlarda ham rivojlana boshlaydi. Mamlakatning hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji asosan mahalliy hunarmandlar mahsulotlari hisobiga qondirilardi. Bu davr-

da to'qimachilik va u bilan bog'liq hunarmandchilik turlari (ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, kiyimlar tikish va boshqalar) rivojlanishda davom etadi.

Samarqand va Buxorodagi hunarmandchilik aholisining katta qismi mato bilan shug'ullanuvchi kichik ishlab chiqaruvchilar bo'lgan. Mamlakatning boshqa shaharlarida ham turli-tuman matolar tayyorlangan. Mato tayyorlash ularni mahsuloti sifati, ipagining turi, qayta ishlanishi, rang berilishi jihatlariga bilan farqlanib turgan. Matolarning asosiy xomashyosi paxta, ipak, kam hollarda jun hisoblangan. Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlar va ularning atroflaridagi yirik qishloqlar olacha, bo'z, chit, duxoba kabi matolar bilan shuhrat qozongan.

Bu davrda hunarmandchilikning eng rivojlangan tarmoqlaridan biri bo'lgan kulolchilik mamlakatning barcha yirik shaharlarida, ko'pgina qishloqlarida mavjud bo'lib, bu sohaning rivojida butun O'rta Osiyoga xos an'analar bilan birga, mahalliy xususiyatlar ham alohida ajralib turadi. Kulolchilik mahsulotlari tayyorlovchi hunarmandlar asosan uch toifaga: kosagarlar (yeguliklar, mevalar, shirinliklar uchun idishlar), ko'zagarlar (suyuqliklar uchun idishlar, xumlar) va qurilish ashyolari (silliqlangan g'ishtlar, tandirlar) tayyorlovchilarga bo'lingan. Ichki bozorda kulollarning mahsulotiga talabning yuqoriligi, xomashyo manbai bo'lgan gil tuproqning ko'p joylarda mavjudligi kulolchilikning taraqqiyotini ta'minlagan edi.

Yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlar yog'och xomashyosidan turli-tuman mahsulotlar tayyorlashgan. Bunday hunarmandlar eshiklar va deraza romlari, aravalar va g'ildiraklari, sandiqlar, beshiklar, mehnat qurollariga dastalar va soplar, qayiqalar (Amudaryo va Sirdaryo bo'ylarida) kabi ko'plab mahsulotlar tayyorlashgan. Eng yaxshi ustalar yog'ochga naqsh berish bilan shug'ullanishgan. Boy zodagonlar uylarining peshtoqlari, eshiklari, ustunlar shuningdek, masjid va madrasalar ustunlari, xonaqolar eshiklari boy jimjimador va murakkab bo'lgan shakldagi naqshlar bilan bezatilgan. Birgina Buxorolik savdogarlarning o'zi 200 ga yaqin kasb turlari bilan shug'ullanishgan.

4.4. Ilm-fan va madaniyat. Me'morchilik

Ashtarxoniylar davrida ham ilm-fan, me'morchilik va amaliy san'at, madaniyat taraqqiyoti davom etdi. Bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar ilgari asrlar an'analari asosida taraqqiy etib, bir qator davrga mos yo'nalishlar ham paydo bo'ldi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu davrdagi ijtimoiy-falsafiy fanlar rivoji ayniqsa adabiyot, tarixnavislik, falsafiy-huquqiy hamda ijtimoiy-huquqiy yo'nalishlarida sezilarli bo'lganligini ta'kidlashadi.

Bu davrda o'rta asrlardagi an'anaviy tarixnavislik davom ettirilib, ko'pgina tarixiy adabiyotlar yaratildi. Chunonchi, Mahmud ibn Valining XVI asr oxiri XVII asr boshlaridagi Xuroson va Movarounnahr tarixiga oid «Bahr al-asror» asari, Muhammad Yusuf Munshiyning Balx hokimi Muqimxonga atab yozilgan «Tarixi Muqimxoniy» asari, Xoja Samandar Termiziyning «Dastur ul muluk» badiiy-tarixiy asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxon» kabi tarixiy asarlarini aytib o'tish lozim. Bu asarlarning aksariyatida xon hokimiyatini, uning shaxsini ulug'lash bilan birga, o'sha davr jamiyatidagi inqirozli holatlar siyosiy tarqoqlik va o'zaro urushlar natijasi ekanligi to'g'ri anglanib, bunday holatlarga bahram berishning asosiy chorasi hokimiyatni markazlashtirish hamda uni adolatli boshqarishdir, degan fikrlar ham ilgari surilgan. Shuningdek, ushbu tarixiy asarlarda musulmon olamida keng tarqalgan afsonalar, rivoyatlar, she'riy hamda nasriy shakldagi hikmatli so'zlar, Qur'on oyatlari hamda diniy kitoblardan parchalar, tarixiy voqelikka o'ta mahorat bilan birlashtirib yuborilgan. Bu holat Ashtarxoniylar davri tarixshunosligida ham o'rta asr an'analari davom ettirilganligining belgisidir.

XVII-XVIII asrlar birinchi yarmida ta'lim tizimi ham o'ziga xos tarzda bo'lgan. Bu davrda shahar va qishloqlarda ko'plab maktablar (maktabxonalar) ham mavjud bo'lgan. O'g'il bolalar masjid, madrasa, qorixonalar qoshidagi yoxud xususiy maktablarda tahsil olishgan. Ularga masjid imomi, mulla, o'qimishli boshqa shaxs ham o'qituvchi sifatida saboq berishgan. Qizlar xonadonlarda ayol o'qituvchilar (otinoyi, otinibibi, bibiotin, bibixalifa) tomonidan o'qitilgan. Bolalar 5-7 yosh-

dan maktabga berilgan. Maktab xarajatlari va domlalar maoshi vaqf mulkidan tushgan daromadlar va ota-onalar tomonidan to'lanadigan haq evaziga qoplangan. Yetimlar bepul o'qitilgan. Maktabdagi ta'lim 5-8-yil davom etgan. Maktablarda «Haftiyak» («Qur'oni karimni yettidan biri»), hisob-kitob, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sheroziy, Mashrab, So'fi Olloyor asarlari, «Chor kitob» va boshqalarni o'qib, saboq chiqarishgan. Qizlar o'qish bilan birga axloq-odob, pazandachilik, uy-ro'zg'or san'atidan ham dars olishgan. Maktablarni tugatgan iqtidorli o'g'il bolalar o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohi bo'lgan – madrasalarda ta'limni davom ettirishgan. Madrasadagi o'qish 7–12 yil davom etgan. Xonlikda bu davrda 150 dan ortiq madrasalar bo'lgan. O'quv dargohida arab, fors tilidagi kitoblar o'qitilgan. Avvalboshda «Avvali ilm» o'quv qo'llanmasi, keyinchalik arab tili grammatikasi o'qitilgan. Madrasada fiqh, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, tarix, jug'rofiya, adabiyot, aruz ilmi, xattotlik, notiqlik, hadis ilmi, jami 137 darslar va qo'llanma o'zlashtirilishi shartli bo'lgan. XVII asr O'rta Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning yirik vakillaridan biri Ibn Muhammadjon Yusuf Qorabog'iydir (1563–1647-yy.) Kavkazning Qorabog' qishlog'ida (Ozarbayjon) tavallud topgan alloma avval Shirvon, Sheroz, keyin esa Samarqandda ijod qilib, Buxoroda vafot etgan. Falsafiy yo'nalishda ijod qilgan Qorabog'iy tibbiyot, astronomiya kabi tabiiy fanlarni yaxshi bilishi bilan birga, she'rlar ham yozib turgan. Qorabog'iy butun dunyoni yagona tanaga o'xshatib, uning a'zolari qonuniy bir-biriga bog'liqligini ta'kidlab, shunday yozadi: «Olam yagona vujud hisoblanadi va barcha mavjud narsalar, mavjudot uning a'zolari hisoblanadi».

XVII asr O'rta Osiyodagi mutafakkirlardan yana biri Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Buxoriy bo'lib, u al-Mavliyoviy taxallusi bilan ham ma'lumdir. Al-Buxoriyning ijodi faqat falsafiy qarashlar bilan chegaralanib qolmay, tarix, she'riyat, huquq, tilshunoslik kabilarni ham qamrab oladi. Mutafakkirning bizga qadar yigirmaga yaqin asarlari yetib kelgan bo'lib, bu asarlarda asosiy e'tibor o'rta asrlarda keng tarqalgan ruhlar va insonning ruhiy kuchlariga qaratilgan. Muhammad al-Buxoriy o'zigacha bo'lgan mutafakkirlardan farq qilgan holda, ruhning to'rt ko'rinishini ajratadi. Bular tabiiy, o'simlik, hayvonot va insoniyat ruhlaridir.

Ashtarxoniylar davlatida adabiyot, ayniqsa Subxonqulixon davrida ancha ravnaq topdi. Subhonqulixonning o'zi «Nishoniy» taxallusi ostida she'rlar yozgan. Xonning o'zi saroy mushoiralarini o'tkazib turgan. Tarixiy manbalar Subhonqulixonning boy kutubxonasi haqida ham xabar beradi. XVII–XVIII asrlar birinchi yarmida adabiyot sohasi ham ancha taraqqiy etgan. Bu davrda Mirzo Abdulqodir Bedilning xizmati katta bo'ldi. U asli Shahrisabz (1644–1721)lik bo'lib, turkiylarning barlos urug'idan bo'lgan. Hindistonda ijod qilib, mashhur bo'lgan. U 120 mingdan ortiq she'riy va nasriy asarlar yozgan. Uning «Irfon» dostonida falsafa, tarix, ilohiyotning turli masalalari bayon etiladi. Bedil O'rta Osiyoda juda mashhur bo'lib, «Abdulma'oni» («Ma'nolar otasi») degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan. Saido Nasafiy – asl ismi Mirobid (1637–1710) hunarmand to'quvchi bo'lib, o'z she'rlarida ijtimoiy tengsizlik, zulm-zo'ravonlikka qarshi chiqqan. U 212 xil kasb-hunar vakillari haqida fikr bildirib, ahli hunarni ulug'lagan. Uning «Bahoriyot» («Hayvonotnoma») majoziy-munozara asarida, g'azallarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti aks ettiriladi. So'fi Olloyor (1644–1724) tariqat arbobi va shoir bo'lgan. U shayxlik martabasidan ko'tarilib, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan. Uning qator asarlari mavjud bo'lib, unda olim, shayx, shoirning falsafiy qarashlari aks etgan. So'fi Olloyorning ayniqsa «Taqvodorlar maslagi» («Maslak ul-muttaqin») asari (12000 bayt, 135 ta bob) mashhur bo'lib, keyinchalik maktab va madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Bu davrda ijod qilgan shoirlar orasida Turdi Farog'iy faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. O'zbeklarning yuz urug'idan bo'lgan bu shoir Abdulazizxon davrida katta nufuzga ega bo'lib, saroy doiralariga yaqin bo'lgan. Turdi Farog'iyning bizga qadar to'rt yuz misradan ortiq she'rlari yetib kelgan. Ularda oddiy mehnatkash xalq ahvoliga achinish, amaldorlar zulmini qoralash, o'zaro tinchtotuvlik va ahillikka chaqirish g'oyalari ustunlik qiladi.

XVII–XVIII asrlarda Buxoroda to'rtta yirik tazkira yaratilgan. Bular – Mutribiyning «Tazkirat ash-shuaro», Maliho Samarqandiyning «Muzakkir al as'hob», Mulla Sodiq Samarqandiyning «Riyozi ash-shuaro», Nurmuhammad Nasafiyning «Mazxan an-musannifin» tazkiralardir. Birgina Mutribiyning tazkirasida uch yuz yigirmadan ziyod shoirlar haqida ma'lumotlar bor. Bu davrda Sayido Nasafiy Qarshida tikuvchilik qilib, ijod qilgan bo'lsa, samarqandlik ijodkorlar G'ofur

Samarqandiy attorlik, Masiho temirchilik, Manzur Samarqandiy kosiblik, Fitrat Samarqandiy zardo'zlik bilan shug'ullanganlar. Shuningdek, XVII–XVIII asrlar Xivada yashab ijod etgan Abulg'azi Bahodurxon, Nurmuhammad G'arib Andalib, Pahlavon Ravnaq, Muhammad Niyoz Nishotiy larni, Qo'qonda yashab ijod etgan Boborahim Mashrab, Xo'ja Nazar o'g'li Huvaydo, Mulla Shermuhammad Akmal kabi ijodkorlarni sanab o'tish mumkin.

Bu davrda tabiiy fanlar ravnaqi uchun ham ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Xon Ulum taxallusi bilan ma'lum bo'lgan Qozi Muhammad Akbarxon Eron allomasi Bahouddin Omiyayining «Xulosat al-hisob» («Arifmetikaning mohiyati») kitobiga izohlar yozgan. Bir qator matematik asarlar merosni taqsimlash masalalariga qaratilgan bo'lib, Tursun al-Zominiyning «Turfa-yi amir» («Amirga hadyalar»), Muhammad Amin as-Chaxoryokiyning «Masoil-i adadiya» («Arifmetikaning qo'llanilishi»), «Risola fi-l-vasiyat» («Vasiyat haqida risola»), Al-Badiiy al-Hisoriyning asarlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Mirza Badi Devon «Majma al-arqam» asarining kattagina qismi matematikaga bag'ishlangan.

Mazkur davrda me'morchilikning ham o'ziga xos yo'nalishlarda rivojlanganligini kuzatish mumkin. XVII–XVIII asrlarga kelib, mahobatli me'morchilikda mintaqaviy me'morchilik maktablari Xorazm, Movarounnahr, Farg'ona, Toshkent kabilarning o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Bu davrda Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Termiz kabi ko'plab shaharlar o'rta asrlar an'anaviy tuzilish shakllarini saqlab qoladi. Mamlakatning barcha hududlarida ko'plab masjid va madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, rabotlar, hammomlar, sardobalar va boshqa me'moriy inshootlar barpo etiladi. Me'moriy inshootlar orasida Buxoroda Abdulazizxon tomonidan bunyod etilgan madrasani alohida ta'kidlab o'tish lozim. Undagi marmar taxtachalar, qimmatbaho koshin bezaklar, nafis, ganchlik gumbazlar ushbu davr me'morchiligida ham yetakchi an'analar saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Buxoroda Ubaydullaxon tomonidan madrasa va masjid, Boqi Muhammadxon tomonidan masjid, Subhonqulixon tomonidan shifoxona (Dorush-shifo), Chorbog' masjidi, Nodir Devonbegi tomonidan masjid va madrasadan iborat me'moriy majmua – Labi Hovuz kabilar bunyod etilgan.

Bu davrda Samarqandda ham ko'plari hozirgi kungacha saqlanib qolgan me'moriy inshootlar barpo etilgan. Xususan, Samarqanddagi yirik mulkdorlardan biri bo'lgan Yalangto'shbiyning Registon maydonida bunyod etgan ikkita yirik madrasasi diqqatga molikdir. Bu inshootlardan biri Ulug'bek madrasasi ro'parasidagi Sherdor madrasasi bo'lib, ular tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshab ketadi. Madrasaning nomlanishi uning peshtoqiga tasvirlangan ikkita sher tasviri bilan bog'liq bo'lib, ushbu madrasaning naqsh va bezaklarida qadimgi Sharq me'morchilik an'analari davom etganligi kuzatiladi.

Yalangto'shbiy tomonidan qurilgan ikkinchi inshoot Tillakori madrasasi ham ashtarxoniylar davridagi me'morchilikning nodir namunalaridan hisoblanadi. Bu madrasa bezatilishida juda ko'p oltin ishlatilganligi bois ham «Tillakori» («oltin qadalgan») deb nomlangan. U o'z vaqtida juma masjidi vazifasini ham bajargan. Yalangto'shbiy qurdirgan ushbu ikkita inshoot Samarqanddagi Registon maydonining yaxlit me'moriy ansambli bo'lib shakllandi. Shuningdek, bu davrda Samarqand atrofida Nazrdevonbegi madrasasi, Xoja Ahror qabri oldida madrasa, shahardagi Qozi Soqiy madrasasi, Samarqand va Buxoro yo'lida ko'plab sardobalar bunyod etildi.

Bundan tashqari, ashtarxoniylar davrida Balxda Nodirmuhammadxon, Subhonqulixon madrasalari, Balx atrofida qator chorbog'li sayoylar, Balx arkidagi imoratlar, Jome masjidi, Hazrati Ali mozoridagi gumbaz, Xivadagi Arab Muhammadxon, Xo'jamberdi Sherg'oziyxon madrasalari, Buxoroda Poyandaviy otaliq masjidi, Shodimbek madrasasi, Bozori go'sfand madrasasi, Qarshida Shermuhammadbiy va Xo'ja Qurboniy madrasalari, Shahrisabz atrofida Xo'ja Ilm kon me'moriy majmuasi kabi ko'plab inshootlar bunyod etiladi. Ushbu inshootlar bu davrda mamlakatda mavjud bo'lgan o'zaro urushlar va murakkab siyosiy vaziyatga qaramasdan, Movarounnahr me'morchiligida azaliy an'analar davom etganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixidagi Ashtarxoniylar davri (1601–1756) boshboshdoqlik, o'zaro kurashlar, mahalliy hokimlarning markazga bo'ysunmasligi davri bo'lib, siyosiy beqarorlik taxminan yuz yil o'tib sulola inqirozi hamda davlatning bo'linib ketishi bilan tugadi. Tashqi aloqalar asosan qo'shni hududlar bilan cheklanib qolib, mamlakat jahon texnikaviy taraqqiyotida ro'y berayotgan ko'pgina yangi-

liklardan chetda qoldi. Shunga qaramasdan madaniy hayotning ba'zi sohalarida (me'morchilik, tarixnavislik, adabiy muhit, islom huquqi) ma'lum taraqqiyot jarayonlari ro'y berganligini ham ta'kidlash joiz.

Ashtarxoniylar hukmdorlari

1. Boqimuhammadxon – 1601–1605-yillar.
2. Valimuhammadxon – 1605–1611-yillar.
3. Imomqulixon – 1611–1642-yillar.
4. Nodir Muhammadxon – 1642–1645-yillar.
5. Abdulazizxon – 1645–1681-yillar.
6. Subhonqulixon – 1681–1702-yillar.
7. Ubaydullaxon – 1702–1711-yillar.
8. Abulfayzxon – 1711–1747-yillar.
9. Abdulmo'min – 1747–1748-yillar.
10. Ubaydulloh II – 1748–1753-yillar.
11. Sherg'ozii – 1753–1756-yillar.

Tayanch so'zlar

Jonibek Sulton, Hoji Tarxon, Ashtarxoniylar, Joniylar, o'zaro urushlar, Safaviylar, hokimlar, Imomqulixon, Abdulazizxon, Subhonqulixon, Ubaydullaxon, siyosiy tarqoqlik, Muhammad Hakimbiy otaliq, Ibrohimbiy kenagas, Rahimbiy, davlat tizimi, dargoh, saroy amaldorlari, viloyat, markaziy va mahalliy boshqaruv, diniy lavozimlar, soliqlar, dehqonchilik, chorvachilik, ko'chmanchi aholi, yer egaligi, suyurg'ol, iqto, tanho, shaharlar, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat, me'morchilik, Yalangto'shbiy, Registon.

Savol va topshiriqlar

1. So'nggi shayboniylar haqida nimalarni bilasiz?
2. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishini so'zlab bering.
3. Imomqulixon hukmronligi davri qaysi jihatlar bilan ajralib turadi?
4. Ubaydullaxon hukmronligi davri haqida gapirib bering.
5. Ashtarxoniylarning davlat tizimi va ma'muriy boshqaruvi qay darajada tashkil qilingan edi?
6. Davlatdagi diniy lavozimlar haqida nimalar deyish mumkin?
7. Ashtarxoniylar davri qishloq xo'jaligi to'g'risida so'zlab bering.
8. Bu davrdagi yer egaligi munosabatlari qanday edi?

9. Ashtarxoniylar davri shaharlari haqida ma'lumot bering.
10. Ashtarxoniylar davri ilm-fani haqida nimalar deya olasiz?

4-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. Ахмедов Б. история Балха (XVI – первая половина XVIII вв.). – Ташкент: «Фан», 1982.
3. Гуломов Х. Дипломатические отношения государств в Средней Азии с Россией XVIII- в первой половине XIX в. – Ташкент: «Фан», 2005.
4. История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова Д.А. – Ташкент: «Фан», 2012.
5. Ziyoyev X.Z. Sibir, Volga va Ural bo'yidagi o'zbeklar. – Toshkent: «Sharq», 2003.
6. Mavlonov O'., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. – Toshkent: «Akademiya», 2004.
7. Muhammadyor ibn Arab Qatag'on. Musaxxir al-bilad. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2009.
8. Mirzo Olim Mushrif. Ansoh us-salotin va tavorix ul xavoqin. – Toshkent, 1995.
9. Очерки по истории государственности Узбекистана. Ташкент, 2001.
10. To'raev H. Buxoro xonligining XVI–XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy hayotida jo'ybor xojalarini tutgan o'rni. – Toshkent, 2007.
11. Erqo'ziyev A. O'rta Osiyo va G'arbiy Yevropa o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va savdo yo'llari tarixi. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014.
12. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

5-mavzu. XVIII ASR IKKINCHI YARMI – XIX ASR BIRINCHI YARMIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Reja:

- 5.1. Buxoro amirligining siyosiy tarixi.
- 5.2. Amirlikning hududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi.
- 5.3. Davlat boshqaruv tizimi. Mansablar, unvonlar va amallar.
- 5.4. Yer egaligi munosabatlari. Dehqonchilik va chorvachilik.
Hunarmandchilik va savdo-sotiq.
- 5.5. Amirlikdagi madaniy hayot.

5.1. Buxoro amirligining siyosiy tarixi

XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti tarixiga oid qator manbalar mavjud. Ular orasida Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxoniy», Muhammad Vafo Karminagiyning «Tuhfayi xoniy», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotini mang'itiya», «Tuhfayi shohiy», Mirzo Salimbekning «Tarixi Salimiy», Ahmad Donishning «Risolayi tarixi amironi mang'it» kabi asarlar katta ahamiyat kasb etadi. Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi masalasi ayniqsa, Mirza Badidevonning «Majma al-arqam» nomli asarida o'z ifodasini topganligini alohida qayd etish darkor.

A.A. Semyonov, B. Iskandarov, O. Suxareva, L. Yepifanova, R.G. Muqminova, G.A. Agzamova, G. Ostonsova, Sh. Vohidov, A. Ziyo, R. Xoliqova va boshqalar o'z tadqiqotlarida yuqorida ko'tarilgan mavzuning ko'plab jihatlarini ochib berishga muvaffaq bo'lishgan.

So'nggi ashtarxoniylardan bo'lgan Abulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimiyat zaiflashganligidan foydalangan o'zbek urug'lari turli viloyatlarda hokimiyatga qarshi isyon va g'alayonlar ko'tarishib, o'zlarini mustaqil deb e'lon qila boshladilar. Ular orasida ashtarxoniylar saroyida katta nufuzga ega bo'lgan, mang'it urug'i boshliqlaridan biri Muhammad Hakimbiy otaliq (vafoti 1743-y.) hamda uning o'g'li Muhammad Rahimbiylar alohida o'rin tutishdi. Buxoroda bo'lib o'tayotgan tartibsizliklardan foydalangan Eron shohi Nodirshoh

1745-yilda Muhammad Rahimbiy boshchiligida Buxoroga katta qo'shin jo'natadi. O'z navbatida, Muhammad Rahimbiy Buxoroda vaziyatni yumshatish borasida ma'lum ishlarni ham amalga oshirdi. Xususan, Miyonqol va Shahrisabzdagi qo'zg'olonlar bostirildi. Muhammad Rahimbiy davlat boshqaruvi tizimi ishlari va hukumat amaldorlarini almashtirish ishlariga jiddiy kirishdi.

U deyarli barcha yirik davlat mansablariga o'zining yaqin qarindoshlari va maslakdoshlarini qo'yib, ularning yordamiga tayangan holda poytaxtda o'z mavqeyini mustahkamlab oldi. 1747-yilda Nodirshoh o'ldirilgach, oradan ko'p o'tmay Abulfayzxon ham qatl etildi. Abulfayzxon Muhammad Rahimbiyning ko'rsatmasiga binoan o'ldirildi. Taxtga o'tirgan sobiq xonning o'g'li Abdulmo'min ham 1748-yilda o'ldirildi. Uning o'rniga juda yosh bo'lgan Ubaydulla Sulton nomigagina taxtga o'tkazildi. 1756-yilga kelib o'zbeklarning to'rt urug'i – mang'it, xitoy-qipchoq, bahrin, saroylarning yirik amaldorlari, ruhoniylar va urug' oqsoqollarining roziligi bilan Muhammad Rahimxon (1756–1758) taxtga o'tirdi va mang'itlar sulolasi hukmronligini boshlab berdi.

Asli chingiziy xonlar avlodidan bo'lmagan Muhammad Rahimbiy Abulfayzxonning qiziga uylanib, unga kuyov bo'lganligi bu borada unga qo'l keldi. Yangi hukmdor nufuzli urug' boshliqlari, birinchi navbatda mang'it urug'i vakillariga tayanib ish ko'rdi. Xususan, har ramazon oyidan so'ng mang'itlardan bo'lgan amaldorlarga 30 tangadan 100 tangagacha mukofot puli hadya etilar edi. Bo'ysunmagan qabilalarga esa tegishli jazo choralari qo'llanildi. Jumladan, Miyonqoldan yettita urug', Nurdan barqutlar, Qobadiyondan do'rmonlar, Shahrisabzning Sangfurush degan joyidan kenagaslar, urgutliklar, Hisoni Shodmon aholisi yashash joylaridan ko'chirilib, boshqa hududlarga joylashtirildi. Shuningdek, Qo'qon xoni Erdonabiy yordamida 1754–1755-yili bo'ysunmay qo'ygan O'ratepaga, Toshkent xo'jalari va Qashg'ar hokimi bilan birgalikda qalmaqlarga qarshi yurishlarni uyushtirdi. Hisorga yurish qilib, amakisi Doniyolbiy otaliqu u yerga hokim etib tayinladi.

Muhammad Rahimxon markazlashgan davlat tizimi tuzish siyosatini olib bordi. U yirik mulkdorlarni davlatni boshqaruv ishlariga aralashtirmay, mustaqil siyosat yurgizdi. Bu hukmdor Miyonqol, Nurota, Urgut, Qobadiyon, Boysun kabi markaziy hokimiyatni tan olmagan viloyatlarga yurishlar qilib, ularni bo'ysundirishga erishdi. Uning davri

da Zarafshonning yuqori oqimi, Jizzax, Zomin yana Buxoroga qo'shib olindi. Muhammad Rahimxon qisqa muddat ichida katta hududni bir-lashtirgan mang'itlarning markaziy davlat tizimini barpo etdi. 1758-yil-ga kelib Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx va Qunduzdan elchilar kelib, uning hokimiyatini tan olganliklarini bildirdilar. Muhammad Rahim-xon ma'lum obodonchilik va sug'orish ishlarini ham amalga oshirgan. Xususan, u urushlar tufayli vayron bo'lgan Darg'om kanalini qayta qazdirgan, Buxoro shahri mudofaa devorini mustahkamlagan, yo'llarni tuzatgan va hokazo. Muhammad Rahimxon markaziy hokimiyat mav-qeyini ko'tarishga, parokandalik va nizolarga chek qo'yishga harakat qilgan.

Muhammad Rahimxon vafot etgandan so'ng, uning balog'atga yet-magan nevarasi Fozilto'ra taxtga o'tkazilib, hokimiyat aslida Muham-mad Rahimxonning amakisi Doniyolbiy otaliq (1758–1785) qo'liga o'tdi. Doniyolbiyning hukmronligi davri markaziy hokimiyatning za-iflashuvi bilan izohlanadi. U hokimiyatga kelgan dastlabki paytdayoq markazlashgan davlat siyosatiga qarshi g'alayonlar va qo'zg'olonlar ko'tarildi. Miyonqol vohasi, Shahrisabz, Kitob, Sherobod, Boysun va Hisor viloyatlarida katta-katta xalq g'alayonlari va chiqishlar boshla-nib ketdi. Dastavval, Hisorga badarg'a qilingan yuz, kenagas, barkut, bahrin, saroy kabi o'zbek urug'larining amirlari bosh ko'tarishdi. Ular mang'itlar sulolasini taxtdan ag'darishni rejalashtirgan edilar. Doni-yolbiyning isyonkor amirlarni tinchlantirish uchun qilgan harakatlari zoye ketdi. Shundan so'ng Doniyolbiy qo'zg'olonlarga qarshi qo'shin jo'natdi va Buxoro shahri aholisining yordami bilan qo'zg'olon bosti-rildi. Isyonchi amirlarning ko'pchiligi qatl etildi.

Oradan ko'p o'tmasdan yuz urug'ining boshlig'i Fozilbiy bosh ko'tardi. Doniyolbiy qiyinchilik bilan bo'lsa-da, bu qo'zg'olonne ham bostirdi. Ayniqsa, 1771-yilda Shahrisabz va Xuzorda ko'tarilgan qo'zg'olon davlat asoslarini jiddiy larzaga soldi. Bu qo'zg'olonne ham katta kuch sarflab bostirishga erishgan Doniyolbiy qo'zg'olonchilar rahbarlarini qatl ettirdi. Mamlakatda g'alayonlarning deyarli to'xtovsiz ko'tarilib turishi markaziy hokimiyatning obro'si va qudratini tushirib yubordi. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli ham nochor holatga tushib qoldi. Uning hukmronligi davrida soliqlar miqdori ham oshib ketdi. Xalqning turmush tarzi pasayib ketdi. Doniyolbiyning o'zi hokimiyat-

ni Nizomiddin qozikalon va Davlat qo'shbegi kabi eroniy amaldorlar qo'liga topshirib qo'ydi. O'zi ko'p holda maishatga ham berildi. Natijada 1785-yilda poytaxt Buxoroda Doniyolbiy hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, Doniyolbiy 1785-yilda taxtni o'g'li Shohmurodga topshirishga majbur bo'ldi.

Shohmurod taxtga o'tirganidan so'ng «Amir» unvoni bilan hokimiyatni boshqardi. Hokimiyatga kelgan Shohmurod (1785–1800) Doniyolbiyning to'ng'ich o'g'li bo'lib, yoshligidan xudojo'y bo'lib o'sgan. Madrasani tamomlab, darvishlik targ'ibotchisiga aylangan. Hokimiyatga kelgach rasman Xon bo'lgan Abulg'ozini hokimiyatdan chetlatib, o'zini mutlaq hokimiyat egasi deb e'tirof etgan. Shohmurod qo'zg'olon ko'targan xalq ommasiga xayrixohlik bildirib, ularning talablarini bajarishga harakat qildi. O'z yorlig'i bilan og'ir soliqlarni bekor etdi. Otasi Doniyolbiy davrida poraxo'rliги va hokimiyatni suiiste'mol qilganligi bilan xalq ommasining noroziligiga uchragan Davlat qo'shbegi va Nizomiddin qozikalonlarni qatl ettirdi.

Shohmurod o'z hukmronligi davrida shaharlar taraqqiyoti va obo-donchiligiga, irrigatsiya va qishloq xo'jaligi rivojiga alohida e'tibor berdi. Tarixda «Amiri ma'sum» («Gunohsiz amir») nomi bilan qolgan Shohmurod o'z davrida markaziy hokimiyatni nisbatan mustahkamlashga erishdi. Uning hukmronligi davrida mamlakatni rivojlantirishga yo'naltirilgan to'rtta muhim islohot – moliya, sud, ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazildi. Avvalo, 1758-yildan boshlab, amirlikda to'la xech qanday aralashmalarsiz, sof kumushdan hamda oldingilaridan o'zining qiymati, sifati va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalar zarb etila boshlandi. U davlat zarbxonalarida aholining o'z shaxsiy jamg'armalaridan olib kelgan kumush va oltindan bir xil o'lchamdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishga ham ruxsat berdi.

Amir Shohmurod adliya sohasida o'tkazgan islohoti bilan mamlakatda sud ishlarini olib borishni birmuncha erkinlashtirdi. Manbalarga ko'ra, amirlikdagi sud hay'ati ishlarini Shohmurodning bevosita o'zi boshqargan. Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan bo'lib, barcha viloyat, tuman, beklik qozilari aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borishgan. Umu-man olganda, amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan islohotlar mamlakatdagi markaziy hokimiyatni mustahkamlab, iqtisodiy yuksalishni

ta'minlagan edi. Shuningdek, soliqlarning tartibga solinishi, sud ishlariidagi nohaqliklarga chek qo'yilishi, mahalliy amaldorlar ustidan nazorat o'rnatilishi – savdo-sotiq va hunarmandchilik, qishloq xo'jaligining yuksalishiga sharoit yaratib bergan edi.

Shohmurod o'zi idora etib turgan markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash sohasida ham ma'lum ishlarni amalga oshirdi. Uning davrida ham amirlikda bir nechta urug'lar va ayrim viloyatlarning noroziliklari sodir bo'lib turgan edi. Xususan, 1786-yilda Karmana sarhadi aholisi Buxoro amiriga bo'ysunishdan bosh tortdi. Shohmurod Karmana aholisini bo'ysundirish uchun bir necha marta yurish qilishga majbur bo'ldi. Karmanadan so'ng itoat etmay qo'yg'an Shahrisabz va Xo'jandga qilingan yurishlar muvaffaqiyat bilan yakunlandi.

Shohmurod darveshlik hayot tarzini kechirgan. Uning yurish-turishi, kiyinishi, umuman maishiy hayotga bo'lgan munosabatida zohidlik yaqqol namoyon bo'lar edi. Shohmurod kamtarona hayot kechirishni o'z hayoti mazmuniga aylantirgan. U yiliga bitta olacha chopon, bo'z ko'ylak kiyib, oddiy bo'z salla o'ragan. Yurish-turishi, ovqatlanishi ham juda kamtarona bo'lgan. Shundan kelib chiqqan holda u hokimiyatga kelganidan so'ng barcha ko'ngilochar ishlarni, xususan mast qiluvchi ichimliklarni sotish va uni iste'mol qilish, tamaki chekish, qo'shiq kuylash, dorbozlik, masxarabozlik, qo'g'irchoq o'ynatish va boshqalarni man etdi. Aksincha, nazardan qolgan vaqflarni qayta tikladi, masjid, madrasa, ziyoratgohlarni obod qilishga o'z e'tiborini qaratdi. Har qanday ko'ngilochar joylar yopib qo'yildi. Shohmurod o'g'rilik, qaroqchilik, bosqinchilikka qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rtdi. Amir Shohmurod suv inshootlarini ta'mirlashga alohida e'tibor qaratdi. Bu davrda qator ko'priklar qurildi, yo'llar tartibga solindi, davlatning sharqiy hududidagi suv ta'minotini yaxshilash choralari ko'rildi. Uning hukmronligi davrida harbiy sohada ham ma'lum o'zgarishlar qilindi. Xususan, u yirik harbiy sarkardalarga qarashli yerlarni tortib olib, undan keladigan daromaddan harbiylarga har oy to'lanadigan maosh joriy etdi. Soliq tizimi isloh etilishi natijasida yorg'u, boj, tarx, tushman, yasoq, oliq va soliq, hunarmandlardan olinadigan soliq turi bekor etildi, ba'zi soliqlar turi, xususan xiroj kamaytirildi. Lekin yangi joriy etilgan «jo'l» solig'i omma yelkasiga ancha og'ir yuk bo'lib tushdi. Amir Shohmurod

kuchli va markazlashgan davlat tuzish yo'lida ko'pgina chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Uning hukmronligi davrida bir necha o'n yillar davomida parokandalik va nizolar avj olgan davlatda nisbatan osoyishtalik o'rnatildi, ichki va tashqi savdo rivoj topdi, aholi turmush tarzi ancha yaxshilandi, davlatning nufuzi va e'tibori ko'tarildi.

Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar va muvaffaqiyatli harbiy harakatlar natijasida ancha mustahkamlanib olgan Shohmurod qo'shni Afg'onistonga ham harbiy yurishlar uyushtiradi. Xususan, Shohmurod Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi ilgari Buxoro yerlarini qaytarib olish uchun afg'on amiri Temurshohga qarshi urushlar olib boradi. Shohmurod 1789-yilda Afg'onistonda bosh ko'targan o'zbek aholisiga amaliy yordam ko'rsatdi. Afg'on amiri bilan bo'lgan urushlardan so'ng Shohmurod va Temurshoh o'rtasida sulh tuzilib, Amudaryo har ikkala davlat o'rtasidagi chegara deb belgilandi. Garchi Balx amirlik hududiga kirmagan bo'lsa-da, lekin Maymana va Andxud Buxoroga qarashli yerlar ekanligi tan olindi. Amir Haydar yoshligida 10 yil Buxoro madrasalarida tahsil olgan bo'lib, diniy va dunyoviy ilmlardan yaxshi xabardor edi. Uning hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, ayniqsa diniy ilmlar rivojiga katta e'tibor berilgan. U madrasa ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida Istanbul, Kobul va boshqa musulmon davlatlari shaharlaridan ko'plab kitoblarni oldirgan. Uning o'zi ham ba'zida madrasada saboq bergan, diniy ta'lim haqida asar ham yozgan. U qurilish va obodonchilik ishlariga ham e'tibor qaratgan. Amir Haydar Buxoroda onasi Bonu Shamsiga atab madrasa, shuningdek, Chor-Minor, Xalifa Niyozqul madrasalarini qurdirgan. Shuningdek, Qarshida ikkita – Ali va Mir Muhammad madrasalarini barpo etgan. Amirlikda ko'plab masjid, xonaqoh, hammomlar qurilgan, yo'llar, ariqlar ta'mirlangan. Murakkab siyosiy vaziyat ko'p holda uni yurishlarga jalb etar, e'tiborni xavfsizlik va mudofaaga chaqirardi. Amir Shohmurod 1800-yilda vafot etganidan so'ng, uning o'g'li amir Haydar (1800–1826) valiahd sifatida taxtga o'tirdi.

Otasi davrida Qarshi hokimi bo'lgan amir Haydar oq kigizga o'tkazilib, xon etib ko'tariladi. Ammo Haydar xon unvonini emas, balki «amir al-mo'minin» unvonini oldi. Manbalarga ko'ra, xutba amir Haydar nomiga o'qilgan bo'lsa-da, tangalar amir Haydar, amir Shohmurod va Doniyolbiy nomlaridan zarb etilgan.

Otasining siyosatini davom ettirishga harakat qilgan amir Haydar o'z hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro hududining yaxlitligini saqlash, Zarafshonning yuqori oqimi hududlari, Shahrisabz, Miyonqol yerlarini qo'lda saqlab qolish uchun kurashlar olib bordi. O'ratepani vaqtincha o'ziga bo'ysundirishga erishdi.

Amir Haydar davrida Xiva xonlari amirlik hududlariga tez-tez talonchilik urushlari qilib turdilar. 1806-yilda amir Haydar butun Buxoro ahlini qurollanishga va Xiva xoni Eltuzarga qarshi kurashishga chaqirdi. Tez orada ularni mag'lubiyatga uchratib, amirlik hududlaridan haydab chiqarishga erishdi. Bu voqealardan so'ng Buxoro bilan Qo'qon o'rtasida urushlar boshlanib ketdi. Qo'qon xoni Olimxon 1807, 1810-yillarda O'ratepaga hujumlar qilib, katta o'ljalarni Qo'qonga olib ketdi. Bunday hujumlar Qo'qon xoni tomonidan Jizzax va Zominga ham uyushtirilib turildi.

Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari katta xarajatlarni talab etganligi bois, amir Haydar qo'shimcha soliqlar yig'ish haqida farmon berdi. Bu esa mehnatkash aholi ahvolini yanada og'irlashishga va amir Haydar hamda u olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlarga olib keldi. Mana shunday qo'zg'olonlar 1821–1825-yillarda Miyonqol, Samarqand va Urgutda bo'lib o'tdi. Amir Haydar bu qo'zg'olonlarni katta qiyinchiliklar bilan, qo'zg'olonchilarga katta va'dalar berish evaziga bostirishga erishdi. Shahrisabz va Marv vohasi uchun ham Amir Haydar urushlar olib borishga majbur bo'ldi.


Amir Haydar davlat nufuzini ko'tarish, tarixiy yerlarni o'z izmiga qaytarish maqsadida 1817-yili Shimoliy Afg'oniston yerlariga yurish qilgan. Natijada Qunduz, Badaxshon, Maymana yerlari Buxoro amirligi tasarrufiga o'tdi. Keyinchalik Amir Haydar qo'shni Afg'oniston hukmdori Shujo' al-mulk Durrioniy bilan do'stlik aloqalarini o'rnatgan bo'lsa-da, Qo'qon va Xiva davlatlari bilan Buxoro davlati o'rtasidagi munosabatlar keskin edi. Manbalarga ko'ra, shunday sharoitda amir Haydar hatto Usmoniylar davlati sultoni Mahmud II ga yordam so'rab murojaat etgan va uning itoatiga o'tishga tayyor ekanligini ham ma'lum qilgan. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar bo'linmasi va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil etilgan. Muntazam piyoda qo'shinning soni 40 000 kishidan ziyod bo'lgan.

Amir Haydar 1826-yilda vafot etganidan so'ng, uning ikkita katta o'g'illari amir Husayn (ikki yarim oy) va amir Umar (to'rt oy) qisqa muddat taxtga o'tirib, o'z ukalari Nasrullo tomonidan o'ldiriladi. Shundan so'ng taxtga amir Haydarning uchinchi o'g'li Nasrullo o'tiradi. Nasrullo bungacha Qarshi viloyatining hokimi bo'lgan. Amir Nasrulloning hukmronlik davri (1826–1860) avvalo, Buxoro amirligidagi siyosiy tarqoqlik, zodagonlarning boshboshdoqliklariga barham berish bilan izohlanadi. Amir Nasrullo hokimiyatni boshqarishda nihoyatda qattiqqo'llik siyosatini olib boradi. O'zining berahm va shafqatsiz siyosati tufayli amir Nasrullo «qassob amir» degan nomga sazovor bo'lgan edi. Tarixiy manbalarda hukmronligining dastlabki davrida amir tomonidan kuniga 50–100 nafar kishi qatl etilganligi ta'kidlangan edi.

Shu bilan birga, Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni tan olmaydigan bo'ysunmas mahalliy hokimlarga qarshi keskin kurash olib boradi. Bu borada Shahrisabz Buxoroga bo'ysunmay qo'ygan eng yirik mustaqil viloyat hisoblanardi. Shuning uchun ham amirning siyosatidan norozi bo'lgan ko'plab amaldorlar Shahrisabzga qochib panohtopishgan. Amir Nasrullo 1832-yilda Shahrisabzga qarshi urush boshlab, 32 marta amalga oshirgan yurishidan so'ng 1856-yili Shahrisabz va Kitobni, bo'ysundirishga erishadi. Tarixiy manbalar Nasrulloxonni jasur va o'ta qat'iyatli bo'lganligi bois unga «bahodir» unvoni bilan murojaat etishgan.

Amir Nasrullo Qo'qon va Xiva xonlari bilan ham o'zaro urushlar olib boradi. U 1842-yilda Qo'qonga yurish qilib, uni egallaydi. Yurish natijasida Qo'qon xoni Muhammad Alixon, uning onasi, taniqli shoira Nodirabegim va boshqa mashhur zotlar o'ldiriladi. Ammo bu paytda Xiva xoni Olloqulixon Buxoro chegaralariga hujum qilganligini eshitgach, amir Qo'qonga o'z noibi Ibrohim Parvonachi mang'itni qoldirib, orqaga qaytishga majbur bo'ladi. Amir Nasrullo o'z qo'shinlari bilan Xivaga yurish qilib, Hazoraspnigamal qiladi. Ammo mag'lubiyatga uchrab, orqaga qaytib ketishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng amir 1843-yili Marvga yurish qilib, uni ham qo'lga kiritadi.

XIX asr birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari



Amir Nasrullo o'z hukmronligi davrida O'rtepa va Xo'jand uchun Qo'qon xoni bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib, ko'pgina vayronagarchiliklar kelib chiqdi, talon-torojlik avj oldi. Uning hukmronligi davrida harbiy sohaga ham katta e'tibor qaratildi. Xususan, 1837-yili amirlikda sarbozlardan iborat doimiy qo'shin ham tashkil etildi. Amir Nasrullo obodonchilik, qurilish ishlariga ham e'tibor bergan. Uning hukmronligi davrida Buxoroda Qozi Hasanxo'ja, Olimjonboy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Modarixon, Ismoilxo'ja kabi jami 9 ta madrasa qurilgan, Xalifa Xudoydod majmuasining qurilishi yakunlangan (1855-y.), qator ariqlar qazdirilgan, tim, karvonsaroy, jamoat hammomlari, ko'priklar qurilgan, yo'llar ta'mirlangan va hokazo.

Manbalarga ko'ra, amir Nasrullo Buxoroning amaldagi oxirgi mustaqil hukmdori bo'lib qoldi. Amir Nasrullodan so'ng taxtga uning o'g'li amir Muzaffar (1860–1885) o'tiradi. U mang'itlar sulolasidan bo'lgan

to'rtinchi amir bo'lib, uning 25-yillik hukmronlik davrida ko'plab ziddiyatli voqealar sodir bo'ldiki, ulardan eng ayanchlisi – Buxoro amirligining Rossiya imperiyasiga qaram davlatga aylanishi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, XIX asr oxiri birinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati kuchayib ketadi. Mustamlakalarni kengaytirish, yangi xomashyo va mahsulotlar bozoriga ega bo'lish, Sharqda ta'sirini yanada kuchaytirish bu... asosiy omillar ro'yxatini tashkil etadi. Hindistonda muqim o'rtnashib olgan Buyuk Britaniya o'zbek xonliklarida o'z siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kuchaytirish maqsadida qator ekspeditsiyalar tashkil eta boshladi. 1825-yili mazkur ekspeditsiyalardan biriga U.Murkford boshchilik qilgan. U 1825-yil fevralda 70 ta kishisi bilan Buxoroga 80 ta sandiqda turli mollar olib kelib, o'zini savdogar ahli deya tanishtiradi. U Buxoro qo'shbegisi bilan uchrashishga muvaffaq bo'ladi. Amirlikda Angliyaga xayrixoh guruhni shakllantirishga harakat qiladi. Bunga javoban Rossiya hukumati Amir Haydarga inglizlar harakatidan noroziligini bildiradi. 1826-yili Rossiya hukumati polkovnik F.Berg boshchiligidagi ekspeditsiyani Ustyurt tomonga jo'natib, xonliklarga boradigan yo'llarni yaxshilab o'rganish vazifasini yuklatdi. Inglizlarning leytenant A.Beris boshchiligidagi ikkinchi ekspeditsiyasi 1832-yili Buxoroga kirib keldi. O'zini arman savdogari deb tanishtirgan A.Beris hind va afg'on savdogarlariga tayanib, qo'shbegi bilan aloqa bog'laydi. A.Beris amirlik xususida ko'plab qimmatli ma'lumotlar yig'adi. Hind savdogarlariga qarz berilib, ular ingliz mollari bilan ta'minlangan holda amirlikka boshladilar. Ularning mollari rus mollariga nisbatan ancha arzon bo'lgan. A.Beris ekspeditsiyasi ingliz savdosining Buxoro amirligida ildiz otishiga sabab bo'ldi.

1839-yili ingliz-afg'on urushi boshlanishi bois Angliyaning Rossiya bilan munosabatlari yanada keskinlashdi. Hirotda josuslik mahkamasi-ni ochgan ingliz razvedkasi o'z ayg'oqchilarini Buxoroga va qo'shni xonliklarga yo'llay boshlaydi. Ulardan Jeyms Abbot, Stoddart, Konolli va boshqalar amirlikka jo'natiladi. Ta'kidlash joizki, keyinchalik qo'lga olingan Stoddart va Konollilar Amir Nasrullo tomonidan qatl etiladi. Unga javoban O'rta Osiyoda o'zining strategik manfaatlari mavjud deb hisoblagan Rossiya imperiyasi o'z sa'y-harakatlarini kuchaytiradi. U 1839-yili Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy boshliq ekspeditsiyani Xiva xonligiga jo'natadi. 1847-yilda xonliklarga boradigan

yerda 2 ta – Aralsk va Kopal istehkomlarini quradi. 1841-yili 8 oy davomida Buxoro amirligida bo'lgan tog' muhandisi K.Butenev boshchiligidagi elchilik guruhi ham ushbu hudud xususida ko'plab ma'lumot yig'ishga muvaffaq bo'lishadi.

O'zbek xonliklari, xususan Buxoro amirligidagi asriy qoloqlik, jahon sivilizatsiyasi, taraqqiyot, xalqaro savdo yo'llaridan uzilib qolganlik, xonliklar o'rtasidagi doimiy nizolar, o'zaro urushlar Angliya va Rossiya uchun ham barobar qo'l kelar, bu davlatlar o'z ta'sirini tobora chuqurroq singdirishga harakat qilishardi.

5.2. Amirlikning hududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi

O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqega ega bo'lgan, katta hududlarni egallagan davlat edi. Manbalarga ko'ra, XVIII asrning o'rtalariga kelib, Buxoro amirligi hududlarida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davrda Buxoro hukmdorlari o'z tasarruflarida Buxoro shahri va uning atrofidagi Vobkent, G'ijduvon, Qorako'l, Vag'ozu tumanlari, Qashqadaryo va Miyonqol vohalarini saqlab qola olgan edilar. Xo'jand, Toshkent, Hisor vaqti-vaqti bilan esa G'uzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek Amudaryoning o'ng sohilidagi Balx, Andxo'y, Maymana, Badaxshon va Shiburg'onlar ham Buxoroga vassal bo'lishiga qaramay unga itoat etmay qo'yishgandi. Siyosiy parokandalikning asosiy sababi – so'nggi ashtarxoniylar davridagi o'zaro kurashlar, ayirmachi kuchlar mavqeyining o'sishi edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, Buxoro amirligi mavqeyi yana asta-sekinlik bilan mustahkamlana boshlaydi. Shu asrning 70–80-yillariga kelib Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilar edi. XIX asrning boshlariga kelib Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridan tashqari, Surxon vohasi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Janubiy Turkmanistonning katta qismi, jumladan Chorjo'ydan to Murg'ob daryosigacha bo'lgan hududlar kirardi. Bu davrda Buxoro amirligi hududlarining kengayishiga asosiy sabab – mang'itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishi bo'lgan. XIX asr boshlarida Buxoro amir-

ligi bir tomondan, Eron va Afg'oniston, ikkinchi tomondan, Xiva xonligi, uchinchi tomondan, qozoq juzlari va to'rtinchi tomondan, Qo'qon xonligi hududlari bilan chegaradosh bo'lgan.

Buxoroning so'nggi amiri Sayid Amir Olimxonning ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshiga kelib «Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni, Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho'zilib boradi. Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan, g'arb tarafdin Sirdaryo hamda Xo'qand xonligi bilan, janubda esa Afg'oniston, Sharqda turkman o'lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh», bo'lgan.

XIX asrning 50-yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan Buxoro va Samarqand o'z navbatida tumanlarga bo'lingan edi. Viloyat hukmdorlari hokim deb atalgan. Keyinchalik viloyat o'rniga bekliklar paydo bo'lgach, ularning hukmdorlari bek deb atalgan. Zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda Buxoro amirligida 44 ta beklik mavjud bo'lgan.

XIII asr oxirlarida chop etilgan Mirzo Badi Devonning «Majma al-arqam» asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, amirlik quyidagi ma'muriy-hududiy birliklarga: 100 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer tumaniga, 50 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer hazoraga, 25 ming tanob sug'oriladigan yer nimhazoraga, 10–15 ming tanob sug'oriladigan yer obxo'riga, 400 tanob sug'oriladigan yer qaryaga, 300 tanob sug'oriladigan yer ma'razaga (ekinzor) bo'lingan. Bunday tartibda bo'linish bo'yicha xiroj, zakot va boshqa turdagi soliqlarni yig'ish va olish qulay bo'lgan.

Mahalliy ma'muriyat namoyandalari mavzeni qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy bo'linma, deb ta'riflashgan. Misol uchun, Karki viloyati mavzelarga bo'linsa ham ular, o'z navbatida, bekchalarga bo'lingan, bekcha qishloqlardan iborat bo'lgan. Pomir viloyatlaridagi Ro'shon va Shug'non ma'muriy tumanlari oqsoqollik deyilgan. Aholi yashaydigan punktlar manbalarda uchta atama – qishloq, mavze, daha nomlari orqali qayd etilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab tezlik bilan ko'paya boshlaydi. XIX asrning boshlariga kelib amirlik aholisi taxminan 2 mln. dan ziyod, 50-yillarga kelib, taxminan 2,5 mln. dan ortiq kishini tashkil etgan. Buxoro shah-

rida taxminan 60 mingdan ziyodroq, Samarqand shahrida esa taxminan 50 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Amirlik aholisining katta qismini o'zbeklar tashkil qilgan bo'lib, ko'plab o'zbek urug'lari vakillari amirlikning deyarli barcha hududlarida yashashgan. Aholi tarkibidagi tojiklar Samarqand, Buxoro, Nurota, Urgut, Kitob kabi shaharlarda, tog'li tumanlarda, jumladan, Panjikent, Vaxsh, Hisor, Qorategin, Ko'lob, Shahrisabz, Qobadiyon, Yakkabog' bekliliklarida, Zarafshonning yuqori qismida istiqomat qilishgan.

Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etishgan. Ular amirlikka qarashli bo'lgan Amudaryo-ning ikki qirg'og'ida joylashgan yerlarda, ya'ni amirlikning janubiy va g'arbiy hududlarida istiqomat qilishgan. Buxoro amirligi hududida aholining ozchilik qismini arablar tashkil etgan bo'lib, ular asosan Qarshi va Sherobod bekliliklarida yashashgan. So'nggi tadqiqotlarda amirlik aholisining joylashuvi, yashash tarzi, xo'jalik yuritishi va etnik tarkibi quyidagicha beriladi:

Buxoro amirligi aholisining hududiy joylashuvi

Hududlar (vodiy va vohalar)	Istiqomat qiluvchi aholi soni (taxminan)	Foiz hisobida
Hududlar (vodiy va vohalar)	Istiqomat qiluvchi aholi soni (taxminan)	Foiz hisobida
Zarafshon vohasida	700.000	31.8
Qashqadaryo vohasida	500.000	22.2
Qizilqum va Yakkasuv bo'yidagi vohalarda	225.000	12.0
Amudaryo bo'yidagi vohalarda (Surxonning quyilishidan to Chorjo'ygacha)	300.000	14.0
Qolgan hududlarda	430.000	20.0
Butun amirlik bo'yicha	2.155.000	100.0

Buxoro amirligi aholisining yashash tarzi bo'yicha taqsimoti

Aholining yashash tarzi	Aholi soni	Foizda
O'troq aholi	1.399.606	65.0
Yarim ko'chmanchi aholi	322.986	15.0
Ko'chmanchi aholi	430.648	20.0
Jami	2.153.240	100.0

Buxoro amirligi aholisining xo'jalik yuritish bo'yicha taqsimoti

Aholining xo'jalik yuritish tarzi	Aholi soni	Foizda
Dehqonchilik va chorvachilik	1.830.254	85.0
Hunarmandchilik va savdo	215.324	10.0
Doimiy xo'jalik ish yuritishga ega bo'lmaganlar	107.662	5.0
Jami	2.153.240	100.0

Buxoro amirligi aholisining etnik tarkibi

Etnik guruhlar	Jami aholiga nisbatan foiz hisobida	Aholi soni
Turkiy xalqlar	85.0	1.830.254
Eroniy xalqlar	12.0	258.389
Boshqa elatlar	3.0	64.597
Jami	100.0	2.153.240

Buxoro amirligida mahalliy aholi bilan bir qatorda, diniy e'tiqodlari turlicha bo'lgan turli xil xalq vakillari ham istiqomat qilishgan. Mahalliy aholi o'z vaqtida qo'shni mamlakatlar, uzoq-yaqin shaharlar aholisi vakillariga xayrixohlik bilan qaraganlar. Shaharlarda turli xalq vakillariga yer ajratib berilib, bu manzillarga ularning mahallalari yuzaga kelgan. Tarixiy adabiyotlarning xabariga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Buxoroda «Yahudiylar mahallasi, shahar atrofida tatar mahalla, Afshar mahalla» va boshqalar mavjud bo'lgan. Mazkur aholining erkin yashashi, diniy e'tiqodlar uchun tegishli sharoitlar yaratib berishgan. Yahudiylar amirlikning Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kattaqo'rg'on va boshqa yerlarida yashashgan. XIX asr 20-yillarida Buxoroda bo'lgan Y.K. Meyendorof poytaxtdagi 3 ta ko'chada yahudiylar yashaganligi, Samarqandda ularning alohida mahallasi borligini qayd etgan. Yahudiylar maktabi va sinagogi Buxoroda va Samarqandda ham bo'lgan. Xonlikda shuningdek, hindlar, afg'onlar, ruslar, armanlar, tatarlar, forslar, qalmiqlar va boshqalarni ham uchratish mumkin bo'lgan. Buxorodagi No'g'ay Saroyida ko'p sonli rossiyalik tatarlar istiqomat qilishgan.

Amirlikda o'troq aholidan tashqari, tog'oldi va dasht hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham yashagan. Ko'ch-

manchilik va yarim ko'chmanchilik tarzida hayot kechirgan qozoqlar cho'l va dasht hududlarida yashashgan.

5.3. Davlat boshqaruv tizimi. Mansablar, unvonlar va amallar

Buxoro amirligida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mang'itlar sulolasining vakillari hukmronlik qilishdi. Sulola hukmronligining asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy biroz muddat (1747-yildan keyin) Abulfayzxonning o'g'illarini otaliqqa olgan bo'lib, 1756-yilda sayyidlar, xo'jalar va ruhoniylar tomonidan Buxoro taxtiga o'tqaziladi. Rahimbiy xon unvonini olmasdan o'zini «noib ul-hukumat» («hokim o'rinbosari») deb bilgan. Doniyolbiy otaliq ham xonlikka da'vo qilmay, avval Fozilto'rani, keyin esa Abulg'ozini (1758–1784-yy.) xon deb e'lon qilib, o'zi ularga noib hisoblangan. Shohmurod 1785-yilda Buxoroda «amir» unvoni bilan taxtga o'tiradi.

Buxoro amirligining siyosiy tizimi, idora etish tartib-qoidolari, davlat ramzlari, unvon va mansablar haqida ko'pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, mang'itlar hukmronligi davrida davlat tizimida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmagan. Bu davrda oliy hukmdor garchi amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo'lsa-da, Buxoro amirligi ham o'z tizimi, qonun-qoidolari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan, o'rta asrlar Movarounnahrdaagi musulmon davlatlari, xususan, Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmagan.

Buxoro amiri Sayid Olimxon o'zining «Buxoro xalqining hasrati tarixi» asarida Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlari hamda davlat boshqaruv haqida ma'lumotlar berib, jumladan quyidagilarni yozadi: «Buxoro amirlari hukm yuritishlarida – shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi-o'rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilishardi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzish mumkin emas edi. Buxoro xonlari mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan. Buxoro podshohlarini o'zbek odatlariga ko'ra, to'shakcha ustiga tabarrukona o'tqazib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'taradilar. Buxoro mamlakati 28 ta viloyat (bog'ot)ga bo'linar edi.

Eng katta viloyatlarga amirning o'zi hokimlarni tayinlar edi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako'l, Boysun, Hisor, Denov, Qo'rg'on, Boljuvon, Ko'lob, Qubodiyon, Darvoz, Ro'shon, Samarqand, Miyonqol, Farob, Urmeton va Maschohlar kirardi. Valiahdga qarashli mulk Qarshi hisoblanar edi».

Buxoro amirligida davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilardi. Davlat ahamiyatiga molik bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va boshqa masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh – Arkda ko'rib chiqilgan hamda hal etilgan. Bosh qarorgoh hisoblangan – Arkda amir va uning oilasidan tashqari qo'shbegi, shig'ovul, to'pchiboshi, mirzaboshi kabi saroy amaldorlari o'z oilalari va xizmatkorlari bilan yashashgan.

Zaruratga qarab mamlakat poytaxtida amir boshchiligidagi davlat kengashi chaqirilib turilgan. An'anaga ko'ra, lavozimlariga qarab 5 tadan 20 tagacha amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengashda mamlakat hayotiga doir eng muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

Ilgarigi davrlarda bo'lgani kabi, mang'itlar davrida ham, davlat boshqaruvi tizimi ikki bo'g'in – markaziy va mahalliy boshqaruv tizimidan iborat bo'lgan. Bu tizimlar musulmon davlatlariga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega bo'lgan hamda asosan amir, saroy amaldorlari, o'zbek urug'lari va qabila boshliqlari, ulamolar, harbiy boshliqlardan tashkil topgan. Amirlikdagi markaziy hokimiyat amir boshchiligidagi saroy ayonlari qo'lida bo'lsa, mahalliy boshqaruv viloyat noiblari qo'lida edi. Viloyat beklari amir tomonidan asosan mang'it urug'i vakillaridan tayinlangan.

Amirlikning poytaxti Buxoro va uning atrofidagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan. Viloyat beklari nisbatan kichik hududiy bo'linmalar amlak mulklar hisoblanib, ularning boshqaruvchilari amaldor deb atalgan. Amirlikning ma'muriy tuzilishidagi eng quyi bo'g'in qishloq jamoalari bo'lib, ularni oqsoqollar boshqargan. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi istilosiga qadar hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining katta qismini o'z ichiga olgan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi.

Ta'kidlash lozimki, manbalar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan unvon, mansab hamda amallarga oid ma'lumotlar chalaksh, ko'p hollarda bir-birini inkor etadi.

Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo mang'it urug'i vakillariga, sayyidlarga, xo'jalarga hamda ulamolarga berilgan bo'lib, davlatdagi eng yuqori unvon amir ul-umaro, otaliq, hokim (valiy, bek), qo'shbegi va devonbegilar bo'lgan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Otaliq unvoni mang'itlar davriga kelib otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma'muriy ishlarda asosiy vakiliga aylandi. Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (rud-i shahr) va dorug'alik vazifasi yuklanadi.

Bu davrda qo'shbegi yoki qo'shbegiyi bolo eng oliy saroy mansabi hisoblanib, uning mavqeyi juda baland bo'lgan. Amalda bosh vazir vazifasini bajargan bu mansab egasi iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar bo'yicha amirning eng yaqin odami hisoblangan. Saroydagi oliy mansablardan yana biri devonbegi bo'lib, bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo'lgan. Devonbegi moliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yig'ish ustidan to'la nazorat qilish ishlari-ga javob bergan.

Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida o'rin egallagan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Shahardagi jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan bo'lib, ular shahar mirshabboshisiga bo'ysunishgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga boshqa barcha shaharlar mirshabboshilari bo'ysunishgan. Mang'itlar davrida Buxoroda qo'shbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi birgalikda «chor hokim», ya'ni, «to'rt hokim» deb yuritilgan.

Amirlikning boshqaruv tizimida bosh rais alohida ahamiyatga ega edi. Ushbu amal yarim diniy, yarim targ'ibotchi usulida edi. Amirlikda bosh rais odatda eshon rais yoki rais-ush shariat deb atalgan bo'lib, unga barcha mahalliy raislar bo'ysunishgan. Bosh rais ularni vaqti-vaqti bilan amir oldida tekshiruvdan o'tkazib turgan. Eshon rais qozikalonidan keyin turadigan amaldor bo'lib, uning mahkamasiga vaqtincha o'rinbosarlik qiluvchi xalifa, noib, mulozimlar, mirzalar, miroxo'rboshi, tergovchi, shahar mirobi kabilar kirgan.

Amir saroyida ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar bo'lgan mirshab va uning qo'l ostidagilar, suv ta'minotiga javobgar bo'lgan mirob va uning qo'l ostida ishlaydiganlar kirgan. Mirshab qo'l ostida yasovulboshi, devonbegi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi, shabgard (kechki qorovul), farroshboshi kabilar bo'lgan. Mirob tasarrufida esa mahram, mirzalar, bakovullar, miroxo'rlar, suv tarmoqlari nazoratchilari, mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari faoliyat yuritishgan.


Amirning ikkinchi vaziri qo'shbegiyi poyon, ba'zi manbalarda miripoyon deb atalgan bo'lib, unga yasovulboshi, miroxo'rboshi, xazina-chi, mirzalar, bakovulboshi, zakotchilar bo'ysungan. Miripoyon ularni bevosita o'z nazoratiga olib turgan.

Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud edi. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig'ovul, amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi tongotar (tunqator), amirga qaratilgan salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi javobgar salom og'asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chog'ida namozga chorlovchi imomi jilov, amir safari chog'ida qonun bilan shug'ullanuvchi mufti jilov, amir maslahatchilari guruhi jamog'a kabilar shular jumlasidandir. Amirga bo'lgan sadoqati va xizmati uchun alohida shaxslar dodxoh, inoq, to'qsabo, otaliq, eshikog'asi kabi unvonlarga ega bo'lishgan.

XVIII–XIX asrning birinchi yarmida amirlikda eng oliy diniy mansab shayxulislom hisoblangan. Ammo bu davrda uning vazifalari ancha toraygan edi. XIX asr o'rtalaridan boshlab shayxulislom o'rnini qozikalon egallaydi. Yuqorida eslatilgan amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais qatnashgan.

Amir Muzaffar davridan boshlab, amirlikdagi barcha huquqiy normalar qozilar tomonidan hal qilingan. Barcha fuqarolik, xo'jalik va jinoiy ishlar Qur'on va shariat ahkomlari asosida ko'rib chiqilgan hamda jazolar belgilangan. Qozilar amir irodasiga ko'ra qozikalon tomonidan tayinlangan. Shariat bo'yicha boshqaruv qozilar qo'lida bo'lgan. Qozikalon amirlik poytaxtining bosh qozisi bo'lishi bilan birga, davlatdagi boshqa qozilar boshlig'i hisoblangan.

Buxoro amirligidagi unvon va mansablar



Amirlikda rasman uchta diniy unvon – o‘roq, sudur va sadr mavjud bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, madrasani tugatgan shaxs mulla, qozi, rais amallarini egallashi mumkin edi. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlaganidan so‘ng shariat huquqlari sohasida to‘plagan bilim va tajribalari asosida bunday shaxslarga dastlab o‘roq, keyin sudr va so‘ngra sadr unvonlari berilgan. Eng oxirgi diniy unvoni bo‘lgan shaxslar qozikalon, muftiy, a‘lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo‘lgan.

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masalalar bilan shug‘ullanuvchi maxsus amaldor – qozi askar ko‘rib chiqqan. Harbiy jinoyatlar bo‘yicha fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida edi. Demak, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Amir Nasrullo davrida amirlikda 1837-yili muntazam qo‘shin – sarbozlar tashkil etilgan. Eng yuqori harbiy unvonlar sarkarda, amiri lashkar, dodxoh (qo‘shin boshlig‘i) kabilar bo‘lib, qo‘rg‘onbegi, to‘qsabo, mingboshi kabi oliy toifali harbiy amaldorlar ham faoliyat yuritgan. Bekliklar hududidagi qo‘shinga beklarning o‘zlari rahbarlik qilishgan. Bekning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi boshchiligidagi yasovullar bo‘lgan. Qo‘shinda ponsadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, miroxo‘r kabi bo‘linma boshliqlari ham bo‘lishgan. Mingboshi bayroq (tug‘) ko‘tarib yurish huquqiga ega edi.

5.4. Yer egaligi munosabatlari. Dehqonchilik va chorvachilik. Hunarmandchilik va savdo-sotiq

O‘rta Osiyoning barcha hududlarida bo‘lgan kabi Buxoro amirligida ham agrar munosabatlar, ya‘ni, yerga egalik munosabatlari iqtisodiy hayotning asosini tashkil etgan. Manbalarga ko‘ra amirlikda yer egaligining quyidagi to‘rtta turi: davlatga tegishli yerlar (mulki sultoniy); xususiy yerlar (mulk); diniy muassasalar ixtiyoridagi yerlar (vaqf) va qishloq jamoalariga tegishli yerlar mavjud bo‘lgan. Manbalarda amlok yerlar, amloki sultoniy, podshoh yerlari kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda mulki xirojiy, xiroj yerlari atamasi ham tilga olinadi.

Ta‘kidlash joizki, Amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasman sotish, hadya etish hamda vaqfga berish taqiqlangan

bo'lsa-da, bunga doim ham amal qilinmagan. Davlatning bo'sh yotgan yerlari (qamishzorlar, toshloq, to'qayzor, tog'oldi)ni o'zlashtirish hisobiga ko'paytirib turilgan. Bunday yerlarni o'zlashtirgan shaxslar bir necha yil soliqlardan ozod etilib, keyin belgilangan tartibda soliq to'lashgan.



**Buxoro amirligi
tangasi. XVIII asr
oxiri – XIX asr
boshlari.**

Undan tashqari, davlat (amluk) yerlari hukmdor oldida katta gunoh qilgan yirik yer egallaridan musodara qilingan yerlar hisobiga hamda merosxo'ri bo'lmasdan vafot etgan shaxslarning yerlari davlat ixtiyoriga o'tishi hisobidan ham ko'paygan. Ayrim manbalarga ko'ra, davlat yerlaridan doimiy mavjud bo'lgan yer solig'i – xiroj olingan bo'lsa, boshqa manbalarda davlat yerlaridan hosilning katta qismi, ya'ni 40–50 foizi olinganligi qayd etiladi.

Amirlikda mavjud bo'lgan yana bir yer egaligi shakli mulk (xususiy) yerlar bo'lib, bu yer egaligi shakli qo'zg'almas mulk hisoblangan hamda hech qanday cheklanishlarsiz meros qilib qoldirish mumkin bo'lgan. Mulk yerlaridan olinadigan soliqlar haqida tadqiqotchilarning turli fikrlari mavjud. Zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mulki xurr yoki mulki xolis ayrim yirik yer egalariга tegishli bo'lgan yer egaligi shakli hisoblangan. Mulki xurr egasi doimo amaldagi hukmdor tomonidan berilgan yorliqqa ega bo'lishi shart edi va aynan shu yorliq tufayli u yer solig'idan ozod qilingan.

Amirlikda dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan mulki xiroj atamasi ishlatilgan. Bunday yerlarga ega bo'lgan yer egalari o'z yerlarini erkin sotish, meros qoldirish va hadya qilish huquqiga ega bo'lishgan. Bunday yerlardan rasman hosilning uchdan biri miqdorida soliq belgilangan bo'lsa-da, amirlikning har bir hududida o'rnatilgan va belgilangan tartib hamda urf-odatlarга ko'ra, soliq miqdori hosilning uchdan biridan to beshdan birigacha bo'lgan.

An'anaga ko'ra, vaqf yerlari asosan diniy muassasalar – masjidlar, mozorlar, xonaqo, madrasalarga yer maydonlarini meros qoldirish hamda xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo'lib, u yer egaligining alohida shaktini tashkil etgan. Ushbu yerlardan tushgan foyda muta-

valli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli asosan vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan bo'lib, u vaqf hujjatlariga asoslanib foydani taqsimlab chiqqan. Amirlikda vaqf yerlarini sotish, bunday yerlardan soliq olish taqiqlangan bo'lsa-da, manbalar va hujjatlar bunga amal qilinmaganligini ko'rsatadi.

Amir Nasrullo davridan boshlab yer egaligining tanho shakli tarqaladi. Nasrullo o'ziga bo'ysunmagan amaldorlar va urug' oqsoqollarining yerlarini musodara qilib, bunday yerlarni vaqtincha egalik qilish huquqi bilan o'z tarafdorlariga hadya (tanho) qilgan. Amir Muzaffar davridan boshlab tanho tog'li hududlarga ham yoyiladi. Tanho turli hajmda (bir necha tanobdan bir necha yuz tanobgacha) berilgan bo'lib, tanhoning berilish miqdori eng avvalo, yerning sug'orilishi, yerning unumdorligi, qolaversa, amaldorning egallagan mavqeyi va ta'siriga ham bog'liq edi.

Dehqonchilik va chorvachilik Buxoro amirligi iqtisodining asosiy tarmoqlari hisoblangan. Aholining 85 foizi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi ham yuqoridagi mulohazaning dalili hisoblanadi. Amirlikda XVIII asrning oxirlaridan boshlangan iqtisodiy yuksalish, avvalo dehqonchilikning tiklanishi bilan izohlanadi. An'anaga ko'ra, sug'oriladigan hamda lalmikor yerlarda dehqonchilik sohasida bug'doy, arpa, jo'xori, poliz va sabzavot ekinlari yetishtirishga katta e'tibor qaratilgan. Uzunmichilik va bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Amirlikda uzumning 10 dan ortiq navlari yetishtirilgan.

Shuningdek, amirlikda sholikorlik ham yaxshi taraqqiy etgan. Nisbatan sifatli sholi Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va Hisor vohalarida yetishtirilgan. Shahrisabz va Hisor sholikorlari amirlikning poytaxti Buxoroni doimiy ravishda sifatli guruch bilan ta'minlab turishgan.

Amirlikda XIX asrning boshidan boshlab Rossiya imperiyasiga ko'p miqdorda paxta sotilishi natijasida paxtachilikka e'tibor kuchaytirilgan. Rus manbalariga ko'ra, Buxoro amirligining «Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida joylashgan Yakkabog', Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor tumanlarida paxta katta miqdorda yetishtiriladi. O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro paxtasi alohida diqqatga sazovor bo'lib, u ancha qimmat turadi».

Shariatda chekish taqiqlanganligiga qaramasdan, Qarshi va Miyonqol vohalarida tamaki yetishtirish rivojlangan. Qarshi tamakisi eng sifatli tamaki hisoblangan. Undan tashqari, amirlikda ipakchilikning

rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratilgan. Buxoro vohasi, Zarafshon vodiysi, Karmana, Shahrisabz, Kitob, Miyonqol umuman, suv ko'p bo'lgan barcha hududlarda tut daraxtlari ko'plab o'stirilgan. Buxoroda va boshqa yirik shaharlarda toza ipak va yarim ipakdan turli xil matolar tayyorlangan.

Amirlikdagi dehqonchilik va bog'dorchilik oddiy va an'anaviy holatda bo'lgan. Yerlar ot, ho'kiz, kam hollarda tuyalarga omoch qo'shilib haydalgan hamda mola, ketmon va bel orqali ishlov berilgan.

Amirlikda mavjud bo'lgan cho'l va dasht hududlari, tog' va tog'oldi adirlari mahsuldor chorvachilik uchun qulay imkoniyatlarni yaratgan. Amirlikning cho'l hududlarida, jumladan Buxoro va Qarshi hududlarida qorako'l teri yetishtirishga ixtisoslashgan qo'ychilik taraqqiy etgan. Bunga asosiy sabab, tashqi bozorda (ayniqsa, Rossiya bozorida) qorako'l terisiga, undan ishlangan mahsulotlarga talab katta edi. Chorvachilikning yetakchi tarmog'i sifatida yilqichilik nafaqat dasht hududlarida, balki vohalarda ham rivojlangan. Shahrisabzning qorabayir va Qarshining arabiy otlari o'z chidamliligi, tezligi va kuchi bilan butun amirlik va undan tashqarida ham mashhur bo'lgan.

Chorvachilikda tuyachilik sohasiga ham alohida e'tibor berilgan. Og'ir va olis yo'llar hamda suvsizlikka chidamli bo'lgan og'ir yuk ko'taruvchi tuyalardan karvon savdosida, tegirmonlarda, yog' chiqarishda, ba'zi hollarda yer haydashda foydalanilgan. Shuningdek, tuyaning suti va juni qadrlangan. Buxoro amirligida chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning ichki va tashqi bozorga tuyoqli mollar, sifatli teri, jun va boshqa turli mahsulotlar (shol, namat, arqon va hokazo) hamda oziq-ovqat (go'sht va sut mahsulotlari) yetkazib berishdagi ahamiyati katta edi.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Buxoro amirligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lsada, ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi. Butun o'rta asrlarda mavjud bo'lganidek, amirlik davrida ham hunarmandlar uyushmalari (kasaba, sexga ega bo'lishgan) uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatishga, mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog'liq edi. Amirlikdagi hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo'lib,

uni saylab qo'yiladigan shaxs – rais yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va to'lovlar yig'imida, usta va shogird munosabatlarida, xo'jalik ishlarini yuritishda uyushma raisining xizmati katta bo'lgan.

Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan, soha uchun mahalliy xomashyo manbalari – paxta, jun, ipak yetarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi. Mamlakatda ayniqsa, bo'z, chit, olacha matolari ko'p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hisor, Baljuvon, Denov, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato to'qish, tayyor kiyim tikish, gilam to'qish va boshqa to'qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning zarbof to'nolari, Shahrisabzning iroqi do'ppilari, Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari amirlikdan tashqarida ham mashhur bo'lgan.

Buxoro davlati hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xo'jalik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Urgut, Denov, G'ijduvon kabilar bo'lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta edi. Amirlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar (turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar, qushlar, hasharotlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo'llanilgan.

Bu davrda iqtisodiyotning metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan. Shahrisabz, Urgut, Nurota, Boysun, Sherobod kabi tog'li tumanlardan ma'danlar qazib olingan bo'lib, ulardagi konlardan foydalanish ba'zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda amirlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quydagi to'rtta asosiy tarmog'i – temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlikni alohida ko'rsatish mumkin. Temirchilik sohasida ustalar qishloq xo'jaligi va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurolla-

ri, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Amirlikning ko'pgina shaharlarida Temirchi, Guzari Chilangaron kabi chilangar-temirchilar maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Yirik shaharlarda misgarlik ham rivojlangan. Mis xomashyosi asosan Rossiyadan keltirilib, undan chilim idishlar, barkash, lagan, ko'zacha, tog'oracha kabi ko'plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida degrezlik – cho'yan quyishning alohida o'rni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus guzarlarda yashashgan. Bu yerlarda cho'yandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasashgan. Bronzadan buyumlar yasash – rixtagarlik ham amirlikning ko'pgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyum va taqinchoqlar yasashgan.

Undan tashqari, amirlikda hunarmandchilikning boshqa ko'pgina turlari ham rivojlangan. Xususan, Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metall va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar amirlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo'lgan. Ko'pchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq edi. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nim po'stin, turli xil meshlar (sut, suv, qimiz va hokazo uchun) tayyorlangan.

Amirlikning deyarli barcha hududlarida yog'och o'ymakorligi taraqqiy etgan. Shaharlarda mohir duradgorlar ham ko'p bo'lgan. Amirlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmasdan, ko'p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Buxoro amirligi hukmdorlari va aholisi savdo-sotiq ishlariga katta e'tibor qaratishgan. Amirlikda hunarmandchilik va undagi ishlab chiqarishning taraqqiy etishi doimiy savdo-sotiq munosabatlarining yanada kengayishiga asos bo'lgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining ko'pgina shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e'tibor qaratilib, bu holat savdo munosabatlari rivojini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan edi.

Amirlikning yirik shaharlari – Buxoro, Samarqand, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Denov, Nurota va boshqalar asosiy savdo

markazlari edi. Manbalarga ko'ra, XIX asr boshlariga kelib yirik karvon yo'llari chorrahasida joylashgan Qarshi shahrining ahamiyati oshib ketadi. Ichki bozorlarda avvalo, kundalik ehtiyoj mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta bo'lgan. Ichki savdoning taraqqiyotida yirik shaharlarning atroflardagi qishloqlar bilan iqtisodiy munosabatlari hamda shaharlararo savdo-sotiq aloqalarining rivojlanganligi muhim o'rin tutgan. Chunonchi, amirlikdagi bozorlar nafaqat shaharlar, balki ularning atrofidagi qishloqlar aholisining talablarini qondirishda ham alohida ahamiyatga ega edi. Amirlikdagi barcha shaharlarda, yirik qishloqlarda ixtisoslashgan bozorlarning mavjudligi ichki savdoning davlat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatidan dalolat berardi.

Ichki savdoning taraqqiy etishida amirlikda mavjud bo'lgan pul muomalasining o'rni katta bo'lgan. Xususan, mang'itlar hukmronligi davrida bu sohada birmuncha barqarorlik o'rnatilgan bo'lib, muomala asosan uch turdagi – tilla, tanga (kumush) va pul (mis) mavjud edi. Shahar hamda qishloqlardagi savdo-sotiq va to'lovlarda asosan tanga va pul ishlatilgan.

Buxoro amirligida qo'shni davlatlar va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilgan. Tashqi savdo aloqalarida Xiva va Qo'qon xonlari, qozoq va turkman dashtlari, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Qashg'ar va ayniqsa, Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlari muhim o'rin tutgan edi.

Ko'chmanchi qozoqlar amirlik bozorlariga paloslar, namatlar, jun, teri, go'sht va sut mahsulotlari keltirgan bo'lishsa, dehqonlar va hunarmandlar qozoq dashtlarini oziq-ovqat mahsulotlari, sabzavotlar, kundalik ehtiyoj mollari, kiyim-kechaklar, paxta matolari bilan ta'minlashgan. Amirlikda turkman gilamlari va otlariga talab katta bo'lgan. Turkmanlar amirlik bozorlaridan boshqa mahsulotlar bilan birga ko'proq har xil matolar xarid qilishgan.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Rossiyaning savdo shaharlari (asosan Orenburg va Astraxan) muhim o'rin tuta boshlaydi. Rossiyaga qishloq xo'jalik mahsulotlari – teri, qorako'l teri, jun, paxta, ipak tolalar, turli matolar olib chiqilgan. Rossiyadan esa turli fabrika mahsulotlari, cho'yan, mis, qo'rg'oshin keltirilgan.

Buxoro savdogarlari Balx va Badaxshonga savdo karvonlari bilan qatnab turishgan. Bu hududlarga amirlikdan qozonlar, Buxoro matolari, Rossiyadan keltirilgan igna, oyna, qaychi kabilar olib kelingan hamda Buxoroga kumush, oltin olib qaytilgan.

Savdo karvonlari Kobul va Hindistonga ham borib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishgan. Hindistondan qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar, xushbo'y giyohlar, kashmir matolari keltirilgan. O'z navbatida, hind savdogarlari Buxoro bozorlaridan Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar, mahalliy matolar, zarbof to'nlari, qorabayir otlarni xarid qilishgan. Amirlik savdogarlari Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan ham savdo-sotiq aloqalari olib borgan. Xitoy bilan savdo aloqalari Qo'qon xonligi orqali olib borilib, Xitoyga paxta, qorako'l teri, turli xil hunarmandchilik mahsulotlari yetkazib berilgan. O'z navbatida Xitoydan ko'plab ipak matolari va chinni buyumlar ham keltirilgan.

XIX asr boshlarida, ayniqsa, uning 40–50-yillaridan boshlab jiddiy ravishda kuchaygan Rossiya va Angliyaning O'rta Osiyo, jumladan, Buxoroga nisbatan qiziqishi, amirlik iqtisodiy hayotiga ularning kirib kelishi, o'z navbatida Buxoro amirligida ishlab chiqarish munosabatlarining jadal sur'atlar bilan o'sishi hamda ishlab chiqarishning rivojlanishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlar, savdogarlar, umuman ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha tarmoq egalari ishlab chiqarishga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishdi. Manbalar tili bilan aytganda, «O'rta Osiyo xomashyosi va uning ba'zi bir mahsulotlariga talab kuchaya boshladi. Bundan rag'batlangan mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari imkoniyatlari boricha o'z jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar».

Buning natijasi o'laroq, XIX asr o'rtalariga kelib, talabdan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishi tufayli buxorolik savdogarlar tashqi savdo aloqalarini kuchaytirdilar. Xususan, buxorolik savdogarlar Rossiyaga ko'proq paxta va ipak gazlama mahsulotlarini olib borib, Rossiyadan temir va mis keltira boshladilar. Hunarmandchilik mahsulotlari ko'plab Hindiston, Eron va Xitoyga chiqarilib, bu hududlardan asosan qimmatbaho metallar keltirilgan.

Soliqlar. Buxoro amirligida eng asosiy soliq bu yerdan olinadigan xiroj solig'i edi. Bu soliq amlodkor va oqsoqollar ishtirokida hosil pishib yetilgan paytda hosilga qarab belgilangan. Hajmi esa hosilning

uchdan, to'rtidan ayrim hollarda beshdan bir qismi ko'rinishida bo'lgan. Dehqonlar amlokdor uchun o'n botmon yerdan yarim pud kafsani solig'ini, dorug'alar uchun kafsani dorug'a (hosilning kam hajmdagi ma'lum qismi) ham to'laganlar. Undan tashqari, amir dalalarni aylanganda, harbiy xarajatlar paytida ham qo'shimcha soliq va to'lovlar olingan. Amir Shohmurod davrida ko'plab ortiqcha soliqlar bekor etilib, faqat shariatga mos soliq turlari joriy etilgan edi.

Qonuniy yer solig'idan tashqari, yer egalari har bir tanob bog' yoki tomorqadan maxsus tanob puli va yem-xashak yetishtiradigan yerlardan alaf puli olingan. Ular umumiy nomda tanobona deb ham yuritilgan. Bu soliqlar yerlarning bozor joylashgan joyga uzoq-yaqinligiga qarab hajm jihatdan farq qilgan. Amir Nasrullo davrida amirlikning soliq tizimiga biroz o'zgartirishlar kiritildi. Ya'ni, poliz ekinlari ekiladigan yerlar uchun qo'sh puli joriy etilgan. Keyinchalik bu soliq poliz ekinlari ekilmaydigan boshqa yerlardan ham olinadigan bo'lgan.

Amirlikdagi yana muhim soliqlardan biri – zakot edi. Zakot davlatning mol-mulkdan oladigan solig'i bo'lib, mol-mulk narxining qirqdan bir hajmida undirilgan. Bu soliqning eng daromadli tomoni mahsulotlarga soliq solish shuningdek, savdogarlarning mahsulot uchun olib kelgan pullariga soliq solish, bo'lgan. Zakot mahsulotlardan bir necha marta undirib olingan. Chorvachilik tumanlarida zakot mahsulot ko'rinishida (beshta tuyadan bitta qo'y yoki echki, qirqta qo'ydan bitta qo'y yoki echki kabi) undirilgan. Bu soliq turi XIII asr oxirlarida joriy etilgan.

Urushlar davrida favqulodda soliq – jo'l undirilgan. Undan tashqari savdo-sotiqdan dalloli, boshqa viloyatlar va davlatlardan olib o'tilayotgan mahsulotlar uchun boj, daryodan mahsulotni qayiqda olib o'tgani uchun suv puli, bozordagi savdo joyi uchun puli taxtajoy, bir juft omoch tortadigan ot yoki ho'kiz uchun yaksara (bir botmon g'alla), omoch tortadigan bitta ot yoki ho'kiz uchun nimsara (yarim botmon g'alla) kabi soliqlar olingan. Yangi ariqlar va kanallar qazish eskilarini tozalash uchun mahalliy aholi hasharlarga jalb etilgan. Ommaviy jamoat ishlariga ishtirok etmaganlardan shariatga ko'ra, boqipuli deb ataluvchi jarima olingan. Soliqlar, to'lovlar va jarimalar pul va mahsulot ko'rinishida, mahalliy soliq yig'uvchilar hamda amir tayinlagan kishilar tomonidan yig'ib olingan.

5.5. Amirlikdagi madaniy hayot

XVIII asrning oxirlariga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning bir-muncha rivoji madaniy hayotga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ayniqsa, ilgarigi davrlarda shakllangan maktab va oliy ta'lim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha taraqqiy etdi. Boshlang'ich ta'lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo'lib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur'onning ma'lum oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan.

Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. Madrasalarda o'qitish ilgarigi davrlarda bo'lganidek uch bosqichda: 1) past qadam, 2) miyona (o'rta) qadam va 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan. Madrasa o'qituvchilari – mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari, talabalar nafaqalari, kutubxona xarajatlari, ta'mirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablag'lar vaqf yerlaridan keladigan foyda hisobidan qoplangan. Madrasalar odatda hukmdorlar, amaldorlar, nufuzli shaxslar, yirik din peshvolari va savdogarlar tomonidan ko'p hollarda pishiq g'ishtdan ikki qavatli qilib qurilgan. Ularning birinchi qavatida masjid, qiroatxona va kutubxonalar, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar joylashgan.

Madrasa talabalari diniy bilim bo'lgan Qur'oni karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, handasa kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta'lim olganlar. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta'limga asosiy e'tibor qaratilib, dunyoviy ta'lim berish nisbatan orqada qolgan edi.

Hozirgi kungacha saqlanib qolgan me'morchilik yodgorliklari hamda yozma manbalar amirlikda adabiyot, tarix, xattotlik va musiqa san'ati, me'morchilik rivojlanganligidan dalolat beradi. Amir Haydar saroyida munshiy (amir kotibi) lavozimida xizmat qilgan Mirzo Sodiq Munshiy XIX asr boshlaridagi adabiy muhitning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri edi. Undan meros qolgan she'riy devon – «Devoni Sodiq Munshiy» hamda she'riy usulda bitilgan tarixiy asari uning adabiyot rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatadi. Bu davrda amirlikning

turli shaharlarida yashab ijod qilgan ko'plab shoirlar ijodida xalqparvarlik, jabr-zulmga qarshi isyonkorlik kayfiyati kuchli bo'lib, ular ko'p hollarda hukmdorlar va amaldorlar tomonidan quvg'inga olingan. XIX asr adabiyotida Shavqiy taxallusi bilan she'rlar yozgan kattaqo'rg'onlik Muhammad Sharif, «Chor darvish», «Mafiloro», «To'tinoma» kabi asarlar muallifi Mulla Qurbon Xiromiy va boshqalar katta rol o'ynaganlar.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarning ko'pchiligi hukmron mang'itlar sulolasi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'rta asrlar tarixnavisligidagi an'analar davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab o'tgan ilm-fan namoyandalarining faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratishgan. Xususan, Mullo Ibodullaning «Tarixi amir Haydar», Muhammad Sharifning «Dostoni amironi mang'it», Mir Olim Buxoriyning «Fathnomayi sultoniy», Mirzo Abdulazim Somiyning «Tarixi salotini mang'itiiya», «Dahmayi shohon», Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining «Toj-u tavorix», Mirzo Shams Buxoriyning «Bayoni ba'zi hodisoti Buxoro, Xo'qand va Qashg'ar» asari, Mirzo Sodiq Munshiyning «Mang'it hukmdorlari tarixi» kabilar shular jumlasidandir. Amirlikning shu davrdagi ko'zga ko'ringan va o'ziga xos vakili Muhammadniyoz Nishotiy (XIII asr) bo'lib, u hayotining katta qismini faqirlikda o'tkazgan. Shoir o'zining mashhur asari «Husn-u dil» dostonini 1778-yilda yozib tugatgan. Ushbu asar majoziy ma'noda yozilgan asar hisoblanadi. Unda ko'plab olijanob ma'naviy fazilatlar ularga qarama-qarshi bo'lgan salbiy illatlarga qarshi qo'yiladi. Uning «Qushlar munozarasi» majmuasi munozara shaklida bitilgan majmuadir. U qushlar obrazi orqali insonga xos salbiy illatlarni qoralaydi. Shoir 38 ta g'azal, 14 ta muxammas, 1 ta qasidaning muallifi hamdir. Muqrim Obid (1748–1818) –«Muqrim», «Obid» taxalluslari ostida turkiyda 459 ta, forsiyda 206 ta g'azal yozgan. Shoirning ijodida ijtimoiy adolatsizlik qoralanib, uning pand-u nasihatlar aks etadi.

Vola (1770–1842) asli ko'zi tug'ma ojiz bo'lib, unga tabiatan kuchli iroda, aql-zakovat, qobiliyat ato etilgan edi. Bizgacha bu iste'dodli shoirning 3000 misra she'ri yetib kelgan. U ham o'z she'riyatida ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlikni qoralaydi. Amirlikda nom chiqargan madaniy arboblardan biri – Ahmad Donish (1827–1897) bo'lgan. U yirik olim, faylasuf, tarixchi sifatida nom chiqargan. Donish 20 yil davomida Buxorodagi saroy kutubxonasida xattot va rassom bo'lib ham ishlagan.

Uning «Mangʻitlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha xulosa» nomli asari ancha nom chiqargan. Amirlikda musiqa sanʼati ham ancha rivoj topdi. Xususan, XVIII asr oxirlarida Buxoroda «Shashmaqom» yuzaga keldi. Buxoro Shashmaqomi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat boʻlib, 250 dan ziyod turli shakldagi kuy va ashulalardan tashkil topgan.

Amirlikning madaniy hayotida xattotlik ham muhim oʻrin egallagan edi. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda xattotlik maktablari mavjud edi. Oʻz kasbining ustasi boʻlgan mohir xattotlar davlat va xoʻjalik hujjatlari tayyorlashda, ilmiy-badiiy asarlar yozish va koʻchirishda, meʼmoriy inshootlarga turli yozuvlar (Qurʼoni karim oyatlari, hadislar, hikmatlar)ni chiroyli naqshlar tarzida bitishda mashhur boʻlishgan. Amir Haydar davrida Mir Maʼsum Olamiyon, Amir Nasrullo davrida Mirzo Sodiq Jondoriy kabi xattotlar nom chiqarishgan.

XVIII asr ikkinchi yarmida Buxoroda qurilgan binolar orasida shaharning Shayxi Jalol darvozasi yaqinida 1753–1754 bino qilishiga xonaqohini alohida taʼkidlash joiz. 1796–1797-yillarda qurilgan Domullo Tursunjon madrasasi ham katta binolardan biri hisoblangan. XVIII asr oxirlari – XX asr birinchi yarmidagi meʼmoriy inshootlar orasida Xalifa Xudoydod Majmuasi (masjid, madrasa, maqbara, sardoba; 1777–1855-yillarda qurilgan) oʻzining yuqori badiiy yechimi bilan ajralib turadi. Aynan shu kompleks yonida 1807-yili Chorminor qurib bitkazilgan. N.Xanikovning XIX asr 40-yillarida bergan maʼlumotiga koʻra, poytaxt Buxoroda amir roʻyxatidan oʻtgan 103 ta madrasa (ularning 6 tasi katta madrasa edi) mavjud boʻlgan. Qarshidagi Ali va Mir Muhammad madrasalari ham shu davrda barpo etilgan. Bu davrda amirlikning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Gʻuzor, Kattaqoʻrgʻon, Denov kabi koʻplab shaharlarida masjid va madrasalar bunyod qilingan. Buxorodagi Domullo Tursunjon madrasasi, Xudoydod meʼmoriy majmuasi (masjid, madrasa va sardoba), Ernazar elchi madrasasi, Qarshidagi Ali va Mir Muhammad madrasalari shular jumlasidandir. Undan tashqari, bu davrda shaharlarda koʻplab ixtisoslashgan yopiq bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar, yoʻllar boʻylarida sardobalar bunyod etilgan.

Xullas, mamlakatimiz davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi davlatining ham oʻz oʻrni va mavqeyi boʻlib, mangʻitlar hukmronligi davrida

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda qator yuksalishlar bo'lib o'tdi. Ammo amirlik iqtisodiy jihatdan qudratli va siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Ko'p hollardagi iqtisodiy tanglik, siyosiy beqarorlik, o'zaro nizolar XIX asrning ikkinchi yarmida davlatning katta hududlarini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi. Buxoro amirlari esa 1920-yilga qadar Rossiyaga vassal holatda taxtni egallab turishdi.

Buxoro amirligidagi mang'itlar sulolasi hukmdorlari (1756–1920)

1. Muhammad Rahimbiy – 1756–1758-yillar.
2. Doniyolbiy – 1758–1785-yillar.
3. Amir Shohmurod – 1785–1800-yillar.
4. Amir Haydar – 1800–1826-yillar.
5. Amir Husayn – 1826-y. ikki yarim oy.
6. Amir Umar – 1826-y. to'rt oy.
7. Amir Nasrullo – 1826–1860-yillar.

Tayanch so'zlar

Buxoro, Samarqand, Zarafshon vohasi, amirlik, mang'itlar sulolasi, Muhammad Hakimbiy otaliq, Muhammad Rahimbiy, markazlashgan davlat, Doniyolbiy otaliq, Miyonqol vohasi, Shohmurod, Amir Nasrullo, viloyat, tuman, beklik, nimhazora, mansab, unvon, amal, davlat kengashi, markaziy va mahalliy boshqaruv, mang'itlar, sayidlar, xo'jalar, «chor hokim», qo'shbegi, devonbegi, amir ul-umaro, qozi, shayxulislom, qozikalon, harbiylar, yer egaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq, soliqlar, zakot, jo'l, yaksara, urush, madaniy hayot.

Savol va topshiriqlar

1. Mang'itlar sulolasining siyosiy hokimiyat tepasiga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Amir Shohmurod islohotlari haqida gapirib bering.
3. Amir Haydar hukmronligi davri qay darajada kechgan edi?
4. Amir Nasrullo hukmronligi davri qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
5. Buxoro amirligining ma'muriy tuzilishi haqida so'zlab bering.
6. Amirlikning aholisi haqida nimalarni bilasiz?

7. Amirlikdagi mavjud qanday mansab va unvonlarni bilasiz?
8. Amirlikdagi yer egaligi munosabatlari qanday edi?
9. Buxoro amirligidagi hanarmandchilik va savdo-sotiq holati haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
10. Buxoro amirligidagi soliq siyosati qay ahvolda edi?
11. Amirlikdagi madaniy hayot haqida nimalarni bilasiz?

5-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. Ахмедов Б. История Балха (XVI-первая половина XVIII в.). – Ташкент: “Фан”, 1982.
3. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX–XX asr boshlari). – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2006.
4. История Узбекистана (XVI-первая половина XIX в.). Коллектив авторов. Отв. ред. Алимова Д.А. – Ташкент: “Фан”, 2012.
5. Sagdullayev A., Aminov B., Yakubov B. Qashqadaryo tarixidan lavhalar. – Qarshi: «Nasaf», 1997.
6. Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimi. Tavarixi muttaqaddimi va munttaashirin. – Buxoro, 2003.
7. Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi Nofei (Foydali tarix). – Toshkent, 2001.
8. Xoliqova R. Rossiya – Buxoro: tarix chorrahasida. – Toshkent: «O'qituvchi», 2005.
9. Choriyev Z.U. Tarix atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 2005.
10. Shodmon Vohid. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvonlar va mansablar. – Toshkent: Hamid Sulaymon nomidagi qo'lyozmalar instituti, 1996.
11. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2012.
12. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

6-mavzu. XVI – XIX ASR BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGIDA KECHGAN IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLAR, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Reja:

- 6.1. Xiva xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi.
- 6.2. Xiva qo'ng'irotlarining siyosiy tarixi.
- 6.3. Xiva xonligining hududi, ma'muriy tuzilishi, aholisi va davlat boshqaruvi.
- 6.4. Xon saroyidagi unvon va mansablar.
- 6.5. Yer egaligi. Dehqonchilik va chorvachilik.
- 6.6. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Shaharlar.
- 6.7. Madaniy hayot. Me'morchilik.

6.1. Xiva xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi

XVI–XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligida kechgan siyosiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot masalasi qator tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Ular orasida mazkur tarixiy davr oralig'ida yozilgan Abulg'azi Bahodirxonning «Shajarai turk», Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tarixi Rahimxoniy», Muhammad Rizo Ogahiyning «Jome al-vaqoyeoti sultoniy», «Firdavs al-iqbol» va boshqa tarixiy manbalar katta ahamiyat kasb etadi.

XVI–XIX asr birinchi yarmi Xiva xonligi tarixini yoritishda XIX–XX asr arxeologlari, tarixchi olimlaridan S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, Q.Munirov, M.A.Itina, M.Yo'ldoshev, A.R.Muhammadjonov, P.P.Ivanov, R.G.Muqminova, S.Kamolov, A.Abdurasulov, G.A.Agzamova, X.G'.G'ulomov, U.A.Abdurasulov, N.Allayeva, S.To'rayeva, Yu.Rahmonovalarning tadqiqot ishlarini alohida qayd etish lozim. Shuningdek, ushbu davr tarixini yoritishda XVI–XIX asr birinchi yarmida xonlikda bo'lgan rus elchilari, sayohatchilarining esdaliklari, Buxoro, Qo'qon xonliklariga oid manbalar ham munosib o'rin egallaydi.

XV asr oxirlari – XVI asr boshlariga kelib Xorazm temuriylardan bo'lgan Sulton Husayn Boyqaroga (1469–1506) qarashli hudud hisoblanib, u yerga Chin So'fi hokimlik qilar edi. Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shayboniyxon (1488–1510) Movarounnahr yer-

larining asosiy qismini egallab, 1505-yili o'z e'tiborini Xorazm yerlariga qaratdi. Temuriylar orasida shu paytda hukm surgan boshboshdoqlik, o'zaro nizo-fitnalar shimoldan kirib kelgan kuchlarga qarshi turish imkonini bermadi. O'n oylik qamaldan so'ng Urganch egallanib, Xorazm yerlari Shayboniyxon qo'liga o'tadi. Shayboniyxon o'limidan so'ng (1510) esa Xorazm hududi Eron shohi Ismoil Safaviy ixtiyoriga o'tdi. Shoh Xiva, Hazorasp, Urganch, Vazir shaharlariga mazkur yerlarni boshqarish maqsadida o'z dorug'alarini tayinladi. Tez orada Eron shohining hukmi, «qizilboshlar»ning zulmiga qarshi xalq ommasining umumiy norozilik kayfiyati avj oldi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Ko'hna Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shaharni XV asrda o'zbek xonlaridan bo'lgan Mustafaxon barpo etgan) qozisi Umar Shayx boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Hazorasp shaharlaridagi eroniy noiblar va ularning qo'shinlarini qirib tashladilar.

1511-yilda Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan Shayx Said Ota avlodlari Dashti Qipchoq o'zbeklarining Berka sulton avlodidan bo'lgan Elbarsxonga maktub yo'llab, uni Xorazm taxtiga taklif qildilar*. 1511-yili Elbarsxon taxtga o'tirgach, eroniy larni mamlakat hududlaridan butunlay haydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat hududlarini hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Saraxs viloyati, Mang'ishloq, Abulxon, Durun hisobiga ancha kengaytirdi. Elbarsxon tiriklik vaqtidayoq ayirmachi zodagonlar, urug' boshliqlari, harbiylar o'rtasida ayirmachilik harakati boshlangan edi. Uning o'limidan (1518) so'ng ushbu harakat yanada avj oldi. Bu davrga kelib hokimiyat uchun kurashlar kuchayib ketdi. So'fiyonxon (1525–1535) davrida hokimiyatda Berka Sulton avlodlari butkul chetlashib, Aminak xonadoni vakillari hukmronlikni qo'lga oldilar. Ushbu kurashlardan foydalangan Buxoro hukmdori shayboniy Ubaydullaxon 1537–1538-yillarda qisqa muddat Xorazmni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Bu paytda xonlik taxti Aminak avlodidan bo'lgan Avaneshton (1535–1539)ga tegishli bo'lib, Berka Sulton¹ avlodidan bo'lgan taxt

¹ Berka Sulton ham Shayboniylar xonadoniga mansub bo'lib, XV asr 80-yillarida o'ldirilgan edi.

da'vogarlari Buxoroga qochishga majbur bo'lgan edilar. Avaneshxonning katta o'g'li Dinmuhammadning Eron bilan hududlarni o'z ta'siriga olish borasidagi maxfiy muzokaralari Buxoro hukmdori Ubaydullaxonning Xorazm yurishiga rasman sabab bo'ldi. Ubaydullaxon bilan Xorazm yurishida Toshkent hokimi Baroqxon (Navro'z Ahmadxon), Samarqanddan Juvonmardalixon, Hisordan Mahdiy Sulton va Hamza Sultonlar ham o'z harbiy bo'linmalari bilan ishtirok etdilar. Avaneshxon qo'shini zarbaga uchrab, o'zi Biyotqir degan joydagi jangda o'ldirildi. Ubaydullaxon o'g'li Abdulazizni Xorazm noibi etib tayinlab, hududni to'rt qismga bo'ldi. Ubaydullaxon 1538-yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Hazorasp bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shayboniylardan ozod bo'lgan Xorazmda endi ichki kurashlar avj olib ketdi. Shuningdek, Urganch, Kat, Yangi shahar, Xiva, Hazorasp kabi shaharlar va viloyatlar hukmdorlarining markazdan uzoqlashuvchi harakatlari kuchayib, ular amalda o'zlarini mustaqil hisoblashardi. Ayrim shaharlar bir vaqtning o'zida ikkita hukmdor tomonidan (masalan, Xivada Po'lat Sulton va Temir Sulton) boshqarildi. O'zaro sulolaviy, taxt uchun kurashlar ayniqsa Elbarsxon va Anushaxon avlodlari o'rtasida kuchayib ketdi. XVI asrda Abulg'oziy ma'lumotlariga ko'ra, bunday kurashlar natijasida qisqa muddatga hokimiyatdan o'nlab xonlar almashishgan. Natijada markaziy hokimiyat deyarli inqirozga uchragan edi. O'zaro kurashlar va siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishiga sabab bo'ldi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Hojixon (Hoji Muhammadxon, 1558–1593, 1598–1602-yy.) hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga biroz barham berilib, tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Tarixiy manbalarda Hojixonga ijobiy ta'rif berilib, «uni tajribali, adolatli, taqvodor hukmdor» bo'lganligi ta'kidlanadi. Uning hukmronligi davrida sug'orish va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlariga jiddiy e'tibor qaratilib, tashqi savdo hamda munosabatlar rivoj topdi. Hojixon hukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga ko'chirildi. Bunga asosiy sabab birinchidan, Amudaryo o'zanining o'zgarib Kaspiy dengizga oqmay qo'yishi natijasida Urganch va uning atroflaridagi suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchidan, Xivaning bu davrda siyosiy va iqtisodiy mavqeyi ancha kuchayib, asosiy savdo markaziga aylanishi edi. Poy-

taxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng davlat ham Xiva xonligi deb atala boshlandi¹.

Bu orada Buxoro hukmdori Abdullaxon II shayboniylar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'lib, Xorazm hududlarini shayboniylar ta-sarrufiga olish uchun harakat boshladi. Chunonchi, bir necha yurish-lardan so'ng, 1593-yilda Xorazm shayboniylar qo'liga o'tdi. Abdulla-xondan mag'lubiyatga uchragan Hojimxon Xivani tashlab, bir guruh navkarlari bilan Eronga qochdi va shoh Abbos (1587–1623) saroyidan panoh topdi. 1598-yilda Abdullaxon II vafot etganidan so'ng Hojim-xon shoh Abbosdan ruxsat olib, Xorazmga qaytdi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o'ziga olib, Xiva bilan Katni Arab Muhammadxonga, Hazorasni Isfandiyor Sultonga berdi. 1600-yil-da Hojimxon Urganch va Vazir qal'alari boshqarishini o'g'illariga topshirib, o'zi Xivada kichik o'g'li Arab Muhammadxon bilan qoldi. 1601-yilda Hojimxon 83 yoshda vafot etgach, taxtga uning o'g'li Arab Muhammadxon (1602–1621-yy.) o'tirdi.

Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toj-u taxt uchun kurashlar davom etdi. Xususan, 1605-yilda nayman urug'i vakillari Elbarsxon avlodiga mansub Xusrav Sultonni taxtga o'tkazishni rejalashtiradilar. Ammo bu fitna oshkor bo'lib, Xusrav Sulton qatl etti-riladi. Oradan ikki yil o'tgach, uyg'ur oqsoqollarining maslahati bilan Solih Sulton degan kimsa taxtga da'vogar bo'ladi, bu isyon ham bosti-rilib, Solih Sulton o'ldirildi.

1616-yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o'g'illari ham qo'shilishadi. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abulg'oz, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg'on Sulton ismli 7 nafar o'g'li bor edi. Isfandiyor Hazorasda, Abulg'oziy Sulton Katda, Habash bilan Elbars Sultonlar Vazir va Urganch hokim-lari etib tayinlangan edilar. Xon farzandlarining har biri taxtga da'vogar edi. Ayniqsa, Habash Sulton bilan Elbars Sultonlarning harakatlari kes-kin xususiyatga ega edi. Ota-bolalar o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayib, bu hol oxir-oqibatda qonli urushga aylandi. 1621-yilda Toshli arig'i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muhammadxon va uning o'g'illari Habash

¹ Xorazm hukmdorlari qarorgohini Xivaga ko'chirilishi bosqichma-bosqich amafga oshirilib, u Abulg'ozixon (1643–1663) davrida nihoyasiga yetdi.

hamda Elbars Sulton qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Isfandiyor va Abulg'oziy Sultonlar otalari tomonida turib kurashgan bo'lsalar-da, bu jangda Arab Muhammadxon yengildi. Arab Muhammadxon ko'zlari ko'r qilinib, o'zi Xivaga jo'natildi. 1623-yilda esa Qum qal'asi yaqinida Arab Muhammadxon xotinlari, yosh o'g'illari va ikkita nabirasi bilan o'g'illari Habash va Elbars Sulton tomonidan o'ldirildi. Isfandiyor Eronga (garchi unga Makkaga borishga ruxsat berilgan bo'lsa-da), Abulg'oziy esa Buxoroga qochib, jon saqladilar.

1623-yilda otasining qatl ettirilganligini eshitgan Isfandiyorxon Durun shahri, Abdulxon tog'alari, turkmanlarning taka, yovmut, sariq urug'laridan qo'shin to'plab Urganchga yurish boshladi. Urganch yaqinida Isfandiyorxon va Habash – Elbars qo'shinlari o'rtasida 23 kun davom etgan jangda birlashgan aka-ukalar qo'shinlari Isfandiyor qo'shini tomonidan tor-mor etildi. Elbars qo'lga olinib, qatl etildi. Habash Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlardan najot so'radi. Ammo u bu yerdan boshpana topolmadi. Shundan so'ng u navkarlari bilan qo'lga olinib, Isfandiyorxonga topshirildi. Oxir-oqibatda ularning barchasi qatl etildi.

1623–1643-yillar davomida Xiva xonligi taxtini Isfandiyorxon boshqardi. O'zining yigirma yillik davlat boshqaruvini Isfandiyorxon turkman qabila boshliqlariga tayanib olib bordi. Xonlikning yuqori lavozimlariga turkmanlar tayinlanib, ularga katta imtiyozlar berildi. Natijada o'zbek urug'larning Isfandiyorxon siyosatiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Isfandiyorxon taxtga o'tirgan yiliyoq nayman urug'lari ni qirg'inbarot qildi. Xonlikdagi o'zbek urug'lari uch bo'lakka bo'linib, Movarounnahr yerlariga ko'chib ketishdi. Oradan ko'p o'tmasdan o'z yurtiga qaytib kelgan o'zbeklar Isfandiyorxon tomonidan qilichdan o'tkazildi.

Isfandiyorxon xonligi davrida ham Xorazmda tinchlik va osoyish-talik o'rnatilmadi. Toj-u taxt uchun kurashlar ilgari davrlardagidek davom etdi. Xonlikdagi siyosiy hokimiyatni turkmanlar qo'lga berib qo'ygan Isfandiyorxondan norozi bo'lgan kuchlar safi ortib bordi. Shuningdek, Amudaryoning Orolga qo'yilish joyida (Orol bo'yida) istiqomat qilgan o'zbeklar (bu yerda o'zbek qo'ng'irotlari katta siyosiy mavqega ega edilar) xonlikning siyosiy hayotiga ta'siri kuchayib bordi.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, 1643-yilda Orolbo'yi o'zbeklari Abulg'ozir Sultonni (1643–1663-yy.) xon qilib ko'tardilar. Xorazm davlatchiligi tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida mashhur bo'lgan Abulg'ozixonning hayot yo'li og'ir kechgan. Abulg'ozixon otasi Arab Muhammad taxtdan ketgach, o'zi taxtga o'tirgunga qadar uzoq yillar (yigirma yildan ko'proq) muhojirlikda yashashga majbur bo'lgan edi. U dastlab Buxoro hukmdori Imomqulixon himoyasida, keyinroq esa, ikki yilga yaqin qozoq sultoni Eshimxon saroyida yashagan. Shundan so'ng u Toshkentga kelib, bu yerda ikki yil yashadi. Toshkentdan Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abulg'ozirni Isfandiyorxon bosqinchilikda ayblab hibsga oldi va Isfahon shahriga Eron shohi huzuriga badarg'a qildi. Isfahon yaqinidagi Taborak qal'asida o'n yil asirlikda yashagan Abulg'ozir 1639-yilda o'z nazoratchilari yordamida bandilikdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng u bir yilga yaqin Xurosonning Mohin qishlog'ida, ikki yilga yaqin Mang'ishloq turkmanlari orasida yashaydi. Keyin uni qalmiq xoni o'z o'rdasiga taklif etadi. Bu yerda Abulg'ozir bir yilga yaqin yashagach, qalmiq xoni to'plab bergan katta kuch bilan 1643-yilda Urganchga qaytib, Orolbo'yi o'zbeklari yordamida Xiva taxtiga o'tiradi.

Bu borada akademik B.Ahmedov yozganidek, «Abulg'ozir hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzur-halovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush-talashlarda o'tdi». Manbalariga ko'ra, Abulg'ozixon haqiqatan ham butun umrini taxt uchun kurash va jang-u jadallarga bag'ishlagan hukmdor bo'lgan. Ammo u davlat arbobi sifatida ham qobiliyatli shaxs edi. Abulg'ozixon dastavval xonlikda markazlashgan boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tibor qaratdi. Bu jarayonda u avvalo turkman yo'l boshchilarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi. Ularning yer-suvlari, mol-mulkklari musodara qilinib, o'zlari mamlakat ichkarisiga surgun qilindi.

Xonlikdagi barcha lavozimlarga o'zbek urug'larining boshliqlari qo'yildi. Xiva tarixchisi Munisning ma'lumot berishicha, Abulg'ozixon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning boshqaruv tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruv tizimida o'zbek urug'larining mavqeyi ortib bordi hamda ularning 360 nafar vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarildi. Xon yangi amaldorlar orasidan eng obro'li 32 nafarini o'z yoniga oldi. Munis ta'biri bilan aytganda, «Andoqkim

ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqib, to'rt otaliq, to'rt inoq, to'rt mirob, to'rt parvonachi, ikki oqo, ikki arbob, to'rt chig'atoyi inoqi va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi, bu ikkovi o'rinsiz xon huzurida oyoq ustida turadilar».

Abulg'ozixon o'zbek qabilalarini o'troqlashtirish siyosatini olib borish bilan birga, ularni to'rtta guruhga bo'lib, Buxoro bilan chegaradosh bo'lgan Doyaxotun (Darg'onota yaqinida) dan tortib, to Orol-gacha bo'lgan hududlarga joylashtirdi. Shuningdek, Abulg'ozixon 1645–1650-yillarda Xuroson, Janubiy Turkmaniston, Tajan, Murg'ob, Atrek, Gurlan, Abulxon va Mang'ishloq atrofidagi turkmanlar ustiga ham qator yurishlarni uyushtirdi, xonlik sarhadlarini kengaytirishga harakat qildi. Xonning topshirig'i bilan Vazir qal'asi aholisi Gurlan qal'asi yaqinida tiklangan Kichik Vazir qishlog'iga ko'chirildi. 1646-yilda Abulg'ozixonning buyrug'iga binoan Urgancharna arig'i qaziladi va uning yaqinida yangi qal'a bunyod etilib, bu qal'aga Yangi Urganch deb nom berildi. Bu yerga Ko'hna Urganch aholisining bir qismi ko'chirib keltiriladi. 1648-yilda G'ozibod kanali qazilib, uning yaqinda chegara istehkomi quriladi.

Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullangan Abulg'ozixon tarixchi, tabib sifatida ham ijodiy meros qoldirgan. Taxminan 1657-yilda Abdulg'ozir tabobatga oid «Manafi' ul-inson» («Insonga foydali narsalar») nomli asarini yozgan bo'lsa, 1658–1664-yillarda «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» kabi tarixiy asarlarini yaratdi.

Abulg'ozixon hali o'zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o'g'li Anushaxonga (1663–1686) topshirdi va oradan olti oy o'tib, vafot etadi. Anushaxon Xiva xonligi mavqeyi va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyushtirib, xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo'ldi. Anushaxonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga bo'lgan munosabat o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi hamda uning atroflariga ko'chib kelishiga ruxsat berdi.

Ta'kidlash joizki, Abulg'ozixon, so'ngra uning o'g'li Anushaxonlar davrida markaziy hokimiyatning nufuzi mustahkamlandi. Xon hokimiyati qudratini barcha zodagon va harbiylar, urug' boshliqlari, ruhoniylar ham tan oldilar. Mamlakatda ma'lum siyosiy barqarorlikning yuzaga ke-

lishi iqtisodiy hayotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur hol sug'orish tarmoqlarini tiklash, poytaxtni to'laqonli ravishda yangi Urganchga ko'chirish, Shohobod, Yormish, G'ozibod va boshqa kanallarning qurilishida o'z aksini topdi. Bu esa, o'z navbatida dehqonchilik, ekinlarni yetishtirishda ham katta ahamiyat kasb etdi. 1685-yili Anushaxon qisqa muddat oralig'ida Samarqandni egalladi. Shaharda xon nomiga xutba o'qilib, uning nomidan tangalar zarb etildi. Xon Xurosonga ham katta-katta yurishlarni amalga oshirdi. Natijada Xurosonning yirik shaharlaridan biri – Mashhadni ikki marotaba qo'lga olishdi.

1686-yilda saroy a'yonlari tomonidan fitna uyushtirilib, Anushaxon o'ldirildi. Fitnada qatnashgan amirlar guruhiga mang'itlardan bo'lgan Odinaqul otaliq boshchilik qildi. Bunda Buxoroning ashtarxoniy hukmdori Subhonqulixonning ham qo'li bor edi, degan taxminlar haqiqatga yaqin. Taxtga esa uning o'g'li Xudoydod (1687–1688-yy.) o'tkaziladi. Yangi hukmdorning xonlik faoliyati uzoq davom etmadi. Ogahiy xabarlariga ko'ra, siyosatda bilimdon va xalqqa adolatli xon sifatida obro' orttira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon¹ shahid etdi. Ammo Arangxonning (1689–1690-yy.) hukmronligi ham uzoq davom etmadi. 1690-yilda u Orol o'zbeklari bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.

Arangxon vafotidan so'ng Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o'z odami Shohniyozni (1690–1707-yy.) o'tkazib, amalda Xiva xonligini Buxoroga qaram davlatga aylantirdi. Shuning uchun ham Shohniyoz garchi o'zini xon deb e'lon qilgan bo'lsa-da, o'z faoliyati davomida Buxoro xonligi ta'siridan qutula olmadi. XVII asrning oxiri – XVIII asrning boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik, taxt uchun kurashlar va mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilish harakatlari avj olib ketdi. Viloyatlar hokimlari xonga itoat etmay qo'yganliklari bois Xiva xoni saroy amaldorlari va mahalliy hukmdorlar qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylanib qolgan edi. Xonlik tarkibidagi Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va Shovot qal'alarining markaziy hokimiyatga tobeligi rasmiy ko'rinishga ega edi.

Shohniyoz Buxoro ta'siridan qutulish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida 1700-yilda Rossiya hukmdori Pyotr I ga maktub yo'llaydi. Bu maktubda Xiva xonligini Rossiyaga qo'shib olish

¹ Ayrim adabiyotlarda Ernakxon yoki Erangxon deb ham beriladi.

so'ralgan edi. Pyotr I ning Xivani Rossiya tarkibiga qo'shilganligi haqidagi yorlig'i topshirildi. Ammo Xivada siyosiy kurashlar avj olib turgan sharoitda ushbu yorliq hech kimning e'tiborini tortmadi. Umuman, Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Arangxon davridan to Sherg'ozixon davriga qadar Xivada o'nlab hukmdorlar almashganlar¹.

Sherg'ozixon (1715–1728-yy.)ning hukmronligi davri siyosiy voqealarga boy bo'ldi. Uning hukmronligi davri o'zbek, turkman, qoraqalpoq zodagonlarining o'zboshimchalik harakatlariga qarshi kurash bilan o'tdi. Bu paytga kelib, Orolbo'yi o'zbeklari orasida ham siyosiy vaziyat keskinlashib ketgan edi. Buning asosiy sababi – Orolbo'yida yashayotgan o'zbeklarning qo'ng'iroq, mang'it, xo'jayli va qipchoq urug'iga mansub aholisining mustaqillik uchun kurashlari edi. Bu kurashlarga boshchilik qilgan, mang'it biylaridan bo'lgan Sheralibiy Xiva xonligiga itoat etishdan bosh tortib, Orolbo'yini mustaqil hokimlik deb e'lon qildi. Sherg'ozixon bu yerdagi harakatlarni bostirishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu ishning butunlay uddasidan chiqqan olmadi.

XVIII asrning boshlariga kelib Rossiya hukumatining Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralari O'rta Osiyo, jumladan Xiva xonligini ham bosib olishni rejalashtira boshlashgan edi. Rossiya imperatori Pyotr I ning 1717-yilda Xivaga uyushtirgan Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo Sherg'ozixonning hiyla ishlatishi natijasida 6 ming kishidan iborat bu ekspeditsiya bir kechada qirib tashlandi. Shunga qaramasdan to O'rta Osiyo bosib olinmagunicha Rossiya imperiyasining bunday harakatlari davom etdi.

O'zaro ichki kurashlar, shahzodalarning o'zaro mojarolari, ko'plab yig'iladigan soliqlar xonlikdagi iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib yubordi. 1728-yil Xivada xonga qarshi fors qullaridan iborat qo'riqchilar guruhli fitna uyushtirdi. Oqibatda Sherg'ozixon va uning yaqin mulozimlari o'ldirildi.

Sherg'ozixon o'limidan keyin taxtga o'tirgan qozoq sultoni Elbarsxon (1728–1740) davrida ichki kurashlar davom etib, qo'shni hudud-

¹ Ba'zi ma'lumotlarda 13 ta xon almashgan deyiladi.

larga ko'plab talonchilik yurishlari uyushtirilib turishi natijasida Xiva xonligining harbiy qudrati zaiflashib bordi. Bu vaziyatdan unumli foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740-yilda Xiva xonligiga hujum boshladi. Dastavval Hazorasp yonida Xiva qo'shinlari bilan eroniylar o'rtasida qattiq jang bo'ldi. Bu jangda Xiva qo'shinlari yengilib, Hazorasp qal'asiga chekindi. Eroniylar Hazorasp qal'asini uzoq muddat qamal qilib, uni egallay olmagach, Xonqa qal'asiga hujum qildilar. Bu paytda vaziyat o'zgarib, Elbarsxonga madad berib turgan mang'it beklari Nodirshoh tomonga o'tib ketishdi. Oqibatda Elbarsxon yengildi va qo'lga olinib, Nodirshoh tomonidan qatl etildi. Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tarixi Rahimxoniy» asarida xorazmliklar o'z vatanlarini jon-jahdlari bilan himoya qilganliklari qayd etiladi.

Elbarsxonning mag'lubiyatidan so'ng, Abulxayrxon sulh tuzish uchun Nodirshohga noma yuborib, undan rad javobini oldi. Oradan qisqa vaqt o'tib, Nodirshoh Xivaga ikkinchi marta yurish qildi va uni egalladi. Avval Tohirxon (1740–1741) shohning vakili sifatida xon etib ko'tarildi. Abulxayrxon esa qozoq dashtlariga qochib ketdi. Bu yerga Nodirshoh mang'it beklaridan bo'lgan Ortiqbek va Xurodbeklarni noib etib tayinladi. Ammo Orolbo'yi o'zbeklari Nodirshohga itoat etishdan bosh tortdilar. Abulxayrxonning o'g'li Nuralini o'zlariga xon qilib ko'tardilar. 1741-yilda Xivada eroniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, Nodirshohning noiblari o'ldirildi, askarlari ham qirib tashlandi. Xivaga Nuralixon xon qilib o'tkazildi. Ammo Nuralixonning xon sifatida siyosiy ta'siri deyarli yo'q darajada edi.

1741-yilda Nodirshoh o'g'li Nasrullo boshchiligida yana Xivaga yurish qilib, Nuralixon va uning tarafdorlarini Xivadan haydab yubordi. Taxtga esa Elbarsxonning o'g'li Abulg'ozii II (1741–1745)ni xon qilib o'tkazdi. Ammo uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi. 1746-yilda Xivada mang'it inoqlari tomonidan uyushtirilgan fitnada Abulg'ozii II o'ldirildi. Shundan so'ng, Nodirshohning roziligi bilan 1747-yilda qozoq sultoni Abulxayrning ukasi G'oibxon (1747–1757) taxtga o'tkazildi. Manbalarda G'oibxonning zolim hukmdor bo'lganligi eslatiladi. U Xiva taxtiga o'tirgach, avvalo, hokimiyatini inoqlar ta'siridan xalos qilish maqsadida mang'it inoqlaridan bo'lgan Hurozbekni tarafdorlari bilan qatl ettirdi. Davlatdagi yirik mansablar esa qozoq beklari bo'lib berildi. G'oibxon aholiga nisbatan jabr-zulmni kuchayti-

rib, 1756-yilda Xiva aholisidan 40 ming tanga qo'shimcha soliq yig'ib oldi. Bu esa Xivada xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. G'oibxon taxtni tashlab, qozoq dashtlariga qochib ketdi. Hokimiyatni esa qisqa muddat uning ukasi Abdullaxon egalladi.

Xivadagi ichki nizolardan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy Xivani o'z ta'siriga o'tkazish harakatini boshladi. Shu maqsadda o'z odami Temur G'ozixonni (1757–1762) Xiva taxtiga o'tkazdi. Temur G'ozixon ham Xivada yetarli darajada siyosiy barqarorlik o'rnatgan bo'lsa-da, uning hukmronligi davridan boshlab xonlikda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan inoqlarning mavqeyi ortib bordi. Temur G'ozixon bir necha yil hukmronlik qilib, 1762-yili saroy fitnasi natijasida o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng Xivadagi xonlik hokimiyati qozoq sultoni Tavkaxon (1762–1764) qo'liga o'tdi. Biroq oradan ko'p o'tmasdan u ham taxtdan mahrum bo'ldi. «Firdavs ul-iqbol» asarining ma'lumot berishicha, u «o'z xohishi bilan xonlik lavozimidan ozod qilingan» edi. Shundan keyin xonlikdagi siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi.

XVIII asr 60-yillari o'rtalariga kelib turkmanlarning yovmut qabilasi ta'siri ortib borib, xonlik hokimiyati amalda ularning qo'liga o'tdi. Yovmutlar turkmanlarning boshqa qabilalari (salira, chovdur, taka) ichida katta mavqega ega bo'lib, markaziy hokimiyatning o'ta susayishi ularning butun xonlik bo'yicha o'z ta'sirlarini o'tkazishlariga sabab bo'ldi. Masalan, 1767–1770-yillarda ular butun xonlikdagi hokimiyatni o'z qo'llariga olgan edilar. 1770-yili yovmut turkmanlari Xiva, Hazorasp, Xonqa va boshqa yerlarni egallab, bu yerlarda turli xunrezliklarni uyushtirdilar.

Ular «qo'g'irchoq» xon bo'lmish Bo'lagayni taxtdan ag'darib, taxtga o'z vakillari Jahongir Sultonni o'tkazdilar. O'zaro nizo va parokandalik, siyosiy hayotning barqarorligi, turkman yovmutlarining talonchiligi, doimiy urushlar xonlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta zarar yetkazdi. XIX asr tarixchisi Munis bu davrda dahshatli ocharchilik boshlangani, odamlar o'z uy-joylarini tashlab Orolbo'yi va Buxoro tomonga ko'chib keta boshlaganliklari, shahar va qishloqlar huvillab, Xivaning o'zida bor-yo'g'i 40 tagina oila qolganligini afsus-nadomat ila ta'kidlagan edi.

6.2. Xiva qo'ng'irotlari sulolasining siyosiy tarixi

Qo'ng'iro't qabilalari mavqeyining ko'tarilishi aslida XVIII asr ikkinchi yarmi Anushaxon (1663–1685) hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Uning davrida qo'ng'iro'tlardan bo'lgan O'mboy Inoq inoq maqomini olib, xonlikdagi eng nufuzli amaldorlardan biriga aylangan edi. Qo'ng'iro'tlarning yana bir vakili Eshmuhammadbiy Sherg'ozixon va Elbarsxonlar davrida xonlikning eng nufuzli siyosatdonlaridan biri darajasiga chiqqandi. Eron shohi Nodirshohning Xorazmga yurishlari vaqtida Eshmuhammadbiy ham xonning eng yaqin 20 ta kishisi qatorida qatl etildi. Bu voqea qo'ng'iro'tlar mavqeyiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

Eshmuhammadbiyning o'g'li Muhammad Amin otasining o'limidan so'ng saroydagi yana bir yuqori mavqega ega Do'st Muhammad Arbob qo'lida tarbiya topdi. U zukko siyosatchi va zehnli arbob sifatida voyaga yetdi. O'z davrining ko'plab nufuzli oilalari, qabila boshliqlari, zodagonlari bilan mustahkam aloqa bog'ladi. Bu esa keyinchalik uning hokimiyat pog'onasida faoliyat ko'rsatishida ijobiy rol o'ynadi.

Muhammad Amin 1763-yili inoq lavozimiga tayinlandi. Shu yildan boshlab markaziy hokimiyatni mustahkamlash, qo'ng'iro't urug'i-ning mavqeyini ko'tarish jarayoni boshlandi. Qo'ng'iro'tlar sulolasi boshlig'i Muhammad Amin inoq (1763–1790) Xivada hokimiyatni qo'lga olgach, saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o'ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. U shu yo'l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma'muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, ayrim mustaqil beklarni o'ziga itoat ettirdi.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o'z hokimiyatini ancha mustahkamlagan Muhammad Amin inoq 1770-yilda turkmanlar hujumini, 1782-yilda buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli ravishda qaytardi. Uning hukmronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma'lum chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukmdorlarning o'zaro nizolari va kurashlariga chek qo'yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o'g'li Avaz inoq (1790–1804) otasining ishlarini davom ettirgan bo'lsa, Avazning o'g'li Elto'zar inoq 1804-yil-

da Xiva taxtiga o'tirib, soxta xon Abulg'azi V ni haydab yubordi va o'zini rasman xon (1804–1806) deb e'lon qildi. Shu tariqa Xivada qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi rasman qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo uning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1806-yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi.

Muhammad Rahimxon I (1806–1825) markazlashtirish siyosatiga katta e'tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazdi. Xiva tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qat'iylik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma'muriy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o'tkazildi.

Dushmanlari, ayirmachi kuchlarga nisbatan beshafqat munosabatda bo'lgan Muhammad Rahimxon I o'z atrofiga o'zbek, turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning nufuzli vakillarini to'plab, ularga qator amallar va unvonlar berdi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash (Devon) ta'sis etildi. Ruhoniylarga ham alohida e'tibor berilib, shayxulislom Kengashning a'zosi va xonning eng yaqin maslahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining xalq orasidagi mavqeyini hisobga olib sayidlardan bo'lgan Sayid Pirmuhammad Xo'janing qiziga uylangani ham tarixdan ma'lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti nisbatan jonlanganligi haqida ham ma'lumotlar talaygina. Uning davrida maxsus islohotlar o'tkazilib, soliqlar tartibga solindi. Bojxona tizimi tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo'ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harbiy harakatlarni olib bordi. Qiyinchilik bilan bo'lsa-da, 1811-yilda Orol-Qo'ng'irot yerlari tobe ettirildi. 1812–1813-yillarda Sirdaryo bo'yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga ketma-ket qo'shin yuborilib, ular Xiva xoniga bo'ysundirildi. Shundan so'ng xonlik hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish harakati boshlandi. Ammo bu masalada Xiva bilan Buxoro o'rtasida kurash boshlanib ketdi. 1817-yilgi Chorjo'y qal'asi yaqinidagi birinchi to'qnashuvda

Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shunga qaramasdan Muhammad Rahimxon I Buxoro hududlariga 1820, 1823, 1824-yillarda qator talonchilik urushlarini amalga oshirib turdi. Muhammad Rahimxon I Marv vohasini egallab, Murg'ob vohasidagi suv to'g'onini tiklashga qaror qildi.

Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammad Rahimxondan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon (1825–1842) va nevarasi Rahimqulixon (1842–1845) davrida ham davom etdi. Olloqulixon otasining davlat hududini kengaytirish va uni mustahkamlash siyosatini davom ettirgan holda o'z hukmronligi davrida Buxoro amirligiga 7 marotaba, Xurosonga 5 marotaba yurishlarni amalga oshirdi. Xonning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari ham silliq kechmadi. Xon imperiyaning uning manfaatlariga javob beruvchi talab va takliflarini rad qildi. Bu shartlarni zo'ravonlik bilan amalga oshirmoqchi bo'lgan Orenburg general-gubernatori V. Perovskiy boshchiligidagi 5 ming kishilik harbiy otryad 1839-yilning kech kuzi va qishida muvaffaqiyatsizlikka uchrab, orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Rossiya hukumati tomonidan 1841-yili yuborilgan kapitan Nikiforov, 1842-yilgi kapitan Danilevskiy elchilik missiyalari ham tegishli natija bermadi.

Olloqulixon davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot bobida ham qator ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Bir qancha suv inshootlari, kanallar barpo etildi, qurilish, bunyodkorlik ishlariga yo'l ochildi, savdo-iqtisodiy munosabatlar rivoj topdi. Olloqulixon 1842-yilda vafot etgach, taxtga uning o'g'li Rahimqulixon o'tirdi. Taxtni egallagan yangi xon ham Janubiy Turkmaniston yerlariga hujum boshladi. U shuningdek, Hazoraspni ham qamal qildi. Ammo mag'lubiyatga uchrab, orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Bu orada Rahmonqulixon Chorjo'yni qamal qilib, uning atrofidagi qishloqlarni taladi. Rahimqulixon Xuroson uchun bo'lgan janglarning birida halok bo'lgach, taxtga uning ukasi Muhammad Aminxon (1845–1855) o'tirdi.

Muhammad Aminxon hukmronligi davrida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukm surmay, xonga qarshi isyonlar davom etdi. Ayniqsa, Marv va Saraxs shaharlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar hokimiyatni larzaga keltirdi. Qo'zg'olonchilar Xiva xoniga bo'ysunishdan bosh tortib, xon amaldorlari va soliq yig'uvchilarni tutib, qatl qildilar. Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Aminxon

Marv va Saraxs uchun o'n marotaba yurish qilgan. Faqatgina 1854-yilda Marv qo'zg'oloni qiyinchilik bilan bostirildi. 1855-yili Saraxs ostonasida turkmanlar bilan Xiva lashkarlari o'rtasida bo'lgan jangda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o'n to'rt nafar shahzodalari va saroy amaldorlari fojeali tarzda halok bo'lishdi.

1855-yil Sayid Abdullaxon (besh yarim oy – 1855-yil 20-mart – 27-avgust). Xiva taxtiga o'tirdi. Ammo bir guruh saroy amaldorlari Sayid Abdullaxonni tan olmasdan, unga qarshi fitna uyushtirib, yovmut turkmanlari bilan aloqa o'rnatib, ularni isyonga chorlashdi. Yovmutlar isyon ko'tarib, G'azovot va Ilonli atroflaridagi qishloqlarni talay boshladilar. Sayid Abdullaxon Xivadagi fitnachilarni fosh qilib, uning ishtirokchilarini qatl ettirgach, isyonchilarga qarshi kurash boshladi. Dastavval, Xiva qo'shinlari bilan bo'lgan jangda yovmutlar mag'lubiyatga uchrab, dasht ichkarisiga chekingan bo'lsalar-da, avgustning oxirida yovmutlar Xiva navkarlari qarorgohiga (Ilonli yaqinida) tunda to'satdan hujum qildilar. Bu hujumda Xiva navkarlari mag'lubiyatga uchrab, Sayid Abdullaxon o'ldirildi.

Bu voqeadan keyin saroydagi vazir Muhammad Yoqub mehtar boshchiligidagi bir guruh amaldorlar Sayid Abdullaxonning o'n yetti yashar ukasi Qutlug' Murodni xon qilib ko'tarishdi, Yoqub mehtar va Ibrohim qo'shbegi davlat boshqaruvida xonning eng yaqin kishilari edi. Bu orada xonlikdagi siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. Qutlug' Murodxonga bo'ysunmagan turkman yovmutlari Ota Murodni, qozoq va qoraqalpoqlar Jorliq To'rani o'zlariga xon deb e'lon qilishdi. Qutlug' Murodxon ularning isyonlarini qiyinchilik bilan bostirdi. Ammo uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi (to'rt yarim oy). Qutlug' Murodxon o'z ukasi Niyozbek Muhammad tomonidan hiyla ishlatilib uyushtirilgan fitna (yovmut turkmanlari yordamida) natijasida o'ldirildi.

Qutlug' Murodxon o'limidan so'ng Xiva taxtiga Sayid Muhammadxon (1856–1864) xon qilib ko'tarildi. U hokimiyatga kelgan paytda xonlikda siyosiy vaziyat keskinlashgan, iqtisodiy ahvol nihoyatda og'ir bo'lib, ko'pchilik viloyatlarda ocharchilik hukm surgan, yuqumli kasalliklar tarqalgan edi. Vaziyatni to'g'ri baholay olgan Sayid Muhammadxon yuz berayotgan isyonlarni tinch yo'l bilan hal qilish, tinchlikni qaror toptirish, iqtisodiyotni tiklash choralarini ko'rdi. U avvalo Buxoro va Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini yaxshiladi. Dehqonchilik,

obodonlashtirish va qurilish sohasida qator tadbirlar o'tkazildi. Ammo xonlikdagi ichki notinchlik to'xtamadi. Xonlikda faqat o'zbek urug'larigina emas, balki yarim ko'chmanchi va chorvador aholi bo'lgan turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlar og'ir soliqlar va turli to'lov hamda majburiyatlarga tortilganligi bois xonlikning turli shahar va viloyatlarida noroziliklar, isyonlar bo'lib turdi.

Sayid Muhammadxon 1864-yil 10-sentabrda kasallanib vafot etgach, taxtga uning o'g'li Sayid Muhammad Rahimxon II (1864–1910) o'tirdi. «Soniy» va «Feruz» taxalluslari bilan ham mashhur bo'lgan ushbu hukmdor Xiva xonlari orasida eng ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligi bois ham 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan. Aynan uning davrida Rossiya imperiyasining xonlikka harbiy yurishi amalga oshirilib, Xiva xonligi 1873-yili imperiyadagi qaram davlatga aylandi.

6.3. Xiva xonligining hududi, ma'muriy tuzilishi, aholisi va davlat boshqaruvi

Xonlikning aniq chegaralari haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki, xonlik paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab siyosiy vaziyat va harbiy harakatlarga qarab davlat chegaralari doimiy ravishda o'zgarib turgan. XIX asrga kelib xonlik tarkibiga turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning qo'shilishi natijasida davlat sarhadlari ancha kengaydi. Manbalarga ko'ra, Eltuzarxon (1804–1806-yy.) davrida xonlikning hududi uncha katta bo'lmasdan, shimoliy chegarasi Orol-Qo'ng'iro't hokimligi, janubiy chegarasi esa Darg'onota bilan chegaradosh bo'lgan. XIX asr o'rtalariga oid rus manbalarida xonlikning g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha, janubda esa Marv vodiysi orqali Eronga tutashib ketganligi, shimolda esa Ural daryosigacha cho'zilganligi qayd etilgan. XVII–XVIII asr tarixiy manbalarida Orol yerlari «Orol diyori», Markaziy va Janubiy Xorazm, «Xorazm diyori» nomlari bilan yuritilgan. Shuningdek, XVII–XVIII asrlarda Xorazmning Movarounnahrda intilishi kuchayib bordi. Bu «Besh qal'a» nomini olgan shaharlar: Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobodning ta'sirini kuchaytirdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasida xonlik ikki: Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'lingan edi. Shimoliy qism o'z ichiga Ko'hna Ur-

ganch – Xo‘jayli yo‘nalishi bo‘yicha Orol dengizigacha bo‘lgan yerlarni qamrab olgandi. Uning tarkibiga Shumanay, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot va atrofdagi yerlar kirgan. Mazkur hududning katta qismi kam o‘zlashtirilgan, aholi siyrak yashaydigan dasht zonalari hisoblangan. Janubiy qism esa, o‘z ichiga Xiva va uning atroflarini, Xonqa, Hazorasp, Urganch, Kat, Qo‘shko‘pir va unga tutash yerlarni qamrab olgan. Bu qism aholi ancha zich yashaydigan, suv inshootlari, kanallar mavjud bo‘lgan, hosildor yerlarga ega hudud bo‘lgan.

Xorazm aholisining etnik qiyofasi bir xilda bo‘lmagan. Mazkur qiyofa vohada ro‘y bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita bog‘liq bo‘lgan. Aholining ma‘lum qismini Xorazmning qadimiy ziroatkor o‘troq aholisi avlodlari – xorazmliklar tashkil etib, asrlar davomida u turkiy qavmlar ta‘sirida o‘sib borgan. Shuningdek, turli davrlarda vohaga kirib, shu yerda qolib ketgan qipchoq, cho‘g‘roq va boshqalar ham shu aholiga singib borgan. Aholi turkiy qavm ta‘sirida turkiy tilni o‘z ona tillari sifatida qabul qilishgan.

XVI–XVII asrlarda Xorazm hududiga Dashti Qipchoq tomondan ko‘plab qabilalarning kirib kelishi jarayoni boshlandi. Bu qabilalarning katta qismi mahalliy aholi ta‘sirida o‘troq turmush tarzini qabul qilishgan. Munis Xorazmiyning ma‘lumotiga ko‘ra, o‘troq va ko‘chmanchi aholi orasida munosabatlarni mutanosiblashtirish va qabilalar ustidan nazoratni to‘laqonli ravishda amalga oshirish maqsadida Abulg‘ozixon ularni 4 ta guruhga bo‘ladi. Bu guruhlar to‘p nomini oladi. Dashti Qipchoqdan kelgan aholining bir qismi ko‘chmanchi hayot tarzini saqlab qolgan. Xonlikning shimoli-sharqiy chekkasida qoraqalpoqlar hayot kechirishar, mazkur qavm bu yerlarga XVIII asrda Sirdaryo bo‘ylaridan ko‘chib kelishgan. Qoraqalpoqlar XVIII–XIX asr birinchi yarmida chorvachilik, baliqchilik va qisman dehqonchilik bilan ham mashg‘ul bo‘lishgan. Dasht qismida ko‘chmanchi hayot tarzini kechirgan qozoqlar aksariyat chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Xorazmning g‘arbiy qismi va janubiy tomonlarida turkmanlar yashashgan. Turkmanlarning katta qismi yarim ko‘chmanchi hayot tarziga ega bo‘lishgan. XIX asr 2-yarmiga kelib turkmanlar o‘zbeklardan keyin soni bo‘yicha xonlikda 2-o‘rinda turishgan. Ular jami aholining 25% ni tashkil qilgan. 1819-yili xonlikda bo‘lgan Muravyov xonlik aholisining umumiy soni 300 ming atrofida bo‘lgan, deb yozgan edi.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI–XVIII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy hududlar beklik deb atalgan. Bu davrda xonlikda 16 ta beklik va 2 ta noiblik mavjud edi. Ular Hazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, Qiyot, Shobboz (Shohabboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Shumanay va Qo'ng'iro't bekliklari hamda Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iro't noibliklari bo'lgan. Ularni xon tomonidan tayinlangan beklar va noiblar boshqarishgan. Xiva shahri boshqaruvi xon va bosh vazir ixtiyorida bo'lgan. Xonlikning poytaxti turli davrlarda Vazir, Kat, Ko'hna Urganch, Xiva shaharlari hisoblangan.

Muhammadxon Rahimxon I (1806–1825-yy.) xonlikning ma'muriy boshqaruv tizimini ancha o'zgartiradi. Bekliklarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligini hisobga olib, Muhammadxon Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qiladi va manbalarga ko'ra, xonlikda avval 15 ta hamda keyinroq yana 11 ta hokimlik tashkil etadi. Bular quyidagilar edi: Hazorasp, Ostona, Urganch, Kat, Toshhovuz, Qo'shko'prik, Oqdarband, Gurlan, Ko'k qashqa, Qo'ng'iro't, Ko'hna Urganch, Ilonli, Taxta, Xonqa, Shobboz, Manog, G'ozibod, Shayx, Mang'it, Xo'jayli, Shumanay, To'rchi, Oqtepa, Qorag'on, Xitoy. Hokimliklar o'z navbatida masjid-qavmlarga bo'lingan. Manbalar xonlikda jami 1537 ta masjid-qavmlar bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Viloyat hokimlari xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan.

Shunday qilib, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi.

Xiva xonligining o'troq dehqonchilik vohalarida asosan o'zbeklar yashab, ular davlatdagi aholining ko'pchiligini tashkil etishgan. Xonlikda shuningdek, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, oz miqdorda tojiklar, yahudiylar, hindlar, eroniylar ham yashashgan. Xiva xonligidagi aholining umumiy soni haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Arxiv hujjatlari va rus sayyohlarining ma'lumotlari bu masalaga qisman aniqlik kiritadi. Xususan, XIX asrning birinchi choragiga oid ma'lumotlarda xonlik aholisi 300 ming, shu asrning 40-yillariga oid ma'lumotlarda 300 mingga yaqin, so'nggi choragiga oid manbalarda 700 mingga yaqin deb

berilsa, arxiv manbalarini chuqur o'rgangan olim M.Yo'ldoshev XIX asr o'talarida xonlikda 800 mingga yaqin odam istiqomat qilganligi haqida ma'lumot beradi.

XIX asrning o'talariga kelib xonlikda shahar hayotining rivojlaniishi natijasida shahar aholisining soni ko'payib boradi. Xiva, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'ng'iro't, Ko'hna Urganch kabi shaharlarda rus sayyohlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2 mingdan 5 mingga xonadon yashagan. Xonlik poytaxti Xiva shahrida 21 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan.

Davlat tizimi. Mansablar va unvonlar. XVIII asrda Xivada muayyan bir sulola hukmdor emas edi. Chingiziylar sulolasiga mansub ba'zi shaxslar Xivaga chaqirilib, xonlik taxtiga ko'tarilgan bo'lsa-da, amalda hokimiyat qo'ng'iro't sulolasidan bo'lgan inoq qo'lida bo'lgan. 1804-yildan boshlab faqat Qo'ng'iro'tlar sulolasi vakillari Xivada xon bo'lishgan.

Xiva xonligida unvon va mansablarni saroy, harbiy va diniy unvon hamda va amallarga bo'lish mumkin. Bu tasnif sof nazariy bo'lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo'yicha berilmagan. O'sha vaqtda amaldor va unvon egasi ko'pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan bir mansabdan boshqa mansabga o'tib, unvonlar sohibiga aylangan. Xonlikda eng oliy unvon xon bo'lib, u ma'muriy, siyosiy va harbiy vakolatlarga ega bo'lgan.

Xiva xonligi davlat tizimida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli o'laroq, xon huzurida Oliy kengash amal qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu Oliy Kengashni Muhammad Rahimxon I «o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lgan urug' oqsoqollari kengashi o'rni ta'sis etgan edi. Bu Oliy Kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqini berdi». Kengashning vakolati chegaralangan bo'lib, maslahat beruvchi organga o'xshar, uning a'zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar bo'lishgan. Kengash majlisida boshqa amaldorlarga qaraganda ko'proq inoq, shayx ul-islom, devonbegi va yasovulboshi hal etuvchi ovozga ega bo'lgan. Kengash majlislari masalaning muhimligiga qarab, xon tomonidan chaqirilar edi. Oliy Kengash oqsoqollardan, ya'ni, ma'lum mansab va unvon egalardan, chunonchi, naqib, shayx ul-islom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo'r kabilardan

iborat edi. Shuningdek, xonning qarindosh-urug'laridan bo'lgan beklar, otaliq, inoq va biylar ham bu Kengashga kirishgan.

Bu tor doiradagi kengash garchi davlat tashkiloti sifatida rasmiylashtirilmagan bo'lsa-da, uning qarori xonning qaroridek ko'rsatilsa-da, amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma'muriy va sud hokimiyati edi. Kengash xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar bo'yicha qaror qabul qilar va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabatlariga doir muammolarni hal etardi. Garchi kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsa-da, muhokama qilingan masalalar bo'yicha qaror chiqarish avvalo xonning xohish-irodasiga bog'liq bo'lgan.

6.4. Xon saroyidagi unvon va mansablar

Unvonlar orasida eng kattasi inoq edi. Odatda inoqlar eng qudratli o'zbek urug'laridan tayinlangan hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lishgan. Inoqlar yirik amaldor, ya'ni urug' boshlig'i hisoblangan. Abulg'ozixon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga o'z yonidan to'rtta joy ajratgan. Inoqlar biy, sulton, ming-boshi kabi unvonlarni ham olishgan. XX asr boshlariga kelib inoqlar bek martabasiga tushib, oliy saroy amaldorlaridan ma'muriy mansab egalari aylanadilar.

Otaliq – urug' oqsoqoli. Inoq boshliq to'pa (guruh) ga birlashgan urug' boshlig'i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan.

Biy – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug'ning boshlig'i hisoblanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqollariga beriladigan unvon edi. XVII–XIX asrlarda biylar yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etishgan. Biy unvon avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan.

Amir ul-umaro – amirlarning amiri, Xiva xonligida XIX asrning o'rtalarida ta'sis etilgan. Sayid Muhammadxon bu unvonni birinchi marta o'zining akasi Sayid Mahmud to'raga bergan edi. Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida amir ul-umaro uning akasi Fozilbiy edi. O'shandan keyin amir ul-umaro unvoni hech kimga berilmagan.

Qo'shbegi – Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan biri bo'lib, moliya va soliq yig'ish ishlarini bajargan. Qo'shbegining maxsus devoni hamda unga tobe etuvchi amaldorlari bo'lgan.

Mehtar – katta, ulug' degan ma'noni beradi. Mehtar saroy xizmatkorlarining boshlig'i vazifasini bajarib, xonga yaqin kishilardan va xon urug'iga mansub a'yonlardan tayinlangan. Mehtarining ham o'z devoni bo'lib, yer solig'i «solg'ut» to'plash ham uning xizmatiga kirgan.

Beklarbegi – qoraqalpoq va ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Beklarbegining vazifasi ularning o'z urug'laridan yig'iladigan xarajatlarning to'g'riligini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Bu lavozimga amaldorlar odatda xonning qarindosh-urug'laridan tayinlangan.

Bek – XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida beklar ancha katta rol o'ynashgan. Bek – xon va davlat arboblarning qarindoshlariga, farzandlariga beriladigan faxriy unvondir.

Parvonachi – xon saroyidagi oliy vazirlardan biri. Parvonachi saroyning ichki va tashqi ishlarida ham faol qatnashishi mumkin bo'lgan. U arz-u shikoyatlarni xonning huzuriga olib kirib, javobini qaytargan. Shuningdek, parvonachi xonning farmonlarini saroy a'yonlariga yetkazib turgan.

Eshikog'osi – saroy darvozalarini qo'riqlash ishlarini boshqargan. Oybolta uning mansab alomati bo'lgan. Hukmdor saroyda bo'lgan vaqtda eshikog'osi uni qo'riqlash bilan shug'ullangan. Eshikog'osi arzo'ylarning nima xususda kelganlarini surishtirib, ularni saroydagi tegishli amaldorlar tomoniga jo'natar edi. Faqat juda muhim xabarlar bilan kelgan kishilargina xon huzuriga kiritilgan.

Saroyda darvoza ortida turadigan qorovullar va maxsus darvoza qo'riqchilaridan tashqari, xonni qo'riqlaydigan tunqator yoki tunotalar, ya'ni kechasi bilan xonni qo'riqlab chiqadigan xizmatchilar ham bo'lgan.

Mahram – ishonchli xizmatkor, sidqidildan xizmat qiluvchi saroy ichkarisidagi xodim ma'nolarini anglatadi. Mahramlar xonga yaqin kishilar hisoblangan. Davlat boshqaruvida ular bevosita xonning maslahatchilari bo'lishgan. Mahramlar xonning oromxonasiga kirish huquqiga ega edi.

Xiva xoni saroyida yana quyidagi unvon, mansab va vazifalar mavjud bo'lgan: oftobachi, buxchabardor, soatbardor, kitobdor, mo'zabardor (xon poyabzalini beruvchi), sharbatdor, mahram boshi (yuqori lavozim hisoblangan), to'shakchi, karnaychi, surnaychi, jarchi, oshmehtar (xon va saroy oshxonasi boshlig'i), sorbon (tuyachilar), kamon xalfa (ovchi, qushchi), merganlar, sayis (ot boquvchi), ko'mirchi, kuchanchi (egarjabduqchi), tamakisoz, loykash, kulol, xodimchi, ro'molchi, selobchi (jom ushlab turuvchi), poyaki (chilimchi), aravachi, noschi, qilichkor (qilich va shamshir yasovchi), oshpaz, tovoqchi, darakchi (otchopar), jirchi (ashulachi), yo'nuvchi (duradgor), devon (mirza), mushrif (ozuqa yig'uvchi), bojbon (zakotchi) va boshqalar. Ularning barchasi saroy xazinasiidan maosh olganliklari haqida ma'lumotlar bor. Saroydagi umumiy tartibni arbob nazorat qilgan.

Xonlikdagi harbiy unvonlar va mansablar. Davlatdagi eng oliy harbiy amaldor xonning o'zi edi. Ko'p hollarda shaxsan xon boshchiligida, ayrim hollarda taniqli sarkardalar boshchiligida boshqa hududlarga yurishlar uyushtirilgan. Eng yuqori harbiy-ma'muriy lavozim amir ul-umaro edi. Undan keyingi rasmiy ravishda yuqori sarkarda yasovulboshilik mansabi edi. Xonlikda ular ikki kishi bo'lib, biri yovmud turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdirlarga qo'mondonlik qilar edi. Xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi. Lekin ular xon huzurida bo'ladigan tor doiradagi kengashda mehtar, qo'shbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, shotirlar, eshikog'olari itoat etishgan.

Yasovulboshidan keyingi harbiy unvon mingboshi edi. Harbiy yurishlar paytida mingboshilarga katta ma'suliyat yuklangan. Ya'ni, ular qo'shinni aytilgan yerga to'plashi, ularning tayyorgarlik darajasini nazorat qilishi, jang paytida qo'shinning ma'lum guruhiga yo'lboshchilik qilishi lozim bo'lgan. Shuning uchun ham arxiv hujjatlariga ko'ra, mingboshilar yaxshi in'omlar olishgan.

Xiva xonligida harbiy istehkomlar – qal'alar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular ma'muriy-mudofaaviy vazifani bajargan. Bunday qal'alar qutvol (qal'abon) qo'lida edi.

Xiva qo'shinlarida sarkardalar muhim ahamiyatga ega bo'lishgan. Sarkardalar bir necha yuzdan bir necha minggacha bo'lgan navkarga

boshchilik qilishgan. Yurishlar paytida sarkarda boshchiligida tug' (bayroq) ko'tarib borilgan. Bayroq ko'tarib boruvchilarga tug'begi boshchilik qilgan. Qo'shinda yuzboshi, panjshohboshi (ellikboshi), dahboshi (o'nbooshi), qorovul, mahram, navkar kabi vazifalar bo'lgan.

Navkarlar soliqlar va turli majburiyatlardan ozod qilinganliklari bois katta yer egalarini qattiq himoya qilishgan. Xiva qo'shinida dehqonlardan olinadigan navkarlardan tashqari, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa ko'chmanchi xalqlar askarlari ham bo'lib, ular xonga majburiy ravishda ma'lum miqdorda askarlar berishgan.

Xonlikdagi diniy hamda qozixona unvonlari. Xivada davlatni boshqarish bo'yicha islom dini mafkuraviy asosni tashkil etgan. Qonunlar shariat tartib va yo'riqlari asosida amal qilgan. Shayx ul-islom – xonlikdagi eng yuqori martabali kishi edi. U diniy marosimlarning aniq bajarilishi ustidan nazorat qilgan. Marosimlar paytida shayx ul-islom xonning o'ng tomonida o'tirish huquqiga ega bo'lgan.

Qozi ul-quzot (qozi kalon) – musulmon huquqi va qonunlar bajarilishini shariat asosida nazorat qilgan. Qozi kalon poytaxtda o'z devoni va mahkamasiga ega edi. Viloyat markazlarida ham viloyat qozisi bo'lgan. Ular mahkamalarining nomi Dor ul-qazo deb atalgan. Lashkarlardagi qonun-qoidalar ketidan qozi askar (askar qozisi) nazorat qilib, sha'riy masalalarni hal etib turgan.

Muftiy – qozilarning huquqshunoslari hisoblangan. Ular biror ish ko'rilayotgan paytda ishtirok etishlari, hukmona tuzishlari va hukmlarning to'g'riligini tasdiqlash uchun hujjatlarga muhrlarini bosishlari lozim edi. Xivada bosh muftiy yettita bo'lib, barcha muftiylarning xon yonida o'rni bor edi. Lashkarda o'zining muftiy lashkari xizmat qilgan.

A'lam – muftiylarning boshlig'i hisoblangan. Uning vazifasi fatvalarda keltiriladigan shariat rivoyatlarini tekshirishdan iborat bo'lib, ayrim rivoyatlarning asl nusxasiga mosligini aniqlagach, a'lam unga o'z muhrini bosgan.

Raislar – shariat tartib-qoidalari, diniy marosimlar – ro'za, besh vaqt namoz, tahorat, xayri-ehson ishlarining aniq bajarilishi ustidan nazorat qilgan. Ota-onalar bolalarini o'z vaqtida maktabga yuborishi, bozorlarda sotuvchilar xaridorlarni aldamasligi, tarozilarni tekshirib turish ham raisning vazifasi bo'lgan. Har bir shahar va katta qishloqning o'z raisi bo'lib, qozi kalon taqdimiga muvofiq xon tomonidan tayinlangan.

Mutavalli – diniy muassasalarda xayr-ehson mablag‘lari va xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik noziri. Mutavallining vazifasi vaqf mulki, undan foydalanish va keladigan daromadni nazorat qilish, uni taqsimlash, ijaraga berish, oxun va mudarrislariga maosh to‘lash kabilardan iborat edi.

Mudarris – madrasa o‘qituvchisi, muayyan ilohiyot fanidan dars bergan.

Oxun, oxund – va‘zxon, notiq, din targ‘ibotchisi. Mudarris va oxunlar o‘zlari ta‘lim bergan madrasaning vaqfidan maosh olib turishgan. Shuningdek, madrasa ularga hujra ham bergan.

Xiva xonligining davlat tuzilishi o‘zining mukammalligi jihatidan o‘z davrining ba‘zi bir G‘arbiy Yevropa davlatlari tuzilishi darajasida bo‘lmasa-da, biroq ma‘lum idora qilish tizimi mavjud bo‘lib, yetarli darajada tartibli edi. Shunga binoan, yuqorida eslatilganidek, davlat mansablari saroy-ma‘muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo‘linar edi. Bu vazifalarni bajaruvchilarga davlat xazinasidan tegishli maosh va mukofotlar berilgan. Sanab o‘tilgan turli-tuman amaldorlar va xizmatkorlarning mavjudligi Xiva xonligida katta boshqaruv apparati bo‘lganligi, mukammal boshqaruv siyosati yuritilganligini tasdiqlaydi.

6.5. Yer egaligi. Dehqonchilik va chorvachilik

Butun O‘rta Osiyo hududida bo‘lgani kabi Xiva xonligida ham yer egaligining quyidagi shakllari hukmronlik qilgan: davlatga qarashli yerlar yoki podsholik yerlari; xususiy shaxslarga qarashli yerlar; diniy muassasalarga qarashli yerlar yoki vaqf yerlari.

Podsholik yerlari bevosita davlatga, xonga tegishli bo‘lib, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tgan. Davlat yerlariga doimiy sug‘oriladigan ekinbop yerlardan tashqari tashlandiq yerlar, qumlik, adirlar va yaylovlar, ko‘l va to‘qayzorlar ham kirgan. Davlat yerlari bosib olingan hududlar, isyonkor mulkdorlarning musodara qilingan yerlari, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi hisobiga ham kengayib borgan. Davlat yerlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachi dehqonlarga, bevatan (yersizlar)larga foydalanish uchun bo‘lib berilgan.

Bunday yerlardan davlatga olingan hosilning 40–50 foizigacha mahsulot yoki pul ko‘rinishida soliq undirilgan. Davlat yerlari xonlik

xazinasining asosiy manbai hisoblangan. Xon o'ziga xolis xizmat qilgan amaldorlarga, yaqin qarindoshlariga, sodiq xizmat qilgan navkarlarga va dindorlarga davlat yerlaridan in'om qilib bergan. Bunday yerlar soliqlardan ozod etilgan.

Xususiy (mulk) yerlar xonning shaxsan o'ziga, uning yaqin qarindoshlariga, yirik boylarga, saroy amaldorlariga, harbiylarga va boshqa zodagonlarga tegishli yerlar bo'lgan. Xonlikning suvga yaqin bo'lgan o'troq markaziy tumanlaridagi unumdor va serhosil yerlarning asosiy qismi mulkdorlar qo'lida edi. XIX asrning birinchi yarmiga oid ma'lumotlarga ko'ra, mulk egalari tegishli yerlar xonlikdagi barcha sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'prog'ini tashkil etgan. Manbalarining ma'lumot berishicha, ayrim mulkdorlar ixtiyorida ikki-uch ming tanobdan o'nlab ming tanobgacha yer bo'lgan. Misol uchun, Pitnak, Hazorasp va Sho'roxon shaharlari hamda ularga tutash bo'lgan qishloqlar amir ul-umaroga tegishli edi. Muhammadaminxon o'g'li Abdulla to'raga 20 ming tanobdan ortiq yerni in'om qilgan va hokazo.

Vaqf yerlariga diniy muassasalar, masjid, madrasa, qabriston, xonaqolarga qarashli yer-mulklar kirgan. Bu mulklar diniy muassasalarga xon, amaldorlar va ayrim shaxslar tomonidan vaqf qilib berilgan. Bunday yerlardan kelgan daromad diniy muassasalar ehtiyoji uchun sarf etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr o'rtalarida xonlikdagi vaqf mulkining umumiy hajmi 170–175 ming tanobni tashkil etgan.

Xiva xonligidagi kam yerli va umuman yersiz, ot-ulovsiz dehqonlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib, ular davlat, mulk hamda vaqf yerlarida ijaraga ishlashgan. Ijaradorlar ijaraga olgan yer miqdoriga qarab davlatga soliq to'lashgan. Ular kimning yerida xizmat qilishlariga qarab bevatan, koranda va vaqfkor degan qatlamlarga bo'lingan. Davlat yerlarini ijaraga olgan yersiz va kamquvvat dehqonlar bevatanlar, mulk yerlaridagi ijarakorlar koranda, vaqf yerlari ijarakorlari esa vaqfkor deb atalgan.

Dehqonchilik va chorvachilik Xiva xonligi iqtisodiy hayotining asoslaridan hisoblangan. Dehqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin egallagan. Ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida suv manbalarining yetarli bo'lishiga qaramasdan, dehqonchilik taraqqiyoti qo'shni Buxoro xonligidagidek yuksak darajada rivoj topmagan edi.

Xonlikda donli ekinlardan bug'doy yetishtirish nisbatan keng rivojlangan bo'lib, bug'doy Pitmakdan Shohabbozgacha bo'lgan hududlarda, ayniqsa ko'p ekilgan. Sug'oriladigan yerlarga bug'doyning saranchi navi ko'p yetishtirilgan. Bug'doy yig'ib olingan dalalarga qovun, tarvuz, mosh, jo'xori kabi ekinlar ekilgan. Xonlikda ko'plab sholi ekinzorlari mavjud edi.

Paxta yetishtirish asosan Gurlan, Yangi Urganch, Xiva, Xonqa, Shohabbozda rivojlangan. Paxta chigitidan yog' olinib, tolasi mahalliy hunarmandlar ehtiyoji va tashqi bozorga chiqarilgan. Suv ko'p talab qilmaydigan (Hazorasp, Qo'ng'iro't, Toshhovuz, Ilonli, G'azovat, Mang'it va Gurlan) kunjut, no'xat, mosh, arpa va boshqa ekinlar ekilgan. Sabzavot, poliz ekinlari ko'plab yetishtirilgan. Xorazm qovunlari qo'shni hududlarda ham mashhur bo'lgan. Bog'dorchilik ham ancha taraqqiy etgan. Ammo ipakchilik kam miqdorda rivojlangan.

Xonlikning o'troq dehqonchilik tumanlarida chorvachilik yaxshi rivoj topmagan. Vohalarida yirik hayvonlar dehqonchilikda (yer haydash, hosilni yanchish, suv chiqarish va hokazo) foydalanish, go'sht va sut mahsuloti uchungina boqilgan. Xonlik aholising go'shtga bo'lgan talabini ko'chmanchi turkman va qozoq qabilalari qondirishgan. Ko'chmanchilar qo'y, yilqi, tuya yetishtirib, aholining go'sht, sut, teri, jun bilan to'la ta'minlab turgan.

Soliq siyosati. Xiva xonligida qo'shni davlatlarda bo'lgani kabi xiroj, zakot, boj, jiz'ya kabi soliqlar mavjud bo'lgan. Muhammad Rahimxon I amalga oshirgan iqtisodiy islohot tufayli xonlikdagi soliq siyosatiga o'zgartirishlar kiritiladi. Xususan, ilgari mahsulot ko'rinishida yig'ib olinadigan xiroj o'rniga pul solig'i solg'it (solg'ut) joriy etildi. Bunga ko'ra, 10 tanobdan ortiq yeri bo'lsa yiliga 3 tillo (54 tanga), 5–10 tanob yeri bo'lsa 2 tillo (36 tanga), 5 tanobgacha yeri bo'lgan dehqonlar 1 tillo (18 tanga) miqdorda soliq to'lashgan. 15 tanobgacha yerni ijaraga olgan ijarakorlar yiliga davlat xazinasiga 34 tanga, 10 tanobgacha yerni ijaraga olganlar 22,6 tanga, 5 tanobgacha yerni ijaraga olganlar 11,3 tanga miqdorda soliq to'lashgan. Ijarakor dehqonlar davlat xazinasiga soliq to'lashdan tashqari, ijaraga yer bergan xo'jayinga pul yoki mahsulot bilan haq to'lashi yoxud ishlab berishi lozim bo'lgan.

Xonlikdagi yarim o'troq va chorvador aholi ham davlat xazinasiga belgilangan miqdorda xiroj va zakot to'lashgan. XIX asr boshlaridan

boshlab ulardagi xiroj solig'i soliq kesma deb atala boshlagan. Bunga ko'ra, qoraqalpoqlar va qo'ng'irotlar ekin maydoni va hosil miqdoridan qat'i nazar, davlat xazinasiga har yili 24,5 ming kichik tillo miqdorida soliq to'lab turishgan. Qoraqalpoqlar va qozoqlardagi yersiz va otulovsiz dehqonlar, xon, uning qarindoshlari va saroy amaldorlarining shaxsiy yerlarida ijarakor bo'lsalar, hosilning har 4 yoki 5 botmoni hisobidan ikki botmon miqdorida davlat xazinasiga soliq to'laganlar.

Chorvador aholi xon xazinasiga zakot solig'i to'lagan. XIX asr boshlariga qadar bu soliq natura ko'rinishida, 40 bosh chorva hisobidan bir bosh undirilgan bo'lsa, keyingi davrlarda zakotni undirishga o'tilgan. Endilikda chorvadorlar yirik chorva uchun 40 bosh chorvadan 5 tillo, mayda chorvaning har 40 boshiga 10 abbos (10 abbos – 25 kumush tanga) miqdorida soliq to'lashgan.

Yuqoridagilardan tashqari, xonlikning barcha o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi aholisi qazuv, begor, qochuv, otlanuv, boj puli, miltiq solig'i, ulov tutuv, qo'nalg'a, chopar puli, tarozi haqi, mirobona, darvozabon, mir tuman haqi, afanak puli kabi qo'shimcha to'lov hamda majburiyatlarni ham bajarishgan. Ular orasida eng og'iri qazuv, qochuv va begor bo'lib, bu davlat qurilishi, ariqlarni va daryodagi dambalarini ta'mirlash, qal'a, saroy, shahar devorlari, yo'l va ko'priklar qurilishi hamda ta'mirlanishi uchun har yili 12 kun bepul ishlab berish majburiyati bo'lgan.

6.6. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Shaharlar

Xorazm hunarmandchiligi ixtisoslashgan bo'lishiga qaramay, yarim ko'chmanchi xo'jaliklarda uy hunarmandchiligi ustunlik qilgan. Hunarmandchilikning asosiy sohalaridan biri to'qimachilik edi. Ko'chmanchi aholining turli matolarga bo'lgan talabi va qisman tashqi bozor uchun mahsulot yetkazib beruvchi to'qimachilik sanoati rivojini taqozo etgan. Xonlikda ipak, yarim ipak va paxta matolar ishlab chiqarilgan. Matolar asosan qo'lda tayyorlangan.

Undan tashqari, xonlikda kulolchilik, misgarlik, degrezlik, temirchilik, duradgorlik kabi an'anaviy hunarmandchilik turlari ham rivojlangan. Manbalar shahar va qishloqlarda yer haydaydigan moslama tayyorlovchilar (pazachi), ot abzali tayyorlovchilar (kuchanchi), misgarlar,

zargarlar, pichoqchilar, qinchilar, bo'yoqchilar, telpakdo'zlar, qulfgarlar, juvozhilar, shamchilar, sovunchilar, novvoylar, oshpazlar kabilar maxsus kasb-hunarga ixtisoslashganliklari haqida ma'lumotlar beradi.

Xivada gilam to'qish o'zining qadimiy ahamiyatini xonlik davrida ham saqlab qoldi. Ilgarigidek, gilam to'qish bilan turkmanlar ham shug'ullanganlar. Xiva gilamlari ichki va tashqi bozorda mashhur bo'lgan. Umuman olganda, mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarilgan.

XVI asrning oxiriga kelib Amudaryo asosiy o'zanining o'zgarishi Xorazmning tashqi savdo aloqalariga ham ta'sir etdi. Xorazmning ilgarigi savdo markazlari o'z ahamiyatini yo'qota borib, Rossiya bilan savdo aloqalarida Volganing quyi oqimlari orqali o'tgan yo'llar katta ahamiyat kasb eta boshladi. Astraxanda xivalik savdogarlarga imtiyozlar berilgan bo'lib, ular rus savdo yarmarkalarida ishtirok etib turishgan. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab, ya'ni Orenburg shahriga asos solingach, Xiva savdogarlari Uralbo'yi orqali savdo-sotiqni yanada jonlantirdilar. Xivadan Rossiyaga paxta matolar, mevalar, qimmatbaho toshlar, qog'oz mahsulotlari, parcha va buyum shaklidagi ipak va yarim ipak matolar, gilamlar, tuya junidan matolar, qisman qorako'l, guruch, sayg'oq (kiyik) shoxi, kashmir matosi kabi mahsulotlar olib borilgan. Rossiyadan esa Xivaga oltin va kumush tangalar, mis, cho'yan, temir va boshqa metallar, paxta, ipak va yung matolar, bo'yoqlar, shakar, choy, billur idishlar, oshlangan teri kabi mahsulotlar keltirilgan.

Xiva xonligi savdogarlari qo'shni Buxoro va Qo'qon xonliklari shuningdek, Xitoy, Eron, Afg'oniston, Hindiston bilan ham savdo aloqalari olib borishgan. Bu davlatlarga Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar bilan birga mahalliy mahsulotlar (zargarlik buyumlari, gilamlar, otlar) ham olib borilgan. Chet davlatlardan asosan turli matolar, metall, ziravorlar, bo'yoqlar, fil suyagi, shakar (qand) kabi mahsulotlar keltirilgan.

Xiva xonligining Yangi Urganch, Kichik Vazir, Qiyot, Xonqa, Tirsak, Gurlan, Hazorasp, Qo'ng'iroq, Shohabboz kabi shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari edi. Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning birinchi yarmida Yangi Urganch himoya devorlari bilan o'rab olingan savdo markazi bo'lib, unda bir yarim mingta xonadon bo'lgan. Urganchlik savdogarlarni nafaqat Buxoro, Qo'qon va Turkiston bozorlarida, balki Astraxan, Orenburg, Nijniy Novgorod,

Moskva, Qashg'ar, Mashhad, Kobul bozorlarida ham ko'plab uchratish mumkin edi. Urganch bozorlari asosan ichki savdo mahsulotlariga mo'ljallangan bo'lsa-da, tashqi savdo uchun mahsulotlar yirik savdogarlarning uylaridagi ustaxonalarda tayyorlangan. Shaharda 300 ga yaqin savdo do'konlari bo'lgan.

XVII–XVIII asrlarda Qiyot shahri saroylari, masjid va madrasalari bilan shuhrat qozongan bo'lib, XIX asrning birinchi yarmidan o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi va 50–60 xonadondan iborat qal'aga aylanadi. Bu yerda 30 ga yaqin do'konlar bo'lib, seshanba va shanba kunlari bozor bo'lgan.

Juvarxas kanalining Amudaryodan suv oladigan joyida joylashgan Hazorasp shahri barcha qulayliklarga ega edi. Shaharda sakkizta masjid va shuncha madrasa bo'lib, 450–500 ta xonadon istiqomat qilgan hamda 400 ga yaqin savdo do'konlari mavjud bo'lgan. Hunarmandchilik mahsulotlari asosan do'konlarda va qisman uylarda tayyorlangan. Hazoraspda katta bozor dushanba va juma kunlari ishlagan.

Xonlikdagi yirik savdo-hunarmandchilik markazlaridan biri Gurlan edi. Manbalarga ko'ra, XIX asrning o'rtalarida shaharda, atrof hududlar bilan qo'shib hisoblaganda uch mingtagacha xonadon istiqomat qilgan. Shaharda ko'plab masjid va madrasalar, bog'lar, tutzorlar bo'lib, dalalardagi sholi, paxta va bug'doydan yaxshi hosil olingan.

Ma'lumki, XVII asrning boshlariga kelib Xiva butun xonlikning poytaxtiga aylangan edi. Arabmuhammadxon davrida Xivada yirik madrasa bunyod etilgan bo'lsa, Abulg'ozixon davridan boshlab shaharning siyosiy-ma'muriy va iqtisodiy mavqeyi yanada ko'tarildi. Poytaxt shahar sifatida shaharning mavqeyini mustahkamlash maqsadida XIX asrning oxirlariga qadar Xivada ko'plab masjid va madrasalar, bozorlar va karvonsaroylar, saroy va minoralar, hammomlar bunyod etildi. Manbalarga ko'ra, Xiva bozorlari haftaning deyarli barcha kunlari ishlab, raislar tomonidan boshqarilgan. Rus sayyohlari Xiva bozorlarini gavjumligi va mahsulotlarga boyligi, ajnabiy savdogarlarning ko'pligi bilan Buxoro va Qo'qon bozorlaridan qolishmasligi haqida ma'lumotlar qoldirishgan.

6.7. Madaniy hayot. Me'morchilik

Xiva xonligining siyosiy va iqtisodiy hayotida bo'lib o'tgan voqealar madaniy hayotga ta'sir etmasdan qolmadi. Shunga qaramasdan xonlikdagi madaniyat o'ziga xos yo'nalishlarda davom etdi. Madaniy, hayot ravnaqi ta'lim-tarbiya, adabiyot, tarixnavislik, me'morchilik va amaliy san'at kabilarda kuzatiladi.

Butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi, Xiva xonligida ham asosiy ilm o'chog'lari boshlang'ich maktablar va madrasalar bo'lgan. Boshlang'ich maktab, ya'ni, quyi ta'limda o'qish-yozishni o'rganib, xat-savod chiqargan o'smirlar poytaxt Xivadagi hamda Buxorodagi madrasalarda o'qib ta'lim olishgan. Manbalarga ko'ra, XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab va 130 ta madrasa bo'lgan. Faqat Xiva-ning o'zida 22 ta madrasa bo'lib, ular ichida Muhammad Rahimxon, Sherg'ozixon, Rahmonberdibiy, Olloqulixon, Xoja Mahram, Fozilbek, Davlat Qorako'z, Bekniyoz devonbegi madrasalari alohida nufuzga ega edi.

Xorazm adabiy muhitida ilg'or g'oyalarni targ'ib etgan shoirlardan biri Nurmuhammad G'arib Andalib (1710–1770) edi. Klassik poeziya-ning turli janrlarida ijod qilgan Andalibning «Said Vaqqos», «Zaynul arab», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun» kabi dostonlari mashhurdir.


Xivada ijod etgan shoirlar ichida Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) alohida o'ringa ega. Tarixchi, tarjimon va shoir bo'lgan Ogahiy-ning 1832-yilda tuzilgan «Ta'vizul oshiqon» («Oshiqlar tumori») devonidagi g'azallari ayniqsa mashhurdir. Bu davrda shuningdek, Pahlavon Ravnaq, Muhammad Niyoz Nishotiy, Muhammad Xokisor, Tabibiy, Munis, Komil Xorazmiy, Komdon, Murodiy kabi shoirlarning ijodi rivoj topdi. XVII–XVIII asrlarda «Go'ro'g'li» majmuasi dostonlari rivojlantirildi, «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sayyod va Hamro», «Sanobar», «Yusufbek va Ahmadbek», «Bahrom va Dilorom» kabi dostonlarning folklor va xalq og'zaki ijodidagi ko'rinishlari taraqqiy etdi.

Bu davrda tarixnavislikdagi ilgorigi an'analar saqlanib qoldi. Tarixiy asarlar orasida Abulg'ozining «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» o'zbek tilida bitilgan muhim tarixiy asarlar hisoblanadi. Tarixna-

vislik an'analarini keyinchalik Munis, Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy kabi tarixnavislar davom ettirishdi.

XIX asr boshlarida Muhammad Rahimxonning buyrug'i bilan Shermuhammad Munis (1778–1829) «Firdavs ul-iqbol» («Baxt-u saodat jannati») asarini yaratdi. Xiva xonligining XVIII–XIX asrlar tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi bu asarni keyinroq Olloqulixon topshirig'i bilan Munisning jiyani Ogahiy davom ettirdi va 1872-yilgacha bo'lgan voqealar bilan boyitdi. Shuningdek, Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlar orasida Bayoniy (1859–1923-yy.) ning «Shajarai Xorazmshohiy» asari ham qimmatli hisoblanadi.


Xorazm O'rta Osiyoda o'ziga xos uslublarga boy bo'lgan me'morchilik maktabiga ega vohadir. Bu hududda paydo bo'lgan me'moriy inshootlar nafis bezaklari, jimjimador naqshlari bilan Xorazm me'morchilik maktabining o'ziga xosligini ko'rsatib turadi. XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligida ko'plab inshootlar bunyod etildi. Ayniqsa, xonlikning poytaxtlari Urganch va Xiva shaharlarida ko'plab saroylar, masjid va madrasalar, xonaqolar, karvonsaroylar, yopiq bozorlar qurilgan. Xivadagi me'moriy yodgorliklar asosan Ichon (ichki) qal'ada bunyod etilgan. Xonning yozgi qarorgohi bo'lgan Dishan (tashqi) qal'a ham no'dir me'morchilik namunasi hisoblanadi.



Xiva. Ichon qal'a. XVI–XIX asrlar

Xonlikdagi boshqa shaharlar – Yangi Urganch, Hazorasp, Toshhovuz, Yangi Vazir, Shohabboz, Gurlan, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot kabilar mulohaa devorlari bilan o‘rab olinib, ularda ham ko‘plab me‘moriy inshootlar bunyod etilgan.

Mavzuga xulosa tarzida ta’kidlash joizki, XVI–XX asrning boshlarida mavjud bo‘lgan Xiva xonligi – O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixida, iqtisodiy va madaniy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining mintaqa hududlaridagi o‘ziga xos tomonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Uning tarixi mamlakatimiz tarixining ajralmas va uzviy bo‘lagidir.




XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklari

Xiva xonlari

1. Eron shohining noiblari – 1510–1512-yy.
2. Elbarsxon – 1512–1537-yy.
3. Avanishxon – 1537-y. (bir necha oy).
4. Shayboniy Ubaydullaxon – 1537–1538-yy. (bir necha oy).
5. Hojimxon (Hoji Muhammadxon) – 1558–1593-yy.

6. Shayboniy Abdullaxon II – 1593–1598-yy.
7. Hojimxon – 1598–1602-yy.
8. Arab Muhammadxon – 1602–1623-yy.
9. Isfandiyorxon – 1623–1643-yy.
10. Abulg'ozixon – 1643–1663-yy.
11. Anushaxon – 1663–1687-yy.
12. Arangxon (Erang, Ernak) – 1688–1690-yy.
13. Shohniyozxon – 1690–1707-yy.
14. Arab Muhammad – 1707–1715-yy.
15. Sherg'ozixon – 1715–1728-yy.
16. Elbarsxon – 1728–1740-yy.
17. Nodirshoh (Eron shohi) – 1740-y.
18. Abulg'ozixon II – 1741–1747-yy.
19. G'oibxon – 1747–1757-yy.
20. Temur G'ozixon – 1757–1763-yy.
21. Tavkaxon – 1763-y. (bir necha oy).

Xiva xonligidagi oliy darajali unvonlar va mansablar



Xiva qo'ng'irotlari sulolasi

22. Muhammad Amin inoq – 1763–1790-yy.
23. Avaz inoq – 1790–1804-yy.
24. Elto'zarxon – 1804–1806-yy.
25. Muhammad Rahimxon I – 1806–1825-yy.
26. Olloqulixon – 1825–1842-yy.
27. Rahimqulixon – 1842–1845-yy.
28. Muhammad Aminxon – 1845–1855-yy.
29. Abdullaxon – 1855-y. (besh yarim oy, 20 mart – 27 avgust).
30. Qutlug' Murodxon – 1855-y. (to'rt yarim oy).
31. Sayid Muhammadxon – 1856 –1864-yy.

Tayanch so'zlar

Xon, noib, Vazir shahri, Elbarsxon, Ubaydullaxon, Hojimxon, Arab Muhammadxon, Isfandiyorxon, nayman, Orolbo'yi o'zbeklari, Abulg'ozixon, «Shajarai turk», Anushaxon, Bekovich-Cherkasskiy, Xiva, Urganch, Xorazm, kichik juz, qo'ng'irotlar, Muhammad Amin inoq, Muhammad Rahimxon I, yovmut turkmanlari, Muhammad Yoqub mehtar, Feruz, beklilik, noiblik, viloyat, davlat tizimi, unvon, mansab, ma'muriy, siyosiy va harbiy vakolatlar, Oliy kengash, biy, beklarbegi, qo'shbegi, yasovulboshi, diniy va qozixona unvonlari, raislar, mutavalli, mudarris, ijaradorlar, solg'it, me'morchilik.

Savol va topshiriqlar

1. XVI asr boshlari Xorazmdagi siyosiy jarayonlar qanday kechgan?
2. Xivada Hojimxon hukmronligi davri haqida nimalarni bilasiz?
3. Abulg'ozixon hukmronligi asosiy jihatlari nimada bo'lgan?
4. Sherg'ozixon hukmronligi davri siyosiy voqealari qanday kechgan edi?
5. Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi haqida gapirib bering.
6. Muhammad Rahimxon I siyosatining asosiy jihatlari nimalarda aks etgan?
7. Muhammad Rahimxon II faoliyati to'g'risida so'zlab bering.
8. Xiva xonligining hududi va ma'muriy tuzilishi qanday bo'lgan?
9. Xonlikdagi saroy unvonlari haqida gapirib bering.
10. Xonlikdagi diniy va qozixona unvonlari haqida nimalarni bilasiz?

11. Xonlikdagi yer egaligi va dehqonchilikning o'ziga xos jihatlarini izohlang.
12. Xonlikdagi madaniy hayot va me'morchilik haqida nimalarni bilasiz?

6-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulg'oziy. Shajarai turk. – Toshkent: «Cho'lpon», 1992.
2. Abdurasulov A. Xiva. Tarixiy-etnografik ocherklar. – Toshkent: «O'zbekiston», 1997.
3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: «O'qituvchi», 1993.
5. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1994.
6. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX – XX asr boshlari). – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2006.
7. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). Коллектив авт. – Ташкент: «Фан», 2012.
8. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. – Toshkent, 2009.
9. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. – Toshkent: «O'zbekiston», 2009.
10. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013.
11. Xudoyberganov K. Yozuvlarga yashiringan tarix. – Xiva, 1996.
12. G'ulomov Ya. Xorazmning sug'orilishi tarixi. – Toshkent: «Fan», 1959.
13. Hasanov S. Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
14. Erqo'ziyev A. O'rta Osiyo va G'arbiy Yevropa o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va savdo yo'llari tarixi. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014.
15. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

7-mavzu. QO'QON XONLIGI. SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT (XVIII–XIX ASR BIRINCHI YARMI)

Reja:

- 7.1. Qo'qon xonligining siyosiy tarixi.
- 7.2. Xonlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi va aholisi.
- 7.3. Davlat boshqaruvi. Mansablar va unvonlar.
- 7.4. Yer egaligi munosabatlari va soliqlar. Hunarmandchilik, savdo-sotiq.
- 7.5. Qo'qon xonligida madaniy hayot.
- 7.5. XVIII–XIX asr birinchi yarmida Toshkent.

7.1. Qo'qon xonligining siyosiy tarixi

Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalar orasida shu davr tarixiy voqeligi mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi qator asarlar mavjud. Ular orasida Muhammad Hakimxon to'raning «Muntaxab ut-tavorix», Mulla Niyoz Muhammadning «Tarixi Shohruxiy», Mirza Olim Mushrifning «Ansab-ul salotin va tavorix ul-xavoqin», Abu Ubaydulloning «Xulosat ul-ahvol», Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadi-dayi Toshkand», Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Alimquli Iashkar», Avaz Muhammad Attorning «Tarixi jahonnamoyi», Muhammad Aziz Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy», Is'hoqxon Ibratning «Tarixi Farg'ona», Mulla Olim Maxdumning «Tarixi Turkiston», Mahmud Hakim Yayfoniyning «Xullas ut-tavorix», Muhammad Fozilbekning «Mukammal tarixi Farg'ona» kabi asarlarida Qo'qon xonligining XVIII–XIX asrlar tarixi, turli hukmdorlar faoliyati, ichki va tashqi siyosat, ba'zi joylarida savdo-sotiq, soliq, boj va moliya tizimiga oid ma'lumotlar ham joy olgan.

Qo'qon xonligi tarixining turli qirralari R.N. Nabiyev, H.N. Bobobekov, H.Z. Ziyoyev, Sh.H. Vohidov, G.A. Agzamova, F.G'afforov, D. Sangirova, V. Ishquvvatov, Z.A. Ilhomov, B. Ya. Tursunov, O'.A. Sultonov, Sh. Yu. Mahmudov, Sh. T. Qo'ldoshev, Z. Madrahimov, M. Alihojiyev va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ham ochib berilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Keyingi yillarda Qo'qon xonligi tarixiga oid tadqiqotlar xorijlik mualliflar tomonidan ham amalga oshirildi. Xususan, qirg'iz olimlari S.S. Soodonbekov, T.K. Beysembiyev, turk tarixchisi M. Saray, koreyalik Kim Xondong, ingliz olimlari M. Xoldsvort, B. Mans va boshqalarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

XVIII asrning boshlarida Ashtarxoniylar davlatida yuzaga kelgan og'ir siyosiy vaziyat, o'zaro boshboshdoqlik, nizo va parokandalikning kuchayishi Farg'ona vodiysi hududida Buxorodan alohida bo'lgan yangi davlatning yuzaga kelishiga olib keldi. Ashtarxoniylarning davlat hududlarini himoya qilishga ojizliklari, shimoldan ko'chmanchilar, xususan, jung'orlarning hujumlari ham vodiya alohida davlat birlashmasini tashkil etishga undar edi. Natijada vodiya keyinchalik «Qo'qon xonligi» deb nomlangan yangi davlat tashkil topdi. 1704-yili Chodak xo'jalarining Ashtarxoniylarga qarshi isyoni unga turtki bo'lib xizmat qilgan edi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ming urug'ining boshlig'i, taxminan 1669–1670-yillarda tug'ilgan Shohruxbiy ibn Ashur Muhammad (1709–1721) Chodak xo'jalari qo'lida bo'lgan siyosiy hokimiyatni kuch bilan tortib olib, 1709/1710-yilda Farg'ona vodiysidagi minglar sulolasi hukmronligiga asos soldi. Shohruxbiy o'zining kelib chiqishini «Oltin beshik» afsonasiga bog'lagan edi. Ushbu afsonaga ko'ra, 1512-yili Bobur Farg'onada o'g'il ko'rib, uni vodiya qoldirishga majbur bo'lgan ekan. Bola ming urug'i avlodida voyaga yetgan va uni «Oltin beshik» deb nomlashgan. Uning o'g'li Tangriyor keyinchalik «biy» unvonini olib, Farg'onani Buxoro xonligi nomidan boshqargan. Shohruxbiy o'zini aynan Tangriyor avlodining o'ninchi bo'g'ini deya tanishtirgan. Albatta, bu to'qib chiqarilgan afsona bo'lib, «Boburnoma»da ham unga hech qanday ishora etilmagan. Shohruxbiy hokimiyatga kelishda aynan shu afsonani doston qilib, boshqa urug'lardan ustunligini namoyon qilgan. Shu voqelik bilan o'zini hokimiyatga da'vogar deb bilgan.

Ammo uning hokimiyati hali ashtarxoniylardan to'la yoki batamom mustaqil emas edi. Chunki manbalarda Shohruxbiyning nomi ashtarxoniylar Abulfayzxonidan so'ng tilga olinib, Shohruxbiyga Buxoro xoni tomonidan otaliq unvoni berilgani eslatiladi. Keyinchalik, Shohruxbiy Buxoro xonligidan mustaqil ravishda siyosat olib borishga harakat qilib, minglar sulolasi tasarrufidagi yerlarni kengaytira boshladi.

Tepaqo'rg'on yangi davlatning qarorgohiga aylandi. Shohruxbiy hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ularning atroflaridagi yerlar minglar sulolasi qo'lida bo'lgan. Shohruxbiy 1721/1722-yillar oralig'ida hokimiyat borasidagi tortishuvlar vaqtida o'ldirildi. Uning 3 nafar o'g'li bo'lgan. Bular: Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy va Shodibiylar edi.

Shohruxbiyning o'g'li Muhammad Abdurahimbiy (1721–1733) taxtga o'tirganidan so'ng minglar tasarrufidagi yerlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724-yilda Andijonni, 1725-yilda Xo'jandni, 1726-yilda O'ratepani bosib olib, ularni xonlik hududlariga qo'shib oladi. U qisqa muddat bo'lsa-da 1732-yili Ashtarxoniylarga qarashli Samarqand va Kattaqo'rg'onni egallab, Shahrisabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qal'ayi Rahimbiy qal'asini qurdirgan. U 1733-yili suiqaqd natijasida o'ldiriladi.

1733–1750-yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn Shohruxbiy asosiy e'tiborini mudofaa ishlariga qaratdi. Poytaxtni Tepaqo'rg'ondan Qo'qonga ko'chiradi. Abdulkarimbiy xonlikning poytaxti Qo'qonda Isfara, Qatag'on, Marg'ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o'ratib oladi. Shu bilan birga, u 1741–1745-yillardagi qalmiqlar (jung'orlar) ning Farg'onaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy qalmiqlarga qarshi kurashda qirg'iz-qipchoqlar va O'ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi¹. Uning hukmronligi jang-u jadallar domida o'tganiga qaramay, ma'lum qurilish, obodonchilik ishlariga ham e'tibor berilgan. Xususan, Abdulkarimbiy Qo'qonda saroy, madrasa, bozor barpo etgan. Xonlikning boshqa hududlarida ham ma'lum obodonchilik ishlari amalga oshirilgan.

Abdulkarimbiy 1750-yilda vafot etganidan so'ng, xonlik taxtiga uning o'g'li Abdurahmon o'tirdi. Ammo u taxtda besh oy o'tirib, so'ng Marg'ilonga hokim etib jo'natildi. Taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o'g'li Erdonabiy o'tirdi (1751–1752). 1753-yilda qalmiqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo'lida garov sifatida ushlab turilgan Bobobek

¹ Poytaxt Qo'qon shahrini mudofaa qilishda Botir qipchoq ismli yigitning qahramonligi alohida ahamiyatga ega. U dushman qo'shini ichiga kirib olib, uning ma'lum qismini yo'q qilishga muvaffaq bo'ldi. O'zi jangda qahramonona tarzda halok bo'lgach, uning ishi butun xonlik harbiylarini ruhlantirib yuboradi.

(1752–1753) xonlik taxtiga ko'tarildi. Lekin oradan bir yil ham o'tmay O'ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o'ldirildi hamda Erdonabiy (1753–1764) qayta Qo'qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma'lumotlariga ko'ra, uning hukmronligi davrida, 1759–1760-yillarda Farg'ona to'rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg'ilon va Qo'qonga bo'lingan bo'lib, ular ichida Qo'qon yetakchilik qilgan. Tarixiy manbalar Erdonabiyning jasur va adolatli hukmdor deya ta'riflashgan. U xonlik hududini kengaytirishga harakat qilgan. 1758-yili navbatdagi yurishdan so'ng O'ratepani qo'lga oladi. 1762-yili xonlikka kelgan xitoylik elchilar Xitoyning Turkiston va Samarqandga yurish qilish niyati borligini, shu bois Qo'qon xonini ularga ot-ulov, yem-xashak, askarlar bilan yordam berishi lozimligini ta'kidlashadi. Xon bunga qarshi chiqib yonatrofdagilar bilan maslahatlashib, Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh Durraniydan yordam so'raydi. To'g'ri, garchi Xitoy yurishi amalga oshmagan bo'lsa ham, lekin Erdonabiy unga qarshi ittifoq tuza olishini ma'lum qilib qo'yadi. Erdonabiydan so'ng taxtga Shohruxbiyning uchinchi o'g'li Shodibekning farzandi Sulaymonbek o'tiradi. Uning taxtni egallashida urug' oqsoqollarining ko'magi katta bo'lgan bo'lsa-da, u atigi 3 oy hukmdorlik qildi.

1764-yilda Qo'qon taxtiga Abdurahmonbiyning o'g'li Norbo'tabiy (1764–1800) o'tirdi. Norbo'tabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlashda, bo'ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U Chust va Namangandagi g'alayonlarni bostirganidan so'ng, bu shaharlarga o'z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbo'tabiy bir qancha urinishlardan so'ng Andijon, O'sh, Xo'jand va yaqin atrofdagi qo'shni hududlarni bosib oladi. U 1799-yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo uning yuborgan qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Tarixiy manbalar bu hukmdorni ancha tadbirli va zeharli hukmdor, deya ta'riflashgan edi.

Norbo'tabiy davrida xonlikda birmuncha barqaror vaziyat yuzaga keldi. Buning natijasida iqtisodiy hayot, savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo aloqalari rivoj topdi. Shu davrda muomalaga chiqarilgan mayda chaqa – tanga pul (fulus) butun xonlik bo'yicha xo'jalik hayot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yangi suv inshootlari, ariqlar barpo etildi. Natijada sug'oriladigan, hosildor yerlarning hajmi ancha o'sdi. Rus sayyohi F.Yefremovning yozishiga ko'ra, Norbo'tabiyning shu davrda mustaqil

hukmdor sifatida Xitoy tan olgan va u bilan ittifoqchilik munosabatlari ham ega bo'lgan.

Norbo'tabiydan so'ng uning o'g'li Olimxon (1800–1810) taxtga o'tirib, Qo'qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e'tibor berdi. Natijada Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyi oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo'qon davlati kuchayib bori-shi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o'zgaradi. Agar Qo'qonning dastlabki hukmdorlari «biy» va «bek» unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo'lishsa, Olimxon davridan boshlab hukmdorlar rasman «xon» deb yuritila boshlandi. Olimxon 1805-yili o'z davlatini rasman Qo'qon xonligi deb atashni joriy etadi. U kuchli yollanma qo'shin ham barpo qiladi.

O'z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib, o'ziga yangi viloyatlarni, jumladan Ohangaron vohasi, Toshkent, Chimkent, Turkistonni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ladi. U qisqa muddat O'ratepani ham egallaydi, Jizzax va Zominga yurishlar qiladi. Toshkent va uning atroflari qo'lga olingach, Rossiya bilan savdo uchun qulay vaziyat yuzaga keldi. Olimxon savdo va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Sirdaryo bo'yida Oqmasjid qal'asini barpo etdi. Harbiy islohotlar o'tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo'lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshlaydi. Olimxon o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o'ldirtirib yuboradi. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu voqealardan so'ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810-yilda Olimxon Toshkentdan Qo'qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o'g'li Shohruxbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o'ldiriladi.

Manbalarga ko'ra, Umarxon (1810–1822) hukmdorligi davrida yirik yer egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqeyi yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun-qoidalar o'rnatadi va diniy ishlarni tartibga soladi. 1818-yilda Umarxon poytaxtda jome masjidini bitkazib, ruhoniylarning roziligi bilan «amir al-muslimin» unvonini oladi va ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo'ladi.

O'sha yili u ichki siyosatda ahamiyatli bo'lgan «mingboshi» lavozimini joriy etadi.

Muhammad Hakimxon ma'lumotlariga ko'ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamoniga taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. Shuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallashadi.

Manbalarning guvohlik berishicha, Qo'qon xonligining O'rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o'zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O'z davrida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Usmoniylar davlatlariga jo'natilganligi ma'lum. Umarxon Rossiya imperiyasi bilan ham diplomatik munosabatlarni o'rnatishga harakat qiladi. Bu borada u o'z elchilarini S.Peterburgga yuboradi. Ushbu elchilik missiyasi muvaffaqiyatsiz tarzda yakun topgan bo'lsa-da, imperiya 1813-yil may oyida F.Nazarovni elchi sifatida xonlikka jo'natadi. Umarxon Qo'qon xonligi hududini kengaytirish maqsadida Buxoro amirligiga qarashli Turkiston shahrini (1815-yil), O'ratepani (1817-yil) qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Sirdaryo bo'ylaridagi yerlarda Yangiqo'rg'on, Julek, Qamishqo'rg'on, Qo'shqo'rg'on nomli qator harbiy istehkom qal'alarini qurdiradi. Qator fitna va isyonlar, xususan, Chimkent va Sayramdagi g'alayonlarga ham chek qo'yadi.

N.Petrovskiy Umarxon hukmronligi davri haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: «Umarning xonligi ham oldingi xonlarnikidek davom etdi, ya'ni, u o'z yerlarini kengaytirdi. Bu xon davrida Turkiston viloyati musulmonlarning Hazrat (Sulton al-orifin Ahmad Yassaviy dafn etilgan) Turkiston shahri bilan birga zabt etildi. Umarxon xalq sevib ardoqlagan xonlardan biri bo'ldi. Qo'qonda ikki qator she'r tarqalgan bo'lib, unda Umarxon haqida juda iliq va yaxshi so'zlar aytilar edi».

O'z davri muarrixlari Umarxonni adolatli va taqvodor hukmdor sifatida ta'riflashgan. Umarxon davlat ishlarini tartibga soladi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq munosabatlari jonlanadi. Xonning o'zi she'riyat va adabiyot ixlosmandi bo'lib, saroyga o'z davri-ning mohir shoirlari, rassomlari, xattotlarini to'playdi. Umarxonning o'zi «Amiriy» taxallusi ostida she'rlar yozgan, saroyda 70 dan ziyod

shoirlarni yiqqan. Uning hukmronligi davrida ta'lim tizimi ancha yaxshilanadi, qator yangi maktab, madrasalar ochiladi. Umarxonning xotini Mohlaroyim Nodirabegim taxallusi bilan mashhur shoira sifatida elga tanildi. Nodirabegim nafaqat shoira bo'libgina qolmay, fan, adabiyot, san'at homiysi sifatida ham obro' qozongan edi. Uning hukmronlik davrida Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada qator qurilish ishlari amalga oshiriladi, ko'plab masjid va madrasalar quriladi, yo'llar, qabristonlar tartibga keltiriladi.

1822-yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so'ng, taxtga uning o'g'li Muhammad Alixon (Madalixon, 1822–1842) o'tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo'qon xonligining hududi yanada kengayib, qirg'izlarning ba'zi tumanlari xonlikka qo'shib olinadi hamda Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammad Alixon hukmronligini tan oladi.

Manbalarga ko'ra, Muhammad Alixon hukmronligining dastlabki yillari ancha odilona tarzda kechgan. U 1826–1831-yillar davomida Qashg'arga yurishlar qilib, bu yerdagi musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qiladi hamda 70 ming uyg'ur musulmonlarini xonlik hududiga, xususan Toshkent va Farg'ona vodiysiga ko'chirib keltiradi. Natijada din peshvolari Muhammad Alixonga «G'oziy» («din homiysi», «din yo'lida kurashuvchi») unvonini berishadi. Uning Sharqiy Turkistonga bir necha marta yurishlari bois, u yerlardan boj olish huquqini ham qo'lga kiritadi. O'z hukmronligi davrida u ma'lum ijobiy ishlariga yo'l ochgan bo'lsa-da, lekin ma'lum amaldorlarning tanobini tortib qo'yilishi, xonning maishatga ham berilishi turli noroziliklarga sabab bo'ladi. Muhammad Alixon otasi Umarxon davrida yuzaga kelgan xon va mahalliy aslzodalar o'rtasidagi ittifoqni buzib, ko'plab amaldorlarni ta'qib eta boshlaydi.

1840-yilda Muhammad Alixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruv ishlarida katta tajribaga ega bo'lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo'lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yuboradi. Endilikda xon davlat boshqaruvi, hukumat ishlariga loqayd munosabatda bo'lib, ko'p vaqtini haramda o'tkaza boshladi. Natijada davlat boshqaruv ishlarida yuzaga kelgan salbiy holatlardan umumiy norozilik avj olib, xonni ag'darish uchun fitna tayyorlana boshlandi.

Lekin o'z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko'zi yetmagan bir guruh Qo'qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrulloga noma yozib, undan yordam so'rashadi. Qo'qon xonligiga yurish qilish uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, 1842-yil aprelda Qo'qonga yurish qiladi. Qo'qon qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Qo'qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammad Alixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi. Ushbu qirg'inda taniqli shiora Nodirabegim ham o'ldirildi.

Amir Nasrullo Qo'qon xonligining Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi Ibrohim dodxoh mang'itni qoldiradi. Ammo Ibrohim dodxohning Qo'qon xalqiga o'tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etishadi. Qipchoqlar Muhammad Alixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo'qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etishadi hamda Sheralixon (1842–1845) taxtni egallaydi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lishadi.

Qo'qonda ro'y bergan voqealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842-yilning kuzida yana Qo'qon xonligiga yurish qiladi. Ammo bu safar omad unga kulib boqmaydi. Muhammad Alixon davrida yuz-boshi bo'lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo'qonga keladi. U qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirish o'miga, ularni bir tan-u bir jon bo'lib amir Nasrulloga qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko'ra Qo'qonda himoya vositalari kuchaytiriladi. Bir oydan ziyodroq Qo'qonni qamal qilgan amir Nasrullo o'ziga qarshi suiqasd uyushtirilayotganligi hamda xivaliklar chegaradagi Buxoro amirligi qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni eshitib, Buxoroga qaytishga majbur bo'ladi.

Buxoroliklarning ketishi bilan Qo'qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik yuzaga keladi. Sheralixon keksa odam bo'lib, qator ijobiy fazilatlarga ega bo'lgan inson edi. Uning bu xulq-atvoridan nobop kuchlar ham o'z maqsadida foydalanmoqchi bo'ldilar. Sheralixonning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, ular davlat boshqaruvini o'z qo'llariga oldilar. Ammo 1845-yilda Buxoroda

bo'lgan Olimxonning o'g'li Murodxon (Qo'qonda 11 kun xon bo'lgan) amir Nasrulloning yordami bilan Qo'qonga kelib, Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo'lgan mingboshi Musulmonquli bu voqeadan xabardor bo'lgach, Sheralixonning besh o'g'lidan biri Xudoyorxonni olib Qo'qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o'tkazadi (1845–1853, 1863, 1865–1875). 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o'zi boshqaradi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch – o'troq aholi va ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylanadi.

Umuman olganda, XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og'irlashgan edi. Buning sababi, birinchidan, o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan qipchoqlar hokimiyatini tan olishmagandi. Xonlik hududlaridagi ba'zi viloyat hukmdorlari Musulmonqulga qarshi chiqdilar. Ikkinchidan, hokimiyatda yuqori mavqeni egallash hamda xonga ta'sir o'tkazish uchun qipchoqlar orasida ham o'zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug'idan bo'lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan. Uchinchi sabab esa, qipchoqlarning o'troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o'troq aholiga nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarini kamsitishgandi. To'rtinchidan esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'lgan edi.

1852-yilga kelib, Musulmonquli va qipchoqlarga qarshi kurash uchun o'troq mulkdorlar va toshkentlik zodagonlar Xudoyorxon atrofida birlashdilar. Bu kuchlar yordamida Xudoyorxon Musulmonqulini 1853-yilda qatl etib, uning tarafdorlarini yo'q qilgani bilan taxt uchun kurashlarga barham bera olmadi. Bunday vaziyatda xonlikning ichki ahvoli og'irlashib, u faol tashqi siyosatdan ham ancha orqada qoldi. 1858-yilda Sheralixonning ikkinchi xotinidan bo'lgan o'g'li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag'darib, o'zini xon deb e'lon qildi. Mallaxon va Aliquli qirg'iz boshchiligidagi yangidan tiklangan ko'chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a'zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1863-yil 25-fevralda uni o'ldirdilar. Taxtga esa Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o'g'li Shohmurod o'tqazildi.

Lekin qo'shin boshliqlari va saroydagi ko'pchilik amaldorlar unga qarshi fitna uyushtirib, Xudoyorxonga yana taxtga o'tirishni taklif etib, odam yuboradilar.

Bu paytda Mallaxon o'limini eshitgan Xudoyorxon amir Muzaffarning ruxsati bilan Buxorodan Jizzaxga kelgan edi. Turkiston hokimi Qanoatshoh yordamida qo'shin yig'ib, 1863-yilning mart oyida Jizzaxdan Toshkentga kelgan Xudoyorxon Qo'qonga qarshi yurish uchun Toshkent qo'shini bilan Xo'jandga keldi. Bu orada amir Muzaffar ham Buxoro lashkari bilan Xo'jandga keladi. Xudoyorxon Qo'qonga hujum qilishni rejalashtirayotgan paytda, ya'ni, 1863-yilning 5-mayida shahar aholisi unga shimoliy darvozalarni ochib berishadi. Natijada Qo'qonda qirg'in boshlanib, Shohmurodxon o'z tarafdorlari bilan Marg'ilonga qochadi. Xudoyorxon ikkinchi marta (1863-y.) taxtni qo'lga kiritadi.

Ammo xonlikdagi qirg'iz-qipchoqlar Koson va Chust atroflarida qo'zg'olon ko'tarib, To'raqo'rg'onga hujum qilishadi. Ular hatto Toshkent atroflaridagi qabila boshliqlariga noma yuborib, madad berishni so'rashadi. Oqibatda Toshkent atrofida qozoqlar qo'zg'olon ko'tarib, ular Toshkentni qamal qiladilar. Xudoyorxon tomonidan yuborilgan qo'shinlar bu isyonlarni bostirishga muvaffaq bo'lishadi. Ammo mag'lubiyatga uchragan qirg'iz-qipchoq boshliqlari taxt uchun kurashni davom ettiradilar. Xususan, Shodmonxo'ja, Said Mahmudxonto'ra, Aliqulilar Sulton Saidxon boshchiligida Marg'ilon tomondan kelib, Andijonni bosib oladilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, Shahrixon, O'sh, Poytug' mavzellarini talon-toroj qilishadi. 1863-yil 26-aprelda Sulton Saidxonning qo'shini Mingtutga kelib, Qo'qonni qamal qiladi. Amir Muzaffarning Xudoyorxonga yordami tufayli qirg'iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga ketib, Qo'rag'ulcha darasida himoyaga o'tadi. Qattiq kurashlardan so'ng 1863-yilning 24-iyulida Sulton Saidxon Qo'qon taxtini (1863–1865) egallaydi. Xudoyorxon esa yana Buxoroga qochadi.

Xonlikdagi ichki nizolar tashqi dushmanlarga nihoyatda qo'l kelgan edi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan Rossiya imperiyasi qo'shinlari 1864-yilda Turkiston va Chimkentni bosib oladi. 1865-yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal'asini egallaydilar. Uzoq qamaldan so'ng, 17-iyunda Toshkent egallandi.

7.2. Xonlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi va aholisi

XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundiradi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki – viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo'ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamalari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817-yilda O'ratepa bosib olinadi.

Muhammad Alixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g'arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar – Shug'non, Ro'shon va Vaxon (bu hudud rasman Qo'qonga qaram bo'lgan) Ko'lob bilan, sharqda Qashg'ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin o'rtasida joylashgan Farg'ona hududlari, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Namangan, Xo'jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko'ligacha bo'lgan qirg'izlar yashaydigan yerlar, ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan Billur tog'ining sharqiy etaklari, 1830-yildan boshlab g'arbiy etaklari ham kirgan.

XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy-hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar Qo'qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darxon, «Turkestanskije vedomosti» (1876, №13) to'plamida esa Asaka, Marg'ilon, Baliqchi O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z navbatida, hokimlar viloyat hududlarini o'zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berishgan. Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o'rdasi alohida o'rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan.

Bek o'rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo'lib, ular mahalliy aholidan yig'iladigan soliq hamda to'lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari bo'lib, mamlakatni idora etishida uni qo'llab-quvvatlashlari, zarur bo'lganda unga yordam berishlari, uning hurmat-izzatini joyiga qo'yishlari, kerakli vaqtda o'z qo'shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishlari va sovg'a-salomlar yuborib turishlari lozim bo'lgan.

Qo'qon xonligida Qo'qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg'ilon, Chimkent, Jizzax, O'sh, Xo'jand, O'ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'nlab shaharlar mavjud edi. Xonlikning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal'a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq, Niyozbek, Mahrarn kabilarni kiritish mumkin. Chu vodiysi bo'ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham xizmat qilgan. Ushbu shahar va qal'alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo'lgan botirboshilar bo'lishgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir-biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysining sug'orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo'lib, ular o'troq hayot kechirishgan. Sahro, tog' va tog'oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yashagan.

Xonlikdagi aholi soni haqidagi manbalarda turli ma'lumotlar berilgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo'shib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o'rtalarida 1,5–2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko'plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning mustamlaka ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Xonlikda o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchiligi o'zbeklar bo'lib, mamlakat shahar va qishloqlarida tojiklar ham yashashgan. Xonlikda yana qirg'izlar va qipchoqlar ham istiqomat qilishgan. Ular Sirdaryoning boshlanish joylaridan Balxash ko'ligacha bo'lgan tog'li tumanlardan to Qashg'ar chegarasigacha bo'lgan yerlarda, Yettisuv, Talas vodiysi, Oloy tog'lari, Badaxshon, Farg'ona vodiysi hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechirishgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida qoraqalpoqlar, Andijon atroflarida uyg'urlar, Toshkent atroflarida qozoqlar, xonlikning sharqiy qismida, Qo'qon xonligini Buxoro va Rossiyadan ajratib turadigan cho'llarda ko'chmanchi qozoqlar yashashgan.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning boshlarida qirg'izlar, qalmiqlar, uyg'urlar, qoraqalpoq, qozoq va qipchoqlar Xitoy hukumati tazyiqi ostida Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysigacha ko'chib kelishga majbur bo'lishgan. Shuningdek, xonlikning ayrim shaharlarida lo'lilar, hindlar, afg'onlar, arablar va boshqa Osiyo xalqlari istiqomat qilishgan. Turkiston general-gubernatorligi tashkil topganidan so'ng ruslar, yahudiylar, armanlar va boshqa millat vakillari ham yashashgan.

7.3. Davlat boshqaruvi. Mansablar va unvonlar

O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri Shohruxbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda Shayboniylar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo'lib, uning huquqi cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish xonning qo'lida edi.

Xonlikning ming qabilasidan bo'lgan hokimlar turli yillarda ma'lum hududlarda ham hukm surishgan. Olimxon davrigacha ming urug'i boshliqlari biy unvoni bilan hokimiyatni boshqarishgan.

Xon avlodlari xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra deb atalgan. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo'lib, xonning o'zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lsa-da, ma'lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo'shin boshliqlarining xonga ta'siri kuchli bo'lgan. Bunga Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo'lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844–1852) yoki Aliqulining amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayidxon, 1863–1865) misol qilib keltirish mumkin. Bu holat xonning siyosiy kuch-qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga hamda ma'lum ijtimoiy guruhlar faoliyatiga bog'liq bo'lgan, deyishga asos bo'ladi.

Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo'lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo'riq yerlar, ko'l-u anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to'ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan.

Tarixiy manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan kengash tuzilgan bo'lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi.

Qo'qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798–1842) davlat boshqaruvi va davlatchilik ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o'troq xalq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, o'zaro nizo va urushlar, xon taxti uchun olib borilgan kurashlar, Buxoro amiri bilan bo'lgan nizolar va dushmanlik, saroy amaldorlarining xoinliklari kabi-larni ko'rsatish mumkin. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot darajasi pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi.

Qo'qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma'muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma'muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo'linar edi. Xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar joriy etilgan:

- amir ul-umaro – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo'yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib-intizom kabilar) shaxs bo'lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;

- amirlashkar – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo'qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo'lgan;

- mingboshi – ma'mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo'shinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da'vogar bo'lgan. Bu unvon Sheralixon davrida (1842–1845) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan;

- botirboshi – botir, bahodirlar boshlig'i. Besh yuz kishidan ko'p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo'shin ishlariga mas'ul edi. Botirboshi ba'zan qurilish hamda sug'orish ishlari-ga ham boshchilik qilgan. (Ulug' nahr arig'i, Otabek botirboshi);

- qo'shbegi – harbiy qo'shinning boshlig'i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da'vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga hokim ham bo'lishi mumkin edi;

– voli yoki voliy (noib, muovin) – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o‘rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy-ma‘muriy ishlariga boshchilik qilgan;

– qal‘abon yoki qutvol – Qo‘qon xonligining chegaralarida joylashgan qal‘a va istehkomlarning hokimi bo‘lib, shu hududlarning harbiy-ma‘muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo‘lgan. Harbiy maqsadga ko‘ra, qal‘abon vazifasiga dodxohdan qo‘shbegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan;

– qo‘rboshi – qo‘rxona, ya‘ni aslahaxona boshlig‘i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona, to‘pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo‘lgan;

– yofar – soqchilar boshlig‘i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo‘lgan. Yofar o‘z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g‘allagir (g‘alla oluvchi), javgir (bug‘doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida ham qayd etilgan;

- to‘pchiboshi – to‘pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig‘i;
- to‘qsabo – o‘zlarining tug‘iga ega bo‘lgan harbiy guruhning boshlig‘i;
- ponsadboshi – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari;
- yuzboshi – yuz kishilik harbiy dasta boshlig‘i;
- panjohboshi – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig‘i;
- dahboshi – o‘n kishilik harbiy guruh boshlig‘i;
- qorovulbegi – soqchilar va qorovullar boshlig‘i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to‘pchi, zanbarchi, qo‘rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo‘shin safida nog‘orachi, surnaychi, tug‘chi (bayroqdor) kabilar ham xizmat qilishgan. Bu harbiy unvonlar orasida mingboshidan ponsadboshigacha bo‘lganlari oliy unvonlar, qo‘rboshidan qorovulboshigacha bo‘lganlar o‘rta unvonli mansablar, qolganlari esa past unvonlar hisoblangan. Ellikboshidan mingboshigacha bo‘lgan harbiy lavozimdagi amaldorlar o‘z xizmatlariga mulozimlar olishgan. Ponsadboshidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munshiylar ham xizmat qilgan. Manbalarda harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilganligi qayd etilgan.

Qo‘qon xonligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

– O‘taliq – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o‘tirganidan so‘ng, o‘taliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallaganlar.

– Beklarbegi – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba‘zi viloyatlarning hokimiga berilgan.

– Biy – turkiy qabilalarning boshliqlari.

– Devonbegi – xon devonining boshlig‘i, Qo‘qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti Qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo‘lgan.

– Xazinachi – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritishgan.

– Inoq – xonning xos va sirdosh mulozimi.

– Eshikog‘asi yoki chehraog‘asi – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig‘i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijazatsiz qo‘ymaslikka javobgar shaxs.

– Parvonachi – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.

– Dodxoh – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

– Dasturxonchi – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.

– Saroy qorovulbegisi – xon o‘rdasining soqchilariga boshliq bo‘lgan saroy amaldori.

– Tunqator – tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.

– Oftobachi – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.

– Sharbatdor – eng oliy va faxriy unvonlardan bo‘lib, xonning xos majlislari va safarlarida xizmatda bo‘lgan.

– Hidoyachi – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg‘alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o‘tkazuvchi amaldor.

– Shig‘ovul – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko‘ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo‘lgan.

– Sarkor – saroydagi xon amaldorlarining boshlig'i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.

– Qushbegi (miri shikor) – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbегining ovchi itlari, lochin va burgutlari bo'lib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar bo'lgan.

– Salomog'asi – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.

– Kitobdor – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.

– Risolachi – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas'ul bo'lgan saroy amaldori.

– Jam'og'a – xonning suhbatlari, qabul hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.

– Jarchi – xalq yig'iladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) e'lon qiladigan shaxs.

– Chopquchi – pichoq yasovchi, xon saroydagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar qilich) yasab, qo'rchi vazifasini ham bajargan.

– Shotir – xon rikobi oldida yuradigan xizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta'zimga chorlab turgan.

– Udaychi – xon rikobi oldida yurib, uning sha'niga baland ovoz bilan maqtovli so'zlar va hamd-u sanolar aytib boruvchi xizmatchi.

Yuqoridagi amal va mansab egalari o'z xizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qo'y, g'alla ko'rinishida) olishgan. Bundan tashqari, ularga tegishli yer-mulklar ham berilgan.

Butun o'rta asrlar musulmon davlatlarida bo'lgani kabi Qo'qon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo'lgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Xonlikdagi davlat boshqaruvida, ta'lim-tarbiyada, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Qo'qon xonligida quyidagi diniy va qozixona mansab, unvon hamda amallari mavjud bo'lgan:

– Shayx ul-islom – dindorlarning eng oliy unvoni bo'lib, 1818-yilda Umarxon tomonidan joriy etilgan.

– Xo'ja kalon – fiqh olimi (huquqshunos)ning faxriy unvoni.

– Xalifa – o'rinbosar. Qo'qondagi naqshbandiya, qalandariya, yassaviya tariqatlarining rahbarlari.

– A'lam – faqih olim hamda shariat qonun-qoidalarining bilimdoni.

- Oxund – bilimli va madrasada o‘qiydigan kishi.
- Sudur – vaqf mulklarining daromadlari hamda hisob-kitobiga javobgar mansabdor.
- O‘roq – vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga mas’ul shaxs, o‘roq shaklidagi nishonni sallasiga taqib yurgan.
- Mudarris – madrasada ta’lim beruvchi ustoz.
- Imom va imom xatib – masjid imomi hamda juma namozlarida xutba o‘qib xizmat qiladigan imom.
- Muazzin – musulmonlarni namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi.
- Qozi ul – quzzot – qozilar qozisi (adliya vaziri).
- Qozi kalon – xonlik poytaxti hamda viloyatlar markazlaridagi qozilar va qozixonalar ustida nazorat qiluvchi amaldor.
- Qozi askar – qo‘shin qozisi.
- Tarakachi – meros qolgan mol-mulklarni merosxo‘rlarga taqsimlab (taraka) beruvchi shaxs.


Xonlikdagi diniy va qozilik lavozimida bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh hamda turli ehsonlar hisobidan kun ko‘rishgan. Madrasa, masjid, mozorlar o‘zlarining vaqf mulklariga ega bo‘lib, shu mulk daromadidan o‘z xizmatchilariga maosh berishgan. Vaqf mulklariga mutavalli mutasaddi – boshliq edi.

7.4. Yer egaligi munosabatlari va soliqlar.

Hunarmandchilik, savdo-sotiq

Qo‘qon xonligi xo‘jalik hayotining asosini tashkil qiladigan soha dehqonchilik edi. Chunki xonlikning asosini tashkil etgan Farg‘ona vodiysida suv manbalarining yetarli darajada bo‘lganligi dehqonchilik xo‘jaligida mo‘l hosil bo‘lishni ta‘minlagan. Xonlikda XVIII asrga qadar yerlarni sug‘orish uchun soylar va jilg‘alarning suvlaridan ham unumli foydalanilgan.

Xonlikdagi taxt uchun o‘zaro kurashlar hamda siyosiy tarqoqlik davom etayotgan bo‘lishiga qaramay, XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab ayrim tumanlarning sug‘orish tarmoqlari ta‘mirlangan va yangilari qazilgan. Chunki, xonlikda ip va gazlama ishlab chiqarish hajmining ortib borishi, bu mahsulotlarni Rossiya va u orqali Sharqiy Yevropa mamlakatlari bozorlarida ko‘plab sotila boshlashi, ularga bo‘lgan talab-



**Qo'qon xonligi tangalari.
XIX asr.**

ning tobora kuchayishi sug'orma dehqonchilik yerlarini kengaytirish hamda yangi yerlarni o'zlashtirishni taqozo qilar edi.

Shuning uchun ham XIX asr Qo'qon xonligida xususan, Farg'ona vodiysining sug'orilishi tarixida yangi davrni boshlab berdiki, aynan shu davrdan boshlab, vodiya yirik sug'orish inshootlari, ariqlar, kanallar, to'g'onlar qurila boshlangan. Masalan, Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan Norin va Qoradaryolardan suv oladigan Shahrixonsoy kanali, Naman-gan Yangi arig'i, Chinobod arig'i, Ulug'nahr, Andijonsoy kanali, Oltiariq, Mutagan arig'i va boshqa sug'orish tarmoqlarining ko'payishi, sug'oriladigan dalalarning sezilarli darajada kengayishi hamda dehqonchilik va bog'dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan.

Qo'qon xonligida sug'orish inshootlarini barpo etishning ma'lum tartib-qoidalari mavjud bo'lgan. Chunonchi, sug'orish tarmoqlari va ularni barpo etish ishlari ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga hajm jihatdan kichik sug'orish inshootlaridan foydalanuvchi qishloq aholisi ishtirok etgan. Ularga mahalliy mutasaddi kishilar, mirobboshilar boshchilik qilgan. Ikkinchi guruh sug'orish inshootlariga hajm jihatdan katta va yirik kanallar kiritilib, ularni bunyod qilish ishlariga xonlikning turli viloyatlaridan qazuvchi – hasharchilar jalb etilgan. Bunday inshootlar qurilishiga bevosita xon yoki joylardan uning vakili boshchilik qilishgan.

Xonlikda dehqonchilik ekinlarining aksariyati O'rta Osiyo xonliklariga xos bo'lib, g'allachilik, bog'dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish hamda ipakchilik yaxshi rivojlangan. Donli ekinlardan makkajo'xori yetishtirish keng tarqalgan bo'lib, u shahar va qishloqlarda kambag'allarning asosiy iste'mol mahsuloti hisoblangan. Shuningdek, XIX asrga kelib xonlikda paxtachilik sohasiga katta e'tibor berila boshlangan.

Xonlik g'arbiy qismining tabiiy sharoitida bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish juda qulay bo'lgan. Janubi-g'arbiy Xo'jand, Konibodom, Isfara, So'x, Chimyon, Rishton hududlari asosan o'rik

yetishtirishga to'la ixtisoslashgan. Bu davrda butun Farg'ona vodiysida tut daraxti keng tarqalib, tog'oldi va qadimgi dehqonchilik vohalaridan hisoblangan So'x, Isfara, Namangan, Ashtda ipakchilik uchun tut qadimdan o'stirib kelingan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to'rtta turi mavjud bo'lib, ular quyidagilar edi: 1. Xiroj yerlari – yer egalariining xususiy yerlari. 2. Davlat yoki amlok yerlari – xonga qarashli yerlar – o'rmonlar, to'qaylar, yo'l-u ko'priklar. 3. Xususiy yerlar – xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurg'ol). 4. Vaqf yerlari – diniy muassasalar, ya'ni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Manbalarga ko'ra, amlok xon ixtiyoridagi yer bo'lib, u «zamini xos» deb atalgan. Bunday yerlar xon tomonidan ayrim guruh va mansabdor shaxslarga berilgan. Yerni olgan kishi unga o'z hisobidan ishlov berib, sug'organ. Olgan hosilidan esa xonga soliq to'lagan va bu soliq miqdori xirojdan ko'proq bo'lgan.

Yerga egalik qilishda mulk, ijara, urg'u, tanho shakllaridan ham foydalanilgan. Mulk – boylarga qarashli xususiy yerlar bo'lib, ular dehqonlarga ijaraga berilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ijara – muayyan shartlar asosida beriladigan barcha ko'chmas va ko'chadigan mulk – yer, ariq, tegirmon, tim, rasta, ulov va boshqalarni o'z ichiga olgan mulk shakli bo'lsa, urg'u – musodara qilish yo'li bilan xon mulkiga aylantirilgan yoki gunohkorni qo'lga olishda jonbozlik qilgan shaxslarga berilgan yer va mol-mulkdir.

Tanho – hukmdor tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan kishilarga amlok yerlardan ba'zilar in'om etilishi tufayli paydo bo'lgan mulk shakli bo'lib, bunday yerlarda soliq yig'ish huquqi tanho egalari – tanhodorlarga berilgan. U o'ziga berilgan yer, bir nechta qishloq, hatto, katta mulkning yillik yoki yarim yillik daromadini hadya sifatida olgan. Ba'zan, amaldorlar bir umr tanhodor bo'lgan va o'g'li xon marhamatiga sazovor bo'lsa, tanhodorlik meros sifatida davom etgan. Harbiylarga tanho yoki xiroj taqdim etilsa, u tarxon deb atalgan.

Bu davrda xonlikning daromadi mahsulot va puldan iborat bo'lib, ular asosan soliqlar undirish yo'li bilan hosil qilingan. Soliq va majburiyatlar xonlikning barcha shahar va qishloqlarida deyarli bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mamlakatda mavjud soliqlar joriy

etilishiga ko'ra to'rt turga: shariat qonun-qoidalariga binoan belgilangan asosiy soliqlar; rasmiy soliqlar; an'anaviy soliqlar; favqulodda joriy etilgan soliqlar va boshqalar.

Manbalarga ko'ra, shariat qonun-qoidalari asosida joriy etilgan asosiy soliqlar xiroj, ushr va zakot hisoblangan. Dehqonchilikda donli ekinlar ekiladigan yerlardan olinadigan soliq xiroj deb atalgan. Bu soliq hosilning beshdan bir qismini tashkil etib, 5 qop g'allaning bir qop miqdorida undirilgan. Soliqning bir qismi mahsulot, bir qismi esa pul bilan to'langan.

Ushr yerlari – «zamini ushr» deb yuritilgan yerlardan hosilning o'ndan bir qismi miqdorida ushr solig'i ruhoniylar foydasiga undirilgan. Zakot – mahsulotdan olinadigan savdo solig'i yoki chorva mollari hisobidan olinadigan soliq bo'lib, daromadning qirqdan bir qismini tashkil etgan. Xonlikning savdogarlik sarmoyalari aniq bo'lmaganligi sababli, sharoitga qarab daromaddan zakot olingan. Shuningdek, chorva mollaridan ham qirqdan bir ulush hisobida zakot olingan. Arxiv hujjatlarida an'anaviy zakotdan tashqari, bo'roqi zakoti, elatiya zakoti, sarkarda zakoti kabilar haqida ma'lumotlar bor.

Xonlikda joriy etilgan tanobona, xonsoliq, karvonlardan chegara yoki maxsus belgilangan shaharlarda, Sirdaryo kechuvidan olinadigan boj to'lovlari, tuz boji, bozorlarda savdogarlardan, xon mablag'iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq kabilar rasmiy soliqlarga kirgan. Bog'dorchilik, sabzavotchilik, polizchilikda ekin ekiladigan yer maydonining hajmiga qarab tanob solig'i olingan. Soliq yig'uvchi amaldor tanobchi (har bir tanob yerdan soliq oluvchi), zakot solig'ini yig'uvchi amaldorlar zakotchi deb atalgan.

An'anaviy soliqlarga to'y marosimlaridan, meros bo'linishidan, tarozidan, daryodan o'tish uchun sollardan, qirg'iz va qozoqlarning chorvasidan olinadigan va shunga o'xshash soliqlar kirgan. Xonlikda bular-dan tashqari yana turli xil favqulodda soliqlar mavjud bo'lib, u tilla puli va mis puli, ulov puli, alaf puli, nafsona, mushtak, kafsan, yaksara va boshqalardir.

Soliqlar qat'iy belgilangan miqdorda hamda o'z vaqtida yig'ilishi shart bo'lsa-da, xon va amaldorlarning ixtiyori bilan bu holat o'zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlarning turi va miqdori oshirilgan.

Xon xazinasiga kelib tushgan soliqlar – xossachi, bek xazinasiga tushgan soliqlar – beklik deb atalgan. Manbalarga ko‘ra, xon ixtiyoridagi yerlar «zamini xos» deb atalib, undan keladigan barcha daromad xonning ixtiyorida bo‘lgan. Xon xazinasiga tushadigan soliqlarning deyarli barchasi Qo‘qon shahri va uning atrofidagi qishloqlardan yig‘ilgan. Chetdan xon ixtiyoriga mahsulot va chorvadan yig‘iladigan zakot, Sirdaryo kechuvidan olinadigan boj, tuzdan, xossachi joylardan, xon mablag‘iga qurilgan barcha inshootlardan olinadigan soliq, to‘y marosimlaridan va meros bo‘lishdan yig‘iladigan soliqlar tushgan.

Qo‘qon xonligida soliqlardan ozod qilingan, ya‘ni, «mulki hur» yerlar ham mavjud bo‘lib, ularning egalari bo‘lgan sayid, xo‘jalar, shayxlar va eshonlar xonning maxsus inoyatnomalari asosida barcha soliqlardan ozod qilingan. Shuningdek, xonzoda va to‘ralar, ba‘zi qozi, rais, amin, darvesh va so‘filar ham tanob solig‘idan ozod qilingan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga – kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlarga, ayniqsa, hukmron tabaqalarning xizmatlariga jalb etilgan. Soliq, to‘lov va majburiyatlarning yildan yilga oshib borishi natijasida Qo‘qon xonligida xalqning noroziligi ortib borib, xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi davlatning siyosiy inqirozini ta‘minlab bergan edi.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Qo‘qon xonligida mamlakat poytaxti va boshqa ko‘plab shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug‘ullanishgan. Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko‘rinishga ega bo‘lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalar mavjud bo‘lgan. Hunarmandlar o‘z kasblarining sir-asrorlarini mukammal o‘zlashtirgan mohir ustalari bo‘lib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san‘at darajasiga ko‘tarishgan.

Xonlikning deyarli barcha shahar va qishloqlarida hunarmandchilikning taraqqiyoti bir xil bo‘lgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish o‘zining ayrim xususiyatlari, ya‘ni, mahsulotning turi, sifati bilan ajralib turgan. Hunarmandchilikning temirchilik, zargarlik, to‘quvchilik, degrezlik, kulolchilik, misgarlik va boshqa tarmoqlari keng rivojlangan bo‘lib, xonlikning har bir shahri muayyan sohada ishlab chiqargan mahsuloti bilan dong taratgan. Misol uchun, Qo‘qon shahri zargarlik va qog‘oz ishlab chiqarish, Shahrixon va Chust tikuvchilik hamda temirga ishlov

berish, xususan, pichoqchilik, Marg'ilon, Namangan va Andijon esa ipak gazlamalari, Toshkent o'zining tikuvchilik, to'quvchilik, cho'yan, temir-mis mahsulotlari bilan mashhur bo'lgan.

Butun xonlik hududida ishlab chiqarish qo'l mehnatiga asoslangan bo'lib, asosiy hunar turlari – ip va ipak matolar to'qish, oyoq kiyim tayyorlash, teriga ishlov berish, kulolchilik mahsulotlari tayyorlash, temirchilik, egar-jabduq yasash, bo'yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, aravasoqlik, harbiy qurol ishlab chiqarish, o'ymakorlik, mum ishlash, pista ko'mir tayyorlash, kashtachilik, do'ppichilik, pichoqchilik kabilar edi. Undan tashqari, xonga tegishli porox ishlovchi va qog'oz tayyorlovli ustaxonalar ham bo'lgan.

Xonlikda qurolsozlikka alohida e'tibor qaratilgan. Bu tarmoq shahar hunarmandchilik ishlab chiqarishining obro'li sohalaridan hisoblangan. Qo'qon shahrida zambaraklar, miltiqlar, qilichlar, pichoqlar, xanjarlar, qalqonlar, nayzalar va boshqa harbiy anjomlar tayyorlangan.

Xonlikning hunarmand-kosibchiligi serqirra va mazmunan boy bo'lib, ijtimoiy holatiga ko'ra hunarmandlar ikkita – yuqori va quyi tabaqalarga bo'lingan. Yuqori tabaqa vakillariga o'z ustaxonasi, mehnat qurollari va xomashyosiga ega bo'lgan ustalar kirgan. Mulkdor tabaqalar qo'lidagi ustaxonalar va mehnat qurollaridan foydalanuvchilar, yuqori tabaqaga kiruvchi ustalarning qo'llarida kunbay yollanib ishlovchilar quyi tabaqa hisoblangan.

Xonlikda hunarmandchilik va kosiblik ishlab chiqarishini asosan paxtachilik, ipakchilik, chorvachilik tarmoqlari va yer osti boyliklarini qazib chiqarish sohaları xomashyo bilan ta'minlagan. Hunarmandchilik uchun zarur bo'lgan xomashyolar xonlik hududidan olinish bilan birga chetdan ham xarid qilingan. Asosiy xomashyolardan biri bo'lgan oltin Sirdaryoning yuqori oqimidan, Qonsuv daryosidan olingan. Shuningdek Kosonsoydan, Qoratog'ning shimolidagi Kukrev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Burchmulla yonidan, Chotqol daryosining yuqori oqimidan ham oltin olingan. Hunarmandlar temir rudasini Oloy tog' tizmasi etaklaridan, qo'rg'oshin va boshqa madanlarni Qoratovdan qazib olishgan. Manbalarga ko'ra, yer osti boyliklarini qazib chiqarish sodda va kam bo'lib, u ehtiyojni talab darajasida qondira olmagan. Shuning uchun ham aksariyat metallar Rossiyadan olib kelingan.

Qo'qon xonligi hayotida ichki va tashqi savdo munosabatlari alohida ahamiyatga ega edi. Ichki savdo – o'troq dehqonlar, ko'chmanchi chorvadorlar va shahar-qishloq hunarmandlari o'rtasidagi an'anaviy mahsulot ayirboshlashga asoslangan. Aholining kundalik ehtiyojlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar bilan ta'minlab turilgan. Barcha ichki savdo chakana bo'lib, ulgurji savdo deyarli bo'lmagan.

Hunarmandlar va kosiblar savdo orqali yaqin aloqada bo'lishgan. Hunarmandlar aksariyat hollarda o'z mahsulotlarini o'zlari sotishgan. Dehqon va chorvadorlar esa, haftaning muayyan kunlari o'z mollari ni bozorga olib chiqishgan. Bozorlardagi narx-navo bir xilda turmagan. Narx-navo xonlikdagi tinchlik-osoyishtalik, urushlar, ob-havoning yomon kelishi oqibatida hosildorlikning pasayishi kabi omillarga qarab o'zgarib turgan.

Qo'qon xonligining eng asosiy savdo va tijorat markazlari Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Andijon, Xo'jand, Namangan, O'sh, O'ratepa kabi shaharlar bo'lib, ular orasida Qo'qon nafaqat xonlik, balki butun O'rta Osiyoning savdo markazlaridan biri hisoblangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon bozorlari o'zining mahsulotlarga boyligi va narx-navoning boshqa shaharlarga nisbatan ancha arzonligi bilan ajralib turgan. Shaharning devorlar bilan o'ralgan katta bozorlari mahalliy aholi va chetdan kelgan savdogarlar bilan doimo gavjum bo'lgan. Rus manbalarida keltirilishicha, XIX asrning 20-yillarida Qo'qonda oltita bozor bo'lib, ular yakshanba, chorshanba va payshanba kunlari ishlagan. Bu bozorlarda qattiq nazorat o'rnatilgan bo'lib, xaridor haqqiga xiyonat qilganlar qattiq jazoga tortilgan.

Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida tashqi savdo ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakat g'arb va janubda Buxoro, Xiva, Afg'oniston, Eron, Usmoniylar davlati, Hindiston, sharqda Xitoy (Qashg'ar orqali), shimolda Dashti Qipchoq ko'chmanchilari va ayniqsa Rossiya bilan keng savdo aloqalarini o'rnatgan. Ayrim manbalarda xonlikda yaponiyalik va angliyalik savdogarlar ham kelganligi eslatib o'tiladi.

Xonlikdan chet elga asosan ipak va ipak matolar, paxta, charm, qimmatbaho toshlar, zargarlik buyumlari va boshqa mahsulotlar chiqarilgan. Chet eldan asosan choy, metall, chinni, uy-ro'zg'or buyumlari,

tayyor gazlama, kiyim-kechak, poyafzal, oltin, kumush va boshqalar keltirilgan.

Xonlik savdogarlari Buxoro va amirlik chegaralaridagi shaharlar bilan muntazam savdo aloqalarini olib borishgan. Har ikkala davlatning savdogarlari savdo ishlarida faol ishtirok etib, qo'qonlik savdogarlar Buxoro amirligiga xo'jalik hayotida zarur bo'lgan rus temiri, po'lat va cho'yandan yasalgan buyumlar, tamaki, ro'mol, guruch va ba'zi xitoy yoki mahalliy ipak gazlamalari, choy, chinni idishlar olib borishgan bo'lsa, buxorolik savdogarlar esa Qo'qonga hind choyi, surp mato, harir, bo'yoq, afyun (taryok), zardo'zlik mahsulotlari, ip va gazlama olib kelishgan.

Rus chiti Buxoroning Qo'qon xonligi bilan savdosida alohida o'rin egallagan. Bu mato Orenburg yoki Petropavlovskdan Kazalinskka, undan Buxoro, Samarqand va Xo'jand orqali Qo'qonga olib kelingan. Shuningdek, xonlikda Mashhaddan olib kelinadigan ingliz gazlamalari, oz miqdorda bo'lsa ham Kobulning to'n va sallalari, hind attorlik mol-larini ham keltirishgan.

Qo'qon xonligining Qashg'ar bilan savdo munosabatlari xuddi Buxoro amirligi kabi bo'lib, Qashg'ardan Qo'qonga afyun, chinni idishlar, kumush, xitoy ipak matolari, tola va gilamlar olib kelingan. Qozoq juzlarining Rossiyaga tobe etilishi hukmdor tabaqalar o'rtasidagi o'zaro urushlarning to'xtashiga sabab bo'ldi va bu holat O'rta Osiyo-ni, jumladan, Qo'qon xonligining Sibir, Ural, Volgabo'yi bilan savdo aloqalariga keng yo'l ochdi.


Xonlik Hindiston bilan ham muntazam savdo aloqalarini olib bo-rib, manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Hindistondan yiliga Qo'qon, Tosh-kent, Buxoro va Qashg'arga Kobul orqali 10.000 dan 15.000 tuyagacha mahsulot yuborilgan. Ular orasida ip gazlamalar, ipak, echki juni, ot-lar va boshqalar chiqarilgan. Otlar savdoning katta foyda keltiradigan manbalaridan biri bo'lgan. Hind savdogarlari xonlikdagi shaharlarda yashab tijorat va hatto, sudxo'rlik bilan shug'ullanganliklari haqida ham ma'lumotlar bor.

Qo'qonning tashqi aloqalarida Qo'qon–Rossiya savdo munosabat-lari ham alohida o'rin tutgan. Manbalarga ko'ra, 1861-yildan keyin rus sanoatining jadal rivojlana boshlaganligi xomashyo bazasi va tashqi bo-zorga bo'lgan ehtiyojning yanada kuchayganligi Rossiyaning Qo'qon

bozorini faol egallab, undan cheksiz foydalanishning asosiy sabablari-dan biri bo'lgan. Rossiyadan Qo'qonga temir, mis, po'lat, cho'yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazlamalar, oz miqdorda baxmal, shakar, oynalar, charm, Rossiyaga tobe bo'lgan qozoq cho'llaridan qo'ylar va uning terisi, charm va charm mahsulotlari, kigiz olib kelingan. Xonlikdan esa Rossiyaga asosan paxta olib chiqilgan.

7.5. Qo'qon xonligida madaniy hayot

Me'morchilik va amaliy san'at. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi kuchli markaziy hokimiyatga ega bo'lgan markazlashgan davlat sifatida qaror topishi natijasida iqtisodiyotning birmuncha jonlanishi madaniy hayotga ta'sir etmay qolmadi. Mamlakat poytaxti Qo'qon va boshqa shaharlarda bir qator me'morchilik obidalari, yo'llar, ko'priklar, hammomlar qurildi, amaliy va xattotlik san'ati rivoj topdi. XIX asrning birinchi yarmida xonlikda Umarxon, Muhammadalixon, Nodirabegim, Xudoyorxon, Sulton Murodbek, Sulton Sayidxon, harbiy boshliqlardan Musulmonquli, Aliquli, Xolmuhammad mingboshilar va zamonasining ilg'or, ma'rifatli kishilari tomonidan me'moriy obidalar qurdirildi, shaharsozlik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Me'morchilikda asosiy e'tibor madrasalar, masjidlar, xonaqolar, darvesh va qalandarlar uchun takyaxonalar, qorixonalar, sardobalar, ko'priklar, hammomlar, bozor rastalari barpo etish ishlariga qaratilgan.



Qo'qon. Xudoyorxon saroyi. XIX asr.

Me'morchilik imoratlarining markazi Qo'qon shahri edi. 1842-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda 15 ta madrasa mavjud bo'lib, eng ko'zga ko'ringanlari Hakim to'ra, Mohlar oyim, Muhammadalixon, Norbo'tabiy, Jomiy, Oliy, Sulton Murodbek, Xo'ja dodxoh, Ming oyim madrasalari bo'lgan. Shahar markazi Chorsuda to'rtta yirik madrasa qad ko'targan. Ushbu madrasalarning 38 tadan 108 tagacha hujrasi bo'lgan.

Bu davrda Toshkent shahrida ham bir qancha madrasalar barpo etilgan. Jumladan, Umarxon davrida Tinchbof guzarida Shukurxon madrasasi, Ko'kcha dahasida Eshon Bo'rixo'ja Sachiqmoni madrasasi qurilgan. Keyinroq Muhammadalixon farmoni bilan shahar registonida madrasa qad rostlagan va unga Mir Inoyatulloh bosh mudarris etib tayinlangan. Isoxo'ja madrasasi, Charxchiko'cha madrasasi, Mahmud dasturxonchi madrasalari ham shu davrda bunyod qilingan.

Shuningdek, Marg'ilonda Saidahmadxo'ja madrasasi, Andijon shahri atrofida Otaqo'zi madrasasi, Mirzaquli Bo'lish madrasasi kabilar qurilgan. Umuman olganda, xonlikning Qo'qon, Toshkent, Andijon, Xo'jand, O'ratepa, Marg'ilon, Turkiston kabi shaharlarida 200 dan ortiq madrasalar barpo qilingan.

Xonlikda Jome (juma va hayit namozlarini o'qish uchun) va mahal-la (besh vaqt namoz o'qish uchun) masjidlari qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Jome masjidlari o'zining salobatlilikiga bilan ajralib turgan. Ular baland gumbazli va tekis shiftli bo'lib, har ikkala turdagi binoning ichki ko'rinishidagi shiftiga va tashqi gumbaz bezagiga o'zgacha e'tibor berilgan. Masjidlar binosining qurilishi va ularning ta'miri asosan vaqflar hisobidan amalga oshirilgan.

Qo'qon xonligida maqbaralar xonlar, sayid va xo'jalar qabrlari ustida barpo qilingan va ularning qurilishi hamda ta'mirlanishi savobli ishlardan hisoblangan. Shuningdek, maqbaralar qurdirish obro' orttirish vositasi ham bo'lgan. Farg'ona vodiysida XVIII–XIX asrlarda qurilgan maqbaralarning ichki ko'rinishida XI–XII asrlarga xos an'analar kuzatiladi.

Xonlik me'morchiligi tarixida jamoat binolari sirasiga kiruvchi hammomlar alohida o'rin egallaydi. Hammomlar pishiq g'ishtdan, bir necha gumbazli qilib qurilgan va ular egasining nomi bilan atalgan.

Xonlikda me'morchilikning rivojlanishi savdo-sotiq munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan inshootlar qurilishida ham kuzatiladi. Xonlik

hududlarida markaziy yo'llar bo'ylab rabot va karvonsaroylar faoliyati davom etgan, bozorlar rivojlangan. Jumladan, Toshkentda Chorsu bozori sakkizta ko'chani birlashtirgan. Bu bozor o'nga yaqin savdo maydonlari va qirqqa yaqin savdo-hunarmandchilik rastalarini o'z ichiga olgan. Rastalar ko'chani ikki tomoni bo'ylab joylashgan va ularni ko'cha o'rtasini egallagan baland tim birlashtirgan. Tim yog'och tirkagich va to'siqlardan tashkil topgan. Bunday bino va inshootlar hukmdorlar, alohida amaldorlar va shaxslar tomonidan qurdirilgan.

Xonlik me'morchiligiga yog'och, temir, pishiq yoki xom g'isht, yupqa sopol g'isht, ganch, marmar, xarsang tosh, sog' tuproq va ohak asosiy qurilish materiallari hisoblangan. Temir va yog'och kam bo'lganligi bois qurilishda ko'proq pishiq yoki xom g'isht, ganch, tosh, loy, somon va ohak ishlatilgan. Binolar poydevoriga xarsang-tosh yoki marmartosh yotqizilgan. Qurilishda terak, tol, tut, yong'oq, qayrag'och va archa yog'ochlaridan keng foydalanilgan. Pishiq g'isht, ganch, yupqa sopol g'ishtlar maxsus xumdonlarda pishirib tayyorlangan.

Xonlikda qurilgan binolarning umumiy tuzilishi va rejalashtirishda an'anaviylik saqlanib qolgan bo'lsa-da, Qo'qon me'morchiligida tashqi aloqalarning ham ta'siri seziladi. Binolarning bezaklarida rang-barang g'ishtlar ko'p ishlatilgan. Shiftlarga solingan gullar O'rta Osiyodagi qadimiy yodgorliklardan o'zining jimjimadorligi, bo'yog'ining yorqinligi, ularning ba'zan ko'zni qamashtiradigan darajada aralash-quralash bo'lib ketganligi bilan farq qilgan.

Qo'qon xonligida qurilish va me'morchilik bilan birga amaliy san'at ham rivoj topgan. Xususan, amaliy san'atning naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi sohalari yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, ulardan me'morchilikda keng foydalanilgan. Amaliy san'atning yuqori darajasi Xudoyorxon saroyida, Oltiariqdagi Do'sti Xudo masjidi ayvonida ishlangan nashqlarda, Andijon atrofidagi Otaqo'zi madrasasi bezaklaridagi islamiy naqshlarda, Chodak masjidining yog'och va ganch o'ymakorligida, Rishtondagi Xo'ja Ilg'or masjidining shift bezaklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrda Qo'qon xonligida Oqmachit, Avliyoota, Pishpak qal'alari qurildi. Xonlikning ko'plab shaharlarida turli darajadagi binolar, xususan, madrasalar bunyod etildi. Norbo'tabiy, Madalixon madrasalari, Madrasayi Kamol qozi, Madrasayi Tunqator,

Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Xonxo'ja Eshon, Madrasayi Jome va boshqalar shular jumlasidandir.

Turli darajadagi, ayniqsa diniy-me'moriy inshootlar qurilishi, imoratlarni ta'mir etishi, obodonchilik ishlari Toshkentda ham olib borildi. XIX asr birinchi yarmida Toshkentda Eshonquli dodxoh, Mahmud dasturxonchi, Beklarbegi, Muhammad Alixon, Eshon Isoxo'ja qozi, Shukurxon, Eshon Bo'rixo'ja Sanchiqmoniy kabi madrasalar, qator masjidlar qurilgan, Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari ta'mirlangan, Shayxontohur majmuasi obodonlashtirilib, qurilishlar oxiriga yetkazilgan, Shayx Zayniddin bobo uchun yangi maqbara qad rostlagan, yangi Qo'qon o'rdasi barpo etilgan.

Qo'qon xonligi me'morchiligi va amaliy san'atida butun O'rta Osiyo uchun xos bo'lgan an'anaviy uslublar bilan bir qatorda mahalliy xususiyatlar ham saqlangan. Qo'qon, Toshkent me'morchilik maktablarining vakillari jamoat binolarini qurish va ularni bezashda, naqshlar tanlashda o'z maktablarining an'analari takomillashtirishgan hamda rivojlantirishgan. Qo'qon va Toshkentning mahalliy me'morchilik maktablari o'zlarining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak va jihozlarning g'oyat nafisligi, ranglarning sho'xchanligi hamda yog'och va ganch o'ymakorligi bilan ajralib turadi. Xonlik me'morchiligida chiroyli qilib aylantirib urg'u berilgan, ichiga islmiy naqshlar tushirilgan, ko'proq qizil hamda yashil bo'yoqlar bilan jilolangan bezaklar ko'pchilikni tashkil etadi.

Shu davrda xonlikda xattotlik va kitobat san'ati ham rivoj topgan edi. Qo'qon xonligining o'z xattotlik maktabi bo'lib, mamlakatda ko'plab xattotlar yashab, ijod qilishgan. Xattotlarning aksariyati shoir, tarixchi bo'lgan yoki miniatyura san'ati bilan shug'ullangan. Qo'qonlik Muhammad Latif, Abdulg'ozir Xo'ja Xo'qandiy, Mirzo Bobokalon Xo'qandiy, Ahmadjon kotib, Abdug'afur xattot, Mirzo Sharif Dabir, toshkentlik Muhammad Yunus Toyib Toshkandiy, Abdulvahobxo'ja muhrkan, eshon Abdusamixo'ja Xatib o'g'li kabilar ko'zga ko'ringan xattotlardan bo'lishgan. Bu xattotlar nasx, shikasta, nasta'liq kabi yozuv usullarini puxta egallaganlar. Xattotlik san'ati asosan Qo'qon, Toshkent, Andijon, Xo'jand, O'rtepa kabi shaharlarda ko'proq rivoj topgan.

Ilm-fan. Tarixnavislik. So'nggi o'rta asrlarga kelib O'rta Osiyo-ning deyarli barcha hududlaridagi ilm-fan, ta'lim va ma'rifat sohalarida

diniy ta'limotlar hukmronlik qila boshladi. Boshlang'ich maktablarda ham, madrasalarda ham asosiy e'tibor diniy ta'lim berishga qaratilgan. Diniy fanlarni o'qitish madrasalarning asosiy vazifasi hisoblanib, dunyoviy fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlar taraqqiyotida birmuncha turg'unlik kuzatiladi. Madaniy hayotda yuzaga kelgan bunday vaziyat Qo'qon xonligidagi ilm-fanning ahvoliga, ayniqsa bu soha rivojining biryoqlamalik xususiyatiga sabab bo'lgan edi.

Bu davrda aniq va tabiiy fanlarning xo'jalik va maishiy hayotda, ya'ni amaliyotda qo'llaniladigan sohalarigagina e'tibor qaratilgan. Kundalik turmushda tibbiyot, me'morchilikda matematika va handasa, sug'orma dehqonchilikda o'simlikshunoslik, gidrologiya va muhandislik ilmidan foydalanilgan. Shunga ko'ra, xonlikda aniq va tabiiy fanlardan tibbiyot, geografiya, tabiatshunoslik fanlari bilan shug'ullangan olimlarni ko'rsatish mumkin.

Toshkentlik Muhammad Solih (Qoraxo'ja eshon domla) o'lka-shunos-geograf, tabiatshunos-zoolog olim sifatida ijod qilgan. U o'zining «Tarixi jadidayi Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi») asarida Toshkent shahri va vohasining geografiyasi, toponimikasi, o'simlik olamini yoritgan. Tabobat bilan shug'ullangan Mullo Avaz Muhammad tibbiyotga oid «Mavorix al-qulub» («Qalblar sururi») nomli asar muallifidir. U tabib sifatida bemorlarni o'tlar (giyohlar) yordamida davolash bilan ham mashhur bo'lgan.

Xo'jandlik Hoji Yusuf Hay'atiy eski maktabda tahsil olib, o'zi mustaqil ravishda astronomiya, tabiat, geografiya fanlarini o'rgangan. Dunyoning ko'pgina mamlakatlariga sayohat qilgan Hoji Yusuf uzoq yillar davomida o'zining «Falakiyot» nomli asarini yaratgan. Ammo ushbu asar bizgacha yetib kelmagan. Qo'qonlik Muhammad Hakimxonto'ra o'zining «Muntaxab ut-tavorix» («Saylangan tarixlar») asarida Turkistonga oid geografik va seysmologik ma'lumotlar berib, 1823-yilda Farg'onada yuz bergan zilzila haqida batafsil bayon qilgan. Uning geografiyaga oid ma'lumotlari esa O'rta Osiyo geografik adabiyotining sarguzasht-sayohat janri bo'la oladi.

Umuman olganda, xonlikda aniq va tabiiy fanlar o'z rivojida davr talablaridan orqada qolib ketgan bo'lsa-da, ijtimoiy-gumanitar fanlardan tarix va tarixnavislik, adabiyot ko'proq rivojlandi. Qo'qon tarixnavislik maktabiga mansub asarlar she'riy yoki qisman she'riy uslub yo'lida

yozilganligi bilan ajralib turadi. Garchi bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarda maqtoʻv, balandparvoz gaplar, hukmdor shaxsini ulugʻlash kabi xususiyatlar koʻzga tashlansa-da, bu asarlar oʻz davrining mahsuli, oʻsha davr haqida maʼlumot beruvchi muhim manbalar sifatida juda qimmatlidir.

Bular qatoriga Niyoz Muhammad Xoʻqandiyning «Tarixi Shohruxiy», Mirza Olim ibn Mirza Rahim Toshkandiyning «Ansab-ul salotin va tavorix ul-xavoqin», Otabek Fozil oʻgʻlining «Mufasssal tarixi Fargʻona», Akmal Shermuhammad Xoʻqandiyning «Amirnomi», Fazliyi Fargʻoniyning «Umarnoma», Mirzo Qalandar Mushrifning «Shohnomai Nusratnomi», Muhammad Hakimxon toʻraning «Muntahab at-tavorix», Mullo Avaz Muhammadning «Tarixi jahonnamoyi», Tohiri Xoʻqandiyning «Gʻaroyibi sipoh» kabi koʻplab tarixiy asarlarni kiritish mumkin.

Qoʻqon adabiy muhiti. Qoʻqon xonligi madaniy hayotida adabiyotning oʻrni ayniqsa yuqori edi. Shuning uchun adabiyot rivojiga katta taʼsir koʻrsatgan Qoʻqon adabiy muhitining shakllanishi xonlikda madaniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon boʻldi.

Isteʼdodli shoir va shoirlar, yozuvchilar, yaʼni oʻz ilmining ustalari tomonidan shakllangan Qoʻqon adabiy muhitining oʻziga xos xususiyati – uning vakillari ikki yoʻnalishda ijod qilganliklaridadir. Birinchi yoʻnalishga mansub ijodkorlar saroy shoirlari boʻlib, ularning asarlarida boy tabaqa vakillari madh etilgan. Ikkinchi yoʻnalish vakillarining asarlarida esa xalqning orzu-umidlari, intilishlari, dard-u hasratlari oʻz ifodasini topgan. Har ikkala yoʻnalish vakillarining umumiy jihati ham mavjud boʻlib, bu ularning asarlarida Vatan timsoli, unga muhabbat his-sining ilgari surilganligidir.

XIX asr boshlariga kelib xonlikdagi madaniyat yangi bosqichda rivoj topdi. Shahar va qishloqlarda koʻplab maktablar tashkil etildi, madrasa va masjidlar qurildi. Mazkur davrda Qoʻqonda 120 ta maktab, 40 ta madrasa va masjid, Margʻilonda 80 ta maktab, 10 ta madrasa va masjid, Toshkentda 20 ta madrasa, 300 taga yaqin masjid (ularning 266 tasi shaharda, 40 tasi shahar tashqarisida) va ular qoshida maktablar faoliyat yuritgan. Qoʻqon xoni Umarxon aynan taʼlim tizimiga katta eʼtibor berib, ularda hunar oʻrgatishga ham ahamiyat qaratgan. Aynan Qoʻqon xoni Umarxon (1810–1822) davrida xonlikda ilmiy-madaniy

muhit taraqqiy topdi. Shubhasiz, mazkur jarayonda xonning rafiqasi, taniqli shoira Nodirabegimning (Mohlaroyim) hissasi yuksak darajada bo'ldi. Umarxonning o'zi «Amiriy» taxallusi ostida she'rlar, g'azallar yozgan. Uning hukmronligi davrida saroyda 70 dan ziyod shoir jam etilgan. 1821-yili Fazliy Namangoniy xon buyrug'iga ko'ra 63 ta shoirning she'rlarini o'z ichiga olgan «Majmuayi shoiron» to'plamini tuzgan. Shu davrda xonning ko'rsatmasiga ko'ra arab va fors tilidagi qator kitoblar o'zbek tiliga o'girilgan. Noyob kitoblar, jumladan Alisher Navoiy asarlari iste'dodli xattotlar tomonidan ko'chirilib, nafis tasvirlar bilan bezatildi. Shu davrdagi yirik shoirlardan biri Maxmur (asli ismi Mahmud – XVIII asr oxirlari, 1844) bo'lib, u Qo'qondagi madrasayi Mirda tahsil olgan. Birmuncha vaqt sipohiylik qilgan. Maxmurning hajviy she'rlar devoni (3717 misra) bizgacha yetib kelgan. U o'z she'rlarida ijtimoiy adolatsizlik, haqsizlikni keskin qoralaydi. Bu borada, ayniqsa uning «Hapalak» she'rini misol qilib keltirish mumkin. Shoir adabiyot sohasida ijtimoiy hajviyani yuksak pog'onaga olib chiqdi.

Mazkur davr adabiyotining yana bir taniqli vakili Gulxaniy (Muhammad Sharif) (1770 – XIX asr 20-yillari) bo'lgan. U Namangan va Qo'qonda istiqomat qilib, ancha hayotiy qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Qo'qonda bo'lgan vaqtida shu yerdagi hammomlardan birida o't yoquvchi – go'lax bo'lib ishlaydi. Shu tufayli keyinchalik Gulxaniy taxallusi ostida ijod qilgan. Gulxaniy o'zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida kiritgan ilk ijodkor hisoblanadi. Bu borada uning mashhur asari – «Zarbulmasal» bo'lib, u chuqur axloqiy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Qo'qon adabiy muhitining yana bir mashhur namoyandasi Jahon otin bo'lib (1780–1841), u Uvaysiy taxallusi ostida ijod qilgan ayol shoira hisoblanadi. Asli o'qimishli oiladan bo'lgan Uvaysiy Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy, Bobur, Hofiz Sheroziy va boshqalarning ijodini qunt bilan o'rgandi. Amir Umarxon taxtga o'tirgach, el-yurtda ancha taniqli bo'lib qolgan Uvaysiyni poytaxtga taklif qiladi. Uvaysiy saroyda Nodirabegim bilan ijodiy hamkorlik qilib, ko'plab shogirdlarga ustozlik qiladi. Uvaysiy axloqiy fazilatlarini qadrllovchi ijodkor bo'lib, o'z asarlarida sof insoniy munosabatlar, el-yurtga muhabbat, oddiy xalq og'irini yengil qilish, uning dardi bilan yashash lozimligini uqdiradi. Uning adabiy merosida 269 ta g'azal, 29 ta muxammas, 3 ta doston va boshqalar bor.

O'zbek adabiyotida, shubhasiz Nodirabegimning o'ziga xos muhim o'rni mavjud. Mohlaroyim – Nodirabegimning asl ismi bo'lib, (1792–1842) u Andijonda tavallud topgan. Otasi Rahmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi bo'lgan. Bo'lg'usi taxt egasi hali Marg'ilonda hokim bo'lib turgan davrida Mohlaroyimning ta'rifini eshitib, unga uylanadi. Nodirabegim Uvaysiy bilan tanishgach, uni farzandlari va kanizaklarini o'qitishga taklif qiladi. Nodirabegim Amir Umarxon vafotidan so'ng (1822), o'g'li Muhammad Alixon yosh bo'lganligi bois, davlat ishlarida faol ishtirok etadi. U ko'plab olimlar, xattotlar, naqqoshlarni poytaxtga to'playdi. Ko'plab kitoblarni qayta ko'chirtiradi, ijodkorlarga homiylik qiladi, maktablar tashkil etib, madrasalar qurdiradi. Shoir o'zbek va tojik tillarida bemalol ijod qila olgan. Uning Nodira, Komila, Maknuna taxalluslari ostida 10000 misraga yaqin ijodiy merosi bizgacha yetib kelgan. Uning asarlarida mehr-muhabbat, sadoqat, vafo kabi tuyg'ular, xotin-qizlarning og'ir dard va sitamlari bevosita aks etgan.

Qo'qon xonligida ijod qilgan yana bir iste'dodli shoir Boborahim Mashrab (1640–1711) hisoblanadi. U asli Namanganda tug'ilgan bo'lib, 17 yoshida xat-savod chiqargan. 15 yoshidan boshlab esa tasavvuf ilmini egallashni boshlagan. Birmuncha vaqtdan so'ng turli musulmon davlatlariga borib qaytgan. Mashrab o'z she'riyatida xalq, oddiy inson turmush tarzining og'irligini, hukmron zodagonlarning jabr-zulmi, ba'zi riyokorona ulamo va ruhoniylarning riyokorona xatti-harakatlarini ayovsiz qoralaydi. Uning ijodi o'ziga xos bo'lib, boshqalarnikiga umuman o'xshamaydi. Mashrabning alohida jam etilgan asarlari topilmagan. Xalq orasida Mashrabning «Devonayi Mashrab», «Eshoni Mashrab» nomlari ostida turli darajadagi qissalari saqlanib qolgan. Mashrabning dadil va oshkora fikrlashi, hukmron tabaqa vakillarning ayovsiz taqdiri, ma'lum darajadagi hurfiylik shakkoklikda ayblanishiga sabab bo'ladi. U 1711-yili Balx hokimi Mahmudbiy Qatag'on tomonidan shakkoklikda ayblanib qatl etiladi.

Shular bilan bir qatorda, xonlik adabiy muhitining boshqa vakillari ham samarali ijod qilishgan. Ular orasida «Majmuat ush-shuaro» («Shoirlar to'plami») asarining muallifi Fazliy Namangoniy, «Devoni Huvaydo», «Rohati dil» dostonlarining egasi Huvaydo, Muhammad Yunus Toib, Muqimiy, Xo'qandiy, Nodir, Nozim kabi shoirlar, Dil-

shod Barno, Anbar otin kabi shoiralarning nomini alohida ta'kidlash lozim.



Nodirabegim.



Uvaysiy.

Qo'qon xonligidagi adabiy muhit va madaniy hayotni shakllantirishda Temuriylar davriga taqlid yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni hukmdor Umarxon davrida shakllangan, uning boshchiligidagi faoliyat ko'rsatgan adabiy muhit va adabiyot namoyandalari misolida, yaratilgan asarlarining shakli va janrlarida ko'rish mumkin. Madaniy hayot va adabiy muhitda ham ming sulolasini ulug'lashga intilish ustunlik qildi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Qo'qon xonligi nihoyatda murakkab, siyosiy kurashlar avj olgan bir davrda vujudga kelib, shakllandi. Chunki, xonlik tashkil topgan davr O'rta Osiyoda buyuk imperiyalar davri o'tib, mahalliy yo'l boshchi sulola vakillari turli yo'llar bilan hokimiyatni qo'lga olib, qabilaviy konfederatsiya asosida davlat tuza boshlagan davrga to'g'ri keldi. Urushlar va o'zaro kurashlarga boy bo'lgan Qo'qon xonligi davlat boshqaruv shakliga ko'ra mutlaq monarxiya bo'lib, mamlakatda mulkdor tabaqalar, yetakchi urug' (ming, qipchoq, qirg'iz, saroy)larning zodagonlari, ruhoniylar, ayniqsa sayidlar va xo'jalar yuksak maqomga ega edilar.

XIX asr o'rta davridagi siyosiy boshboshdoqlik, o'zaro urush va nizolar mamlakat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, Qo'qon xonligi hayotining

barcha sohalarida tushkunlik davri boshlandi. Bundan unumli foydalan-gan Rossiya imperiyasi «o'z chegaralarida» tinchlikni o'rnatish bahona-sida xonlik hududlarini bosib oldi va uning o'rniga 1876-yilda Farg'ona viloyati tashkil topdi.

7.6. XVIII–XIX asrlar birinchi yarmida Toshkent

Ta'kidlash joizki, XVIII asr boshlarida Toshkent va uning atrofidagi yerlar alohida mavqega ega edi. Garchi bu hudud rasman Buxoro xon-ligini boshqarayotgan Ashtarxoniylarga qaram hisoblansa-da, xonlikda kechayotgan boshboshdoqlik, o'zaro parokandalik turli viloyat va hu-dudlarning mustaqil faoliyat yuritishlariga yo'l ochib bergan edi. XVIII asr birinchi yarmida Toshkent jung'orlar va qozoqlarga ham birmuncha vaqt qaram bo'lib qolgan. Muhammad Hakimxon to'raning «Muntaxab at-tavorix» asarida yozilishicha, 1747-yili toshkentlik xo'jalar Qozoq xonining Toshkentdagi noibi Bahodir farmonni qatl etib, hokimiyatni o'z qo'llariga olishgan. Garchi hokimiyat xo'jalar qo'liga o'tgan bo'lsa-da, lekin XVIII asrning 70-yillariga qadar Toshkent o'z xavfsizligi nuq-tayi nazaridan qozoqlarning O'rta juziga boj solig'i to'lab turgan.

Toshkent tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarga boy bo'lgan Mu-hammad Solihxo'ja Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari-da yozilishicha, shahar bu davrda 4 ta daha (qism)ga bo'lingan. Ushbu to'rt daha – Sebzor, Shayxontohur, Ko'kcha, Beshyog'och nomlari bi-lan atalib, ularni mashhur urug' boshliqlari, nufuzli zodagonlar boshqa-rishgan. Xususan, Shayxontohur – Boboxon to'ra, Beshyog'och – Ra-jabbek, Ko'kcha – Muhammad Ibrohimbek, Sebzor – Jo'chi urug'i va-killari tomonidan boshqarilgan. Tarixda ushbu boshqaruv shakli «chor hokimlik» («to'rt hokimlik») nomini olgan. Daha boshliqlari odatda bir-birlari kelishgan holda ish tutishga harakat qilgan bo'lsalar-da, XVIII asr 80-yillariga kelib o'zaro nizo va tortishuvlar domiga tushib qola boshladilar. Bu hol shaharning iqtisodiy hayoti, ayniqsa tashqi dush-manga qarshi birgalikda kurash masalasiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

1784-yili barcha urug' boshliqlari, zodagonlar, harbiylar ishtiroki-da o'tkazilgan katta yig'inda Toshkent viloyatiga yagona rahbar say-lab olishga ahd qilindi. Hokim sifatida Yunusxo'ja tayin etildi. Mazkur voqelik mustaqil Toshkent hokimligining yuzaga kelganligidan darak

berar edi. Yunusxo'ja o'z boshqaruvida shahar dahalarining boshliqlari – oqsoqollar va nufuzli xo'jalarga suyanar edi. Oqsoqollar har bir dahada saylanar va aksariyat o'ziga to'q zodagonlar avlodidan bo'lar edi. Yunusxo'ja (Yunusxon) tashqi dushmanga qarshi turishda, shahar ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga oid masalalarni hal etishda shubhasiz oqsoqollar bilan bamaslahat ish tutar edi. Yunusxon tomonidan shahar ichki hayotiga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, don ekinlari hosildorligini oshirish, bog'-rog'lar hududini kengaytirish, shahar mudofaa devorlarini mustahkamlash, shahar xavfsizligini ta'minlash shular jumlasidandir. Hokimlikning 4 ta maslahatchisi bo'lgan, Toshkent shahri nazorati va shahar ahlidan soliq yig'ib olish Boshchixo'ja nomli zodagonning qo'li ostida mujassam bo'lgan. Shahardagi savdo-sotiq ishlarini qozi va devonbegi nazorat qilgan. Rais esa shariat qonun-qoidalari, bozordagi narx-navo, tosh-torozilar ustidan o'z nazoratini amalga oshirgan.

Yunusxon o'z davlati chegaralarini kengaytirish maqsadida 1788–1796-yillarda bir qator yurishlarni amalga oshirdi. Shu yillar davomida Chimkent, Sayram, Turkiston va boshqa bir qator yerlar Toshkentga qo'shib olindi.

Toshkent qadimdan savdo karvonlari tutashgan, qulay strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududda joylashgan shahar sifatida shuhrat qozongan edi. Toshkent hokimligi shu davrda Sirdaryo bo'ylari, Rossiya-ga O'rta Osiyodan boradigan muhim savdo yo'llari ustidan nazoratni qo'lga oldi. Shuningdek, Toshkent hokimligi qozoqlarning Katta juziga ham o'z ta'sirini yanada kuchaytirishga muvaffaq bo'ldi. Toshkent hokimligi mavqeyini pasaytirish, o'z hududini yanada kengaytirish, Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida 1799-yili Qo'qon xoni Olimxon Toshkentga yurish boshladi. Toshkent hokimi Yunusxon Chirchiq daryosi bo'yidagi Qorasuv mavzesida xonlikka zarba berib, qo'qonliklarni chekinishga majbur qiladi. Ushbu g'alaba natijasida Sirdaryoning o'ng sohilidagi Qurama mavzesi Toshkent hokimligiga qo'shib olindi. Bu davrda shaharning Rossiya, qozoq juzlari, Qashqar, Xitoy bilan o'zaro savdo munosabatlari bo'lgan. Toshkentda ikki xil pul: tanga va rupiya muomalada edi. Toshkentning Rossiya bilan munosabatlari ham ancha rivoj topdi. 1786-yilda toshkentlik savdogarlar Irbit yarmarkasida bo'lishgan. Bir yildan so'ng esa Troitsk shahridan

Toshkentga Rossiyaning katta savdo karvoni tashrif buyurgan. 1795-yili Toshkent savdo karvoni Semipalatinskda bo'lgan. Toshkentlik Rahmatulla karvonboshi boshliq savdogarlar Janubiy Ural yerlari bilan doimiy savdo munosabatlarini o'rnatishgan. Yunusxo'ja o'zaro siyosiy aloqalarni ham yo'lga qo'yishga uringan. U 1792-yili Sibirdagi rus ma'muriyatiga o'zaro munosabatlarni o'rnatish maqsadida o'z vakillarini jo'natadi. 1796-yili Sibir ma'muriyati ham o'z elchilarini Toshkentga yuboradi. Toshkent elchilari 1803-yili Sankt-Peterburgga borib, Rossiya imperatori Aleksandr I qabulida bo'ladilar. Mazkur voqealar Toshkent hokimligi mavqeyi o'sganligidan darak berar edi. Qozoq juzlari ham Toshkent hokimligi qudratini tan olib, u bilan do'stona munosabatlar o'rnatishdi. Qo'qon xoni Norbo'tabiy (1764–1800) Toshkentni o'ziga bo'ysundirish maqsadida amalga oshirgan harbiy yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. O'z yutug'idan rag'batlangan Toshkent hukmdori Yunusxon ham o'zining Qo'qon xonligiga harbiy yurishlarini uyushtirdi. G'urumsaroy ostonasida bo'lib o'tgan jangda yengilgan Yunusxon tez orada 1803-yili vafot etdi. Yunusxonning o'g'li Sultonxo'ja otasining siyosatini davom ettira olmay, Qo'qon xonligiga taslim bo'ladi. (1808) Shundan so'ng Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olindi. Umarxon (1810–1822) davrida Toshkent atrofidagi hamda undan shimoldagi yerlar ham xonlik tasarrufiga o'tdi. Shu tariqa, 1784-yildan to 1808-yilgacha davom etgan Toshkent hokimligi davri tarixi nihoyasiga yetdi.

Ta'kidlash joizki, XVIII asr oxirlariga kelib Toshkent hududining nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy markazi rolini ham o'tar edi. Bu davrda shahar hududi 16 km², aholisi 80–100 ming atrofidagi kishini tashkil etgan.

Shaharning shimoliy chegarasi Kaykovus arig'i, sharqiy chegarasi Anhor kanali, janubiy chegarasi Beshyog'ochdan Samarqand darvozagacha, undan Ko'kehaga qadar cho'zilgan edi. Mazkur chegara oralig'idagi Toshkent «katta shahar» nomini olgan. Shaharning markaziy qismi esa «Eski Toshkent» deb atalib, u istehkom devori bilan o'rab olingan. Shahar mudofaa devorining balandligi 5 metrdan 10 metrgacha, qalinligi 1,5 metrni tashkil etgan. Toshkent qal'asining 6 ta darvozasi bo'lgan. XVIII asr birinchi yarmida shaharda 40 ta jome masjidi, ko'plab mahalla masjidlari, madrasalar, katta Chorsu bozori mavjud edi. Uylarning bir

qismi pishiq g'ishtdan bo'lib, shaharda ko'plab bog'-u rog'lar, ariqlar mavjud bo'lgan.

Sayyohlar ma'lumotiga ko'ra 1739-yili shaharning 8 ta: Samarqand, Beshyog'och, Terserak, Shayxontohur, Taxtapul, Tarsaxon, Qorasaroy (Qopqon), Ko'kcha darvozalari mavjud bo'lgan. Keyinchalik ularning soni 12 taga yetgan (Qashqar, Labzak, Beshyog'och, Kamolon, Samarqand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy, Taxtapul, Qo'qon, Qo'ymas).

XIX asr birinchi yarmiga kelib Toshkent aholisining madaniy sa-viyasi ancha yuqori bo'lib, shahar nisbatan obod, bog'-u rog'larga boy maskan bo'lgan. Shaharda ko'plab uzun va qisqa, tor va keng ko'chalar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi shahar bozoriga borib tutashar edi. Ko'chalar oralig'ida ko'pincha kichik maydonchalar ham bo'lgan. Ular tutashgan yer «chahor» deb atalgan, ko'pgina bostirmali ko'chalar odatda usti yopiq tarzda bo'lgan. Bozor ichidagi ko'chalar ham odatda usti yopiq tarzda bo'lar edi. Shaharliklar ko'cha va maydonlar, suv havzalari, ariqlar hovuzlar tozaligiga katta e'tibor bilan qarashar, umumiy hasharlarda katta yoshdagi erkaklarining barchasi ishtirok qilar edi. Bir necha ko'chalar – mahallalarga birikar, mahallalar kesishgan joyda guzarlar mavjud edi. Guzar yonida odatda kichik bozorhalar mahalla ahliga xizmat qilardi. Har bir mahalla o'z masjidi, hovuziga ega edi.

Shahardagi suv ta'minoti Chirchiq daryosining tarmog'i bo'lgan Bo'zsuvg ko'p holda bog'liq bo'lgan. Bo'zsuva va Chirchiq daryolari-dan shahar tomonga Kaykovus, Anhor, Labzak, Chorsu, Tarlan va boshqa kanallar o'tgan. Shaharda yana boshqa ko'plab toza suv yetkazib beruvchi ariqlar, quduqlar ham bor edi. Ariqlar ko'p hollarda hovlilardan kesishib o'tib, aholining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirardi. Toshkent va uning atrofidagi, tuproqning unumdorligi suv inshootlarining rivoj topganligi dehqonchilik uchun yetarli shart-sharoitlar yaratdi.

Shahar hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib, unda gazlama to'qish, tikuvchilik, ko'nehilik, poyafzal tikish, kulolchilik, metall va yog'ochga ishlov berish, zargarlik va boshqa hunarmandchilik soha-lari yaxshi rivoj topgan edi. Shahar qulay geostrategik hududda, savdo karvonlari kesishgan yerda joylashgan edi. Shaharning shimoldagi Qozoq dashtlari, Xitoy, Sibir, Rossiyaning boshqa yerlari bilan savdo-sotiq munosabatlari ham taraqqiy etgan bo'lib, bu hol Toshkentda hu-

narmandchilik sohalarining yanada rivoj topishiga ijobiy turtki sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, chitgarlik (chit to'qish), bo'z to'qish, shoyi matolar, bo'yoqchilik, kulolchilik, metall va yog'och buyumlar, zargarlik, charm-ko'n mahsulotlariga ehtiyoj katta bo'lgan. Mazkur soha buyumlariga chet el savdogarlarining ham qiziqishi yuqori edi.

Xususan, Toshkentda tayyorlangan chit va bo'z, tandir va kulolchilik buyuralari, dehqonchilik yaroqlari (ketmon, xaskash, bolta, bolg'a va boshqalar), «Toshkent ziragi», kavushlarning dovruq'i uzoqlarga tarqalgan edi.

XIX asr boshlarida shaharda bo'lgan M. Pospelov, T. Burnashev va boshqalarning ma'lumotiga ko'ra shu davrda Toshkentda qurol-yarog', zambarak tayyorlaydigan ustaxonalar ham bo'lgan ekan. Shaharda hunarmandchilik shunday rivoj topgan ediki, mahallalar ma'lum sohaga ham ixtisoslashgan edi. Masalan, Degrez mahallasida – temirchilar, Egarchi mahallasida – egar-jabduq tayyorlovchilar, Zargarlik mahallasida – zargarlar istiqomat qilishgan va hokazo. Toshkent savdogarlari Buxoro amirligi, Rossiya savdogarlari, Qozoq dashtlaridan keluvchi savdogarlar bilan qizg'in savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishgan.


Shahardagi 16 ta karvonsaroy turli joylardan kelgan savdogarlarga xizmat ko'rsatgan. Markaziy bozorning 26 ta ixtisoslashgan qismi faoliyat ko'rsatgan. Masalan, mashhur Baqqol bozorida 200 ta do'kon bo'lgan bo'lsa, Qozoqfurush bozorida 100 ta, Kavush bozorida 100 ta, Yog'och bozorda 27 ta, Temir bozorida 60 ta, Mis bozorida 32 ta, Choyfurush attor bozorida 150 ta do'konlar bo'lgan va hokazo.

Shaharda hunarmandchilik va savdodan tashqari dehqonchilik, bog'dorchilik, yilqichilik ham rivoj topgan. Shahar hayoti qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Unumdor tuproq, issiq ob-havo, ariqlarning ko'pligi unga asos bo'lib xizmat qilar edi. Ko'plab shaharliklarning shahar va dala hovlilari bo'lib, bahordan kuzgacha dala hovlilarda sabzavot-meva ham yetishtirishar edi. Bunday mavzelarga yon-atrofdagi Yalang'och, Yunusobod, Beshqayrag'och, Qorasuv, Oqtepa, Oqqo'rg'on va boshqa yerlar ham kirgan. Shahar bog'larining dovruq'i uzoqlarga tarqalgan bo'lib, unda yetishtirilayotgan uzum xillari, anor, o'rik, shaftoli, anjir, olma, nok, behi, yong'oq, tut va boshqalarning savdosi chaqqon bo'lgan. Shahar atrofida, tariq, jo'xori, kunjut,

zig'ir yetishtirilgan. Sirdaryo, Chirchiq daryosi bo'ylarida baliqchilik bilan ham shug'ullanishgan. Toshkent va uning atroflaridagi yerlarda yilqichilik, chorvachilik ko'chmanchi aholi ta'sirida rivoj topgan.


Toshkent va uning atrofida ko'plab ziyoratgohlar, aziz-avliyolar manzilgohlari – muqaddas qadamjolar ko'p bo'lgan. Shahardagi Xastimom (Hazrati Imom), Shayxontohur majmualari, ayniqsa katta shuhrat qozongan bo'lib, xalq sayilgohlari vazifasini ham o'tagan. Shahar atrofidagi Zangiota, Shayx Zayniddin bobo (keyinchalik shahar hududiga kirgan) ziyoratgohlari ham xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Toshkentning Ko'kaldosh, Baroqxon, Xoja Ahror, Eshonquli dodxoh, Mo'yi Muborak, Beklarbegi, Abulqosim eshon kabi madrasalari hokimlikdagi mashhur ilm dargohlari bo'lib, mudarrislar toliblarga diniy va dunyoviy fan sohalaridan ta'lim berishgan. Ushbu ta'lim dargohlaridan o'z davrida yetuk olimlar, shoir-u shuarolar, ma'rifatparvar siymolar yetishib chiqqan.

Muxtasar qilib aytganda, Toshkent Qo'qon xonligi davrida xonlikning yirik shaharlaridan biri bo'libgina qolmasdan, xalqaro savdo, ilm-fan, diniy-ma'rifiy markaz sifatida shuhrat qozongan.




Qo'qon xonligi hukmdorlari


Shohruxbiy – 1709–1721-yillar.
 Abdurahimbiy – 1721–1733-yillar.
 Abdukarimbiy – 1733–1750-yillar.
 Abdurahmonbiy – besh oy hukmronlik qilgan.
 Erdonabiy – 1751–1752-yillar.
 Bobobek – 1752–1753-yillar.
 Erdonabiy (ikkinchi marta) – 1753–1764-yillar.
 Sulaymonbek – uch oy hukmronlik qilgan.
 Norbo'tabek – 1764–1800-yillar.
 Olimxon – 1800–1810-yillar.
 Umarxon – 1810–1822-yillar.
 Muhammad Alixon – 1821–1842-yillar.
 Buxoro amiri noibi Is'hoq mang'it – 1842-y. uch oy.
 Sheralixon – 1842–1845-yillar.
 Xudoyorxon – 1845–1858, 1863 (to'rt oy), 1865–1875-yillar.



Qo'qon xonligidagi harbiy-ma'muriy mansablar va unvonlar



Qo'qon xonligidagi diniy unvon va mansablar



Tayanch soʻzlar

Ming urugʻi, Shohruxbiy, Chodak xoʻjalari, qaʻlayi Rahimbiy, qalmiqlar, Erdonabiy, Olimxon, Umarxon, Muhammad Alixon, Qoʻqon, Buxoro, Musulmonquli qipchoq, Xudoyorxon, Poʻlatxon, Nasriddinbek, maʼmuriy-hududiy, aholi, Toshkent, Qurama viloyati, hokim, bek, oʻrda, xon, saroy, qalʼa, istehkom, hudud, koʻchmanchi aholi, davlat boshqaruvi, mansab va unvonlar, amir ul-umaro, botirboshi, otaliq, devonbegi, imom, imom xatib, yer egaligi, soliq, hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniy hayot.

Savol va topshiriqlar

1. Minglar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi haqida gapirib bering.
2. Olimxon hukmronligi davri (1801–1810-yy.)ning xususiyatlari nimalardan iborat boʻlgan?
3. Qoʻqon xonligi va Buxoro amirligi oʻrtasidagi munosabatlar qanday boʻlgan?
4. XIX asrning oʻrtalariga kelib Qoʻqon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol ogʻirlashuvining sababi nimada edi?
5. Poʻlatxon qoʻzgʻoloni haqida nimalarni bilasiz?
6. Qoʻqon xonligining maʼmuriy-hududiy tuzilishi qanday edi?
7. Qoʻqon xonligi aholisi haqida maʼlumot bering.
8. Qoʻqon xonligidagi saroy unvon va mansablari haqida gapirib bering.
9. Xonlikdagi diniy unvon va mansablar haqida nimalarni bilasiz?
10. Xonlikdagi hunarmandchilik va savdo-sotiq toʻgʻrisida nima deya olasiz?
11. Qoʻqon xonligidagi yer egaligi munosabatlari va soliqlar toʻgʻrisida soʻzlab bering.
12. Xonlikdagi madaniy hayot, Qoʻqon adabiy muhiti haqida nimalarni bilasiz?

7- mavzu boʻyicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ziyo. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
2. Ahmedov B. Oʻzbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1991.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1994.
4. Bobobekov H.N. Qoʻqon tarixi. – Toshkent: «Fan», 1996.
5. Vohidov Sh. Qoʻqon xonligidagi tarixnavislik (genezisi, funksiyalari, namoyandalari, asarlari). – Toshkent: «Akademya», 2010.
6. Isʼhoqxon Ibrat. Fargʻona tarixi. – Toshkent: «Kamalak», 1991.

7. История Узбекистана (XVI-первая половина XIX века). Коллектив авт. – Ташкент: “Фан”, 2012.
8. Madrahimov Z. Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014.
9. Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2008.
10. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy. – Toshkent: «Ma’naviyat», 1999.
11. Mirzoolim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. – Toshkent, 1995
12. Sultonov O‘.A. Muhammad Solihxo‘ja va uning «Tarixi jadidayi Toshkand» asari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2007.
13. Qosimov Y. Qo‘qon xonligi tarixi ocherklari. – Namangan, 1994.
14. Erqo‘ziyev A. O‘rta Osiyo va G‘arbiy Yevropa o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va savdo yo‘llari tarixi. – Toshkent: «Yangi nashr», 2014.
15. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. I jild. Darslik. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

8-mavzu. SO'NGGI O'RTA ASRLARDA QORAQALPOQLAR

Reja:

- 8.1. Siyosiy tarix.
- 8.2. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning o'ziga xosligi.
- 8.3. Qoraqalpoqlar madaniy hayoti.

8.1. Siyosiy tarix



XVI–XIX asr birinchi yarmi qoraqalpoqlar tarixiga oid ma'lumotlar «Alpomish», «Qirq qiz», «Qo'blan», «Mast podsho», «Edigey», «Shahriyor», «Yer sho'ra», «Omongeldi», «Davlatyorbek» kabi xalq dostonlari, Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarayi turk», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Muhammad Rizo «Firdavs al-iqbol» va boshqa shu kabi asarlarda o'z aksini topgan. Qoraqalpoq adabiyotining buyuk vakili Berdaqning (Berdimurat Qarg'aboy o'g'li, 1827–1900) asarlari, xususan «Shajara» nomli asarida qoraqalpoq xalqi tarixiga oid muhim ma'lumotlar mujassam bo'lgan.

Mavzuning turli jihatlarini S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, P.P.Ivanov, L.S.Tolstova, B.V.Andrianov, T.A.Jdanko, S.K.Kamolov, A.Qo'shchanov, O.Jalilov, R.Kosbergenov, X.Yesbergenov, U.A.Abdurasulov, M.Karlibayev kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Mavzu yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar miloddan avvalgi VI asrga oid Behiston yozuvlarida eslatilgan saka tigraxaudalarini (cho'qqi qalpoqli saklar) hozirgi qoraqalpoqlarga ham ajdod bo'lgan deb hisoblashadi. Manbalarga ko'ra, milodning VI–VIII asrlarida Orol dengizi atroflarida bijanak va o'g'uz etnik guruhlarini shakllanadi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bijanak qabilalari qoraqalpoqlarning ajdodi hisoblanadi. VIII–X asrlarda qoraqalpoq xalqi shakllana boshlagan. X asr boshlarida bijanaklarning bir qismi o'g'uzlar va qipchoqlarning si-

quvi ostida Janubiy Rus yerlaridan ko'chib o'tishga majbur bo'lishgan. Mo'g'ul bosqini natijasida Orolbo'yi atrofidagi qoraqalpoqlarning bir qismi Volga va Ural daryolari bo'ylariga, Sirdaryoning yuqori oqimlariga ko'chib ketadilar.

O'rta asrlarga (X–XII) oid rus manbalarida qoraqalpoqlar «chernые klobuki», mahalliy manbalarda esa «qora bo'rqli» nomi bilan tilga olinadi. 1723-yilda jung'orlar bosqini natijasida qoraqalpoqlar ikkiga bo'lingan holda ko'chishga majbur bo'ladilar. Ularning bir guruhi Sirdaryoning yuqori oqimi – Toshkent vohasi tomonga, ikkinchi guruhi Sirdaryoning quyi oqimiga borib o'rnamadilar. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli tarzda «yuqori qoraqalpoqlar», «quyi qoraqalpoqlar»ga bo'linib ketadilar. Quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi bo'sh yerlarga o'rnamadilar. 1598-yil Abdullaxon II (1583–1598) tomonidan Sig'noqdagi muqaddas Ziyoviddin maqbarasiga berilgan yorliqda qoraqalpoqlar shu nom bilan tilga olingan. Ba'zi manbalarga ko'ra, XVI asrda qoraqalpoqlarning ayrim guruhlari Volga, Ural, Emba daryolari oralig'ida, shuningdek, Buxoro xonligi hududlariga o'rnamadilar. XVII asrda No'g'aylar Qrimga ko'chib o'ta boshlaydilar. Qoraqalpoqlar esa Orol va Sirdaryo bo'ylariga o'rnamadi. XVIII asr o'rtalariga qadar qoraqalpoqlar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi bo'ylab joylashib, kichik juz qozoqlari bilan qo'shnichilikda yashashadi. Bu davrda ular ham iqtisodiy va siyosiy jihatdan qozoq xonlariga tobe bo'lishgan.

XVI – XVII asrlarda qoraqalpoqlar katta hududda ko'chmanchilik tarzida hayot kechirishgan. Ular ancha zich joylashgan hududlardan biri Sirdaryoning o'rta va quyi havzasi hisoblangan. Berdaqning ma'lumotiga ko'ra esa, bu davrda qoraqalpoqlarning kam sonli qismi Urganch va Oqqal'a atrofida ham yashashgan. Qoraqalpoqlar Buxorodagi Ashtarxoniylar va Toshkent vohasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni ham olib borishgan.

1578–1582-yillarda qoraqalpoqlar Buxoro xonligi siyosiy hayotida ham bevosita ishtirok etadi. Rus savdogarlari, elchilarining bergan ma'lumotlariga ko'ra (1669-yili Pazuxin, 1693-yilgi savdo karvoni va boshqalar) qoraqalpoqlar Buxoro davlatiga bo'ysunishgan.

XVII asrda Qoraqalpoqlar Xiva xonligi siyosiy hayotida ham ishtirok etganligini Abulg'ozir Bahodirxon o'zining «Shajarayi turk» asarida eslatib o'tadi.

Qozoq hukmdori Tavkaxon (1680–1718) hukmronligi davrida qoraqalpoqlarni uning o'g'illaridan biri boshqargan. 1694-yildan boshlab Tavkaxonning o'g'li Taburchak sulton qoraqalpoqlarga bosh bo'lgan bo'lsa, 1709-yildan Taburchakning o'g'li G'oib sulton ularga boshchilik qilgan. 1722-yildan boshlab qoraqalpoqlar xoni Eshmuhammadxon bo'ladi. Keyinroq esa, XVIII asrning 30–40-yillarida qoraqalpoqlar Kichik juz xoni Abulxayr tasarrufiga o'tadilar. 1743-yili qozoq xoni Abulxayrxon qoraqalpoqlarga qarshi yurish uyushtiradi. Natijada Sirdaryo bo'yidagi qoraqalpoqlarning asosiy qismi Janadaryo tomonga ko'chib o'tishadi.

Qoraqalpoqlar qozoq xonlariga har yili ko'p miqdorda g'alla, otliq sarbozlar berib turishlari, qozoqlarning rus chegaralari, Buxoro va Xivaga harbiy yurishlarida ishtirok etishlari lozim bo'lgan. Shuningdek, ular o'z hududlaridan o'tgan karvonlardan qozoq sultonlari uchun boj olishgan.

XVIII asrning birinchi choragiga kelib savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida qoraqalpoqlarning Buxoro va Xiva bilan aloqalari kuchayib, boshqirdlar, ular orqali esa Rossiya bilan o'zaro aloqalar yo'lga qo'yiladi. 1721-yilga oid manbada «qoraqalpoqlar Boshqirdiston (Bashkiriya)ga ko'plab keladilar..., shuningdek, boshqirdlar..., qoraqalpoqlarga do'stlari bilan kelishdi va har yili bir oy yoki uch haftadan bir-birlarinikida yashashadi», deya ma'lumot beriladi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Sirdaryoning quyi va o'rta oqimi bo'ylaridagi yerlar Toshkent, Qozon, Moskva va Xitoyga olib boruvchi savdo yo'llarida joylashgan edi. Shu boisdan ham qoraqalpoq savdogarlari o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda vositachilik ham qilishgan. Qoraqalpoqlarning savdo-sotiq borasidagi mahoratini 1722-yili Rossiyaga yuborilgan mingta tuyadan iborat savdo karvoni misolida ham ko'rish mumkin edi.

Shuningdek, bu davrda turli hududlarda yashayotgan qoraqalpoqlar orasida birlashishga intilish harakati boshlanib, Sirdaryo qoraqalpoqlarining Zarafshon vohasi va Xorazm qoraqalpoqlari bilan aloqalari yo'lga qo'yiladi. Bularga asosiy sabab – jung'orlardan kutilayotgan hujum xavfi edi. 1723-yilda jung'or hukmdori Sevan Rabdon qo'shinlari Qozoq xonligi yerlariga bostirib kirishadi. Jung'orlarga qarshilik ko'rsata olmagan qozoqlarning katta qismi turli tomonlarga tarqalib

ketadilar. Qoraqalpoqlarning bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimlari bo'ylab Toshkent va uning janubi-g'arbiga, bir qismi esa Sirdaryoning quyi oqimiga, Orol bo'ylariga ketib qoladilar. Birinchi guruh jung'orlarga, ikkinchi guruh esa kichik juz qozoqlariga tobe bo'lib qoladilar.

XVIII asrning 40-yillari boshlarida qoraqalpoqlarning Rossiya bilan elchilik aloqalari yana yo'lga qo'yiladi. 1743-yilda Mamanbiy boshchiligidagi qoraqalpoq elchilari S. Peterburgda Rossiya hukmdori Yelizavetaning «homiylig» haqidagi yorlig'ini olishadi. Bundan g'azablangan kichik juz qozoqlari xoni Abulxayr o'sha yili Orolbo'yi qoraqalpoqlariga hujum qilib, ularni talon-toroj qiladi. Abulxayrxonning hujumi qoraqalpoqlarning Jonidaryoga harakatlarini kuchaytiradi. 1746–1747-yilning qishida qoraqalpoqlar O'rta juz qozoq hukmdori Ablay sulton hujumiga duchor bo'ladilar.

Qozoq xonlari va sultonlarining hujumlariga dosh berolmagan Orolbo'yi qoraqalpoqlarining bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimlariga ketib qolishga majbur bo'ladi. Asosiy qismi esa, janubi-g'arbga tomon, Xiva xonligi chegaralariga, Quvondaryo va Jonidaryo oralig'idagi hududlarga o'rtnashadi.

1748-yilda o'rta juz sultoni Baroq o'zining tarafdorlari yordamida Abdulxayrni o'ldiradi. Abdulxayrning o'g'li Nurali xon deb e'lon qilinadi. Ammo uning hokimiyatini barcha kichik juz qabul qilmaydi. Yirik zodagonlar sulton Botirni xon deya e'tirof etganlari bois, kichik juz ikki hokimlikka bo'linib ketadi. Shuningdek, Sirdaryoning quyi oqimidagi ko'chmanchilarga boshchilik qilayotgan Abulxayrning yana bir o'g'li Erali sulton o'zini akasi Nurali sultondan mustaqil hisoblar edi.

1762-yilda sulton Erali Sirdaryo bo'ylarida qolgan qoraqalpoqlar ustiga yurishlar qilib, ularni Jonidaryo va Orol mulklariga ko'chishga majbur qiladi. XVIII–XIX asr boshlarida butun Quvondaryo va Jonidaryo havzalari qoraqalpoqlarning mulklari edi. Bu yerda ular Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlari bilan nafaqat siyosiy ittifoqda bo'lishdi, balki etnik jihatdan ham aralashib ketishdi. Ular ittifoqchilikda qozoq xonlari va sultonlari, Xiva xonlariga qarshi kurashlar olib borishdi.

Bu davrda qoraqalpoqlar biylar maslahatlari orqali boshqarilgan. Har bir qabila uyushmasiga yirik yer mulki va cho'vva egasi bo'lgan

biylar boshchilik qilgan. Bir qancha qabila va urug'lar birlashmasi o'n to'rt urug'ni (on tor uru) mang'it urug'i biylari boshqargan.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab qoraqalpoqlar va Xiva hukmdorlari o'rtasida kurashlar avj oladi. Muhammad Amin inoq Xiva xonligi markaziy hokimiyatini kuchaytirish siyosatini olib borib, qoraqalpoqlarni xonlikka bo'ysundirishga harakat qilgan. Muhammad Amin inoq (1763–1790) o'z tomoniga nufuzli qoraqalpoq urug' boshliqlarini og'dirishga harakat qilgan. Xususan, uning hokimiyatini ikki nafar qoraqalpoqlarning taniqli boylari – Esongeldi Mahram va Oydo'stbiylar ham tan olishgan. Oydo'stbiy muarrix Munisning yozishiga ko'ra, «keyinchalik butun qoraqalpoq ulusining hokimi darajasiga erishgan». Muhammad Amin inoq qoraqalpoq urug' boshliqlari, zodagonlariga xayrixohlik bildirib, ma'lum yerlarni ularga taqdim etgan. Uning davrida qoraqalpoqlar orasida Orol va Amudaryo bo'ylaridagi yerlarni o'zlashtirish, ma'lum suv inshootlarini barpo etish jarayoni boshlandi. Masalan, qoraqalpoqlarning kenagas qabilasi boshlig'i Omonqulibiy Amudaryodan katta kanal qazdirib, o'z qabilasi uchun suv ta'minotini yaxshilagan. Shu bilan birga xonlik bilan ba'zida kelishmovchilik, nizolar ham bo'lib turgan.

Xonlikdan ayricha Orolbo'yi hokimligini tuzib olgan To'ra Murod so'fi va Xo'ja Murod so'filar ham o'z kurashlarida qoraqalpoq urug' boshliqlariga tayanishgan. Muhammad Rahimxon I davrida qoraqalpoqlarni butkul xonlikka bo'ysundirish siyosati boshlanadi. Uning 1809-yil yanvarida amalga oshirgan harbiy yurishi natijasida Qozodaryo va Orol dengizi atrofidagi aholi, jumladan, qoraqalpoqlar ham bo'ysundirilgan.

Xon qoraqalpoq urug' boshliqlari, zodagonlari va nufuzli zotlarini o'ziga xayrixoh qilish, qoraqalpoqlarning amaldagi hokimi Oydo'stbiy hokimiyatini mustahkamlash maqsadida unga o'z nomi bilan ataluvchi qal'a barpo etishga ruxsat beradi. Ushbu qal'a qurilishiga shaxsan o'zi ham yordam beradi. Mazkur qal'a keyinchalik xonlikning Orolbo'yi yerlarini ishg'ol etishda muhim istehkom rolini o'tadi.

Muhammad Rahimxon I ning 1810-yil davomidagi yurishlari natijasida Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi Sho'rko'l qoraqalpoqlari, Janidaryo bo'yidagi qoraqalpoqlar bo'ysundiriladi. Muhammad Rahimxon I 1811-yili Qo'ng'iro'tga to'rt marotaba harbiy yurishlarni amalga oshiradi. Nati-

jada Orolbo'yi hokimligi tugatilib, Qo'ng'iro't shahri qo'lga olinadi. Shu tariqa xonlikdagi muxolifatga, ayirmachi kuchlarning faoliyatiga chek qo'yiladi. Qo'ng'iro't va Orolbo'yi atrofidagi qoraqalpoqlar ham to'liq Xiva xonligi hukmini tan oladilar. Muhammad Rahimxon I qoraqalpoqlarning ma'lum qabilalarini shimoliy Xorazm yerlarini o'zlashtirish maqsadida shu yerlarga ko'chib o'rnamashishiga buyruq beradi.

Muhammad Amin inoq, keyinchalik esa Muhammad Rahimxon I davrlarida qoraqalpoqlarning qoldovli urug'i boshlig'i Oydo'stbiyga qator imtiyozlar beriladi. Lekin Xivaning navbatdagi xoni Olloqulixon (1825–1842) davrida Oydo'stbiyga berilgan imtiyozlarning katta qismi bekor qilinadi. Qolaversa, xonning noibi Gadoy Niyoz mahramning soliqlar yig'ish borasidagi talonchiligi va xizmat lavozimini suiiste'mol qilishi qoraqalpoqlar orasidagi kuchli norozilikka sabab bo'ladi.

Xonlikka qarshi yana bir qo'zg'olon 1855–1856-yillarda bo'lib o'tib, bu xonlikda yuzaga kelgan keskin siyosiy vaziyat davriga to'g'ri kelgan edi. Shunga qaramasdan qoraqalpoq aholisi xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, savdo-sotiq munosabatlarida faol ishtirok eta boshladi. XIX asr o'rtalariga kelib qoraqalpoqlar ma'muriy markazi Chimboy shahriga ko'chdi. Bu yerda Xiva xonining noibi ham joy oladi.

1873-yilda Rossiya imperiyasi hukumati bilan tuzilgan Gandimiyon shartnomasiga ko'ra, Xiva xonligi Rossiya vassaliga aylanadi. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida yashaydigan qoraqalpoqlar hududlari Rossiyaga qo'shib olinadi. Bu hududlarda Amudaryo bo'limi tashkil etiladi va 1877-yildan u Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga qo'shiladi. Qoraqalpoqlarning Amudaryoning chap sohilida yashaydigan kam qismi 1920-yilga qadar yana Xiva xonligiga tobe bo'lib qoldi.

8.2. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning o'ziga xosligi

XIX asr qoraqalpoqlarning ijtimoiy tizimida urug'-qabilachilik an'analari saqlanib qolgan edi. Qoraqalpoqlardagi ijtimoiy tabaqalanish natijasida bir tomonda, boylar, yirik yer egalari, yirik chorvadorlar, ikkinchi tomonda esa, boylar qo'lida ishlab kun ko'ruvchi kambag'al fuqarolar ajralib turgan. Xorazmdagi qoraqalpoqlarga yerlar xon tomo-

nidan qabila va urug'lar foydalanishi uchun berilgan bo'lsa-da, aslida eng yaxshi yerlar urug' va qabila boshliqlariga tegishli bo'lgan.

Qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarda Xiva xonligida mavjud bo'lgan yer egaligining uch turi – davlat (xon) yerlari, yirik yer egalarning mulk yerlari, diniy muassasalarga tegishli bo'lgan vaqf yerlari saqlanib qolgan. Qoraqalpoqlarda biylar, otaliqlar, beglar begi, boylar, savdogarlar, qozi, rais, miroblar, harbiy boshliqlar (botirlar) hamda ulamolar – mullalar, eshonlar, oxunlar kabilar yirik yer egalari hisoblangan. Dehqonlar asosan kam yerli bo'lib, ularning yerlari bir-ikki tanobdan oshmagan. Kam yerli yoki umuman yersiz dehqonlar davlat, mulk va vaqf yerlaridan foydalanib, buning evaziga hosilning ma'lum qismini yer egalari bergan yoki yer egasiga ishlab berish majburiyatini bajargan. Yersiz qoraqalpoq dehqonlarining ko'pchiligi Xorazmning janubiga, o'zbek va turkman boylarining yerlariga ishlash uchun borishgan.

Eng yaxshi yaylov yerlari, ko'llar, qamishzorlar qoraqalpoq zodagonlariga tegishli bo'lgan. Barcha yerlardan foydalanish ular ixtiyorida bo'lib, suvdan foydalanish ham bundan mustasno emas edi. Qoraqalpoq jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish chorvachilik xo'jaliklarida ham ko'zga tashlanadi. Amaldorlar va ruhoniylar yirik chorva egalari bo'lishgan. Ular bir necha minglab chorva mollariga egalik qilishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar qoraqalpoqlardagi asosiy ma'muriy mansablar urug' boshlig'i biy, juzbasi (yuzboshi), mahram (zakot yig'uvchi), mirob, qozi, rais kabilar edi. Ulardan asosiysi biy bo'lib, biylar o'z qabila yoki urug'laridan xon xazinasiga soliqlar yig'ish, urug' yoki qabila ichidagi mojarolarni hal qilish, jumladan, yersuv munosabatlari va jinoiy ishlarni hal etish vazifalarini bajarishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab biylarning huquqlari chegaralandi. Xiva xoni Sayid Muhammadxon qoraqalpoqlarning boshqaruv tizimi uchun qo'shimcha ikkita noib, oltita otaliq, ikkita beklarbegi va bitta og'abiy mansablarini joriy etdi. Yuqori mansab egasi beklarbegi bo'lib, u hokimga bo'ysungan. Quyi mansab egasi esa kadxudo bo'lgan. Og'abiy yuqori unvon egasi hisoblangan. Qoraqalpoqlardagi boshlang'ich ma'muriy birlik – ovullar bo'lib, ularni jamiyatning hukmron tabaqalari vakillari bo'lgan oqsoqollar kengashi boshqargan. Qoraqalpoqlarning asosiy ma'muriy markazi Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Chimboy, chap qirg'og'ida esa Qo'ng'iro't bo'lgan.

Qoraqalpoqlar bo'ysundirilganidan so'ng ularga ham xonlikdagi soliq, to'lov va majburiyatlar joriy etildi. XIX asr boshlaridan boshlab, qoraqalpoqlar hali yangi yerlarga joylashib, o'zlashtirib olmaganliklariga qaramay, Xiva xonlari mahsulot to'lovlarini talab qila boshladilar. Undan tashqari, doimiy yillik soliq (20 ming tilla hajmida) solg'utkesma solig'i joriy etildi. Og'ir majburiyatlardan biri qoraqalpoqlar xon qo'shinlaridagi askarlarni boqishlari va qo'shin uchun navkar berish edi. Shu bilan birgalikda aholi ariq va kanallar qazish hamda tozalash ishlariga (hashar) jalb etilgan.

Xiva xonlari qoraqalpoqlarni bo'ysundirganidan so'ng (XIX asrning boshlari) ularning Xorazmda, Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida joylashuvi jarayoni asosan tugallanadi. Chap qirg'oq qoraqalpoqlar Qo'ng'iro't va Xo'jayli oralig'ida, Shumanay kanali havzasida joylashgan bo'lsalar, o'ng qirg'oq qoraqalpoqlar Ko'ko'zak, Kechitli kanallari, Amudaryo bo'ylarida, Kushkanatav etaklarida joylashadilar.

Butun xonlikda bo'lgani kabi XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning iqtisodiy ahvoli ham ancha og'ir darajada edi. Yangi yerlarga joylashgan bu aholi yerlarni o'zlashtirish uchun, dashtni hosildor yerlarga aylantirish uchun sug'orish tizimini yaratishi lozim edi. Bu esa albatta katta kuch, mehnat va vaqt talab etar edi.

Amudaryo havzasidagi qoraqalpoqlarning asosiy xo'jalik turlari dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bo'lgan. XIX asrning birinchi choragida bu yerda uchta qoraqalpoq dehqonchilik vohalari: Qalliko'l, Qo'shqannatov, Kegeyli shakllandi. Chap qirg'oq Amudaryoda shakllangan Qallikul vohasi Lovdin, Shanglibasuv, Shumanay, Qiyot – Jargan kanallaridan suv olgan. O'ng qirg'oq Amudaryo, hozirgi Chimboy shahrining shimoli-g'arbida shakllangan Qo'shqannatov vohasi Amudaryoning tabiiy irmog'i Qorabaylidan suv olgan. Xitoy, qipchoq, qang'li qabilalarining yerlari bo'lgan bu voha XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlarning muhim dehqonchilik vohasi edi.

XIX asrning o'rtalariga kelib qoraqalpoqlar joylashgan hududlarda yana ikkita – Chimboy va Qo'ng'iro't xo'jalik tumanlari shakllandi. Butun XIX asr davomida qoraqalpoqlar xo'jalik hayotining asosini quyidagi beshta – Chimboy, Davqara, Talliq, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Mang'it, Sho'raxon kabi xo'jalik tumanlari tashkil etgan edi., Ta'kidlash lozimki, bu xo'jalik tumanlaridagi dehqonchilikning holati Amudaryo suvi

bilan bog'liq bo'lgan. Tabiat injiqliklariga qaramasdan (suv toshqini, qurg'oqchilik, qishning erta yoki kech kelishi), qoraqalpoqlar dehqonchilik xo'jaliklarini rivojlantirib borishgan.

Qoraqalpoq xo'jaliklarida yerga ho'kiz qo'shilgan omoch va mola bilan ishlov berilgan bo'lib, asosan, bug'doy, sholi, jo'xori, sul, kanop, beda, qovun, tarvuz, qovoq, mosh, no'xat kabi mahsulotlar asosan ichki ehtiyojlar uchun yetishtirilgan.

Qoraqalpoqlar turli xil qishloq xo'jalik mahsulotlarini, xususan, ichki bozor iste'moli uchun bug'doy, sholi, arpa, jo'xori, yasmiq, tariq, kunjut, sul, qovun, tarvuz, qovoq, piyoz, sabzi, mosh, no'xot va boshqalar yetishtirilgan. Amudaryo bo'ylaridagi sersuv yerlarda sholining uch xil navi: qirmizi, oq va qora sholilar yetishtirilib, unga ichki va tashqi bozorda ehtiyoj yuqori darajada bo'lgan. Paxta asosan, Qo'ng'iro't atroflaridagina ekilib, suvga bo'lgan ehtiyoj va uning qimmatligi ko'p yerlarda uni yetishtirishga imkon bermasdi.

Qoraqalpolarda noqulay tabiiy sharoitga qaramay, bog'-rog'lar yaratishga ham alohida ahamiyat berilgan. Xususan jiyda, o'rik, shaf-toli, olma yetishtirish ustuvor darajada bo'lgan. XIX asrda bu yerda bo'lgan sayyohlardan biri: «Kegeyli, Quvonish-jarma ariqlari bo'ylab, Chimboy shahri atroflarida uch verstdan besh verstgacha qoraqalpoqlar tomonidan barpo etilgan ajoyib bog'lar bilan qoplangan edi», deya ta'kidlagan edi. Ayniqsa, jiyda yetishtirishga e'tibor berilib, undan turli shirinlik, qaylalar tayyorlanar edi. Ariqlar bo'ylab ko'plab jiyda, shuningdek tolning oq va qora turlari, oq teraklar ekilar edi.

Tabiiyki, qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarda chorvachilik ham rivojlangandi. Qoramol, qo'y, echki yetishtirish borasida Orol dengizi bo'ylari, Qizilqum, Amudaryo shoxobchalari qulay hudud hisoblangan. Shuningdek, Orol dengizi bo'ylari, Amudaryo, Davqora, Qo'ng'iro't, Qora Terent ko'llari bo'ylab baliqchilik sohasi taraqqiy etgan. Qulay tabiiy-jug'rofiy joylashuv bo'yicha ovchilik ham mahalliy aholi orasida keng tarqalgan edi.

XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab qoraqalpoqlarning Xiva xonligi savdo-sotiq ishlaridagi ishtiroki yanada rivoj topdi. Shu davrdan boshlab, Chimboy shahrining o'rni va roli oshib bordi. Amudaryo bo'ylab tegishli savdo mollari Xivaga yetkazib berilar edi. Chimboy

atroflarida ko'plab savdo do'konlari, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. XIX asr 50-yillarida Chimboyga qoraqalpoqlar ma'muriy markazining ko'chirilishi ham bejiz emas edi. Hududdagi turli aholi xalqlar o'rtasida mustahkam xo'jalik va savdo aloqalari o'rnatilgan edi. Xususan, o'zbek va turkman savdogarlari qoraqalpoq savdogarlaridan baliq, qoramol sotib olishgan bo'lsa, qozoq aholisi va yon atrofdagi turkmanlar asosan, g'alla, non sotib olishar edi. O'z navbatida qoraqalpoq aholisi xonlik poytaxti va savdo maskanlaridan, mahalliy savdogarlardan barcha kerakli mahsulotlarni sotib olishardi.


XIX asrning o'rtalaridan boshlab Qo'ng'iro't xo'jaliklarida paxta yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

Aholi chorvachiligida yirik shoxli hayvonlarni ko'paytirish ustunlik qilgan. Uy chorvachiligida juni, terisi, suti va go'shti uchun ko'plab echki va qo'ylar, shuningdek, otlar kam boqilgan. Tuyalar faqat boy-lardagina bo'lgan. Ot va tuyalardan yuk tashish va chig'ir aylanti-rishda ham ishlatilgan. Xo'jalikda baliqchilik ham rivojlangan. Baliq-chilar Orol, Quvanishdaryo, Amudaryo va Davkar, Qo'ng'iro't, Qora Teren ko'llarida tirikchilik qilishgan. Qoraqalpoqlar dehqonchilikdan bo'shagach kuz va qish oylarida ovchilik bilan ham shug'ullanishgan.

Qoraqalpoqlarda hunarmandchilikning temirchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, kosiblik, kulolchilik, zargarlik, duradgorlik kabi ko'plab turlari rivojlangan edi. Dehqonchilikda bo'lgani kabi hunarmandchi-likda ham asosiy mahsulotlar ichki ehtiyoj uchun ishlab chiqarilgan. Ko'pchilik ustalar o'z ovullari uchun mahsulot yasashgan va ular meh-nati uchun g'alla va chorva olishgan.

Co'nggi o'rta asrlarda Xiva xonligining shimolidan o'tgan savdo-karvon yo'llari Chimboy, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Ko'hna Urganch sha-harlarini Xiva bilan bog'lagan. Undan tashqari, Xivani Kazalinsk bilan bog'laydigan yo'l Chimboy orqali o'tgan. Povolje, Uralsk, Orenburg-dan Ustyurt orqali Xivaga keladigan yana bir yo'l Qo'ng'iro't yaqini-dan o'tgan. XIX asrdan boshlab Xiva xonligining savdo aloqalarida qoraqalpoqlar faol ishtirok eta boshlaganlar. Ular xonlik bozorlarida bug'doy, chorva va baliq mahsulotlarini sotib, rus, Xiva va Buxoro mahsulotlari (kundalik ehtiyoj mollari)ni xarid qilishgan. Qoraqalpoq-larning Qo'ng'iro't, Xo'jayli Mang'it, Chimboy, Sho'raxon kabi shahar-larining savdo-sotiqdagi ahamiyati katta edi.

8.3. Qoraqalpoqlar madaniy hayoti



**Qoraqalpoq ayollari
to'y bosh kiyimi.**

So'nggi o'rta asrlar qoraqalpoq xalqi madaniyati og'ir tabiiy sharoit, Xiva xonlariga tobelik zaminida bo'lsa-da, o'ziga xos yo'nalishlarida shakllanib, ravnaq topdi. Qoraqalpoqlarning katta qismi Qo'ng'iro't, Qiyot, Chimboy, Nukus, Qipchoq, Mang'it, Janga qal'a, Oydo'st qal'a, Ernazar qal'a, Ko'ko'zak, Eshon qal'a kabi shahar va qal'alar qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan madaniy va me'morchilik yodgorliklarining markazi hisoblangan.

Manbalarga ko'ra, qoraqalpoqlarda yoshlar savodini dastavval maktablarda chiqarishgan. O'quvchilar Qur'on va hadislarni o'qish hamda tilovat qilishni o'rganishgan. Maktabda savodini chiqargan yoshlar Xiva va Buxoro madrasalarida, qoraqalpoqlarning Qoraqum Eshon, Kalila oxun, Egambergan oxun, Oyibet eshon, Eshonqal'a mavzalaridagi madrasalarda ta'lim olishgan.

Qoraqalpoqlarda qahramon ona hayoti, jasorati qator dostonlar, xususan «Qirqqiz», «Alpomish», «Qo'blan», «Mast podsho», «Edigey» kabilarda hududdagi elatlar qatori qoraqalpoqlarning ham tarixi bayon etiladi. Bu davrda qoraqalpoq xalqida jirav-baxshichilik rivojlangan bo'lib, Jiyyen Jirav (1730–1784-yy.), Shankay Jirav (1814–1884-yy.), Jismurat Jirav (1836–1908-yy.) kabilar mashhur edi. XIX asr qoraqalpoq shoirlari Jiyyen Jiravni «qoraqalpoq poeziyasining otasi» deb ataganlar.

Qoraqalpoq mashhur shoirlaridan biri Kunxo'ja Ibrohim o'g'li (Jismurat, 1799–1830-yy.) bo'lib, uning umri muhtojlikda o'tgan. Uning «O'roqchilar», «Oq qamish», «Cho'ponlar» kabi she'rlari mashhurdir. Ajiniyoz Qasibay o'g'li (1811–1878-yy.) ham qoraqalpoq xalqining mashhur shoirlaridan biridir. Ajiniyoz she'rlarida vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari ustunlik qiladi. Shoirning «Bo'zatov» dostonida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga majburan ko'chib ketishi kuylanadi. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq (1827–1900-yy.) qoraqalpoq

klassik adabiyotining mashhur namoyandalaridan biridir. Uning ijodida qoraqalpoq xalqining XIX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti aks etgan.

Shoirning «Xalq uchun» deb nomlangan she'ri o'z davri uchun tegishli xitobnoma bo'lgan. Berdaq tarixga ham alohida tarzda murojaat qilgan. Uning «Shajara», «Oydo'stbiy», «Ernazarbiy», «Omongeldi» nomli asarlarida tegishli tarixiy jarayonlar o'z aksini topgan. Ayniqsa, uning «Shajara» asari qoraqalpoq xalqi o'tmishi bo'yicha birlamchi ma'lumot berib, Berdaqning o'zi birinchi qoraqalpoq tarixchisi sifatida e'tirof etiladi.

Otash shoir (Otash Alshinboy o'g'li, 1828–1902) ijodida o'tmishda bo'lib o'tgan tarixiy voqealarga murojaat ma'lum o'rinni egallaydi. Bu holni uning «Men ko'rdim», «Shoir Berdaqqa javob», «Dunyoni tark etganlar» kabi asarlarida yaqqol aks etadi. Qoraqalpoq ayollarining hayoti esa «Gulziba», «Qizlar», «Ko'rdim» kabi asarlarida o'z qiyofasini topgan.

Adabiyot bilan birga qoraqalpoq musiqasi ham boy va o'ziga xos tarixga ega. Bu borada xalq ashulalari uning o'zagi bo'lib xizmat qiladi. To'y-hashamlarda ijro etiladigan yallalar (xajar, betashar), allalar (beyiq jiri), «shifobaxsh» kuylar (badik) va boshqalarda qoraqalpoqlar maishiy turmush tarzi, urf-odat, an'analari o'z ifodasini topgan.

Qo'biz, dutor, chanqovuz, surnay, g'ijjak – bular asosiy qoraqalpoq musiqa asboblari hisoblangan.

XVII–XIX asrlar birinchi yarmida qoraqalpoqlar ijtimoiy-ma'naviy hayotida so'fiylikning yassaviya va naqshbandiya tariqatlari faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. So'fiy shayxlar orasida qarorgohi Qirontauda bo'lgan imom-eshonning mavqeyi va nufuzi katta bo'lgan. Mazkur hudud XVII–XIX asrlar mobaynida Amudaryo o'ng sohilida istiqomat qilgan qoraqalpoqlarning diniy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Oqbilakoyim, Rustambobo, Imom Eshon, Bektemir eshon qabrlari muqaddas qadamjolar sifatida dong chiqardi. Aynan mazkur hududda Imom eshon va Bektemir eshon masjid va madrasalari joylashgan edi. Umuman, qoraqalpoqlar ma'naviy-maishiy hayotida muqaddas qadamjolar hamma vaqt katta ahamiyat kasb etib kelgan. Bunga Sulton Uvays, Norinjon bobo, Shamun nabi, Hakim ota va boshqa umumxalq ziyoratgohlariga aylangan qadamjolarni misol qilib keltirish mumkin.



Qoraqalpoq erkaklari ustki kiyimi.
XIX asr.



Qoraqalpoq ayollari ustki kiyimi.
XIX asr.

Qoraqalpoqlarda mazkur davrda ta'lim dargohlari maktab, qorixona, madrasalarda o'z aksini topgan. Maktablarda ilk ta'lim bosqichi – savodga, o'qish va yozishga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, har bir jamoa, qishloq yoki ovulda maktab va unda saboq beradigan mulla bo'lgan. Maktablar xususiy hovli-joylarda ham mavjud bo'lgan. Ko'p hollarda masjid imomi, muazzin yoki ma'lumotli shaxs ham o'qituvchi rolini o'tashi mumkin edi. Odatda, maktablar shaxsiy daromaddan qoplangan. Agar, maktab masjid huzurida bo'lsa, vaqf hisobidan olinadigan daromad evaziga muallimga maosh to'lash mumkin edi.

Maktablarga 5–6 yoshli o'g'il bolalar qabul qilingan. XIX asr boshlariga kelib Xiva xonligi madrasalarida saboq olgan ma'lumotli shaxslar bu madrasalar ta'siri ostida joylarda ham tegishli ta'lim muassasalarini ochishga kirishdilar. Chimboydagi Xon-masjid, Oyimbet eshon, Qorao'zak hududidagi Abdusattor oxun va Abduqodir eshon, Qo'ng'irotdagi Osim eshon, Xo'jaylidagi Pirim eshon va boshqa madrasalar yuqoridagi mulohazaning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. XIX

asr o'rtalariga kelib hozirgi Qoraqalpog'istonning o'ng tomonining o'zidagina 58 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan. Ular orasida, ayniqsa Qoraqum eshon va Tosh madrasa (Tas madrasa) katta nufuzga ega bo'lgan.

Qoraqalpoq madrasalarida ta'lim ikki bosqichda amalga oshirilgan. Agar birinchi bosqichda arab tili grammatikasi o'rgatilsa, ikkinchi bosqichda fiqh, mantiq, tarix va boshqa fanlardan saboq berilgan.

Mazkur davrda qoraqalpoq maishiy turmush tarzida ham qator o'zgarishlar yuzaga kelgan. Bu paytda uy-joy qurilishining to'rt xil uslubi paydo bo'lgan. Chodirlar, hovlilarni yangi uslubda tashkil etish boshlandi. Chodirlarni bezatish, turli naqsh va bezaklardan foydalanish yuqori san'at darajasiga chiqa boshladi. Qoraqalpoq erkak va ayol kiyim-kechaklari, zeb-ziynatlari ham o'ziga xos turli naqsh va bezaklar bilan ziynatlangan.

Tayanch so'zlar

Cho'qqi qalpoqli saklar, bijanak, o'g'uz, Kerder, «chyornie klobuki», «qora bo'rkli», qoraqalpoq, Tavkaxon, Taburchak Sulton, G'oib sulton, kichik juz qozoq xonlari, Abulxayr, Buxoro va Xiva aloqalari, Boshqirdiston, Sirdaryo qoraqalpoqlari, Xorazm qoraqalpoqlari.

Savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpoqlarning siyosiy tarixi qanday kechgan edi?
2. Qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari haqida nimalarni bilasiz?
3. XVIII asr o'rtalarida qoraqalpoqlar siyosiy tarixida qanday voqealar sodir bo'ldi?
4. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy tarixi haqida gapirib bering.
5. Qoraqalpoqlarning iqtisodiy hayoti qanday kechgan edi?
6. Qoraqalpoqlarning madaniy hayoti haqida gapirib bering.

8-mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulg'oziy. Shajarayi turk. – Toshkent: «Cho'lpon», 1992.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: «Sharq», 2000.
3. Есбергенов Х., Хош尼亚зов Ж. Этнографические мотивы в Каракалпакском фольклоре. – Ташкент, 1988.

4. Jalilov A. XIX–XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixidan (Xiva davlat hujjatlari asosida). – Toshkent, 1986.
5. История каракалпакской литературы. – Нукус, 1994.
6. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX в.). Коллектив авт. – Ташкент: “Фан”, 2012.
7. Kamalov S.K. Qoraqalpoqlarning xalq bo‘lib birlashuvi va uning tarixi (qoraqalpoq tilida). – Nukus, 2001.
8. Карлыбаев М. Медресы в Каракалпакии XIX-начала XX века. – Нукус, 2002.
9. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. – Toshkent, 2009.
10. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013.
11. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. I jild. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2014.

GLOSSARIY

Avorizot — arabcha soʻz boʻlib, XIII asrdan boshlab Oʻrta Osiyoda muomalada boʻlgan. Bu soʻz yer egasi yoki hokimning xoʻjaligida ishlab berish majburiyatini anglatgan.

Aymoq — oʻrta asr moʻgʻullarida bir hududda yashovchi, bir-biriga qarindosh oilalar birlashmasi aymoq deyilgan. Oʻrta asrlarda turkiy xalqlarda ham bir necha qabila yoki urugʻ birlashmasi aymoq deb atalgan. Bu atama hozir ham oʻz urugʻlarini yaxshi bilgan oʻzbek xalqi ichida keng qoʻllaniladi.

Aymoqlar — hozir Afgʻonistonda yashovchi bir qancha turkiy qabila va urugʻlarning umumiy nomi. Aymoqlar XV–XVI asrlarda Fargʻona vodiysida, Qashqadaryo viloyati hududida yashagan. Asrlar oʻtishi bilan aymoqlar oʻzbeklar tarkibiga kirgan, ularning aksariyat qismi oʻz qabila nomlarini unutib yuborishgan va faqat Qashqadaryo viloyatidagi maʼlum bir kichik qismi oʻz qabilasi nomini saqlab qolgan.

Aygʻoqchi — oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo hududlarida asosan harbiy atama sifatida qoʻllanilgan boʻlib, qoʻshinning maʼlumot olib keluvchi darakchilari hamda qoʻshinlarning darakchi boʻlimlari maʼnosida keng qoʻllanilgan. Shuningdek, ushbu atamaning yolgʻon gap yoyuvchi, igʻvo, tuhmat qilib kun koʻruvchi shaxs maʼnosida ham qoʻllanilgani maʼlum.

Aqor — Oʻrta Osiyoda Temuriylar davlatida suv, (tegirmon, kanal, doʻkon, ustaxona va bozorlar kabi koʻchmas mulklar aqor deb atalgan. Aqor vasiyat bilan vaqfga aylantirilishi mumkin boʻlgan.

Alaf puli — Oʻrta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bogʻ va uzumzorlardan olinadigan soliq.

Amin — bir necha xil maʼnolarni anglatadi. 1. Buxoro amirligida tuman yoki qishloq oqsoqoli. 2. Bozorda sotuvchilardan soliq undiruvchi mansabdor. 3. Chorizm davrida Fargʻona vodiysi, Samarqand, Kattaqoʻrgʻon uyezdlarining ayrim volostlarida xalq tomonidan saylanib, bir yoki bir necha kichik qishloqni boshqaruvchi amaldor. Buxoro amirligida amin

amlokdorga, Turkiston harbiy gubernatorligida esa volost boshlig'iga itoat etgan.

Aminona – Buxoro amirligi hududida, Samarqand va Farg'ona bozorlarida XVIII–XX asr boshlarida chorva va oziq-ovqat mollarini sotuvchi kishilardan undiriladigan maxsus bozor haqi. Shuningdek, O'rta Osiyo hududidagi aminlar foydasiga yig'ib olinadigan soliq ham aminona deyilgan.

Amir – Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablar ko'p joylarni bosib olib, o'z dinlariga o'tkazgandan so'ng, Arab xalifaligiga qaram bo'lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng Oltin O'rdada, keyin O'rta Osiyo va Eron-da mo'g'ul va turk qabilalari birlashmasi – ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb atalgan. Sohibqiron Temurning unvoni ham amir bo'lib, tarixda Amir Temur deb yuritilgan. XVIII asr oxiridan boshlab, Buxoroda mang'it sulolasiga mansub bo'lgan hukmdorlar ham o'zlarini amirlar deb yuritishgan.

Amir ul-umaro – amirlar amiri, oliy amir degan ma'noni anglatgan. Oltin O'rda, Chig'atoy ulusida butun harbiy ishlar uning tasarrufida bo'lgan. Bundan tashqari, amir ul-umaroga hukumatning barcha bosh ijroiya idoralari ham bo'ysungan. Amir Temur va Temuriylar davrida amir ul-umaro faqat oliy bosh qo'mondonlik, ayrimlarda, hukmdorning xudaychisi bo'lgan.

Amiri shikor (miri shikor) – ov boshlig'i yoki sohibi. XV–XVI asrlarda ko'chmanchi o'zbek xonlari davrida mavjud bo'lgan davlat mansablaridan biri. Bu mansabni olgan amirlar, zodagonlar, ayniqsa, xonlar va sultonlar hayotida muhim bo'lgan xon ovini tashkil qilishardi.

Amlok – arabcha so'z bo'lib, "mulk" so'zining ko'plik ma'nosini anglatadi. Buxoro amirligida yer egaligi shakllaridan biri. Yer egaligining bu turi ko'p mehnat talab qiluvchi sug'orish ishlarining hukumat tomonidan tashkil etilishi hamda dehqonlarning unga qaram qilib qo'yilishi tufayli paydo bo'lgan. Amlok yerlari amir ixtiyorida bo'lib, unga ijarachi sifatida ekin ekan dehqonlar davlat xazinasiga xiroj va boshqa soliqlar to'lashgan.

Arbob – XVIII–XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi qishloq va shaharlarda mahalla boshlig'i, oqsoqol, qishloq miroblari boshlig'i, arbob

deb atalgan. Hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniyat va fan sohasidagi mashhur kishilar arbob deyiladi.

Ark – qadimgi davr, oʻrta asrlarda hamda soʻnggi davrda Oʻrta Osiyo hududida shaharlarning hokimlar joylashgan ichki qismi, yaʼni «Oʻrda» ark deyilgan. Asosan oliypanoh hokimlar, podsholar, xonlar, amirlar, ularning saroy amaldorlari va lashkarboshilarining uylari, hukumat idoralari, devonxona, tanga zarb etadigan zarbxonalar arkda boʻlgan. Ark asosan shaharning toʻrida joylashgan.

Ashtarxoniylar – Movarounnahrni idora qilgan sulola (1599–1753). 1556-yilda Astraxan (Xoji-Tarxon) xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, Joʻchixon nasliga mansub boʻlgan Astraxan xoni Yormuhammad oʻz oilasi aʼzolari va qarindoshlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xoni Iskandar Yormuhammad va uning hamrohlariga oʻz mamlakatidan boshpana beradi. Yormuhammadning oʻgʻli Jonibek Sultonga oʻz qizi Zuhrani xotinlikka beradi. Shu nikohdan uch oʻgʻil (Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad) dunyoga keladi. Buxoro xoni Abdulmoʻmin oʻldirilgandan soʻng shayboniylar naslidan valiahd yoʻqligi uchun Jonibekning oʻgʻli Boqimuhammad xon taxtiga koʻtariladi. Shundan soʻng Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasining hukmronligi boshlangan.

Baday – Amudaryoning quyi oqimida, hozirgi Xorazm, Qoraqalpogʻiston hududlarida yashab, Amudaryo boʻylarida chorvachilik bilan shugʻullangan urugʻlardan biri boʻlib, ular XIX asrning birinchi choragida Surxon vohasiga, Bekoboddan Zomin dashtlarigacha boʻlgan hududlarga tarqalgan. Hozirgi kunda oʻzbek xalqi tarkibiga singib ketgan.

Bazzoz – ip-gazlama bilan savdo qiladigan doʻkondor. Qadimda bunday doʻkondorlar Oʻrta Osiyo bozorlarida koʻp boʻlgan. Bazzozlar gazlamalarni ot-aravalarga ortib, uzoq qishloqlarga ham olib borib sotishgan.

Bakovul – turli davrda turli xil maʼnolarni anglatgan. 1. XVI–XIX asrlarda belgilangan joylarda savdogarlarning tamgʻa, yaʼni boj soligʻini toʻlab oʻtishlari ustidan nazorat qilib turgan kichik mansabdagi harbiy xizmatchi; 2. XV asrdan boshlab podsho, xon va lashkarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat qilib turuvchi harbiy mansabdor. Lashkarga maosh va ulufa, yaʼni oziq-ovqat taqsimlash ham bakovullar zimmasiga yuklatilgan. Ular boqurchilardan bir daraja yuqori hisoblangan; 3. XVIII–XIX asrlarda va XX asrning birinchi choragida hozirgi Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarida toʻylarda taom tayyorlovchi pazanda ham bakovul deb atalgan. Pazandalar ustidan nazo-

rat qilib turuvchi shaxs esa bakovulboshi deb atalgan; 4. Hozirgi kunda respublikamizning Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida to'ylarda kurash, uloq (ko'pkari), poyga musobaqalarini boshqaruvchilar hamda to'ylarda taom tayyorlash ustidan nazorat qiluvchi kishilarni ham bakovul deb atashadi.

Barda – asir olinib, sotib yuborilgan yoki qulga aylantirilgan kishilar. O'rta asrlarda Dashti Qipchoq ko'chmanchilari o'zaro urushlarda hamda Movarounnahr va Xorazmning o'troq tumanlariga qilingan talonchilik yurishlarida asir olingan kishilarni, ya'ni bardalarni o'z yurtlariga olib borib qul qilar, sotib yuborar yoki o'z xo'jaliklarida ishlatar edilar.

Barid – 1. Chopar, xat eltuvchi, pochtafyon. 2. XIV–XVI asrlarda O'rta Osiyo xalqlarida keng qo'llanilgan masofa o'lchovi bo'lib, ikki far-sax, ya'ni taxminan o'rtacha 12 km. ga teng yo'l bo'lgan.

Barlos – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. Barloslar tog'li va tog' tumanlarida yashab, asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Barloslar tarixda mashhur urug'lardan biri bo'lib, Sohobqiron Amir Temur ham shu uruqqa mansub. Temuriylar davrida bu urug'dan ko'plab bek va amirlar yetishib chiqqan. Hozirgi davrda barloslarning avlodlari respublikamizning Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Koson, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzax, Zomin, Marhamat, Xo'jaobod, Ishtixon, Navoiy, Nurota, Urgut, G'allaorol tumanlarida hamda Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalarida va Afg'oniston hududlarida ham yashaydi.

Bahodir (botir) – qo'rqmas, dovyurak mini degan ma'noni anglatgan. Chingizxon va mo'g'ullar hukmronligi davrida xonning shaxsiy jangovar gvardiyasi bahodirlar deb atalgan. Bunday qism Chingizxon 1203-yili keroitlar ustidan g'alaba qilgandan keyin tashkil etilgan. Bahodirlar urush vaqtida oldingi qism (avangard) bilan birga harakat qilgan, tinchlik vaqtida esa xon qarorgohini qo'riqlashgan. Chingizxon davridan boshlab oliy tabaqaga mansub shaxslar va harbiy ko'chmanchi zodagonlarning vakillariga beriluvchi unvonlardan biriga aylangan. XVI–XIX asrlarda Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida xonlarning ayrimlari o'z nomlariga bahodir so'zini faxriy unvon yoki laqab sifatida qo'shib aytishgan.

Bahrin – turklashgan mo'g'ul qabilalaridan birining nomi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida bahrinlar Dashti Qipchoqqa kelib o'rtnashgan. XVIII–XIX asrlarda bahrinlarning katta qismi Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysiga, bir qismi esa Zarafshon vohasiga ko'chib kelib o'rtnashgan. Bah-

rinlar bir qancha urug'larga bo'lingan. Shulardan eng yiriklari bag'onali, qoraqalpoq, uali edi.

Begor – O'rta Osiyoda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan majburiy ishlab berish mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodallarning turli qurilishlari, jumladan, qal'a, saroy, yo'l qurilishi, kanal va ariqlar qazish kabi ishlarda tekinga ishlashga majbur qilingan. Masalan, Abdullaxon II ning (1583–1598) hukmronlik davrida, uning maxsus farmoni bilan mashhur Juyboriy xojalaridan Xoja Sa'dning yerlariga Vaxshdan suv chiqarish uchun ariq qazishga Hisor, Denov, Qubodiyon va Shahrisabzdan 10 ming kishi safarbar etilgan.

Bek – O'rta Osiyo xonliklaridagi shahar yoki viloyat boshlig'i. Masalan, Buxoro xonligi bir necha bekliklarga bo'lingan. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlangan bek boshqargan. U o'zi boshqaradigan beklikda cheksiz huquqqa ega bo'lib, faqat amirga bo'ysungan. Shuningdek, "bek" so'zi aslzoda, hukmdor, janob ma'nolarida ham ishlatilgan.

Beklarbegi – O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yuqori ma'muriy unvon va lavozim. Viloyat, katta shahar hokimlari ana shu unvonga ega bo'lishgan. Bu unvon ko'chmanchi xalqlar orasida ko'p ishlatilgan. Beklarbegi lavozimi O'rta Osiyoda XIX asr oxirigacha saqlangan. Beklarbegining asosiy vazifasi soliq va turli boshqa feodal majburiyatlarining o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, xon farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliqlar, oqsoqollar kengashi bilan kelishib hal etishdan iborat bo'lgan. Beklarbegilar qo'l ostidagi viloyatlarda alohida vazir, shayxulislom, sadr, jonishin (beklarbegining muovini) kabi mansablarga ham bo'lib, ular bevosita beklarbegiga bo'ysunganlar.

Biy – ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbeklarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon. Biylar XVII–XIX asrlarda yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hukumatga itoat etgan. O'rta Osiyo xonlari qabila va urug' boshliqlarini itoatda saqlash uchun ularga unvonlar berib, mansablarga tayinlashgan. Biy unvon avloddan avlodga meros sifatida qoldirilgan.

Boburiylar – Hindistonda 1526-yildan 1858-yilgacha hukmronlik qilgan sulola. Unga Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur asos soldi. Chet ellarda, Hindistonda, uzoq vaqtlar bizda ham Boburni va uning avlodlarini «Buyuk mo'g'ullar» deb atash odat bo'lib qolgandi. Bu noto'g'ri g'oya, asosan Yevropalik olimlar tomonidan Temur va uning avlodlari mo'g'ullardan tarqalgan, degan g'oya ilgari surilib, Bobur saltanati uchun

«Buyuk mo'g'ullar» degan nom qo'llanilgan. Ularning asarlari orqali shu nazariya to Hindistongacha kirib borib, uzoq vaqtlar noto'g'ri talqin etilib kelindi. Aslida esa Temur ham, uning avlodlari ham, shu jumladan, Bobur ham mo'g'ullardan tarqalgan emas. «Buyuk mo'g'ullar» degan ibora Chingizxon va uning avlodlariga nisbatan qo'llanilsa to'g'ri bo'lardi. Boburiylar, aslida Temur xonadoni vakili bo'lgan Bobur avlodlaridandir. Ular manbalarning guvohlik berishicha, o'zlarini «Boburiy mirzolar» deb yuritishgan.

Boburiylar – Hindistonda 332 yil hukmronlik qilishgan. Boburiylar sulolasining vakillari: 3. M. Bobur (1526–1530), Humoyun (1530–1539 va 1555–1556), Akbarshoh (1556–1605), Jahongir (1530–1627), Shoh Jahon (1627–1658), Avrangzeb Olamgir (1658–1707), Bahodirshoh I (1707–1712), Jahongirshoh, (1712–1713), Farrux Siyar (1713–1719), Muhammadshoh (1719–1748), Ahmadshoh (1748–1754), Olamgir II (1754–1759), Shoh Olam II (1759–1806), Akbar II (1806–1837), Bahodirshoh II (1837–1858). **Izoh:** Humoyun afg'on sur qabilasining yetakchisi Sherxondan mag'lubiyatga uchragach, to 1555-yilgacha hokimiyat Sherxon qo'lga o'tadi, faqat 1555-yilda Humoyun afg'on, chig'atoy, eron, turkman va ko'chmanchi o'zbeklardan katta kuch to'plab, hokimiyatni qaytarib oladi.

Botmon – Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan og'irlik o'lchovi birligi. Botmon turli davrlarda turli joylarda miqdori o'zgarib turgan. Masalan, XIX asrda bir botmon Xivada 20,16 kg. dan 40,95 kg. gacha, Buxoro va Samarqandda – 8 pud (1 pud – 16 kg.), ya'ni 131,44 kg. Farg'onada – 8–10 pud, ya'ni 131,44 kg. dan 163,800 kg. gacha, Toshkentda – 10,5 pud, ya'ni 171,99 kg. ga teng bo'lgan. Shuningdek, O'rta Osiyoda botmon yer o'lchovi sifatida ham qo'llanilgan, ya'ni bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. Bu taxminan bir gektarga teng sath o'lchov belgisi bo'lgan.

Bozorshab – o'rta asrlarda O'rta Osiyoning yirik shaharlarida bayram va ro'za kunlari uyushtirilgan ommaviy ko'ngil ochish kechalari. Bozorshabda shaharning bosh ko'chalaridan yoki maydon bezatilib, choyxona va do'konlar oldiga chorpayalar qo'yilib, har xil narsalar sotilgan. Karnay-surnay va nog'oralar chalinib, maxsus jarchilar odamlarni bozorshabga chorlagan. O'yin-kulgi, milliy o'yinlar va kurashlar namoyish qilingan. Bozorshab har joyning urf-odati, rasm-rusumlariga qarab, turli shaharlarda turlicha o'tkazilgan.

Bolg'ali – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan. Ilgari bolg'ali urug'i jaloyir, kenagas, qurama, qo'ng'iroq, nurota turkmanlari va boshqa o'zbek qabilalari tarkibiga kirgan. Bolg'ali urug'i bir necha bo'g'inlarga bo'lingan: birul, biyurli, yeshteke, kerait, no'g'oy, nukus, ishiqli va boshqalar. Bolg'ali urug'i qozoq va qoraqalpoqlar tarkibida ham uchraydi.

Borgoh – podshoh yoki xonning qabulxonasi bo'lib, u yerga maxsus ijozat bilan kirilgan. Borgohga maxsus imtiyozi bo'lgan kishilar, ya'ni tarxon va otaliqqa o'xshagan kishilardan boshqa barcha mansabdorlar faqat podshoh yoki xonning eshikog'aboshi orqali bergan ruxsati bilangina kira olgan. Harbiy yurishlar vaqtida xon yoki podshoh chodirining sarparda bilan o'rab ajratilgan qismi borgoh vazifasini bajargan.

Burqutlar – turklashgan mo'g'ul urug'laridan birining nomi. XI–XII asrlarda Baykal ko'lining sharqiy sohillarida yashagan. XIII asrning boshida Chingizxonga tobe bo'lgan burqutlarning katta qismi XIII–XVI asrlar davomida Movarounnahrda kelib o'rnamagan. Burqutlar asosan Zarafshon vohasida, qisman Mirzacho'lda joylashgan. XVIII asrning 50-yillarida burqutlar Buxoro xonligiga qarshi katta qo'zg'olon ko'targan. Qo'zg'olonni hukumat qo'shinlari bostirgach, burqutlarning bir qismi Zarafshon vohasidan Hisor vodiysiga ko'chirilgan. O'zbekiston hududida yashagan burqutlar o'troqlashib, o'zbeklar bilan aralashib ketgan.

Valiahd – podshoh yoki xonning tiriklik chog'ida o'z o'rniga tayinlab qo'ygan taxt vorisi. Valiahd podshoh yoki xonning qaroridan keyin maxsus davlat kengashida tasdiqlangan. Chingizxon va Amir Temur zamonida valiahd tayinlashda ularning yoshiga emas, balki davlatni boshqara olish qobiliyatiga e'tibor berilgan. Masalan, Amir Temur o'g'illari Mironshoh yoki Shohruhni emas, balki nabirasi Muhammad Sultonni, u vafot etgach, Mirzo Jahongirning o'g'li Pirmuhammadni valiahd qilib tayinlagan edi.

Vasiqa – yer-mulk oldi-sotdisi to'g'risida tuzilgan rasmiy shartnoma. Vasiqa ko'chmas mulkka doimiy yoki vaqtincha egalik qilish huquqini bergan. Turkiston qozixonalarida vasiqa faqat bir nusxada shariat qonunlari asosida tuzilgan. Unda har ikki taraf, ya'ni oluvchi va sotuvchi hamda guvohlar vasiqaga imzo chekkach, uni qozi imzolab muhrlagan. Amiralar yer va boshqa ko'chmas mulklarni tortiq qilganlarida vasiqani o'zlari berishgan.

Vaxtamg'ali – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri. Vaxtamg'ali urug'i qo'ng'iroq, yuz va ming qabilalari tarkibida bo'lgan. Vaxtamg'ali urug'iga mansub kishilar asosan Samarqand va Surxondaryo

viloyatlari hududida istiqomat qilishgan. Ularning asosiy qismi o'zbek tilining qipchoq lahjasida so'zlashishgan.

Vaqf – davlat yoki ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol-mulk, ya'ni yer-suv, bino va boshqalar vaqf deyiladi. Vaqfdan keladigan daromadlar o'sha diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga berilgan.

Vaqfnoma – mulk egalariining o'z yer-suvi, xo'jalik binolari va daromad keltiradigan boshqa mulklarini diniy muassasalar – masjid, madrasalar hamda ayrim ruhoniylarga – eshon, muftiylarga, so'fiylik jamoalari izmiga ixtiyoriy suratda o'tkazganligi to'g'risidagi hujjat. Vaqfnomada mulkning vaqfga o'tkazilish sababi, mulk egasining nomi, vaqf qilingan mulkning mutavallisi (boshqaruvchisi), vaqf mulkidan foydalanish tartibi, guvohlar aniq ko'rsatilgan. Vaqfnoma qozi tasdig'idan keyin qonuniy kuchga kirgan.

Ganchkorlik – amaliy san'atning bir turi bo'lib, u o'ymakorlik tarmog'iga kiradi. Ganchkorlik eng qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Milodning I asridan boshlab ganchga o'yma naqshlar solish rasm bo'lgan. Hozirgi kunda o'zbek ganchkorligida bir necha mustaqil maktab – Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkent maktablari mavjud. Keyingi paytlarda ganchkorlik san'ati, asosan, jamoat binolarini bezashda keng qo'llanilmoqda.

Damba – suvni vaqtincha yoki doimiy dimlab turadigan to'siq, qurilish inshooti. Vazifasiga ko'ra u suv oqimini yo'naltiruvchi damba va ihota dambalariga bo'linadi.

Darvish – tasavvuf maslaklaridan biriga mansub kishi, so'fiy. Islomda tasavvuf yo'liga kirib mehnat qilmay darbadarlikni, gadolik va xayrehson bilan kun kechiruvchi, tarki dunyo qilgan shaxs. Darvishlar turli so'fiylik tariqatlariga mansub bo'lgan. Darvishlarni O'rta Osiyoda qalandarlar deb ham atashgan.

Darvozabegi (darvozabon) – O'rta Osiyo xonliklarida shahar, qal'a va xon saroylari darvozalarini qo'riqlovchi soqchi. Ilgari bu maxsus lavozim hisoblangan.

Dasturxonchi – O'rta Osiyo xonliklari saroylarida saroy xizmatchilaridan hisoblashan kichik mansabdagi amal. Ular saroyga kelgan mehmonlarni kutib olish, ularning oldiga dasturxon yozib taom kel-

tirish, kuzatib qo'yish ishlarini boshqarib turishgan. Bugungi kunda O'zbekistonda dasturxonchilik ma'nosi tubdan o'zgarib, to'y va boshqa marosimlarda tashkiliy ishlarni boshqaradigan ayollarga nisbatan qo'llanilmoqda. Dasturxonchi lavozimni mahalladagi ayollar tomonidan chaqqon, pazanda, ishbilarmon ayolni saylab qo'yishadi. Dasturxonchini Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida kayvoni deb atashadi. Dasturxonchi dasturxonni bezash, issiq ovqatni tortish, to'ydan so'ng idish-tovoqni saranjomlash ishlarini ham bajaradi. To'y va boshqa marosimlarning turiga qarab, dasturxonchining xizmatlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, qiz uzatib borilganda, qiz tomon dasturxonchisi kuyov tomon dasturxonchisi bilan birgalikda kelinni «kelin salom»ga olib chiqadi. Beshik to'yda esa alla jo'rligida beshikni boshida ko'tarib, to'yxonaga kiradi.

Dashti Qipchoq – Sirdaryoning quyi oqimi hamda Balxash ko'lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning XI–XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun u yerlar shunday deb atalgan. Dashti Qipchoq atamasini dastlab Nosir Xusrav (1003–1088) qo'llagan. Shu davrdan boshlab arab va fors tillaridagi asarlarda bu atama keng qo'llanilgan. Dashti Qipchoq ikki qismdan: 1) Sharqiy qism – Yoyiq daryosidan to Sirdaryoning quyi oqimi va Balxashgacha bo'lgan yerlar; 2) G'arbiy qism – ya'ni Yoyiq va Volgadan to Dneprgacha bo'lgan yerlardan iborat bo'lgan. Dashti Qipchoqning bir qismini XIII asrning 20-yillarida Jebe Nuyon va Subutay bahodir boshchiligidagi mo'g'ullar bosib olgan. 1236-yili Dashti Qipchoqni Chingizxonning nabirasi Botuxon egallaydi va bu ulkan hududda tarixda Jo'chi ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan Oltin O'rda davlati tashkil topadi. XIV asrning boshlarida Jo'chi ulusi ikki qismga bo'linib ketadi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topadi. XIV asrning 60-yillaridan boshlab Dashti Qipchoqning sharqiy qismidagi bu Oq O'rda davlati tarixiy manbalarda «o'zbeklar mamlakati» deb, uning aholisi esa «o'zbeklar», aniqrog'i «Dashti qipchoq o'zbeklari» deb atala boshlandi. XV asrning 20-yillaridan boshlab, Sharqiy Dashti Qipchoqni asta-sekin Abulxayrxon egalladi va u bu hududda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Abulxayrxon vafotidan keyin (1468-yil) Sharqiy Dashti Qipchoqda uning avlodlari va qarindoshlari hukmronlik qildi. Dashti Qipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va ovchilik,

daryo va ko'l bo'ylaridagi aholi esa dehqonchilik, shaharlardagi aholi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Dashti Qipchoq o'zbeklari – qadimdan Dashti Qipchoqning sharqiy qismida hozirgi Qozog'iston, Tobolsk, Tura atroflarida ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalari – arlot, bahrin, burqut, do'rmon, iyjon, xitoy, qarluq, mo'yor, qipchoq, qiyot, qo'ng'iro't, qurlovut, mang'it, nayboy, kenegas, uyshin, tuboiy, toymas, eski, tuman-ming, shod-baxtli, shunqorli va boshqa qabilalar XIII asr oxiri va XVI asrlarda yashab o'tgan sharq tarixchilari tomonidan umumiy bir nom bilan, ya'ni «Dashti Qipchoq o'zbeklari» deb atalgan. Dashti Qipchoq o'zbeklari, Ro'zbexonning «Mehmonnomayi Buxoro» asarida aytilishicha, uch toifadan, ya'ni shayboniylar (Shaybon ulusiga kirgan o'zbeklar), qozoqlar va mang'itlardan tashkil topgan. Shaybon ulusi, manbalarda ko'rsatilishicha, 1238-yilda tashkil topgan bo'lib, Ural (Yoyiq) tog'ining etaklaridan Tobol va Sarisuv daryolarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Mang'it ulusi Emba bilan Ural (Yoyiq) daryolari oralig'idagi yerlarda joylashgan. XV asrning 30-yillarida mang'itlar ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxonga qo'shiladi. Oq O'rda xoni bo'lgan O'risxon avlodi bo'lgan sultonlar – Gireyxon va Jonibeklar XV asrning 40-yillarida Abulxayrxonga bo'ysunishdan bosh tortib, o'z tarafdorlari bilan Chu va Yettisuv vohasiga qochib ketadi va oradan ko'p o'tmay xonligiga asos soladi. 1465-yil Abulxayrxondan qochib ketgan bu qabilalar tarixda «o'zbek-qozoq» nomini olgan. Dashti Qipchoq o'zbeklari asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Ular faqatgina O'zbekxon davrida islom dinini qabul qilgan. Dashti Qipchoq o'zbeklari O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistondagi bir necha xalqning tarkibiga kirgan.

Devonbegi – devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. Buxoro amirligida devonbegi turli davlat ishi sohalari bo'yicha devonlar hamda viloyatlardagi devonlarni boshqargan. Qo'qon xonligida devonbegi biror viloyat hokimi ixtiyorida bo'lib, chetdan keladigan savdo karvonlaridan boj to'plagan. Xiva xonligida esa devonbegilar ko'p bo'lib, ular elchilik, yasovullikni va boshqa ishlarni boshqargan. Masalan, Muhammad Rahimxon davrida (1806–1825) saroydagi mehtar, qushbegilarning har biri ixtiyorida bir nechta devonbegi bo'lgan.

Dodxoh – O'rta Osiyo xonliklarida yuqori martabalardan biri bo'lgan. Buxoro amirligida amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo'lib, u 10

toifa (darajali) dagi amal yoki mansab hisoblangan. Uning vazifasiga xon qabul qilgan va farmon etgan qaror va farmoyishlardan norozi bo'lib, xon oldiga kelganlarni qabul qilish kirgan. Odatda, dodxoh amir nomiga yozilgan iltimosnoma va arznomalarni qabul qilib olar va ularning egalariga yozma yoki og'zaki javob qaytarar edi.

Dorug'a – ushbu atama ikki xil ma'noni anglatadi. 1. Hokim. Mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar hukmronligi davrida dorug'alar viloyat, shahar hokimi bo'lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, aholi ro'yxatini olish, uni hisob-kitob qilish va ulardan soliq undirish vazifalari yuklatilgan. 2. Mirshablar boshlig'i. So'nggi o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i dorug'a deb yuritilgan.

Do'rmon – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Do'rmonlar kichik-kichik guruh bo'lib, tarqoq holda Zarafshon, Surxondaryo, Toshkent vohalarida, qisman Xorazmda, Janubiy Tojikistonda hamda Afg'onistonda yashashgan. Do'rmonlar O'rta Osiyo hududlariga XVI–XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kelib joylashishgan va keyinchalik Buxoro amirligining siyosiy hayotida faol qatnashishgan. Do'rmonlar tarkibida qo'yli, uvoq, uch urug', ko'k chelak, sakson yo'g'on, gurdak, oy tamg'ali kabi bir qator urug'lar bo'lgan.

Yobu (jobu) – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan birining nomi. O'zbeklar orasida kichik guruhni tashkil etgan bo'lib, XX asr boshlarida tarqoq holda Zarafshonning o'rta va quyi oqimida, shuningdek, Qarshi cho'lida yashashgan. Yobular qozoqlar tarkibida ham mavjud. Ular asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Yom (jom) – choparlar, yo'lovchilar ot almashtiradigan joy, bekatning qadimgi nomi. Yomda doimo otlar tayyor turgan. Yomda yo'lovchilarga, choparlarga doimiy xizmat qilishi uchun bir necha kishi xizmat qilgan. Dastlab yom XIII asrda paydo bo'lgan. Chingizxonning kichik o'g'li O'qtoy qoon yom qurishga katta ahamiyat bergan. Taxminan har 5 farsahda yom qurilgan. Mo'g'ullar o'zlari bosib olgan hududlarda, xususan, O'rta Osiyoda ham ko'plab yomlar qurishgan. Yom xizmatchisi chopar yoki yomchi deb atalgan. Yom, jom kabi joy nomlari yom o'rnida vujudga kelgan toponimlardir.

Jaloyir – turk va mo'g'ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik qabila uyushmalaridan biri. Ular o'nta yirik qabilaga bo'lingan bo'lib, har bir qabilaga sarkarda, ya'ni qabila boshlig'i boshchi-

lik qilgan. Jaloyirlar XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Yettisuv va Oʻrta Osiyoga koʻchib kelishgan. Oʻrta Osiyoda yashaydigan jaloyirlar oʻzbek, qozoq, qoraqalpoq va qirgʻizlar tarkibiga kirishgan.

Jangnoma – tarixiy va afsonaviy jang voqealari, urushlar, ayrim afsonaviy va tarixiy shaxslarning mardlik va qahramonliklarini badiiy adabiyotda koʻtarinki ruh bilan bayon qiluvchi epik janrning turi.

Janoh – qanot; tomon; taraf. Temuriylar qoʻshinlarida qoʻshin qanotini anglatgan ibora. Chanoh koʻrinishida ham ishlatiladi. Chanoh iborasiga «sogʻ» (oʻng) va «soʻl» (chap) iboralari qoʻshilsa, qoʻshinning «oʻng qanoti» va «soʻl qanoti» maʼnolarini bildirgan. Qoʻshinning oʻng va soʻl qanotlarini qoʻriqlab turuvchi maxsus harbiy boʻlinma ham chanoq deb atalgan.

Jarchi – Oʻrta Osiyo hududlarida oʻrta asrlar davrida hukmdorlarning xalqqa qarata chiqargan farmonini, rasmiy xabarlarini, xon va vazirlarning amrlarini aholiga yetkazish, urush boshlanishi yoki tugaganligi toʻgʻrisidagi xabarlarni, ayrim shaxslarni hukmdorlar tomonidan taqdirlash yoki jazolash haqidagi amrlarni, biron shaxsning yangi lavozimga saylanishi toʻgʻrisidagi xabarlarni bozor maydonlari va aholi koʻp toʻplanadigan joyda baland ovoz bilan eʼlon qiladigan shaxs. Shuningdek, jarchilar koʻchmanchilarning ovullarini aylanib yurib, qoʻshin toʻplashda ham qatnashishgan.

Jilovdor – Buxoro va Xiva xonliklarida yoki boshqa oliy martabali kishilarning otini qabul qilib oluvchi, otni jilovlovchi va ot egasini otga mindirib va tushirib qoʻyuvchi shaxs.

Jome masjidi – musulmonlarning juma va hayit namozlari oʻqiladigan muqaddas joy boʻlib, shahar, tuman va jamoat markazlaridagi markaziy bosh masjid.

Joʻchi ulusi – Chingizxon imperiyasining boʻlinishi natijasida 1224-yili uning oʻgʻli Joʻchixonga tekkan mulk, ulus. Joʻchi ulusi Irtishdan Ural (Yoyiq) togʻlarigacha va gʻarbda moʻgʻul oti tuyoqlari yetgan yergacha boʻlgan oʻlkalarni qamrab olgan. Janub tomondan Chigʻatoy ulusi bilan chegaradosh. Botuxonning harbiy yurishlari (1238–1242) natijasida Sharqiy Yevropa ham Joʻchi ulusiga vassal sifatida boʻysindirilgan. Unga Janubiy Rossiya, Qrim va Zakavkaziya (Kavkazorti) kirgan. XIII asr oʻrtalaridan boshlab Joʻchi ulusi Oltin Oʻrda deb atalgan.

Zakot – Islom dinining besh asosiy talablaridan biri boʻlib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson, soliq. Shariatga

muvofig muayyan boylikka ega katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho'ponlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot kambag'allar, yetim-yesirlar, kasallar va hech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.

Zakotchi – aholidan zakot, pul va mollarni undiruvchi amaldor. Zakotchi Buxoro amirligida muhim amal hisoblangan. Devonbegi zakotchi hisoblanib, amirning moliyaviy ishlarini ham boshqargan.

Imom – arabcha so'z bo'lib, namozda jamoatning oldida turib namozni boshqaruvchi kishi. Shuningdek, islom dinida musulmonlarning rahbari, boshlig'i demakdir.

Inoq – turkiy so'z bo'lib, do'stona, yaqin odam, inoq ishonchli vakil, ishonchli mansab egasi yoki mansabdor hamda o'z ishiga ishonchli va sadoqatli, degan ma'nolarni anglatgan. Odatda, inoqlar eng qudratli o'zbek urug'lari amirlaridan tayin etilgan va ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lishgan. Buxoro amirligida inoq yuqori toifadagi martabalardan hisoblanib, uning ikki xil toifasi, ya'ni katta inoq (inoqi kalon) va kichik inoq (inoqi hurd) mavjud bo'lgan. Xiva xonligida inoqlar yirik amaldor, ya'ni qabila boshlig'i hisoblangan. Inoqlar huzurida qushbegi, mehtar va otaliqdan iborat kengash bo'lib, ular amaliy tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashishgan.

Kadxudo – so'nggi o'rta asrlar davrida Xiva xonligida mavjud bo'lgan urug' boshliqlari lavozimi. Ma'nosi oqsoqollar, boshliqlar, rahbarlar demakdir.

Kubraviylik – o'rta asrlardagi so'fiylik oqimlaridan biri. XIII asr boshlarida Najmiddin Kubro asos solgan. Uning asarlarida tariqatning mohiyati, o'ziga xos talab va qoidalari bayon qilib berilgan. O'rta Osiyoda, qisman Eronda tarqalgan kubraviylik oqimiga mansub so'fiylar o'rtasida ovoz chiqarmasdan zikr qilish amalda bo'lgan. Ularning tariqati Qur'oni karimni majoziy va mistik talqin qilishga asoslangan.

Ko'chmanchi o'zbeklar – ko'chmanchi o'zbeklarning o'zagini Dashti Qipchoq o'zbeklari tashkil etgan. XIV–XVII asrlardagi yozma manbalar ma'lumotlariga ko'ra, ko'chmanchi o'zbeklar tarkibiga quyidagi urug' va qabilalar kirgan: arlot, arg'in, bahrin, buyraq bulovchi, burqut, durmon, jaloyir, jot, iyjon, kenagas, kerait, major, makrit, mang'it, nayman, nukuz, olchin, os, sulduz, tang'ut, tama, toymas, to'tor, tuboyi va boshqalar. XV asrning 50–60-yillarida Abulxayrxon asos

solgan ko'chmanchi o'zbeklar davlatida feodal kurashning kuchayib ketishi natijasida ko'chmanchi o'zbeklarning bir qismi Gireyxon va Jonibek Sulton boshchiligida Chu vodiysiga ko'chib ketgan, keyinchalik o'sha yerda Qozoq xonligiga asos solgan. Feodal sulolaviy kurashlarning kuchayib ketishi, iqtisodiy qiyinchiliklar oqibatida ko'chmanchi o'zbeklarning katta qismi XVI asr boshlarida Abulxayrxonning nabirasi Shayboniyxon boshchiligida Movarounnahrqa bostirib kirgan va Temuriylar hukmronligiga barham bergan. Ularning G'arbiy Sibirda qolgan XV asrning 80-yillarida Shayboniy naslidan bo'lgan Iboqxon boshchiligida Sibir xonligiga asos solgan.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlati – Janubi-G'arbiy Sibirda Abulxayrxon asos solgan (1428) davlat. Poytaxti – Tura shahri. Bu davlatning paydo bo'lishida Dashti Qipchoqning sharqiy qismida ko'chib yurgan qabilalar va ularning boshliqlari katta rol o'ynashgan. Abulxayrxon juda qisqa vaqt (1428–1430) ichida mayda-mayda qismlarga bo'linib ketgan Shaybon ulusining katta qismida o'z hukmronligini o'rnatgan. 1428–1446-yillarda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga Orol dengizining shimoliy qirg'oqlaridan to Irtysh daryoning o'rta oqimigacha, sharqdan Sarisuv va Chu suv daryolari, g'arbda Yoyiq (Ural) daryosining so'l sohillarigacha bo'lgan yerlar kirgan. Abulxayrxon vafoti (1468) dan so'ng ko'p o'tmay ko'chmanchi o'zbeklar davlati inqirozga uchraydi. Abulxayrxon vafotidan so'ng uning o'g'li Haydarxon xon qilib ko'tariladi. Bu davrda Abulxayrxonning dushmanlari – Iboqxon, Birka Sulton, Jonibek, Gireyxon, mang'it amirlardan Yomg'urchi va Muso Mirzolar Oltin O'rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib, Haydarxonga qarshi kurash olib borishdi va g'alabaga erishishdi. Haydarxon o'ldiriladi, Iboqxon va uning ittifoqchilari Abulxayrxonning qarindosh-urug'larini va tarafdorlarini qirg'in qilishadi. Bu qirg'indan Muhammad Shayboniyxon, uning ukasi Muhammad Sulton, Abulxayrxonning o'g'illari Suyunchxojaxon va Ko'chkinchixon, Baxtiyor Sultonning o'g'li Mahdi Sulton, Hamza Sulton va boshqa ba'zi beklargina qochib qutulishgan, xolos.

Laylat ul-qadr – ramazon oyining 27-kunga o'tar kechasi. Islom diniga sig'inuvchilar har yili shu kechada Alloh har bir insonning ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning taqdiri haqida hukm chiqaradi, deb tasavvur qiladilar. Mana shuning uchun ham Laylat ul-qadr kechasini Qur'on o'qib, Allohga iltijo qilib, duo va ibodat qilib o'tkazish rasmi bo'lgan.

Lo'lilar – ko'chmanchi xalq. Jahondagi barcha mamlakatlarda tarqoq holda yashaydi. Lo'lilarning O'zbekistonning ayrim hududlarida mo'ltoni, ayrim guruhlarining jo'gi (hindcha kambag'al, qashshoq), hindistoniy, bo'lujiy deb atalishi ham ularning asl vatani Hindiston bo'lganini tasdiqlaydi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, lo'lilarning dastlabki guruhleri milodning boshlarida, V–VII asrlar va keyingi davrlarda Shimoliy Hindistondan tarqala boshlagan. O'rta Osiyo lo'lilarini tub aholi lo'li, jo'gi, mazang deb ataydi. Qadimdan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi kabi shaharlar atrofida yashab keladilar. Lo'lilar o'zbek va tojik tillarida gaplashadilar, ammo tojik tili ularning turmushida asosiy hisoblanadi. Ular islom diniga e'tiqod qilishadi.

Madrasa – musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz. U madrasa sifatida arablarda VII–VIII asrlarda paydo bo'lgan. Keyinchalik ayrim masjidlar qoshida ilohiyot maktablari tarkib topib, madrasa deb atala boshlagan. Madrasalar xonlar va yirik yer egalari, boylar va boshqa davlatmand kishilar tomonidan qurdirilgan. Madrasani qurdiruvchilar madrasa uchun vaqf ajratib, madrasa mutavallisini tayinlashgan. Mutavalli vaqfdan tushgan daromadni mudarris, mullavachcha, imom va boshqalarga taqsimlagan. Madrasaga maktabni tugatgan o'spirinlar qabul qilingan. O'rta Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan «Av-vali ilm» kitobi o'qitilgan. Ayrim madrasalarda tibbiyot, arab tili, falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o'qitilgan. Madrasaning har bir bosqichida o'qish muddati 3–4 yil davom etgan.

Masjid – sajdagoh, musulmonlarning ibodat joylari. Musulmonlar jamoa bo'lib namoz o'qiydigan joy. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o'qiladi. Birinchi masjidni Madinada Muhammad payg'ambar (s.a.v.) qurdirgan.

Mezana – minoraning yuqori qismi, muazzin azon aytadigan joy. Mezana aylana shaklida va ko'p qirrali bo'ladi. Ko'pincha, ravoqsimon darchalar galereyasidan tashkil topadi. Ichki devorlari ganch bilan naqshlanadi. Mezananing tepasi odatda, gumbazcha bilan yopiladi.

Mesh – oshlangan teridan tikilgan og'zi tor qop. Juda qadimdan ma'lum. Mesh suyuq narsalarni tashish va saqlashda, chalob tayyorlash va boshqalarda ishlatilgan. Sharq mamlakatlari, O'rta Osiyo va Sibir xalqlari o'rtasida keng tarqalgan.

Meshkob – meshda suv tashuvchi odam. Meshkoblar suv manbalaridan xonadonlarga, guzarlarga, choyxonalarga, karvonsaroylarga suv ta-

shib berib tirikchilik o'tkazishgan. Ularni meshkobchi deb ham atashgan. Meshkobchilar O'rta Osiyoning suv tanqis ayrim shaharlarida, masalan, Buxoroda XX asr boshlariga qadar mavjud bo'lgan.

Mehtar – Buxoro amirligida zakotchilar boshlig'i. Qo'qon va Xiva xonliklarida davlat xizmatchisi. Shuningdek, o'tmishda saroy sozandalarining boshlig'i, yetakchi sozanda. Temuriylar zamonida mehtarlar nog'orachilardan, keyinchalik surnaychilardan tayinlangan.

Ming – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Samarqand viloyati, shuningdek Farg'ona hamda Buxoro vohasida, ayrim guruhlar tarqoq holda Surxondaryo viloyatining Boysun, Muzrabod, Denov tumanlarida yashashgan. Minglar uchta yirik uruqqa bo'linishgan: 1. Tug'ali. 2. Bog'lon. 3. Uvoq tamg'asi. Bu urug'lar o'z navbatida yana bir necha mayda urug'larga bo'lingan. Minglar Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda XV asr oxiri – XVI asrning yarmida ko'chib kelgan hamda O'rta Osiyo xonliklarning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashishgan. Minglarga mansub yirik feodallar 1709-yilda Farg'ona vodiysida yangi davlatga – Qo'qon xonligiga asos solishgan. Minglar sulolasi hukmronligi 1876-yilga qadar, ya'ni Rossiya imperiyasi Qo'qon xonligini bosib olgunga qadar hukm surgan.

Mingboshi – harbiy va ma'muriy unvon. Qo'qon xonligida xondan keyingi mansab. Asosan harbiy ishlar bilan shug'ullangan. Xiva xonligida mingboshilik eng kichik amal hisoblangan. O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan istilo etilgunga qadar Toshkent, Oqmasjid kabi shaharlarning hokimlari ham mingboshi deb atalgan. Chor Rossiyasi mustamlakasi yillarida Toshkent dahalarining boshliqlari ham mingboshi deyilgan. Daha mingboshisi aholi tomonidan saylanib, viloyat begi tarafidan tasdiqlangan. Keyinchalik mingboshi oldi-sotdi ishlarini nazorat qiladigan mansabga aylanib qolgan.

Mir – «Amir» so'zining qisqargan shakli. Hukmdor, hokim, podshoh, vazirlarga nisbatan qo'llanilgan. Ayrim hollarda yuqori imtiyozli kishilarga unvon tariqasida ham ishlatilgan. Masalan, Mir Alisher Navoiy.

Mirzaboshi – saroyning yirik mansabdorlaridan biri. Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida amir saroyida devonxona hokimi bo'lib, mirzalar boshlig'i hisoblangan.

Miroxur – Buxoro amirligida yuqori bosqichdagi 6-darajali mansab bo'lib, xon otxonasining boshlig'i bo'lgan. U saroydagi otxonalar va ot-

ulov mahkamasiga javobgar bo'lib, dasturxonchi va parvonachidan keyingi mansabdor shaxs hisoblangan.

Mirshab — O'rta Osiyo xonliklari shaharlarida jamoat tartibini saqlovchi lavozim bo'lib, odatda shaharning kechki xo'jayini (miri-shab) deb ham yuritilgan. Mirshab asosan o'z ishiga kechqurun soat 6 dan keyin kirishgan, chunki bu davrda barcha shahar bozorlari yopilib, bir soatdan so'ng shahar darvozalari berkitilib, shahar suv quyganday jim-jit bo'lgan. Mana shu davrdan boshlab, hech kim chiqmasligi va shahar ko'chalarida yurmasliklari kerak bo'lgan. Ushbu qoidani buzgan barcha shaxslar mirshablar tomonidan ushlab, mirshabxonaga keltirilgan. Mirshab lavozimi Buxoro amirligida 1920-yilgacha mavjud edi.

Mirshabboshi — Buxoro amirligida mirshablar boshlig'i. Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan bosib olingach, to 1917-yilgacha mahalliy aholi yashaydigan mahallalarda mirshabxonalar tashkil etilgan bo'lib, mirshablar boshlig'i mirshabboshi deb yuritilgan. Ular mingboshi va oqsoqollar ixtiyorida bo'lib, ularning topshiriqlarini bajarishgan.

Mulla — XIII asrdan boshlab dindorlar va ilohiyotchi olimlar, muarbiylar va muallimlarning obro'yi va ta'siri ancha kuchayadi. Ularni hurmat bilan xalq orasida mavlono deyishgan. Arab tilida u "janob, janobimiz" degan ma'noni anglatgan. O'rta asrlarda bu unvon juda kam uchragan bo'lsa-da, XVII asrdan boshlab keng tarqala boshlaydi. Asosan mavlono so'zini nomga qo'shib aytish lozim bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan mavlono so'zini ismga qo'shib aytish qiyin bo'lgani uchun uning shakli o'zgartirilib, mulla deb yuritilgan. O'rta Osiyoda diniy ilmdan xabardor va o'qimishli, Qur'oni karimni yaxshi bilgan zotlar ismiga mavlono o'rninga mulla so'zini qo'shib ishlatishgan. Shu-shu mulla so'zi keng qo'llanilib ketgan. Demak, mulla — bu madrasada tahsil olgan, diniy ilmga ega bo'lgan ma'lumotli kishilar, din arboblari va ulamolari demakdir.

Munshi — O'rta Osiyo xonliklari davrida xonlar yoki ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi. Munshi lavozimiga odatda, ma'lumotli va chiroyli yozadigan kishilargina olingan. Munshilar olim va fozil kishilar bo'lganligi uchun oddiy kotiblardan farq qilgan. Ular zimmasiga xon va amirlarning maktub va farmonlarini yozish yuklatilgan. Tarixiy asarlarning aksariyati ana shu munshilar qalamiga mansub. Munshi lavozimida bo'lgan kishilar munshi so'zini taxallus sifatida o'z nomlari ortiga qo'shib qo'yishgan.

Muftiy — musulmonlarda oliy martabali ruhoniylar. Muftiy diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin etish, shariatni tatbiq etish masalalarida

hal qiluvchi huquqqa ega. Sharqning musulmon mamlakatlarida muftiylik hukumat tayinlaydigan rasmiy lavozim hisoblanadi.

Muhrkanlik – muhr yasash kasbi. Muhrkanlik qadimdan Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan. Amir Temur saroyida, Buxoro, Qoʻqon va Xiva xonlari saroylarida va boshqa joylarda muhrkanlik ustaxonalari boʻlgan. Muhrkanlar xonlikdagi turli idora va muassasalar hamda amaldorlarning muhrlarini tayyorlashgan.

Navkar – xon, podshoh, sulton va yirik feodallarning doimiy harbiy xizmatchisi. Navkarlar asosan hukmdorlarning mol-mulkini qoʻriqlashgan va harbiy yurishlarda ishtirok etgan.

Nayman – oʻzbek, qozoq, qoraqalpoq, qirgʻiz, nugʻoy va oltoy xalqlarining tarkibiga kirgan yirik qabila uyushmasi. Oʻzbek naymanlari Zarafshon vodiysi, Fargʻona vodiysi va Xorazmda yashaganlar. Oʻzbek naymanlari XIX asr oxirida 3 ta yirik urugʻga boʻlingan: qoʻshtamgʻali, sadirbek va uvox tamgʻali. Bulardan tashqari, naymanlarda quyidagi urugʻ boʻlinishlari ham mavjud boʻlgan: agʻron, ayronchi, badir, biya, bogʻonali, boltali, buqalay, burunsov, jagʻalbayli, jastovon, jiloli, jumaloyaq bosh, olti ota, olti oʻgʻil, oq tunli, poʻlotchi, sagʻiz uruv, sari nayman, toʻrtuul, toʻrt tamgʻali, urguch, changali, choʻmichli, gʻozoyoqli, qora nayman, qora gadoy, qora sirak, qargʻali, qil tamgʻali, qoʻl tamgʻali va boshqalar.

Naqshbandiylik – Islomdagi soʻfiylik tariqatlaridan biri. Buxoroda Bahouddin Naqshbandiy asos solgan. Naqshbandiylik xoʻjagon tariqati negizida paydo boʻlib, Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq Gʻijduvoni, Ahmad Yassaviy qarashlarini umumlashtirdi. Bahouddin va uning izdoshlari dastlabki davrdan tarkidunyochilik va faqirlikni, barcha mavjudotlarga muhabbat bilan qarash mazmunidagi gʻoyalarni targʻib qilishgan. Oʻzlari ham zohidlik va faqirlikda yashashgan. Naqshbandiylik XV–XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shugʻullanuvchi shahar aholisi va koʻchmanchi chorvador aholi orasida keng yoyilgan. Bu taʼlimotning asosida «Diling Allohda, qoʻling mehnatda boʻlsin» («Dil ba yor-u dast ba kor») shiori yotadi.

Oltin Oʻrda – tarixiy manbalarda Joʻchi ulusi deb ham yuritiladi. XIII asrning 40-yillarida Chingizxonning nabirasi Joʻchixonning oʻgʻli Botuxon (1208–1255) tomonidan bosib olingan Sharqiy Yevropa Joʻchi ulusiga qoʻshilgach, tashkil topgan davlat Oltin Oʻrda deb atalgan. Oltin Oʻrdaga Quyi Dunay va Fin qoʻltigʻidan toʻlirish havzasi va Obning quyi oqimigacha, Qora, Kaspiy, Orol dengizlari hamda Balxash koʻlidan

Novgorod yerlarigacha bo'lgan joylar kirgan. Rus yerlari Oltin O'rdaga vassal, ya'ni qaram bo'lgan. Oltin O'rdaning poytaxti dastlab hozirgi Astraxan shahri yaqinidagi Saroy Botu, keyinroq esa hozirgi Volgograd yaqinidagi Saroy Berka shaharlari bo'lgan. XV asrning 20-yillarida Oltin O'rdadan Sibir xonligi, Qozon xonligi (1438), Qrim xonligi (1443), Nug'oy xonligi (1440) va Astraxan xonliklari ajralib chiqqan.

Otaliq – dastlab saljuqiylar sulolasi davrida (1038–1194) xon e'tiborini qozongan kishilarga berilgan mansab. Otaliq «Ota o'rniga ota» degan mazmunga ega bo'lib, uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog'atga yetganlariga qadar boshqarishdan iborat bo'lgan. Tarixda ba'zi otaliqlar hokimiyatni o'z qo'llariga olgan hollar ham bo'lgan. Chunonchi, ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida (1599–1753) Balxda Mahmudbiy otaliq (XVIII asr boshlari), Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida (1753–1920) Buxoroda Muhammad Rahim otaliq (1753–1758) mana shunday yo'l orqali hokimiyatni egallagan.

Otin – eski diniy maktablarda qizlar o'qituvchisi otin deyilgan. Otinlar ayollar o'rtasidagi diniy marosimlarni o'tkazishda boshchilik qilib, ularga diniy ta'limot berib, ulardan tushadigan daromad hisobiga yashaganlar.

Oftobachi – O'rta Osiyo xonliklarida hukmdor saroyida hukmdorning qo'lga suv quyuvchi shaxs bo'lib, yuqori mavqega ega bo'lgan lavozimlardan biri. Oftobachi davlat ishlari bilan shug'ullanuvchi mansabdor ham bo'lgan. Masalan, Qo'qon xonligida Xudoyorxon davrida Abdurahmon oftobachi mas'uliyatli davlat topshiriqlarini ado etgan.

Oqsoqollar – qariya, mo'ysafid, katta boshliq, arbob. Xiva xonligida mansabdor va hurmatli kishilar bo'lib, ular elchilarni qabul qilar yoki boshqa tantanali marosimlarda qatnashar edilar. Shuningdek, o'rta asrlarda butun O'rta Osiyo hududida qishloq jamoasi boshlig'i ham oqsoqollar deb atalgan. Toshkent va Turkiston o'lkasining boshqa shu kabi yirik shaharlaridagi daha boshliqlari ham oqsoqollar deb yuritilgan.

Og'aliq – Buxoro amirligida ayrim viloyatlar hokimlarining amir tasdig'idan o'tgan vakili. Amir to'rt viloyat (Chorjo'y, Qarshi, Shahrisabz, Kitob) uchun og'aliq tayinlagan. Mazkur viloyatlar aholisi o'rta asrlarda amir hokimiyatiga uzoq vaqt bo'ysunmay kelgan. Aholining isyonkorlik ruhi amirni aholi bilan viloyat hokimi o'rtasida vositalik qiluvchi shunday vakil tayinlashga majbur etgan.

Parvonachi – XVII–XVIII asrlarda Buxoro xonligida mavjud boʻlgan mansab; vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Parvonachi xon farmonlarini yozib, tegishli kishilarga yetkazib turgan. Yuqori mansabga tayinlangan amaldor parvonachi tomonidan bitilgan farmonni uch kun mobaynida oʻz sallasiga qistirib yurishi lozim boʻlgan.

Ponsad – Oʻrta Osiyo xonliklarida qoʻllanilgan harbiy unvon. Ponsad 500 kishidan iborat otryadga qoʻmondonlik qilgan. Qoʻqon xonligida mavjud boʻlgan mansablar ichida 16-oʻrinda, harbiy unvonlar orasida esa mingboshidan keyingi oʻrinda turgan. Ponsad odatda, xon va bek tomonidan tayinlanib, baʼzi soliqlardan qisman yoki butunlay ozod qilingan hamda unga har yili ikki marta maʼlum miqdorda gʻalla, pul va sarpolar berilgan.

Rais – Oʻrta Osiyo xalqlarida XX asrning birinchi choragigacha mavjud boʻlgan mansab. Rais baʼzida boshqacha ibora bilan ham yuritilib, u muhtasiblik deb yuritilgan. Buxoro amirligida dindorlar rayosatida rais lavozimi qozikalondan keyin ikkinchi oʻrinda turgan. Raisning vazifasiga bozorlarning narx-navosi, torozi va arshinlarning toʻgʻriligini nazorat qilish, hisob-kitobini aniqlash, shahar atrofidagi aholining shariat qonun-qoidalariga qanday rioya qilayotganligini tekshirish, daʼvolarini eshitish, namozxonlar va qimorbozlarning sonini aniqlash va ular bilan ishlash, muazzinlarni vazifaga tayinlash, yoʻllarni tuzatishlar kirar edi.

Rasadxona – osmon jismlarining holati va harakatini kuzatadigan maxsus joy. Samarqandda XV asrda Ulugʻbek tomonidan qurilgan rasadxona hozirgacha saqlab kelinmoqda.

Registon – Oʻrta Sharq shaharlaridagi maydon. Samarqand va Buxorodagi registonlar shahar arxitekturasida tutgan oʻrni va tarixiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Samarqanddagi Registon ansambli yirik meʼmorchilik inshooti sifatida hozirgi kungacha butun dunyoga mashhur.

Sayid – arablarda musulmon davri boshlangunga qadar qabilaning saylanadigan rahbarlari unvoni boʻlib, “boshliq, masʼul shaxs” degan maʼnoni bildirgan. Muhammad paygʻambarning amakivachchasi Alining otasi Abutolib bir vaqtlar quraysh qabilasining sayidlaridan boʻlgan. Shuning uchun bu unvon Muhammad paygʻambarning nevaralari, Alining oʻgʻillari Hasan va Husanning butun avlodlari ismiga qoʻyiladigan faxriy unvon hisoblangan. Sayidlarning qiziga uylangan kishining farzandlari ham sayid hisoblangan. Mana shuning uchun ham musulmonlar dunyosida, jumladan, Movarounnahrda ham koʻpincha hukmdorlar ham oʻz av-

lodlari mavqeyini ko'tarish maqsadida sayidlar qiziga uylanishga harakat qilishgan. Mang'itlar sulolasining so'nggi vakili Sayid Olimxon ona tomonidan Alining avlodi hisoblangan.

Sarbadorlar – XIV asrda Eron va O'rta Osiyoda mo'g'ullar va mahalliy feodallarga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilari. So'zma-so'z ma'nosi «o'z boshini dorga tikkanlar».

Sardoba – quduq yoki hovuz ustiga pishgan g'ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan inshoot bo'lib, unga zinalar orqali tushilgan. Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo'lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa nihoyatda muzday bo'lgan. Sardobalar asosan karvon yo'llarida qurilgan.

Saroy – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalar uyushmasi. O'zbekiston hududida yashovchi saroylarning soni 50 mingdan ortiq. Qashqadaryo vodiysida, ayrim guruhlar Jom cho'lida, Ko'hitang yon bag'irlarida, Samarqandning janubi-g'arbida va Jizzax atrofida yashaganlar. Saroylar tarkibida bir qancha yirik va kichik urug'lar mavjud bo'lgan. Masalan, az-saroy, qipchoq saroy, qirg'iz saroy, qo'ng'iro't-saroy, major-saroy, qorabog'-saroy, nayman-saroy va boshqalar. Saroylar etnik birlashma sifatida XIV–XV asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakllangan bo'lib, XVI asrda boshqa ko'chmanchi o'zbek qabilalari va urug'lari bilan birga hozirgi O'zbekiston hududiga kelib joylashgan.

Sarrof – shahar ko'chalari va rastalarida o'tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlar, oltin, kumush va boshqalarni aniqlash, ularning bahosini belgilash, ayrim kishilarning omonat pullarini, buyumlarini ma'lum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan ham shug'ullanishgan. Ilgari O'rta Osiyoning har bir shahrida sarroflik bilan shug'ullanuvchilar bo'lgan.

Sart – 1. VI asrlarda turklar O'rta Osiyoni bosib olgach, shaharlarda istiqomat qilayotgan fors-tojik tilida gaplashuvchi aholini sart deb atashgan. 2. XII–XIII asrlarda mo'g'ullar savdogarchilik bilan kelgan, asosan aksariyat musulmon savdogarlarini sart deb atashgan. 3. XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelib, Temuriylar davlatini egallagan ko'chmanchi o'zbeklar mahalliy o'troq aholini sart deb atagan. Keyinchalik vaziyat o'zgarishi bilan sart atamasining mazmuni ham o'zgardi. Ko'chmanchi o'zbeklar O'rta Osiyoni bosib olganlaridan so'ng, O'rta Osiyodagi o'troq aholining katta

qismi turkiy tilda gaplashganligi uchun, ularni ko'chmanchi o'zbeklardan farq qilish maqsadida faqat O'rta Osiyo vohasining shahar va o'troq aholisiga nisbatan sarti atamasi ishlatila boshlandi. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olganidan keyin ham mahalliy aholiga nisbatan shu atamani ishlatishgan.

Sag'oniyon (Chag'oniyon) – o'rta asrlarda Movarounnahrda mavjud bo'lgan qadimiy viloyat. Tarixiy manbalarda Chag'oniyon deb yuritilgan. U hozirgi Surxondaryo viloyati hamda qisman Tojikistoi Respublikasi hududida joylashgan.

Sohibqiron – 1. Quyosh tizimidagi katta sayyoralaridan ikkitasining bir-birini to'sishi paytida tug'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz – Zuhro va Mushtariy sayyorolari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Munajjimlarning fikriga ko'ra, bunday odam baxtli, ulug' martabali bo'lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi «baxtiyor podshoh», «qudratli podshoh» demakdir. 2. Sharq mamlakatlarida obro'li, g'olib podsholarga berilgan unvon. O'rta Osiyoda dastlab Amir Temurga shunday unvon berilgan.

Suyurg'ol – biror hukmdor tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga berilgan in'om. Suyurg'olga berilgan yer nasldan-naslga meros bo'lib o'tgan. Uning egasi davlat soliqlaridan ozod etilib, olgan daromadi va mahalliy aholidan o'z ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda suyurg'ol Amir Temur hukmronligi davrida keng tus olgan. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning ayrim viloyatlarini shu yerlarning sobiq egalari, o'z o'g'illariga, nevaralariga, ba'zan alohida xizmat ko'rsatgan amirlariga, qo'shin boshliqlariga suyurg'ol qilgan. XVI asrdan boshlab suyurg'olning avvalgi tartibi o'zgardi. Shayboniylar hukmronligining so'nggi yillari va ashtarxoniylar hukmronligi davrida ayrim qishloqlar, yer maydonlari, hatto shu yerlardan undirilgan soliqlarning bir qismi ham suyurg'ol tariqasida beriladigan bo'ldi. XVIII–XIX asrning birinchi yarmida suyurg'ol xarakteri tubdan o'zgarib, uning faqat merosiyligi saqlanib qoldi.

Tavochi – XIII–XVII asrlarda O'rta Osiyo va Eronda xon va podshohlar saroyida xizmat qilgan oliy harbiy mansabdor. Tavochi zimmasiga harbiy yurish ko'zda tutilganda tobe viloyatlardan oziq-ovqat, qurol-aslaha, ot-ulov bilan belgilangan miqdorda lashkar to'plab kelish, harbiy yurish oldidan hamma qo'shinlarni ko'rikka hozirlash, harbiy yurish vaq-

tida dam olish va uni o'tkazish uchun qo'shinni qulay o'ringa joylashtirish, dushman qarorgohiga yaqinlashib, uni qamal qiluvchi qo'shinlarni joy-joyiga qo'yish, asirlar va jinoyatchilarning jazolanishini nazorat qilish, qamal xavfi tug'ilganda tevarak-atrofdagi qishloqlar aholisini qal'aga ko'chirib kelish kabi vazifalar yuklangan.

Tanob – O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o'lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob – 3600 m².

Tanobchi – O'rta Osiyo xonliklarida hosildan olinadigan soliqlar hajmini belgilovchi amaldor.

Tanob puli – O'rta Osiyo xonliklarida har bir tanob beda maydoni uchun yiliga 40 tanga miqdorda undirilgan soliq. Shuningdek, u bog' solig'i deb ham yuritilgan.

Tanho – O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan suyurg'olning bir ko'rinishi bo'lib, u faqat harbiylarga berilgan. Tanho ham suyurg'olga o'xshab pul, mol-mulk, yer-suv tariqasida berilgan.

Tarxon – 1. O'rta asrlarda turkiy xalqlardagi zodagon nomi. 2. O'rta Osiyo xonliklarida zodagonlarning davlat soliqlaridan ozod qilingan yer-suv, mol-mulkleri.

Temuriylar – 1370–1507-yillarda Temuriylar davlatida hukmronlik qilgan sulola. Asoschisi – Amir Temur. Temuriylar Chig'atoy ulusida kuchayib ketgan feodal tarqoqlik natijasida hokimiyat tepasiga kelishdi. Samarqand va Hirot Temuriylar davlatining poytaxti bo'lgan. Temuriylarning hukmronlik qilgan yillari: Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1370–1405); Xalil sulton ibn Mironshoh; (1405–1409, Movarounnahr hokimi, 1409–1411, Ray shahri hokimi); Shohrux ibn Temur (1396–1490, Xuroson hokimi, 1409–1447, Temuriylar davlatining oliy hukmdori.); Ulug'bek ibn Shohrux (1409–1447, Movarounnahr hokimi, 1447–1449, Temuriylar davlatining oliy hukmdori); Abdullatif ibn Ulug'bek (1449–1450, Movarounnahr hokimi); Abulqosim Bobur (1449–1457, Xuroson hokimi); Abdulloh Mirzo ibn Ibrohim sulton (1450–1451, Movarounnahr hokimi); Sulton Mahmud ibn Abulqosim Bobur (1457–1459, Xuroson hokimi); Abu Sayid ibn Sulton Muhammad (1451–1458, Movarounnahr hokimi, 1458–1469, Temuriylar davlatining oliy hukmdori); Sulton Ahmad ibn Abu Sayid (1469–1494, Movarounnahr hokimi); Sulton Mahmud ibn Abu Sayid (1494–1498, Movarounnahr hokimi); Sulton Ali ibn Sulton Mahmud (1498–1500, Movarounnahr hokimi). 1500-yili Movarounnahr Shayboniixon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan bosib olingach, faqat

Xuroson Temuriylar qo'liga qolgan. Sulton Husayn Boyqaro (1470–1506, Xuroson hokimi); Badiuzzamon (1506–1507, Xuroson hokimi). 1507-yili 20-mayda Shayboniyxon Hirotni egallaydi. Temuriylar sulolasiga mansub so'nggi hukmdor Zahiriddin Bobur Afg'onistonga qochib borib, u yerda 1508-yili mustaqil davlat tuzdi. U 1525-yili Shimoliy Hindistonni bosib olib, u yerda yangi Boburiylar imperiyasiga asos soldi.

Tiyul – O'rta Osiyoda o'rta asrlar davrida tanho atamasi tiyul ma'nosida ishlatilgan. Abdurazzoq Samarqandiy asarida harbiy amaldorlarga oziq-ovqat uchun beriladigan maosh tiyul deb nomlangan. XVI asrning ikkinchi yarmida shartli ravishda muvaqqat in'om qilingan yer tiyul hisoblangan. Bek yoki hokim biron kimsaga muayyan xizmatni bajarib turgan vaqtida tasarruf qilishi uchun yoki kattaroq xizmati evaziga vaqtincha yoki umrbod foydalanish uchun tiyul bergan. Tiyul asta-sekin vaqtincha tasarruf qilinadigan shartli mulkdan meros tariqasida o'tadigan mulkka aylandi.

Tim – qadimda asosan yirik shaharlar markazida, ochiq bozor va karvonsaroylar yonida qurilgan savdo rastalari. Timlar katta-kichik har xil do'kon va ustaxonalarni birlashtirgan. Davlat tomonidan qurilgan timlardan ungan soliq davlatga, shaxsiy timlardan ungan soliq tim egasiga tekkan. Tim O'rta Osiyo, Ozarboyjon va Yaqin Sharq mamlakatlarida ko'p bo'lgan. Abdullaxon timi Buxorodagi eng katta savdo rastasi bo'lgan.

Tug'chiboshi – harbiy qism bayrog'i (tug'i)ni olib yuruvchi va qo'riqlovchi otryad boshlig'i. O'rta asrlarda mo'g'ul va turkiy xalqlarda xon qo'shinini tashkil etgan har bir qabila alohida harbiy qism hisoblanib, o'z bayrog'iga ega bo'lgan. XVI–XVII asrlarda tug'chiboshi «to'g'begi» deb ham atalgan. XVIII – XIX asrlarda amalda bo'lgan «to'g'sabo» hamda «to'qsovul» atamaları «tug'chiboshi»ning variantlari bo'lib, harbiy unvonni anglatgan.

To'pchiboshi – harbiy lavozim. O'rta Osiyo xonliklarida harbiy ishlarni boshqargan shaxs. Buxoro amirligida ikkita to'pchiboshi unvoni bo'lgan: biri «to'pchiboshiyi lashkar» nomi bilan atalib, Buxoro garnizonining boshlig'i bo'lgan. Uni «vaziri harb» – harbiy vazir ham deyishgan. Ikkinchi to'pchiboshi poytaxt qal'asining komendanti bo'lgan. Uni «to'pchiboshiyi arqi-oli», ya'ni qal'a artilleriyasining boshlig'i deyishgan.

To'ra – Buxoro amirligida amir o'g'illariga hamda Turkiston o'lkasida podsho ma'murlari nomiga hurmat yuzasidan qo'shib aytilgan atama.

To'qsabo – harbiy unvon. XVI – XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida xon bayrog'ini qo'riqlagan maxsus harbiy qism boshlig'i. XIX asrda esa umuman bir polkdan iborat bo'lgan harbiy qism boshlig'i.

Udaychi – asli «hidoyatchi» bo'lib, Xiva va Qo'qon xonliklari hamda Buxoro amirligida saroyda tantanali marosimlarni tashkil etuvchi va uni o'tkazishga javobgar shaxsning lavozimi bo'lib, u Buxoro amirligida amir huzurida biy yoki dodxoh darajasidagi mansabdor hisoblangan. Udaychi doimo amir huzurida bo'lib, davlat ishlari haqida amirga doimiy axborot berib turgan. Shuningdek, uning xizmatiga boshqa davlatlardan kelgan elchilar va davlat vakillarini davlat rahbarlarining oldiga, ya'ni qabulxonalariga birga hamrohlik qilib olib kirish yuklatilgan. Boshqa amaldorlardan farq qilish uchun hassa (aso) tutgan.

Farsax (farsang – parsang, porasang) – Sharqda, jumladan O'rta Osiyoda qadimdan ishlatilib kelingan masofa o'lchov birligi. Bir farsax 9–12 ming qadamga yoki 6–8 km ga teng bo'lgan.

Farrosh – asl ma'nosi «gilam to'shovchi». Podshohlar, xonlar, amirlar va aslzodalar huzuridagi kichik saroy xizmatchisi hisoblangan. Uning zimmasiga mehmon kutish uchun zarur bo'lgan barcha anjomlarni hozirlash vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, vaqt o'tishi bilan uning ma'nosi ham kengayib borgan. Jumladan, so'nggi o'rta asrlarda Buxoro amirligida amir oshxonasining boshlig'i, bosh pazanda ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, Xiva xonligida saroy hovlilarini supuruvchi ma'nosida hamda O'rta Osiyodagi madrasa va masjidlarda supurib-sidirib turuvchi, gilamlar va to'shaklarni to'shovchi xizmatkor ma'nosida ham qo'llanilgan.

Xabarchi – O'rta Osiyo xonliklarida xon va mahalliy hukmdorlarning xat va xabarlarini tashuvchi yoki yetkazuvchi kichik lavozimdagi xizmatkor.

Xazinachi – Buxoro amirligida xazinachining asosiy vazifasi amir xazinasini muhofaza qilish hisoblangan. Hukumatning mol-mulki, ombori uning qaramog'ida bo'lgan. Mamlakatning kirim va chiqimini daftarga qayd etish, ombordan kerakli narsalarni olish yoki unga qo'yish kabi ishlarining barchasi xazinachi tomonidan amalga oshirilgan.

Xalq – yunoncha «etnos» so'zining sinonimi. Mazmun-mohiyati jihatdan «millat» tushunchasidan biroz farqlanadi. Biror bir xalq misolida (o'zbek, qozoq, arman va hokazo) xalq jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti hosilasidir. Xalqni birlashtirib turgan hududiy birlik chegaralari o'zgarib turadi. Juda ko'p hollarda xalq tarixi uning nomidan ko'ra qadimiy bo'ladi.

Xattotlik – yozuv, xat san’ati, kitob ko’chirish kasbi. Xattotlik O’rta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Yozuv paydo bo’lgandan so’ng maxsus kishilar xattotlik bilan shug’ullana boshlaganlar. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalgandan keyin xattotlik keng rivoj topgan. O’rta Osiyoda matbaachilik vujudga kelganga qadar kitoblar tayyorlash, ularning nusxasini ko’paytirish ishi bilan xattotlar shug’ullanishgan.

Xiroj – Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida, jumladan O’rta Osiyoda davlat tomonidan undirilgan yer solig’i. Xiroj O’rta Osiyoda VII asrda arablar tomonidan joriy qilingan. Xiva va Qo’qon xonliklari hamda Buxoro amirligida xiroj yig’ish uchun har bir viloyatga sarkor, qishloqqa devonbegi va kotib tayinlangan. Xiva xoni Muhammad Rahim I (1775–1825) xirojni pul bilan undirishni joriy qilgan. Bunda xiroj olingan hosil miqdoridan emas, balki yer egasining xo’jaligi va yer maydoniga qarab olingan. Qo’qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin xiroj bu yerda ham natura o’rniga pul bilan yig’iladigan bo’lgan.

Xon – turkiy xalqlar va mo’g’ul hukmdorlarining unvoni. Dastlab qabila boshlig’i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida viloyat yoki shahar hokimi, mo’g’ullar imperiyasida ulus boshlig’i xon deb atalgan. Mo’g’ullar imperiyasi inqirozidan so’ng tashkil topgan davlatlarda oliy hukmdor xon, Chingiziylarda esa sulton deb yuritilgan. Qo’qon, Buxoro (1753-yilgacha) va Xiva xonligida hukmdorlar ham o’zlarini xon deb atashgan.

Xonlik – xon tomonidan boshqariladigan davlat. O’rta Osiyoda XVI asr oxirida ikkita xonlik – Buxoro va Xiva xonligi vujudga kelgan. XVIII asrda Qo’qon xonligi paydo bo’lgan. XVIII asr oxiri – XIX asr boshidan boshlab Buxoro amorat – amirlik deb yuritilgan.

Xo’ja – tor ma’noda, asosan Yaqin va O’rta Sharq xalqlari o’rtasidagi feodal ijtimoiy tabaqa. Xo’jalar sayidlardan keyingi o’rinda turgan. Keng ma’noda jamiyatdagi hukmron tabaqalar vakili. Xo’jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba’zi ma’lumotlarda xo’jalar dastlabki to’rt xalifa – Abu Bakr, Umar, Usmon va Alidan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning nasli deb hisoblanadi. Xo’jalar islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma’lum imtiyozlarga ega bo’lishgan. Ular ko’p hollarda o’lim, tan jazosi, urushlarda qatnashish hamda soliq to’lashdan ozod etilgan. Xo’jalar qizini oddiy fuqaroga berish man etilgan.

Chig'atoylar – Chig'atoy ulusini idora etgan sulola (1224–1370). Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy (1242-y. vafot etgan) nomidan kelib chiqqan. Chig'atoy ulusi xonlari: Chig'atoy (1224–1242), Xara Xaloku (1242–1247), Yesu Munke (1247–1252), Xara Xaloku (1252, ikkinchi marta), Orqina xotun (1252–1261), Olg'u (1261–1266), Muborak, Baroq (1266–1271), Nikpay (1271–1272), Tug'a-Temur (1272–1291), Duva (1291–1306), Kunchek (1306–1308), Taliku (1308–1309), Kepak (1309), Esonbuqo I (1309–1318), Kepak (1318–1326, ikkinchi marta), Duva Temur (1326), Alouddin Tarmashirin (1326–1334), Changshi (1334), Buzan (1334–1338), Yesun Temur (1338–1346), Donishmandcha (1346–1348), Boyonquli (1348–1359), Shoh Temur (1359), Tug'luq Temur (1359–1370).

Chig'atoy ulusi – Chingizxon tomonidan Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlarning umumiy nomi (1224-yildan boshlab). Hududi Movarounnahr, Yettisuv va Qashqardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi mo'g'ullar o'troq aholini boshqarish uchun tajribaga ega emas edilar. Shuning uchun Chig'atoy o'z ulusini boshqarishni xorazmlik Mahmud Yalavoch (1225–1238) va uning o'g'li Ma'sudbekka (1238–1289) topshirgan. O'zi esa ulusdan keladigan daromadlarning asosiy qismini olish bilan qanoatlangan. Chig'atoy vafot etgach (1242), Munke bilan Botuxon Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatishga qaror qilgan. 1251-yili imperiyada qurultoy chaqirilib, Munke taxtga o'tirgach, Chig'atoy avlodlarining ko'pchiligi qatl qilingan. Chig'atoy ulusini esa Munke va Botuxon o'zaro bo'lishib olishgan. Movarounnahr Botuxon qo'liga o'tgach, XIII asrning 60-yillarida Chig'atoyning nabirasi Olg'u chig'atoylar hokimiyatini tiklagan. Olg'u vorislari Muborak va Baroq mahalliy aholi bilan yaqinroq aloqada bo'lish uchun islom diniga kirishgan. Xon qarorgohi hamda ba'zi mo'g'ul urug'lari Yettisuvdan Movarounnahrqa ko'chirib keltirilgan. Temuriylar davlati tashkil topishi bilan chig'atoylar hokimiyati tugagan.

Chopar – otliq xabarchi. Choparlar xonliklar davrida shoshilinch xabarlarini otini har joyda almashtirib bir joydan ikkinchi joyga yetkazgan. Chopar hukumat, viloyat beklari yoki hodisa sodir bo'lgan joyning oqsoqollari tomonidan tayinlangan.

Chopg'un – o'rta asrlarda ko'pincha harbiy yurish vaqtida qo'shinning oziq-ovqati, yem-xashagi va boshqa ehtiyojlari uchun, shuningdek qamalda qolgan aholi va qo'shinning tinkasini quritish maqsadida tevarak-atrof-

dagi qishloqlarga qilingan talonchilik bosqini. Chopg'unda minglab otliq askarlar – chopovullar ishtirok etgan va tez fursat ichida qo'lga kiritgan har bir narsani o'lja qilib olib kelgan. Masalan, 1502-yili Shayboniyxon Hisor va Chag'oniyon ustiga qo'shin tortib borganda Hisor qishloqlarini shu tarzda talagan.

Chorsu – o'rta asr Sharq shaharlarida ikki yirik ko'cha kesishgan joy. Bunday joylarda odatda savdo rastalari, kosiblarning do'konlari joylashgan to'qlar bo'lgan. O'tmishda Turkistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlaridagi chorsular yirik savdo markazlari hisoblangan. Masalan, XVI asrning oxirlarida bunyod etilgan Shahrisabz chorsusidagi kvadrat tarhli binoning to'rt tomonida darvozaxonasi bo'lib, shu darvozalardan yirik savdo zaliga kirilgan. Burchaklarda do'konlar bo'lgan.

Chuhra (chehra) og'asi – xonning shaxsiy saroy soqchilari (chuhra) boshlig'i. Ba'zan «Chuhraboshi» deb ham yuritilgan. Chuhra og'asi xon saroyida xizmat qilgan. Bu lavozim xon e'tiborini qozongan shaxsgagina berilgan. Xonliklar tugatilgach, chuhra og'asi lavozimi ham barham topgan.

Shajara – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog'i – genealogiya fani o'rganadi.

Shayboniylar – Shayboniylar davlatini boshqargan sulola (1500–1598). Asoschisi Muhammad Shayboniyxon. Shayboniyxondan so'ng Abulxayrxonning o'g'li Ko'chkinchixon hokimlik qiladi (1510–1530). Ko'chkinchixon vafoti va uning o'g'li Abusaidning qisqa muddatdagi hukmronligi (1530–1533)dan so'ng taxtga Shayboniyxonning jiyani Ubaydullaxon chiqadi (1533–1539). Shayboniylar o'zlarini Temuriylarning qonuniy vorislari deb hisoblab, safaviylardan Xuroson va Temuriylar davlatining ikkinchi poytaxti Hirotni tortib olish uchun muttasil urushlar olib bordi. Abdullaxon II (1534–1598) Shayboniylar davlatida eng buyuk hukmdor bo'lgan. Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min qatl qilingandan so'ng shayboniylar sulolasi tugadi. Shayboniylardan keyin hokimiyat ashtarxoniylar (1599–1753) qo'lga o'tdi.

Shayx – arabcha so'z bo'lib, “keksa va oqsoqol” degan ma'noni anglatadi. Shayx so'zi faqat keksa, oqsoqollarga nisbatan emas, balki eng avvalo, bilimdon kishilarga, ya'ni olimlar, yozuvchilar, vazirlar, savdogarlar, hatto oliy hukmdorga ham, keyinchalik esa dindorlar, faqihlarga nisbatan

ham qo'llanilgan. Jumladan, o'rta asrlarda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino «Shayx ur-raisi», ya'ni «bosh olim» unvoniga ega bo'lgan. So'nggi davrlarda esa so'fiylik tariqatidagi pirlar, eshonlar, muqaddas joylarning mutasaddilari, avliyolar va xudo yo'liga atalgan nazr-niyozlarni qabul qiluvchi dindorlar ham shayx deb yuritilgan.

Shayx-ul-islom – muayyan mamlakatlardagi barcha islom tashkilotlari boshlig'i – oliy din vakili unvoni. Buxoro xonligi, Usmoniylar va boshqa davlatlarda Shayx ul-islom eng oliy diniy lavozim hisoblangan. Shialikka mansub Kavkazorti musulmonlari diniy boshqarmasi rahbarlari Shayx ul-islom unvoni bilan ish yuritadi. Sunniylikka mansub boshqarmalarning rahbarlari muftiy unvoniga ega.

Shahriston – o'rta asrlarda Sharqdagi shaharlarning markazi, ya'ni mudofaa devori bilan mustahkamlangan shaharning asosiy qismi. Shahristonda saroy, jome masjidi, yopiq yoki ochiq bozor, bosh maydon – registon, muhim ma'muriy binolar, hukmdor va uning yakinarining qo'rg'onlari, shuningdek, oddiy aholi xonadonlari va boshqalar bo'lgan. Qadimgi Buxoro Shahristoni Arkdan alohida qurilgan.

Eshik og'aboshi – O'rta Osiyo xonliklarida xon saroyidagi bosh xizmatkor. Oliy hukmdorning turli qabul marosimlarini o'tkazish ishlariga mutasaddi bo'lgan shaxs.

Ellikboshi – harbiy-ma'muriy unvon. O'rta Osiyo xonliklarida yuzboshidan keyingi mansab. 50 nafar askarlardan iborat harbiy qism qo'mondoni yoki 50 nafar askar ajrata oluvchi mahalla, qishloq yoki ovul rahbari. Ellikboshi mingboshi tomonidan tayinlangan.

Eshon – lug'aviy ma'nosi «ular», «u kishi» degani. Ulug' avlodlarning va so'fiylik oqimidagi diniy rahnamolarning faxriy unvoni. Eshonlar musulmonlar jamoasining boshlig'i, murabbiysi, shuningdek, darvishlarning ham diniy murabbiysi hisoblangan. O'rta asrlarda so'fiylik oqimi rahnamolariga murojaat qilishda ularning ismlari o'rnida «eshon», ba'zan «pir» so'zlari ishlatilgan.

Yuz – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. Asosan Surxon vodiysida yashagan. Ular ikkita katta guruh – vahtamgali va jilantamgalidan iborat bo'lgan. Bularning har biri o'z navbatida yana bir qancha guruhlariga bo'linadi. Etnogenez ma'lumotlari yuzlarning kelib chiqishi Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklari bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. XIX asr davomida yuzlarning ko'pchiligi o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan.

Yalovbardor – bayroq ko‘tarib boruvchi bayroqdor. Movarounnahr va O‘rta Osiyo xonliklari qo‘shinlarida bayroq ko‘tarib yuruvchi maxsus kishilar bo‘lib, ular yalovbardor deb yuritilgan.

Yaso (yosoq) – Chingizxon zamonida joriy etilgan qonun-qoida. Fuqarolar yasoga, ya‘ni qonun-qoidalarga qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor yasovul deb aytilgan.

Yassaviylik – Islomdagi so‘fizmg xos oqim. XII asrda O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida ham keng yoyilgan. Asoschisi – Ahmad Yassaviy. Uning «Devoni hikmat» asarida yassaviylik g‘oyalarni ilgari surilgan. Yassaviylik so‘fizm tamoyillarini qadimgi o‘zbek tilida targ‘ib qilgan. Uning tashviqotchilaridan biri Sulaymon Boqirg‘oniydir.

Yasoq – Mo‘g‘ul imperiyasi, xususan Oltin O‘rda davlati tomonidan itoat ettirilgan xalqlardan natura bilan undirilgan soliq turi.

O‘ngut – qadimgi qabilalardan biri. Rashiduddin Fazlullohnin yozishicha, o‘ngutlar mo‘g‘ullarga o‘xshasa-da, ulardan alohida ajralib turgan. O‘ngutlar Chingizxonga tobe bo‘lib, uning bosqinchilik yurishlarida ishtirok etgan. Chingizxonning vorislari davrida o‘ngutlarning kichik guruhlar O‘rta Osiyoga, jumladan Xorazmga kelib o‘rnashgan va keyinchalik mahalliy xalqlar bilan aralashib, etnik nomlarini unutib yuborishgan.

O‘rda – 1. Turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida harbiy-ma‘muriy tashkilot, manzilgoh. O‘rta asrlarda oliy hukmdorlar qarorgohi, poytaxti. 2. Podshoh, xon yoki biror oliy martabali shaxsning harami.

O‘tarchi – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Ular Dashi Qipchoq ko‘chmanchi o‘zbeklaridan iborat bo‘lib, XV–XVI asrlarda Movarounnahrda kelib joylashgan. Farg‘ona vodiysida, Buxoro va Samarqand viloyatlarida tarqoq holda yashab XVIII–XIX asrlar davomida mahalliy xalqlar tarkibiga singib, o‘z nomlarini unutib yuborishgan.

O‘g‘uzxon – Turk-o‘g‘uz qabilalarining afsonaviy hukmdori. Manbalar O‘g‘uzxonni tarixiy shaxs sifatida izohlamaydi. «O‘g‘uznoma»da keltirilgan afsonaga ko‘ra, O‘g‘uzxon xoqon sifatida bundan 2,5 ming yil ilgari hukmronlik qilib, turk-o‘g‘uz qabilalarining afsonaviy yo‘lboshchisi sifatida ko‘chmanchi chorvadorlarga mansub sulola asoschisi qilib talqin etiladi.

Qavchin – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Qavchinlar XIII asr o‘rtalarida arlot, barlos, jaloyirlar bilan birga Mo‘g‘uliston

hududidan Amudaryoning o'rta va yuqori oqimiga hamda Farg'ona vodiysiga ko'chib kelishgan. Qavchinlar asosan yarim o'troq holda yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ular bir qancha urug'larga bo'lingan. Shulardan eng yiriklari beguchuv, balxi, ko'rpachuvish, bo'zchi, kashmiri, sulaymon, imom, bo'yin, tugal, po'la, sherali, tuyabo'yin kabilardir.

Qal'a – mudofaa maqsadida qurilgan, strategik jihatdan qulay va mustahkam tayanch punkti. Qal'aning dastlabki ko'rinishlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo'lgan. Bunday qal'a atrofi paxsa, tosh va boshqa materiallardan tiklangan devor bilan o'ralgan turar joydan iborat bo'lgan. Keyinchalik qal'a devorining atrofida xandaqlar qazilgan. Har bir qal'ani uning o'z aholisi mudofaa qilgan.

Qiyot – qadimgi turkiy qabilalardan biri. O'g'o'zlar tarkibida bo'lgan. VIII–X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanishgan. O'g'o'zlar davlati yemirilgach, XI asrda qiyot qabilalari ham bo'linib ketishgan. Ularning katta qismi Turkmaniston hududiga siljib mahalliy aholiga, boshqa bir qismi esa Bolqon yarim orolidagi xalqlar tarkibiga singib ketishgan. Dashti Qipchoq cho'llarida qolgan qismi keyinchalik o'zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlarining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Qoraqalpoqlar tarkibidagi qiyotlar uchga bo'lingan (uchtamg'ali, taroqli, bolg'ali). Qashqadaryoning yuqori oqimi, Xorazm va Buxoro vohalari, shuningdek, Zarafshonning o'rta oqimida yashovchi qiyotlar XIX asr oxirlarida qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan. Qiyotlar XX asr boshlarida asosan o'troqlashib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qizilboshlilar – Kichik Osiyo, Suriya va Ozarboyjondagi ko'chmanchi turk qabilalarining birlashmasi. Ular 12 shia imomi sharafiga o'n ikki yo'llik qizil matodan salla o'rab yurishgan. Qizilboshlilar safaviya tariqatining asosiy harbiy tayanchi bo'lib, safaviya shayxlari boshchiligida qo'shni musulmon bo'lmagan mamlakatlarga hujum qilib turishgan.

Qipchoqlar – turkiy xalqlarning eng yirik qabilalaridan biri. Qipchoqlar Rus solnomalarida «polovetslar», Yevropaning ba'zi xalqlarida va Vizantiya solnomalarida «kumonlar» deb atalgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» asarida qipchoqlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Qipchoqlarning ilk ajdodlarining bir qismi VI asrda G'arbiy Oltoidan chiqib, Mo'g'uliston va Tuva yerlariga kelib o'mashgan. Ik-

kinchi qismi esa, Irtish daryosining yaqinidagi dashtlarga ko'chib o'tib, kimaklarga tobe bo'lgan. X asr oxiri – XI asr boshida kimaklar davlati yemirilgach, Qipchoqlar Irtishning g'arbidagi cho'llarda, Ural va unga yaqin yerlarda yashovchi turkiy qabilalarning birlashishi natijasida kuchayib, qadimgi «Mafazat al-Guz» (O'g'o'zlar yeri)ni ishg'ol qilishadi. XI asr boshlarida qipchoqlarning katta bir qismi Volgabo'yi dashtlariga, ikkinchi qismi esa Sirdaryo bo'ylariga kelib o'rnamashadilar. G'arbga yo'nalgan qipchoqlar XI asrning 60-yillarida Qora dengiz va Azov dengizi yaqinidagi cho'llarda hamda Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Don, Dnepr, Dunay daryolari bo'ylaridagi dashtlarda joylashishadi. Oqibatda Tyan-Shanning g'arbiy tarmoqlaridan Dunay sohillarigacha bo'lgan ulkan hudud qipchoqlar qo'liga o'tadi va u yerlar «Dashti Qipchoq» deb atala boshlaydi. Qipchoqlarning asosiy mashg'uloti ko'chmanchi chorvachilik bo'lib, o'tovlarda yashashgan. Keyinchalik qipchoqlarning katta bir qismi Sharqqa siljib, O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida joylashadilar. Qipchoqlarning ko'pchiligi, asta-sekin o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanishgan.

Qozi – shariatda sudya, huquqiy ishlarni hal etuvchi vazifasini bajaruvchi mansabdor. Qozi, shuningdek, vasiylikka, vasiyatning bajarilishiga, meros taqsimotiga tegishli ishlarni amalga oshirgan. Vaqf ham qozi nazoratida bo'lgan. Qozilar hukmi qat'iy bo'lib, ular ustidan faqat xon yoki amirga shikoyat qilishgan. O'rta Osiyo hududidagi qozilar turli darajalarga bo'lingan. Masalan, qozikalon eng yuqori darajadagi qozi bo'lib, u xonlik yoki amirlikdagi hamma qozilar ustidan nazorat qilgan. Buxoro xonligida yuqori tabaqadagi shaxslar uchun hojikalon darajasi bo'lgan. Qozi-ul quzzot – qozikalon o'rinbosari hisoblangan.

Qozixona – qozi tomonidan sudlov ishlarini amalga oshiradigan mahkama. Shariatga ko'ra qozixonalar masjid qoshida bo'lishi kerak bo'lsa-da, ko'pgina sudlov ishlari qozilarning uylarida, bozor kunlari esa bozorlarda ko'rilgan. O'rta Osiyo hududidagi xonliklarda har bir dahada qozixona bo'lgan.

Qorixona – musulmonlarning diniy o'quv yurti. Unda qorilar tayyorlangan. Dastlab arab mamlakatlarida, keyinchalik O'rta Osiyoda paydo bo'lgan. Qorixonalar odatda eski maktablar qoshida va katta mozorlar yonida ochilgan. Qorixonaga eski maktabni tugatgan, 10 yoshdan katta bo'lgan o'g'il bolalar qabul qilingan. Qorixonalarda asosan Qur'on suralari yodlatilgan. Qur'ondagi barcha suralarni yod ayta oladigan bola

qorixonani tugatgan hisoblangan. O'rta Osiyoda, ayniqsa Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qonda qorixonalar ko'p bo'lgan.

Qorovul – Temur va Temuriylar hamda shayboniylar davrida qo'shinning oldida borgan otryad. Qorovulning asosiy vazifasi qo'riqchilik xizmatini o'tash hamda harakatdagi qo'shinning old tomonida nimalar bo'layotganini kuzatib, undan doimo xonni xabardor qilib turishdan iborat bo'lgan. Qorovul birinchi bo'lib jangga kirgan. Shuningdek, xon va sultonning qarorgohini qo'riqlovchilar ham qorovul deb atalgan. Ammo ular bilan qo'shin tarkibidagi qorovul orasida juda katta farq bor. Xon va sultonlar qarorgohini qo'riqlovchi qorovullar xon va sultonlarning mayda xizmatkorlari bo'lib, ular doimo xon va sultonning xavfsizligini ta'minlash hamda ularni qo'riqlash bilan shug'ullangan.

Qurama – o'zbek xalqi tarkibidagi etnik guruhlardan biri. Quramalarning ayrim guruhlari qozoq, qirg'iz va turkman xalqlarining tarkibiga ham kirgan. O'tmishda quramalarining ko'pchiligi o'zbek xalqi bilan aralashib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ularning salmoqli qismi XX asr boshlariga qadar moddiy madaniyati, turarjoy va kiyimidagi ayrim xususiyatlari hamda ba'zi urf-odatları bilan o'zbeklardan farq qilib, o'zlarini azaliy etnik nomlari – «Qurama» nomi bilan atab kelishgan. Quramalarning ajdodlari XV asr–XVI asrning birinchi yarmiga qadar Dashti Qipchoqda yashab kelishgan. Ularning katta bir qismi XVII–XVIII asrlar davomida O'rta Osiyoga ko'chib o'tgan. Dashti Qipchoqda qolgan qurama guruhları qozoq xalqi tarkibiga kirib, ularga aralashib ketishgan. Quramalarning kichik bir qismi Chu daryosining yuqori oqimlariga ko'chib borib o'rtnashib, asta-sekin qirg'iz xalqi bilan aralashib ketgan. Qizilqum orqali siljib o'tgan quramalarning katta bir guruhi Amudaryo qirg'oqlarigacha borib, ko'pchiligi turkmanlar tarkibiga kirgan. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan quramalarning asosiy qismi hozirgi Toshkent viloyatidagi Oqqo'rg'on, Bo'ka, Ohangaron va boshqa tumanlarda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qutchi – qadimgi turkiy qabilalardan biri. Qutchilarning ilk ajdodlari Janubiy Sibirda, X–XIII asrlar davomida esa Qashg'arda va Yettisuvda yashab kelishgan. XIII–XIV asrlarda qutchilarning katta bir qismi hozirgi O'zbekiston hududiga kelib joylashgan va o'zbeklar tarkibiga kirgan. Bir qismi qirg'izlar tarkibida ham mavjud bo'lgan. O'zbeklar tarkibidagi qutchilar allaqachon o'troqlashib, o'zbek xalqi bilan aralashib ketgan. Ozroq qismi esa o'z nomlarini XX asr boshlarigacha saqlab kelishgan.

Bular asosan Zarafshon tizma tog' etaklarida, Urgut atroflarida, Shahrisabz vohasida, Qashqadaryoning yuqori oqimlarida joylashgan. Qutchilar bir necha urug'larga bo'lingan. Eng yiriklari: shix-sayot, moli, movar, qashqari. Qutchilar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

Qushbegi – XV–XVI asrlarda podshoh va xonlar qushxonasining mutasarrufi bo'lgan. Uning zimmasiga ovni tashkil qilish va o'tkazish vazifalari yuklatilgan.

Qo'shbegi – qo'sh, harbiy lager, qarorgohning boshlig'i. XIX asrdan boshlab Xiva xonligi, Qo'qon xonligida xonning birinchi vaziri hisoblangan. Buxoro amirligida esa qo'shbegi mansabi oliy mansab hisoblangan. Mang'itlar sulolasi davrida qo'shbegiga barcha viloyatlarning hokimlari, beklari bo'ysungan hamda amirning poytaxtda bo'lmagan vaqtida xonlikning barcha ishlarini boshqargan. Qo'shbegi mansabidan keyin otaliq mansabi turgan.

Qo'ng'iro't – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri. XX asr boshlarida o'zbeklar tarkibida bo'lgan qo'ng'iro'tlar O'zbekistonning janubiy hududlarida, shuningdek, Zarafshon vodiysida, Mirzacho'l, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yashashgan. Qo'ng'iro'tlar qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, boshqird, nug'oy va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga ham kirishgan. XIV asrda qo'ng'iro'tlarning katta bir qismi Xorazm hududiga ko'chib o'tgan va Xorazmning so'fiylar sulolasi faoliyatida faol ishtirok etishgan. XIV–XV asrlar davomida qo'ng'iro'tlarning ayrim guruhlari Xurosonga, Shimoliy Afg'onistonga va Hisor – Sherobod vodiysiga kelib o'rtnashganlar. Qo'ng'iro'tlar keyinchalik Xorazmning siyosiy hayotida faol ishtirok etishgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr boshlarida Xiva xonligini o'zbek qo'ng'iro'tlari sulolasi boshqargan. Ularning ko'pchiligi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, xo'jaligida chorvachilik muhim rol o'ynagan. Avlodlari asosan tog'li hududlarda joylashgan.

Hijriy yil hisobi – musulmonlar yil hisobi. Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) Makkadan Madinaga ko'chishi bilan bog'liq Hijriy yil qamariya (hijriy-qamariy yil) va shamsiya (hijriy-shamsiy yil)ga bo'linadi. Qamariya bo'yicha yil hisobi 622-yilning 16 iyulidan boshlangan bo'lib, 12 oydan iborat, bir qamariy yil 354 kunga teng. Qamariy yilda 1, 3, 5, 7, 9 va 11 oylar 30 kundan, qolganlari 29 kundan butun qilib olingan. Oylar tartibi bilan muharram, safar, rabiul avval, rabiul oxir, jumodul avval, jumodul oxir, rajab, sha'bon, ramazon, shavval, zulqada

va zulhijja deb ataladi. Qamariy yil tropik yildan, ya'ni hozirgi Grigoriy kalendaridan 10–12 kun qisqa. Shamsiya bo'yicha yil hisöbi 622-yilning bahorgi tengkunlik kuni, ya'ni 21 martdan boshlab hisoblanadi. Keyingi yil boshlari esa 20–21 yoki 22 martga to'g'ri keladi. Davomiyligi jihatdan Grigoriy kalendaridagi kabi 365 yoki 366 kundan iborat. Shamsiya bo'yicha oylarning nomlari hut, hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, javzo va dalv bo'lib, bu oylar doimo yilning bir vaqtlarida keladi. O'rta Osiyoda oldin qamariy hisobi ham, shamsiya hisobi ham ishlatib kelingan.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

1-mavzu. Amir Temur hukmronligi davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi

1.1. Amir Temur va Temuriylar davlati tarixiga oid manbalar	6
1.2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat va buyuk saltanatning tashkil etilishi	14
1.3. «Temur tuzuklari» – davlat boshqaruvi haqidagi muhim tarixiy manba.....	34
1.4. Davlat boshqaruvi tizimi.....	38
1.5. Amir Temur davrida harbiy sohaga e'tibor va harbiy mahoratning yuksalishi	54
1.6. Amir Temur davlati diplomatiyasi	69
1.7. Amir Temur ma'naviyati	82
1.8. Amir Temur davridagi madaniy hayot.....	86

2-mavzu. Temuriylar hukmronligi davri. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot

2.1. Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat (XV asr birinchi yarmi).	102
2.2. Mirzo Ulug'bek – Movarounnahr hukmdori va buyuk olim.....	111
2.3. XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson.	123
2.4. Sulton Husayn Boyqaro – Xuroson hukmdori.	127
2.5. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va davlat arbobi	131
2.6. Zahiriddin Muhammad Bobur – hukmdor va shoir.....	146
2.7. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	153
2.8. Temuriylar hukmronligi (1405–1506-yy.) davrida ilm-fan va madaniy hayot.....	164

3-mavzu. Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro xonligi

3.1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi. Siyosiy voqealar.	172
3.2. Buxoro xonligida davlat boshqaruvi.....	186
3.3. Harbiy ish.....	191
3.4. Yer egaligi munosabatlari. Iqtisodiy hayot. Shayboniylarning pul islohotlari.....	194
3.5. Shayboniylar davlatida madaniy hayot.	206
Shayboniylar sulolasi hukmdorlari	210

4-mavzu. XVII–XVIII asrlar birinchi yarmida Ashtarxoniylar davlati. ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot

4.1. Ashtarxoniylar davlatining siyosiy tarixi. XVII–XVIII asrlarda o‘zbek xonliklari.....	225
4.2. Davlat tizimi va ma‘muriy boshqaruv.....	225
4.3. Qishloq xo‘jaligi. Shaharlar. Hunarmandchilik va savdo	228
4.4. Ilm-fan va madaniyat. Me‘morchilik.....	234

5-mavzu. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

5.1. Buxoro amirligining siyosiy tarixi.....	241
5.2. Amirlikning hududi, ma‘muriy tuzilishi va aholisi.....	251
5.3. Davlat boshqaruv tizimi. Mansablar, unvonlar va amallar.	255
5.4. Yer egaligi munosabatlari. Dehqonchilik va chorvachilik. Hunarmandchilik va savdo-sotiq.	260
5.5. Amirlikdagi madaniy hayot.....	269

6-mavzu. XVI – XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. Iqtisodiy va madaniy hayot

6.1. Xiva xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi.....	274
6.2. Xiva qo‘ng‘irotlari sulolasining siyosiy tarixi.....	285

6.3. Xiva xonligining hududi, ma'muriy tuzilishi, aholisi va davlat boshqaruvi.....	289
6.4. Xon saroyidagi unvon va mansablar	293
6.5. Yer egaligi. Dehqonchilik va chorvachilik	297
6.6. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Shaharlar	300
6.7. Madaniy hayot. Me'morchilik	303

7-mavzu. Qo'qon xonligi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (XVIII–XIX asr birinchi yarmi)

7.1. Qo'qon xonligining siyosiy tarixi.....	309
7.2. Xonlikning ma'muriy-hududiy tuzilishi va aholisi	319
7.3. Davlat boshqaruvi. Mansablar va unvonlar.....	322
7.4. Yer egaligi munosabatlari va soliqlar. Hunarmandchilik, savdo-sotiq.....	327
7.5. Qo'qon xonligida madaniy hayot	335
7.6. XVIII–XIX asrlar birinchi yarmida Toshkent	344

8-mavzu. So'nggi o'rta asrlarda qoraqalpoqlar

8.1. Siyosiy tarix.....	354
8.2. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning o'ziga xosligi	359
8.3. Qoraqalpoqlar madaniy hayoti.....	364
Glossariy	369

B.J. Eshov, A.A. Odilov

O'ZBEKISTON TARIXI

II kitob

(XIV asr o'rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha)

Muharrir	I. Ahmedov
Badiiy muharrir	D. Mulla-Oxunov
Musahhih	G. Azizova
Sahifalovchi	G. Qulnazarova

Nashriyot litsenziyasi AA № 0049. 18.03.2020-yil.
Bosishga ruxsat etildi 28.12.2020. Bichimi 60x84 ¹/₁₆

Bosma tabog'i 25,5. Shartli bosma tabog'i 23,72.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma raqami № 03.

«Kamalak-PRESS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«DONISHMAND ZIYOSI»

ISBN 978-9943-6445-4-0



9 789943 644540

